TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

TO‘LAGAN QOSIMBEKOV

86



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

TO‘LAGAN QOSIMBEKOV





“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.154-3
KBK 84(5Qir)
T 96

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Zuhriddin Isomiddinov, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Zuhriddin Isomiddinov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8571-3-1
©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

TO‘LAGAN QOSIMBEKOV IJODI HAQIDA

G‘alati bir hol. Qirg‘iz adabiyotining tarixi va buguniga qarasangiz, o‘tmishda she’riyat, hozir esa nasr yetakchi ekanini ko‘rasiz. Ulkan “Manas” eposi, To‘qtag‘ul kabi shoirlar ijodi ko‘proq moziy mulki bo‘lsa, Tugalboy Sidiqbekov, Chingiz Aytmatov singari adiblar bitgan asarlar bugungi qirg‘iz so‘z san’atining bo‘yini ko‘rsatadigan namunalar hisoblanadi, qirg‘iz adabiyoti deganda ko‘z oldimizga avvalo ana shular keladi.

XX asr qirg‘iz nasrining eng taniqli vakillaridan biri To‘lagan Qosimbekovning qator romanlari, qissa va hikoyalari ham zamonaviy qirg‘iz prozasining o‘ziga xosligini ko‘rsatadigan, uning yutuqlarini aks ettiradigan asarlardan sanaladi.

To‘lagan Qosimbekov 1931-yilda Jalolobod viloyatining g‘arbiy chegarasi O‘zbekistonning uchta tumaniga tutashadigan Axsi tumanidagi Oqyo‘l ovulida tug‘ilgan. Oliy ta’lim olgach, Bishkekdagi gazeta-jurnallarda oddiy muxbirlikdan bosh muharrirlikkacha, faol jamoat vakilligidan Respublika parlamenti qo‘mitasi rahbarligigacha bo‘lgan ijodiy va ijtimoiy yo‘lni bosib o‘tgan. Ko‘plab hikoya va qissalar, o‘nga yaqin romanlar muallifi. Faol grajdanlik pozitsiyasiga ega shaxs sifatida qirg‘iz jamoatchiligi orasida keng tanilgan, adib sifatida esa yuksak e’tiroflarga sazovor bo‘lgan. Jumladan, 2006-yili Qirg‘iziston davlatining To‘qtag‘ul mukofotini olgan, 2006-yilda esa yozuvchiga “Qirg‘iziston qahramoni” unvoni berilib, “Oq shunqor” medaliga sazovor bo‘lgan, 1998-yilda esa Xalqaro “Ruhoniyat” uyushmasining mukofotiga loyiq ko‘rilgan. Adib 2011-yilda, sakson yoshida vafot etgan.

Biroq “Singan qilich” romani va u bosilib chiqqach (1971) asar tevaragida bo‘lib o‘tgan kurashlar pirovardida avvalgi qo‘rqitish va “tiyib turish” siyosatining mahv bo‘lib, adolatning tantana qilishi adib uchun barcha siylov va mukofotlardan ham a’loroq bo‘ldi. Chunki To‘lagan Qosimbekov bu asarda xalqdan bir asr davomida

yashirib kelingan haqiqatni tasvirlagan, o‘sha davrning siyosiy mashinasi o‘zini bosib-yanchib, majaqlab ketishidan ham tap tortmagan edi-da.

Kitobxon birodarlarimizning yodida bo‘lsa, Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanining oxirgi sahifasida bor-yo‘g‘i ikki abzatsda Chor Rossiyasining Markaziy Osiyoga bosqini haqida bir ma’lumot bitgan edi:

“1277-yilning kuz kezlarida bo‘lsa kerak, Yusufbekhoji Qanoatshodan bir xat oldi. Qanoatsho Avliyo otadan yozar edi:

“O‘g‘lingiz Otabek yana bir kishi bilan bizning qo‘shunda edi. Olmaota ustidagi o‘rus bilan to‘qunishmamizda birinchi safimizni shu ikki yigit oldi va qahramonona urushib shahid bo‘ldi. Men o‘z qo‘lim bilan ikkisini dafn etdim...”.

Yusufbek hoji xatmi Qur’on qilib yurtka osh berdi, O‘zbek oyim qora kiyib ta’ziya ochdi”.

O‘zbek oyimning ta’ziyasi... Bu ta’ziya — o‘zbekning, unga qo‘shilib boshqa qardoshlarimizning yuz yillik azasi bo‘lib chiqdi. Motamlik xonadonda har xil gap aytish ma’qul ko‘rilmagani kabi, Sovet Sharqida ham rus bosqini haqida biron og‘iz so‘z aytish man etilgan, basharti shunga to‘g‘ri kelib qolsa, gapni “bu ixtiyoriy qo‘shilishning progressiv ahamiyati”dan boshlab, shu bilan tugatish shart edi. Ikki abzats boyagi gapni yozgan Abdulla Qodiriy esa o‘sha bosqindan ellik yilcha o‘tib, otilib ketgan.

Shuning uchun bo‘lsa kerak, Abdulla Qodiriydan keyin o‘zbek adiblaridan biron kishi bosh ko‘tarib, bu mavzuni qalamga olishga jur’at etmadi. Va shuning uchun bo‘lsa kerak, “O‘tkan kunlar”dan yarim asr keyin dunyoga kelgan va o‘n yil vaqt o‘tib Tursunboy Adashboyev tarjimasida o‘zbekcha bosilib chiqqan “Singan qilich” romani o‘zbeklar orasida juda iliq kutib olindi, asar muallifining shu romani uchun “ta’qib qilingani, uy qamog‘iga olingani” kabi adabiy mish-mishlar esa uning dovrug‘ini yanada oshirdi.

“Singan qilich” tarixiy romanida qariyb yarim asrlik tarix keng epik panoramada yoritiladi, unda Qo‘qon xonligining ikkinchi sulolasi — Sheralixon va uning avlodlari taxt tepasiga kelishi, davr surishi va mahv etilishi asosiy mavzu qilib olingan. Albatta, muallif buning uchun tarixni chuqur o‘rgangan, o‘nlab muarrix-

larning asarlarini xatm qilgan. Shu bilan birga ochiq aytish kerakki, Sheralixon, uning o‘g‘li Xudoyorxon, Xudoyorxonning o‘g‘li Nasriddinbeklarning, umuman Qo‘qon xonligining eng oxirgi — o‘ttiz uch yillik tarixini yoritishda bu davr ijtimoiy-siyosiy turmushini harakatga keltirgan asosiy kuch qilib qirg‘iz feodallarining faoliyati taqdim etiladiki, bu albatta, o‘sha davr tarixini talqin etishda biryoqlamalikka yo‘l qo‘yilganini ko‘rsatadi. Chunki asl tarix biz o‘ylagandan ham murakkabroq, keng qamrovliroqdir.

Shunga qaramay, bu xonlikning tuzumi, tartibi, qulashi jarayonlarini ko‘rsatishga bag‘ishlangani bois “Singan qilich” bizda qirg‘iz o‘quvchilariga nisbatan ham kattaroq e’tibor topdi. Chunki hozirgi O‘zbekiston va uning tevaragidagi aholi eng katta qismining ota-bobolari aynan Qo‘qon xonligi hududida yashagan. Undagi mahalliy aholiga o‘tkazilgan jabr-zulm lavhalari, chor amaldorlarining qo‘rqinch basharalarini ko‘rsatib bergan voqealar, xonlarning davr siyosatini tushunmasliklari va xonlik tuzumidagi boshboshdoqliklar mustaqillikning qo‘ldan ketishiga olib kelganligiday dadil tasvirlarga o‘zbek o‘quvchilari ilk bora duch keldilar. Roman, aytish mumkinki, ko‘p o‘zbek yoshlari ongida milliy ozodlik tushunchasini uyg‘otdi.

Chunonchi, O‘zbekiston xalq shoiri Xurshid Davronning “Singan qilich” kitobiga bitik” degan she’rida shunday misralar bor:

Tundan qo‘rqma!
Tunni ich!
Va mag‘rur boq saharga.
Singan bo‘lsa gar qilich,
Aylanur u xanjarga.

Mana shu to‘rt misralik she’rda yuz yil avvalgi tarixga nisbatan ongimizga singdirilgan aqidalardan voz kechilgani, endi o‘tmish chinakamiga haqqoniy talqin etilishi, qilich bo‘lmasa, xanjar bilan bo‘lsa ham istiqlolga erishilajagiga to‘liq ishonch barq urib turadi.

Afsuski, bu roman o‘girilgan saksoninchi yillarda bizda senzura juda kuchli edi, chunonchi, Qirg‘izistonda bemalol e’lon qilinadigan asarlar ham bizda ayovsiz qaychilanardi. Shuning uchun

ham asarni o‘zbek tiliga ag‘dargan Tursunboy Adashboyev undagi “qaltis” o‘rinlarni qisqartirgan, qisqartmaganda esa “silliq”lashga majbur bo‘lgan. Bu senzura talabi ekanini xaspo‘shlash uchun kitob sarvarag‘ida “erkin tarjima” deb bitilgan.

To‘lagan Qosimbekov “Singan qilich”dan so‘ng ham tarixiy mavzuga sodiq qoldi; to‘plagan materiallari negizida o‘z qarashlarini yanada rivojlantirib, “Kelkel”, “Chopqin”, “Bosqin” va “Qirg‘in” kabi romanlarini chop ettirdi. XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asr boshlariga qadar hozirgi Qirg‘iziston hududida bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealar tasviriga bag‘ishlangan bu asarlarda — nomidan ham ko‘rinib turibdi — og‘ir, iztirobli hayot To‘lagan Qosimbekovcha haqqoniylik bilan tasvir etilgan.

“Singan qilich” tarjimasi bosilib chiqqanidan qariyb qirq yil keyin o‘zbek adabiyotida ham nihoyat Qo‘qon xonligi va uning tarix sahnasidan chiqib ketishiga bag‘ishlangan asarlar paydo bo‘la boshladi. Sa’dixon Mavlavixon o‘g‘lining besh kitobli ulkan tarixiy romani — “Tanazzul” buning dalilidir. Albatta, ushbu pentalogiya muallifi ham tarixga o‘zicha nazar soladi, o‘sha davr Qo‘qon xonligi voqeligini boshqa nuqtayi nazardan — xon-u beklarning hammasi ham faqat aysh-ishrat va ko‘ngilxushlik bilangina kun o‘tkazmay, yurtni ravnaq toptirishga ham intilganini, biroq tarixiy voqelik bu orzular yo‘liga to‘g‘anoq bo‘lganini dalillashga harakat qiladiki, bu ham har qanday zulmatdan loaqal bir qatim nur topishga intilish sifatida ma’qullanishi kerak.

To‘lagan Qosimbekov ayni paytda kichik hikoyalar ustasi ham edi. Buni dalillash uchun uning ixcham bir hikoyasi ham shu jildga kiritildi.

Qardosh turkiy xalqlarning so‘z san’ati ana shu tarzda bir-biriga ta’sir qilib, bir-biridan ulgi olib taraqqiy etadi, fitrati yaqin bo‘lgani bois qondosh el vakillari ulardan xuddi asliyat asar singari bahra oladi.

Zuhriddin Isomiddinov,
filologiya fanlari nomzodi

TO‘LAGAN QOSIMBEKOV



SINGAN QILICH

Tarixiy roman

BIRINCHI QISM

1865-yil.

General Chernyaev bo‘zrang do‘nglikda yolg‘iz ko‘zli durbin bilan atrofni kuzatib turardi. Bu yerdan unga bepoyon dalagina emas, olisda qorayib turgan begona Toshkent devori, daraxtlar bilan burkangan qishloqlar, soy bo‘ylaridagi shaldiragan qamishzor va nihoyat mo‘r-malaxday bostirib kelayotgan besanoq askarlar ko‘zga yaqqol ko‘rinardi. Saf-saf otliqlar ketidan orti ko‘rinmay chuvalangan piyodalar kelardi. Oyoq ostidan ko‘tarilgan chang bir muddat ko‘kka o‘rlab, yana ohista maysalarga, yashil yantoqlarga inardi.

Uzoqda ot kishnadi. Odamlarning g‘ala-g‘ovuri quloqqa chalindi. Qo‘qonliklarning bu qadar puxta tayyorgarlik bilan kelishini general kutmagan edi. Biroq uning oq-sariq yuzidan xavf-xatar sezilmasdi, g‘alabaga esa shubhasiz ishonardi. Qaytaga hech narsani sezmayotganday, jigarrang mo‘ylabini silab takabburona qarab turardi. Bu egri qilich tutganlarni birinchi marta ko‘ryaptimi? Tezotar miltiq bilan qurollangan bir yarim ming soldati, bu yer u yoqda tursin, hatto yevropaga yurish qilishga yaraydigan puxta artilleriyasi bor. Nimadan xavfsirashi mumkin? Qandaydir biror xatarga asos bo‘ladigan sabab yo‘q.

Shu paytda qo‘qonliklar lashkarboshisiz ham qulay yerga yetib kelgandi. U oq arg‘umoq tizginini tortib bepoyon dalaning orqa-oldiga, adirlar oralab joy tanlab, bo‘linib ketayotgan qo‘shinlarning boshi va oxiriga nazar tashladi. Ko‘zlari qontalash, rang-ro‘yi oqargan, uyqusizlik tufayli ajinlari quyuqlashgan edi. Buning ustiga egnidagi yengsiz qora kimxob avra chopon ot sag‘risida chuvalanib, jussasi kichik qariyani yanada ko‘rimsiz qilib qo‘ygandi. Qushni yirtqich qilgan tirnog‘i, odamni sirli qilgan mansabi. Bu ko‘rimsiz chol atrofida turgan navkar va udaychilarga ko‘z qirini tashlab qo‘yarkan, birov bilan so‘zlashmasdi, bitta-ya-

rimta bilan maslahatlashmasdi, u qo‘lini soyabon qilib chor atrofga tikilar, sekingina imo-ishora bilan o‘ng va chap qanotga zarur buyruqlarni berib turar edi.

Uch kundan buyongi tayyorgarliklar tugab, sir-asrori mutlaqo yashirin bo‘lgan har ikki yov asta-sekin bir-biriga yaqinlashib kelardi. Suvorilar yo‘lni tez-tez o‘zgartirib, goho ot o‘ynatib, goho tin olib olg‘a siljirdi. General Chernyaevning ayrim qismlari nog‘ora sadolari ostida o‘zining kuch-qudratini ko‘rsatib qo‘yish maqsadida kunbotish tarafdan hujumga tashlandi, zambaraklarning yurakni titratuvchi ovozlari bilan qo‘qonliklarning chap qanotini yorib o‘tdi. Bir tekis oq libos kiygan soldatlar o‘q yetkuday masofadan uncha o‘tmay, saf tortib yoppasiga jangga kirdi.

Iyak eti tirishib, qontalashgan ko‘zlari chaqchaygan askarboshi qo‘lidagi qamchisini peshonasiga tirab xayolga toldi. Navkarlar lol bo‘lib, buyog‘i endi nima bo‘ladi, deganday askarboshiga zimdan ko‘z yugurtirib, mum tishlaganday uning og‘zini poylab turishardi. Askarboshi nihoyat dedi:

— Chirnay poshsho qilichbozlikdan qochib o‘qi yetadigan masofadan turib qirmoqchi shekilli?

Unga yaqin turgan Abdumo‘minbek bosh irg‘ab:

— Bu kopirning fikri-o‘yi shunday shekilli, taqsir, — dedi. Askarboshi o‘ylanib qoldi. Qontalash ko‘zlari chaqchaygan askarboshi tobora o‘tli halqaday qisib kelayotgan dushmanlarni ko‘rib bezovtalandi. U asta buyruq berdi:

— Hujumga!..

U dushmanni zambaraklaridan alahsitib, yog‘ilayotgan o‘qqa qaramay saflar o‘rtasidan yorib kirib hammasini birma-bir qilich damidan o‘tkazmoqchi edi. Shunday qilsa general Chernyaev temir qurshovda qolardi. Shunday bo‘larmikin? Buni general fahmlayotgandi yoki unga bu haqda birov shipshitganday tipirchilab, o‘zini qo‘ygani joy topolmay qoldi, joni hiqildog‘iga kelib, toqati toq bo‘ldi. U chap qanotga yopirildi.

General Chernyaev durbinni ko‘zidan oldi. Bir dam shunchaki qarab, oraliqni ko‘zi bilan chamalab oldi-da, pistirmada turgan otliq kazak askarlarning ikki qanotga biryo‘la o‘q otib hujumga o‘tishi uchun buyruq berdi. Uning maqsadi qo‘qonliklar ko‘plashib

biryo‘la jangga kirguday bo‘lsa, otish bilan birga darhol ortga chekinish va sipohiylarni zambaraklarga yem qilib bo‘lsa ham fursatni qo‘ldan bermay yana olg‘a intilish edi. General durbinni qayta qo‘lga oldi. Qizil ust-boshli sarbozlar nari-beri yugurib xitoycha deb atalmish kichik zambaraklarni do‘nglarga o‘rnatish bilan ovora edi. Ulardan beriroqda, sipohiylarning yuqori qismida esa merganlar piltalik miltiqlaridan tez-tez o‘q uzib turishardi. Qaysi tomonni nishonga olishyapti o‘zi? General payqay olmadi. U o‘z oldidagi o‘qchilar rotasining saralangan safini ko‘zdan kechirdi. Yiqilgani yoki qatordan ortda qolgani ko‘zga chalinmadi. Shundan so‘ng durbinda qo‘qonliklar qo‘shinining markaziy qismi generalga yaqqol ko‘rindi. Bo‘z adir... Bir to‘p otliqlar... Asta chap qanotga bostirib borishyapti... General oldinda borayotgan oq otliqqa tikildi.

— Olimqul... Mashhur askarboshi... Xuddi o‘zi... — dedi oq-sariq yuzi, moviy tiniq ko‘zi yonib. — Ha... Oldingi qismga o‘zi kelgan ekan-da...

Oq tulpor mingan askarboshi o‘z atrofidagi saralangan sipohiylarni o‘qdan olislatib, bir oz ortga qaytishga buyruq berdi-da, o‘zi bir talay udaychi bilan general Chernyaevning old qismidagi kuchlari yo‘lida to‘xtadi. O‘q chiyillab kelib yaqin oraga tusha boshladi. Arg‘umoq pishqirib, quloqlarini chimirib, yaqinlashib kelayotgan begona kishilarni bilganday suvlig‘ini chaynab, depsinib bezovta bo‘la boshladi. Nima uchun? Askarboshi qilichni o‘ynatib, tizginni bir oz bo‘shatdi-da, uzangiga tiranib qiyqirib hujumga o‘tdi. U dushmanlarning e’tiborini o‘ziga jalb qildi. Olishuv qizib ketdi. Xitoycha zambaraklar tinim bilmasdi. Lekin u rus zambaraklarining oldida hech narsa emasdi. Garchand mo‘ljalga borib yetmasa-da, sarbozlar ustma-ust otishardi. Askarboshi hamon do‘ngda turardi. Shu mahal unga yaqin yerdagi navkarning oti kishnab, munkib ketdi-da, ag‘darilib tushdi. Egasi ostida qoldi. Atrofdagilarning quti o‘chdi. Faqat askarboshigina o‘lim izlab kelganday o‘jarligi tutib, otini o‘ynatdi-da, shiddat bilan jangga otildi.

General Chernyaev hammasini ko‘rib turardi. Askarboshi unga hovliqma yigitday ko‘rindi. U durbinni ko‘zidan olib miyig‘ida kuldi.

— Ajabo! Sharqda o‘qqa qarab borish hamon caqlangan ekanda. O‘q botirni ayarmidi? Askarboshi ana shu boshi bilan o‘limga qarab kelyapti-ku...

— Mening bilishimcha, bu basiz degan kichik bir ko‘chmanchi urug‘dan chiqqan kishi, — deb eslatdi generalga yaqin turgan harbiy kiyimdagi sharqshunos. — Qo‘qon xalqining tinib-tinchimagan, urishqoq yetakchisi, rahbari ana shu. O‘sha munkaygan qariya o‘zaro janjallarda kelishmay tarqab ketgan urug‘larni farosat va aqli, ustomonligi bilan uch yil ichida iloji boricha qaytadan birlashtirdi. Urushga layoqatli qilib tarbiyaladi.

Generalga bu gaplar yoqmadi. U qarshi tomonga ko‘z yugurtgan bo‘lib o‘zicha g‘udranib qo‘ydi:

— Endi bari bir kech bo‘lib qoldi. Qanchalik urinmasin, quruq baqirib-chaqirib, o‘qqa yalang‘och to‘shini tutib berish bilan cheklanadi...

— Ha, bu-ku tayin gap.

General yerga tupurib, oppoq dastro‘moli bilan yuzini artdi-da, jigarrang mo‘ylabini silab, oq otli to‘daga to‘plar bilan zarba berishni buyurdi.

— Qani, botirligini ko‘ramiz...

U durbinni yana ko‘ziga yaqinroq tutdi. Shu damda to‘plarning dahshatli yadrosi do‘ngni chang-to‘zonga chulg‘ab, atrofni ostin-ustin qilishini, oq arg‘umoqning pishqirib, qiziqqon egasini ko‘tarib qochishini tomosha qilgisi keldi. Yo‘q.... Oq arg‘umoq do‘ngda yo‘q.

General Chernyaev ko‘zini artib, yana qaradi. Har yer-har yerda ko‘k yantoq bilan otning o‘ligi qorayib yotibdi. Xuddi shu kezda o‘ng va chap tomondan ko‘p qo‘shin paydo bo‘ldi,

— Qari tulki aldamoqchi bo‘libdi-da. O‘rab olmoqchi shekilli! — dedi general Chernyaev. — Bir oz orqaga! Tez!

Aloqachi buyruqni oldingi o‘qchilar rotasiga yetkazdi. Generalning rangi o‘chib ketdi. Biroq qaroridan tezda qaytib, ishonch bilan gapirdi:

— Tez! To‘plarga tayanib atrofni himoya qilib turaylik-chi. Ha, aytmadimmi, bularning o‘qqa yuzma-yuz keladigan odati bor deb. Mayli, olachoponlaridan o‘q o‘tmaydigan bo‘lsa, yaqinroq

kelaverishsin! — deya general oldingi to‘daning yaqinroq kelishini sabrsizlik bilan kutib, bezovta bo‘la boshladi. Bordi-yu, qanotdagi otliqlar to‘plarning ortidan chiqib qolsa-chi?..

Xuddi shu o‘y qo‘qonliklar askarboshisining yuragini ham tahlikaga solardi. Ko‘zdan olis qochirmay, dushmanning bir qanotini quyunday iskanjaga olib zarba berish, mo‘ljalga olgan yo‘nalishidan alahsitib qilichbozlik qilishga majbur etish... Ha, buning uchun o‘qqa bardosh berish kerak. Shunga chidasa, yo g‘alaba qozonadi, yo xasday to‘zib qiriladi. Qochib qayga borasan? Qachongacha qochib yurasan?.. U bir yerda turolmay, bo‘lajak to‘qnashuv dardida yonardi, har bir jangchisining oldiga iltijo bilan borishga ham shay bo‘lib, ich-etini yeb, qo‘shinni hujumga safarbar etardi.

— Ol, ha! Ol! Qashqir tuzoqqa ilindi... O‘zi kelib tushdi. Ol, ha! O‘rab olinglar... Oyoq osti qilinglar...

Behisob qo‘shin yopirildi, saflar bo‘ronday shiddat bilan o‘kirib, general Chernyaevning chap tomonini yorib kirdi. Tavakkalga ko‘nikib qolgan sipohiylar archa o‘tiniday sachrab, ajal qanoti ostida qilichlarini o‘ynatib, otliqlardan ancha oldinda borishardi. Ol, ha! Ol! Ur! Qiyrat! Qichqiriqdan yer-u osmon larzada. Otlarning tuyog‘idan olov chaqnaydi. General Chernyaevning balandlikka o‘rnatgan zambaraklari biryo‘la olov purkab, yo‘lni to‘sa boshladi. O‘q yegan uchqur arg‘umoqlar o‘liklarning ustidan sakrab tumtaraqay qochar, ba’zi otlar esa chalajon jangchilarni uzangi bilan sudrab, kishnab borardi. Qon isi, o‘q-dori hidi havoni tutib ketdi.

— Ol, ha! Ol! Qurshab olinglar! Kunpayakun qilinglar! Ol, ha! Ol! Bobolarning arvohi qo‘llasin Ol, ha! Ol!..

Askarboshining ovozi goho buyruqday jaranglardi, goho nafasni bo‘g‘adigan jang to‘zoniga aralashib, zaiflashib ketardi, ba’zan esa qalandarning g‘amgin ashulasiday qon va porox hidi bilan omixta bo‘lib havoda yangrardi.

General Chernyaev atrofni muhofaza qildi. Kazaklar otdan tushib, yer bag‘irlab, soldatlar bilan birga o‘zlarini miltiqlar bilan himoya qilarkan, asta-sekin chekinishga majbur bo‘lishdi. Qo‘qonliklar qirg‘inga qaramay, qaysarlik bilan hamon selday olg‘a bosib borardi. Takabburlik bilan jilmayib turgan general Chernyaevning

chehrasi tundlasha boshladi. O‘q qanchaga yetarkin? Sipohiylarning sabr kosasi-chi?.. Uning yuragini hapritib sarbozlarning keti tugamasdi.

Askarboshi jang vaqtida yonidagi navkarlaridan ajralgan edi. Yolg‘iz udaychisi qolgandi. U soyadek ergashib yurardi. Uning oti qora bo‘lib, basharasi ham qora, sovuq bir kimca edi. Udaychi labini qimtib, kichik ko‘zlarini askarboshidan uzmasdi. Qo‘lida qora piltali miltiq. Piltasidan sira cho‘g‘ni o‘chirmaydi. Askarboshi chang-to‘zon ichidan arg‘umog‘ini yo‘rttirib, qilichini o‘ynatib, qor ko‘chkisiday dahshat bilan olg‘a siljib borayotgan qo‘shinga qarab:

— Ol, ha! Ol! — deya qichqirdi, so‘ng o‘zini bosdi. Udaychi ikki tomonga tez-tez ko‘z yugurtirdi. Uning oqi deyarli bilinmaydigan ko‘zlari olislarga qadaldi. O‘zi nima gap? U otidan irg‘ib tushdi. Unga hech kim e’tibor bermadi. U o‘zini qora otning panasiga oldi-da, miltig‘ini shosha-pisha otning yolidan oshirib nishonga oldi. Uning yuragi qattiq-qattiq urardi, u o‘zidan-o‘zi cho‘chib, miltiqni yana tushirdi. Yana atrofga alangladi, engashib otning qora yoliga qurolini qo‘yib to‘g‘riladi... Dam o‘tmay miltiqning varanglagan ovozi eshitildi. Askarboshi sulayib og‘ib borarkan, ohista qayrilib, iyagini siypalaganicha turib qoldi. Hudaychining kichik ko‘zlari yaltirab, qo‘llari qaltirab, beli bukchayib, ot jilovini tortdi, asta orqasi bilan yurdi. Askarboshi ot ustida qalqib, bir oz hushiga keldi va orqasiga qayrilib qaradi. Lablaridan qon sizib, xirillagan ovozda udaychini yordamga chaqirdi. Hudaychi javob qaytarmadi, u qaltiray-qaltiray otiga mindi-da, yeldirib, go‘yo bir soyaday juftakni rostlab qoldi...

Askarboshining ko‘ngli ozdi, yarador bo‘lganini bildi. Qandaydir bir nima unga dalda berib, uyqudan uyg‘otayotganga o‘xshardi. Oq arg‘umoqning kumush yolini mahkam tutdi. Qilichi tushib ketdi, engashib uni olmoqchi bo‘ldi. Ammo darmoni qurib, egardan og‘a boshladi. Arg‘umoq bir aylanib depsindi-yu, to‘xtab qoldi. U uzangiga tirmashdi. Jonholatda chiranib, turmoqchi bo‘ldi. Chakkalaridan qora ter quyilardi. Lablaridan silqiyotgan qon ko‘kragiga sizardi, uzangi qo‘lidan chiqib ketib yerga yiqildi...

Arg‘umoq qon hididan hurkib ketdimi, haytovur tizginiga o‘ralib asta yurib ketdi.

“Oh, taqdirning o‘yini... Axir Olimqul xon otalig‘i emasmidi? Butun bir ahil yurtning boshlig‘iman demasmidi? Ahli donishlarni tanlab yor-u birodar orttirmaganmidi?! Ular qayda? Qayoqqa ketishdi? Holdan toyganda qo‘ltig‘idan oladigan biror kimsa bo‘lmasa-ya?..”

U tayanib, oxirgi marta boshini ko‘tardi. Qanoti qayrilgan burgutday olisga, yorug‘ olamga armon bilan tikildi. Ko‘ziga yer olov bosib kelayotganday qip-qizil ko‘rindi. Xor-u xas va toshlar, suyaklari bo‘rtib turgan qora qo‘llari ham olov ichida edi. O‘qqa tomon ot yeldirib borayotgan jangchilar ham qochishga yo‘l topolmay, sarson-sargardon, o‘tda yonayotganday tuyulardi. Uning ko‘zini qon bosayotgandi.

Navkarlar xiyla orqada ot yoliga engashib, jang borishini kuzatisharkan, birdan tizginiga o‘ralib yurgan egasiz oq arg‘umoqni ko‘rib qolishdi, atrofdagilarning avzoylari buzilib, ranglari o‘chdi.

Shunda kimdir:

— Yo, ajabo!.. — deb yubordi.

Hamma ko‘rdi. Yopirilib arg‘umoqni ushlashdi. Shu mahal ular turli o‘ylarga bordi. Bir-biriga qo‘rqa-pisa gumonsirab, dimog‘-firoq bilan qarashardi. Xon otasi qayda? Qanday hodisa ro‘y berdi? Hamma oq bedov kelgan tarafga yo‘l oldi.

Olimqul ikki tup yantoq o‘rtasida yuztuban yotardi Bir talay qon tuproqqa singib ketibdi. Chalqanchasiga ag‘darishdi.

Unga engashib qarab turgan eng yaqin kishisi Abdumo‘minbek o‘zini bosolmadi. Birdan yig‘i ko‘tarilib, yana bosildi. Nima qilishni bilishmasdi. Ba’zilarning ko‘zidan yosh betinim oqardi. Ayrimlar ich-ichidan o‘ksirdi. Boshqa birovlar esa bu to‘pdan bir iloj qilib tezroq chiqib ketish chorasini izlab, lablarini qimtirdi.

— O‘q orqasidan tegibdi.

— O‘q qaydan chiqdi? Kimdan chiqdi?..

Abdumo‘minbek o‘zini tutolmay yer mushtladi:

— Bir ko‘zing ikkinchisiga yov!.. Qanday kunlarga qoldik?.. Udaychilar qaerda?.. Ko‘zingga cho‘g‘ tushgurlarni ushlanglar. Birortasini ham qo‘ymay tutib kelinglar!

Ha, faqat o‘sha rangi sovuq udaychi topilmadi. Shu kezda u Toshkentga qarab chang to‘zg‘itib qochib borardi.

Bu shumxabar qo‘shinga shamoldek tez tarqaldi. Hujumga shaylanib borayotgan jangchilar beixtiyor tezginni torta boshladilar. Mingboshilar, ponsotlar sarosimaga tushib qoldi, bir-biridan gumonsirardi, o‘zlarini avaylardi. Kimga quloq solishadi? Kimning buyrug‘ini bajarishadi? Hech kim bunday qilaylik, deb oldinga chiqmadi. Yer-u ko‘kni tutgan qo‘shin shunday dolzarb paytda askarboshidan judo bo‘ldi...

Qo‘shinning oldi general Chernyaevning ortiga yetib qolgandi. Shu pallada ko‘z ochirmay kelayotgan otliq qo‘shin bexosdan siyraklashib, shamol boshqa tarafga haydagan tumanday jangdan chetlab borardi. Oldingi qism ko‘maksiz qoldi. Tosh otsa yetkuday masofadan otilgan o‘qlardan jangchilar yerga tutday to‘kilardi.

General Chernyaev vaziyatni yaxshiladi, o‘zini rostlab, ikkinchi hujumga shaylanib turdi. Bu galgi hujum qayoqdan bo‘larkin? U durbin bilan hujum qilinishi mumkin bo‘lgan yerlarni sinchiklab kuzatdi. Gumonga asos yo‘q. Har qaysi do‘ng ortidan mayda tug‘ — bayroqchalar ko‘zga tashlanib, do‘lning bir maromdagi ohangi eshitilardi. Generalning ko‘z o‘ngida hozirgina qaytadan to‘plangan qo‘shin tug‘lar ortidan yurib, noma’lum tarafga betartib tarqala boshladi. Bularga nima bo‘ldi? Bunday paytda askarboshi qo‘shinni tashlab ketishi aql bovar qilmaydigan ish-ku? General ishonmasdi. Qarigan qashqir yana bir ayyorlik qilmoqchi shekilli?.. .

— Bularga nima bo‘ldi? — dedi general Chernyaev qayta-qayta durbindan qararkan. — Mana senga Sharq. Hech bir kutilmagan tasodiflarga duch kelasan.

O‘ynoqlagan oq bedov negadir sira durbinga ilashmasdi.

II

Yashil o‘zan...

Bir-biriga tutashib ketgan qalin qamishzor. Rang-barang ko‘katlar qulf urib, yovvoyi bedalar noparmon tusda qiyg‘os gullagan edi, qoqi o‘tlar shabadada tebranardi, ermanning boshi mis rangda tovlanardi. O‘t-o‘lanning xushbo‘y hidi dimoqqa uriladi. Katta-kichik oq, sariq kapalaklar bir zumda ko‘kka ko‘tariladi,

keyin asta qo‘nib, nimadandir hurkkanday yana uchib, toza havoda sayr qilishardi. Sukunatni chumchuqlarning chirqillashi buzadi, xolos.

Tangriberdi yashil adir oralab yolg‘izoyoq so‘qmoqdan qulunli zotdor biyasini yetaklab, o‘zan tomonga tushib keldi.

Yashil o‘zan chetida yo‘lovchi qo‘nib o‘tadigan yolg‘iz katta shotut tarvaqaylab ketgandi. Nortuyaning bo‘yniday yo‘g‘on, egri-bugri shoxlari qalin, soyasi quyuq edi. Shabada bo‘lsa-bo‘lmasa yaproqlari ohista tebranib, hamisha shivirlab turardi.

Tangriberdi biyasining ayilini bo‘shatib, suvlig‘ini chiqarib, yovvoyi bedazorga qo‘yarkan, uning qanjig‘asiga bog‘lab qo‘yilgan qo‘lbola sanochdagi qimizni yechib oldi, bamaylixotir tutning soyasiga keldi va uni butoqqa ildi. Ikkita chumchuq tut shoxining orasidan quvalashib chiqdi-da, yana o‘rniga qo‘nib, chirqillay boshladi. Qariya chumchuqlarning xatti-harakatiga, parvoziga havas bilan boqar va, odatiga ko‘ra, keksalarga xos bo‘lgan kayfiyatda umriga, turmushiga shukrona keltirib, arpazorga nigoh tashladi. Qachon pisharkin? U bugun ham arpasidan xabar olgani kelgan edi.

Erta haydalib, o‘z vaqtida suvga qongan, yaxshigina bosh olgan arpalar boshini ko‘tarolmay, biri ustiga biri egilib qolgandi, qiltiriqlari oltin tusga kirib borayotgani, doni esa xiyla qotib qolgani uni xushnud etardi. Qariyaning chehrasi yorishib, ko‘zlari chaqnab, bir bosh arpani uzdi-da, kaftida ezdi, uning yirik-yirik, ko‘m-ko‘k donalarini mehr bilan kuzatib bosh irg‘adi:

— Ha! Tunov kuni sut edi. Bugun dumbul bo‘libdi.

Ko‘pi bilan yana bir haftadan keyin bir chekkadan o‘roq solib, oshliqqa ishlatsak bo‘laveradi, Xudo xohlasa.

U donni yerga tashlagisi kelmadi. Qaytaga tozalab nos chekkanday og‘ziga soldi. Qariyaning nigohi olislarga qadaldi. Chol atrofni qo‘rg‘onday qurshagan qorli cho‘qqilar, kumushrang bulutlar, tog‘ tomonga og‘ib borayotgan barkashdek quyoshni kuzatarkan, kaftida qolgan arpa qipig‘ini qoqib tashlab, tuzsiz don shirasini tamshaganicha qo‘lini beliga tirab arpazorni aylandi.

U oriq, novchadan kelgan kishi bo‘lib, soqoli va sochi moshkichiri edi. Soqoliga tutashib ketgan siyrak mo‘ylabi oppoq qirovga o‘xshardi. Bir oz yo‘g‘on, beso‘naqay o‘siq qoshlarigina tim

qora edi. Yuzi sarg‘ish, ajinlari yoqimli, mundoq qaraganda aqlli, salobatli ko‘rinadi.

Naryoqdan otliq bir kishi shotutga yaqinlashdi. U kim ekan-a? Qariya ko‘zlarini artib, otdan tushayotgan odamga zehn soldi va shoshilmay bu yerga keldi. U dastlab bog‘langan otga qaradi, tanimadi. Otning egasi qo‘lini orqasiga qilib suv tarafga qarab turardi, qo‘lida buklangan qamchin bor edi. U cholning oyoq tovushini eshitib burildi va unga peshvoz yurdi. Qariya sal cho‘chibroq bir navi salom berdi. Qo‘l olishib so‘rashgach:

— E, qushchi Sariboy ekansan-ku, Kel, kel... O‘tir, o‘tir... — Sariboy kuldi. — qaysi shamol uchirdi? — Tangriberdi qo‘qqisdan kelgan mehmonga shoxga tashlab qo‘ygan qora echki po‘stagini solib, o‘zi yerga cho‘kkaladi. Yaproqlar orasidan tushgan kun nurida qizigan bir parcha yer tafti cholning tizzasiga xush yoqdi. — Sariboyim... hech kelmasding, xo‘sh, yo‘l bo‘lsin?

Sariboy sariq soqoli siyrak, ko‘zining usti bo‘rtib chiqqan qotma kishi edi. Egnida unniqib ketgan qashqari choponi hamda gulli keng cholvori o‘ziga yarashgan edi. Oyog‘ida tumshug‘i qayrilma etik, qo‘lida kumush sopli qamchi.

— Bekorchilik, Tangriberdi aka. Burgutim tulab, ovim baroridan kelmayapti...

— Bekorchi bo‘lsang, yaqinda tarig‘im bosh oladi, kelib tariq o‘risha qol! — deb Tangriberdi qariya hazillashib hiqillab kula boshladi. — Burgutingni tutga qo‘ndirib qo‘ysang bo‘ldi, chumchuq zoti bu atrofga yo‘lamaydi.

Sariboy kulib, u ham hazilga yarasha javob qildi:

— Burgutimning tirnoq haqi qanchadan tusharkin, Tangriberdi aka?

— Teng sherik.

— Unda har yili burgutimni tutingizning shoxiga qo‘ndirib qo‘yib, mehnatingizga teng sherik bo‘laveraman, Tangriberdi aka!

— Mayli...

— Xa-xa-xa! Unda ot terlatmay, uyda yotib bola-chaqa boqar ekanman-da!

Birgalashib kulishdi. Keyin Tangriberdi qora qoshlarini chimirib:

— Yaxshi, Sariboyim, — dedi. — Tirikchilik emas. Arpa endigina dumbul bo‘ldi. Bir oz bo‘lsa-da, bolalarga quyqalib bersammikin, degan xayolda kelgan edim. Har kuni ko‘rib turmasang bo‘lmaydi. Mol-holdan cho‘chir ekansan kishi. O‘zing bilasan, narigi qora adirning naryog‘i ovul, bu yog‘i bo‘lsa toshloq. E, shunday qilmasa ish yurishmaydi, bolalarga yegulik oziq bo‘lsin deb...

— Ha, endi, Tangriberdi aka, tirikchilik-da. Dehqonchilik har qalay bir yoqlamalik ish ekan.

Chorva ortidan yem-xashakning gulini, suvning tinig‘ini, havoning salqinini qidirib ko‘chib yurgan elatda kamdan-kam odam dehqonchilik bilan shug‘ullanadi. Bu kasbning qadriga yerni ulug‘lagan, donning mazasini bilgan kishigina yetadi. Yo bo‘lmasam, ayrim menga o‘xshagan kishilar itni ergashtirib, qopqon qo‘yishadi, qush bilan ov qilishadi, goho qushni olat va urug‘larda buni zamonaning zayli deb tushunadiganlar ham yo‘q emas. Sariboy qushchi Tangriberdining ko‘ngli uchungina shunday dedi. Dala-tuzdan istagan narsasini o‘lja qilib, kamlik ko‘rmay, choponi to‘zimay, hamisha quvnoq hayot kechirgan ustasi farang Sariboydek ovchining ayni vaqtida dehqondan o‘zini ancha past tutishiga aslo toqati yo‘q. “Bizning rizqimizni parvardigor tog‘ga sochgan”, deydi. Bu uning tirikchilik o‘tkazish yo‘lidagi falsafasi. Hozircha bekami ko‘st yashayotgan ovchi qo‘lidagi kumush qamchisini o‘ynatib kulib o‘tirardi.

— Sizning yoshingizga yetgan ham bor, yetmagan ham.

Shu boisdan bir ko‘rib o‘tayin dedim, Tangriberdi aka.

— Xudo xayringni bersin, Sarim...

— Qo‘lim quruq bo‘lmasin deb... — Sariboy guldor charm xaltasini titkilab, chiroyli terini qariyaning oldiga tashladi. — Tangriberdi aka, uchrashuvimizdan xotira. Shu silovsinni telpak qilib kiyarsiz.

Tangriberdi silovsinga qo‘l uzatishini ham, uzatmasligini ham bilolmay hayron bo‘lib qoldi. Sariboy sinovchan tikilib, sovg‘asi bilan cholni mamnun etgani uchun o‘zi ham quvonib ketdi.

— Dastlabki qordan so‘ng ovga chiquvdim... Shu o‘lja ilindi... Yomon bo‘lsa-da, yaxshiday ko‘rarsiz, Tangriberdi aka.

Tangriberdi o‘rnidan turib, kulrang silovsin terisini tumshug‘idan silkitdi, bo‘yi bo‘yi bilan barobar ekan, dumi yerga tegib turibdi, kumushrang junlari tovlanib, teri yanada ko‘rkam tusga kirdi.

— Yomon deganing shu bo‘lsa! — dedi Tangriberdi ko‘zi o‘ynab. — Telpakka kattalik qiladi. Ha, mana ko‘rgin... Juda katta... Buni ichikka yoqa qildirsam bo‘lardi. Telpakning ham iloji bo‘lib qolar.

— Ha, mayli, Tangriberdi aka, telpakning davosi bitta tulki!

— Bu boshqa gap, qushchim!

Tangriberdi sanochdagi qimizni yechdi. Uning og‘zini himarib damodam ichishib, yayrab allamahalgacha suhbatlashib o‘tirishdi. Gurungni sog‘inib qolgan Tangriberdi quyosh og‘ib ketgunga qadar Sariboyni yonidan jildirmadi.

Kunbotish oldida Sariboy:

— Endi men borayin, Tangriberdi aka, — deb o‘rnidan turdi, — mana uchrashdik, bu dam g‘animat...

Tangriberdi paysalga soldi:

— Obbo, Sariboyim, qaytasanmi... Shu ko‘k chalopni ichib, uyga kirmay ketaverasanmi?

— Rahmat! Yemay-ichmay yurgan yerimmidi? Omonlik bo‘lsa, hali ko‘p gaplashamiz, Tangriberdi aka.

Tangriberdi tishsiz iyagini siypalab, xursandligidan og‘zining tanobi qochdi;

— Mayli, endi Sariboyim... — deb mehmonni qo‘ltig‘idan olib otga mindirdi. — Bir qizil ko‘z tog‘amiz bor edi, deb eslab kelganing uchun rahmat, ukam. Xudo o‘zi qo‘llasin. Sen meni qo‘llasang, Alloh seni yorlaqasin. Endi... Quruq qaytyapsan... G‘alla pishganicha yo‘q... Tagingda oting bor, mana bu ekinlar pishganda bir kel. Otingga yem, qishda bo‘za solgani arpa bilan tariq olib ketasan... Xayr, Sariboy!.. — dedi.

— Omon bo‘laylik... — dedi Sariboy jo‘nar ekan, — yaxshi qoling, Tangriberdi aka!..

Orqasidan Tangriberdi ovozini balandlatib, yana bir bor beradigan narsasi borligini quloq qoqishtirib qo‘ydi:

— Shunday qil, Sariboy! Bir kelib ketgin. Yodingdan chiqarma, Sariboy!..

Tangriberdi qaytib kelib, tut shoxida osilib turgan ko‘kimtir silovsinni ushlab qaytadan ko‘ra boshladi. Sovg‘aning o‘rnini sovg‘a bosadi. Sovg‘a esa chakana bo‘lmasligi kerak. Sovg‘a-salomni qaytarish elatning azaliy udumi. Tangriberdi sovg‘aga bir ulov don mo‘ljallab, ovchi shunga rozi bo‘lsa kerak, deb o‘ylab qo‘ydi.

Quyosh tog‘ ortiga dumalab, yashil vodiyga kechki salqin tusha boshladi...

III

Daydi o‘qlardan hurkib, shunday nozik paytda askarboshidan judo bo‘lgan besh yuz yigit iniga ovchi kirganini sezib qolgan burgutlarday to‘zishib, ota-ona, sevimli yor, farzand va ona diyor qaydasan, deb kun-u tun tinmay ot yo‘rttirib qaytib kelmoqda. Oppoq qorga burkangan tog‘lar olisdan o‘z jigargo‘shasini intiqlik bilan kutayotgan oq ro‘molli onalarga o‘xshaydi. Yaktaklari ustuxonlariga yopishib ketgan, taqimlari zo‘riqqan otlari qora terga botgan jangchilar Toshkentdan chiqqanlarining yettinchi kuni adir yoqalab yozgi yaylovlarga yetib kelishdi. El qayoqda? Ovullar bo‘m-bo‘sh.

Qishloqlar, kimsasiz o‘choqlarning qo‘ri so‘ngan, eski o‘tov o‘rnida qoziqdan boshqa hech vaqo yo‘q edi. Sarin yel qovjiragan xashakni shildiratib o‘ynaydi. Soy tomondan zag‘izg‘onning shaqillagan ovozi eshitiladi... Bundan boshqa jonzot yo‘q. Atrof jimjit.

Bu yerning aholisi sero‘t, sersuv yaylovlarni qidirib ko‘chib ketgan edi. Jangchilar charchaganlarini endi sezib, otlarini tushovlab o‘tga qo‘yib yuborishdi, birin-ketin pinakka ketishdi...

Tun yarimdan o‘tib qolgandi. Gulkishi yashil o‘zandan tongda chiqib, salqinda “yo‘lim unadi, deb shitob bilan kelardi. Do‘ngdan chiqayotganida yo‘lning ikki tomonidan odamlarning sharpasi, otlarning kurt-kurt o‘tlaganini yaqqol eshitdi. Har yer-har yerda olov ko‘zga tashlanadi. Bu eski yaylovga kelib o‘rnashgan kimlar bo‘ldi? Gulkishining yuragi shig‘ etdi. Ko‘z o‘ngiga qaroqchilar kelib, badanidan muzdek ter chiqdi.

Uni bir talay yigitlarning o‘rtasida ko‘rpachada yonboshlab yotgan kishining oldiga keltirishdi. Haligi kishi yeb yuborguday tikildi-yu, indamadi. Yoshi o‘ttizlarda. Qovog‘i solingan. Boshini qizil belbog‘ bilan tang‘ib bog‘lagan to‘q-yashil kamzulli yuzboshilar sultonining qizil bulg‘ori etigi, shundoqqina beliga osilgan egri qilichi uni salobatli ko‘rsatardi.

Gulkishi darrov tanidi. Beknazar! Gulkishi salom berdi. Beknazar uni ovozidan tanidi shekilli, yalt etib unga qaradi-yu, bir oz shashtidan tushdi. Gulkishi o‘ziga keldi:

— Beknazar! Qoqindiq... Yigit piri qo‘llab, eson-omon qaytdinglarmi?..

Beknazar qarindoshi Gulkishining qo‘lini mahkam qisib, uni bag‘riga bosib so‘rashdi.

— Gul aka! Mol-jon omonmi? El tinchmi?..

— Shukur! Shukur! El tinch. O‘zinglar salomat qaytganinglar yaxshi bo‘ldi.

Beknazarning ruhi yengil tortib, muloyim kuldi:

— Gul aka, yo‘l bo‘lsin? Saharlab qayga yo‘l oldingiz?

— Tirikchilik dardi-da, Beknazar, bozorga ketyapman.

— Arpa o‘rimga kelib qolgandir?

— Ha, yana bir haftacha bor. Pishay deb qoldi. Bolalar uyoqda tursin o‘zimiz ham qimizni sog‘inib qoldik. Sabrimiz chidamay tog‘dan bir tup archani kesdim, ikki-uch xo‘jalikka yegulik oqishoq topib kelish uchun ko‘mirini otga ortib ketyapman.

— Tangriberdi tog‘amning uylari qaerda?

— Buloq bo‘yida. Bu yil hammamiz ham o‘sha yerdamiz. Tangriberdi aka arpasini ko‘rib, o‘zan bo‘yida yuribdi.

Beknazarning qovog‘i solinib, bir nuqtaga tikilganicha xayol surib qoldi, so‘ng dedi:

— Gul aka, qayting. Shu yerdan orqaga qayting, — dedi ohista.

Gulkishi surishtirmadi:

— Mayli... — dedi ijirg‘anib. Beknazar bir nuqtaga tikilganicha Gulkishiga boshqa gapirmadi.

Shundan keyin atrofda turgan yigitlar Gulkishi bilan quchoq yozib ko‘risha boshlashdi.

— Gul aka, bizning ovul qaysi tomonga ko‘chdi?

— Bizniki-chi, Gul aka?

— Bu yil o‘t qalay? Mollar semizmi?

— Ishqilib tinchlik, omonlikmi?

Gulkishi javob berish bilan halak. Uning ko‘ngli alag‘da bo‘ldi. Beknazarning shu yerdan qayting, degan gapi uni o‘ylantirib qo‘ydi. Atay yo‘lga chiqib, qishloqqa qaysi yuz bilan quruq boraman, degan fikr unga tinchlik bermasdi. U yigitlarning savol-so‘rog‘idan zo‘rg‘a qutuldi. Oti yodiga tushdi.

— Hoy, mening otim qayoqda qoldi? — deb so‘radi Eshimdan xavotirlanib. — Askarlarning birortasi minib ketgan bo‘lmasin tag‘in?

— Qayoqqa ham minib ketardi? Shu o‘rtada o‘tlab yurgandir, qaraylik-chi.

Gulkishi sariq otini katta yo‘l ostidan topdi.

Ustidagi ko‘miri og‘ib, tizginiga ilashib, otni jildirmay qo‘yibdi. Arang turgan ekanmi, egasini ko‘rib kishnab yubordi.

Ko‘k toqida qilich sinig‘iday osilib turgan oy bir to‘p uvada bulut ortiga kirib ketdi. Tong oqarib borardi. Olovning kuchsiz nuri Beknazarning alamzada chehrasini ba’zan yoritib, ba’zan soya tashlaydi.

— Beknazar aka, sizni ponsot kutyapti... — dedi bir yigit o‘tga yaqinlasharkan.

Beknazarning qovog‘i yana solinib, indamadi, chaqirib kelgan yigit javob kutib bir oz turdi, keyin boshqa so‘z aytolmay asta iziga qaytdi.

— Otlar tayyormi? — dedi Beknazar o‘z yigitlariga.

— Tayyor, Beknazar aka...

Beknazar o‘rnidan turdi. Eshim qora qashqa tulporni olib keldi. Beknazar otga minmay nariroqda yiltillab yonayotgan olov tomon tez-tez yurib bordi.

Eshim bir qo‘lida o‘zining otini, bir qo‘lida qora qashqani yetaklab Beknazarning orqasidan ketdi. Qolgan yigitlar otliq va piyoda bo‘lib ergashdi.

Beknazar kelganda davradagilar qo‘zg‘alib yo‘l berdi. Olovning to‘rida kimxob choponni yelkasiga yelvagay solib o‘tirgan kishigina pinagini buzmadi. U ko‘zlari chaqchaygan, oriq kishi

bo‘lib, moshkichiri soqoli siyrak edi. Kattakon telpagi maysa ustida yotardi. Boshida qizil baxmal do‘ppi. Qo‘qon xonligining Arsi tarafdagi eng obro‘li kishisi, harbiy sohada ponsot nomini olgan Abil biy shu edi. Atrofidagilar nafaslarini ichlariga yutib jim o‘tirishardi.

— Assalomu alaykum!

Beknazarning kelganini endi bilgandek Abil biy quvonib alik oldi.

— Buyoqqa!.. Kel, botir... — dedi.

— Chaqirtirgan ekansiz, ponsot aka?

Abil biy Beknazarga sinovchan qaradi-da, sekin:

— Botir... — deya ayyorlik bilan so‘zladi. — Gap bor... Shunday og‘ir damlarda maslahatlashib ish qilgan yaxshi. Kengashamiz...

Beknazar o‘tning bu tomoniga tiz cho‘kib o‘tirdi.

— Qulog‘im sizda.

Abil biy nimadandir xavotirlanib o‘tirganga o‘xshar edi. U Beknazarga yana bir sidra tikildi.

— Noahil xonadondan fayz ketar, deydilar. Otasi adolatsiz bo‘lgach, bolasi nomusini poymol qiladi. Xotini badbaxt, kelini esa o‘g‘ri bo‘ladi. Izzat-hurmat qilish yo‘qolib, uyni boshqarish vazifasi unutiladi. Xuddi shu narsani o‘ylab ko‘rmog‘imiz darkor, Beknazar.

Qorachol botir bu gaplarga quloq solmadi. Uning umri ot yolida o‘tgan, ancha-muncha so‘zlarning fahmiga bormaydi. U Abil biyning buyurgan ishini bajarishni sharaf deb biladi. Hozir ham u olovga qo‘lini toblab bamaylixotir o‘tirardi.

— Mana, xonning otalig‘i ham dunyodan o‘tdi. Endi o‘rdada tort-tort boshlanadi. Xudo urib, janjal avjiga minadi. Bir tomondan o‘rislar qisib kelayotir. Shunday noahil bo‘lsak, bir kunmas bir kun yo xon tomonidan, yo o‘rislar tomonidan kishilar kelib, bizni xonavayron qilib ketsa, ahvolimiz nima kechadi?

Abil biy tarashaday oriq qo‘llari bilan soqolini siypalab, ichichidan tavba deb qo‘ydi.

— O‘rdadagi tort-tort tugarmidi! — dedi Beknazar. — Bu o‘rda xalq boshiga tushgan bir balo bo‘ldi.

Abil biy sal jilmaydi:

— O‘rda barchamizga teng, botir.

Beknazar gapirmadi, Abil biy uning nima demoqchi bo‘layotganini yaqqol sezib o‘tirardi. Beknazar yuzboshi o‘z yigitlari bilan issiq-sovuqni birga ko‘rib, avvalgidan ham qadrdonlashib qolganligi uchunmi, keyingi vaqtlarda ponsotga shu qadar bosh egmay qo‘ygandi. Nima bo‘pti? Uning aytolmay yurgan biror ginasi yoki keki bormi? Olimqulning shahid bo‘lishi bularning o‘rtasiga yana sovuqchilik soldi. Hamisha befoyda, benaf janjallar, o‘rdadagi kelishmovchiliklar tufayli Abil biyni Beknazar yomon ko‘rib qolgandi. Zotan ularning yo‘li bir bo‘lsa-da, Toshkentdan chiqqandan beri birinchi marta yuzma-yuz tortishmoqda.

Abil biy Beknazarning aftidan hamma narsani tushundi. U, bir tomondan, shunday og‘ir paytda urf-odatga amal qilib, urug‘chilikni hisobga olib yarashgisi kelsa, ikkinchi tomondan, bunday mahalda harna g‘am-tashvishdan olisroq yurishni, o‘zini xolisroq tutishni o‘ylardi. Uning oriq yuzlari dir-dir titrab, horg‘in ko‘zlarini Beknazardan uzmasdi.

— Biz ahil bo‘lmog‘imiz lozim.

Beknazar nimanidir kutib, olovning qip-qizil cho‘g‘idan nigohini uzmay ponsotning oxirgi so‘ziga rozi bo‘lib bosh irg‘adi.

— O‘zingdan o‘tar gap yo‘q, saruv urug‘iga bosh bo‘l, buni elga borib, yosh-u qarini to‘plab o‘zimiz aytishimiz kerak edi, afsuski yigitlarimiz charchab qoldi. Hamma uyiga tarqab ketgach, qayta ularni yig‘ish mahol. Shunday bo‘lgach, bir kishi elni boshqarib, tartib o‘rnatmog‘i zarur. — Biy Beknazarga sinovchan tikilib so‘zida davom etdi: — Kerak bo‘lsa, hamisha tayyormiz, biz kabi yoshi ulug‘ kishilardan maslahat olib turishing mumkin... — deya qo‘shimcha qildi.

Ponsot o‘zicha Beknazar bu gapdan quvonib, irg‘ib turib ta’zim bajo keltirsa kerak, deb umidvor bo‘lgandi, Beknazar qaytaga hech narsa demadi. Biy uning ko‘zlaridan; “Sensiz ham, sening so‘zlaringsiz ham yigitlarimga so‘zim o‘tadi”, degan ma’noni uqdi. Behuda aytdimi? Hovliqib ketdimi? Ko‘zlari ola-kula bo‘lib, g‘ashi kela boshladi. Beknazar ham ponsotning ichidan zil ketayotganini sezdi. Ana shu dard-alam toshga urilib, aks-sado berolmay yo‘q bo‘lib ketayotganini his qildi.

— Ko‘ramiz.

Komil ishonch bilan aytilgan bu gap Abil biyni muzlatib yubordi. U o‘zini zo‘rg‘a bosdi. Mayli, olsa olsin. Bunday algov-dalg‘ov mahalda bunaqa ishni o‘z zimmasiga olgani ma’qul. Siyrak mo‘y bosgan nafis lablari zo‘rg‘a jilmaydi.

— Unda ma’lum qilaylik.

Yo‘lga otlanishga buyruq bo‘lgani uchunmi, yigitlar shosha-pisha arg‘umoqlariga egar urib, olov yoqqan kishilar qo‘rlarni o‘chirib, yo‘lga taraddudlanmoqda edilar. Xushxabarni eshitib yuzboshilar ortidan ellikboshi, o‘nboshilar to‘planib, ponsotning og‘ziga qarab turishardi.

Abil biy ham, Qora chol va Beknazar ham otga minishdi. Keyin Beknazar belidagi o‘ramani buklab oldi-da, Abil biy yoniga keldi, uning betiga qaramay sukut saqlab turdi. Biy buni payqab yigitlarga ko‘z yugurtirib chiqdi-da, tomoq qirdi. Odamlar jimib qoldi.

— Botirlar, — deb murojaat qildi ponsot, — yangilik shuki, biz qishloq chetida turibmiz. Bundan nari yo‘limiz bo‘linib, har bir urug‘ning yigitlari o‘z elati tomon ketishi mumkin. Biroq yigitlar bir narsani yaxshilab bilib olishlari shart... — So‘ngra u tog‘liklarning o‘ng va chap qanotini biriktirib turgan azaliy udumi, kichiklar boshi osmonga yetgan taqdirda ham yoshi ulug‘ kishilarni izzat-hurmat qilishi haqida so‘zlab, bularni s’hariat yo‘li bilan mustahkamladi, so‘ng gapning indallosini aytdi: — O‘zingiz ko‘rdingiz, o‘rda yana buzildi. Bir tarafdan o‘rislar qisib kelyapti. Bunday mahalda o‘zboshimchalik murosaga futur yetkazadi. Yov oldida sharmanda bo‘lamiz. Shunga ko‘ra, bir kishiga bosh egmog‘imiz darkor. Men qarib qoldim. Esli-hus’hli, bilagida kuchi bor azamatlardan tanlab, o‘zinglarga sardor saylab olinglar.

Beknazar botirga shubha yo‘q. Bunga nima deysizlar? Nima bo‘lsang bo‘laver, deb ora yo‘lda tashlab ketmaylik? Qayoqqa boshlasa, aytganiga ko‘nib, qo‘limizdan kelganicha uni qo‘llab-quvvatlab turmog‘imiz shart, — deya qo‘shib qo‘ydi.

Bu yangilikni yo‘lga shay turgan yigitlar qizg‘in kutib olishdi. Ba’zilar, endi buyogi nima bo‘larkin, degan mulohaza bilan o‘zaro munozara qilishardi. Har nechuk Abil biy kelajakni oldindan aniq sezib, yuragi orqasiga tortdi. Lekin sir boy bermadi.

Beknazar ko‘pchilikka qarab ta’zim qildi. Bir to‘p yigitlarning orasidan kimdir, “Beknazar”, deb chaqirdi. Ammo Beknazar tong qorong‘isida ovoz kelgan tomonga qanchalik qaramasin, qora ot minib, qamchisini o‘ynatib turgan kishini yaxshi taniy olmadi.

— Yigitlar! — dedi Beknazar, uning shiddatli ovozi g‘ala-g‘ovurni bosib ketdi. — Ponsadning xohishini eshitdinglar. Agar shunday qaltis bir paytda o‘z taqdirlaringni menga ishonib topshirayotgan ekansizlar, men aytgan gapga, men boshlagan yo‘lga, men bitkazgan shartnomaga rozilik bildirgan kishilarga shuni aytmoqchiman. Birinchi shartim shu...

Abil biy bu gap o‘ziga qarata aytilayotganligini juda yaxshi tushunayotgan edi. Pixini yorgan hiylagar gezarib qoldi. O‘rda-da yuz bergan bir talay hiyla-nayranglarda ishtirok etgan johil biy hozir picha aldanib qolganligini sezdi. Lekin yuzboshi bilan hali-hozircha orani buzmaslik kerakligini payqab, qahr-g‘azabini ichiga yutib, shunchaki iljayib turardi. Beknazarning yuragida dardi bor, u amalni birovlarga xizmat qilishdan iborat emas, balki o‘zgalar ustidan hukm yurgizishdan iborat, deb tushungan kishilardan edi. Abil biy buni yoqtirsa-da, dastlabki eslatib o‘tgan gaplaridan pushaymon yesa ham unga tan berishdan boshqa chorasi qolmadi.

Yigitlar Beknazarni qo‘llab-quvvatlashdi, otliqlar davrani tobora toraytirib kela boshladi.

— Yigitlar! — dedi Beknazar yana. — Olti oy davomida tinim bilmadik, yaktagimiz ustuxonimizga yopishdi...

Barcha bir ovozdan ma’qulladi.

— Dam olmog‘imiz kerak. Endi qishlog‘imizga yetib tarqalamiz. Shahid o‘lgan do‘stlarimiz haqida ularning ota-onalariga xabar qilamiz. Shu bo‘yi bedarak ketmaslik uchun har qishloqdan bir yigit men bilan aloqani uzmasligi kerak. Bu juda zarur. Har qanday baloga tayyor turaylik. Bundan buyog‘i nima bo‘lishini ko‘rarmiz. Botirlarim! Oxirgi shartim shuki...

— Yana qanday shart? — G‘ala-g‘ovur tindi.

— Aytgan gapim ikki bo‘lmasin! So‘zimni hech kim qaytarmasin. Hech kim oldimga otda yulqinib kelmasin.

Ko‘pchilik bir ovozdan uning gaplarini quvvatladi. Beknazar qora qashqa arg‘umoqni asta yo‘rttirdi.

— Ketdik!

Ikki kun davomida nafas rostlab, tiniqib qolgan arg‘umoq irg‘ishlab, o‘ynoqlab, to‘pdan birinchi bo‘lib olg‘a intildi.

Tong yorishib qoldi. Yigitlar o‘nta-o‘ntadan bo‘lib tog‘ oralab keta boshladi.

Bunday talato‘pga bir-ikki aralashib ko‘rmagan Gulkishi boshi aylanib, qaerga borishini bilmay, hallo‘slaganicha otini arang topdi. Qaerga borish kerak? Ko‘mirini qayta otiga ortishini ham, uni tashlab ketishini ham bilmay, serrayib turardi. U miskar o‘zbek do‘stlarining do‘koniga ko‘mirni tushirib, evaziga bir-ikki qadoq turshak yo kiyimlik bo‘z, ro‘zg‘or uchun bir oz oqishoq olib, indiniga qaytmoqchi edi. Shu bilan bola-chaqasini xursand qilib, bahonada o‘zi ham havo almashtirib kelganidan mamnun bo‘lib she’r yozmoqchiydi. U ana shu maqsadi to‘satdan amalga oshmay qolayotganidan o‘kindi. Hech narsa demay ketishga yuragi dov bermadi. Nihoyat, ko‘mirni yerga ag‘darib, ikkita bo‘sh qopni egarning ustiga tashladi-da, to‘plarning biriga qo‘shilib yo‘lga tushdi.

Beknazar oldinda. Qoraqashqa bir maromda yo‘rg‘alab borardi. Ortida Eshim.

Ponsot xayolga cho‘mib, gohida Beknazar tomonga nazar solib, ich-ichidan ezilib, zahrini sirtiga chiqarmay kelardi. Ponsot shu bo‘yi qolib ketmaydi. “Gapimni hech kim ikki qilmasin? Hech kim oldimga ot surib kelmasin?! Eh, attang, xonlar oldida oshiqday olchi turgan mingboshilar bunday so‘zlarni hech og‘ziga olganmidi?” Shularni o‘ylab ponsotning yuragi siqildi.

IV

Oyzoda qo‘lida ikki chelak bilan suv olgani buloqqa keldi. Bir to‘p yilqi chanqog‘ini qondirgach, qaerga borishini bilmay turardi. Buloqdan chiqayotgan muzdek tiniq suv yalpizzor oralab eski o‘zandan obihayot eltardi. Turli-tuman kapalak va ninachilar namiqqan buloq atrofida g‘ujgon o‘ynardi. Oyzoda kelgan zahoti yilqilar tepalikka qarab yo‘l oldi.

Kelinchak chelaklarni yerga qo‘yib, chashmaning ko‘zguday tiniq tubiga, uning bir maromda qaynab chiqishiga boqdi. Suvda o‘z aksini, oppoq yuzlarini, bodom qovog‘ini, qayrilma qoshlarini ko‘rdi. U hamisha kulib, gul-gul ochilib yuradigan go‘zal juvon bo‘lgandan unga xafagarchilik aslo yarashmasdi. Shu damda o‘ziga bir oz rahmi keldi. U bo‘yni va jag‘ini silarkan, keyingi vaqtda shunchalik ozib-to‘zib ketdimmi, deya o‘zicha shivirladi-yu, ohista, yurakni oshufta qiladigan ohangda xirgoyi qila boshladi.

Kelinchakning dildagi orzusi mayin sabo qanotida gullar oralab, qushlar ovoziga qo‘shilib singib borardi.

Temir uylanganiga bir yil bo‘lmay xonning qo‘shiniga olindi. Xon chorlayapti, deb yigitlarni otlantirishdi. Oradan bir yil o‘tdi, ammo undan xabar yo‘q edi. Avvaliga unchalik bilinmadi. Keyinchalik yosh, bayov juvon bir narsa yo‘qotganday g‘amgin, parishon yuradigan bo‘lib qoldi. Goho tunlari it hursa, eshikka yugurib chiqadi. Har bir sharpani jon qulog‘i bilan eshitib, allamahalgacha nafasini yutib yotadi. Kelinining ahvolini yaxshi his qilgan qaynona ham o‘zini zo‘rg‘a bosib yurardi, ba’zida shunchalik yo‘talib qo‘yish bilan cheklanardi. Bu juvonning uyga tezroq kirishiga ishora edi. Kelini ijirg‘anib uyga kirib, chimildiqni surib yostiqqa bosh qo‘ygandan keyin:

— Ha? Mol hurkdimi? — deb ming‘irlardi qaynona va asl maqsadini aytmasa ham kelinning tunda tez-tez tashqariga chiqishiga ro‘yixush bermasdi, uni begona ko‘zlar ozdirib ketmasin, deb ko‘z-quloq bo‘lib yurardi.

— Yo‘q, shunday... — deb qo‘ya qolardi Oyzoda qoshlarini chimirib. U xayollar og‘ushida kampir bilan cholning xirillab nafas olayotganiga quloq solib, tashqarida, daraxtda betinim sayrayotgan sutoqning nolasini tinglab, tunlarni ko‘z yummay tong ottirardi.

Oyzoda ko‘z yoshini artib, suv to‘la chelaklarni ko‘tarib o‘rnidan turganida, qishlov tomondan yo‘l yoqalab kelayotgan bir to‘p otliq ko‘rindi. Ular shamol haydagan tumanday jadal kelmoqda edi. Otlarning dupur-dupuri unga tanishday tuyuldi. Temirlarmikin? U ham chelakdagi suvning chayqalib to‘kilganiga qaramay qadamini tezlatdi. Otliqlar yaqinlashdi. Boshqalar shekilli?! Temir

ko‘rinmadi. Ular qishloqqa yaqin kelishlari bilan shartta burilib, birdaniga o‘kirib yig‘lab yuborishdi.

— Qadr-do-nim!.. Azi-zim!..

— Do‘stimizdan ayrilib qol-dik!

— Teng-do-shim!.. Azi-zim!

Oyzodaning qo‘lidan chelaklar tushib ketdi. Uning ko‘z oldi qorong‘ilashdi, nazdida tog‘lar bir tekis bo‘lib, archalar qora kiygan ayollarday g‘amgin ko‘rindi. Kim? Oyzoda hamon umidvor edi. Kim? U uydan oppoq sochlarini to‘zitib dod solib chiqqan qaynonasini ko‘rdi... Oyoqlari qaltirab, tomog‘iga nimadir tiqildi.

— Nima gap? Nima bo‘ldi?! — deb Oyzoda o‘zini yo‘qotib qo‘ydi, uni kampirlardan biri ushlab qoldi.

— Burgutingdan bevaqt ayrilding, beka...

Oyzoda undan uyog‘ini bilmadi. U behushlik bilan: Qo‘y! Unday dema! Ogzingga qarab gapir! Shu ham hazil bo‘ptimi!” — derdi. Xotinlar ko‘z yoshlarini artib, nima deyishlarini bilmay Oyzodani hushiga keltirish payidan bo‘lishdi. Kutilmagan falokat Oyzodani es-hushidan ayirdi...

Jamoat jam bo‘ldi. Yig‘i-sig‘idan tog‘lar titradi. Beknazar boshlab kelgan to‘p har joy, har joyda tiz cho‘kib o‘tirardi. Faqat Eshimgina yangi kelganlarga qo‘shilib nola qilardi:

— Suyanchig‘im! Ma-dad-ko-rim-dan ayrildim!.. — deya sidqidildan yig‘lardi.

Beknazar tiz cho‘kkanicha indamay o‘tirardi. Tangriberdi devorga, qiblaga qaraganicha ikki bukilib, rangi quv o‘chib, qo‘llari qaltirab har zamonda:

— O, ko‘rar ko‘zim! O, erkatoyim!.. — deb bo‘taday bo‘zlab qo‘yadi.

Xotinlar Oyzodani uyga olib kirishdi. Boshiga qora ro‘mol o‘rab, sochini yoyib, teskari o‘tirgan qaynonasining yoniga o‘tqazishdi. Kelin hushiga kelmadi.

— Oh, bebaxt!.. Oh, bechora! — deb kelinning holiga achingan bir kampir uning yuziga suv urdi. Oyzoda ko‘zini ochdi, o‘ziga kelib:

— Oh... Men nima qilaman... — deb irg‘ib turdi va ushlab turgan kampirlarning qo‘lidan chiqib, dodlab, betini yula boshladi. Ikki betidan tirqirab qon chiqdi.

Yig‘i sal bosilgach, Beknazar ohista boshini ko‘tarib, Tangriberdiga tasalli berdi:

— O‘zingizni ehtiyot qiling, tog‘a!.. Ilojimiz qancha....

O‘tirganlar dalda berishga tushishdi.

— Ha, endi... yetgan ajal ekan... Undan qochib qutulgan bormi... Endi Tangriberdi aka, hadeb xafa bo‘lavermang, o‘zingizni bardam tuting...

Boyadan beri jim o‘tirgan Tangriberdi o‘zini tutolmadi.

— Eh, Parvardigor! o‘zim qiltillab turganimda... E Xudo, senga nima yozuvdim?!

— Esiz Temir... qani endi uni yig‘lab topishning iloji bo‘lsa. Shukur qiling, Tangriberdi aka. Taqdir ekan, Temiringiz singan bo‘lsa, Po‘latingiz omon bo‘lsin...

Sakkiz yashar Po‘lat hassa tayanib fig‘on chekmoqda edi.

— Temirdan ayrildik. Vaqti kelib hammamiz ham ketamiz. Birimiz otdan yiqilib o‘lamiz, birimiz toshdan, birimiz o‘qdan o‘lamiz. Dunyoga kim ustun bo‘libdi? Har qanday katta daraxt ham bir kuni qurib yiqiladi, ko‘kda uchib yurgan qush ham yerga tushadi. Taqdir degani shu bo‘lsa kerak... — dedi Beknazar yerga qarab o‘tirganlardan nigohini uzmay. — Temirga o‘q tekkan kuni Toshkent bo‘sag‘asida edik. O‘sha kun askarboshimiz ham qazo qildi. Shundan keyin o‘rtadan murosa qochib, birovning so‘zi boshqaga yoqmay, qo‘shin birin-ketin tarqab ketdi. Biz ham qarab turmadik. Buyog‘i endi nima bo‘larkin, deb sizlardan xavotir olib, nobud bo‘lgan yigitlarimizning duoyi fotihasini o‘qib kelaverdik.

Beknazar yutinib oldi.

— Biz azaldan qilichga suyanib uxlab, qilich bilan uyg‘onib kelayotgan elmiz. Qilichsiz bizga kun yo‘q. Bundan keyin ham kerak bo‘lib qolar, basharti kerak bo‘lmasa, botirdan qolgan yodgorlik sifatida shiftga ilib qo‘yarsiz...

Eshim irg‘ib turdi-da, o‘ng yonboshiga bog‘lab olgan Temirning qilichini yechdi, tiz cho‘kib, Tangriberdiga ehtirom bilan topshirdi. O‘rtaga jimlik cho‘kdi.

Tangriberdi qinida qon qotib qolgan qilichga qarab qo‘li qaltirab ketdi.

— O, qulunim!.. O, chirog‘im!..

V

Yov beshafqat! Kimning oyog‘iga sajda qildiradi? O‘rda qayoqda? Hukmdor qayda? Zamon yuki ora yo‘lda qolgan bir paytda kim hukm chiqaradi?! Oddiy yigitlardan bo‘lganida boshqa gap edi. Axir u Beknazar-ku! 0shiqmay kutish kerak. Davr-u davron pallasi qayoqqa og‘arkin?.. Yo u paytda vaqt kech bo‘lib, attang, deb yer chizib qolarmikan?..

Ana shunday o‘y-xayollar bilan yurgan vaqtida Abil biyga o‘rda tarafdan kishi keldi.

Kengash yaylovda bo‘ldi.

Bundan xabar topgan biylar, oqsoqollar xalq taqdirini o‘ylab, shoshilinch ravishda o‘z yigitlari bilan to‘p-to‘p bo‘lib kela boshladi.

Xondan elchi kelganini eshitgan yaqin oradagi yosh-u qarilar, ostida oti, qo‘lida qamchisi bo‘lgan er-o‘g‘lonlar to‘planishdi. Yig‘ilganlar odatga ko‘ra urug‘-urug‘ga bo‘linib, Abil biy tomonidan oldindan hozirlab qo‘yilgan joylarni egallashdi. Keng jilg‘aga el to‘lib, ot bog‘lagani qoziq yetishmay qoldi.

Hamma kelib bo‘lgach, ayni choshgohda yashil yaylovda karnay sadolari yangrab, Abil biyning o‘tovidan bir to‘p odam chiqdi. Karnay ovozi tog‘ bag‘rida aks-sado berib, ajib bir tantanaga xaloyiqni chorlardi. Bir guruh odamlar orasida Abil biy bilan yana bir begona odam kelmoqda edi. Uzun bo‘yli, qora soqoli cho‘qqi edi. Elchi shu edi. U yangi kelgan kunlardagisiga qaraganda bir oz to‘lishib, peshonasi yiltirab qolganligi shundoqqina sezilib turardi. Odamlarning ruhi va kayfiyatini bilish uchun zimdan qarab, chor atrofini zehn bilan kuzatib kelardi. Elning nigohi unga qadalgan. Birov qiziqib, birov hayron bo‘lib qarardi, o‘zgalar o‘zaro shivirlashib o‘tirardi.

— Xonning elchisi shu ekan-da!

— Basavlat ekan...

— Xon bilan yuzma-yuz gaplasharmikin?..

— Yuzma-yuz gaplashmasa, buyoqqa kelarmidi... Xonning oftobachisi emish...

— A-a?..

Abil biy xalq o‘rtasida davom etayotgan ana shunday gap-so‘zlarni eshitib, ularni engashib tomosha qilayotganlarni ko‘rib kelayotgandi. U hamisha o‘rdaga boradigan bo‘lsa, guldor, hoshiyali qizil kimxob choponini, ponsotlik belgisi taqilgan oq shoyi bo‘rkini kiyib olardi. Chehrasi ochiq edi.

— Assalomu alaykum!

Oqsoqollar qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yib, bor ovozlari bilan alik olishdi:

— Vaalaykum assalom!..

Xon elchisi bilan Abil biy salomga alik olib, sipolik bilan bosh irg‘ab o‘tishdi.

— Assalomu alaykum!

— Vaalaykum assalom!..

Xaloyiq ularning orqasidan yurdi. Karnay sadolari tog‘larni yangratib, xon elchisi do‘ngga solingan gilamga o‘tirgungacha tinmadi.

Abil biy omonlik tilab, qo‘l yozib fotiha o‘qidi. Atrofidan joy olgan el unga taqlid qilib qo‘llari bilan yuzlarini silashdi.

Shundan keyin Abil biy qayta o‘rnidan turib, to‘planganlarga qarab murojaat qildi:

— E, xaloyiq, — deb so‘z boshladi, — mana, o‘rdadan bu yerga elchi keldi. Chakana kishi emas. Marhum Musulmonqul otaliqning o‘g‘li Abdurahmon bo‘ladi. O‘zingiz yaxshi bilasiz, marhum otaliq urug‘imizning tug‘ishgan qarindoshi edi. Mana, Abdurahmon qarog‘im bizni o‘ziga yaqin tutib, o‘rda bilan elatning o‘rtasiga tushib, elchi bo‘lib kelibdi. Shu bahonada qarindosh-urug‘lari bilan uchrashib ketmoqchi... — deb biy elchini ko‘pchilikka tanishtirdi.

Xaloyiq g‘ovur-g‘uvur qilardi.

Abil biy muloyim gapirdi:

— E, el og‘asi, ahli donishlar, botirlar!

Gap-so‘z tinib, o‘zini dono hisoblagan kishilarning barchasi, yosh-u qarilar bu so‘zdan ruhlanib, nafas yutib quloq soldi. Abil biy yana bir karra elning tinchib qolganiga ishonch hosil qilgach, tez-tez gapira boshladi:

— Sizlarday asilzodalarning baxtiga, mehnatkash xalqning taqdiriga daxldor masalalar bor. Mana, elchi xabar topib keldi, Sultonsayid ham xonlik davrini surolmay, bu dunyodan o'tibdi. E, yaxshilar... — U ovozini balandlatdi, — tangri jilovdor bo'lib, Xudoyorning ketgan omadi qaytdi, ota arvohi yor bo'lib, ishi o'ngidan kelib, taxtga qaytadan o'tirdi!

Hamma jim. Olimqul otaliqni jang maydonida o'ldirgan o'rdadagi yashirin kuch keyinroq oshkora ish boshlab, yosh Sultonsayidni bo'g'izlashdi. Buxorodan amir askari bilan kelayotgan Xudoyorni kutib olib taxtga qaytadan o'tqazishdi. Taxtdan ikki marta qulab, yana taxtga o'tirgan Xudoyorning baxtiga jamoat hech qarshiliksiz bosh egib rozi bo'ldi.

— Xaloyiq! Xonning elchisi kelganiga mana bir hafta bo'ldi. Yurakdan sirlashdik, ko'ngildagi dog'lar yuvildi. Xudoyorxon o'z amrining bajarilishini so'rabdi. Qani aytinglar-chi, ma'qul demay bo'larmidi? Xonsiz el egasiz uyga o'xshaydi.

Shu damda Abil biy bir chekkada otdan tushmay qamchisini tirab turgan Beknazarni ko'rdi. U yolg'iz emasdi. Yonida o'n chog'li yigiti bor edi. Choptirib kelgani uchunmi, otlari qora terga tushib ketgandi. Afti qursin, deb Beknazarni ataylab kengashga chaqirtirmagan edi. Abil biy shuning uchun sira tap tortmay, xotirjamlik bilan, "sen chetda turaver", deganday salobat bilan so'zini davom ettirdi.

— E, aqlli kishilar, mundoq o'ylab ko'ringlar, shunday nozik zamonda hazrat el taqdirini o'ylab, xalqdan madad so'ramoqda. Balki eshitmagandirsizlar? Toshkentga Chirnay poshsho kirdi...

O'tirganlarni vahima bosib, hamma sarosimaga tushdi.

— E, Parvardigor... Ular bizni nima qilarkin?..

— Qirib tashlasa kerak!..

— E, yaratgan egam, o'sha kunni ko'rsatmagin... Abil biy jamoatning kayfiyatiga qarab, gapini davom ettirdi:

— Kecha elatning dodxohlari jamiki mahalliy aholini, tog'liklarni boshlab borib, o'rdada Xudoyorning boshidan tojni yulib olsa, bir nima dermidik. Bizning yigitlarimiz ham birga yurib, birga turib qilich chopishgan. Bu Xudoga ham, Xudoyorning o'ziga ham ma'lum. Endi o'ylab ko'ringlar, xalqimizning ahilligi yo'lida

o‘sha gunohidan kechsak, vaqtida o‘zidan o‘tgan ancha-muncha aybini ham unutishni so‘rabdi, hammamizga qadrli bo‘lgan kishini o‘rtaga solib bu yerga yo‘llabdi. Egilganga egilgin boshing yerga tekkuncha, deb mashoyixlar behuda aytishmagan. So‘zimning oxirida shunday demoqchimanki, o‘rda bizniki, shunday ekan, uning oldida tiz cho‘kmoqlik bizning bandalik burchimiz... — dedi Abil biy.

— Haq gap — deya Do‘mbu o‘rnidan qo‘zg‘alib qo‘ydi. — Tezroq xat bitib, elchini jo‘natib, xonning ko‘nglini tinchitish kerak.

Xudoyorxon yana taxtga kelgach, viloyatlardan ko‘ngli tinchimay, chor tarafga elchi yuborib, kun sayin mudofaani mustahkamlash payiga tushdi. Bu o‘rdaning eng muhim ishlaridan hisoblanardi. Ammo o‘rdadagi qora niyatli kishilarning ana shu ish bahonasida boshqa muddaolari ham bor edi. Bordi-yu o‘rdaga shu narsa lozim bo‘lib qolsa, Abil biy bu qadar ko‘pchilikni chaqirib, dabdabali ma’ruza so‘zlamasdi. Qaytaga elchiga ot mindirib, to‘n kiydirib, amirga qimmatbaho sovg‘a hadya etib, mehmonni izzat-ikrom bilan kuzatib qo‘ygan bo‘lardi.

— E, ponsot inim... E, yaxshilar, biror xolis yo‘l bormi?

El ovoz kelgan yoqqa qaradi. O‘tirganlarning orasidan bir odam ko‘zga tashlandi. Tangriberdi! Hassaga suyanib, donolar turgan tarafga qaltirab zo‘rg‘a qarab turibdi. Bu munkillagan chol nima demoqchi? Yig‘inda unga nima borikin? O‘g‘liga aza tutib uyida o‘tirsa bo‘lmaydimi? Hamma jimib qoldi.

Tangriberdi yo‘talib oldi:

— Elchi kelibdi, degan xabarni eshitib... o‘zimcha... boshim og‘ib kelaverdim.

— E, otaxon, gapingiz eshitilmayapti, yaqinroq kelib aytaqoling! — dedi Abil biy.

— Nima?.. — dedi qariya xirillagan ovozda, yonidagilardan biyning so‘zini anglab, asta oldinga yurdi. — Dalada edim. Arpa va tarig‘imdan xabar olib yurgandim. O‘lganning ortidan o‘lib bo‘lmas ekan...

Do‘mbuning qahri qaynab, qorayib ketdi:

— Aynigan chol! — dedi u. — Bu yerda sen ekkan tariqning masalasi yechilayaptimi, aynigan chol!..

Tangriberdi shu gapni eshitib, Do‘mbuga zaharxandalik bilan tikilgan edi, uning yuzi olma qoqiday tirishib, ko‘karib ketdi:

— Mening gapim qisqa... — deb qariya chiranib oldinga o‘tdi. — Biylar... Xudoyor o‘sha o‘zimiz ko‘rib yurgan Xudoyor-da... O‘zi elatda tug‘ilib, elatda o‘sgan bola... Balki baxti kulgandir, ikki marta xon bo‘luvdi, mana endi uchinchi marta Xudo murodiga yetkazibdi... Qulluq bo‘lsindan boshqa tilagimiz yo‘q. Xudoyorxon bo‘lgandan beri elga nima muruvvat ko‘rsatdi, aytinglar-chi?..

— Hoy, tilingni tiyib gapir! — dedi Do‘mbu o‘rnidan turib.

Xaloyiq junbishga kelib, lol-u hayron bo‘lib turib qoldi.

— Hoy, Do‘mbu! — dedi Tangriberdi barmog‘ini bigiz qilib qahr bilan: — Men aljigan bo‘lsam, qaridim. Sen esa qarimay turib aljiyapsan, Do‘mbu! Bu yerda kengash o‘tmoqda, o‘rdadan vakil kelgan. Shunday mahalda gapirmay bo‘ladimi?

Do‘mbu mulzam bo‘ldi.

— Abil, otang Qarash biy jannati kishi edi, sen ham yomon emassan, ayt-chi, chirog‘im, bu Xudoyor amrini vojib tutgan elga ne yaxshilik va’da qilibdi?..

Bu to‘g‘ri savol edi. Abil biy el-u yurtni, dini islomni o‘rtaga solib, yig‘ilganlarni eritib gapirayotganda og‘iz ocholmay o‘tirgan odamlar endi gap ertangi kun haqida borayotganligini o‘ylashib, bir oz o‘zlariga kelishdi. Ha-ya! Rost gap, nima yaxshilik va’da qiptiykin? Qariyaning aqlli so‘zlari jamoatning fikrini o‘zgartirib yubordi.

— To‘g‘ri gap! Elchi aytsin!

— Bir mahalda qipchoqlarga ko‘rsatilgan jannat bo‘lsa kerak?!..

— Elchi ochiq gapirsin!

Abdurahmon oftobachi o‘rnidan turdi. Elning qiyqirig‘i darrov tinib, odamlar uning og‘zini poyladi. Elchining qarashlari tunov kuni Abil biyning o‘toviga kirgandagiday oddiy edi, o‘zini xotirjam tutardi, hech narsadan gumonsiramasdi. U burgut singari do‘nglikdan kengashga kelganlarga razm solarkan:

— Birodarlarim, — deb ancha yuqoridan gap boshladi, — qadrdonlarim, mana, biy og‘amiz ochiq aytdi, xon bilan xalq o‘rtasidagi ayanchli ishlarni yashirmaymiz Basharti yo‘q desak,

ovora bo‘lib bu yerlarga kelmasdik, birodarlarim. Bularning barchasi o‘tgan ish, bitgan yara, hozir ularni eslash ziyondan boshqa narsa emas. Shunday ekan, bitmagan yaraga malham qo‘yib, uni tezroq tuzatsak bo‘lmasmikin? Axir buni hammaga nafi tegadi-ku. Bo‘ladi, qadrdonlarim, bo‘ladi! O‘ylab ko‘ringlar, e aqli butun qariyalar, sizlar ham o‘ylab ko‘ringlar, e qiziqqon yigitlar... Mamlakat uyoqda tursin, oddiy oilada qancha kelishmovchiliklar bo‘ladi. Uni oila boshlig‘i izga soladi, har kimni gunohga yarasha tartibga chaqiradi, xolis, odilona ish yuritib, har qanday vaziyatda ham xonadonni boshqaradi. Shundagina oila a’zolari o‘rtasida o‘zaro hurmat, bir-birini suyash kabi fazilatlar kurtak otadi. Aks holda ish chappasiga ketib, ahillik barbod bo‘ladi, birodarlarim. Xonadondan fayz, xazinadan qut-baraka uchib, uy buziladi.

— Ha, barakalla, shuni ayting! — deb quvvatladi Abil biy.

Abdurahmon o‘ng qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi.

— Mana, qadrdonlarim, otamiz bir vaqtda, otaliq bo‘lib turgan paytda shaytonlarning kasofati tufayli o‘rda buzilib, qancha begunoh musulmonlarning qoni suvday oqdi. Sho‘rlik otamning boshi ketib, qilmishiga Xudoyor taxtdan ayrildi. Buni kim bilmaydi? Men kek saqlasam bo‘lardi, kek ham saqladim, Olimqul bilan Olimbek dodxohga zidlashib yurib nima topdim? Oraga tushgan sovuqchilikdan boshqa hech narsani ko‘rmadim. Shu bugun sizlarni qalqon qilib, madad so‘rasam, ko‘nglimni qoldirmay yordam berishinglar aniq... Lekin men Xudoyor bilan saruv urug‘i o‘rtasidagi do‘stlikni qo‘limdan kelganicha mustahkamlab ketayin, deb atay keldim...

Kengash ahli xayolga botdi. Haq gap! Ahillik, do‘stlik bo‘lsa, parvardigorning buyurgan rizq-nasibasi topilaveradi. Ahillikdan yuksak nima bor? To‘planganlar ma’ruzachining keyingi gaplaridan xursand bo‘ldi. Abil biy xushnud. Elning ko‘ngli bir oz o‘rniga tushganidan qoniqib o‘rnidan turdi-da, ikki qo‘lini baland ko‘tardi.

— Ollohu akbar! Xudo bitta, xon bitta! Ollohu akbar! — deb yuziga fotiha tortdi. Birvarakayiga biyga taqlid qilib baland ovoz bilan fotiha o‘qish allamahalgacha davom etdi.

Abil biy jamoatga murojaat qildi:

— Yurtdoshlarim! — dedi u muloyim. — Xudoyorxonning xonlik erkiga iqror bo‘ldik. Fotiha o‘qidik. Endi amir hazratlariga qarshi fitna qo‘zg‘agan kishining xotini taloq, o‘zi kofir! — dedi. Abdurahmonning qo‘lidan xonning muhri bosilgan bir o‘ram qog‘ozni qo‘sh qo‘llab olib, hurmat bilan yuqori ko‘tarib, peshonasiga, labiga tekkizib tavof qildi. — E, xalq og‘asi, yaxshilar, sheryurak botirlar, bu hazrati oliylarining bizga yuborgan yorlig‘i!

Adirda o‘tlab yurgan otlarning pishqirig‘i, mayin shabadaning g‘ir-g‘iridan boshqa narsa eshitilmaydi. Odamlarning ko‘zlari Abil biyning qo‘lidagi yorliqda.

— Arkoni davlatimizning zarurati uchun uchqur arg‘umoqlar kerak, o‘sha arg‘umoqlarga minib chopa oladigan chavandoz yigitlar kerak. Ikkilanish bo‘lmaydi. Xonning yorlig‘i bitta! Sobiq jangchilar takror otlanadi. Qo‘shimcha ravishda yana odam to‘playmiz. Bir yilga yetadigan oziq-ovqati, oti, qurol-yarog‘i to‘liq bo‘lsin! Men o‘zim boshchilik qilaman. Qaytadan kengash chaqirib, maslahatlashib o‘tirgani fursat yo‘q. Yigitlar tezroq shay bo‘lsin. Uzog‘i bilan bir oyning ichida to‘la-to‘kis Qo‘qonga borib, xonning huzurida ta’zim qilamiz!

— Ponsot aka! Elchiga bir savolim bor.

Odamlar Abil biyning gapini bo‘lib, baland ovoz bilan so‘zlagan kishiga qaradi. Beknazar! U ot ustida uzangiga oyog‘ini tirab intilib turgan edi. Biyning ko‘ziga qon to‘ldi.

— Birodarlar! — dedi Beknazar qiyqirib, — xonning bizga qilgan yaxshiligi shumi?! Ertaga minglab odamlarni haydab borib o‘rislarning miltig‘iga ro‘baro‘ qilmoqchimi? Yaxshi bilamiz, o‘rislarning miltig‘i to‘g‘ri mo‘ljalga uradigan, tezotar bo‘ladi. Hazrati oliylari o‘z fuqarolariga yaxshigina jannat hozirlayotgan ekanlar-da?!

— Unday emas, siz bilan bizning — ahli musulmonlarning uyiga chaqirmay turib kirib olgan dushmanlarni quvmoqchimiz. Shunday desangiz to‘g‘ri bo‘lardi, botir yigit... — deb tuzatdi Abdurahmon elchi. — Shunday ham deylik... Og‘aynilar, o‘rdaning amriga quloq osaylik deyman. Biroq, qilich chopib nima baraka topdik? Bir yoqqa birvarakay ko‘chib ketmagach, ahil bo‘lishdan o‘zga chora yo‘q. Ko‘ryapsizki, xon amriga amal qilgan kundan

boshlab, biz Chirnay poshshoga qarshi otlanishimiz kerak. Xo‘p, otlanaylik ham. O‘rda Chirnay poshshonikiday to‘g‘ri, tezotar, mo‘ljalga tegadigan miltiq bersin! Zambarak bersin! Egri qilich yaramaydi! — Beknazar qilichini sug‘urib tepaga irg‘itdi-da, keyin chaqqonlik bilan sopidan tutib oldi, — Bu endi qaroqchilargagina yarashi mumkin. Eshitdingizmi, miltiq bersin! Zambarak bersin!

Elchi xayol surib qoldi. Jamoatchilik undan biror gap eshitish ilinjida.

— Xudo xohlasa, qurol topilar, botir... — dedi Abdurahmon anchadan keyin. — Biz ham Xudo degan qulmiz, nimayiki bo‘lsa, Tangrining o‘zidan tilaymiz, qirq yil qirg‘in bo‘lsa, kuni bitgan, ajali yetgan o‘ladi, rizq-ro‘zli bandasini Parvardigorning o‘zi asraydi, ol qulim desa, zambarakning o‘rnini qamchi bosib ketishi hech gap emas...

Beknazar boshini sarak-sarak qildi:

— Qamchi qachon zambarakdan kuchli bo‘libdi? Bu ilojsiz kishining gapi. Inson noiloj qolgan vaqtda Xudoni pesh qilishdan nariga o‘tmaydi.

Abdurahmon oftobachi nima deyishini bilmay dovdirab, o‘tirib qoldi. Abil biy kuyib ketdi.

— Beknazar! To‘xtat! Beknazar! — deb qichqirib yubordi u. Beknazar esa hamon to‘xtamay elchiga tik boqib gapida davom etdi:

— Birodar! Og‘aynigarchilik qilib bizdan xonga bir og‘iz duoyi salom yetkazsangiz! — dedi. O‘rdadagilar ovora bo‘lmasin, bir qarich ham jilolmaymiz! O‘zingiz bilasiz, ot bizning qanotimiz, qanotimiz qayrilsa, sudralib yurolmaymiz, yigitlar bizning yuragimiz, yuragimizni esa o‘qqa tutib bergani sira toqatimiz yo‘q. Shu omonatni yaqin qarindoshimiz sifatida o‘rdaga olib ketsangiz...

— Yurtbuzar! — dedi Abil biy qaltirab, uning g‘azab to‘la kichik ko‘zlari chaqnab ketdi.

— Shu yurt buzganga kiradimi, ponsot aka? Yo‘q! Men dangal gapni aytdim. Yigitlarni bevaqt o‘limdan saqlashimiz kerak. Mayli, boraman degan kishining yo‘lini to‘smayman. Men esa bormayman. Endi rozimisiz?

— Bu qilig'ing boshingga balo bo'ladi. Aytib qo'yay, chopilasan, Beknazar! qarindoshlikka qarab turish yo'q, Beknazar. O'zingga ehtiyot bo'l!

Beknazar parvo qilmay dedi:

— Chopasizmi? Xohlagan vaqtingizda boring. Ovulimiz o'zingiz ko'rgan yashil o'zan bo'yida! — So'ng yigitlariga yuzlandi: — Qani ketdik!

U yigitlarini ergashtirib ketdi. Uning oldini to'sib chiqqani hech kim botinolmadi. Elchi ham, Abil biy ham o'rnidan qo'zg'alolmay shalvirab o'tirardi.

Yig'ilishdan bo'linib ketgan bir to'p otliq ko'zdan olislab borardi.

— Hap senimi, qon qusgurlar! — dedi Abil biy qo'li qaltirab, beli zirqirarkan.

Yaqin oradan kimdir:

— Endi nima qilamiz?.. — dedi. Shundan keyin sepoyani ag'dargan selday el tilga kirib, guvillab o'rnidan tura boshladi.

— Bormaymiz! Borib yelkamizga oftob tekkani yo'q!

— Padariga la'nat! Ot tugul uning tezagi ham yo'q. Otdan ayrilish qanotimizning qayrilgani!

— Botir to'g'ri aytdi! O'lgisi kelgan boraversin.

Ovozlar osmonni tutib ketdi.

— Bizni arg'umoqlardan ayirib, keyin boshimizga qipchoqlarning qora kunini solmoqchi shekilli...

— Hye, padaringga qusur!..

Odamlar selday guvillab, qahru g'azablarini yashirolmay, birining gapini ikkinchisi eshitmay otlariga yaqinlashdi. Abil biy boshchilik qilgan boylar, qishloq oqsoqollari, Abdurahmon elchi bu voqeani hayron bo'lib kuzatmoqda edi. Bir mahal to'planganlarning yarmisi otini minib, yayovlari ulovi borlarga mingashib Beknazar ketgan tomonga yo'l oldi...

Kengash bir qarorga kelolmay tarqaldi.

Abil biy bu yerda qolgan kishilarni uyiga chaqirib yuragidagi gina-kuduratini to'kib soldi:

— Bilib qo'yinglar. Keyin eshitmagan ekanman, deb yurmanglar. So'zim bitta! Beknazarning ortidan borgan kishi mening

dushmanim. Otamning otasi bo'lsa ham uqib olsin, taqimiga temir qizdirib tamg'a o'ydiraman... — dedi qahr bilan.

Qishloq oqsoqollari nima qilishlarini bilmay, uylariga qaytishdi, U loaqal ko'ngil uchun tashqariga chiqib kuzatib qo'ymadi.

Abil biyning xafagarchiligi o'sha kuni yozilmadi.

Natijada elchi bilan ham bundoq ochilib-sochilib gaplasholmadi. Tuni bilan mijja qoqmay, sahar tahorat olgani turdi.

Namozdan keyin, Abdurahmon g'udranib biyga yuzlandi:

— Ponsot aka... Siz bilan bizda nima ayb. Birovi el-yurt, birovi xon. Biz o'rtaga tushib xolis gapimizni aytdik, musulmonchilik burchimizdan qutuldik, endi yuzimiz yorug'... qolganini o'zlari bilishsin... — dedi chaynalib.

— Abdurahmon... — dedi Abil biy. — Menga Andijondan ikki yuz sipohiy to'plab ber. O'shandan birortasi nobud bo'lsa, xunini to'layman. Men ularni peshkash qilib turib... Abdurahmon! Menga ikki yuz sipohiy...

Abdurahmon Abil biyning titrayotgan labiga, ko'karib ketgan yuzlariga qarab, uni yumshatmoq niyatida tirjaydi:

— Bunday qilish yaramaydi, ponsot aka. Shaytonga hay bering. Bu qovjiragan xashakka gugurt chaqish bilan barobar. Olov chiqadi, ponsot aka!

Abil biy hayron bo'ldi. Uning aftidan, xo'sh, nima qil, demoqchisan degan ma'noni o'qish mumkin edi.

— Hazrati oliylarining qilt etgani madori yo'q. Xonning nomi-yu quruq g'ayrati bor, xolos. Xazina bo'sh, qo'shin tarqalib ketgan... Hozircha fuqaroning yurish-turishiga qarab, sen yaxshi, men yaxshi qabilida ish tutmoq darkormikin? Shunday qilmasak, ponsot aka, bizga boshpana bo'lib turgan somonxona ham yonib ketishi mumkin. Ha, yomon somonxona siz bilan bizga bir kuni ish beradi.

Oftobachining so'zi Abil biyning suyak-suyagidan o'tib ketdi. U yerga qarab zaharxandalik bilan kuldi:

— Shartinglar ketib, partinglar qolgan ekan-da?..

— Iloj qancha, ponsot aka? Beknazar botirning salomini aytmasdan ilojimiz yo'q. Bunday haq gaplarni elatdan ko'p eshitdim. Ham yoqlab, ham maqtab aytmoq lozim. Hazratga, qolaver-

sa, siz bilan bizga xalqning mana shu qolgani ham g‘animat bo‘lib qoldi.

Yuqoridagi suhbatdan keyin ular jim bo‘lib qolishdi. Har kim o‘z xayoli bilan band edi. Bir mahal Abdurahmon mudrab borayotgan ko‘zini asta ochdi-da:

— Darvoqe... Sari-Uzgan-Chuy tarafga qatnab turgan kishilar bormi? — deya chertib so‘radi.

— Yo‘q. Nimaydi? Kerakmi?

— Kerak-peragi yo‘q! — dedi Abdurahmon. — Bizga o‘sha tomonning kasofati uryaptimikin demoqchiman.

— Xudo saqlasin!

Yana jim bo‘lishdi. O‘y-xayollar har ikkovining tinkasini quritdimi, haytovur ular bo‘shashib o‘tirardi...

IKKINCHI QISM

I

Bir ming sakkiz yuz-u qirq ikkinchi yilning yozi...

Sherali keng yaylovda o‘tlab yurgan g‘unon kabi beg‘am edi. Ertalab muzdak qimrondan qorni to‘yguncha ichdi, yo‘rg‘a baytalni minib, tungi yaylovdan sog‘in biyalarni haydab keldi, yilqi boshini qayirib, qulunlarni quruq bilan ushlab bog‘ladi. Har kungi ishi shu. U hech narsadan bexabar qulunlarni arqonlab bo‘luvdi hamki, bir yigit chaqirib keldi.

— Sherali, dodxoh otam chaqiryapti, yur! — dedi shoshib. Yil bo‘yi biror marta yo‘qlamagan dodxoh nega hozir meni chaqirib qoldiykin, degan o‘y bilan Sherali haligi yigitning orqasidan yurdi.

Oq tug‘ bog‘langan serhasham bo‘z o‘tovning o‘ng tomoniga uzun yog‘och o‘rnatilgandi. Undan xiyla joygacha tortilgan ko‘kanda begona otlar turardi. Bu yerga kechadan beri qo‘shni qishloqlardan oqsoqollar to‘planayotgan edi. Sherali qayoqdan bilsin. U Hojiboy dodxohga ixlosi baland muridlari bo‘lsa kerak, deb o‘ylagandi. Ichkaridagi kishilarning g‘ala-g‘ovuri asalarilarining bir maromdagi g‘ing‘illashini eslatardi. Sheralini hayo bosdi. Peshonasini qashib, yurak yutib, zo‘rg‘a salom berdi. Dasturxon

atrofida Tolasning qadrli qariyalari, chapdast mirzalari o'n ikki qanotli katta o'tovda tamaddi qilishardi. To'rda qora kimxob choponni yelvagay tashlagan Hojiboy dodxohdan boshqa hamma o'rnidan duv etib turib Sheralining salomiga alik oldi. Bu nimasi? Hech qachon bunday izzat-ikromni ko'rmagan bechora Sherali noqulay ahvolga tushdi. Mehmonlar unga havas bilan qaragan sayin Sherali tortinib, qisinib-qimtinardi.

Jag' etlari qapishib, boshi qaltirab, oriq tizzalarini bukib o'tirgan Hojiboy dodxoh cho'kkan qari tuyaga o'xshardi, u boshini ko'tarib:

— Sheralimisan? Keldingmi? — dedi, keyin nursiz ko'zlarini unga qadab ilova qildi: — Yaqinroq kel, chirog'im.

Sherali egilib, cholning tarashaday qotib qolgan qo'llarini hurmat bilan sekin ushladi:

— Keldim, amaki... Chaqirtirgan ekansiz... — dedi ohista.

— Shunday, o'tir, chirog'im...

Sherali bir oyog'ida cho'kkaladi-da, amakisining ozg'in, sepkil bosgan yuziga o'ychan boqdi. Hojiboy dodxoh bir oz ko'zlarini yumib turgach:

— Mana bu odamlar seni kutib o'tiribdi, — dedi bosiqlik bilan, — chirog'im, eshityapsanmi?

— Qulog'im sizda, amaki...

Hojiboy dodxoh oppoq soqolini darmonsiz qo'li bilan silab, qisqa yo'taldi:

— Yaxshi otaning qoshiq bilan to'plagan mulkini yomon o'g'il cho'mich bilan sochib tugatar deganlari rost. Amir Temur Ko'ragoniy tuzgan bepoyon qudratli davlat, vafotidan keyin loaqal yuz yil yashamadi. Har bir shahar, har bir elda yashagan merosxo'r o'g'illari bir-biri bilan chiqisholmay, chor tarafga tortishi oqibatida davlat parokandalikka uchradi. Amir Temur Ko'ragoniyning Mironshoh degan bir o'g'lidan Sulton Muhammad, undan Abusayid, undan esa Umarshayx dunyoga keldi. Farg'ona o'sha Umarshayxning haqi mahriga tushgan edi. Bir kuni u o'zboshimchalik bilan Samarqanddagi ulug' amirning biri bo'lib oldi. U paytlarda hukmdorlar shon-shuhrat uchun atrofiga mashhur shoir, qo'shiqchi, raqqoca, sozanda va navozandalarni to'plar, o'rdada

to‘tiqush, mayna, oq kaptarlarni boqib, aysh-u ishrat surardi. Bir kuni u Axsi shahridagi sayrgohining bir chetida oq kaptarlariga don sochib o‘tirganida to‘satdan kaptarxona bosib, Umar Shayx jarlikdan qulab o‘lgan ekan. O‘shanda to‘ng‘ich o‘g‘li Bobur o‘n ikki yoshda edi. Bobur o‘sha yili, ya’ni 899 yilda (hijriy 1493 yili) otasining o‘rniga sulton qilib tayinlanadi. Yetuk aql egasi bo‘lmish sulton Bobur juda g‘ayratli, abjir bo‘lib, bobosi Amir Temurning tarqalib ketgan davlatini biriktirish uchun bel bog‘laydi. O‘sha vaqtda qadimgi Saynxonning (Botuxon demoqchi) inisi Shayboniyning urug‘idan tarqagan, keyinroq bobosining nomini olgan Shayboniyxon degan pahlavon chiqqan edi, u bir yerda tinib-tinchiy olmagach, Edil qirg‘og‘idagi Ko‘k o‘rdadan, undan so‘ng Oq o‘rdadan kunchiqishga qarab yurish boshlaydi va Samarqandga kirib keladi. O‘z og‘a-inisining murosasi yo‘qligiga chidasa ham, bobosining Samarqanddagi tabarruk taxtini o‘gay otaning o‘g‘li kelib egallab olishiga sulton Bobur chiday olmay, Shayboniyxon bilan qattiq olishdi, uch marta uni Samarqanddan quvib chiqarsa-da, biroq bu yerni bir yo‘la egallab qolishga qudrati yetmadi. Og‘a-inilari esa yordam berish o‘rniga Shayboniyxonni orqa qilib, Farg‘ona vodiysini talashga tushdi. Oqibatda Bobur Mirzo o‘z baxtini boshqa eldan izlab, Afg‘on tomonga bosh olib ketishga majbur bo‘ldi...

Hojiboy dodxoh tomoq qirib shoshilmay gapida davom etdi. Sherali kiprigini pirpiratib, boshini xam qilib, bu so‘zlar nega, kim uchun aytilayotganligining fahmiga bormay tinglardi.

— Bobur Mirzo oilasini, o‘ziga yaqin kishilarini olib yo‘lga otlanadi. Bevafo dunyo... Omad ketgach, yo‘lbars o‘z to‘qayida ochiqib o‘ladi, deb aytishgan ekan. Kindik qoni tomgan ona yurtida, ota-bobosining diyorida oyoq qo‘ygani yer, kiray desa boshpana topilmadi. O‘sha kezda Seydafak degan xotinining bo‘yida bo‘lib, oy-kuni yaqinlashib qolgan edi. Tog‘ taraf bilan ketishayotgan kezda xotinini to‘lg‘oq tutadi. Seydafak o‘g‘il ko‘radi. Nima qilish kerak? To‘xtash mumkin emas, chunki orqadan dushman quvib kelmoqda. Murg‘ak bolani olib otda qochishsa, nobud bo‘lishi mumkin. Tashlab ketgani ko‘zlari qiymaydi... Harnechuk ular go‘dakni yo‘l bo‘yida qoldirib ketishni lozim topishadi. Umri

bo‘lsa, o‘lmay qolar, Seydafak o‘g‘lini emizib, yig‘lab-siqtab beshikka belaydi va ustiga oq shoyi ro‘molni yopadi. Sulton Bobur esa otga minish oldida norasidaning manglayidan o‘pib, belidagi gavhar qadalgan kamarini yechib, beshik ustiga qo‘yadi, taqdirga tan berib ona tuproqni tark etishadi.

O‘tirganlar hayajondan qo‘zg‘alib, yana Hojiboy dodxohning og‘zini poylashdi.

— Xuddi o‘sha yerlarda jamoa bo‘lib yashayotgan qipchoq, qirg‘iz, qirq, ming degan urug‘lar Bobur Mirzo bolasini tashlab ketgan joydan yaylovga ko‘chib ketishayotganda ingalab yig‘layotgan go‘dak tovushini eshitishadi, bir kishi chopib borib, yovshon soyasida turgan oltin beshikni topib oladi...

Mehmonlar to‘lqinlanib, bir-birlariga qaraydi. Bu voqeaning mohiyatiga birgina Sherali emas, o‘zgalar ham unchalik tushunmasdi.

— E, qudratli ulug‘ Tangri! Saqlashga kelganda, qilning ustida ham saqlaysan-a... — deb tinglovchilar lol qolishdi, — O‘sha odam bolani oltin beshigi, gavhar kamari bilan qishloqqa olib keladi. Oqsoqollar to‘planib, maslahatlar berib, bu zoti ulug‘ kishining farzandi, deyishadi. Oltin beshik... Gavhar kamar... Uzoq-yaqinga xabar aytib, uning ota-onasini so‘rab-surishtirishadi. Lekin bu foyda bermaydi. Nihoyat, ming urug‘ qishlog‘idan bir ayolni topishadi, go‘dakni boqishni unga topshirib, norasidaga Oltinbeshik degan nom qo‘yishadi. Sherali, eshityapsanmi, chirog‘im?..

Sherali anqayib qaradi.

— Sen o‘sha Oltinbeshikning avlodisan. Eshitdingmi? Urug‘ing sultonlarga borib taqaladi.

Uyda o‘tirganlar ajablanib, Sheralini hozirgina ko‘rib turganday unga havas bilan boqardi. Sherali hayron bo‘lib, goh oqarib, goh qizarib, quvonishini ham, xafa bo‘lishini ham bilmay gangib o‘tirardi.

— Keyin... Ha ancha keyin sulton Bobur Hindistonga podshoh bo‘lib turganda bu yoqqa elchi yuborib, bolasini so‘ratgan deyishadi. Elchilar izlab yurib oxiri Oltinbeshikni topishadi. Biroq uni boqqan el bermaydi. Oltinbeshik balog‘atga yetganda unga to‘rt urug‘dan to‘rt qizni olib berishadi. Katta xotini Qutluqxon

ming urug‘ning qizi bo‘lib, u vaqt-soati yetib Tangriyor ismli o‘g‘il ko‘radi... — Hojiboy dodxoh entikib bir oz tin olmoqchi bo‘ldi. Unga kosada qimiz uzatishdi. Dodxoh qimizdan ho‘plab, tomog‘ini ho‘llab oldi-da, so‘zida davom etdi.

— Shayboniy urug‘idan bo‘lmish Buxoro hukmdori Abdilmo‘min Farg‘onani so‘rab turgan eng yaqin qarindoshi O‘zbekxonni qatl etib, vodiyni o‘ziga qaratib, Buxoroga qaytib ketayotganida yo‘lda uni ayg‘oqchilar o‘ldiradi. Shu bilan Shayboniylar inqirozga yuz tutadi. Keyin ashtarxoniylar taxtga o‘tiradi. Taxt talashish uzoq davom etadi va buxoroliklar Farg‘onani qo‘l ostida ko‘p saqlab turolmaydi. Farg‘onaliklar amirlikdan bo‘yin tovlab, sulton urug‘i Tangriyorni biy deb e’lon qiladi. O‘shanda Tangriyor oltmish yoshda ekan. Aytishlariga qaraganda, bu payg‘ambarning yil hisobi bo‘yicha bir ming oltinchi yilga[1] to‘g‘ri keladi. Shunday qilib, Tangriyordan tortib Norbo‘taga qadar o‘n uch biy o‘tdi. Uqib ol, o‘g‘lim! Oltinbeshikning urug‘idan o‘n uch biy davron surdi. Uning to‘rt xotinidan bino bo‘lgan farzandlari hech kimga bosh egmay “o‘zi biy”, “o‘zi bek” atalib kelindi. O‘sha vaqtlarda Shodi degan biy Marg‘ilonga yaqin tog‘dan ov qilib qaytib kelayotib, qirg‘iz ovullari qanday yashayotganligiga qiziqadi, kiyimlarini almashtirib qishloqni oralab yurganida tanibmi yo tanimaymi, uni o‘ldirib qo‘yishadi. U mahalda biyning xunini to‘lagani ovuldagilarning kuchi yetmagan. Bir ming bir yuz-u yetmish to‘rtinchi yillarda xitoylar Qashqarni bosib oladi, so‘ng jung‘or qalmoqlarini ayovsiz qirib, biz tomonga ko‘z olaytiradi. Qalmoqlarning omon qolgani boshpana izlab Farg‘onaga keladi. Oltinbeshikning farzandlari qalmoqlarga nisbatan qattiq ta’sir o‘tkazib, rahnamolik qilib, katta e’tibor qozonishadi. Eng oxirgi biy Norbo‘ta ichki va tashqi dushmanlarga bardosh beradigan o‘rda tashkil etish niyatida hijriy bir ming ikki yuz-u o‘n oltinchi yilda to‘ng‘ich o‘g‘li Olimni oq kigizga o‘tqazib, xonlikka ko‘taradi.

Mehmonlar keksa dodxohning hikoyasini qunt bilan tinglab, o‘rta yoshlardagi olako‘z, qotmadan kelgan Sheraliga zimdan qarab qo‘yishardi.

[1] Hijriy hisobda. Melodiy 1597-yilga to‘g‘ri keladi.

— Shunday qilib, Qo‘qon o‘rda atalib saroy solindi. Xonning nomidan oltin, kumush tangalar zarb etilib, xazina hisobiga askar to‘plab, hukmronlik xonning qo‘liga o‘tdi. O‘shanda men ittifoqo Olimxonni ko‘rib qoldim. U ishbilarmon, o‘ta tadbirkor va zolim kishi bo‘lib, davlatni qilich bilan qo‘lga olgan. Buning uchun arg‘umoqlarning tuyog‘ini, yigitlarning qonini ayamadi. Uning davrida Qo‘qon gullab-yashnadi. Sherali! Eshityapsanmi, chirog‘im? Olimxon ancha-muncha kishiga ishonavermasdi. Norbo‘ta dunyodan o‘tgach, baloning oldini olganim yaxshi, deb biyning yaqin qarindosh-urug‘larini gumdon qildi. Dastlab u sening otang Hoji biyning kallasini olgan, o‘g‘lim!..

Sherali yalt etib qariyaga qaradi va ko‘zlari yonib ketdi.

— Hoji biy bilan Norbo‘ta biyning otasi bir, onasi boshqa edi. Hoji biy uzoq vaqt Chotqolda tog‘alarining qaramog‘ida yashab, Tolasdan uylandi. Norbo‘ta biy qazo qilganida oriyat uchun o‘rdaga borib turdi va o‘sha yerda qolib ketdi. Keyinroq Olimxon uning boshiga yetdi. Bu ish bir ming ikki yuz-u yigirma uchinchi yilda yuz berdi. Shunda men o‘rdada edim. Sho‘rimiz qurib, o‘z yaqinlarim bilan seni otga mingashtirib kechasi shahardan chiqib ketganmiz.

Sherali nima deyishini bilmay o‘tirib qoldi. U ota-bobosining kim bo‘lganligini yaxshi bilmasdi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, uning ko‘zida yosh aylana boshladi.

— Ha, sen bilmaysan... Unda sen g‘o‘r eding. Seni xonlarning yomon ko‘zidan asrab, qanotim ostida tarbiya qildim. Olimxondan keyin inisi Umarxon taxtga o‘tirdi. U toj-u taxt talvasasida Olimxonning voyaga yetib qolgan o‘g‘li Shohruxning boshini oldi. Umarxonning niyatini tushungan Olimxonning xotini kichik o‘g‘li Ibrohimbek bilan Murodni Samarqandga olib qochdi. Sirasini aytganda, Umarxon akasiga qaraganda ancha tadbirkor bo‘lib, har qanday og‘ir ishni qilich bilan emas, aql bilan hal qilardi. Ayniqsa shaharda masjid, madrasa qurish ishlariga, ilm-u fanga, suvsiz yerlarga suv chiqarishga alohida e’tibor berdi, Umarxonning vafotidan so‘ng, taxtni uning o‘g‘li Madali egalladi. Afsuski, bu betavfiq otasining qoshiq bilan to‘plagan mulkini cho‘mich bilan sovurdi. U ota-bobolari katta mehnat bilan qurgan o‘rdaning

puturini ketkazdi. Buxoro amiri Nasrulloxon esa to‘satdan hujum qilib, Madalini Xo‘jand shahrining yonida tor-mor qildi. Qo‘qonni qo‘lga olib, Madalini vahshiylarcha qatl etdi, shaharning taqdirini o‘zining beklaridan biriga topshirdi... Shunday, chirog‘im! Yetim eding, yetilding. Endi navbat senga keldi. Talashmasang taxt bo‘lmaydi, o‘g‘lim! Davr bir marta keladi. Hozir fursat juda qulay. Keyin dog‘da qolma...

Hojiboy dodxoh xir-xir yo‘talib, kosadagi qimizni aylantirib, bir oz ichdi. Ayyor cholning fikr-o‘yi Sheralida. Uning gapini intiqlik bilan kutardi.

Sherali tilga kirdi:

— Amaki... Yolg‘iz o‘zim qayga ham borardim.

Hojiboy dodxoh bosh irg‘adi:

— Buyog‘idan xotirjam bo‘l, — dedi erkalatib, — bu yerdagi mehmonlar yolg‘iz o‘zingni otga mindirib, qarab o‘tirmaydi. Buyog‘i Axsi, Tolas, Chotqol sening qo‘lingda. Ot yoliga qo‘li yetgan kishilar izmingda bo‘ladi. Xavotir bo‘lma! Bir boshga bir o‘lim deganlar. Uning erta-kechi yo‘q. Nomus o‘limdan qattiq. Toza qoning bachkanalashib ketmasin, deb tagli-tugli, tubay urug‘ining biyi To‘xtanazarning qizini olib berdim. Tangriga ming qatla shukurkim, uch bolang bor.

Xavotir oladigan joying yo‘q. Bu yerda seni qo‘llab-qo‘ltiqlaydigan kishilarning biri Axsining hukmdori Yusuf biy o‘tiribdi...

Sariq soqolli kishiga Sherali zimdan qarab qo‘ydi. Tozining ko‘ziday ayyor ko‘zlar Sheralining ko‘zi bilan to‘qnashdi. Hojiboy dodxoh chap yonida o‘tirgan novcha qora yigitni ko‘rsatib:

— Buni taniysan, o‘zimizning inimiz Saydalibek. Mana, chirog‘im, biri o‘ng qo‘ling, biri chap qo‘ling.

Sherali tik qarayolmadi. Sukut — alomati rizo, deganlariday, engashib amakisining qora kimxob choponi etagini tavof qildi. Hojiboy dodxoh noiloj yo‘taldi:

— E, bir kam dunyo!.. Avvalgiday ko‘zimda nur, bilagimda kuch bo‘lganida... Chirog‘im, shu azamat kishilarning etagidan tutsang, murodingga yetasan. O‘zganing halol xizmatini halol mehnating bilan oqlay bil. Bundan nari el sening poyingni tavof qiladi.

Sherali terlab ketdi. Og‘ziga biror kalima kelmadi.

Hojiboy dodxoh Yusuf biyga yuzlandi:

— Yusuf ukam, boshlagan ishing ancha mushkul... — dedi o‘ylanib. — Ammo omad sen tomonda, buning uddasidan chiqasan. Bo‘ron tursa, ko‘l to‘lqinlanadi. El ham ko‘lga o‘xshaydi. Chog‘imda Nasrulloxonni bo‘ron qo‘rqitib qo‘ydi shekilli. Tap tortmay otlanaver. Boshqa kunda shuncha elni ovga ham olib chiqolmaysan. Safaring bexatar bo‘lsin! Ishing baroridan kelsin! Otalarimizning arvohi qo‘llasin. Omin!.. — deb oriq yuzlarini bazo‘r yozib, yuziga fotiha tortdi. — Sheralini sizlarga, sizlarni Xudoga topshirdim... Ollohu akbar!..

— Ollohu akbar!..

— Ollohu akbar!..

Barcha fotiha o‘qidi. Yusuf biy o‘rnidan turib, ta’zim bilan Hojiboy dodxohning qo‘lini ohista ushlab, tavof qildi:

— Bizni o‘zingizday ko‘ring... — dedi u.

Ertasi kuni Yusuf Hojiboy dodxoh qo‘shib bergan yetmish yigit bilan Sheralini olib tunda qora Buvra dovoni orqali Axsi tarafga yo‘l oldi.

II

Yusuf kelgan zahoti maslahatgo‘y kishilarni chaqirib, Sheralini tanishtirdi va anchadan beri yuragida tugib yurgan niyatini o‘rtaga tashladi.

— Qo‘qonga yurish qilaman! — dedi u. — Xayrli ishning belgisi sifatida beto‘xtov oq otlarning yol va dumlarini qizil qonga bo‘yatdi, unga jarchilarni mindirib, ovul va qishloqlarga xabar berdirdi.

— Muhtaram Yusuf biy Qo‘qonga yurish qiladi. Otlaninglar! O‘rdani buxoroliklardan tozalaydigan bo‘ldi. Otlaninglar! Yusuf biyning qo‘lida toj-u taxt merosxo‘ri. Otlaninglar! Yusuf biy odil zamon o‘rnatishga bel bog‘ladi. Oltin toj-u taxt oldida bandalik qarzingizni uzingiz. Otlaninglar! Otlaninglar...

Yol va dumi qizil qonga bo‘yalgan oq otni shirinsuxan jarchilar ikki suv orasidagi (Sirdaryo bilan Qoradaryo) qipchoq urug‘iga

xabar berdi. El qo‘zg‘alib, har joy-har joydan oq, ko‘k tug‘ ko‘targan qo‘shinlar kela boshladi...

...Oppoq qordan salla o‘ragan baland tog‘ etagiga o‘tovlar tikilgandi. Suvning ikki tomonida son-sanoqsiz chodirlar tizilgandi. Qo‘shinning had-hisobi yo‘q edi. Askarlarning ko‘pchiligi o‘zan tomonda harbiy mashq o‘tkazishardi.

O‘zandan uncha olis bo‘lmagan do‘nglik ustida boshqa chodirlardan kattaroq o‘tov qad ko‘targandi. Qizil hoshiyali ana shu o‘tov ustida oy nusxa ko‘k tug‘ shamolda hilpirab turardi. Eshigi ochiq. Ikki tomonda qilich tutgan ikki posbon shamdek qotib turardi.

Bo‘sag‘adagi ikkala yigit Yusuf biy tashqariga chiqishi bilan ta’zim qilib yo‘l berishdi. Yusuf qizil banoras to‘n kiyib, boshiga ko‘k salla o‘ragandi. Belidagi o‘ramasi sallasiga monand rangda bo‘lib, unga buxorolik zargarlar jilo bergan chiroyli shamshirni taqib olgandi. Oyog‘ida o‘kchasi baland ag‘darma etik bor edi. Yonida o‘ziga yaqin maslahatgo‘y kishilar hozir-u nozir edi. U vaqtincha dam olayotgan qo‘shinlarga o‘ziga xos bosiqlik bilan ko‘z yugurtirib, hali oldinda g‘oyat mashaqqatli yo‘l turganini xayolidan o‘tkazdi.

— Karnay chalinsin! — dedi Yusuf bosiqlik bilan.

Ikki karnaychi joni boricha mahorat bilan g‘atg‘utlatdi. Tog‘-u toshlar karnay sadolaridan yangrab, el harakatga tushdi. Hamma bir joyga to‘plana boshladi. Yigitlardan biri otini yeldirib, biyga peshvoz keldi-yu, biroq salom berishga ulgurmadi:

— U yoq tayyormi, Kedeyboy? Tezlatinglar! — dedi Yusuf. Kedeyboy otidan sakrab tushib, tizginni yigitlardan biriga tutqazdi.

— Tayyor! Hammasi tayyor, Yusuf aka...

Yusufning chehrasi yorishdi.

— Unda anovini olib chiqinglar! Tezroq! Qurol! Tug‘!

Biylar shoshib qolishdi. Kedeyboy chodirga kirganida Sherali o‘zini qo‘ygani joy topolmay, yuragi dukullab o‘tirardi.

— Keling, qaynag‘a!.. — deya o‘rnidan irg‘ib turdi.

Kedeyboy unga javob berish o‘rniga:

— Yur... Ish bitdi... — deb shivirlab, Sheralining eski telpagini, to‘zib ketgan chakmonini kiydirdi, belini qasmoq belbog‘ bilan

mahkam bog‘ladi. Kedeyboy Sherali pochchasi bo‘lgani uchunmi, sal ori kelib, uning kiyimiga ahamiyat bermagan Yusufdan xafa bo‘ldi. Shahzodaning turqi shu bo‘ldimi?

Xalq uni ko‘rib nima deyishi mumkin?

Sherali chodirdan chiqdi. U quvonchini yashirolmay peshonasi terlab, og‘zining tanobi qochib, nima deyishini bilmay chor atrofga qarardi. Uning bir yonidan Kedeyboy, ikkinchi yonidan qipchoq urug‘ining begi Musulmonqul suyab olib chiqdi.

– Qurol! Tug‘!

Qarsillab osmonga miltiq otildi. Chodirning ikki tarafida turgan do‘lchilar do‘l urib, karnay sadolaridan yer-u osmon larzaga keldi. Xotirjam o‘tlab yurgan yilqilar sergaklanib, quloqlarini chimirdi. Qo‘shin ko‘k tug‘ ostiga yaqinlashdi. Ko‘m-ko‘k maydon o‘rtasiga oppoq kigiz yozilgandi. Xaloyiq ana shu oq kigizning atrofiga to‘planib, do‘nglikdagi chodirga alang-jalang qarardi. Chodir bilan maydonga to‘shalgan kigiz orasidagi masofa o‘rtasidan yo‘l qo‘yilib, ikki yoqqa odamlar saf tortdi.

— O... Qaysi?.. Qaysinisi?..

— Nahotki! Yo‘g‘-e?!.

— Bo‘lmagan gap!.

— Oyog‘idagi choriqni qara... Tavba... Yamalaverib butun joyi qolmabdi-ku!..

— Hi-Hi...

— Ha-Ha...

— Sekin!.. Yana halqumingga shamshir qadalib qolmasin...

Yusuf o‘rtadagi tor yo‘ldan savlat to‘kib o‘tib borarkan, elning shivir-shivir gaplarini eshitib, o‘ziga taskin berdi. “Yaxshi bo‘ldi. Xalq ko‘rsin. Sheralining kim ekanligini bilsin. Uni qanday baquvvat qo‘llar oq kigizga o‘tqazganidan ogoh bo‘lsin”, deb xayolidan o‘tkazdi.

Oq kigizning yonida turgan oq soqolli qariyalar bekni ehtirom bilan qarshi olishdi.

— Assalomu alaykum, qadrli qariyalar! — deya Yusuf qiroat bilan salom berdi.

— Vaalaykum assalom, ota o‘g‘li! Oq yo‘l! Xo‘jayi Xizr jilovdor bo‘lsin!.. — deb chollar hurmat bilan alik olishdi. Yusuf

pichoq damiday o‘tkir ko‘zlari bilan atrofga bir qur nazar tashlab, oq kigiz chetida, qurolli kishilar o‘rtasida turgan o‘n besh yoshlar chamasidagi bola yoniga keldi. Bolaning rangi-ro‘yi kuzgi yaproqday sap-sariq. Labi bilinar-bilinmas titrardi. Bir tizzasini sal bukib, butun og‘irligini o‘sha yoqqa tashlagani uchunmi, yelkasi qiyshayib, qo‘llari epaqaga kelmay shalvirab turardi. Yusuf buyruq berdi:

— Boshlanglar.

Karnay va do‘llar tindi... Hamma yashil maydonga o‘tirdi. Keksa ulamo qiroat bilan xutba o‘qidi. Sheralining hurmatiga bag‘ishlangan xutba nihoyasiga yetgach, fotiha tortildi. Yana bir muddat karnay va do‘llar chalindi.

Qani! Ollohu akbar, Ollohu akbar!.. — dedi ulamo xirillagan ovozda. — Ollohu akbar, Ollohu akbar...

Qurolli kishilar bolani qo‘ltig‘idan suyab:

— Qo‘rqma... Qo‘rqma... — deb oldinga o‘tkazib, oq kigizga yaqinroq olib kelishdi.

— Qo‘rqma, hech narsa bo‘lmaydi... Hech narsa...

Odamlar jim bo‘lib qoldi. Hammaning nigohi begunoh bechora bolada edi. U entikib, o‘tirganlarga mo‘ltirab, go‘yo bezgak tutganday qaltirardi. Karnay sadolari ostida:

— Ollohu akbar!.. Yolg‘iz Xudoning yo‘liga, Ollohu akbar!.. Sultonlarning yo‘liga... Chiltonlarning yo‘liga... Ollohu akbar, Ollohu akbar!.. — deya ulamoning ovozi bir maromda eshitilib turardi.

Nogahon orqa tomondan kimningdir qattiq nolasi quloqqa chalindi. Hamma o‘sha yoqqa qaradi.

— O, yolg‘izim... Sadag‘ang bo‘lay... — deb bo‘zlab yig‘lardi kimdir. — Ko‘rar ko‘zim!.. Yolg‘iz eding, sadag‘ang bo‘lay!..

Bu ayol kishining nolasi edi. Yusufning qosh-qovog‘i chimirilib, yuzlariga qon tepib, ko‘zi o‘ynab, burilib qaradi.

O‘tirgan odamlarni oralab, yo‘lini to‘sgan kishilarni turtib, qora ko‘ylak kiygan novcha xotin yugurib kelmoqda edi. Uni to‘xtatib qolishga hech kimning haddi sig‘madi. Qirov bosgan shuvoqday oppoq sochlarini yozgan ayol bolani o‘rtaga olgan qurolli kishilarning qarshiligiga qaramay, o‘jarlik bilan bolasini bag‘riga bosdi. Bola onasining bag‘rida dir-dir qaltirab:

— Oyijon... Oyi... — deb yig‘lab boshini yashirdi. Zum o‘tmay kuchli qo‘llar ikkovini ikki tomonga ajratdi. Ona bolaga talpinib, bir-biriga yopishdi. Yana ularning orasini ajratmoqchi bo‘lishdi.

— To‘xta!

Yusufning qo‘pol ovozidan qurolli kishilar hushyor tortdi. Uning kahraboday sariq soqollari selkillab, nafrat to‘la ko‘zlarini qurbonlik qilishni zimmasiga olgan ulamolarga qadadi. So‘ngra burilib:

— Kampir, bu sening o‘g‘lingmi? — deb sekin so‘radi. Kampir entikib, ayyuhannos solib, Yusufning oyog‘iga yiqildi.

— Shafqat qil!.. Rahming kelsin, bekzoda... O‘zi bir yonboshi shol, yarimjon edi, bekzoda!.. Xudoning bu jazosi unga ozmidi... Yolg‘iz farzandimdan qolgan tuyog‘im, bekzoda... Otasining mozoriga Qur’on o‘qigani ketsam, azador kelinimni zor qaqshatib, bolamni olib kelishibdi... E, beshafqat Tangri, senga nima yozgandim...

Yusuf sal engashib, kampirning qulog‘iga shivirladi:

— Kampir, bolangni berdim, ko‘p koyima, olib ket. Bilmay qilishibdi, olaver...

Kampir tushimmi, o‘ngimmi, deb gangib qoldi Hamon uning ko‘zlaridan yosh oqib, yuzlarini yuvardi, es-hushini yig‘ib ololmasdi.

— Bor... Olib ketaver, kampir... — deya shafqat qildi Yusuf.

— Ming yasha... Olloh ikki dunyoda ham kam qilmasin... G‘aribni qo‘llaganni Tangri qo‘llaydi... Ming yasha... — deb tislandi va nabirasini qora ko‘ylagi bilan yashirib, to‘plangan olomon orasidan jadal chiqib ketdi.

Oqsoqollar mulzam bo‘lishdi. Biylar xijolatda edi. Sheralining dami ichida edi. Yusufning g‘azabi qaynab, kimning boshida chaqmoq bo‘lib chaqilishini bilmay, oq kigizni o‘rab turgan kishilarga bir sidra qapab, juda o‘sal bo‘ldi.

— Avval kampirni tinchitish kerak edi. Hech bo‘lmaganda, uni bu yerga keltirmaslik lozim edi, — dedi fig‘oni oshib.

Biylarning qatorida turgan Abil:

— Ashir! — dedi ortiga qarab.

— Labbay, biy og‘a... — dedi shoshib Ashir, u Abilning ishorasiga mahtal bo‘lib, buyruq kutardi. Abil qo‘lini bigiz qilib uni ko‘rsatdi.,

— Ushlanglar! — dedi. Haligi yigitni ikki kishi shartta ushladi. U qarshilik ko‘rsatmadi, qip-qizil yuzlari darrov paxtadek oqarib ketdi, negadir ko‘zini Abildan uzolmasdi. Abil unga qayrilib qaramadi. Karnaylar qaytadan yangradi, do‘llar chalinib, yuraklarni titratdi. O‘lim! O‘lim! Ajabo! Kutilmagan o‘lim bilan yuzma-yuz kelgan yigitning afti-angori quv o‘chdi...

— Ollohu akbar! Ollohu akbar! Sultonlarning yo‘liga... Ollohu akbar!.. Chiltonlarning yo‘liga... Ollohu akbar! — degan uzuq-yuluq gaplar Ashirning qulog‘iga chalindi. — Ollohu akbar!.. Ollohu akbar!.. Sultonlarning... Chiltonlarning... Ollohu akbar!..

Ikki kishi uni yetaklab oq kigizning bir chetiga bordi.

— Qo‘rqma... Qo‘rqma... Hech narsa bo‘lmaydi... Hech narsa bo‘lmaydi...

Bu mayin so‘z qulog‘iga kalimaday yoqimli eshitildi. U sekin ko‘zini yumdi. Baquvvat qo‘llar qayoqqa itarsa ham qarshilik ko‘rsatmay, tiz cho‘kdi. O‘lim! O‘lim! Yurak tipirchiladi. Qo‘rqma! Hech narsa bo‘lmaydi! Uning umid uchqunlari go‘yo zim-ziyo tun bag‘rida miltillab nur sochyapti. Urf-u odat? Balki biror yeridan nomiga qon chiqarib qo‘yib yuborishar. Noumid shayton!..

Baquvvat qo‘llar uning ikki bilagini orqasiga qayirib, mahkam ushladi. Yana bir beshafqat qo‘l uning hali mo‘y chiqmagan jag‘ini sal yuqori ko‘tardi. Halqumiga muzdek keskir bir narsa urilib, vujudi titrab ketdi.

— Oyijon!..

Talpindi, ikki yelkasigina bilinar-bilinmas titradi. Ko‘z ochib-yumguncha muzdak shamshir, berahm shamshir qizil yuzli yigitning kekirdagini kesib o‘tdi.

— Ollohu akbar! Ollohu akbar! Bir Xudoning yo‘liga... Ollohu akbar! Sultonlarning yo‘liga... Chiltonlarning yo‘liga... Ollohu akbar!..

Qip-qizil qon yozilgan oppoq kigizga betinim oqardi... Qorday oppoq kigiz qizil qonni emardi...

Shabada issiq qon hidini dimoqqa ufurardi.

Karnaylar tinmadi. Do‘llar qonli tantananing dahshatiga dahshat qo‘shib, bir maromda gumburlaydi.

— Ollohu akbar... Ollohu akbar...

Beg‘ubor oq kigiz ustida qon tomchilari qizil gulday tovlanardi. Sheralini Yusuf bir qo‘ltig‘idan, Musulmonqul ikkinchi qo‘ltig‘idan olib, asta-sekin Ashirning yerda ayrilib yotgan boshi uzra hatlatib, kigizning ustiga o‘tqazishdi.

— Baxtimiz muborak!.. — dedi Yusuf kulimsirab.

— Baxtingiz qutlug‘ bo‘lsin! — dedi Musulmonqul erkalatib.

Sherali nima deyishini bilmadi. Karnay va do‘llar avj pardada edi. Sherali chor atrofdan kelib muborakbod qilayotgan oqsoqollarga, biylarga tirjayib qarardi.

— Qutlug‘ bo‘lsin baxtingiz!.. Muborak bo‘lsin yarashiqli taxtingiz!.. Shahzodamiz, yurt g‘amida o‘tsin endi vaqtingiz!..

Musulmonqul qo‘sh tig‘li og‘ir qilichni Ashirning qoniga bulab oldi-da, uchidan qonini oqizib Sheralining beliga taqdi.

— Qurolingiz qutlug‘ bo‘lsin! Dushmanlar undan o‘lsin!.. El-u yurtni qo‘riqlasin!.. Badbaxt dushman sasin o‘chirsin!..

Karnay va do‘llar sadosi ostida osmonga qarata miltiqlardan o‘q uzildi.

— Kimning, kimning zamoni? Sheralixonning zamoni!

Yusuf, Musulmonqul bosh bo‘lgan ahli donishlar, oqsoqollar qonli kigizni bir chekkasidan ushlab yerdan dadil ko‘tarishdi.

Sherali yiqilayotib, Yusufning yelkasiga suyanib qoldi va engashganicha kigiz ustida ikki beti qizarib, ishshayib borardi. U xuddi tush ko‘rayotgan odamga o‘xshardi.

— Kimning, kimning zamoni? Sheralixonning zamoni!

Karnaylar tinmay g‘at-g‘ut qilardi, odamlar shahzodaga shonsharaf tilab o‘rnidan qo‘zg‘aldi.

— Kimning, kimning zamoni?..

Marosim tugab, Yusuf o‘tovga keldi. U negadir xafa edi... Sariq mo‘ylabining bir tomonini burab, o‘ng tizzasini mushtumi bilan yerga qadab xayol surardi. Yonida o‘tirgan Sheralining xursandchiligi hech yerga sig‘masdi:

— Endi nima qilamiz? — deb so‘radi u. Yusufning g‘ashi keldi, o‘zini eshitmaganga solib, churq etmadi. Sherali aytgan gapiga pushaymon yedi.

Kedeyboy isi burqiragan qora sanochda qimiz keltirdi. Yusuf uni ko‘rib tamshanib oldi.

— Qani, quy!..

Yusuf qo‘lidagi guldor zarang kosani Sheraliga uzatdi. Sherali egilib:

— Icha qoling... Iching!.. — dedi. Yusuf qimizni dam olmay ichdi va bo‘g‘in-bo‘g‘inlari yengil tortib, sarxush bo‘ldi.

Birpasdan keyin Yusufning amriga ko‘ra, o‘tovga biylar, oqsoqollar, yigitlar to‘plandi. Kelganlar tiz cho‘kib, Yusufning nima demoqchi ekanligini kuta boshladi.

— Bir kampirni to‘xtatish qo‘linglardan kelmadi-a? — dedi u kinoya bilan. — U qaysi go‘rdan yetib keldi?.. Qurbonlik topilmay uyat bo‘layozdik-a? Tavba! Xon ko‘tarish shunday bo‘ladimi?

Musulmonqul qoshini kerib:

— Ilgariroq aytilganda g‘amimizni yeb kelardik... — dedi.

Musulmonqulga ro‘baro‘ o‘tirgan patak soqolli biy g‘udrandi:

— Kampirning ko‘ngliga qarab o‘tirmay... — deb endi gap boshlagandi, Yusuf baqirib yubordi:

— To‘xtat! Hoy, naymanning biyi, kampirning ko‘ngliga qaramay, bo‘g‘izlab qo‘yadigan vaqtmi hozir? Quyoshni ko‘rgan sovuq yemas, xonni ko‘rgan harom o‘lmas, deganlar. Oldingga birov arz bilan kelsa, so‘raganini bermasang, el oldida yomonotliq bo‘lasan. Yomon nom qilichning damiday sovuq bo‘ladi, baxt-u taxting zil ketadi. O‘zimiz yaxshi niyat bilan xon ko‘tarib, Qonli yo‘lga otlanib turganimizda...

Uning so‘zini hech kim qaytarmadi. Qarash biyning o‘g‘li Abil biy o‘z vaqtida Yusufning e’tiborini qozonolgandi. Yoshiga yarasha poygakda o‘tirsa ham, ko‘zini bekdan sira uzmasdi.

— Abil, — dedi Yusuf erkalatib, mayin ohangda. Abil o‘zini rostlab:

— Labbay, bek og‘a?.. — dedi.

Yusuf mo‘ylabi sabza urib qolgan yosh yigitga ixlos bilan qaradi.

— Qancha yigiting bor?

— Yuzta edi, to‘qson to‘qqizta qoldi.

Yusuf bosh irg‘adi:

— Rahmat, uka! Aqlli ish qilding. Rahmat! Yuzinchi yigiting uchun minnatdorman.

— Siz uchun otga egar uradigan yigitim emas, hatto o‘z boshimni ham ayamayman, bek og‘a!..

— Qaytimi qaytib qolar, ukam. Quloq sol, sen bu marosimda tug‘bardor bo‘lishga arzigulik ish qilding. Tug‘boshi bo‘l. Qo‘shinning oldida yur. Eshitdingmi?..

— Xo‘p bo‘ladi, bek og‘a!

Shu yo‘sinda Yusuf xonning nomidan o‘zining birinchi buyrug‘ini berdi.

— Biylar, mana xonlik bo‘ldik, beto‘xtov yo‘lga hozirlik ko‘ringlar. Urushda turish bo‘lmaydi. Otlanamiz. Tunda jo‘naymiz. Kunduzi dam olib, faqat kechasi yuramiz. Hech bir sharpasiz, tog‘ ortidan iloniziday yurilsin. Eshitdinglarmi?.. Bu Sheralixonning buyrug‘i...

Sheralixon bo‘lsa boshqa biylarday anqayib og‘zini ochib o‘tirardi.

Ertasi ko‘zga keng maydonda ezg‘ilangan o‘t-o‘lan, otlarning tezagi va ko‘k pashshalargina qoldi. Tuprog‘i hali qurib ulgurmagan yolg‘iz qabr qoldi...

* * *

Nogiron nabirasini tullagan qizil ho‘kizga mindirib olgan qora ko‘ylakli kampir daladan kelardi. Bo‘liq pichanzor oralab ular yangi go‘rni qidirardi...

— Qarabroq yur, o‘g‘lim. Mendan ko‘ra ko‘zing o‘tkirroq...

— Qaerga ko‘mishdiykin? — so‘radi ho‘kizning ustidan oriq bo‘ynini cho‘zib nabirasi.

— E... Sho‘rlik... Peshonasida sho‘ri bor ekan. Rahmatlik shu orada yotgan bo‘lsa kerak. Yotmay, qaerga ham borardi...

Ular namxush tezaklardagi ko‘k pashshalarni to‘zitib, ot ezgan o‘t-o‘lanlarni oralab, oxiri qabrni topishdi. Etik izlari tagida oq

gullar so‘lib, shahidning yangi tuprog‘iga qorishib yotardi. Yaqin kelib to‘xtashdi. Kampir nabirasini ho‘kizdan tushirib:

— Ana... Odatimizga ko‘ra, o‘kirib yig‘lab qo‘y, o‘rgilay... — dedi kampir o‘zini tutolmay. Bola uvvos tortdi.

— Jigarim... Ji-ga-rim...

Kampir marsiyalardan birini ixlos bilan aytib yig‘lardi.

Bola ko‘z yoshlarini kafti bilan artib, buvisining aytib yig‘lashiga quloq soldi. Kampir qabrga yaqinroq o‘tirib o‘ksib-o‘ksib yig‘lardi.

U qora ko‘ylagining keng yenglari bilan ko‘zlarini artib, o‘zini rostladi. Bola nogiron qo‘lini sog‘ qo‘li bilan ko‘tarib tizzasiga qo‘ydi va yoshi qotib qolgan kipriklarini pirpiratib do‘ppayib turgan qabrga tikildi.

— Buvi...

— Ha...

— Ismi nimaykin-a?..

— Ismi nimaykin deysanmi? Ismi nima bo‘lardi, qarog‘im... Bechora, yolg‘iz-da... Yo‘qlaydigan odami yo‘q-da, bo‘lmasa bo‘ri tortgan yetim uloqday keng dalada yotarmidi...

Kampir ho‘kizga ortilgan xurjundagi dasturxonni yozib, pishgan go‘sht, bo‘g‘irsoq olib, ichida pichirlab nimanidir o‘qidi va ana shu narsalarni shahidning arvohiga bag‘ishladi, marhumga Xudodan narigi dunyoda rahm-shafqat so‘rab, fotiha o‘qidi. Kampir bilan nabira g‘amgin o‘tirib tamaddi qildi, sanochdagi ayrondan ho‘plashdi.,.

Quyosh qora bulut ingan tog‘lar ortiga og‘ganda tullagan qizil ho‘kizga nabirasini mindirgan kampir so‘qmoqdan adir ortiga o‘tib ketdi. Ustidan mayin shabada esayotgan yolg‘iz qabr bo‘zarib qoldi...

III

Yusuf o‘n mingdan oshiq lashkari bilan Qo‘qonni qamal qildi. Shaharning o‘n sakkiz darvozasi bo‘lib, u har bir darvoza oldiga kuchli himoyachi qo‘ydi, yo‘llarni to‘sdi, suv keladigan ariqlarni bo‘g‘dirdi, qo‘rg‘on devoridan o‘q otilsa yetmaydigan yerga chodirlar tikdirib, bazmi jamshid qurib yotdi.

Yusuf o‘zidan oldinroq shaharga kiritib yuborgan qalandarlar esa ko‘chama-ko‘cha daydib, qilingan gunoh uchun do‘zax o‘tida kuyadigan vaqt kelganligini aytib, odamlar yuragiga g‘ulg‘ula solardi. Tashqaridan qamal qilib turgan belgisiz yovning dahshati bilan qalandarlarning vasvasi qo‘shilib, shaharliklarni og‘ir ahvolga soldi. Bozorlar tarqalib, choyxonalar bo‘shab qoldi. Amir Nasrulloning Qo‘qonga qo‘yib ketgan begi Ibrohim Xayol sipohiylar yordamida darvozalarni mahkam berkittirib, yurgan qalandarlarni haydab, qo‘lga tushganini zindonga solib, elni tinchlantirmoqchi, to‘polonni bostirmoqchi bo‘ldi. Afsuski, suvdan, o‘tdan qiynalgan xalqni ovutib bo‘lmadi. Ibrohim Xayol qamal qilgan dushmanga zarba berish, hech bo‘lmaganda bir oz nariroqqa chekintirish lozimligini aniq his qildi.

G‘ira-shirada Ibrohim Xayol o‘z sipohiylari bilan birga shahar darvozalarini, pistirmalarni ko‘zdan kechirib kelayotgan edi.

— Bek, siz bilan qalandar uchrashaman deyapti... O‘zingizga aytadigan muhim gapi bormish... — dedi kunchiqar tomondagi darvozaning yuzboshisi Ibrohim Xayolning yo‘lini to‘sib, ta’zim qilarkan...

— Qayoqdagi qalandar?

— Menga aytmadi...

Ibrohim Xayol indamay otdan tushib, navkarlari bilan birga darvozaning biqinidan yuqoriga narvon orqali ko‘tarilib, qo‘rg‘onning ustiga chiqdi. U eni arava bemalol qatnaguday qalin, baland devor ustidan ancha nari-beri yurdi. U nimani o‘ylayotganini navkarlar bilmasdi. U hech kimga indamay odimlar edi, navkarlarning ko‘ziga goho bekning boshidagi yorlig‘i yalt etib tashlanib qo‘yardi. Biror so‘z aytishga hech kimning yuragi betlamadi. Qo‘qonni qo‘ldan berib qo‘yish ishiga aralashgan bu odamlar amir Nasrullo oldida javob berishdan qo‘rqishardi.

Qo‘qon olovli halqada edi. Ko‘kdagi yulduzlar shahar atrofiga to‘kilib tushganday tongga qadar gulxan yonardi. Odamlarning g‘ala-g‘ovuri, otlarning kishnashi tinmasdi. Shahar ichi qorong‘i edi. Faqat sipohiylar turgan joylardagina mash’alalar o‘chmasdi. Dov-daraxtlar motam libosini kiygan xotinlarday beli bukchayib, uylar eski qabrlarday bo‘zarib turardi.

Ibrohim Xayolga bu ko‘rinish og‘ir ta’sir qildi.

— Qalandarni buyoqqa chaqiringlar.

Dam o‘tmay novcha bir kishini orqasidan turtib olib kelishdi.

Qalandar salom berdi. Ibrohim Xayol alik olgan bo‘lib unga engashib qaradi. Qalandarning basharasi ko‘rinmadi.

— Sham!

Mayin shabadada tebranib yonayotgan sham Ibrohim Xayol bilan qalandarning yuzini zo‘rg‘a yoritdi, U qalandarning aftiga qunt bilan boqdi. Ibrohim Xayol siyrak kipriklari orasidagi qisiq ko‘zlarini kattaroq ochdi.

— Qalandarim, yulduz sanaysizmi yoki rom ko‘rasizmi? — deb so‘radi bek.

Qalandar jilmaydi.

— Bek, bir hafta ichida yuz beradigan voqeani men rom ko‘rmay bilaman. Osmondagidan ko‘ra yerdagi yulduzlarning sirini yaxshiroq anglayman.

Ibrohim Xayol boshini quyi solib, bosh irg‘adi, huzurida turgan qalandar odamning kim ekanligini aniq tasavvur qildi. U boshini ko‘tarmay ancha turdi.

— Ayt, qaysi tarafdan kelding?

— Narigi tomondan...

Qalandar son-sanoqsiz gulxan yonib turgan yoqqa ishora qilganida Ibrohim Xayolning yuragi shuv etdi, rangi oqarib, bildirmaslikka urindi. Lekin qalandarning ziyrak ko‘zlari hamma narsani aniq uqdi.

— Ular kimlar?

— Tog‘liklar. Tog‘liklarning chap qanoti. Bugun-erta o‘ng qanoti — vodiyliklar ham keladi...

Navkarlarning ko‘zi alang-jalang bo‘lib, o‘zaro shivirlashdi.

— O‘z ko‘zing bilan ko‘rganmisan? Har bir gulxan atrofida qanchadan odam bor? Aytib berolasanmi?

— Bittadan ponsot bor, bek!

Ibrohim Xayol o‘ylanib qoldi. Qalandar labini qimtib, Yusuf har bir yigitga bittadan gulxan yoqishga buyruq berganligini esladi. Ibrohim Xayol ishonqiramay boshini chayqadi.

— Har ponsotning qo‘lida besh yuzdan askar... Shundaymi?..

— Ko‘rib turibsiz-ku, bek!..

— Him...

Shu mahal qal’aning ichidan shovqin-suron eshitildi. So‘kingan, xirillagan ovozlar, temirlarning jarang-jurungi, kimningdir og‘ir ingrashi... Ibrohim Xayol sergaklandi. Orqasiga burilib quloq soldi. Kimdir narvondan tez-tez chiqib, chopganicha qo‘rg‘on chetiga chiqdi.

— Bek qayda?.. Bek qayda?.. — deb entikib kelardi u. Ibrohim Xayol va uning navkarlari nima gap ekanligini bilmay turib qoldi. Xabarchi keng chakmoniga o‘ralashib:

— Bek!.. Bek!.. — derdi nuqul gapirolmay. Ibrohim Xayolning jahli chiqib:

— Nima? Tezroq gapir! Nima gap?.. — deb baqirdi.

— Sipohiylar janjal chiqarishyapti, bek!.. Qo‘qonning sobiq sipohiylaridan iborat yuzlar urug‘i...

Bu noxush xabar begona kishi oldida Ibrohim Xayolga xanjar urilgandek qattiq ta’sir qildi. U ingrab yubordi.

— Yo‘qol, ponsot, — dedi sekin, — qon to‘kmay, asta bosib qo‘yinglar. Ularning talabini qondirib, bosib qo‘yinglar...

— Bek... Ular darvozani ochamiz deyishyapti...

Bek nima deyishini bilmay qoldi. Navkarlarning quti o‘chdi. Ibrohim Xayol qo‘lini siltab: — Jo‘na, men hozir boraman, men borguncha darvozani ochmanglar....

Ponsot yugurganicha pastga tushib, otiga mindi-da, qorong‘ida choptirib ketdi. Bek otning dupuri bosilgunga qadar quloq solib turdi. Nima qilmoq kerak? Kuch oz. Buxoro olis. Yo‘l berk. Kelishmovchilik... Javobsiz savollardan boshi zirqillab og‘riy boshladi.

— Qani, endi nima qilamiz? — so‘radi navkarlaridan. Hech kim indamadi. Bek savolini aniqroq aytdi: — Himoya qilamizmi?.. Yoki shahardan chiqib ketaylikmi?

Yana hech kim javob bermadi. Ibrohim Xayolning sabri chidamadi. U ko‘zini lo‘q qilib turgan qalandarning qarashidan ko‘p narsani payqadi.

— Xo‘sh! Og‘zingizga tolqon solganmisiz? Bilaman, panada, chetda qolmoqchisizlar. Mayli, hazratning oldida yolg‘iz o‘zim javob beraman! — deb po‘pisa qildi. Navkarlar kalamushday pisib

ketdi. Ibrohim Xayol son-sanoqsiz gulxan yonayotgan tomondan ko‘z uzmay bo‘shashib qoldi.

Bek yerga qarab turarkan: “Bularning mingboshisi bormikan?” — deya o‘ziga-o‘zi savol berdi.

— Mingboshisiz qo‘shin bo‘lmas! — dedi qalandar. Ibrohim Xayol boshini ko‘tardi.

— Uni qayoqdan bilasan?..

— Bu Xudoning qudrati. Bashoratim ham...

— Him...

— Boshlig‘i shafqatsiz kishi. Shaharning kalitlarini o‘zlari bir hafta ichida olib kelib qo‘limga topshiradi. Agar topshirmasa, uyidan birorta mang‘itni tirik chiqarmayman, deb qasam ichgan...

Ibrohim Xayol ichida kalima keltirdi. Uning ko‘zi qalandarning ko‘zi bilan to‘qnashdi. Dastlabki uchrashuvdagi gumoniga ishonganday bo‘ldi. O‘zini tutib turolmadi.

— Ushlanglar!

Qurolli kishilar qalandarning ikki qo‘liga yopishdi. Jon kerak emasmi, u bo‘zday oqarib ketdi va o‘zini epaqaga keltirib, Ibrohim Xayolga tik boqdi, tishlarini g‘ijirlatib, ishshaytirdi.

— Sen o‘shalardansan. Kallangni olaman! — dedi bek. Qalandar boshini sarak-sarak qildi.

— Mening kallamni sal o‘ylanibroq oling, bek!..

Navkarlar ham hayron edi. Ibrohim Xayolning peshonasi tirishdi. Unda huv o‘sha gulxanlarning tafti bor. Bek jahlidan tushdi, yuziga bilinar-bilinmas tabassum yugurdi.

— Qo‘yib yuboringlar... Menga shuni aytish uchun kelgan edingmi?..

— Ha, shuning uchun, bek! Shaharni qanchalik tez topshirsangiz, o‘shanchalik yaxshi bo‘ladi...

— Him...

Ibrohim Xayol yonib tugayotgan shamning ipiga qarab qoldi. Ipdan chiqqan oqish alanga asta pasayib, tobora nursizlanib, keyin muzday havoda qalqib-qalqib bir yo‘la uchdi. Ibrohim Xayolning qovog‘i osilib, gavdasi qorong‘i tun qo‘ynida g‘oyib bo‘ldi.

Shu pallada uning nazaridan chetroqda turgan navkarlar tun pardasiga o‘ranganday birin-ketin chetlab ketayotganini aniq-taniq

ko‘rib tursa-da, hech narsa demadi. U ayni vaqtda butunlay chorasiz qolgandi...

— Ey, qalandar libosini kiygan azamat, menga qara... — dedi bek bo‘shashib. — Boshlig‘ingga ayt, taqdir taqozosiga nima ham derdik... Aytgin, bizga yo‘l berib, qo‘shinlarini darvozadan tortib tursin. Iltimosimiz shu...

— Xo‘p!..

Ibrohim Xayol narvondan chaqqonlik bilan tushib, darvozaning oldida turgan yuzboshiga:

— Qalandarni darvozadan chiqarib yubor! — deb buyruq berdi va oq yolli otiga minib, yeldirganicha navkarlari bilan ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi...

* * *

Yusufning gulxani.

Olovning sarg‘ish tillari zim-ziyo tun pardasini yalab-yulqaydi, uchqunlar miltillab olis yulduzlar kabi jimirlaydi. Yusuf indamay yonboshlab, olovga tikilib yotardi. Sherali bezovta edi. Tez-tez Yusufga qarab qo‘yardi. U shunday onlarda tog‘ bag‘rida yilqi boqib, yilqichilar davrasida ulkan gulxan yoqib o‘tirgan vaqtlarini ko‘z oldidan o‘tkazardi. Ha, o‘shanda erkin qushday edi. Ishlashga ham, o‘ynab-kulishga vaqt topardi. Elatning bag‘ri kengligi qon-qoniga singib ketgan Sherali keyingi kunlarda atrofi torayib, yuragi siqilayotganining sababiga tushuna olmasdi. Yusuf hamon o‘sha holatda edi. Sheralidan battar xayoli chuvalanib, qachonlardir ko‘rgan tushini eslay boshladi.

...Yusuf ota mehridan benasib o‘sdi. Esonboy biy uning onasini sarqindi qilgan edi. Yusuf onasi ikkovi qishloq chetidagi g‘arib bir kulbada yashab, baholi qudrat tirikchilik qilardi. U yoshligidayoq kasallikka chalinib, kal bo‘lib qolgan edi. Keyinroq tuzaldi-yu, ammo sochi bir yo‘la to‘kilib ketdi. Eson biy undan nomus qilib, biror marta bolasidan xabar olmadi, erkalatmadi. Lekin Yusuf kal juda abjir chiqdi. Otasining xabar olmaganiga parvo qilmadi, qarindosh-urug‘larining kamsitishiga aslo e’tibor bermadi... qaytaga ularni o‘chakishtirib, tadbirli bola bo‘ldi.

Kunlarning birida tongga yaqin ajabtovur tush ko‘rdi va cho‘chib uyg‘onib, erta bilan qishloqdagi oqcoqollarni, ulamolarni chaqirdi. Mol so‘yib, osh berib, mehmonlarning ba’zisiga usti bosh, qolganlariga belbog‘ qo‘yib, izzat-ikrom qildi. Bu nimasi? Hech kim bilmaydi. Dasturxonga fotiha o‘qilish oldida Yusuf poygakka tiz cho‘kib o‘tirdi-da:

— Sizlarni chaqirishimdan maqsad... Men bir tush ko‘rdim... Shuni yo‘yib bersangizlar, deb chaqirgandim, — dedi. Mehmonlar Yusufning og‘ziga qarab qolishdi.

— Ayt! Aytaver, o‘g‘lim, kuchimiz yetsa yo‘yamiz! — dedi qariyalar. Yusuf bir oz duduqlanib tushini aytdi:

— Eng baland tog‘larning ustida yurgan emishman... Bir tog‘dan ikkinchisiga hatlab, xohlagan cho‘qqisiga qo‘lim yetarmish... Bir tog‘dan baqirsam, ikkinchi tog‘ning kiyigi hurkib qochadi... Bu nimasi? Biroq, ko‘nglim o‘rniga tushmadi. Tezda uyg‘onib ketdim... Xo‘sh, bu nimasi?..

Uyning ichi suv quygandek jimjit. Bunday alomat tushni kim ko‘rgan? Kim yo‘ygan? Yusuf bo‘lsa, yuragi hovliqib, sabrsizlik bilan javob kutardi.

— Yaxshi... — dedi to‘rdagi oqsoqollarning biri o‘zini rostlab. Yusuf qariyaning so‘zini bo‘ldi:

— To‘xtang! Yaxshiroq yo‘yish kerak. Chunki tushni yo‘yishda, hadeganda dudmollanilsa, ish chappasiga ketadi. Quloq solinglar, yuksak tog‘ — baland martaba, bir tog‘dan ikkinchi toqqa sakrab, cho‘qqilarga qo‘lim yetishi qulochimning kengligi, kiyikning hurkishi — bu amaldorlik belgisi. Demak, xon bo‘lar ekanman... Omin, Ollohu akbar! — deb fotiha o‘qidi. Kimdir chin niyat bilan, kimdir “bu kal aytdi-qo‘ydi-da”, deb hazilga yo‘yib fotiha qildi. El tarqaldi.

Bu gap juda tez tarqaldi. Qishloq odamlari o‘zlari bilgan ohangga solib, Yusufning tushini ermak qilib yurishdi. Oxiri bu narsa unutilib ketdi. Yusuf esa faqat o‘sha tushining ilinji bilan yashadi. Ota bo‘lib biror marta ham yordam qo‘lini cho‘zmagan biyga o‘chakishib, bir kuni Esonboy biyning yaylovida o‘tlab yurgan qirqta baytalni o‘g‘irladi, savdogarlarga o‘tkazdi va bitta zotdor qopa qashqa bedov sotib oldi. Yol va quyruqlari nafis, qizil

ko‘zli bu arg‘umoq ilonday ixcham, chayir chiqdi. Yusuf uni o‘z farzandiday parvarishlab, ustiga kimxoblar yopib, ko‘zmunchoq taqib, qishloq ichida ko‘z-ko‘z qilib minib yurdi. El g‘iybat qildi, masxara qildi. Yusuf sira parvo qilmadi.

O‘sha kunlarda Esonboy biy yangi qo‘lga tushgan bir qo‘shni xonga sovg‘a qilish uchun ketgan edi. U o‘rdada xiyla izzat-hurmat topib, ziyofatlarda bo‘lib, ancha yurib qaytdi. Yo‘lda urinib, horib kelgan qari biyni barcha qishloq ahli yaxshi kutib olib, hol-u ahvol so‘radi. Esonboy biy negadir kirgan-chiqqanlar, kelgan-ketganlar orasida o‘g‘li Yusufni uchratmadi. Xotini ko‘pchilik qatori kelib, biy bilan omonlashib o‘tirgan edi. Esonboy qariya chiday olmadi:

— Hoy, haligi quturgan kaling ko‘rinmadi-ya?.. — deb kinoya bilan so‘radi. Ayol javobga og‘iz rostlamay, qarindoshlaridan biri o‘kinib dedi:

— Biy, o‘sha o‘g‘lingiz qirq baytalga bir xachirni almashtirib... o‘zboshimchalik qilib, el bilan, qarindosh-urug‘ bilan ishi yo‘q, daydib yuribdi. O‘zingiz biror narsa demasangiz...

Esonboy biy jahl bilan tizzasini ezg‘ilab:

— Etaging orqangga yetmagur... Qirq baytalga bitta ot olishni unga kim qo‘yibdi. Uni nima qilarkin? O‘sha oti tezak o‘rniga oltin tashlarmikin? Buning o‘rniga anavu sho‘rlik onasini yaxshiroq boqmaydimi. — dedi.

...Yusuf uyiga kelsa, onasi yig‘lab o‘tiribdi. U onasidan hol-ahvol so‘radi:

— Betavfiqning uyiga boribsiz shekilli? Keldi deb eshituvdim. Yana sizga biror narsa deganga o‘xshaydi-a? — dedi o‘kinch bilan. Onasi Yusufning turqidan cho‘chidi. Ota-bola o‘rtasida adovat kuchaymasin, degan o‘yga borib, gapni boshqa tomonga burdi. Yusuf gezarib o‘tirib, bo‘lib o‘tgan voqeadan xabardor bo‘lgach, otilib tashqariga chiqdi.

— Bu nima degan gap? Biy menga ota bo‘la turib, qachongacha tahqirlaydi. Eplab bir ot boqsam... Shuni ham ko‘p ko‘rsa-ya! Qachongacha chidayman?!. E, Tangri! Qachongacha?..

Sabr kosasi to‘lib-toshgan Yusuf bir nechta do‘stlari bilan biyning qishlog‘iga kirib bordi. Baqirib-chaqirib, hech kimga quloq

solmay otasining hovlisiga ot solib, chiydan to‘qilgan eshikni po‘lat shamshir bilan burdalab tashladi.

— Hoy Esonboy, buyoqqa chiq Buyoqqa deyapman, — deb so‘kindi ot o‘ynatib. Uydan biyning xirillagan ovozi eshitildi.

— Ushla! Ushla quturgan kalni!

Yusuf zardasi qaynab, ichkariga talpindi. To‘plangan odamlar uning tizginiga yopishib, qarshilik ko‘rsatishdi. Qishloqda to‘s-to‘polon bo‘lib ketdi. Yusuf yig‘laguday bo‘lib, biyni astar-avrasini ag‘darib haqorat qildi.

— Kechdim! Oq qildim! Oq qildim! Yo‘qol, ko‘rnamak! Beting qursin, ota bezori! Ko‘zimga ko‘rinma! — deb qarg‘adi Esonboy biy. Yusuf unga javoban:

— Sen meni bolaligimdan kechgan bo‘lsang, men seni otaligingdan kechdim! Ota bo‘lib qachon peshonamni silading? — deb baqirdi. Oqsoqollar o‘rtaga tushib, “hoy, uka, otangga ot solma, qarg‘ishiga qolib ketasan, oyog‘ini o‘pib, kechirim so‘ra”, deb nasihat qilishdi. Yusufning ko‘ziga qon to‘lib, oqsoqollarni jerkib, otiga zarb bilan qamchi bosdi...

Yusuf bundan nari bu yerda yashashga ko‘zi yetmadi. Onasini otga mindirib, uyiga o‘t qo‘yib, yonib bo‘lguncha kutib turdi va eng yaqin do‘stlari bilan birga Tolasga bosh olib ketdi. Bu yerda Hojiboy dodxohning xonadonidan panoh topdi.

Shu tarzda hamqishloqlari uzoq yillar mobaynida Yusufdan xabar topishdi. Onasi asli tolaslik bo‘lgani uchun bu yerga tez ko‘nikib ketdi. Yusuf esa to‘y-hashamlarda Ko‘kqashqa bedovi bilan uloq chopib, poygalarda qatnashib, obro‘-e’tibor topdi. To‘g‘riso‘z, oqko‘ngil bo‘lgani uchun uni hamma hurmat qiladigan bo‘ldi. Onasining orzusi ushaldi. Nihoyat, Yusufning shuhrati butun Tolas vodiysiga yoyilib, qadri oshib, do‘stlari ko‘paydi.

O‘sha kezlarda, Hojiboy dodxohning qaramog‘ida yurgan vaqtida Sheralini ko‘rgan edi.

Kunlarning birida Sari-O‘zgan-Chuy tomonda katta to‘y bo‘lib, bu to‘yga Yusuf ham o‘z do‘stlari bilan qashqa otini minib bordi. Poyga bo‘ldi.

Poyga oxirida ot o‘rgatuvchi kelib kelib, Ko‘kqashqani yo‘rg‘alatib ko‘rdi va keyin chavandozni o‘chakishtirib chopdi.

— Bu nima degan gap?.. Bir kishi Ko‘kqashqani qiynab... Bunisi kamlik qilganday, o‘rama qamchi bilan manglayiga urib yuborsa bo‘ladimi. Bu qanday mehmondorchilik bo‘ldi?!.

Yusufning rangida qon qolmadi. Ko‘zlari ayanchli tusga kirdi. U chavandoz bolaga yuzlanib:

— Taniysanmi? — deb so‘radi.

— Bilmayman, bir qora odam...

— Qidiringlar! Ayg‘oqchi qo‘yib topib kelinglar. Marosim tugaguncha topib kelinglar, — deb tayinladi yigitlariga.

Yusufning yigitlari tezda barzangi bir qora kishini olib keldi. U otining jilovini tortib, yigitlarga qamchi o‘qtalib:

— Xo‘sh, qasding bormi menda! Shoshmay turgin! — deb intildi. Yusuf ungacha otilib chiqdi:

— Qimirlama! Joningdan umiding bo‘lsa, qimirlama! — dedi shiddat bilan. — Ko‘kqashqaning boshiga urgan senmisan?

Qopa kishi g‘uldirab, tili aylanmay qoldi:

— Men emas... Kim ko‘ribdi?..

Yusuf chiday olmay qilichining sirti bilan uning yelkasiga bir urdi.

— G‘irin-piring demay javob ber. Qilt etib ko‘r-chi, holing nima kecharkin.

Qora kishi qo‘rqqanidan oldin musht ko‘tarib:

— Hoy, xaloyiq, bormisizlar! Meni o‘ldiradi! — dedi.

Yusuf qilichining sirti bilan yana urdi.

— Joningdan umiding bormi?

Qora kishi qaltiray boshladi:

— Men urgan edim... Men edim, aka...

— Him... otni tanib urdingmi? Kimning bedovi ekanligini bilib turib urdingmi?

— Ko‘r bo‘lay, kimniki ekanligini bilmadim. Ko‘r bo‘layin...

— Meni taniysanmi?

— Ko‘r bo‘layin, tanimayman... Ko‘r bo‘lay, bilmayman...

Yusuf bir oz yumshab, qilichni qiniga soldi.

— Yaxshiyamki, tuz-nasibang uzilmagan ekan... Agar bilib turib shu ishga qo‘l urganingda boshingni sapchaday uzib tashlardim... Ko‘zingni kattaroq och! Ko‘kqashqa bedov Axsi beginiki bo‘ladi.

— Bilmabman, botir... Bilmabman...

— Bu ishga seni kim yolladi?

— O‘zi... Qorabek mirzaning o‘zi...

— Yaxshi! Menga qapa. Endi qilgan gunohingni o‘z mehnating bilan oqlaysan...

— Nima qilay, botir?..

— Unchalik qiyin ish emas. To‘planib turganlarning oldiga borib, bo‘lgan voqeani miridan-sirigacha aytib berasan. Eshitdingmi? Qorabek mirzaning kirdikorini ochiq-oydin so‘zlaysan. Bo‘yin tovlasang, oxiri yomon bo‘ladi...

— Ma’qul...

Yusuf o‘ziga keldi. Qorabek mehmonlar bilan suhbatlashib o‘tirardi. Yonida baxshisi mirzani ko‘klarga ko‘tarib maqtamoqda:

O, Qorabek bekzoda,
Asli baxting bor ekan,
Ortda qoldi oltmish ot,
Senga omad yor ekan.

Qorabek maqtovdan o‘zida yo‘q xursand, qo‘shiq tinglardi. Baxshi yoqimli ovozi bilan mirzani sharaflayotir:

O, Qorabek shahzoda,
Qo‘llaganing zo‘r ekan.
Yutib chiqdi arg‘umog‘ing,
Qolgan otlar g‘o‘r ekan...

Yusuf yo‘rg‘asini yo‘rtdirib, shitob bilan o‘rtaga kirib bordi-da, qamchi bilan Qorabekning boshiga tortib yubordi. Uning suvsar telpagi uchib ketdi. Yusufni ko‘rib baqirib yubordi:

— Hoy, daydigan axsilik kal? Hoy! Bu nima qilganing?

Yusuf yo‘lbarsday tashlandi. El ularni qamchilashgani qo‘ymay, ajratib qoldi.

— Bekzoda emish! Payt poylagan qaroqchi!

Qorabek baqirib, o‘rtaga tushganlarning qo‘lidan yulqinib chiqmoqchi bo‘ldi. Uning yigitlari bir taraf bo‘lib xezlana boshladi.

— Uyatsiz, gunohini bo‘yniga olmaydi shekilli. Qani, qarab turmanglar! Qo‘rqadigan odam yo‘q! Daydilikni ko‘rsatib qo‘yamiz!

— Bo‘ldi endi, botirim, — deb soqoli ko‘ksiga tushgan chol Yusuf mingan otning jilovidan ushladi.

Yusuf nuroniy cholning gapini qaytarmay, o‘zini bosdi:

— Nima qilay, ota?

— Nima gap o‘zi? Bosh kessang ham sababini aytib kes, botir... Nimani talashyapsizlar? Yaxshisi, ayt, chirog‘im?

— Xolismisiz?

Qariya soqolini siladi:

— Soqolim hurmati... Shu yoshimda xolis gapirmasam, go‘rimda gapiramanmi?

Yusufga shugina yetmay turuvdi. Chol yosh yigitlarday chopib borib Qorabekning nafasini o‘chirdi. To‘yga kelgan jamiki el to‘plandi. Yusuf hammaga eshitdirib baland ovozda so‘zladi:

— E, xaloyiq, Qorabek qaroqchi menga qo‘l soldi.

— O‘zing qaroqchisan! — dedi Qorabek narigi yoqdan. Uning yonida turgan kimdir:

— Hoy, sen birinchi bo‘lib qamchi solding-ku! Yusuf unga quloq solmadi:

— E, xaloyiq, bu qaroqchi bo‘lmasa, poygada ketayotgan Ko‘kqashqaning boshiga uradimi? Insofi bormi o‘zi? Qorabek qaroqchi otning yo‘lini to‘sdi. Bu nima qilgani?

— Yolg‘on! Yolg‘on! Da’vo qilyapti!

— Qorabek! Es-hushingni yig‘ishtirib olgin, deb qamchi uruvdim. Gunohkor bosh egilmadi. Afsus: qamchi bilan emas, qilich bilan chopishga arziydigan boshing bor ekan...

Yigitlar haligi qora kishini turtib o‘rtaga chiqardi. Yusuf elga ko‘rsatib:

— Hamma gapni mana bu odamdan so‘ranglar, — dedi.

O‘rtaga tushgan qariya:

— Sen kim bo‘lasan? — deb sekin so‘radi.

— Men... Men... Bo‘riboyman.

— Qani, o‘g‘lim Bo‘riboy... Javob ber! Qanday ish o‘tdi? Faqat to‘g‘ri gapir!.. Hech kimdan qo‘rqma...

— Men to‘sgan edim... Men...

— Senmi?

— Men... Qopabek mirza buyurgan edi...

Yusuf quvonganidan o‘zini tutolmadi.

— Ana! Eshitdinglarmi! Ana! Bu elning mirzasi shunday qilgach, boshqasi nima qilarkin?

Qorabek xijolatdan yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmadi. O‘rtaga tushgan chol Qorabekka qaradi:

— Hoy Qorabek, mirza bo‘lmay qurib ket... Kasofating urib, barcha elning nomiga dog‘ tushirding. Mirza bo‘lmay qurib ket...

Yusuf yo‘lga tushdi. U mol-dunyo uchun ot chopmas edi. To‘y egasi birinchi sovrinni uning oldiga tashladi, Yusuf olmadi. Uchinchi sovrin — otni esa chavandoz yigitga sovg‘a qildi. Yo‘lda u hech kim bilan gaplashmadi. Negadir xafaqon edi. Qorabekni-ku sharmisor qildi... Biroq xijilligi yozilmadi. Axsilik daydi! Kal! Shu so‘zlar uni ilonday chaqardi. Attang, begona yurt shu ekanda... Qalbi shilinib ketdi...

Ko‘p o‘tmay Axsidan kelgan xabarchi Esonboy biy qazo qilganligini aytdi... Yusuf beixtiyor o‘rnidan turib ketdi:

— Bir yomonlik bo‘lishini sezgan edim. Ko‘kqashqaning boshiga behuda qamchi tushmagan ekan... Nima bo‘lsa ham Esonboy menga ota edi... Ketganim bo‘lsin...

Yusuf qadrdon bedovi bilan kun-u tun to‘xtovsiz yo‘l bosib, Qorabuvra dovoni orqali Axsiga oshib o‘tdi. Esonboy biyning ovuli Itoqar daryosining qirg‘og‘ida edi. U otasining ma’rakasiga ulgurib, olisdan faryod solib kirdi. Udumga ko‘ra Yusuf otasining qirqi va qa’dalarini o‘tkazadi...

Keyinchalik u otasining o‘rnini bosib, Axsiga biy qilib tayinlandi.

Yusuf shundan keyin, o‘zicha tushida ko‘rgan ishlar endi amalga oshdi, deb o‘ylab yurardi-yu, lekin bundan ko‘ngli uncha to‘lmasdi. Axir bu otameros! Ertami-kechmi, amal degan narsa qo‘lga tegar edi-ku! Hamon bunga o‘zi rozi emasdi. Oradan ancha yillar o‘tib ketdi...

Yusuf endigina jonining huzurini ko‘zlab, xotirjam davron surayotgan paytda, o‘rdada osoyishtalik buzilib, yana g‘ayrat

otiga mindi. Bir tog'dan turib qiyqirsa, ikkinchi tog'ning kiyigi hurkib qochishi ko'z o'ngidan o'tib, umid uchqunlari alanga oldi. O'rdadagi kelishmovchiliklar, o'zgarishlar tufayli xalq qo'zg'alishini ko'rib, Yusuf izlagan narsasini topganday bo'ldi. Ha uni topdi...

Mana, yonida Sherali qo'lga tushgan o'g'riday bo'shashib o'tiribdi. Yusuf kiprigini qoqmay, Sheraliga sinchkovlik bilan uzoq tikildi. Uning aft-angoridan qo'rqoqligi, ko'zlaridan esa qat'iyatsizligi, yurish-turishidan lapashang va lattachaynarligi yaqqol ko'rinib turardi...

— Bek og'a, shahardan xushxabar keldi... — dedi Abil tug'bardor oshiqib. Yusuf hushyor tortdi;

— Qaysi biri?.. Chaqir... Qayoqda yuribdi?.. — dedi. Abil orqara qaragani ulgurmadi. Novcha bo'yli qalandar paydo bo'ldi.

— Assalomu alaykum, bek og'a!

— Alaykum assalom...

— Kel, botir... O'tir.

U xursand edi. Ish baroridan keldi. Yusufning yuragiga yorug'lik tushdi.

Qalandar Yusufdan keyin Sherali bilan so'rashib, tiz cho'kdi va bo'ynidagi ridoni olib o'tga tashladi...

— Ish o'ngidan keldi... Xo'jayi Xizr jilovdoringiz ekan... Yo'lingiz ochiq, ertaga Ibrohim Xayol Qo'qonni sizga topshirib, chiqib ketmoqchi bo'ldi... — dedi u kulib.

Yusufning yuziga qon yugurdi:

— Ha... Keyin?.. — dedi xabarni to'laroq eshitish niyatida.

— Ibrohim Xayolning askari ozi yetti yuzta, xolos. Madalidan qolgan avvalgi yuzlar biz tarafga o'tdi. Janjal chiqarib darvozalarni ochamiz, deyapti el... Bildingizmi, buni bosishga Ibrohim Xayolning kuchi, g'ayrati yo'q...

— Keyin?..

— Ibrohim Xayolning o'zi bilan uchrashdim.

— Ha, O'shani gapir, — dedi Yusuf. — Sening qalandarligingga ishondimi?

U Ibrohim Xayol bilan qanday uchrashganligini aytib berdi. Yusuf qotib-qotib kuldi. Sherali ko'zlarini olaytirib o'tirardi.

— Bechora. Xudo yetkazgan qalandarga rom ochirib, taqdirini bilib olmoqchi bo‘lgan ekan-da! Xa-xa-xa... Zo‘r ish bo‘libdi.

— Azamat! Og‘ir va sharafli ishni bajarganing uchun rahmat! Yo‘limizni ochgan Tangriga ming marta shukur! Ibrohim Xayolning qanday o‘tinchi bor!

— Dushmanning o‘zi ketaman, deb tursa, nima ham derdik.

— Botir, — dedi Yusuf, — yirtqichni inidan chiqarib yuborsak, hatto burni ham qonamagan Ibrohim Xayol Buxoroga borib amirdan askar olib keldi deylik... Shunda nima bo‘ladi? Xo‘sh, nima bo‘ladi?

— Jang...

— Balli... Jang bo‘ladi. Shunday ekan, fursatni o‘tkazmay, dushmanga zarba berishimiz kerak. To‘g‘rimi?

— Juda yaxshi bo‘ladi...

— Balli... Yovni ayagan armonda qoladi, buni yodingdan chiqarma.

Sherali gapning nima haqda borayotganligiga fahmi yetmay o‘tirardi. U qanday fikrda ekanligi bilan hech kim hisoblashmadi.

Ibrohim Xayol ertasiga kechqurun minoraga chiqib, gulxanlar darvozalardan ancha olisga ketib qolganligini ko‘rdi. Novcha bo‘yli qalandar ko‘z o‘ngida gavdalandi. Shu zahoti yo‘l tadorigini ko‘rishga buyruq berdi. Ayyor Yusuf chetga yolg‘on gulxanlarni yoqtirib, askarlarini to‘p-to‘p qilib darvozadan uncha uzoq bo‘lmagan joylarga pistirmaga qo‘ydi. Askarlar jangovar holatda edi.

Tong yorishganda buxoroliklar Buxoro yo‘liga olib chiquvchi darvozadan oq tug‘ ko‘tarib chiqdi. Ularning orti darvozadan uzilmay turib, to‘s-to‘polon boshlandi. Kutilmagan hujumdan sarosimaga tushib qolgan buxoroliklar qaysi tarafga qochmasin, qilichning damiga, nayzaning uchiga to‘g‘ri kelardi. Yusufning ko‘p sonli askari dushmanni tumtaraqay qilib yubordi. Aldanib qolgan Ibrohim Xayol yuragi yorilguday bo‘lib, yigirma chog‘li yigiti bilan zo‘rg‘a qochishga ulgurdi.

Yusuf oqbo‘z otda karnay sadolari ostida o‘ziga xos salobat, viqor bilan Qo‘qonning katta darvozasidan kirib bordi. Hurmati yuzasidan qal’aning chetida o‘rnatilgan zambaraklardan o‘qlar uzildi.

— Jahongir Yusuf mingboshi! Jahongir Yusuf mingboshi!

Oldinda bor ovozi bilan baqirib-chaqirib jarchi bormoqda edi. Shahar aholisi bu tantanani ko‘rish uchun devorlarga, tomlarga chiqib olgandi. Ko‘cha va yo‘laklarga odam sig‘masdi. Xaloyiqning Yusuf sha’niga aytgan so‘zlari quloqni qomatga keltirardi.

— Jahongir Yusuf mingboshi!

— Jahongir Yusuf mingboshi!

Jahongir Yusuf mingboshi huvillab qolgan o‘rdaga kelib tushdi.

IV

Hukmdorga ta’zim va salom qilib qo‘yish uchun shaharning nomi ketgan boylari, o‘zlarini aqlli deb hisoblaydigan ulamolari sovg‘a-salomlar bilan beto‘xtov kelib turardi, Yusuf kelganlarni o‘zi kutib olib, o‘zi kuzatardi.

Bir kuni kechqurun Yusuf shaharning qozisini chaqirtirdi. O‘rtaga dasturxon yozilib, tansiq mevalar qo‘yildi. Ikkovi xoli edi. Yusuf o‘rdaning qoida va tartiblari, shariat qonunlari, o‘rda tarixi xonning darajasi, vazirlarning vazifasi, askar boshliqlarining imkoniyatlari to‘g‘risida so‘rab-surishtirdi. Bir mahalda Madalixonning huzurida ham xuddi shunday tiz cho‘kib, otasi don olishib qo‘ygan qizga shariatdan yo‘l topib bergan kishi ana shu qozi edi, yoz oylarida esa dini islomning zulfiqori deb amir Nasrulloni quchoq ochib kutib olgan ana shu shariat peshvosi hozir Yusufni bosqinchilardan qutqazgan xaloskor, deb vaysab uning etagini tavof qilayotgandi. Pixini yorgan qozi ilonday avrab, Yusufning gaplarini ma’qullab, uni maqtab o‘tirardi. Yusuf qozining gapini bo‘lmay ixlos bilan eshitdi. Shum qozi hukmdorga boshqacharoq javob qilishi kerakligini fahmladi.

— Hazrati oliylari... O‘rdaning tartibi davrga qarab o‘zgarib turgan... — dedi u gapni aylantirib. U Yusufga ko‘z qirini tashlarkan, muloyim ohangda so‘zga kirishdi: — Axir almisoqdan buyon aql ustuvorlik qilib kelmoqda. Har vaqtda, hamisha podishohning o‘zi hukmdor bo‘lgan emas. Yo‘l — aqlniki.

Yusuf qoziga tikilib qoldi. Qozining chehrasi yorishdi. Uning gapi mo‘ljalga tekkanga o‘xshadi. Davr kelgan paytda, unga xizmat qilib, e’tiborini qozonib, nom chiqarib qolish mumkinligini

o‘yladi. Yo‘l bor ekan, harakat qilish kerak. Buni bugun u aytmasa, ertaga boshqa birov o‘ziga og‘dirib oladi:

— Hazrati oliylari... Podishoh davlatning xo‘jayini... Biroq... Podishoh, bordi-yu, yosh bo‘lsa, davlatni boshqarishga aqli yetmasa, ishning ko‘zini bilmasa, u holda aqli musulmonlarning osoyishta yashamog‘i uchun tajribali, tadbirkor biror kishini o‘ziga otaliq qilib olishi mumkin. Bu albatta mamlakat uchun koni foyda. Adolatli tomoni shundaki, hukmdorning roziligini ham hisobga olib turilsa, yomon bo‘lmaydi... E, hazratim!.. Otalikning vazifasi juda zo‘r. Otalik taxtsiz podishoh, tojsiz hukmdor...

— Shundaymi, qozi? — Yusuf qanchalik urinmasin, quvonchini yashirolmay jilmaydi. Qozi yayrab ketdi.

— Shunday, hazratim... Shunday...

— Masalan?

— Amir Temur! Jahongir amir Temur Ko‘ragoniy zamonida Chingizxonning urug‘i Chig‘atoyning qiziga uylansa, uning bolasini xon deb to‘rga o‘tqazib, davlatni esa o‘zi boshqargan. Tilla tangalarga ularning suratini, ismlarini zarb etdirib, o‘zlari ishlatgan.

Qozi bu haqda ancha misollar keltirdi. Ammo Yusuf negadir qunt qo‘yib eshitmadi. U chuqur o‘yga botib, ilonboz hindiday o‘tirardi.

— Him... — dedi Yusuf, so‘zi tugab qolgan qoziga qarab, — ayt-chi, xonimiz o‘zingiz hozirgina aytgan Xudoning xohishiday qilib davlatni boshqara olarmikin?..

Qozi shoshib boshini sarak-sarak qildi:

— Yo‘q, yo‘q, hazratim!.. — dedi tili tutilib, qo‘llari qaltirab yoqasiga yopishdi. — Yo‘q, yo‘q! Bunday ish uning boshidan o‘tmagan. — U yerga qaraganicha: — E, hazratim, e hazratim! — der edi.

— Qozi! Boshingizni ko‘taring.

— Labbay, hazratim... Labbay... — dedi basharasi dokaday oqarib.

— Boshingizni ko‘taring, qozi! Men bilan suhbatlashgan odam ko‘zini olib qochmay gapirishini istayman.

— Hazratim! Bechora qulingiz haqiqatni gapirib qo‘ydi Bir qoshiq qonimdan kecheng... Qo‘qon o‘rdasi farosatli, aqlda yagona kallaga, saxovatli qo‘lga muhtoj.

— Sizning fikringizcha, o‘rdaga otaliq zarur. Shundaymi, qozi? — dedi Yusuf.

— Qaniydi, otaliq bo‘lishga arziydigan o‘shanday donishmand odam bo‘lsa?

— Ayting-chi, kim bor? O‘rdani, bu yerdagi kishilarni yaxshi bilasiz. Xo‘sh, sizningcha, bunga kim loyiq?

Qozini salobat bosib, nima deyishini bilmay yutindi:

— E, hazrati oliylari! — dedi burrolik bilan, — siz adolat uchun yaratilgan, dilingiz pok odam ekansiz, hazratim! So‘rab nima qilasiz? Siz o‘zingizni o‘zingiz bilmas ekansiz.

Yusuf qoziga yetarli deganday qo‘li bilan ishora qilib, so‘zini bo‘lib qo‘ydi. Keyin tog‘liklarning eng qimmatbaho sovg‘asi — oq tuyaning junidan to‘qilgan piyozi chakmonni uning ustiga yopdi.

...Dushanba kuni edi. Shaharning tagli-tugli boylari, zodagonlari o‘rdaning devonxonasiga to‘plandi. Amaliga, darajasiga qarab har kim o‘ziga munosib o‘rin olib, eshik tomonga sabrsizlik bilan qarashayotgan edi.

— Hazrati oliylari!

Hamma eshik tomon yuzlandi. Shivir-shivir boshlandi. Eng oldinda Sherali. Odamlar odob yuzasidan qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi. Sheralining o‘ng yonida Yusuf, chap yonida Musulmonqul, orqada shahar qozisi, shahardagi askarlarning sarkori. Sherali o‘sha-o‘sha. Hech qanday o‘zgarish yo‘q? Chamamda, unga o‘rgatib qo‘yishgan shekilli, salom berdi. Ko‘pchilik qizg‘in qarshi oldi. U yaqinlashgan sari ba’zi birovlar poyiga yiqildi. Sheralining boshida eski telpak, ustida to‘zib ketgan chakmon, oyog‘ida chok-chokidan so‘kilib, ming yamoq tushgan choriq. Belida qinsiz qilich. Ha, sho‘rlik Ashirning qoni bilan bo‘yalgan po‘lat qilich. Uni o‘sha holda olib borib taxtga o‘tqazishdi. Hamma muborakbod qildi. Sherali qulog‘igacha lavlagiday qizarib, qo‘llarini qo‘yishini bilmay, shalvirab, dovdirab qoldi. Devonxona ari iniday g‘ala-g‘ovur edi.

Yusuf bir qarashda devonxonadagi g‘ovurni bosdi. U oldida turganlardan birining belidagi uchli shamshirni qinidan sug‘urib, qaytib egasiga berarkan:

— Qani, mana bu shamshirni xonning ro‘baro‘siga qoq-chi, — deb devorni ko‘rsatdi. — Ha, o‘sha yerga....

— Xo‘p, taqsir! Jonim bilan.

Shamshirning egasi ta’zim qilib buyruqni bajarishga kirishdi. Bu nimasi? Hamma churq etmay ana shu voqeani kuzatardi. Yusufga sirdosh bo‘lgan elatning vakillari ham bunga tushunib yetmadi.

Shamshirning egasi oyog‘ining uchi bilan turib, qo‘li yetgan joyga uni sanchmoqchi bo‘luvdi, Yusufning:

— Teparoqqa! — degan so‘zidan cho‘chib tushdi. Qo‘li yetgan yer shu bo‘lgach nima qilsin!

— Ko‘taringlar! — dedi baland ovozda. Unga yaqin turganlar darhol ko‘tarishdi.

— Biroving yelkangga chiqar!

Ular qaltirab, oxiri biri uni yelkasiga chiqardi.

— Bo‘ldi! Xuddi o‘sha yerga qoq!

Shamshir devonxonaning serhasham devoriga qoqilgach, Yusuf Sheraliga yaqinroq turganlarga uning oyog‘ini ko‘tarib:

— Etigini yechinglar! — dedi.

Oldinda o‘zlarini oqsuyak deb hisoblagan xo‘jalar turgan edi. Ular soqolini tutamlab, bir-biriga qarab qo‘ydi.

— Hoy, oq sallachilar! Yeching deyapman, qo‘linglarga biror narsa yuqib qolarmidi?..

Xo‘jalar buyruqni tushunganday bo‘lishdi.

Engashib, Sheralining chorig‘iga yopishdi. Yusuf o‘ziga keldi. Agar buyrug‘i bajarilmaganida ularning payg‘ambar urug‘idan ekanligiga qarab o‘tirmasdi. Jamoat hayron edi. Xo‘jalar Sheralining ming yamoq, chang, otning ter hidi anqib turgan chorig‘ini yechishdi. Sasib ketgan paytavalarni jirkanib choriqning qo‘njiga solishdi. Sherali qizarib-bo‘zarib yirtiq chakmonining bari bilan oyog‘ini yashirdi.

— Kamaringni yech, — dedi Yusuf unga. Sherali indamay eski chayish kamarini yechib berdi. Yusuf kamar bilan choriqni juftlab bog‘latdi.

— Ilinglar!

Devorga qoqilgan shamshirga choriqni olib borib ilishdi. Devonxona osoyishta edi. Odamlar Yusufdan ko‘z uzishmasdi.

Bu nimasi? Bu qanday sir? U bu jumboqni aytishga oshiqmadi. Avvaldan hozirlab qo'yilgan qizil kimxob choponni uning ustiga tashladi. Oyog'giga ko'k bulg'ori guldor etik kiygizildi. Keyin ko'pchilikka eshittirib:

— Sherali! Qarog'im! Mana endi sen chinakam yurt egasi bo'lding. El-u yurtga, do'st-u birodarga jonkuyar bo'l! Aqlli kishilarning gapidan chiqma! — Choriqni qo'li bilan ko'rsatib dedi: — Anavi eski choriq, seniki bo'ladi... U sening o'tgan kuning, Sherali. O'sha o'tgan kuningni, xom chorig'ingni, g'aribona hayotingni unutmay, har kuni ko'rib turgin. Seni oltin taxtga mindirgan qudratli kuchni kun sayin xotirangga olib turgin. Bu seni shishirib yubormasin, aqldan ozdirmasin...

Sokin devonxona birdan g'ovur-g'uvurga to'ldi.

— Balli! Balli! Ming yasha, ota o'g'il! Balli!

So'ng qozi qisqa sura o'qib, Sheraliga xonlik tojini kiydirdi. Xonga otalik darajasi zarurligini ta'kidlab, shariatdan bir rivoyat keltirib, Sheraliga murojaat qildi:

— E, olampanoh! Aziz va qadrli og'angiz Yusuf biy o'rdangizga ko'z-quloq bo'lib turishiga ishonasizmi? Uning o'rdangizga, o'zingizga, davlatingizga otalik vazifasini o'tashiga rozimisiz, e, hazratim?..

Sherali boshda o'rgatib qo'yilgan javobni aytdi:

— Ishonaman... Roziman... — dedi qizarib bosh irg'ab:

Keyin qozi Yusufga dabdaba bilan tizgin (hukmdorlik belgisi sifatida ikki tizgin va chilvir) berdi. Salavot! Odamlar tabriklashdi. Ayrim kishilar xushomadgo'ylik bilan ko'z yoshi qilishdi. Mirzasifat bir kishi o'ralgan qog'ozni yozib qutlov she'rini o'qidi:

Qush uchsa qanoti kuygan cho'lda yurgan,
Qalandarlar panoh topsin o'zingdan.
G'arib xalqing davron sursin soyangda,
Dushmanlaring jafo topsin o'zingdan.

Tantanali marosim qatnashchilari ushbu misralarni zavq bilan tinglab, muborakbod etishdi.

V

Elat tirikchiligi qon-qoniga singib ketgan Sherali yoshligidanoq bo‘sh, landavur o‘sganligi uchun arkon-u davlatdagi qypyq shon-shavkat, quyuq ziyofatlar uni kaltafahm, uquvsiz qilib qo‘ydi. U o‘rda ishiga aralashmay, atrofiga to‘plangan dindorlarning payg‘ambarlar, avliyo-yu anbiyolar, do‘zax o‘tlari to‘g‘risidagi shikoyatlaridan boshi aylanib qoldi. Borib-borib u kechalari uxlamay so‘filar bilan zikrxonlik qiladigan bo‘ldi. O‘rdadagilarning ba’zi birlari esa sharobga ruju qo‘yib, go‘zal qizlar bilan aysh-u ishrat qilish yo‘liga o‘tdi, davlatni boshqarishga hech kim ahamiyat bermay qo‘ydi.

Amir Nasrullo Farg‘ona vodiysi qo‘lidan ketganligi bilan sira kelisholmadi. Boshqatdan qo‘shin tortib, O‘ratepa, Xo‘jand viloyatlarini bosib oldi va tezda Qo‘qon shahrini qamal qildi.

Qo‘qonliklar shaharni qattiq mudofaa qilishdi. Qo‘shindan tashqari mehnatkashlardan iborat isyonchilar ham to‘plandi. Shaharning o‘n sakkiz darvozasi atrofida dushmanning qarshiligi qaytarib turildi. Shafqatsiz amir Nasrullo qirq kun mobaynida to‘qqiz marta hujumga o‘tdi. Biroq hujumlar zoe ketdi. Nima qilish kerak? Amir Nasrullo hiyla ishlatish yo‘liga o‘tdi. O‘rdaga elchi yubordi. Elchining vazifasi Qo‘qon o‘rdasining egasi qaydagi ko‘chmanchilar emas, Sherali ekanligini unga eslatish, shu bilan birga Buxoroyi sharifning odil amiri bir guruh g‘arazgo‘ylar qo‘lidan otameros boyligini Sheraliga olib berish uchun kelganligini uqtirishdan iborat edi. Elchi Abdusattor xalifani darvozada qurolli kishilar kutib oldi. Elchi kirganda Yusufning oldida Abil yuzboshi bor edi.

— Qulog‘im senda, elchi, — dedi Yusuf. Elchi Sheralixonning o‘zi bilan gaplashish uchun yuborilganligini aytdi. Yusuf elchining so‘zini chalaroq eshitganday zaharxandalik bilan jilmaydi. Bir talay hukmdorlar bilan muloqotda bo‘lgan ayyor Abdusattor xalifa ichidan zil ketdi.

— Qabul qilib qolar... Kutishga to‘g‘ri keladi, elchim!

— Xo‘p, taqsir...

Elchi Abdusattor xalifa ta’zim qilib, asta chiqib ketdi.

U o‘rda ichida peshingacha kutib o‘tirdi. Hech kim chaqirmadi. Kirdi-chiqdi ko‘p. Askar ust-boshini kiyganlar shoshib-pishib uyoqdan-buyoqqa o‘tadi. Elchi bilan hech kimning ishi yo‘q?.. Xuddi uni esdan chiqarib qo‘yishgandek... Peshin namoziga chaqirgan muazzinning ovozini u betahorat eshitdi. Namozi ham qazo bo‘ldi. Nihoyat, g‘ira-shirada xonning qabuliga kirajagi ma’lum bo‘ldi.

Sherali taxtda edi. Elchi Abdusattor xalifa peshonasi yerga tekkuday bo‘lib, ta’zim bilan salom berdi. Hech kim alik olmadi.

— Xa, nimaga kelding? — dedi Sheralixon qo‘rslik bilan. Elchi zumda atrofda o‘tirganlarga ko‘z yugurtirib chiqdi. O‘ng tarafida Yusuf o‘tiribdi. Elchining yuragi shuv etib ketdi, ammo sir boy bermay;

— Hukmdor! — deya elchi qo‘ynidan bir o‘ram qog‘oz olib, uni avval o‘zi o‘pib, qo‘sh qo‘llab uzatdi. — Buxoroyi sharifning shavkatli amiri Said Nasrulloxondan gullab-yashnayotgan Farg‘ona diyorining sizday egasiga, amir Temur Ko‘ragoniyning sizday urug‘iga oyday nurli, quyoshday issiq tabarruk duoyi salom olib keldim.

Xonning javobini kutishdimi, har qalay o‘tirganlar indamadi. Sherali ham churq etmadi. Sherali indamay qog‘ozni chap tomonida o‘tirgan maslahatchiga uzatdi. Darhol o‘rnidan turib, duoyi salomni o‘qimoq| uchun balandroq ko‘tardi. Elchi shoshib qoldi:

— E, hukmdor! Duoyi salom yolg‘iz o‘zingizga bitilgan.

Sherali javob berguncha bo‘lmay halitdan beri yupqa lablarini mahkam qimtib o‘tirgan Yusuf jahl bilan:

— Shodi. To‘xta! Yashirincha bo‘lsa, o‘qima! — dedi.

— Xo‘p, otalik... — deb Shodi kalovlandi. Sherali dovdiradi. Yusufning zardasi qaynab:

— Yashirinchami? Nega likillaysan, tulkining dumi? O‘ralgan qog‘ozingda nima gap borligini bilaman.

Abdusattor xalifa gezarib qoldi. U ko‘pni ko‘rgan odam edi. Bunday qo‘pol muomalani birinchi marta eshitishi. Hech bo‘lmasa xon degan nomi bor-ku, biror iliqroq so‘z aytar, degan mulohaza bilan unga yuzlandi. Gapirish qayoqda deysiz, Sheralining nuqul kiprigi pirpiraydi, Abdusattor xalifa so‘zga kirishdi.

— Taqsir! Men faqat buyruq bajarish uchun kelgan qulman, Yusuf sal insofga kelganday bo'ldi.

— Him... — deb nimanidir o'ylagan bo'lib, elchiga gapirdi, — ilgari bir hovliqib ketgan o'g'il bo'lgan ekan... Eshitib tur, mehmon.

— Qulog'im sizda, taqsir...

— Tirikchilikni o'rgansin, deb otasi o'g'lini o'tinsuvga yuboradigan bo'libdi. O'tinga borsa, darrov o'tin olib qaytarkan. Bir kuni undan otasi so'rabdi: "Ha, o'g'lim, o'rmonda o'tin ko'pmikan? Bugun ham ancha erta kelding?" Shunda o'g'li: "Tayyor o'tin meniki. Boraman-u, otga ortib kelaman", deb javob beribdi. "Hoy, o'g'lim, o'tinni to'plagan egalari nima deydi?" — Qiziq, ota, egalari deysiz-a? Menga ortib berishadi. Qani, ortib bermay ko'rishsin-chi!" O'g'lining bu gapini eshitib: Him.. — debdi otasi. — zo'rlab tortib olar ekansan-da...". Endi buyog'ini eshit. Keyin o'sha o'g'il tegirmonga borib tez qaytibdi. Ota; "O'g'lim, tegirmon bo'shmikan? Hozir el qishga un g'amlab olayotgan qistalang vaqtda senga qanday qilib navbat tegdi?" — deb so'rabdi. "Borsam bittasi tolqon tortayotgan ekan, makkajo'xorisini chanoqdan olib tashlab, bir ulov bug'doyimni tortib oldim", debdi. Otasi shunda: "O'g'lim haddingdan oshma! O'zingga ehtiyot bo'l! Yana birorta to'shida yoli borga uchrab qolma", — debdi. O'g'li; "To'shida yoli borga ko'rsatib qo'yaman", — deb to'ng'illab javob beribdi. Oradan ko'p o'tmabdi. Bir kuni yana tegirmonga ketgan o'g'il kechga yaqin ustboshi qon, aft-angorining dabdalasi chiqib, suvga tushgan mushukday bo'lib kirib kelibdi. Otasi: "Ha, nima gap? Birorta to'shida yoli borga yo'liqdingmi?" — desa ham o'g'li javob bermabdi. Ma'lum bo'lishicha, u tegirmonga kelib, yana do'q bilan bug'doyini navbatsiz tortmoqchi bo'lib: "To'xtat! Hozir men tortaman", degan ekan. Bir azamat: "Mashoyixning o'g'li bo'lsang-da, izzating bitdi", deb rosa kaltaklagan ekan. O'shanda otasi shunday depti: "Aytgan edim-ku, haddingdan oshma, deb. Endi esing joyiga tushgandir". Gapning ma'nosiga tushundingmi, elchi?

Elchi Abdusattor xalifa chiday olmadi.

— Otalik! Dini islomning zulfiqori Nasrulloxonga siz aytgan bu masal o'ta pastkashlik bo'lmasmikin?!

— Nima? Pastkashlik? Sen amiring kimligini bilasanmi? Nasrullo amir emas. Nasrullo bir g'arazgo'y! Uning qaysi otasi hukmdor o'tgan? Samarqand-u Buxoroning egasi kim? Amir Temur. Sherali — amir Temurning avlodi. Nasrullo qamalni, duoyi salomni yig'ishtirib, Sheralixonning oldiga bosh egib kelsin. Eshitdingmi? Qamchisini bo'yniga solib kelsin.

Sherali ham kalavaning uchini topganday bo'lib:

— Ho', onangni... — deb intilib qoldi. Elchi Abdusattor xalifa so'zini qaytarmoqchi bo'ldi. Yusuf baqirdi:

— Og'zingni yum! Gap tamom!

— Bosh kesmoq bor-u, til kesmoq yo'q, taqsir. Sherali o'rnidan turdi;

— Ho', onangni... Nega bosh kesmoq bor ekan-u, til kesmoq yo'q ekan, — deb poygakda turgan ikkita yigitga ishora qildi. — Olib chiqinglar, uni...

Yuragi qinidan chiqayozgan Abdusattor xalifa Yusufning oyog'iga yiqildi. Ikki yigit uni ikki oyog'idan sudray boshladi.

— To'xtanglar! — Yusuf yaqinroq kelib unga tikildi. — Elchiga o'lim yo'q. Tur o'rningdan, — dedi. Elchi dag'-dag' qaltirab o'rnidan qo'zg'aldi: — Nasrullo ko'p o'zidan ketmasin, ko'kragida yoli borga uchraydi. Aytib qo'y, Buxoroning egasi Sheralixon bo'ladi. Buni ayt! Eshitdingmi? Yo'qol!

Abdusattor xalifa yerda chuvalanib yotgan sallasini yig'ishtirib, keti bilan chiqib ketdi. Ikkita qurolli kishi uni kuzatib borib, darvozadan chiqarib yubordi.

Amir Nasrullo qattiq izza bo'ldi. Lekin maqsadidan qaytmadi. O'sha kuni Yusuf shaharni himoya qilishni Musulmonqulga topshirib, o'zi qo'shinning yarmisini olib shahardan chiqib ketgan edi. U Andijon va To'raqo'rg'ondagi sipohiylarini chaqirib, amir Nasrullo bilan yuzma-yuz jang qilishni o'ylab qo'ydi. Amir Nasrullo fursatdan foydalanib, Qo'qonga yana elchi kirgizdi. Bu safar avvalgi elchi ancha yaqinroq ko'ringan xonning maslahatgo'yi orqali Sherali bilan shartnoma tuzib, Yusufning otaligini bekor qilishga harakat qildi.

Ikkinchi elchi tabiatan muloyim Shodiga yo'liqdi.

Biroq Sherali sira gapirmadi. Yusuf yo‘qligini bahona qildi. Oxiri Musulmonqulni chaqirib: “Chaqirilmagan mehmonni yo‘qot”, — dedi. U sarbozlarga tayinladi. Sarbozlar elchini mahbusday urib-turtib, zambaraklar qo‘yilgan maydonga olib kelishdi, buxoroliklarning o‘liklari yotgan yerga o‘tqazishdi, ikki zambarakni unga to‘g‘rilab, plitasini tutashtirib qo‘yishdi. Elchi shu ahvolda titrab-qaqshab kechgacha o‘tirdi. Keyin oqshom chog‘i sarbozlar elchining orqasiga bir tepib darvozadan chiqarib yuborishdi.

Nasrullo Qo‘qonni olish niyatidan voz kechdi. Chunki o‘sha paytda uning safardaligidan xabardor bo‘lgan Xiva xoni Buxoroga qarshi urishmoqchi emish, degan xabarni eshitgan Nasrullo qamalni bekor qilib, orqaga chekindi. Yusuf bo‘lsa, qo‘shimcha o‘n mingga yaqin askari bilan yo‘llarga pistirma qo‘yishga ulgurgan edi. Amir Nasrullo to‘satdan pand yeb qoldi. Buxoroliklar qurshovni bir tomondan yorib o‘tish maqsadida shiddat bilan jangga kirdi. Ko‘p yillar mobaynida saralangan, yaxshi qurollangan amir askarlari bir kundayoq safdan chiqdi. Nasrulloxon yigitlarining yarmini zo‘rg‘a qutqarib, “Buxoro, qaerdasan”, deb qochib qoldi.

Yusuf o‘rdaga tantana bilan kirib keldi.

Shundan keyin o‘rda avvalgi chegaralarni tartibga keltirishga kirishdi. 1843 yili Yusuf Sheralining ikkinchi o‘g‘li Mallabekni olib Toshkentga yurish qildi. O‘sha mahalda Toshkentga Buxoro amirligi nomidan Masharif degan kishi beklik qilar edi. Yusuf Masharif-bekning askarlarini Sho‘rtepa degan yerda tor-mor etib, o‘zini bandi qilib shaharga kirdi. Amirdan qo‘yilgan barcha amaldorlarning boshi olindi. Yusuf Toshkentga yangi bek tayinlab qaytdi.

Ko‘p o‘tmay amir Nasrulloning gij-giji bilan Olimxonning Samarqandda yurgan o‘g‘li Ibrohimbek askar to‘pladi, taxt talashib, Qo‘qon xonligiga qutqu solib, Laylak qishlog‘iga keldi. Yusuf bu janjalga aralashmoqni lozim topmay, Tolasdan kelayotganida Hojiboy dodxoh qo‘shib bergan Saydalibekni ko‘p qo‘shin bilan Ibrohimbekka qarshi qo‘ydi. Saydalibek Ibrohimbek askarlarini tezda bir yoqlik qilib, o‘zini asirga tushirdi.

Bunday mahalda nima qilish kerak? Taxtning ikkinchi merosxo‘rini saqlash mumkinmi? Yusuf bularni yaxshi bilgani uchun

o‘zi buyruq berishni ep ko‘rmadi. Nima bo‘lsa-da, Ibrohimbek xonning avlodi. Ya’ni xonlik poydevorini o‘rnatgan mashhur Olimxonning farzandi. Uni o‘ldirib, tovoniga qolishga yuragi chopmadi. “O‘ldirsa Sherali o‘ldirsin. Odam o‘ldirishga buyruq berib o‘rganmagan Sherali o‘ldirmasa nima bo‘ladi? Yuraversin, bir kunini ko‘rib...” deb o‘yladi Yusuf. U bo‘ynini qisib xonga: “O‘zing bilasan. Sening qarindoshing. Sening taxtingni talashadi. Taxt esa bitta, yo senda qolishi, yo bo‘lmasa sendan u tortib olishi kerak. Sen uni o‘ldirmasang, seni u o‘ldirishi mumkin. O‘zing bilasan...” Sherali nima qilsin? Avvalo, bemaslahat ish tutgan Yusuf endi uning o‘zini bu g‘alamislikka turtkilayapti. O‘rdadagi boshqa kishilar ham Ibrohimbekni tezroq o‘ldirish zarurligini aytishdi. Sheralining darmoni qurib: “Boshqa joyda o‘ldiringlar. Men ko‘rmayin...” — deb buyruq berdi.

Ertasiga Ibrohimbekning boshi Yaypan qishlog‘ida tanidan judo qilindi.

Shu voqeadan keyin odamlar, o‘rdadagi ba’zi bir amaldorlar Sheralini avval “landavur” deb atashgan bo‘lsa, endi uning yoniga “atala” so‘zini qo‘shadigan bo‘lishdi. Bu gap bozorlarda, choyxonalarda aytilib, xaloyiq ichida taralib ketdi. Xon sifatida o‘rdadagilarning birortasiga dadil buyruq berolmasligi Yusufni yoqtirmaydigan ayrim arkoni davlat egalarini tashvishga solardi. Xon bo‘laturib, jilovini Yusufga berib qo‘yishini hech kim kechirolmasdi.

Yusuf o‘zi bilganicha xonlikning ichki ishlarini boshqara boshladi. Chunki keyingi kunlarda ichki ziddiyatlar avj olib, o‘troqlashgan aholini talash hamda ekin ekilmay, savdo-sotiq ishlari izdan chiqib, umumiy qiyinchilik boshlangan edi. Yusuf g‘alla va savdo-sotiqdan xazina uchun olinadigan soliqni ma’lum muddatga to‘xtatdi. Xazinani behuda talayotgan kishilarning jilovini tortib qo‘ydi. Ko‘plab daromad evaziga saqlab turilgan askarlarning bir qismini tarqatdi, qolganiga Abil yuzboshini boshliq qilib tayinladi, o‘z yonida yuz yigitni qoldirdi. Vaziyat qanchalik og‘ir, xavfli bo‘lmasin, shunday qilishga to‘g‘ri keldi. Sababi, biror hodisa ro‘y bersa, ularni to‘plash hech gap emas...

Ko‘pchilik amaldorlar bu ishlarga tan berishsa-da, aslida, ayrim beklar, qozilar xazina hisobidan oladigan ulushlardan quruq qolganliklari, o‘rdada tez-tez bo‘lib turadigan tungi mayxo‘rlik, aysh-u ishratlarga mutlaqo chek qo‘yilganligi uchun Yusuf bilan asło kelisha olmasdilar. Otalik ana shu tarzda o‘ziga ko‘plab dushman orttirganini yaxshi bilsa ham, xotirjam o‘z ishini qilaverdi.

Qo‘qon o‘rdasida Yusufga qarshi kuchlar to‘dalanayotganidan xabar topgan amir Nasrullo taxt talashmoq niyatida Olimxonning ikkinchi o‘g‘li Murodbekni qaytaradi. Uni Ibrohimbekday yolg‘iz yubormadi, o‘zi birgalikda ko‘plab qo‘shin bilan bostirib kelmoqchi bo‘ldi. Bu o‘rda uchun ancha xavfli edi... Yusufning og‘aligini ko‘rolmagan ayrim bek va amaldorlarning og‘ib ketishi ham turgan gap edi. Bundan foydalangan Musulmonqul ham Yusufning ishlariga bo‘yin tovlaydigan qiliq chiqardi. Qahri qaynagan Yusuf Mallabekni yoniga olib, qipchoqlarga qarshi otlandi. Urishib obro‘ topmasligiga aqli yetgan qipchoqning esli kishilari taslim bo‘lishdi. Yusufning jahli yozilmadi. U Musulmonqul tarafiga o‘tgan qirqta bekni asir olib ularni jallod qo‘liga topshirish maqsadida yo‘lga chiqdi. Bu xabar o‘rdaga o‘zidan avval yetib keldi.

Dastlab Yusufni ancha-muncha yomonlab yurgan Shodi inoq shu voqeadan so‘ng, bir yo‘la avjiga chiqdi. Qipchoq beklarining jazolanishi yaxshilikka olib bormasligini dalillab, otalik yetib kelguncha Sheralining yuragiga g‘ulg‘ula solib qo‘ydi.

— E, hazratim! O‘zingizga necha marta o‘qib berganman. Amir Nasrullo faqat Yusufga qasdlashib, shunday qilayotir. Siz xonlik jilovini o‘zga odamga tutqazib qo‘yganingiz uchun u ikkinchi shahzodani ham ishga solyapti. Boshqasiga chidasak ham Yusufning qipchoqlarga qarshi yurishini sira kechirib bo‘lmaydi. Otalik Musulmonqulni va uning qirqta yigitini qatl qiladi. Axir qipchoqlar dushmaningiz emas, o‘z elingiz edi-ku! Balki Yusufning o‘chi bordir ularda. E, shohim! Agar Yusuf bu noma’qul ishga qo‘l ursa, barcha qipchoq urug‘lari bosh ko‘tarib, sizning obro‘-e’tiboringizni oyoq osti qiladi. Qipchoqlar oz bo‘lsayam mayli edi... Keyin nima bo‘ladi? Aytishga til bormaydi! Xudo uning yuzini teskari qilsin. E, hazratim, Sizning yorqin quyoshingiz botib ketmasaydi...

Shodi yolg‘iz emasdi. Uning atrofiga boshqalar ham to‘planib, Sheralini astoydil ishontira boshlashdi.

— Nima qilamiz? — deb yuragi po‘killab so‘rab qoldi Sherali. Shodi ta’zim bilan:

— E, bizning soyabonimiz! Eng avvalo beklarni o‘limdan saqlab qolish kerak. Yusufni esa amaldan tushirib, bu yerdan olisroq ketkazish lozim...

Sherali buni kutmagan edi, shalvirab o‘tirib qoldi. Shodi shunda:

— Bundan boshqa chora yo‘q? Ilojimiz qancha? Otalikni biz ham yaxshi ko‘ramiz. Tadbirkor, g‘ayratli kishi. Ayniqsa sizga ko‘p yaxshilik qilgan. Biroq davlatingizning kelajagi shuni taqozo qilmoqda. Bundan o‘zga iloj yo‘q. O‘shanda qipchoqlar ham, amir ham tinchib qoladi.

Sheralining hafsalasi pir bo‘lib o‘shqirdi:

— Axir qanday qilib...

— E, hazrati oliylari. Buyog‘ini bizga topshiring...

Yusuf bilan Mallabek o‘rdaga kelib tushganida, devonxonada xon kutayotganligini aytishdi. “Bahona topilsa, bo‘ldi ularga. Bekorchilikda ermak qilgilari kelib qolgandir”, deb Yusuf qamchisini sudrab kirib keldi. Sheralidan boshqa hamma gurr etib o‘rnidan turib, muloyim kutib oldi. Shunchaki g‘alaba bilan uni qutlagan bo‘lishdi. Yusufning o‘rni bo‘sh edi, u o‘tirmadi. Darchaga yaqinlashdi. Tashqarida askarlar mahbuslarni turtkilab zindonga olib kirayotgan edi. Sherali taxtdan turib keldi. Hamma darchaga intildi. Yusuf ichki bir titroq bilan so‘zladi:

— Ana! Eng ishongan kishimiz, Musulmonqul! Elni yo‘ldan ozdirib... — U o‘zini bosib turolmadi. — Hammasini! Birorta qoldirmay! Ayovsiz o‘ldirmoq kerak! Ayovsiz!..

Shodi inoq Sheraliga qarab, ana, eshitdingmi, deganday imlab qo‘ydi. Sheralining faqat kiprigi pirpirardi. Hamma o‘rniga o‘tirdi. Yusuf o‘z o‘rniga yaqinlashar ekan:

- Musulmonqul shunday qiladi, deb kim o‘ylovdi! — deb koyindi, Shodi unga qo‘shimcha qildi:

— Molning olasi sirtida, odamniki ichida. Qattiq jazolansin! Ikkinchi bosh ko‘tarmaydigan bo‘lsin!

Yusuf yalt etib qaradi:

— Nima? Boshi olinadi! Ertaga el-yurt oldida bosh kesiladi!

Shodi inoq muloyim jilmaydi:

— Kechirgaysiz, otalik, erk shahanshohda...

Yusuf ko'karib ketdi. Shodi inoq avvalgiday xotirjam o'tirsa-da, bu gap otalikka qattiq tegdi:

— Nima deding?

— Sizning qaroringiz xonga ma'qul emas, dedim, otalik.

Yusuf hovliqib o'rnidan turdi:

— Nima? — deb baqirib yubordi. — Nega ma'qul emas? Qashqirday tinchi yo'q dushmanini bosh egdirib kelganim ma'qul emasmi?!

Sherali qovog'ini solib o'tirardi. Shodi inoq so'zladi:

— Otalik, siz qipchoqning qirqta begini qatl etmoqchisiz. Mayli, shunday ham bo'lsin, lekin barcha qipchoq xalqini biryo'la hech qoldirmay qirib yuborolmaysiz-ku. Begini so'ydirganingiz bilan baribir xalqi qoladi-ku, otalik. Qolgan-qutgan el tinch o'tirarmidi. Qaytaga o'chakishadi.

— Qipchoqlar oz bo'lsa ham mayli edi, — deb kimdir Shodi inoqni qo'lladi.

— Bir tomondan Murod jazavaga tushayotgan mahalda beklarni qatl etsak g'alayon ko'tariladi. Bir-birimiz bilan o'chakishish o'rniga aql yuritib ish tutaylik. Balki, ana shularni o'ylab Sherali sizning fikringizga qo'shilgisi kelmay o'tirgandir.

Yusuf to'xtab, bu maslahat sendan chiqdimi, deganday Sheraliga qarab qo'ydi. U Yusufga boqmay, xafaqon boladay o'tirardi. O'tirganlarning hammasi oldindan kelishib olganday jiddiy edi.

— Bir jihatdan gaping to'g'ri, — dedi Yusuf, — sizlar, qipchoq urug'i g'alayon ko'taradi, deysizlar. Ularning kuni kecha isyonini bostirib, isyonkorlarning boshliqlarini tutib keldik-ku axir?

— To'g'ri. Ammo o'z ayblariga iqpop bo'lganlaridan keyin jazo ham o'shanga yarasha bo'lmog'i kerak, otalik.

— Iloji qolmagach, bo'yin egishdi.

— Haq gap, o'rtadagi munosabatning yaxshilanib ketmog'i uchun, siyosat uchun bo'lsa dam shu safar marhamatingizni darig' tutmang.

— Shunday bo‘lsin, Yusuf og‘a, — dedi Sherali qiynalib.

Hamma uni ma’qulladi. Yusuf bosh irg‘adi.

— Mayli! Beklar ozod qilinsin. Faqat bir kishidan boshqasi.

Shodi inoq:

— Hammasi ozod bo‘lsin. Chamamda Musulmonqulni qo‘ldan chiqargingiz kelmayapti. O‘ttiz to‘qqiz bek bir taraf, Musulmonqulni o‘ldirish bir taraf. Uning qipchoqlar o‘rtasida e’tibori juda zo‘r.

Yusuf irg‘ib tushdi.

— Sen, Shodi, Musulmonqulning tinch yurishiga ishonasanmi? Menga qarab ayt-chi, shunga kafolat berasanmi?

Shodi inoq Yusufning asta susayib borayotganligini payqab, ishonch bilan dedi:

— Qayga borardi?

Yusuf o‘rdadagi kishilar tomonidan birinchi marta qarshilikka uchrab, Sherali ilk bor uning izmidan chiqdi.

— Mayli... — dedi u. — Sizlar aytganday bo‘lsin. Lekin men Musulmonqulning xotirjam yurishiga sira ishonmayman. Agar shundan keyin, Musulmonqul amir bilan aloqa o‘rnatsa yoki biror shaytonlik qilsa, u holda, Shodi, seni yerga tiriklay ko‘mdiraman... Eshitdingmi?

Shodi inoq iljayib qo‘ydi, Yusuf orqasiga qaramay devonxonadan chiqib ketdi. Ertasiga Musulmonqul Sheralining etagini tavof qilib, Yusuf bilan yarashib, apoq-chapoq bo‘ldi. Afsuski, yurakdagi adovat o‘ti o‘chmadi. Yusuf bilan Musulmonqul o‘rtasidagi munosabat keskin tus ola bordi. Ikki o‘rtada Shodi inoqning obro‘yi oshdi. Boshda u xonga kitob o‘qib, islom dini aqidalaridan so‘zlab bergan bo‘lsa, endi o‘rdadagi hal qiluvchi kishilardan biriga aylangan edi.

* * *

1844-yilning bahori...

Devonxona. Sheralixon bir guruh kishilar bilan o‘tirardi. Hammaning ko‘zi xonda, uni bir gapga ko‘ndirolmayotganga o‘xshashardi. Shodi inoq, askar boshliqlari, qozi ham shu yerda edi.

Yaqinda u o‘zini shayxulislom deb atab, martabasini ko‘targan edi. Sheralining peshonasi tirishib ketgandi. U avvalgi Sherali emas, soqol-mo‘ylablarini yaxshilab qaychilayotgan, yuzlari oqarib, o‘zi to‘lishib, kirgan-chiqqanlarga mensimay qaraydigan bo‘lib qolgan edi. U peshonasini silab indamay o‘tirardi.

— O‘zingiz o‘ylab ko‘ring, shohim... Biz sizning pok niyatli qulingizmiz. Shon-shuhratingiz tarafdorimiz.

O‘zingiz ko‘rib-bilib turibsizki, tashqarida dushman ko‘payib ketdi, amir hamon tinchimayapti. Viloyatlardagi beklaringizning qovog‘idan qor yog‘yapti. Bunga sabab kim? Yusuf! Unga nisbatan qarshilar ichkarida ham, tashqarida ham ko‘paydi. Rostini aytsak, Yusufning niyati yomon. U o‘g‘lingiz Mallabekka rahnamolik qilib, el tanitib, ishga aralashtirib, yo‘l ko‘rsatib biror narsaga hozirlik ko‘rib yuribdi. Tuzingiz ko‘r qilgur, bir kuni sizni tinchitib, Mallabekni xon ko‘tarish niyati bor...

Sherali indamasdi. Uning ko‘zi tez-tez ro‘parada ilinib turgan choriqqa tushardi; Buni payqagan Shodi inoq

— E, hazrati oliylari! Ana, bu uning ishi. Bu bilan Tangri sizga ato qilgan toj-u taxtni, ulug‘ darajangizni yerga urib, oyoq osti qilgan.

Xo‘ja boshini likillatdi.

— Tavba... Tavba... — deb yoqasini ushladi. — Yo tavba! Bu shart-sharoitga sira to‘g‘ri kelmaydi. Qolaversa, shariat qonunlariga xilof ish.

Shodi inoq:

— Bu betavfiqni qarang, tizginingizni tortib olgani ozmidiki, bu oxirati kuygur yana elni buzyapti... — deb Sheralining pinjiga kirib, ariday g‘ingillar edi. — Shohim, o‘rdangizni u kambag‘alning uyi bilan teng qildi... O‘rdaning savlati qani? Buxoroliklarga sharmanda bo‘ldik. Xorazmliklar oldida yuzimiz shuvut. Bir betavfiq shunday qilgan ekan, bunga indamay ilojimiz yo‘q. Lekin bu xo‘rlik qachongacha davom etadi?

Sherali hamon o‘z xayoli bilan band edi. Bunday gaplarni juda ko‘p eshitgandi. Shodi inoq hatto tushida ham uni hol-joniga qo‘ymaydi. Nima demoqchi? Nima qilmoqchi? Ularning so‘zi, savlati xonni bosib qo‘ygandi.

— Hazrati oliylari! Ruxsat bering, uni chopib tashlayin — dedi askar boshliqlaridan biri qilichiga qo‘l uzatib.

Sherali yalt etib unga qaradi. Hammaga birma-bir ko‘z yugurtirdi. Barcha unga bosh egib, nimanidir talab qilganday undan ijozat so‘rashayotganga o‘xshardi. Shundaymi... Uning ko‘ngli allanechuk bo‘lib ketdi. Yusuf uning ustidan kulib, tahqirlab, chorig‘ini peshonasiga ilib qo‘ygan ekan-da? Jilovni tortib olib, xor qilgan ekan-da? Labi qimtildi. Uning holatini darhol his qilgan ayyor kishilar:

— E, hazrati oliylari! O‘rdangizga eski choriq nomunosib! — deyishib yana uning jig‘iga tegishdi.

— Ol! — dedi Sherali oriyati kelib. Barcha uni qo‘llab-quvvatladi. Shodi inoq o‘sha zahoti bir parcha qog‘ozni unga tutqazdi:

— E, bizning diydori oydek yorqin, quyoshdek issiq otamiz...

— Bu nima?.. O‘qi! — dedi Sherali. Shodi o‘qish o‘rniga yaqinroq borib engashib so‘zladi:

— Yorliq...

— Choriqqami? O‘shanga ham yorliq kerakmi? Olib tashla!

— E, shahanshohim... — dedi Shodi inoq, ish endi so‘nggi nuqtasiga yetay deb qolgandi, hamma unga qarab turardi. — Choriqni Xudo olsin!.. Xuddi shuni o‘ylab topgan kishining boshini bir yoqlik qilmoq zarur, hazratim... Choriqni bo‘lsa, Xudo olsin.

Sherali tushunmay qoldi. Atrofidagilar maslahat berishdi.

— Yo‘g‘-ye?!

— Shu zarur. Bundan boshqa yo‘l yo‘q.

Xo‘ja:

— Benamoz! Benamoz boshqargan o‘rdaning xosiyati bo‘lmaydi... Ishi olg‘a yurmaydi. O‘yla, o‘g‘lim. Yaxshiroq o‘ylab ko‘r.

Qozi:

— Yo‘l shuki, siz ishonib topshirgan tizginni eplolmagan odamni, so‘zingizni ikki qilgan kishini kimligidan qat’i nazar, o‘zingiz jazosini berasiz.

Xo‘ja:

— Xonning jazosi — Xudoning jazosi. Benamozning gunohi boshidan oshib ketdi. Gunohga botgan boshni bo‘ynidan judo qilish kerak.

Shodi inoq:

— Taqsir, ishtonini bulg‘agan qo‘lini ayarmidi? Bo‘lar ish bo‘ldi. Endi hech kim ayamaydi. Yuz-xotir yer bilan yakson bo‘lmasin.

Shu yo‘l bilan Shodi inoq Sheralini qo‘rqitib yubordi. Sherali yana avvalgiday hammaga ko‘z yugurtirib chiqdi. Barcha bir taraf. Uning iloji qolmadi.

— Mayli, qo‘lidan tizginni olib qo‘yamiz... Ketsin, toqqa borib tirikchiligini qilsin, — dedi.

Shodi inoq:

— Him! Yusuf sizning orqangizdan ergashib kelgan bir daydi. Uning biy degan nomi bor. Bordi-yu, bugun uni ketkazib yubordingiz. Ertaga qo‘shin to‘plab kelib, aziz boshingizga qopa soya solsa-chi? Odamning ko‘nglini og‘ritgach, oxir yomon bo‘ladi. Bundan ko‘ra uni yer bilan yakson etmoq kerak. Bu haqli talab.

Xo‘ja:

— Dushmanning o‘lgani yaxshi. Xotirjam yurasiz.

— Bu ko‘pchilikning talabi... Xalqning muhri bosilgan birdan-bir narsa, — dedi Sherali. — Him... Him... Yusuf o‘ldirilsa, biz isyon ko‘tarmaymiz, deb xalq so‘z berdimi? — so‘radi Sherali.

— E, shahanshoh! — deb kuldi Shodi inoq. — E, hazrati oliylari, o‘lganning ortidan hech kim ergashgan emas. Yusufdan so‘ng, o‘sha urug‘ o‘rdaga Yaqinroq kelib, bamaslahat ish ko‘rishga majbur bo‘ladi. Xudoga shukurkim, elat ichida sizning obro‘yingiz Yusufdan zo‘r. Yorqinoybegimning otasi To‘xtanazar biyning farzandlari, dodxoh tog‘angiz Hojiboyning bola-chaqalari sizni qo‘llamay kimni qo‘llaydi?

Shodi inoq yeng uchidan boshqa bir qog‘ozni olib Sheraliga tutdi:

— Bu nima?..

— Bu sizning buyuk yorlig‘ingiz.

— Yana qanday yorliq?

— Yusuf biyning o‘gay onasidan tug‘ilgan Xo‘jamurod degan ukasi bor. O‘sha Xo‘jamurodni dodxoh qilib ko‘targan tabarruk yorlig‘ingiz.

Sherali Shodi inoqqa og‘zi ochilib qarab qoldi.

Shodi inoq:

— Har kimga jon kerak. Har kimga farovon hayot, hurmat, shuhrat kerak. Olloh o‘z bandalarini shunday yaratgan. Xo‘jamurodning yo‘lida bitta kaltak yotibdi. Bir uchidan ushlasa — o‘rda bilan qasdlashmoqqa to‘g‘ri keladi. Ikkinchi uchidan ushlasa — do‘stlashadi. U ancha farosatli. U so‘zsiz kaltakning ikkinchi uchidan ushlaydi. Elat oriyatli bo‘ladi. Biz oriyatga berilib ketmasligi uchun unga kaltakning ikkinchi uchini ushlatib qo‘yishimiz kerak. Alaqsitadigan narsa esa mana bu...

Sheralining avzoyi o‘zgardi. Yusufga nisbatan g‘azabi oshdi. Otalikka qarshi yashirin uyushgan dushmanlar xonni gijgijlayapti. Bir vaqtlar Yusufga shariatdan gap ochib, unga otalik vazifasini topshirgan ikkiyuzlama qozi endi choponini teskari kiyib, boshqa bir rivoyatni aytyapti. Shodi inoq qaltiragan qo‘llari bilan birinchi yorliqni ushlab turibdi. Sherali yorliqqa qo‘l uzatayotib, beixtiyor ko‘lini yana tortib oldi. Shodi inoq uning qo‘lini ohista ushlab:

— Taqsir... — dedi gezarib, Sherali bo‘shashdi. Shodi inoq ustalik bilan uning bosh barmog‘iga siyoh surtib, muhr bostirishga ulgurdi.

— Buni endi qanday qilib... — dedi Sherali g‘o‘ldirab.

— Buyog‘ini bizga qo‘yib berasiz.

Sherali labini tishlab, peshonasi tirishib qoldi. Shodi inoq muhr bosilgan yorliqni ushlab, javob qildi:

— Taqsir! Endi g‘iring deyish yo‘q. Gapning dangali shuki, bu bir parcha qog‘oz jallodning qo‘liga yetsa, hech narsadan xabarsiz Marg‘ilonda yurgan Yusufning boshi ketadi. Agar qo‘qqisdan otalikning qo‘liga tushib qolsa, u kunni Xudo ko‘rsatmasin, sizning aziz boshingiz... Bo‘lar ish bo‘ldi. Demak, qaysimiz bo‘lsak ham mahkam turmog‘imiz zarur. Paysalga solib bo‘lmaydi...

Ilgaritdan maslahatni bir joyga qo‘ygan o‘rdadagi bu zaharli ilonlar Shodi inoqning so‘ziga qo‘shilib, bosh irg‘ab turishdi.

Sherali devonxonadan lanj chiqdi. Eshmat, Toshmat degan bichilgan qullari uni qo‘ltiqlab, olib borib o‘rniga yotqizishdi. Birpasdan keyin uning huzuriga Yorqinoybegim keldi.

— Shohim... — dedi asta Yorqinoybegim engashib, Sherali ko‘zini ochdi. Xonzoda uning o‘ychan yuziga tikildi:

— Ha — Nima bo‘ldi?.. Tobingiz qochdimi? Tinchlikmi? Yo tabibni chaqiraymi?

Sherali bir to‘lg‘anib oldi. Sog‘. Yorqinoybegim tashvishlana boshladi.

— Shohim... Nima bo‘ldi? Nega xafasiz?

Sherali gapirmadi.

— Devonxonada nima ish qildinglar? Darvozabonlar eshikni mahkam berkitib turishdi. Biror yashirin ish bo‘ldimi? A, shohim?..

Sherali shart burilib qaradi. Uning ko‘zlaridan zahar tomar edi. Xonzodaning yuragi o‘ynadi. Shu payt kichkina shahzoda Xudoyor o‘ynab kirib keldi.

— Bor... Tashqarida o‘yna, — deb Yorqinoybegim bolasini qo‘yarda-qo‘ymay eshikka chiqarib yubordi. Yorqinoybegim eriga erkalanib boqdi:

— Voy, shohim, bugun jahlingiz chiqib qolibdi. Yigirma yil turmush qurib, sizning bugungiday ayanchli ahvolingizni birinchi bor ko‘rishim. Yoki sizga ham g‘ayrat kiryaptimi? — Xotini mayin tabassum qildi. Sherali baqirib yubordi:

— Ha! Bunga aslo g‘ayrat kirmaydi dermidinglar? Shuning uchun xo‘rlab yurgan ekansizlar-da?

Yorqinoybegimning qovog‘i uyuldi. Yuzlariga qon tepchidi.

— Tobingiz qochibdi, shekilli! Sizni kim xo‘rlayotir? — dedi Sheralining ko‘ziga tik boqib. — Sizning qo‘ltig‘ingizga kimdir suv purkab yurganga o‘xshaydi!

— Suv purkar emish?.. Menga sadoqatli kishilar aytdi...

— Qaysi sadoqatli kishilar?

Sherali soqovlanib o‘girilib yotib oldi. Yorqinoybegim hech narsaga tushunmay serrayib turib qoldi., Sabri chidamay:

— Hoy bu yoqqa qarab ayting-chi. Sizni kimlar xor qilmoqda? Buyoqqa qarang?! Yusuf akam Marg‘ilondan keldimi? U nima deyapti? — erining ustidagi ko‘rpani tortdi. Sherali yulqinib, tirsagiga tayanib o‘shqirdi:

— Yusuf! Yusuf akangizning gunohi boshidan oshib ketibdi. O‘sha gunohkor boshini kesmoq uchun buyruq berdim. Eshitdingmi?

Yorqinoybegim turgan o‘rnida qotib qoldi.

— Yolg‘on! Siz nima qilib qo‘ydingiz?

— Gunohi boshidan oshib ketgan ekan...

— Voydod! Voy sho‘rim! Nima qilib qo‘ydingiz, esi yo‘q... Uning gunohi sizni odam qilganimi? Voydod! Voy sho‘rim! Agar bugun Yusufning boshi olinsa, ertaga sizniki ham ketadi. Voydod! Siz o‘shaning aqli bilan odam bo‘lib yurgan edingiz. Voydod!..

Sherali bo‘shashib o‘tirib qoldi. Ko‘z o‘ngidan Shodi inoqning yorlig‘i tutgan basharasi o‘tdi. Tashvishga tushib qoldi. Nima qilsin? Sheralining boshi g‘uvillab ketdi. Qayoqqa qaramasin tubsiz jar. Ko‘rpaga o‘zini otdi.

— Nima qilayin? Nima? — dedi tuturiqsiz Sherali yalinchoq bir ohangda.

— Yerga kiring! Eshmat! Eshmat!

Tashqaridan kul kirib keldi.

— Labbay, malikam!

— Eshmat! Eshmat! Qoqindiq, sen Abil yuzboshini bilasanmi?

— Bilaman! Bilaman!

— O‘sha! O‘sha! Eshmat, uni tez topib kelgin buyoqqa.

— Xo‘p bo‘ladi. Hozir.

— Tez!

Oradan ko‘p o‘tmay Abil Sheralixonning muhri bosilgan yorliqni bekor qilish uchun bir to‘p yigitlar bilan otliq Marg‘ilon tomonga shitob jo‘nab ketdi.

Marg‘ilon. Bekning saroyi. Yusuf boloxona to‘ridagi yakandozda yonboshlab dam olib yotardi. Keyingi mahalda Marg‘ilondagi askarlar o‘rtasida kelishmovchiliklar avj olib, sipohiylar bozor kunlari odamlarning g‘ashiga tegib, har xil janjal chiqara boshlagan edi. Kimdir o‘z yigitlari bilan chetdagi qishloqlardan birini talabdi. Marg‘ilon begi hamon jinoyatkorlarning iziga tushmabdi. Yusuf shularni o‘ylab, jini kelib o‘tirgan chog‘ida qo‘rg‘ondan qandaydir sharpa eshitildi. Hayal o‘tmay shahar begi yonida mirshab bilan boloxonaga chiqib keldi. Yusuf o‘rnidan qo‘zg‘almadi.

— Taqsir, — dedi bek sekin, — O‘rdadan yorliq keldi.

— Qanday yorliq? Kim beribdi? — dedi Yusuf beparvo, hech narsani sezmay.

— Bu yorliq axir bir kuni kelishi kerak edi. Xayriyat, biz zoriqib kutgan kun ham yetib kelibdi, — dedi ovozini balandlatib.

— Nima ekan?

Yusufning g'azabi alanga oldi. Hozirgina tirishib o'tirgan bek endi unga qahp bilan boqardi. O'rdadan kelgan kishi jallod edi. Yusuf tanidi. Matkarim yasovul. Uning kipriklari chang. Otdan urinib qolganmi, boloxonaning ustuniga suyanib, unga qarardi. Bek yorliqni yuqoriga ko'tarib, javob qildi.

— Marhamati keng Said Sheralixonning yorlig'i. Yusuf kimxob choponini yelkasiga tortib qo'zg'aldi.

— Qani ber-chi?..

Bek masxara qilib kuldi:

— Taqsiri olam, otalik! Ilojimiz qancha, taqdir degani shu ekan-da, hozirgina siz bizni jallodning qo'liga topshirmoqchi bo'lgan edingiz. Ollohning yozmishi shu ekan, nima ham qilardik. Yusufning boshini olib huzurimga keltir, deb Sheralixon mening nomimga yorliq yo'llabdi...

— Nima?

Bek qo'li bilan ishora qildi.

— Janjal ko'tarmang! Foydasi yo'q! O'zingizni bosing, — deb bek sekin jerkib, yorliqni Yusufning oldiga irg'itdi. Darmoni qurigan biy yorliqni yerdan ololmadi. Ammo Sheralining muhrini tanidi.

— Otalik, kimning qo'rg'onida o'tirganingizni bilib qo'ying. Udaychilaringiz allaqachon bir yoqlik qilingan. Har qanday harakatingiz befoyda. — Yusuf hech narsa demadi. Axir yorliq o'yinchoq emas. Bu o'rtada unga yaqin birorta ham odam yo'q. Dushmanlar qo'lida ekanligini yaqqol sezdi. U yerga qaraganicha Matkarim yasovuldan so'radi:

— Jallod, — dedi bosiqlik bilan.

— Labbay, taqsir.

— Bu qog'ozni qayoqdan olding?

— Xon hazratlarining qo'llaridan.

— Him. Jallod...

— Labbay, taqsir.

— Taxt ro'parasiga osib qo'yilgan choriqqa ko'zing tushmadimi?

— Yo‘q taqsir.

— Rost ekan. Jallod?..

— Labbay, taqsir...

— Devonxonada Musulmonqul ham bormidi?

— Yo‘q, taqsir. U kishi ko‘rinmadi.

— Him... Ishni boshlagan o‘sha. Endi taqdirni qara. Shu ish amalga oshsa, ichida, oshmay qolsa, sirtida qolmoqchi.

Boshqa gap aytishga yuragi betlamay jim bo‘lib qoldi. Yonida turgan bekning etagi shitir etishi bilan u o‘ziga keldi. Dushmani oldida mag‘lub bo‘lganini ko‘rib, g‘ijindi. “Taqdir shu ekan-da... Undan kim qochib qutulgan...” U boshini ko‘tardi.

— Buyruqni Sheralining qo‘lidan oldim degin, jallodim.

— Shunday, taqsir.

— Ha, mayli... Tuzim ko‘r qilsin. Essiz mehnatim. Men-ku uzlatga ketaman, biroq meni bo‘g‘izlagan qo‘llar uni ham omon qo‘ymaydi.

— Taqsir, meni tez qayt deyishgan.

— Xo‘p. Tez qaytasan. Senda hech gunoh yo‘q. Mayli... Men ikki rakat namoz o‘qib olayin. Chidasang, namoz tugaguncha kut, oshiqsang, o‘ng tomonga salom berganimda kir. Shunday qil. Ishingni bitkaz...

— Xo‘p, taqsir.

Yusuf o‘rnidan turdi. Bek oldini to‘sdi.

— Taqsirim, tashqariga chiqish mumkin emas!

— Yo‘limni to‘sma, quyoshni bir ko‘rayin, nodon. Agar g‘ayridin bo‘lmasang, tahorat olayin.

U boloxonaning eski yog‘och zinapoyalarini g‘ichirlatib, tashqariga chiqdi. Barcha tashvishda edi. Yigirmatacha qurolli sarbozlar ikki to‘p bo‘lib suhbatlashib turardi. Ular Yusufni ko‘rib hayron bo‘lib qolishdi. Otalik ularning ichidan Yormozor qo‘shinining yuzboshisini tanidi.

— Assalomu alaykum, — deb Yusuf salom berdi. Sarbozlar sipolik bilan alik qilib ta’zim qilishdi.

Mirshablarning nazorati ostida borib, katta chinor ostida tahorat oldi. Kun ancha pastlagan edi. Chinor shoxida bir chumchuq chiriq-chiriq qilib “pirr” etib shoxdan-shoxga qo‘ndi. Sarin yel

barglarni shitirlatib o‘tdi-da, tinib qoldi. Yusuf qiblaga qaradi. Quyosh barkashi lov-lov yonib qo‘rg‘onning narigi tomonidagi uzun teraklar uchida ilinib turardi.

— Mirshab! — dedi Yusuf. Yaqin turgan mirshablardan biri yugurib keldi:

— Labbay, taqsir...

— Jallodga ayt! Buyoqqa kelsin... Men namozni bog‘da o‘qigim kelib qoldi.

— Xo‘p, taqsir...

Yusuf joynamoz so‘ramadi. U bog‘ni oralab borib, o‘zining oppoq o‘rama belbog‘ini yozib ko‘m-ko‘k maysa ustiga tiz cho‘kdi.

Biy garchand namoz o‘qishni bilsa-da, odatlanmagani uchunmi muntazam namozxonlikka hech qunt qilmasdi. Balki, hozir shuncha vaqt o‘qimaganligini gunoh bilib, so‘nggi marta sajdaga bosh egmoqchidir. Javobsiz, chigal xayollar miyasida charx urardi. U o‘rdaga nima uchun keldi? Nima qilmoqchi edi? Nima qilishga ulgurdi? Kimni xaqorat qilib, kimning dilini ranjitdi? Nega dushmanlari ko‘payib ketdi? Nega? Maqsadi tumtaraqay bo‘lib ketgan o‘rdani birlashtirish emasmidi? Ko‘ngli bir oz ko‘tarilgan bo‘ldi. O‘limga tik boqishim, mening xatom emas. Yodiga eski ko‘rgan tushi keldi. Ha, yuksak tog‘, baland martaba. Bir tog‘dan turib qo‘l uzatsam, ikkinchi toqqa yetgani — bu shon-shuhratim. Bir tog‘dan qiyqirsam, ikkinchi tog‘ning kiyigi hurkkani — lavozimim oshgani. Hammasi bo‘ldi. Attang, o‘shanda tez uyg‘onib ketmaganimda edi... Ko‘z oldidan ona qishlog‘i o‘tdi. Ko‘z ilg‘amas baland tog‘lar, ko‘m-ko‘k yaylov. Qimiz hidi. Rang-barang gullar. Ana qarindoshlari. Bularning bari Yusufning yuragini ezib yubordi. Qachonlardir o‘lib ketgan onasining bergan oq sutini eslab, ko‘ziga g‘ilt-g‘ilt yosh keldi. O‘zini tutdi. Ko‘zdan yosh chiqsa, tahorat buziladi. Hoy, nega o‘ychansan? Sendan boshqa o‘lmaydimi? O‘zini-o‘zi koyidi. Bo‘ldi! Bu dunyoning o‘yini ham poyoniga yetdi. Tamom! Tamom! Bu dunyoning azobi ham tamom...

Namoz o‘qishga kirishdi.

— Bismillohir rahmonir rahim... Ollohu akbar, Ollohu akbar, Ollohu akbar...

U sajdaga bosh qo‘ydi. Orqasida maysa shitirladi. Go‘yo ilon yaqinlashib kelayotganga o‘xshardi. Kim kelayotganligini sezdi. Badani dir-dir titradi. Lekin yuragi u qadar qattiq urmadi, uni aql kuchi, erk kuchi mahkam ushlab turardi... Shart... Shart...

...Abil ulgurolmadi. U qo‘rg‘on darvozasiga kelib qora terga botgan otini to‘xtatib, uzangiga oyoq tiraganicha turib qoldi:

— Otalik! Hoy, otalik! Ming afsus! — deb qichqirdi. Jallod bog‘ ichida Yusuf otalikning boshidan qonini oqizib, qon hidiga mast bo‘lib, ko‘zlari qizarib turgan edi. U ovoz kelgan tomonga e’tiborsizlik bilan qarab qo‘ydi, xolos...

VI

O‘rdadan fayz ketdi. Yusufning o‘limi qator nizo va kelishmovchiliklarning chiqishiga sababchi bo‘ldi. Sherali xon sifatida ancha-muncha mustaqil ish yuritgan bo‘lsa-da, yangi mingboshi Shodi hovliqib Sheralixonni ancha tashvishga qo‘ydi. Natijada o‘rtada paydo bo‘lgan har xil chigal masalalarni hal qilish ikkovining ham qo‘lidan kelmay qoldi. Musulmonqulga Shahrixon viloyatining bekligi berilgan edi. Ammo u bilan kifoyalanib qolmadi. Shodi bilan mingboshilikni talashib, unga turli nayranglar ko‘rsata boshladi. Shodi shayton imkoniyatdan foydalanib, Musulmonqulning boshini olib kelish haqida yorliq yozdirib, jallodni jo‘natdi. Biroq Musulmonqul buni sezib, Oqsuv tomonga qochib ketgandi. Shodi oshkora jangga bel bog‘lab, uning ortidan yurish qildi. Ular Chust bilan To‘raqo‘rg‘on o‘rtasida duch kelishib, ana shu urushda Musulmonqul g‘alabaga erishdi va Shodi inoqning boshini qopga solib, egarning qoshiga bog‘lab, Qo‘qonga yo‘l oldi. Yo‘l-yo‘lakay uchragan viloyatlardagi beklar uni qo‘llab-quvvatlashdi. Musulmonqul to‘g‘ri o‘rdaga kirib, shariat bo‘yicha ish tutib o‘tirmay mingboshilik amalini qo‘liga oldi. Bir oz oyog‘ini siltab yuradigan, yuzlari qip-qizil, hamisha odamlarga shubha bilan qaraydigan yangi mingboshidan Sheralixon zirillardi. Nachora, mansab uchun kurash tinmadi. 1845-yilning yozida Musulmonqulning o‘rdada yo‘qligidan foydalangan Isfara viloyatining begi Sotivoldi dodxoh to‘satdan o‘rdani bosib, Sheralixonni o‘ldirib,

o‘rniga Olimxonning Ibrohimbekdan keyingi o‘g‘li Murodbekni xon deb e’lon qildi.

Murodbek faqat o‘n bir kungina toj kiyish sharafiga muyassar bo‘ldi. Musulmonqul Murodbekni tezda tor-u mor qilib, Sheralixonning o‘n to‘rt yashar o‘g‘li Xudoyorbekni xonlikka ko‘tardi.

Sheralixonning voyaga yetib qolgan farzandlari ham bor edi. Lekin Musulmonqul mingboshi atay Xudoyorni tanladi. Sababi, katta o‘g‘illari davlatni boshqarsa, Musulmonqulga quloq solmay qo‘yishlari mumkin. Mingboshi shularni hisobga olib juda ehtiyotkorlik bilan ish yuritdi. Xonning yoshligi unga katta imkoniyatlar yaratdi. Bir kuni boshog‘riq bo‘lmasin, deb boshqa shahzodalarni ham birma-bir qatl ettirdi. Yolg‘iz Mallabek Buxoroga qochib ketishga ulgurdi.

VII

...O‘sha o‘rda. Sirtdan qaraganda bu yerda nizolar tinchiganday ko‘rinsa-da, aslida sipo, taqvodor kishilar bir-biri bilan chiqisholmay, bir-birini poylab yurishardi.

Musulmonqul mingboshi oshiq o‘ynaydigan O‘rda qurdirib, beklarni, lashkarboshilarni ikkiga bo‘lib, musobaqa o‘tkazardi. Bir tomonda yosh xon boshliq bo‘lsa, ikkinchi tomonda o‘zining o‘g‘li Abdurahmon boshliq edi. Bu ikki o‘spirin oshiq o‘rdasining erkasi edi. Bir o‘nakka uch o‘yin bo‘lsa ham, bu erka yigitlar xohlagancha oshiq otib, bilgan ishlarini qilardi. Bunga o‘rdadagi kishilar ko‘nikib qolishgandi, hech kim g‘iring demasdi. Chetda turgan bir kishiga bu o‘yin yoqinqiramadi. O‘nakka teng bo‘lmasa, o‘yinning qizig‘i qoladimi. Tengi chiqadigan o‘ynaydi. Yoshi ulg‘ayib qolgan qop-qora, o‘sha basavlat kishi oshiq o‘yini qoidalarini buzib o‘ynayotgan shahzoda tomonga yura boshladi. Shu mahal xushomadgo‘ylardan biri Xudoyorni maqtab :

— Ha, yasha! Gir aylantir! — dedi. Haligi devsifat kishi shahzodaning qo‘lidan mahkam ushlab:

— To‘xta, bola... Mana, bunday qilib mo‘ljalga urish kerak... o‘yinning shartiga chidamagan kishi oshiq ushlab nima qiladi... — dedi jahl aralash.

Yosh shahzoda xijolatdan qizarib ketdi. Atrofda tomosha qilib turganlar mulzam bo'ldi. Katta telpak kiygan, qopa basavlat kishi bunga parvo qilmay, o'rniga qaytib bordi.

— O'g'lim, bu kishi tog'ang bo'ladi, — dedi Musulmonqul shahzodaning ko'nglini ko'targan bo'lib. — Bular bizning xonligimizga, otaligimizga qaramay, ishning to'g'risini to'g'ri, egrisini egri, deb betga aytishadi. Kechirish kerak...

Yosh shahzoda hech narsa demadi. Faqat Musulmonquldan boshqa kishidan bunday qattiq gap eshitmagan Xudoyor uyalib, mo'ljalga olgan oshig'ini ham urolmadi. Shivir-shivir boshlandi, o'yinning qizig'i qolmadi.

Ertasiga Musulmonqul o'sha alpday basavlat kishini yoniga o'tqazib unga minnatdorchilik bildirdi.

— Almambet aka, kecha meni juda xursand qildingiz. Ba'zi mahalda shu narsa kerak ekan...

Almambet gapga tushunmadi.

— Qachon? Nimaga?

— Oshiq otishni aytyapman. Gap bolada emas, uning xon degan nomini qalqon qilib men bilan adi-badi aytishib yurgan kishilar bor edi. O'shalarning oldida juda soz ish qildingiz, — deb Musulmonqul xursand bo'ldi.

— Men bunisini qayoqdan bilay, — dedi Almambet kurakday kaftini siltab, — bola g'irrom o'ynayapti, o'yinning fayzi ketyapti.

— Ha, nima bo'lsa ham yaxshi bo'ldi. Hammasi serrayib qolishdi. Bola oshiq o'rdasining fayzini ketkazsa mayli, lekin xon o'rdasining fayzini ketkazmaymiz. Hozircha esi yo'q. Bo'lmasa, ancha-muncha maslahatli ishlarga aralashtirib turar edim-ku... Yaqindan beri uning yengidan o'zga kishilarning qo'llari ko'rinib qolayotir...

O'rdaning qabih ishlariga, siyosatiga aralashib o'rganmagan, bundan buyon ham aralashishni ep ko'rmaydigan Almambet Musulmonqulning gapini uncha tushunmasa ham, "Ha", deb qo'yish bilan kifoyalandi. Musulmonqul ichida kimlardandir gumonsirab, qiyiq ko'zlari ajabtovur tusga kirgan edi.

Azaldan Oltinbeshikning bola-chaqalari qirg'iz urug'lari bilan qiz olib, qiz berib, qaychi quda bo'lib ketishgan bo'lsa, ichkilik

qipchoq beklari qiz olishdan boshqa yo sut berib, yo sut emib qarindosh-urug‘ bo‘lishgan edi. Bu o‘z navbatida o‘zaro hamkorlikka, bir-biriga yordam, ko‘mak berishga sabab bo‘lgan edi. Kunlarning birida qipchoq beklari Musulmonqulni beshigi bilan otga o‘ngarib kelishib, uni Almambetning onasiga topshirishadi. Shu-shu Musulmonqul vodiyda voyaga yetib, keyin o‘z ovuliga ketadi. Ana shu yo‘l bilan u qipchoqlarga tutingan o‘g‘il bo‘lib qolgan edi. Sut tufayli tutingan akasini Musulmonqul quchoq ochib kutib oldi. Hurmatini joyiga qo‘yib, izzat-ikrom ko‘rsatdi. Aqli butun, ishning ko‘zini biladigan kishi sifatida qadrladi. Bundan qarindosh-urug‘lar ham juda xursand bo‘lishdi.

Musulmonqul o‘rdani qattiq ushladi. Harbiy ishlarga katta e’tibor berdi. Qo‘qon, Marg‘ilon, Namangan, Toshkent shaharlarida qipchoqlardan iborat qismlarni saqladi. Andijonda Olimbek dodxohni, Namanganda Gadoyboy dodxohni qoldirib, boshqa viloyatlarga faqat qipchoqlarni qo‘ydi. Qolaversa Xudoyorga o‘z qizini berib, hech kimni og‘iz ochirmay qo‘ydi. Ammo Xudoyorga unchalik ishonmas edi. U aqlan zaif bo‘lib, buning ustiga xotinlarga o‘ch edi. Shuningdek, eng qo‘rqinchli tomoni, Xudoyor laqma bo‘lib, o‘zgalarning gapiga ishonaverardi, shu sababdan Musulmonqul undan hamisha xavotir olib, el ko‘zida erkalatib so‘zlab, yolg‘iz paytida iskanjaga olardi. Boshqalarga ergashib ketmasligi uchun uning qo‘liga bir miri ham oltin tanga bermasdi. Begona odamlar bilan so‘zlashishga yo‘l qo‘ymasdi, davlat ishlariga sira aralashtirmasdi... Bora-bora ayrim kishilar Xudoyorning pinjiga kira boshladi. Dastlab unchalik qo‘rqinchli ko‘rinmasa ham Musulmonqul ularning hisobini olib bordi. Chunki yuragiga g‘ulg‘ula tushib qolgandi.

— Aka, elda pichoqqa sop bo‘ladigan yigitlar topiladimi? — deb so‘rab qoldi Musulmonqul, Almambetdan biror yaxshiroq maslahat chiqishini o‘ylab.

— Qayoqda deysan... O‘tgan bahorda o‘zing ko‘rgan Kurpuldak soydagi katta toshimni ko‘taraman, deb bir yigit shaylanibdi. Yigit telpagini yerga qo‘yib, toshni olib irg‘itish uyoqda tursin, hatto o‘rnidan jildirolmabdi.

Musulmonqul kulib yubordi.

— Nega kulasan? Ko‘rganlar aytishdi.

Mingboshi uning so‘zini eshitmaganga olib, Almambetni boshqa savol bilan alahsitmoqchi bo‘ldi.

— Harbiy ishga qiziqqan yigitlar ko‘pmi?

— Bo‘lsa kerak... Lekin qimiz, go‘sht ko‘p. Kim ham askarlikka qiziqardi...

Musulmonqul o‘ylanib qoldi:

— Qilichinglarni zang bostirib, bamaylixotir yotganinglarda, bo‘ron to‘zitgan qopa bulutday bir tomondan qirqqa yaqin yigit ot choptirib kelib, tovoqdagi go‘shtinglarni, sanochdagi qimizinglarni tortib ketsa-chi?

Almambetning ko‘zi chaqchaydi:

— Qanday qilib? Kim? Xon turganda, xonning otasi — ukamiz turganda qirqta otliq qayoqdan keladi?

Musulmonqulning sabri tugab tik qaradi:

— O‘sha xonning o‘zi choptirsa-chi?

Almambet gap topolmay qoldi.

— Qanaqasiga? Olig‘ini olsa, solig‘ini solsa... Musulmonqul endi bu yerda o‘tirgani ehtiyoj sezmadi shekilli, eshik tomonga qarab, kaftlarini bir-biriga shaq-shaq urib o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Tezda eshikdan qilich taqqan novcha qipchoq kirib kelib ta’zim qildi.

— Labbay, taqsir!

— Xazinabon!

Yigit qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib orqasi bilan chiqib ketdi. Mingboshi Almambetga kulib qo‘ydi.

— Aka, qilichlarning zangini ketkazib turinglar.

Almambet ukasining qonli ishlarga shaylanayotganligini tushunib yetmay:

— Toshda qayrasa zangi ketadi, — dedi.

Mingboshi keskin ohangda:

— Qilichning zangini qon ketkazadi, — deb yubordi.

Xonning xazinasi. Cho‘g‘dek qip-qizil oltinlar, oq kumushlar, otning kallasiday, mushtumday quyma yombilar... Hindistonning ming bir xil yoqutlari, oqqushlarning jig‘ildonidangina topiladigan gavharlar, turli-tuman zirak va taqinchoqlar yulduzday yonib, shamday yiltirab turibdi.

To‘q qizil duxobadan chopon kiyib, yaxlit yashil rangli matodan boshiga salla qo‘ndirib olgan Xudoyorxon ham tilla va kumushlardan ko‘z uzmay o‘tib bormoqda. Musulmonqulning o‘ng yonida Almambet. Xazinabon yoshi o‘tib qolgan odam. U yaltiroq boshini bir tomonga qiyshaytirib, bu yerdagi boyliklarning qaysinisi qachon, qaerdan olib kelinganligini aytib, qo‘lidagi shamni yuqori ko‘targancha borardi. Almambet og‘zi ochilib goh tillalarga, goh xazinabonga qarardi.

— Aka, shahzoda jiyaningiz, tog‘am xazinadan qupyq chiqmasin, deyapti! — deya Musulmonqul Almambetga yuzlandi. Shu on Xudoyor mingboshiga yalt etib, hayron bo‘lib qaradi. Otalik jim deganday xo‘mraydi. Xonning dami ichiga tushib ketdi.

— A... Rahmat. A... — deb Almambet shoshib qoldi. Musulmonqul jilmaydi. Har biri inson xuni bilan barobar bo‘lgan yombilarning yoniga kelib Almambetga zimdan qaradi.

Almambet xazinaning to‘rida turgan toza qizil tilladan quyilgan bo‘yi bir qarich keladigan odam shaklidagi oltinni bir qo‘li bilan yuqoriga irg‘itib asta ilib olarkan, uning yiltirashiga, tiniqligiga hayron qolib, qayta o‘rniga qo‘ydi.

— Odamning shakli shamoyili ekan-a? Musulmonqul bosh irg‘adi:

— Gap odamning shaklida ekanligida emas, gap uning xunida, — dedi. — Buni bir mahallar Amir Temur Hindistondan o‘lja qilib olib kelgan. Bu butparastlarning Xudosi. Masala butparastlarning shakli shamoyilida ham emas, bahosida. Bu dunyo, bu baxt...

Almambet hayron qolganidan tanglayini taqillatib, yana bir o‘girilib qaradi. Xazinabon uni olib ketmasaydi, deb ko‘zlari chanog‘idan chiqquday qotib qoldi. Almambet: “Buni nima ham qilardim? Minay desang ot, yey desang non bo‘lmasa bu...” deb o‘ylanib, nari bordi. Xazinabon: “Xayriyat, Xudo bir saqladi”, deb sevinganidan xo‘rsinib yubordi.

Aslahaxonada qator tizib qo‘yilgan miltiqlarni, sopiga kumush suvi yugurtirilgan qilichlar va sovutlarni bir sidra ko‘zdan kechirishdi. Musulmonqul akasidan ranjiganday bo‘lib to‘xtadi:

— Ko‘rdinglarmi, bular o‘rislardan kelgan miltiqlar. Odamning boshiga olma qo‘yib otsa bo‘ladi.

— A-a, odamga tegmay, olmani o‘zini uradimi? — dedi astoydil Almambet.

— Har qanday jonzotni... Masalan, kiyiknimi, odamnimi olisdan turib ko‘ziga ursa bo‘ladi.

— Biz kiyikni tuzoq qo‘yib ushlaymiz, Buni qarsillatib, tog‘dagi kiyiklarni cho‘chitgandan nima foyda? — deb nari ketdi. Musulmonqul akasining orqasidan yurarkan, bosh chayqab qo‘ydi.

Qizil duxoba matolar saqlanadigan omborxonaga kirishganida Almambetning og‘zi ochilib qoldi.

Turli xil duxobalar, xitoy shoyilari, o‘rislarning bulg‘orilari, yo‘lbars, ayiq va silovsin terilari. Rang-barang kimxob, qashqar beqasami, Eron hamda Buxoro gilamlari taxi buzilmay turibdi.

Almambet qashqar beqasamidan ixlos bilan tikilgan choponlarning yonidan ketolmay, ularni birma-bir ushlab qo‘ydi. Uning tikilishi, qavilishi qoyil qoldirdi.

— Oling, oling, tog‘a!.. — dedi Xudoyorxon.

Musulmonqulning kiyik ko‘zlari, lablari qisildi. Almambet buni sezmadi. Xon ol degach, qarab o‘tirmay xazinabonning yordamida bittasini kiya boshladi. Mana, chiroyli choponning bir yoq yengi uncha sig‘may tarr etib yirtildi. Almambet bilan xazinabon bir-biriga qarab qoldi. Xazinabon shoshib choponlardan yana birini olib kelib uning yelkasiga tashladi.

— Ol! — dedi Musulmonqul baqirib, Xazinabonning jon-poni chiqib ketdi. Darrov Almambetning ustidan choponni olib, ming bukilib mingboshidan uzr so‘radi:

— Bir qoshiq qonimni...

Almambet hayron bo‘lib, soqolini barmoqlari bilan silab qarab qoldi.

— Xonning amri bitta. Shuncha xazinaning ichidan tekkan bir parcha latta ham sizga sig‘may yirtilib ketgan ekan, bu Xudoning buyrug‘i.

Shu-shu Musulmonqul akasini oldiga chaqirmadi. O‘rdada o‘tkazilgan ziyofatlarga ham u qatnashmadi. Almambet qishloqqa qaytadigan kuni bir necha daqiqagina mingboshining huzurida bo‘ldi.

Mingboshi xafa edi. U ko‘p vaqt bosh ko‘tarmadi.

— Aka, — dedi u bir mahal o‘kingannamo, — sizni Namanganga bek qilayin desam, ko‘pchilik unamadi. Akangiz qo‘tosday qo‘pol ekan, u viloyatni emas, o‘zini boshqarib olsa ham katta gap, deb. — Musulmonqul shu so‘zni aytdi-yu, o‘zi shoshib qolib, kiyiq ko‘zlari bilan Almambetga sinovchan qaradi. — Ilojim qancha?.. Shunday deyishyapti...

Almambet qo‘lini siltab:

— Qo‘y, meni qiynama. Namanganga bek bo‘lib, burga bilan iskaptoparga talanib yotgani xushim yo‘q. Qo‘y, bu amalni qiziqqan kishilarga beraqol! — deb to‘g‘risini aytdi.

Mingboshi akasini Namanganga, bek qilish haqida hech kim bilan suhbatlashmagan, hatto o‘zi bu to‘g‘rida yaxshiroq bosh qotirmagan edi. Kechagi anqovligi uchun bir umr armon qilib yursin, deb shunchaki gapirdi, xolos. Almambet o‘zi aytgan javobdan izza tortdi.

— Bo‘pti aka, sizni biy qildim!

— O‘zimizning elgami? — deb so‘radi.

— Yo‘q, elga emas, — deb kuldi Musulmonqul. — O‘zingizni o‘z boshingizga biy qildim!..

U tushunmay o‘ylanib qoldi.

— Qanaqasiga?

— Xuddi shunday! O‘z boshingizga o‘zingiz xo‘jayinsiz.

Shu-shu Almambet xonning o‘rdasiga qaytib qadam bosmadi. Unga “o‘ziga o‘zi biy” degan qo‘shimcha ilashdi. Biroq u bu narsani parvoyiga ham keltirmadi, xafa bo‘lmadi. Qaytaga Kurpuldak soyda dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lib, to‘qaydan ellik kiyik ilintirib, ovning gashtini surib yuraverdi.

1853-yilning notinch bahori.

O‘t-o‘lanlar otni ko‘mib, ayiqshashir, qulunchoq[1]lar oq bosh olib, chorvadorlar yaylovlarga ko‘chayotgan vaqtda Qo‘qonda yana g‘alayon boshlanibdi, degan noxush xabarni eshitgan odamlar bezovta bo‘lib, aholi tobora tog‘ning ichkari qismiga ko‘cha boshladi.

Almambet yaylovda qimizga obdan to‘yib, bo‘layotgan gaplardan bexabar o‘tovda yotgandi. Bir begona kishi kelib, uni tashqariga boshlab chiqib, qulog‘iga nimanidir shivirladi.

[1] **Ayiqshashir, qulunchoq** — tog’ o’tlari.

— Qayoqda? — dedi u.

Xabarchi tog‘ tarafni ko‘rsatdi.

— Qachon keldi? O‘zi yolg‘izmi?

— O‘zi yolg‘iz emas...

Bir ozdan so‘ng, Almambet hech kimga hech narsa demay O‘ynoqtoshga yetib bordi.

Otdan tushmay, qamchinni buklaganicha atrofga ko‘z yugurtirdi. Baldirg‘on ot bo‘yidan o‘tibdi. Quvraylar gulga kiribdi. Qurigan archa ustida yolg‘iz ukki ora-sira nolish qiladi. Jilg‘alardan buralib, sharqirab oqib tushayotgan tiniq suvlar zargar jilo bergan kumush o‘mildiriqday yaltiraydi.

Og‘ir nafas olib, suvlig‘ini shildiratib chaynagan otning qulog‘i chimirildi. U biror sharpani sezganday, soy tomonga qaradi. Ungacha baldirg‘onning uchi qimirlab, qandaydir tovush quloqqa chalindi. Almambet tizginni burdi. Qarshisida ikki kishi paydo bo‘ldi. Qo‘llarida miltiq, bellarida qilich, salom berishdi.

— Salom! Mol-joningiz omonmi?

Almambet alik oldi.

— Bu yoqqa yuring, — dedi yigitlarning biri g‘orga boshlab. Ular g‘orning oldiga borishdi. Bu yerda qurollangan yigirmaga yaqin yigitlar o‘tirardi. Ular o‘zlaridan yoshi ulug‘ kishini ko‘rib salom berishdi:

— Omonmisiz? Mol-joningiz esonmi?

— Shukur, — dedi Almambet. U otdan tushib, g‘orning ichiga kirdi. Ichkaridan kimdir:

— Bek keldi, — dedi. Birov ingraganday bo‘ldi.

Almambet salom berdi. To‘rda o‘t-o‘lanlar ustiga solingan to‘shakda yotgan odam og‘ir xo‘rsinib alik oldi.

Almambet sekin ko‘zining qiri bilan qaradi. Boshida telpak, ustida ancha urinib qolgan piyozi chakmon, qorong‘ida uning kimligini taniyolmadi.

— Musulmonqul yo‘qmi? — deb so‘radi Almambet o‘tirmay. Hech kim indamadi. Atrofda turganlar yotgan kishiga achinish bilan qarardi. Bir mahal haligi odam:

— Tanimaydigan bo‘lib ketibmanmi? — dedi.

O‘sha onda Almambet engashib qarab, o‘zini tutolmadi.

— Hoy, senmisan? — deb qo‘lini cho‘zib, paypaslab to‘g‘ri kelgan yerga o‘tirganida uning keng yelkalari g‘or og‘zidan zo‘r-bazo‘r tushib turgan yorug‘likni to‘sib qo‘ydi. Musulmonqulning qiyiq ko‘zlarini, parishon yuzlarini Almambet endi aniqroq ko‘rdi. Gapni nimadan boshlashini bilmay, ikkovi bo‘shashib o‘tirib qoldi.

— Him... Shunday qilib qishlog‘ingizga kelib qoldik, aka! — dedi Musulmonqul kulishga harakat qilib.

Almambet yer chizdi.

— Hechqisi yo‘q, ukam... Kelsang kelibsan-da... O‘zing ko‘rgan, o‘zing o‘sgan el...

Bu gaplar Musulmonqulning izzat-nafsiga tegdi, ko‘ngli og‘ridi. Nima bo‘lsa-da, akasi. Buning o‘rniga: “Qirg‘iz mingan otning taqasi qayoqlarda iz qoldirmagan, hali ko‘ramiz”, deb ko‘nglimni ko‘tarsa kerak, deb o‘ylovdi. So‘zga unchalik uquvi yo‘q Almambet boshqa nima deyishini bilmay o‘rnidan turdi.

— Xo‘p bo‘lmasa... Men borayin...

Qiyiq ko‘zlari chaqchaygan Musulmonqul “jallod” deb chaqirishiga oz qoldi, lekin o‘zini bosdi.

— O‘ziga-o‘zi biy, o‘zi biladi, — deb shivirlab yana yotib oldi. Almambet g‘ordan engashib chiqayotganida orqasidan: “Ishongan xo‘jam sen bo‘lsang, qozonday sallangga tupurdim”, — deya g‘azablangan Musulmonqulning so‘kinishini eshitmay otiga qamchi bosdi.

Almambet uyga kelgach, nima qilishini bilmay, allamahalgacha xayol surib o‘tirdi. Nihoyat qarindoshi Abilni chaqirtirdi.

Abil ertasiga ertalab, qariya Qoracholni, o‘spirin Beknazarni boshlab keldi. Abilning yigitlik onlari o‘tib, qirq yoshlarga borib qolgan edi. Gavdasi to‘lishib, qop-qora mo‘ylabi o‘ziga yarashib turardi. U to‘rga o‘tib, uy egalari bilan hol-ahvol so‘rashgach, Almambetga qaradi.

— Aka, — dedi iltijo bilan, — siz eshitmadingizmi, biz yoqqa otalik qochib kelibdi deyishyapti.

Almambet bosiqlik bilan:

— Kelib qolibdi; Shuning uchun seni chaqirtirdim, — dedi. Abilning ko‘zlari baqrayib:

— Qayoqda? — dedi.

— O‘ynoqtoshda yotibdi... Nima qilamiz?

— Gaplashdingmi? Nima dedi?

— Nimani gaplashaman...

Abil og‘asining bu javobidan xafa bo‘lib, soniga kafti bilan bir urdi.

Bular ikki otaning farzandlari. Almambet ato qilingan ko‘chini hech narsaga sarflamadi. Birgina qilgan ishi toyday qopa toshni ko‘tarib, Kurpuldak soyning bosh tomonidagi yo‘l bo‘yiga keltirib tashladi, vaqti kelsa, katta yumush bajargan kishiday maqtanib qo‘yadi, xolos. Yoshligidan mol-dunyoga ko‘ngil qo‘ymadi. Mana, yoshi ham o‘tib, soqoli oqardi. Mayishat bor yerda chordana qurib, go‘sht bo‘lishtirishdan boshqani bilmaydi. Abil biy Yusuf otalikning murdasini yashirincha Yormozor qabristoniga dafn etib, o‘ziga qarashli askarlari bilan o‘rdadan qishloqqa qarab yo‘l tortgan edi. U elatni to‘plab Yusufning o‘chini olishga shaylandi. Afsuski, o‘rdada Xo‘jamurod dodxoh otalikka ko‘tarilib, Gadoyboyni Namanganga bek qilib yubordi. Musulmonqul mingboshi yaqin qarindoshi bo‘la turib, negadir o‘rdaga qatnamay qo‘ygandi. Yusufning o‘limida Musulmonqulning qo‘li borligini bilib, Abil kek saqlab yurardi. Qalbiga dog‘ tushgan odam qonxo‘pga salom berarmidi? Abil Musulmonqulning huzuriga sira bormadi. Ammo elat o‘rtasida Abilning obro‘si boshqa dodxohdan kam emasdi.

— Aka, endi nima qilamiz? — dedi Abil o‘ylanib. — Nima bo‘lsa ham bir onani emganmiz. Bizni qarindosh, bilib, panoh izlab kelgandir.

— To‘g‘ri-ku, buyog‘i qandoq bo‘larkin?.. Axir u Musulmonqul bo‘lsa...

— Borib gaplashaylik... Qochishiga nima sabab bo‘ldiykin? Keyin buyog‘ini ko‘rarmiz.

Ular choshgoh paytida qimiz olib, bir ko‘zini pishirib, Qora chol bilan Beknazarni ergashtirib O‘ynoqtoshga borishdi. G‘ordan buralib chiqayotgan tutunni ko‘rishgach, ko‘ngillari o‘rniga tushdi.

— Bor ekan.

Musulmonqulning yigitlari bularni uzoqdan kuzatib turgan edi. G‘orga yaqinlashgach, Abil salom berdi. Musulmonqul g‘or og‘zi-

ga chiqib turgan ekan. U ayyorona jilmayib, istar-istamas Abil bilan so‘rashib, sinchkovlik bilan unga tikildi.

Abil birdaniga hol-ahvol so‘rashishni ep ko‘rmay, chor-atrofiga qarab olgach, hamdardlik bildirib:

— Ajabo! G‘orga qamalib... — dedi u o‘ng qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, Musulmonqulga yo‘l bo‘shatarkan. – Qani, bek og‘a, ruxsatingiz bilan tepaga chiqib o‘tiraylik.

Musulmonqulning chehrasi ochildi. Abilning novcha qaddi-qomatiga boshdan-oyoq qarab minnatdorchilik bildirib oldinga yurdi. Ularning orqasidan yigitlar ham ergashdi. Do‘ngga chiqishdi, Abil yozilib gapirdi.

— Bek og‘a, o‘zingiz bolalikdan o‘sgan el, borini ayamay, yo‘q bo‘lsa, qayg‘urmay, o‘z rizqi bilan yashab kelayotir. Gilamimiz ham, par to‘shagimiz ham mana shu ko‘m-ko‘k maysa. Buni qarang-a, ushbu ko‘katlar har qanday to‘shakdan toza, har qanday gilamdan chiroyli.

— Albatta, albatta! — dedi Musulmonqul.

— Qani, o‘tiraylik, bek og‘a.

Almambet gapga aralashmay, serrayib turdi, ular ko‘m-ko‘k maysaga o‘tirishgach, nortuyaday asta cho‘kdi. Beknazar yosh yigitlarga xos epchillik bilan xuddi Abil tayinlab qo‘yganday yugurib-yelib xizmat qilmoqda. Ixchamgina qo‘lbola sanochda buloq suvi keltirishdi, baldirg‘on butog‘ini kesib, sanoch og‘ziga tiqishdi, xuddi qumg‘ondan suv quyganday Musulmonqulning qo‘liga suv berdi. Keyin dasturxon yozishdi, obi-tobida pishirilgan barra qo‘zi go‘shtini nimtalab, uning kallasini mingboshining oldiga surib, katta meshdagi qimizdan zarang kosaga rasamadi bilan quyib uzatdi.

Qimiz obdan ichildi. Go‘shtdan tanovul qilindi. Suhbat qizidi. Biroq ikki tomon ham har ehtimolga ko‘ra Yusuf haqida gapirishni ep ko‘rmadi. Chunki, vaziyat shuni taqozo qilardi. Marhum biy haqida gapirishning mavridi emasligini Musulmonqul ham, Abil ham aniq sezdi. Undan boshqa hamma gaplar aytildi. O‘rtadagi quruq sipogarchilik yo‘qolib, dil-dildan gurunglashildi.

Musulmonqul Beknazarga e’tibor bilan qarab, boshqalarning so‘zini qunt bilan eshitarkan, ko‘ngliga yoqib qoldi shekilli, qo‘lidagi yarim kosa qimizni Beknazarga tutdi:

— Otim Beknazar dedingmi, chirog‘im? Ma, holi tang og‘angdan qolganini ichib qo‘y, — dedi. Beknazar kosani darhol olib, qimizni ixlos bilan ichdi. Musulmonqul bosh irg‘ab dedi:

— To‘g‘ri yo‘ldan og‘magin, deydilar. Yuzing yorug‘, diling ravshan yigit ekansan, chirog‘im. Umring uzun bo‘lsin. — Hayoti to‘kis, bezavol o‘sgan qattiqqo‘l Musulmonqulning oxirgi so‘zlari g‘amgin eshitildi. Qimiz uni sarxush etgandi. Armon bilan xo‘rsindi. — Abil! Beknazar! Sizlar men Qo‘qonda turganimda hech yo‘qlab bormadinglar, — dedi qayg‘urib. Beknazar Abilga qaradi. Abil Almambetga tikildi. Almambet noqulay ahvolda qolib, yelkasini bukchaytirib, g‘iring demay o‘tirardi.

— To‘g‘ri, bormadik, bek og‘a. Ilojimiz yo‘qligidan yoki cho‘chiganimizdan emas, azbaroyi yo‘l yo‘qligidan borolmadik. Biz ulug‘ kishimizni poygakda qoldirib, o‘zimiz to‘rga o‘tolmaymiz.

Musulmonqul tushundi. Bosh irg‘ab Almambetga qarab o‘ylanib turib:

— Rahnamosiz el bo‘lmaydi degan edim... Afsuski, bor ekan... — deya ko‘kragini kerib, yutinib oldi-da, gapni uzoqdan boshladi. — E-ha... Menga juda ko‘p kishi osildi. Bir marta o‘zim qo‘llab, Namanganga bek qilib yuborgan Mirzat shumshuk Ikkisuvning orasiga qarindoshlarinikiga kelganimda, yashirincha To‘paqo‘pg‘ondagi askarlari bilan borib, meni bog‘lab haligi itvachcha Xudoyorni aldab, o‘rdaga yetkazdi. Yorqinoy o‘rtaga tushib ajratib qo‘ymaganida, kim bilardi, nima bo‘lardi. Lekin ular menga o‘chakishib qolgan ekanmi, mingboshilikdan tushirib, o‘rdaga ikkinchi yaqinlashma, deb qishloqqa haydashdi. Bir yilga yetmay, qo‘shin to‘plab Qo‘qonga yurish qildim. Mirzat shumshukni qo‘lga tushirib, shahardagi darvozalardan birining ustiga osdirib, o‘rdaga kirdim...

Almambet yerga qarab o‘tirardi, Abil Musulmonquldan ko‘zini uzmay gapini eshitardi. Musulmonqul ora-sira chuqur nafas olib, so‘zini davom ettirardi;

— Dushmandan hamisha ehtiyot bo‘l. Uning qilmishi ayon. Ammo o‘z qarindoshingning dushmanligini boshingga to‘qmog‘i tekkanda bilar ekansan. O‘tgan yili Normuhammad qo‘qqisdan menga qarshi bosh ko‘tardi. Toshkentdagi u yoqda tursin, Chim-

kent, Sayram, Turkiston va Avliyootadagi sipohiylarni o‘z tomoniga og‘dirib olibdi. Men ham noiloj o‘rdadagi asosiy kuch bilan haligi itvachcha Xudoyorni boshlab, unga yuzma-yuz bordim. Itning bolasi o‘sha yerda itlik qildi. Ikki tomon yuzma-yuz kelganda kechki mahal u Normuhammad tomonga qochib o‘tibdi... Nima bo‘lsayam xon degan nomi bor emasmi, askarlar o‘rtasida noqulay ahvol yuz berdi... Ming qatla shukurkim, o‘shanda ham o‘z baxtimga yana bir karra ishondim. Qulay paytni topib Normuhammadga hujum qilib, g‘alabaga erishdik. Normuhammad qochib ketdi. Haligi itvachcha Xudoyor suvga tushgan mushukday dildirab yana oldimga keldi. Uni o‘shanda tinchitib taxtga Buxoroda yurgan Mallabekni o‘tqazsam bo‘larkan... Bu qasamxo‘rning ikki ko‘zini o‘ydirib birorta masjidga tashlab ketsam bo‘lardi... Eh, pishmagan kalla! Dastlab Mirzatning aldoviga uchganda yosh degandim, keyingida esa bir yog‘i malika Yorqinoyni o‘ylab kechirdim va qayta uni taxtga o‘tqazdik. Ana shu mehri oqibatim o‘z boshimga yetdi...

Musulmonqul jim bo‘lib qoldi. Hamma sukutda edi. Biror narsa deb yupatish uchun so‘z topilmasdi.

Musulmonqul sakkiz yil mingboshilik qildi. Qilich kuchi bilan davlat boshqarilgan ana shu sakkiz yil davomida u hech kim bilan hisoblashmay, shaharliklar, savdo-sotiq bilan mashg‘ul bo‘lgan kishilarga haddan tashqari zulm o‘tkazdi. Bu qattiqqo‘llik elning o‘rdaga nisbatan noroziligini oshirdi. Bundan foydalangan O‘ratepa, Xo‘jand, Toshkent beklari mingboshiga bosh egmay qo‘yishdi. Ko‘p o‘tmay ularga Marg‘ilon begi O‘tanboy qushbegi qo‘shildi. Xudoyorxon esa yashirin to‘p ichida edi. Nihoyat, bir kuni Qo‘qondagi Qosim ponsot boshchilik qilgan guruh Musulmonqul tarafdorlarini o‘rdadan surib chiqardi. U Qo‘qondan chiqib, o‘z askarlarini Ikkisuv orasida qoldirgach, besh-o‘n yigiti bilan tog‘ oralab qarindosh-urug‘larini izlab, elatni o‘z tomoniga og‘dirish uchun keldi.

— Eh, O‘tanboy! Eh, Normuhammad! Biriga Toshkentni, biriga Namanganni berib qo‘ysam-u qilgan ishini qara-ya?.. Kuchuk edi, boqdim, it bo‘lgach, boshqalarga qo‘shilib o‘zimni qopdi... — U titrab, o‘ziga yaqin o‘tirgan Almambetga qo‘lini paxsa qilib

so‘zlardi. — Shoshma hali... Shoshma... Vaqt keladi. Hisob-kitob qilishamiz. O‘shanda darvozaning ustiga to‘rvaday qilib boshlarini osib, keyin o‘rdaga kiramiz. Shoshma!..

Almambet hayron. Musulmonqul o‘zini o‘nglab bir oz tin oldi-da:

Arg‘umoq tanlab, ot yig‘dim,
Ular tulpor bo‘lmadi.
Tanlab yurib do‘st tutdim,
Jonimga yor bo‘lmadi... —

deb chuqur xo‘rsinib, Almambetga g‘amgin qaradi. — Bu akamiz borib turardi. Ba’zan men: “Elda qanday yigitlar bor?” deb so‘rasam, “Mendan boshqa pichoqqa sop bo‘lgudayi yo‘q...” derdi. E-e, nimasini aytay, bir kuni butun el-u yurtga yetguday boylik olib keting, deb xazinaga atay boshlab kirsam, oltin buyoqda qolib, chirik bir choponga o‘zini urdi... Ha, o‘shanda men sizning uquvsiz, landavur odam ekanligingizni bilgan edim, aka...

Ta’na va dashnomlar suyagidan o‘tgan Almambet bosiqlik bilan suhbatga aralashdi:

— Musulmonqul, gaping to‘g‘ri, har kim o‘ziga keragini oladi. Oshiqcha mol-dunyo joningga jafo, tashvish oshiradi, deyishgan bobolarimiz. Axir shundoq Yusuf nima bo‘ldi?.. Sen nima bo‘larding?..

Musulmonqul sergaklandi. Bu gap dard ustiga chipqon bo‘ldi. Nima deyishini bilmay sukutga botdi. Yana qimiz quyildi. Musulmonqul kosani olmadi.

— Juda ko‘p ichdik, — dedi u. Musulmonqul yelkasini uchirib, yutinib qo‘ydi. “Endi bu mahmadona ukamiz ishni rasvo qilmasaydi”, deb xavotirlandi. Biroq, Abil indamadi. Gap qovushmay qoldi.

Abilning ko‘z oldiga Yusuf keldi. Uning issiq istarasini aniq tasavvur qilarkan, yuragi ezilib ketdi. Shu damda Musulmonqul Abilning ko‘ziga xunuk ko‘rindi... Keki oshdi...

O‘z navbatida Musulmonqul ham Yusuf otalikni esladi. U: “Hali esdan chiqarishmabdi-da...” deb ichidan zil ketib, noqulay vaziyatni o‘zgartirmoqchi bo‘ldi.

— Esiz Yusuf akamiz! Aqlli, uddaburon odam edi. Uniyam boshiga sotqinlar yetdi.

Abil o‘zini tutib turolmadi.

— Bilamiz, bek og‘a! Bilamiz! O‘zingdan chiqqan yot yomon bo‘larkan. Hammasidan xabarimiz bor.

“Bular hali unutmagan ekan-da”, deb Musulmonqul tilini tishlab qoldi. Qachongacha bunday malomatlarga chidaydi? Hadeb tana qilaveradimi? Qachongacha? Yo‘q!

Hozircha uning omadi ketgani yo‘q Musulmonqulning jahli chiqa boshladi. Rangi o‘chdi.

— Qarindoshlarim, sizlarni qora tortib katta umid bilan keldim, — deb gapni tamoman boshqa tomonga burdi Musulmonqul, — hali-hozircha kuch-quvvatim bor. Rostini aytsam, qipchoqlar avvalgiday ahil emas, Normuhammad, O‘tanboyni aytib berdim. Endilikda sizlarning yordaminglarga muhtojman. Nima bo‘lsa ham sut emishganmiz...

Hech kim indamadi. Oradan xiyla vaqt o‘tdi. Almambet o‘zini o‘nglab Musulmonqulga qarab:

— Xo‘sh, endi nima qilmoqchisan? — dedi.

— O‘rdani qayta olaman. Dushmanlarning tuxumini quritaman.

Almambet gapning lo‘ndasini aytdi:

— Kelganing yaxshi. Endi tinch yuraver, Musulmonqul. Elni bezovta qilma. O‘rdaning senga nima hojati bor? Sochingga oq tushdi. Mundoq o‘ylab ko‘r, boylikning senga nima keragi bor?

Musulmonqul shartta yorildi:

— Hoy aka! Sizning soddaligingiz qachon qoladi? G‘animlarning dodini beraman. Bitta qo‘ymay qiraman.

— Bek og‘a, — dedi nihoyat o‘zini tiyolmay Abil. — Oqsoqolni ranjitmang. Uni hech kimga alishtirmaymiz.

Musulmonqul Abilga chaqchaydi.

— Qo‘ysang-chi! Nimaga qizarishasan? -dedi Almambet. — Musulmonqul, o‘rdadagilar bilan olishma. Ular bilan boylik talashib obro‘ topmaysan. Tog‘liklar bilan mahalliy xalq o‘rtasida nizo chiqarishdan nima foyda bor? Insof bilan o‘ylab ko‘r, Musulmonqul.

Musulmonqul:

— Ular mening dushmanlarim bo‘ladi.

— Xalq xalqqa hech qachon yov bo‘lmaydi. Faqat elning boshida turganlar yurt buzadi, Musulmonqul. O‘ng qulog‘ing bilan ham, so‘l qulog‘ing bilan ham eshitib ol, Musulmonqul. Tili, dili, qayg‘usi va quvonchi bir elmiz.

Musulmonqul gap topolmay qoldi. Qiyiq ko‘zlari olayib, lablari titradi. Yaqin orada u bunday dashnomni hech kimdan eshitmagan edi. U o‘rnidan turib, qimizdan lattaday bo‘shashib qolgan yigitlariga qarab buyurdi:

— Qani, otni tort!

Yigitlar qo‘zg‘aldi. Musulmonqul otga minib, Abilga qo‘l siltab:

— Ketdim! Sizlardan keladigan yordamni peshonamdan ko‘rdim. Yo‘limiz boshqa ekan. Eshitib qo‘yinglar, boshqa kelaman. Mening qilichim qo‘sh tig‘li, biri o‘tmas, ikkinchisi keskir.

Abil unga o‘chakishib javob berdi:

— Yusuf bilan qo‘sha singan dedingizmi? Bizning qilichimizni ikki tarafi ham o‘tkir.

Tim qora arg‘umoq o‘ynoqlab, bir joyda turolmay depsinardi. Musulmonqul qo‘lini siltab, uzangi bilan otni niqtadi.

— Er yigit bo‘lsanglar, qilichinglarni qayrab turinglar!

— Qayralgan...

Musulmonqulning qora arg‘umog‘i irg‘ishlab, shamolday uchib ketdi...

— Eh, attang, qashqir bo‘lib qolgan ekan-ku... — deb Almambet og‘ir xo‘rsindi.

VIII

...O‘sha kunlarda Qo‘qon va Toshkent shaharlarining ko‘chalaridan inson qoni suv bo‘lib oqdi, desak mubolag‘a bo‘lmas. Chunki, Xudoyorxonning qashqirday ochiqqan kallakesarlari uchragan qipchoqni surishtirib o‘tirmay qilichdan o‘tkazardi. Hech kim oddiy xalqning oh-u fig‘oniga quloq solmadi...

Musulmonqul kech kuzga qadar o‘n besh mingga yaqin askar to‘pladi. O‘rdadagi sotqinlar esa Musulmonqul mingboshilik qilgan vaqtdagi azob-uqubatni haddan tashqari bo‘rttirib, xon-

ning nomini bayroq qilib ko‘tarib, oddiy fuqaroning qipchoq urug‘lariga nisbatan nafratini kuchaytirdi, “Ko‘ringan qipchoqni ko‘ringan yerda o‘ldirib, mol-u mulkini talon-taroj qilgan azamatga bu dunyoda ham, u dunyoda ham da’vo qilinmaydi”, degan mazmunda xon nomidan yorliq chiqartirishdi, qisqa vaqt ichida maxsus jazo guruhlari tuzilib, ularga oltmish ming kishi jalb qilindi Jazolovchilar ekinga tushgan chigirtkaday yopirilib, qipchoq urug‘larining vatani Ikkisuv tomonga yo‘l oldi. Musulmonqulni yo‘qotishda bosh-qosh bo‘lgan Normuhammad bilan O‘tanboy qushbegi qipchoqlarga qarshi xon tomonidan qilinayotgan bu qabih ishlarni ko‘rib, uni to‘xtatishning ilojini topolmay lol bo‘lib qolishdi.

Haqiqat, adolat qaerda? Hech kim bilmasdi. Elat urug‘lari bu dahshatli selning kuchiga bardosh berolmadi. Nima qilishlarini bilmay, hardamxayol bo‘lib, har ehtimolga qarshi tayyorgarlik ko‘rib qo‘yishdi.

Kutilmagan yerdan to‘s-to‘polon ko‘tarib, Musulmonqul hujumni birinchi bo‘lib boshlab berdi. U bu gal ham o‘z baxtiga, o‘z taqdiriga, qolaversa, qipchoqlarning qaysarligi, jangariligiga ishondi.

Qipchoqlar tamoman qizil ust-bosh kiyib maydonga tushdi. Qizil kiyim to‘lib-toshganlik belgisi. Qizil kiyimni o‘sha vaqtda faqat qipchoqlar kiyishga haqi bor edi. Tog‘ tarafdagi elatlarning e’tiborli dodxohlari ham qizil kimxob to‘n, qizil telpak kiyishardi. Qolganlar sariq, ola, chipor va qora rangdagi chopon bilan yurardi. Qipchoq beklari o‘zlarining o‘jarligini ana shu tarzda bildirmoqchi bo‘lib, yo hayot, yo mamot, deb qat’iy, jiddiy kurashardi.

Lak-lak xon askarlari bo‘z adir etagida kelmoqda edi. Saf tortgan qipchoqlar so‘ngsiz dala bag‘rida yashnagan alvon loladay qizarib olg‘a intilardi. Zum o‘tmay do‘llar chalinib, hamma qurol-yaroqqa yopishdi. Saralangan sipohiylar yer-u ko‘kni larzaga solib kelayotgan qipchoqlarga qarshi yuzma-yuz chiqdi. Odatga ko‘ra, botirlar yakkama-yakka o‘rtada kuch sinashmog‘i kerak. Biroq qipchoqlar go‘yo quroli bilan emas, tishlari bilan dushmanni g‘ajib tashlaguday bo‘lib hayqirib jangga kirdi. Tomonlar bir-birini beshafqat qira boshladi.

Xuddi kuzda to‘qayga o‘t ketganday qizil saflar qora qo‘shinning o‘rtasidan yorib o‘tib, qilich damidan o‘tkazardi. Olovni suv o‘chiradi. Bularni faqat o‘lim yo‘ldan to‘xtatardi, xolos. Qipchoqlar kim duch kelsa, yer tishlatib borishardi.

Taqdir o‘rtada. Hayot-mamot o‘rtada. Kim mag‘lub? Kim g‘olib? Bir tarafda qizillar ustun. Bir yoqda qoralarning qo‘li baland. Jang g‘ayratga ham bog‘liq...

Urushda ko‘pchilik katta ahamiyatga ega. Qisqasi, taqdir bilan hayot o‘rtada...

Ikkala tomon ham o‘rib tashlangan o‘tday to‘p-to‘p bo‘lib sulayib yotardi. Ko‘pning ishi ko‘p bo‘larkan. Xon askarining keti ko‘rinmasdi. Asta-sekin qipchoqlarning saflari ozayib, borgan sari kamayib, misoli cho‘g‘day har joy-har joyda yalt etib qo‘yardi, goho o‘chib, goho miltirab, uchqunday so‘nib borardi...

Shu kungi jangda qipchoqlardan besh mingdan oshiq kishi qurbon bo‘ldi. Xudoyor o‘n mingga yaqin saralangan askardan ajradi. Musulmonqul tog‘ tomonga qochib ketdi.

Tekin ovqat, mo‘may mulkka o‘rganib qolgan talonchilar har ikki tomondan o‘lgan askarlarning qurol-yarog‘ini yig‘ishtirib qolmay, o‘liklarning kiyim-kechaklarini ham yechib olib, jang maydonida yalang‘och murdalarnigina qoldirishardi. Ertasiga himoyasiz qolgan qishloqlarni vahshiyona talay boshladilar. Ulardan keyin kimsasiz qishloqlarda qon, tutun, kul qoldi.

Musulmonqul buni ko‘rib es-hushi uchib ketdi. Iloji qancha? Nima qilsin? U nochor ahvolda qoldi. Aql-u hushini yig‘ishtirib olish uchun vaqt kerak. Vaqt qayoqda? Ko‘zlab borayotgan tomonidan qaytdi. U tuni bilan yo‘l yurdi, qolgan-qutgan askarlarini boshlab, O‘tanboy qushbegi bilan Normuhammad dodxoh huzuriga borib, ixtiyoriy taslim bo‘ldi.

— Begunoh elning nima aybi bor? E, qarindoshlarim, itning bolasiga gapinglar o‘tsa, aytib talonchilarni to‘xtatmaysizlarmi? Mana men keldim. Kimning o‘chi bo‘lsa o‘zimdan olsin. O‘z taqdirimga emas, begunoh bola-chaqa, chol-u kampirlarning taqdirini o‘ylab, bosh egib keldim. Meni sizlar jazolanglar. Meni sizlar o‘ldiringlar. Itning bolasiga topshirmanglar. Iltimosim shu. Qonimiz bir. Mening o‘ligim oyoq osti bo‘lsa, sizlar la’natga qolasizlar.

O‘zinglar jazolanglar. Meni o‘ldirish hisobiga begunoh elni saqlab qolinglar. Agar qatl etginglar kelmasa, barcha qipchoq birlashib, do‘st bo‘laylik. Biring qo‘lla, biring yo‘lla! Men amal talashmayman. Ketmon bormi, ketmon? Ketmonni olovda rosa qizdiringlar. Ketmonni peshonamdan ikki enlik narida tutib turinglar, men ko‘zimni yummayman, mayli, oqib tushsin.

Tamom, shu bilan sizlarning ham mening ham ko‘nglim o‘rniga tushadi. So‘ng, tog‘ orasidagi hech kimi yo‘q birorta beva kampirning kulbasiga olib borib tashlanglar. Men tufayli yoki o‘zgalar tufayli jami qipchoq urug‘ining boshiga qora kun tushdi. Qarindoshlarim, basharti noiloj qolsanglar, mendan nomus qilmay maslahat so‘rab turinglar. Qipchoq urug‘i yo‘q bo‘lib ketmasin. Shuni aytmoqchiydim.

Ko‘pchilik Xudoyorxonning dushmani qo‘lga tushsa, ko‘ngli tinchib, qirginni to‘xtatsa kerak, deb o‘ylagan edi.

O‘rdaning kuni kecha aqli yetuk donishmandi bugun Qo‘qon bozori o‘rtasida maxsus qurilgan baland yog‘och ustunga zanjir bilan chirmab bog‘langan edi. Ustida ishtonidan boshqa hech narsa yo‘q.

Savdo to‘xtagan. Bozor odamlar bilan liq to‘la. Hammaning diqqati bir kishida. Birov u desa, birov bu deydi. Xullas, shaharliklar uchun tomosha odatdagidan tashqari edi.

— Nima bo‘larkin?

— O‘ldirsa kerak...

— Nima bo‘lishini hozir ko‘ramiz... Balki shoh bir qoshiq qonidan kechar.

Turganlarning biri boshini chayqadi.

— Hey, Salimboy, yosh bolaning gapini aytasiz-a? Bir qoshiq qonidan kechish uchun bular qirg‘in qilarmidi?

— To‘g‘ri, — deb quvvatladi boshqa biri. — Xon kechirsa ham boshqalar kechirmasligi mumkin. Ha, shunday.

— Bularning orasi shunchalik buzilganki, uni bir yoqlik qilmaguncha tinchimaydi. To‘g‘rimi?

Havo dim. Chang va ter hidi anqiydi. Bir qalandar kimnidir izlaganday boshini chayqab odamlarni oralab yurardi. Birovdan hadiksiraganday tez-tez orqa-oldiga qarab, o‘zicha xonish qilardi:

O, xor banda, xor banda,
Qachon uqib turgaysan?
Farqi ketdi otaning,
Obro'si ketdi bolaning.
Ketmaslikka ne chora,
Yaqinmi oxirzamona?!

Odamlar ko'nikib qolganligi uchunmi, qalandarning mungli ovoziga, qo'rqinchli so'zlariga sira e'tibor berishmadi. Qalandar hamon o'z she'rini o'zicha kuyga solib, nari-beri yurib aytardi:

O, xor banda, xor banda,
Qachon beg'am yurgansan?!
Tinch tirikchilik qilmasdan,
To'zib ketdi musulmon...
To'zmaslikka ne chora,
Yaqinmi oxirzamona?!

Karnay ovozi odamlarni hushyor torttirdi.

— Baxtiyor Said Xudoyorxon! Baxtiyor Said Xudoyorxon!

El tinchib qoldi. Hamma jarchining ovozi kelgan tarafga qaradi.

— Baxtiyor Said Xudoyorxon! Baxtiyor Said Xudoyorxon!

Bozorning kunchiqar tomonidagi darvozadan oq otning o'mrovi ko'rindi. Xon! Bu yerga to'planganlar yerni o'pguday bo'lib tiz bukib salom berishdi. Maydon jimjit bo'lib qoldi.

Xudoyorxon oldinda kelmoqda. Mo'ylabi sabza urgan, ko'zlari chaqchaygan. Cho'chiganidanmi rangidan zahar tomib turardi. Chap qo'lida tizgin, o'ng qo'lidagi oltin sopli qamchinni buklab biqiniga tayangan edi. Yonida yangi mingboshi Qosim, yangi maslahatgo'yi, Niyoz qushbegi, Xudoyorxonning tog'asi Gadoyboy dodxoh boshchilik qilgan elatning bir talay biylari orqada kelmoqda. Normuhammad dodxoh o'shalarning orasida ekan.

— Baxtiyor Said Xudoyorxon! Baxtiyor Said Xudoyorxon!

Ular bozorboshining ro'parasidagi choyxona oldida otdan tushdi. Karnaylar hamon avj pardada edi. Xon odamlarga bir qarab

olib, gilam solingan yog‘och zinapoya orqali boloxonaga chiqib, maxsus kishilarning kuzatuvi bilan oldindan tayyorlab qo‘yilgan baland so‘riga o‘tirdi.

Bir oz pastroq yerdan Qosim mingboshi, Niyoz qushbegi, chap tomondan Gadoyboy dodxoh, Normuhammad dodxoh va boshqa bek, vazir-u vuzarolar, qozilar joy olishdi. Novcha, olako‘z udaychi yelpig‘ichni xonning boshi uzra bir maromda tebratadi, Mushk-anbarning xushbo‘y hidi boloxonaga taraldi.

Karnay sadolari tindi. Qosim mingboshi ko‘lini baland ko‘tarib kaftlarini yozdi. Xudoyorxonning omonligini tilab, “omin”, deb yuziga fotiha tortdi. Barcha to‘planganlar qo‘llarini osmonga cho‘zib mingboshiga taqlid qilib fotiha uqishdi. Xudoyorxonning o‘zi ham baqraygan ko‘zlarini zanjirband kishidan uzmay kafti bilan yuzlarini silagan bo‘ldi.

Zanjirband asir qirov qo‘ngan boshini g‘oz tutib, parvo qilmay o‘rdaning kazo-kazolariga tik boqib turibdi.

— O‘lim! O‘lim! — degan ovoz keldi. El bo‘ronli to‘qay singari bezovta bo‘lib, ana shu so‘zlarni takrorladi.

— Xon hazratlari! Bo‘riga o‘lim! O‘lim!

— Bizga tinchlik kerak! Tinchlik bo‘lsin! Sayoq bo‘riga o‘lim!

— O‘lim!

Bozorga to‘planganlar astoydil qiyqirishardi. Ular go‘yo yog‘ochga bog‘langan odam qatl etilishi bilan ko‘pdan buyon xalq osoyishtaligini buzayotgan, yuraklarni bezillatgan jang-u jadal to‘xtab qoladigandek baqirib-chaqirishardi. Qosim mingboshi atrofga savlat to‘kib qarardi, Xudoyorxonning aftida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni zimdan kuzatardi.

Jazo boshlandi.

Mirshablar zindondan yuzga yaqin mahbuslarni haydab kelib, Musulmonqul turgan yogoch kursining quyi qismiga olib o‘tdi. Mahbuslar Musulmonqulning eng ishonchli azamat yigitlari edi. Qora kiyimli jallodlar esa bir chekkadan oshiqmay, cho‘chimay, mahbuslarni tiz cho‘ktirib bo‘g‘izlashardi. Murdalarini birining ustiga ikkinchisini tashlardi. Mudhish o‘limningmi yoki qonsiragan jallodlarning salobati bosibmi, jamoat churq etmasdi.

Navbati yetgan mahbuslardan biri cho‘kkalayotib elga qarab baqirdi:

— Gunohim nima?! Azizlar!

— Qipchoqsan!

Bu qahrli javob choyxona boloxonasi tomondan keldi. Xaloyiq ovoz kelgan tomonga gurr etib qaradi.

Ularning qo‘llayotgani ham, norozi bo‘layotgani ham bilinmasdi.

Havodan qon hidi kelardi. Yaqin turganlar ichlarida kalima keltirardi, ba’zilar bu yerdan chiqib ketishning ilojini topolmay tepa sochlari tik bo‘lib turardi.

Birgina Qosim mingboshining o‘chi tobora alanga olardi. U ikki tizzasini mijg‘ib, oldinga engashganicha nigohini bir nuqtadan uzmasdi. Musulmonqulning oyog‘iga qipchoqlarning qonlarini sachratib, uning yuragini ezib, irodasini sindirmoqchi bo‘lishdi. Musulmonqul begunoh qarindoshlarining o‘lmay qolishini so‘rab bosh egib, yer o‘pib, yalinadi, deb o‘ylagan edi. Lekin uning boshi egilmadi. Hamon uning qarashlari qat’iy va jiddiy edi. Qosim mingboshi kuch ishlatishga buyruq berdi.

Qon hidiga mast bo‘lib, ko‘zlari qizarinqiragan jallodlar bir chetga chiqdi. Ularning o‘rniga boshqalari keldi.

Avvaldan kelishib qo‘yilganmi, qo‘llari omburday baquvvat yigitlar Musulmonqulni sekin qo‘lidan ushlab, bir oz silab-siypalagan bo‘lib, birdaniga panjalarini qars-qurs etkazib sindirishdi. Musulmonqul qo‘lini sal tortgan bo‘ldi, keyin to‘xtadi, ammo ovoz chiqarmadi. Hatto unga azob berayotganlarga qarab ham qo‘ymadi. Yuzlariga qon yugurdi. Polvonlar o‘chakishib, qiynoqning boshqa usullarini qo‘lladi. Uni yotqizib, yalang‘och oyog‘ini qaltis yerga qo‘ydirib, biri uning ustiga chiqdi. Suyak egildi. Suyak g‘isirladi. Musulmonqul labini tishladi. Berahmlar orlari kelibmi, Musulmonqulning bir qo‘lini doliga qo‘yib, qayirib sindirdi. Qiynoqqa odam ko‘nikib ketadimi yoki hushidan ketib qoladimi, haytovur Musulmonqulning lablari ko‘kardi, ko‘zlarining nuri so‘nib, qorachig‘i tobora qorayib borardi.

Bir mahal ko‘zini ochdi. To‘planib turgan son-sanoqsiz odamlarga qaradi. Lablari titradi. Ayrim kishilar, endi irodasi

sindi, uzr aytib, qiynamay o‘ldirishlarini iltimos qiladi, deb o‘ylardi.

U qanoti singan burgutday bir intilib shunday dedi:

— Ey, qipchoq urug‘i! Bormisan?

Ovozi qaltirabroq eshitildi. Jimjit el churq etmadi.

— Borman, ota!

Jimlik buzildi. Odamlar ovoz kelgan yoqqa qapadi. Kim? Qayda? Xaloyiq hayajonga tushdi.

Musulmonqul olazarak bo‘lib:

— Ket! Tog‘ tomonga ket! Eshitdingmi? — deb bor ovozi bilan baqirdi.

— Eshitdim, ota! Eshitdim!.. — deb aks sado berdi bolaning qaltiragan ovozi.

Jamoat chor atrofga olazarak boqib, devor ustida turgan kichik bir bolani ko‘rib qoldi. Kimdir unga intildi. Bola irg‘ib tushdi-da, bir zumda qayoqqadir g‘oyib bo‘ldi.

Qosim mingboshi jahl bilan o‘rnidan turdi.

— Bularning urug‘i hali tugamapti-da!..

Xudoyorxon qo‘li bilan nimanidir ishora qilib, Qosimni tinchlantirdi. Achchig‘idan qorayib ketgan mingboshini ich-ichidan qaltiroq bosdi. Niyoz qushbegi udaychilardan birini chaqirib, bir bosh bug‘doy topib kel, deb qulog‘iga shivirladi. Udaychi ta’zim bilan orqasiga qaytdi. Keyin Niyoz qushbegi Qosim mingboshining qulog‘iga nimadir dedi. Mingboshi bosh irg‘ab, navkarlaridan birini chaqirib, bozor qo‘rg‘onidagi darvozalarni yopib qo‘yishni buyurdi.

Qiynoq yana davom etdi.

Qipchoq urug‘ining ovozi unga madad bag‘ishladimi yoki so‘nggi so‘zlarini aytib qolgani uchun sevinib ketdimi, Musulmonqul o‘zini tetik sezdi. Ko‘zlari ravshanlashdi, boshini adl ko‘tarib, odamlarga boqdi. Qiynovchi atay ohista keldi. Musulmonqul sog‘ qo‘lini o‘zi uzatdi. Qonxo‘p uning qo‘liga qaramay, to‘satdan qilichning sirti bilan tizza suyagiga bir urdi. Mahbusning oyog‘i zir etdi. U oshiqqa qarab serpidi. Musulmonqul atay oyog‘ini tortib ham qo‘ymadi. Jag‘ suyaklari bilinar-bilinmas qarishib ketdi. Odamlar hayajonlandi.

— Ilonning bolasi bo‘lsa ham... Nima bo‘lyapti o‘zi?..

Ko‘pchilik yoqasini ushlab, Musulmonqulning irodasiga qoyil qolardi. Oradan ko‘p o‘tmay bozor darvozalari tambalanib, qilich ushlagan sarbozlar atrofni o‘rab oldi:

— E, Tangri... Qanday kunlarga qoldik.

Devday to‘rtta polvon zambilda sandiqday quyma qo‘rg‘oshinni arang ko‘tarib keldi. Musulmonqulni yotqizib, taxta tomonga boshini qo‘yishdi. U ko‘zini yummay odamlarga qarab yotardi. Jallodlar qo‘rg‘oshin do‘ngakni Musulmonqulning boshi uzra asta-sekin qo‘ya boshladi.

El duv etdi. Boloxonada o‘tirgan o‘rdaning kazolari ham bir seskanib tushdi. Xudoyorxon o‘rnidan turib ketdi. Qosim mingboshi Musulmonqulning baqirishini zoriqib kutdi. Niyoz qushbegi bulbul sayrab turgan soya-salqin bog‘da o‘tirganday, xayol surib qo‘lidagi bir bosh boshoqni o‘ynardi. Gadoyboy dodxohning yuzlari tirishib ketdi.

Bosh suyagi asta g‘ichirladi... Jag‘i sekin yassi shaklga kirdi. Ikki ko‘zi chaqchaya-chaqchaya oqib chiqdi. Ammo g‘iring degan ovoz eshitilmadi. Qop-qopa qon soqollaridan chak-chak toma boshladi.

Qashqirday beayov, qattiqqo‘l Musulmonqul o‘limni ham qashqirday kutib oldi.

— Salavot! O‘ch olish tugadi! Salavot! Salavot!

O‘tirganlar yelkasidan og‘ir yuk tushganday yengil nafas oldi. O‘ch oluvchilarning o‘chi, kekchilarning keki qonganday bo‘ldi.

— Salavot! Salavot! O‘ch tugadi! Kek tugadi! Salavot!

Hamma duv-duv qo‘zg‘aldi. Ammo boloxonada o‘tirganlarning ko‘ngli o‘rniga tushmadi. Ayniqsa Qosim mingboshi dushmanining qiynoq paytidagi mungli nolasini eshitolmay, g‘azablanib ketdi, o‘rnidan turolmay qoldi. O‘rtaga jimlik cho‘kkandi. Bozordagilar tinib qoldi. Buni halitdan beri ko‘rib-bilib turgan Niyoz qushbegi qo‘lidagi bir bosh bug‘doyni Qosim mingboshiga uzatdi:

— Mingboshi... Bu nima?..

Zo‘rg‘a o‘tirgan Mingboshi birodariga xafa bo‘lib qaradi. Topgan tomoshangni qapa, demoqchi bo‘ldi. Niyoz qushbegining ko‘zlari sirli yaltiradi:

— A? Bu nima? — deya qaytadan so‘radi. Bu nimasi? Hamma ularga qaradi.

— Hoy, qushbegi!.. Nima demoqchisiz? Bu axir bug‘doy-ku! Yo ko‘rmayapsizmi, qushbegi? — deb Qosim mingboshi gap bilan o‘yib oldi.

— Rahmat... — dedi qushbegi, ko‘zlarini suzib.

Keyin bug‘doyni Gadoyboy dodxohga uzatdi, xonning tog‘asi ekanligi yodiga tushib qoldimi, uni pastroqda o‘tirgan Abilga ko‘rsatib:

— Siz ayting-chi, biy, bu nima?

Abil cho‘chibroq:

— Bug‘doy, — dedi. Niyoz qushbegi mamnunlik bilan bosh irg‘adi. U bug‘doyni Normuhammad dodxohga yaqinroq olib keldi.

— Qani, endi siz ayting-chi?..

Normuhammad dodxohning jahli chiqdi:

— Ko‘rib turibsiz-ku, bu nima? — dedi u. Niyoz qushbegining sabri tugadi.

— Men sizdan so‘rayapman, dodxoh. Sizdan eshitmoqchimiz.

— Biyday!

— Biyday... — deb masxara qildi Niyoz qushbegi miyig‘ida kulib. — Hm. Biyday... Qipchoqni xuddi shu so‘zdan bilib olsa bo‘ladi-a, dodxoh!

— Yana?

Niyoz qushbegi Normuhammad dodxohning so‘zini inobatga olmay, javobsiz qoldirdi. Xudoyorxonga egilib ta’zim qildi-da;

— Mana, hazrati oliylari. Shu birgina so‘z orqali qipchoqni aniqlab olish mumkin. Podishohim! Boshingizdagi baxtingiz, davlatingiz ziyoda, xalqingiz tinch bo‘lsin, desangiz mingboshiga yorliq bering, o‘zingiz eshitdingiz, qipchoqning urug‘i hali ham bor ekan. Hatto shu yergacha yetib kelibdi, yorliq bering, mingboshi, mana bu turgan xaloyiq ichidan begonasini terib yuborsin...

Gap nima haqida borayotganligiga endi fahmi yetgan Qosim mingboshi o‘rnidan sapchib turdi.

— E, podshohim! — deb yubordi.

Xudoyorxon bosh irg‘ab kuldi. Keyin Gadoyboy dodxohga savol nazari bilan qaradi. Dodxoh bir narsa demoqchi bo‘lib og‘iz juftlayotganda, xon:

— Mayli, mingboshi dushmanlarimizni bosh ko‘tartirmay qo‘ysin. Shunday bo‘lsinmi, tog‘a? Shunday bo‘lsin... — deb yubordi.

Xonning ko‘ngliga qarash shart. Xonning buyrug‘i ikki bo‘lmaydi. Gadoyboy dodxoh boshini quyi egib, tilini tishlab qoldi.

Soqollari oppoq, qarashlari muloyim ko‘ringan Normuhammad dodxoh hayron bo‘lib, birdan yonib ketdi:

— Taqsir! Musulmonqul badjahl edi. Musulmonqul qonxo‘r edi. Men uning qarindoshligiga qaramay o‘rdadan o‘zim quvdim, qonini ko‘rmoq istadim, o‘zim huzuringizga olib keldim. Bularning barchasini adolat, ahillik, tartib uchun qilgan edim. Taqsir! Qushbegi shaytonning yo‘liga tushdi. Shaytonning gapiga kirmang, taqsir! Shaytonning tili shirin, dili zahar. E, taqsir...

— Og‘zingni yum, qipchoq!

Qosim mingboshi tishlarini g‘ichirlatib shamshiriga qo‘l cho‘zdi.

— Hoy, mening og‘zimga sening kuching yetmaydi. O‘rtamizda taqsir o‘tiribdi. Ovozingni pasaytir.

Xudoyorxon qovog‘ini ochmay o‘tirardi. Axir u ana shu qari dodxohdan ko‘p maslahat so‘ragan-ku. Yaxshiligini unutmaslik uchun ichgan qasamlari qayoqda qoldi? Beshafqat Musulmonqul jon taslim qildi. Qipchoq urug‘larining murosasi yo‘qoldi, qadri ketdi. Endi Normuhammad avvaldagiday dodxoh emas, Normuhammad — chol. Xudoyorxon tog‘asi Normuhammad dodxohdan yuz o‘girdi.

Qosim mingboshi xonga ko‘pdan-ko‘p minnatdorchilik bildirdi. Engashib, etagini o‘pib:

— E, podishohim, dushmanlarimiz boshiga malomat toshi yog‘sin... — dedi.

Shu zahoti jallodlarning qo‘lida bittadan bug‘doy boshog‘i paydo bo‘ldi.

Tim qora kiyimli jallodlar saf tortib, bozor sahnida to‘plangan xaloyiqqa yaqinlashib, bir chekkadan bug‘doy boshog‘ini ko‘rsatib ulardan so‘ray ketdi:

— Bu nima?
— Bug‘doy...
— Bu nima?
— Bug‘doy...

To‘s-to‘polon boshlandi. Odamlarni vahima bosdi. Bir-birining panasiga o‘tib, rangi ro‘yi o’chgan holda turishardi.

— Bu nima?
— Bug‘doy.
— Nima? Boshqatdan ayt?
— Bug‘doy.
— Bu nima?
— Bug‘day...
— Sen?..

Ola chopon kiygan, shalviragan bir odam bug‘doyni ko‘rib qo‘rqib ketdi. Savolni tushunmaganday ko‘zlari olaydi. Yonida turgan kishi:

— Hozir aytding-ku, o‘sha gapni qaytar, — dedi qo‘rqa-pisa. — Bug‘doy-da. Bug‘doy demaysanmi, Hasanali...

— Sendan kim so‘radi? Jim tur! — dedi jallod unga. Keyin haligi odamga baqirdi: — Tez! Bu nima? Tez?

Haligi kishi o‘takasi yorilib, orqasiga tisarildi. — Bi... Bi...

Hasanali bir qizarib, bir oqarib qalt-qalt titrardi. Jallod undan gumonsirab, badtar tikilardi.

— Nima?

— Mening gunohim ne?.. Nima qildim?.. A? Men nima qildim?

Jallod unga yaqinlashdi, qilichini baland ko‘tarib, uni qisib kela boshladi.

— Nima?.. Men nima...
— Qipchoq!
— A-a-a...

Po‘lat shamshir shart uzdi... Tana tuproqqa qorishdi. So‘roq davom etdi:

— Bu nima?
— Bug‘doy.
— Bu nima? Tez!

— Buuday.

— Bu?

— E, Tangrim... Bug‘doy... Bug‘doy...

Quyoshda qorayib ketgan, yuzlari serajin qalandar kuyib-pishib, to‘pdan-to‘pga o‘tib xirgoyi qilmoqda:

O‘z xalqini xor qilib,
Zolim bo‘ldi podishoh...
Iloj qancha, ne chora?!
Yaqinmi oxirzamona?!

Qalandarning g‘amgin ovozi bozorni tutgan oh-u vohni bosib ketganga o‘xshardi.

O, xor banda, xor banda...

Uni bir jallod to‘xtatdi.

— Bu nima?

— Omadning ketishi... — dedi ko‘zlarini lo‘q qilib. Jallod xezlandi.

— Sen nima deyapsan? To‘g‘ri gapir!

— O‘lim, — dedi qalandar.

Jallod qilichini sug‘urdi. Qalandar kulmadi ham, yig‘lamadi ham. Faqat jallodga mo‘ltirab qaradi:

Qarindoshlar bir-birin
Bo‘ri bo‘lib talasa...
Yo‘l to‘sgani yo‘q chora,
Yaqinmi oxirzamona?! -

deb shivirladi. Jallodni unutib qo‘yganday narigi tomondan kelayotgan yig‘i-sig‘iga quloq osdi. Jallod baqirdi:

— Menga qapa!

Qalandar hayron qoldi. Ko‘zlarini katta ochib unga boqdi.

— Bu nima, deyapman? — deb jallod bug‘doyni uning betiga taqadi. — Aytasanmi, yo...

Qalandar sira cho‘chimay jallod qo‘lidagi qilich sopi tomon oqib borayotgan qonni barmog‘i bilan ko‘rsatib:

— Bu nima? — dedi.

Jallod indamay kutar edi. Qalandar yuzlarini alamli tirjaytirdi.

— Gunoh... Gunoh... — deb shivirladi. Jallod borgan sari bo‘g‘ilib, bo‘yin tomirlari yo‘g‘onlashib to‘xtab qoldi. Nega to‘xtadi? Qalandar — tarkidunyo qilib, bo‘yniga rido ilgan banda, uni o‘ldirish gunohi azim. Bu dunyoda ham, u dunyoda ham kechirilmaydi, degan fikr uni o‘ylantirib qo‘ygandi. Qalandar qayg‘u to‘la boshini egib, yana xirgoyi qilib nari ketdi:

O, xor banda, xor banda,
Peshonasi sho‘r banda...
Inoq, ahil yasholmay,
Bir-biriga xor banda...

Xaloyiq ozayib bormoqda. Jallodlar oralab o‘tgan yerlarda “bug‘doy” so‘zini “biyday” deb aytgan qipchoqlarning murdasi qoldi. Qo‘rg‘onning narigi chetida esa qora kiyimli jallodlar hamon kishilarni birma-bir so‘roqqa tutib o‘rtadan o‘tkazayotir.

Normuhammad dodxoh ko‘zlarini yumib, qo‘li bilan quloqlarini berkitdi. U murdadek oqargan, begunoh odamlarning nolasiga chiday olmadi. “Men nima qildim? A-a-a... Mening gunohim nima? A-a-a... Gunohim ne?” U bu so‘zlardan gangib qoldi. Bu fig‘onlar qulog‘i ostida yangrab, qulog‘ini qomatga keltiryapti. “Mening gunohim nima? Sadag‘ang ketaylar, gunohimizni ayting? A-a-a... Ha-a...”. Normuhammad dodxoh o‘zini tutolmay yig‘lab yubordi. U turib, Xudoyorxonning oldida oppoq sochli boshini quyi egdi:

— E, taqsir... Men, men oyog‘ingizga yiqilaman. Men yalinyapman... Men uzr so‘rayapman. E, hazrati oliy, qirg‘inni to‘xtating! E, hazrati...

Xudoyorxon tumshayib qaradi. Normuhammad dodxoh battar yerga engashib, yalindi.

— E, taqsir! Qilgan yaxshiliklarini aytish itning ishi bo‘lsa ham qirg‘inni to‘xtating. Men it bo‘lay. Yomon kunlaringizda yo-

ningizda bo‘lgandim. Shuning uchun qirg‘inni to‘xating. Bundan buyon ham bir umr xizmatingizda bo‘lay. Oppoq boshimni egib, yer o‘pib so‘rayman, qirg‘inni to‘xating.

Xudoyorxon parvo qilmadi. Hech bo‘lmasa, Gadoyboy dodxohning hurmati uchun jahlidan tushib qolar, deb xondan ko‘z uzmay turgan Niyoz qushbegi yengil tortib, chuqur nafas oldi:

– Hoy, hurmatli dodxoh Nima deyapsiz? Siz bilan biz hukmdorning qulimiz. Palon vaqtda palon xizmat qilgan edim, haqini ber, deyish insofdan emas. Bundoq degani haqimiz yo‘q, dodxoh! Axir siz nima deyapsiz o‘zi? Bilasizmi, shariatning qonun-qoidasiga xilof ish qilgan kishi bu dunyoda podshohning g‘azabiga uchrab, narigi dunyoda do‘zax o‘tida kuyadi.

Xudoyorxon g‘azablandi. Niyoz qushbegining so‘zlarida shubha yo‘q. Xon yerdagi Xudo. Xudo bilan tortishmoq bandaga yarashmaydi. Kimligidan qat’i nazar, xonning amri vojib bo‘lmog‘i kerak. Normuhammad dodxohning yaxshiligini eslash u yoqda tursin, jahli chiqdi.

— Dodxoh! O‘zingiz kimsiz? Kimdan haq talab qilyapsiz? — dedi u qahr bilan.

Normuhammad dodxoh jim bo‘ldi. Xudoyorxon o‘rnidan qo‘zg‘aldi, Niyoz qushbegi uni qo‘ltig‘idan suyadi.

Xon ketishga shaylandi. Normuhammad dodxoh shunchaki sipogarchilik uchun beliga taqib yurgan gavhar sopli egri qilichni qinidan sug‘urib, Xudoyorxonning oldiga irg‘itdi:

— Ol... Mening urug‘im qirilib, yolg‘iz o‘zim qolgan shu kunda na tirikman, na o‘likman... O‘zing chopib tashla! Men ham qipchoqman...

Xudoyorxon qayrilib qaramadi. Qaytaga qilichning ustidan hatlab o‘tib, yo‘lida davom etdi.

O‘sha kuni tunda Normuhammad dodxoh otga mindi. Shaharning o‘n sakkiz darvozasini qo‘riqlayotgan yuzboshilarga uni shahardan chiqarmaslik haqida yashirin buyruq berilgan edi. Darvoza berkligini oldindan sezgan dodxoh chavkar arg‘umoqni mindi, kimxob to‘n o‘rniga sovut kiydi, belini po‘ta bilan mahkam bog‘ladi, dudama shamshirini yalang‘ochlab, qasos olish uchun o‘z yigitlarini boshlab ketdi.

Nazoratchilar ko‘rib turgandi. Yuzboshi darvoza ustida turib baqirdi:

— Dodxoh! Qayt! Hukmdorning buyrug‘i shunday... — U gapini nihoyasiga yetkazmay, shilq etib devor qirrasiga osilib qoldi. To‘s-to‘polon boshlandi. Normuhammad to‘pponchasini beliga qistirdi.

— Ol! Chop! Yo, Olloh! — deya qichqirib, o‘zi birinchi bo‘lib tashlandi. Tars-turs! Yonidagi yigitlardan ikkitasi shartta otdan tushib, qilichbozlikka o‘tdi. Qipchoqlar o‘lishiga qaramay, olg‘a bosib, nazoratchilarni darvozaga qisib qo‘yishdi.

— Uringlar! Sanchinglar! Yo, Olloh!

Normuhammad dodxohning ovozi qo‘rg‘onning qorong‘i burchagida yanada balandroq yangrab, aks-sado berardi. Qisqa olishuvdan xabar topgan boshqa darvozalardan sipohiylar chopib kela boshladi. Minora ustida zambarak gumburladi. Shovqin avjga mindi. Yuragi jang-u jadaldan tamoman zada bo‘lgan shaharliklar tashvishga tushib qoldi. Yuzdan oshiq nazoratchini dog‘da qoldirgan Normuhammad dodxoh shamolday uchib, tun qo‘ynida g‘oyib bo‘ldi. Orqasidan ikki-uch marta zambarak otgan bo‘lishdi. Zim-ziyo tun. Zambarak tovushi tun qa’riga singib ketdi...

IX

Musulmonqul o‘ldirildi. Shu bilan o‘rdadagi kelishmovchilik barham topdimi? Xudoyorxon qipchoq urug‘ini ayovsiz qirdi. Uni bunday qabih ishlarga yetaklagan kishilarning maqsadi boshqa edi. Ular qipchoqlarni bir yo‘la qirib tashlamaguncha o‘lkada tinchlik o‘rnatib bo‘lmaydi, deb xon qulog‘iga quyishgandi. Natijada viloyatlarda parokandalik avj oldi, xalq holdan toydi. Bunga javoban mahalliy elatlar qipchoqlar bilan birlashib, 1858-yil G‘uljada qo‘shin to‘pladi, elat biylari Olimbek dodxoh bilan Olimqul dodxohlar Xudoyorxondan bosh tortdi, Mallabekni chaqirib, uni xon deb e’lon qilishdi. Keyin Norin va Qoradaryo singari to‘lib-toshib, o‘rda sari yurish boshlandi. Xudoyorxon Buxoroga qochib ketdi.

Xudoyorxon taxtdan quladi. Qosim mingboshi, Niyoz qushbegi o'ldirildi. Xo'sh, o'rdadagi janjal bosildimi?

Mallabek xon bo'lgach, atrofiga elatdan odamlarni ko'proq to'pladi. Askarlar ko'paydi. U barcha mang'it urug'idan o'ch olishga intilgan kishilarni insofga chaqirib, urug' oqsoqollarini, beklarni yarashtirdi. O'rdaga Buxoro amirining boshqaruv usullarini kiritib, mingboshi o'rnini bekor qilmoqchi bo'ldi. Faqat rasmiyat uchungina Olimbek dodxohni mingboshi qatori ko'rsada, aslida ish yuzasidan undan olisroq yurdi. Dodxohlarning qilgan ishlarini olisdan kuzatib, gunohkorlardan vaqtida o'ch olib, hukmdorlikni o'z qo'liga bir yo'la oldi. Oradan bir necha yil o'tgach, Mallaxonning atrofida ham shum niyatli kishilar paydo bo'lib, uning pinjiga kirishdi. Olimbek dodxoh bunga chidamay, bosh ko'tarmoqchi bo'luvdi, xon uni o'limga hukm qildi. Olimbek dodxoh qochib ketishga majbur bo'ldi. Mallaxonning tarafdorlari o'rtasidagi kelishmovchilik yanada avj olib, fisqi fujur ko'paydi. Xon qanchalik hiylagar, hamma narsani oldindan ko'ra biladigan, ikkiyuzlama, ayyor bo'lmasin, o'rdadagi kelishmovchiliklarni bosib qo'yolmadi. 1862 yili uni yashirin ravishda uxlab yotgan joyida dimiqtirib o'ldirishdi.

Balki, o'rda shu bilan tinib-tinchigandir?

Buxoro amirining yordami bilan Xudoyorxon taxtga qayta keldi. Lekin ko'p kunga chidash bermadi. Buxoroga ikkinchi marta qochib ketishga majbur bo'ldi. Olimbek dodxoh bilan Olimqullar boshchiligida o'rda qaytarib olindi. Ular bosh ko'targan hamma merosxo'rlarni jazolashdi. 1863-yilning bahorida Mallaxonning o'n ikki yashar o'g'li Sultonsaidni tantana bilan oq kigizga o'tqazib, xonlikka ko'tarishdi. Bu gal Olimqul otalikni qo'liga olib, o'rdani o'zi boshqara boshladi.

O'rdada yuz bergan alg'ov-dalg'ovlar, taxt talashuvlar, qirg'inlar elning o'sishiga, jamiyatning olg'a qarab rivojlanishiga yordam beradigan biror ijobiy ta'sir ko'rsatdimi? Dodxohlar, xonlar faqat o'zlarinigina o'ylab ish qilishdi. Amal uchun hech narsadan toymadilar. Xonning so'zi yerda qolmasin, deb begunoh kishilar qilich damiga tutildi. Yurtlarni xonavayron qilishni qahramonlik deb bilishdi. Ularning xayoli hamisha aysh-u ishrat, sharob, qiz-

larning ko‘nglini ovlash bilan band bo‘ldi. Turmush qonun-qoidalari shariat bilan niqoblanib, bundan ming yillar muqaddam hayot kechirgan ota-bobolarimizning eski urf-odatlariga mahkam yopishib olishdi. Jamiyat, xalq bundan nima naf ko‘rdi? Yetimlarning yoshi, onalarning, tul xotinlarning qayg‘usi oshdi, taqdirga tan berish, Xudoga sig‘inish, sarobday aldamchi umidi ko‘paydi, xolos.

Balki, endi o‘rdadagi boshboshdoqlikka Olimqul dodxoh chek qo‘yar? Ko‘p o‘tmay Olimbek dodxoh ikkovi o‘rtasida kurash boshlandi. Bir yil o‘tmay, Olimbek dodxohning boshi olindi. Kelishmovchilik balki endi tugagandir?

Tugamagan ekan... Nihoyat, Olimqul otalikni Toshkentning shundoqqina biqinida general Chernyaev qo‘shinlariga yaqin yerda ayg‘oqchilar otib o‘ldirishdi...

UCHINCHI QISM

I

Hamisha issiq qon cho‘qib ko‘nikib qolgan burgut o‘limtikka qanoat qilarmidi? Burgut umid bilan ovchining ovozi chiqqan tomonga talpinardi, qattiq qiyt-qiyt qilib, og‘zini kap-kap ochib yalinardi. Yaxshi ko‘rgan burguti bir g‘arib bechoraday ovqat so‘rab turishiga Sariboy ovchi bardosh berolmay, teskari qarab oldi.

— Ertaga nima beraman? Indinga uni nima bilan boqaman?

U nima qilishini bilmay, tinkasi quridi. Bir ilojini topish kerak! Tirmashish lozim.

Sariboy sabr-toqati tugab, qishloq ustidagi qalin archazorga chiqdi. Borib, tunov kuni qo‘yib kelgan sim tuzoqlarni qaradi. Bari avvalgidek. Hatto ko‘r kalamush ham ilinmabdi.

Olis va og‘ir qish zahmati chorva mollar tugul, tog‘dagi hayvonot, jonzotlarga ham qattiq ta’sir qilgandi. Kaklik, qirg‘ovul, chil bahorga yetmadi. Bir yoqdan qor, sovuq, bir yoqdan ochlik ularni qirib yubordi. Turgan yerida muzlab, bo‘ri va tulkilarga yem bo‘ldi. Kiyiklar ko‘zlarini jovdiratib qo‘ralarga, saroylarga kirib kelib, ko‘p qismi odamlarning qo‘lida nobud bo‘ldi. Mana, qor-ku ketdi.

Yer, olam yashardi. Afsuski, Sariboy oyog‘i yetgan yerdan birorta silovsin uchratmadi. Yoki yerning qut-barakasi uchib ketdimi?

Sariboy tentirab yurib, kechqurun uyiga quruq qaytdi. Eshik bo‘sag‘asida uni xotini Suyumxon umid bilan kutib turardi.

— Yaxshi keldingizmi, ovchim, — deb xushnud kutib oldi. Nima ham derdi? U yorilib ketgan lablarini tirjaytirib, qayg‘uli jilmaydi.

Keng uyning o‘ng burchagida bo‘ynini qayirib, tumshug‘ini jigarrang parlari orasiga yashirib o‘tirgan burgut ovchining ovozidan tanib, ulkan qanotlarini yozdi, yem tilab qiyqiladi. Tumshug‘ida tumog‘asi bo‘lgani uchun ovchining qaysi tarafda o‘tirganini tusmollab, talpinardi. Sariboyning qulog‘iga burgutning ovozi tobora so‘nib borayotganday eshitildi. Och! Ochlik uning quvvatini so‘rib, holdan toydiryapti. Sariboyning yuragi achishdi.

— Ovchim, shunga uvol bo‘ldi. Ertadan-kechgacha ovoz kelgan tomonga intiladi. Unga berguday yegulik biror narsa bo‘lsa-chi? Umidi uzilgan sari yosh boladay intiqlik bilan qanot yozadi. Shuni qo‘yib yuborganingiz yaxshimasmikin? Peshonangizda bo‘lsa, burgut topilib qolar. Qo‘yib yuboring qiynamay... — dedi Suyumxon. — Unga yem izlayverib, chorig‘ingiz ham to‘zib ketdi...

Ey xotin, bu nima deganing?

Sariboy xafa bo‘lganday tumshayib qoldi. Bo‘lar ish bo‘ldi. Nima bo‘lsa ham u ovchi-da. O‘z qo‘lida o‘n marta tulatgan olg‘ir, sinalgan qushi-ku! Hatto o‘z sonidan bir parcha et kesib berishga tayyor bo‘lgan odam uni qo‘yib yuborarmidi? Bu burgut tilsiz maxluq bo‘lsa-da, Sariboyning qadrdoni, go‘yo oila a’zolarining biri qatori. Sariboyni ilojsiz xayollar ezardi.

Suyumxon oshxonadan tolqon olib kirarkan:

— Yemish oz qoldi, — dedi tashvishlanib. — Birgina biz emas, to‘rt uyli qarindoshlaringizda ham hech vaqo qolmadi. Umidi bizdan. Bizdayam xaltada yarim oyga yetadigan tolqon qoldi. Yildagiday qish yengil kelganda bemalol pishiqchilikka yetib olardik. Afsuski...

— Bo‘ldi! Muncha meni iskanjaga olmasang! — dedi birdan qizishib Sariboy. U anchagacha bo‘g‘ilib o‘tirdi-da, keyin Modilni chaqirtirdi.

Modil eshikdan kirib salomlashdi. Sariboy o‘tirgan kuyi bosh irg‘adi.

— Inim, — dedi Sariboy, — burgutning g‘amini men yeyay. Qo‘limizdagi bor narsa tugab boryapti. Kun sayin ocharchilik yaqinlashyapti. Nima ham qilardik, ko‘pchilikka kelgan ofat ekan. Sen ovqat tashvishida bo‘l, — deb Sariboy burgut qo‘ndiradigan yarg‘oq qo‘lqopini Modilning oldiga tashladi. — Ma, buni olib yashil o‘zan tomonga borib, Tangriberdi tog‘aga salom ayt. Bir ulov don bersin. Yaxshi odam, seni quruq qaytarmaydi. Omonlik bo‘lsa, uzarmiz.

— Aka, ulovni nima qilamiz?

Sariboy kuldi:

— Shundoq boraver. Qarab ko‘r, buyog‘i nima bo‘larkin? Aytganday, Idin qayda? Uni ergashtirib ol. Ikkoving bir ulov donni bo‘lishtirib olasan. Nahotki uni ko‘tarolmasanglar?

Modil qo‘lqopni olib, o‘rnidan turdi.

— Mayli, Idinni topib, hozirlik ko‘ray.

— Shunday qil. Ertaga sahar jo‘nanglar. Oq yo‘l...

Modil xayrlashib uydan chiqib ketdi.

Sariboyning ko‘ngli yorishganday bo‘ldi. U devorda osiqlik turgan qo‘bizni oldi. Ko‘pdan beri uni chalmagandi. Qo‘biz torlarini tobiga keltirib sozladi. Noxun tekkan torlar birin-sirin sehrli kuy taratarkan, u jon qulog‘i bilan tinglab, monand maqom izlardi. Ha, u qo‘bizni sayratuvchi edi. Ota kasbi bo‘lganligi uchun yaxshigina o‘rganib olgandi. Biroq u ovga havas qo‘ygani uchunmi, qo‘bizni juda kam qo‘lga olardi. Uning hayotida shodlik kunlari oz bo‘lganligi sababli qo‘bizni hadeb chalmasdi. Goho yolg‘iz qizini, burgutini erkalatgisi kelsagina kichik kulbani sehrli ohang tutib ketardi.

Sariboy surnay ovoziga monand qilib mashhur “Ko‘ro‘zan” kuyini chertdi. U o‘ziga yoqqan kuylarning avjinigina xush ko‘rardi. Ana shu yo‘sinda o‘sha kuyga dardini, tashvish va quvonchini omixta qilib yuborardi. Sariboy hozir bu qadimiy ohangni zo‘r ixlos bilan chalmoqda. Kuyda bepoyon dalalar, ko‘z ilg‘amas tog‘lardan to‘lib-toshib kelayotgan son-sanoqsiz el qorasi namoyon bo‘lardi. U qahramonlik, shon-shuhrat, o‘limni daf qilgan irodani olqishlash bilan sevimli kuyga nuqta qo‘ydi.

Burgut kuyni tinglamay qo‘ydi. Katta egri tumshug‘ini ochib, qiyt-qiytlab ovoz kelgan tomonga intiladi. Sariboy qo‘bizini qo‘yib, burgutiga qarab xayol surib qoldi. U bahaybat qanotini yozib, patlarini titar, qayg‘u bilan qiytillab o‘rma qayish bog‘ichni cho‘zdirdi. Uni uzolmasligiga ko‘zi yetdimi, patlarini hurpaytirib Sariboy tarafga tashlandi.

Sariboy erta turdi.

— Mening yo‘lim yopiq bo‘lsa ham, tozining yo‘li ochiqdir...

U hatto xotini bilan xayrlashmay tozini ergashtirib, piltali miltig‘ini yelkaga osib, ertalab adirga chiqib ketdi.

Tanish archazorga quyosh chiqmay yetib bordi. Sim tuzoqlarni, qopqonlarni ko‘zdan kechirdi. Yana hech vaqo ilinmabdi. Sariboy bunga qayg‘urmadi. Sababi, ko‘ngli to‘q. Umidi faqat tozidan. Shuning uchun iloji boricha unga yetib yurishga harakat qildi. Tushga qadar quruqqa chopdi. Ikki marta shunchaki o‘q uzdi. Hech narsa ko‘rinmadi. Qaydadir chumchuq chirqilladi. O‘sha chumchuq bo‘lsa-da, qaniydi. Na ko‘zga ko‘rinadi, na mo‘ljalga keladi.

Oldinda borayotgan tozi shu choq to‘xtab, yerga qarab qoldi. Sariboy o‘zini panaga oldi. Tozi tilini osiltirib, yerda sudralib yura boshladi. Nima bo‘ldiykin? Sariboyning yuragi duk-duk urdi. Tozi poylay-poylay kichik bir teshikdan tuproq surayotgan ko‘rsichqonni ko‘rdi. Bori shumi? Sariboy chor atrofga zehn qo‘yib qaradi. Ko‘rsichqondan boshqa narsa ko‘zga ilashmadi. Attang, Sariboyday ovchining kuni shunga qoldimi? Ko‘ngli cho‘kdi. Shu mahal tozi payt poylab sichqonga tashlandi. Oldi! Xayriyat! Sariboy chopib kelsa, it yangi tuproqni titkilardi. Hech vaqo yo‘q.

— Sening ham yo‘ling bo‘lmadi.

Tozi go‘yo bu gapdan xijolat tortganday, nari ketdi. Sariboy ko‘rsichqonning inini buzib, xiyla urindi. Panjalarining uchi qizarib ketdi. In tobora chuqurlashib borardi. U peshonasida paydo bo‘lgan reza-reza terni yengi bilan artib, aksa urdi. Xayolga cho‘mdi.

Nima qilish kerak? Buyog‘i qanday bo‘ladi? Undan sal nariroqda tozi yotibdi. O‘n yildan beri ana shu it hamisha uning yoni-

da. Ov vaqtida egasiga ko‘maklashdi, halol xizmat qildi. Sariboy ko‘zlarini tozidan uzolmay qoldi. Madori quridi. Rangidan qoni qochdi. Murdaday oqarib zo‘rg‘a o‘rnidan turdi.

Egasi bosh tomoniga kelganida it ko‘zini erinib ochdi va dumini likillatib erkalanib qo‘ydi. Sariboyning qaltiragan qo‘llari uning boshidan silab o‘tib, shap tumshug‘ini siqib ushladi. Tozi qimirlashga ulgurmadi, tulkilarning bo‘ynidan burab sindirishga odatlanib ketgan chayir qo‘l ko‘z ochib yumguncha o‘z kuchini ko‘rsatdi...

Sariboy tayg‘onning terisini shilib to‘rttala sonini, qobirg‘alarini qopga soldi. Shum falakning ishiga tan berib, mungli bir kayfiyatda qop og‘zini yelkasiga tashladi.

Kechqurun xotini odatdagiday erini ochiq chehra bilan kutib olarkan:

— Ha, qopingiz do‘mpayib qolibdimi?.. — dedi kulib va qopga engashdi. — Ey, Xudo-yey...

Sariboy ochiq bir nima demadi. U juda horiganidan indamay uyga kirdi-da, poygakka qopni qo‘yib, burgutga qarab xo‘rsindi. Shu mahal qizalog‘i Qunduzoy otam go‘sht olib keldi, deb suyunib chopib keldi-da, qop og‘zini ochdi. Sariboyning dili vayron bo‘ldi:

— Yo‘q... yeb bo‘lmaydigan go‘sht bu... chirog‘im, — dedi gunohkorona u, teri qo‘lqopni shoshib kiydi, oriq tozi go‘shtidan kesib, burgutiga tashladi. Och burgut irg‘ib tushib yemishga tashlandi. Qiyqillab, qizg‘anib Sariboyning qo‘lidan go‘shtni tortib oldi, qora qanotlarini qoqib, uzib-uzib yeya boshladi.

Oradan uch-to‘rt kun o‘tdi. Tozining go‘shti tugadi. Sariboy yana yem tashvishiga tushdi.

Chorvaga qulay bo‘lsin uchun toshdan tizza bo‘yi ko‘tarilgan keng qo‘ra. Tashqarida tosh oxur. Yuqori qismida bilakday buloq suvi shildirab oqmoqda. Bu Qoraboyning nomi ketgan qishlovi. Ertagayoq egasi ko‘chib ketsa, quruq tosh devor-u, qo‘yning qiyidan boshqa hech narsa qolmaydi.

Sariboy uzoqdan qarab kelayotir: tosh qo‘raning chetida bir-biriga yaqin tikilgan ikki o‘tov. To‘g‘ridagi yangi bo‘z o‘tov boyniki. Hech sado chiqmaydi. Atrofda ham hech kim ko‘rinmaydi.

Sariboy eshikka yetganida kelayotganligini ma'lum qilish uchun yo'talib qo'ydi. Shundagina sharpani sezib, uy ortidan qora it chiqib keldi. Sariboy seskanib ketdi. It "vov" deb bir marta hurdi-yu, Sariboyni o'tovdan yuvindi olib chiqdi, degan o'yga bordimi, qulog'ini shalpaytirib, dumini osiltirib o'rniga qaytdi. Hamon uydan hech kim chiqmasdi.

Sariboy boyning uyiga kirib, bo'sag'ada to'xtadi. To'rda chakmoniga o'ranib Qoraboy yotgan ekan. Oshxonada xotini teskari qarab nima bilandir band edi.

— Assalomu alaykum, Qopa aka!

Qoraboy tishi yo'q jag'ini ajabtovur qimirlatib alik oldi.

— E... Sariboymisan? — dedi tanib.

Sariboy boyning etak tomoniga tiz cho'kdi.

— Shunchaki, o'zim, Qopa aka... — dedi qopni yecharkan. Boyning shilpiq ko'zlari qopga tushdi.

— Ha, — dedi quvonib u, — ovchi o'g'lim sovg'a olib kelgan shekilli.

— Shunga yaqin bir narsa...

— Hoy, xotin! Qaydasan?

Xotini oshxonadan ko'rinish berdi.

— Ovqatingni olib kel. Sovg'ani odatda ovga chiqib olib kelinardi, mana, mergan ukamiz o'zi sovg'a bilan kelib qolibdi. Shunday paytda birga tuz totmasak bo'larmidi? Tezroq bo'l...

Qorachadan kelgan xotin qovog'ini soldi. Erining ko'nglidan o'tolmay, oshxonada ancha ivirsib, keyin dasturxon yozib, yangi pishgan ikkita iliq lahim go'sht, yog'li sho'rva keltirdi. Sariboy eshikdan kirgandayoq xotin go'shtni shosha-pisha berkitayotganligini fahmlagan ekanmi, negadir undan jirkandi.

— Olavering, boy ota, — dedi u, dasturxon chetiga qo'lini artib va qopdagi sovg'asini uning oldiga surib qo'ydi. — Sho'rim qurib, sizga keldim. Uloq bersangiz ham yo'q demayman. Boy otam shu arzimagan sovg'aga loyiq biror narsa berib qolar, deb keluvdim.

Qoraboy ingrab yuborishiga sal qoldi, biroq ko'zini qoplon terisidan uzolmadi. Sariboy darrov turdi-da, terisini bosh tomonidan ushladi, junlarini silab:

— Boy ota, sovg‘aga uni ber, buni ber deyish odatdan emas. Nima ham qilardik... Hayot shunga majbur qilyapti. Bu tashvish yolg‘iz mening boshimda emas-ku? — dedi.

Qoraboy nima deyishini bilmay, arzibandalik qildi:

— E, mergan o‘g‘lim... Boying boyagidaymi, boyagiday bo‘lsa, borini ayagudaymi, deydilar. Shunday. Boyagiday yuz yilqi oldimizda kishnab tursa, qaniydi? Ustingga to‘n tashlab, ot mindirgan bo‘lardim.

Sariboyning hafsalasi pir bo‘lib, qulog‘igacha qizarib ketdi.

— O‘zing ko‘rib turibsan, ovchi bolam, o‘nta tuyog‘im qoldi... Yuz yilqidan o‘nta qolsa-ya?!. Yuz yilqidan... Yuz yilqidan-a? E, Xudo, qanday kunlarga qoldik?

Sariboyning xayoli chuvalashib ketdi, ko‘zini yumib, qayta ochdi. Uning ko‘zi boyning qizarib borayotgan ko‘zlari bilan to‘qnashdi. Qoraboyning ko‘zlari hasad olovi bilan yonardi, iloji bo‘lsa, dunyoni bir olma qilib qo‘liga tutqazsang-u, u shappa yutib, hech narsa bo‘lmaganday baqrayib turaversa!

— O‘lik mol bizda ham turibdi, — dedi Qoraboy. — U non bilan go‘shtning o‘rnini bosmas ekan. Bu narsalar to‘qchilikda hasham uchun, borchilikda bezak uchun kerak ekan, — u cho‘kkalab, qo‘llari qaltirab yana oh-voh qila boshladi.

— Oh, esiz molim!

Sariboy uning bu qadar ayyuhannos solishini, oh-voh qilishini kutmagandi. Bechora ovchi boyning ko‘nglini ko‘targuday iliq bir so‘z aytishini ham, kulishini ham bilmay, hayron bo‘lib turardi.

Qoraboy yuz yilqili boy edi. Haligi xotindan farzand ko‘rmagandi. Tug‘ib beradigan yoshroq boshqa xotin olish niyatida yurardi. Lekin yosh xotinning o‘ziga yarasha azobi bor. Uni erkalatish, ko‘nglini xushlash kerak. Bunaqa qilishga badanida olov, belida kuch-quvvat qani? Qarining xotini — barining xotini. Dunyo ko‘ziga yaxshi ko‘rinadigan paytda qarib qolgan bo‘lsa, farzandi bo‘lmasa, bor mehrini son-sanoqsiz yilqiga qo‘yarkan...

— Mayli, mayli, Qopa aka. Xudo boshimizga solgan ekan, ilojimiz qancha? Mayli, xafa bo‘lmang. So‘zimni qaytib oldim. Menga hech narsa kerak emas.

Qoraboy muk tushib o‘tirardi. Sariboy oshiqib uydan chiqdi. Qoplon terisiga qaramadi ham. Ochiqqo‘l va tantilik bilan yashab o‘rganib qolgan ovchining esiga bu narsa kelarmidi?

— Sizlarday quzg‘unlarning ko‘zi tegib... Sizlarday och-ko‘zlarning suqi kirib... Esiz molim. E-e, falak! — deb g‘o‘ldiradi Qoraboy.

Sariboy ko‘ra-bila turib, shunday xasis odamdan umidvor bo‘-lib kelganiga ko‘p pushaymon yedi, izza bo‘ldi, u eski qabriston-day vahimali, qo‘rqinchli tuyulgan bu o‘tovdan tezroq olislashga oshiqdi.

...Avvallari yoniga yordamchi olib, yo‘rg‘a to‘riq otini minib, tozisini ergashtirib, dabdaba bilan ovga boradigan ovchi bugun burgutini yelkasiga qo‘ndirib, hech yoqqa qaramay, yolg‘iz o‘zi tepalikka jo‘nadi.

— Tozi bilan mening rizqim tugagan bo‘lsa ham, burgutim-ning rizqi bordir.

Hamma yoq jimjit edi. Hatto chumchuq ham chirqillamasdi. Atrof ko‘m-ko‘k. Baland qirlarda olachalpoq qor. Bu go‘zal olam-da jon zoti qirilib ketganday. G‘ir-g‘ir shabada esadi. Momaqay-moq oltin tangalarday yal-yal tovlanadi. Namxush yerlardan bili-nar-bilinmas bug‘ ko‘tariladi. Dimog‘ingga maysa hidi uriladi.

Burgut og‘irlashib, Sariboyning yelkasini toldirib, qoburg‘asini qayishtirdi. U burgutni bir yelkasidan ikkinchi yelkasiga o‘tkazdi. Burgutning o‘tkir tirnoqlari yelkasiga botardi.

Sariboy adir bag‘rini sinchiklab ko‘p aylandi. Hech narsa yo‘liqmadi. Jahli chiqsa-da, kezaverdi. Biron narsaning shitir et-gan ovozi eshitilmasdi. U qora terga botdi. Tinkasi qurib bir tepa-likda to‘xtadi, katta qopa toshga burgutini qo‘ndirib, o‘zi o‘tirdi.

Iloji qancha? Sariboy qo‘lini iyagiga tirab xayol sura boshladi. Qulog‘i shing‘illardi. Shamol endigina barg chiqarayotgan shu-voqlarni tebratardi. Sariboyning terlari quridi. Ko‘ylagi badaniga muzdek tegib, seskandi. Quyosh charaqlardi. Kun iliq. Tabiat uning g‘am bosgan ko‘nglini yoritardi. U choponini yechib, bir oz yonboshladi, yana turib o‘tirdi. Vujudi zirqirardi. Ko‘ylagini yech-di, qo‘ltig‘ini qashladi, engashib bit qarashga tutindi. Xudo urgan bit, ahvoli tang kishilarnigina bosadi...

Bir mahal burgut yulqinib, talpindi, shabadaning esishiga quloq solib, qattiq qiy-qiylab bezovtalandi. Qaylargadir parvoz qilib, shabada bilan o‘ynashgisi, pag‘a-pag‘a bulutlar ustidan oshib o‘tgisi kelganga o‘xshardi.

— Sharpa sezdi shekilli...

Sariboy burgutning tumog‘asini oldi. U qo‘ldan chiqib, ko‘kka otildi. Ovi baroridan kelsin. Sariboyning yuragi dukilladi. Darig‘ tutma, Xudo! Beradiganingni ayama, saxovatli Tangrim! Sariboy yaxshi niyat bilan qaerdan, qanday o‘lja chiqarkin, deb olislarga boqib chehrasi yorishdi.

Burgutning qorasi ko‘rinmay qoldi. Ovchi intiqlik bilan kutdi. Yo‘q... Faqat shabada shuvoq barglarini tortqilab o‘ynaydi. Daragi yo‘q... Balki ketib qolgandir?.. Sariboyning yuragi ezildi.

— E, qiron burgutim... Ketib qoldingmi?..

Sariboyning ko‘zlari osmonga qadaldi. Uni og‘ir, dahshatli vahima bosdi. Og‘zini yumishni ham unutib, ko‘rimsiz soqolini selkillatib uyoq-buyoqqa chopdi. Go‘yo osmon uni yutib yuborgan-u, endi hech narsa bo‘lmaganday Sariboyga tikilib turganga o‘xshardi. Sariboyning bag‘ri xun bo‘ldi.

— E, qironim... Meni tashlab ketdingmi? Men sho‘rlik seni qahatchilikdan olib chiqolmadim. E, qiron burgutim.

Sariboy avvalgiday qattiq chaqirolmadi. Bunday qilishga hyqyqi yo‘qday sezdi o‘zini. Tili aylanmadi. U titrab ketdi.

— E, qironim... Seni bolam bilan barobar ko‘rardim... E...

Ana! Qayoqdandir burgutning ovozi keldi. Ana! Sariboyning yuragi yorilguday bo‘ldi, Ana! Silovsin ko‘rgandagina u shunday chaqirardi. Sariboy o‘zini tutolmay, ko‘ylagini kiyishni ham unutib, yalang‘och lapanglab chopdi. Ovozining boricha baqirib yugurdi...

— E, o‘rgilayin tovushingdan. Aylanayin! — deb ikki qo‘lini baland ko‘tarib qichqirdi. Tepa tomondan havoni yorib, shuvullagan tovush tobora yaqinlashardi. O‘sha! Sariboy sevinganidan burgutga ham, Xudoga ham yalindi. Sariboy atrofiga qaradi. Nima uchundir shoxga berkingan yoki yerda yo‘rg‘alab qochib borayotgan o‘lja ko‘rinmadi. Ana! Burgut! Kuchli qanotlaridan chiqqan ovoz shabadaning g‘uvillashini bosib, o‘qdek o‘zi tomon kelmoq-

da, Sariboy qotib qoldi. Burgut arqon bo‘yi qolganda, Sariboy yerdan kaltak olib, o‘zini to‘sishga ulgurdi. Qahrli burgut zapti bilan kelib bir tepib o‘tdi, kaltak teng yarmidan shart sinib ketdi.

— V-oy! Bu nima qilganing, qironim!

Haddan tashqari ochiqqan burgut o‘shanda aylanib, uch marta chovut solib, hech narsa topolmay yurgan paytda do‘ngdagi yalang‘och odamga ko‘zi tushib, unga o‘zini urgan edi. U o‘z egasini tanimadi. Sababi, yalang‘och Sariboy burgut ko‘ziga kiyik bolasiga o‘xshab ko‘ringan bo‘lsa kerak.

Burgut yana yuksaklikka ko‘tarildi. Sariboy es-hushini yig‘ishtirishga ulgurmadi. U temir panjalarini yozib, kuchli tumshug‘ini ochib, dumaloq qizil ko‘zlaridan zahar sochib, o‘sha onda yana chovut soldi. O‘lim! U qo‘lida quroli bo‘lmagani uchun qora toshni aylanib qocha boshladi. O‘lim! Halloslab qoldi. O‘lim! Shu kezda uning ko‘zlariga qonga bo‘yalib, qulog‘ini shalpaytirib yerda yotgan qadrdon tozisi ko‘rindi... Alqasosul minalhaq! O‘lim!

A-a! U yer titib, tosh otardi. U qo‘liga tuproq ilashsa, tuproq irg‘itib, xashak ilashsa, xashak otib, o‘zini o‘limdan himoya qildi, o‘limga po‘pisa qildi. A-a-a! Jon holatda qildi. A-a-a!

Yashash uchun bo‘lgan umid kishini qo‘rqoq va tortinchoq qilib qo‘yadi. Yashashdan umidi uzilganda qo‘rqinchni unutadi. Sariboy qo‘rquvni esdan chiqarib, burgut bilan olisha ketdi. Uning boshini burab bosishga, oyog‘idan ushlashga tirishardi. Burgut chap berib Sariboyning yuz-u ko‘zlarini cho‘qirdi. Ovchi yirtqichning ikki oyog‘idan tutib, tizzasiga bosishga urinardi. Olishuv keskin tus oldi. Burgut ko‘zga tashlandi. Sariboy o‘zini olib qochdi. Yirtqich bo‘ynini to‘lg‘ab hamon ko‘zga sapchirdi. Ovchi boshini to‘sib, ko‘zini olib qochib, payt poylab burgutga hamla qilardi.

Sariboyning ko‘zlarida o‘t chaqnadi. U ko‘zlarini chirt yumib, bor kuchini to‘plab, qattiq kurashdi. Ovchi nihoyat yirtqichning bir changalini tizzasi bilan bosishga ulgurdi va bo‘shagan qo‘li bilan bo‘ynini siypalab topib mahkam siqa boshladi, buradi, keyin uni bosib oldi...

Sariboy qonga bo‘yalib, o‘lib yotgan burgut ustidan ag‘darilib tushdi, U ko‘zini ochmoqchi bo‘ldi. Ko‘zi ochilmadi. Ko‘zini siypaladi. Qo‘liga shilimshiq bir narsa urindi. Qon edi. Sariboy uni

payqadi. Qop-qorong‘i. Go‘rday zim-ziyo. Hozirgina yarqirab turgan munavvar olam qani? Qonsirab, gavdasi og‘irlashib borardi. Es-hushini yigishtirib oldi. Xaligiday, qo‘rqoq tortinchoq bo‘lma. Unda qayg‘uga, quvonchga yuzma-yuz boradigan qat’iyat paydo bo‘ldi. E, Tangri, ko‘zdan ayirdingmi? U gandiraklab, chalishib, burgutning qorayib yotgan qanotlari yoniga yiqildi...

II

O‘lmagan qulga navro‘z ham keldi. Qishning qahridan qutulgan kishilar bamaylixotir ko‘m-ko‘k maysalar ustida o‘tirib, to‘yib-to‘yib nafas oladi. Ko‘taram mollar diydirab zo‘rg‘a o‘rnidan qo‘zg‘aladi, o‘zini oftobga toblaydi. Quyosh go‘yo onaday jamiki jonzotga mehr bilan nur ulashadi.

El qishlovlarni tashlab, kungay yaylovlar sari ko‘chib borardi. Ko‘chmanchining moli qancha ko‘paysa, shuncha xasis bo‘ladi, eldan olisroqqa ketadi. Chunki, odam boyigan sari insoniylik fazilatlarini unutadi, o‘zgalarga muhtojlik sezmaydi, qo‘ni-qo‘shni bo‘lib o‘tov tikishni xush ko‘rmay qoladi. Tangriberdi yaylovga ko‘pchilik bilan birga chiqdi.

Tirikchiligi asosan dehqonchilik bilan o‘tadigan besh-olti xo‘jalikning chorva-mol bilan unchalik ishi yo‘q. Suv yaqin yerlarga o‘rnashib, ariq ochib, don-dun ekadigan yarim ko‘chmanchi Tangriberdining to‘piga kirgan xonadonlardan qishda tolqon, yozda oqishoq uzilmaydi. Kamdan-kam ko‘chib yurishadi. Juda ahil yashaydi. Yoz kunlarida ham ekinlariga yaqinroq yerda turishadi.

Quyosh olov purkardi. Qishloq o‘rtasida bir to‘p bolalar “Chek echki” o‘ynashardi. Eshik oldida Tangriberdi bilan Gulkishi ikkovi tariq ekishga tayyorgarlik ko‘rib, tirkish yasab o‘tirardi. Suhbat avjida. Ip yigirib o‘tirgan Sanam gohida suhbatga aralashardi.

— Tangriberdi og‘a, — dedi Gulkishi. — Sariboy bechoraning ahvoli qalay ekan? Ostingda oting bo‘lmasa, odam qanoti yulingan qushga o‘xshab qolarkan. Ko‘rmaysizmi, otim bir oz dam olsin, dedim-u, sizlar bilan birga borolmay qoldim. Piyoda bir qarich ham yurolmayman.

Tangriberdi achinib boshini qimirlatdi.

— Nima ham qilardi? Badanlari tamom titilib ketgan. Ko‘zidan ajragan. Yotgan bo‘lsa kerak bechora.

— Burgutiga la’nat-e! O‘shani bolasiday ardoqlar edi. Zoti yirtqich bo‘lgach, oxiri o‘ziga chang solipti-da. Eshitishimcha, go‘r og‘zidan qaytgan emish Sariboy boyoqish?

— Sho‘rlik xotini qanday kunga qoldiykin? — dedi Sanam. — Yolg‘iz qizi bor edi.

— Ko‘zidan ajralgani yomon bo‘ldi. Xotiniga nima qilardi? Bir kunini ko‘radi. O‘lgan kishilarning ortida ham odamlar qoladi-ku, — dedi Tangriberdi.

Uyda Oyzoda nimadir yamab o‘tirgandi. Bu gaplar ko‘ngli yarimta juvonga yomon ta’sir qildi.

— Oyzoda! — dedi kampir tashqaridan. — Kechqurun oyog‘imizni yoqamizmi? Kun botmay cho‘pchak terib kelgin, bolam.

Oyzoda tashqarida o‘tirgan qaynonasini ko‘z oldiga keltirdi. Biror narsa desa, baloga qoladi. U yamog‘ini ko‘rpa qatiga qistirib, o‘rnidan turdi. Hamisha chaqqon bo‘lishga harakat qilardi. Zora shu bilan qaynonasining ko‘ngli yumshasa. U tezda arqon olib tashqariga chiqdi.

— Tezroq kel, — dedi Sanam kampir.

Oyzoda nariroqda o‘ynayotgan bolalar orasidan Po‘latni chaqirdi.

— Yur, jajji bola, — dedi u, — o‘tin terib kelamiz, tez bo‘l qoqindiq...

Po‘lat qiyshanglab unamadi:

— Hali-gi... Yo‘-q. Yanga, qornim ochdi-i. O‘tin tergani bormayman, — deb taysalladi.

— O‘yindan qorning to‘yadimi?

— To‘ymaydi. Qornim ochdi. Qornim...

— Daladan o‘tin terib kelsak, senga sut pishirib beraman. Qani yur, qoqindiq.

Oyzoda uning peshonasidan silab erkalatdi. Po‘lat insofga kirdi. Oyzodaning qo‘lidan arqonni olib, sakrab-sakrab oldinga yugurdi.

Temir shahid bo‘lgan yili Po‘lat to‘qqiz yoshda edi. Bu yil o‘n ikkiga to‘ldi. Boshda ota-onasi ancha-muncha po‘pisa qilardi.

Ayniqsa Temirning o‘limidan so‘ng, Po‘latni ko‘zining oq-qorasiday asrab, o‘z erkiga qo‘yishdi. Bolaning ba’zi jihatlari Temirga o‘xshab ketardi, Oyzoda o‘ng‘aysizlanib, qora ko‘ylakda ipirilib, ro‘molini tuzatmay xayol surib borardi.

Qayga oshiqadi? Bahorning erka kapalagiday charx urib, yoshlikka, sevgiga tashna yuragi qayoqqa shoshadi? Quvnoq kulgi-yu iliq so‘z qayda deysiz. Mana, bu yil qaynotasi o‘g‘liga osh berib, so‘nggi marosimni o‘tkazdi. Odatga ko‘ra, quda-qudag‘aylarini chaqirib, xohlasa boshi ochiq, ruxsat berishlari mumkin. Anchadan beri tul kelinchak shuni o‘ylaydi. Endi g‘am-u anduhdan qutulib, o‘z baxtini o‘zga yerdan qidirayotganday, qandaydir bir ilinj bilan o‘zini ovuntiradi. Xoli qolgan vaqtida oyna oldida yzoq turib, ajinlarini siypalab, yuragi qon bo‘ladi.

Oyzoda og‘ir yutindi.

Po‘lat esa oldinda chopqillab ketyapti. Bola ekan-da, qorni ochgani yodidan chiqib, xushbo‘y o‘t-o‘lanlarni ushlaydi, bulutlarga tikiladi, goho arqonni qo‘lidan tushirib, kapalaklar ketidan quvlaydi. Kapalaklar lip etib, osmonga ko‘tarilib ketgach, bir necha daqiqa o‘rnida qotib qoladi. Kapalak qayrilib qararmidi? Po‘lat maysalar orasida qolgan arqonni qo‘liga olib, cho‘kir botgan oyoqlarini siypalab yo‘lida davom etadi...

* * *

...Kechki payt edi. Temir qo‘lini peshonasiga qo‘yib, uzoq qarab turdi. Yashil jilg‘a ichida, ko‘m-ko‘k suvni bo‘ylab, tog‘ tarafga ketgan yo‘l boshida to‘p-to‘p kishilarning qorasi ko‘rindi. Bir... Ikki... Uch... Orti uzilmay qumursqaday chuvalanib kelmoqda. Eng oldidagisi tug‘ ushlab olgan. Shaqir-shuqur, jarang-jurung ovozlar quloqqa yaqqol eshitilardi. Karvon qo‘ng‘iroqlari jaranglab, poyonsiz dala qo‘ynida tarvaqaylab ketgan yolg‘iz shotutning shundoq quyi tomonidan o‘ta boshladi.

Tariq endi bosh tortgan edi. Tangriberdi bir nechta dehqonlar bilan o‘tgan yilgi qo‘riqchilarni paykallarga qayta o‘rnatish bilan ovora edi. Ular karvonga ko‘zi tushgach, yo‘l bo‘yiga yugurib chiqishdi.

Ko‘ch yuklangan karvon asta o‘tib borardi. Ustiga guldor gilam ortilgan, qizil shirdoq yuklangan tuyalar qo‘ng‘iroqlarini jaranglatib kelardi. Oq doka ro‘mol o‘ragan kampirlar tuya ustida zikr tushganday tebranishardi, bo‘taloqlari chopqillab, qulunlar yoqimli kishnardi.

— Kimlarning ko‘chi ekan?

— Tug‘iga qaranglar, — dedi Tangriberdi.

— Oyning tasviri bor ekan...

— Him, demak, barg‘i urug‘ining ko‘chi ekan.

Tangriberdi yo‘lga yaqinroq borib, tuyakash erkaklarga salom berdi.

— Mehmon bo‘lib ketinglar, boy akalar! — dedi. — Bu — elatning udumi.

— Yo‘limiz olis, yo‘limiz olis, — deb javob qaytarishdi taklifga javoban.

— Hech bo‘lmasa, choy ichinglar, boy akalar!

— Choymi, keyin icharmiz... Norning beli tolmasin, biz rozi.

— Oq yo‘l bo‘lsin, boy akalar!

— Aytganinglar kelsin, piri badavlat bo‘ling!

Ko‘ch ortilgan karvon qo‘ng‘iroqlarini jiringlatib, tolzor oralab o‘tib borardi.

Tangriberdi oppoq soqollarini ushlab, qoshlarini chimirib xayolga cho‘mdi.

Elatning odati shu. Yil — o‘n ikki oy qishlovdan yaylovga, yaylovdan qishlovga qatnaydi. Balki ming yillardan beri shu odat davom etib kelayotgandir. Boshpana bo‘lguday bitta o‘tov, uni ko‘targuday bir ulov, minish uchun ot, sog‘in sigir, so‘qim uchun o‘nta jonliq bo‘lsa bas. Ko‘ch-ko‘ch bo‘lib qolsa, xotinini yaxshi kiyintirib biyasiga, qizini ayg‘iriga mindiradi, ashqol-dashqolini, chiylarini ortmoqlab yo‘lga tushadi. Tiklagan qo‘rg‘oni, ko‘kartirgan bog‘i bo‘lmasa! Ulardan bir to‘da qiy, o‘choq uchun xizmat qilgan uchta qora toshdan boshqa nima ham qolardi? Doim ko‘chib yurgan elatlarning asrlar bo‘yi tuman bosgan yo‘lida adirlarda do‘ppaygan qabrdan bo‘lak nishona qolmaydi, ular tog‘ shamoliday kezib yuradi.

Etdan tushgan qo‘llarining qon tomirlari ko‘karib ketgan keksa chol ana shu narsalarni o‘yladi.

— Mehmon bo‘lib ketinglar, boy akalar...

— Yo‘limiz olis, yo‘limiz olis...

Karvon ortidan oq bo‘taloqli to‘p ko‘rindi. Tim-qora biya mingan ayol yuk ustidan shirdoq yopilgan tuyani yetaklab borardi. Selkillab, lo‘killab kelayotgan bo‘taloq oppoq edi. Yo‘rg‘a toy mingan bola qamchi bilan niqtab bo‘taloqning jig‘iga tegardi. U o‘z navbatida bolaga “bo‘-o‘” deb dumaloq ko‘zlarini o‘ynatardi, bo‘ynidagi qo‘ng‘iroqchalarni jiringlatib, bola bilan hazillashganday irg‘ishlardi. Orqada xonadonning bo‘yiga yetgan qizi. Qiz ostida kumush o‘mildiriqli qora qashqa bedov. To‘q qizil yopqichning shokilalari osha ayg‘ir oyoqlariga urilardi. Qiz shohi so‘zanaga bo‘z yamoqdek yarashiqsiz katta-kichik arpazor, tariqzorlardan nigohini uzmasdi, paykal o‘rtasidagi qo‘riqchilarni odamlarmi deb o‘ylardi-yu, ularning qimirlamayotganiga hayron bo‘lardi, uyqu to‘la ko‘zlarini suzib qo‘yardi. Qunduz telpak ustidagi ukki pati silkinib husnini yanada ochib yuborardi. Qop-qora sochlari mayda o‘rilgan. Dumi kesilgan qora it tilini osiltirib yo‘l chetidagi shuvoqlar soyasiga yotadi, ko‘chni ko‘zdan qochirmay yana yugurib ketadi. Jiring... Jiring... Ko‘ch oldidagi tuya bo‘zladi...

— Choy ichib ketinglar, boy akalar...

Yuk ortilgan ho‘kiz ortida kelayotgan oq bo‘taloqli to‘p egasi otning boshini burib:

— Choyni keyin icharmiz, — deb kelib Tangriberdiga salom berdi. — Assalomu alaykum, Tangriberdi aka, bormisiz?

— Shukur, shukur, — Tangriberdi qarab qoldi.

— Tanimadingizmi? Men Yomg‘irman. Barg‘i urug‘idan, Tangriberdi aka.

— Him, ko‘z qurg‘ur ilg‘amay qolibdi. Istarang issiq ko‘ringandi. Tanimabman, — deb Tangriberdi shoshib qo‘l cho‘zdi. — Jabay oqsoqolning o‘g‘li Yomg‘ir ekanligingni endi bildim. Moljon omonmi, Yomg‘irim? Kel, chanqog‘ingni bos.

— Shukur. Shunday qilib el orasida, ko‘ch qorasida g‘ivirlab yuribmiz, Tangriberdi aka.

Temir yo‘l bo‘yiga olib chiqilgan sanochdan zarang kosaga to‘ldirib qimiz quyib uzatdi. Yomg‘ir ot ustida turib qimizni shimirarkan:

— Hoy, xotin! Bir oz jilovni tortib, bolalarning chanqog‘ini bosaylik, — deb ko‘ch tomonga qichqirdi. — Shunday qil, orqada qolganlar yetib kelguncha.

— Ol, Temir, qimizni o‘sha tarafga olib boringlar, — dedi Tangriberdi yigitlarga qarab. Eshim sanochni yelkasiga solib, Temir kosani olib chopdi.

— Omon bo‘lsang bo‘ldi, Yomg‘irim. Hamma gap omonliqda. Qaysi yaylovga bormoqchisizlar?

— Bu yil Ming Bug‘ida bo‘lamiz, Tangriberdi aka, Biylar undan nari Talasga mol haydaganmish, Avliyootaga o‘ris savdogarlari qatnab turgan emish, o‘sha Talas orqali o‘tib, mol sotamiz, deyishyapti. Xo‘p, dedik. Eldan qolmay ko‘chib boryapmiz.

— A-a, — dedi Tangriberdi hayron bo‘lib. — Tuzuk, nafi tegadigan yerga borayotgan ekansizlar. O‘ris savdogarlari nima olib kelib sotishayotgan ekan? Qurol bo‘lsa kerak-da, a?!

— Yo‘q, ular hozir qurol sotmayotgan emish. Qozoq cho‘lidan buyoqqa qarab o‘risning ko‘p qo‘shinlari kelyapti, deyishdi. Xudo ularning betini ko‘rsatmasin. Qo‘qon to‘s-to‘polon emish...

— Ha, bu gaping yangi...

Temir bilan Eshim oq bo‘taloqli to‘pga yetib, ayolga qimiz uzatishdi. Ayol qimiz to‘la kosani qo‘liga olib endi ichaman deganda, yo‘rg‘a toyni yo‘rttirib, o‘g‘li kelib qoldi. U qimizga lab tegizmay bolasiga uzatdi.

— Ma, ichib ol, qarog‘im.

Bola terlab ketgan burnini pishillatib, qimiz ichdi. Ayol keyingi kosadan ho‘pladi-yu, tomog‘idan o‘tmay:

— Boymirza, qoqindiq, opangni chaqir, — dedi.

— Ichavering, xola, — dedi Temir odob bilan. — Hali qimizdan bor.

Ayol kosadagi qimizni bir yo‘la ichib, biyasiga qamchi bosarkan, yigitlarga minnatdorchilik bildirdi.

— Katta rahmat. Baxtli bo‘linglar, sadag‘ang ketaylar.

Temir qimizni olib qiz tomonga shoshildi.

Qoraqashqa ayg‘ir dumiii qimirlatib, pishqirib qo‘ydi va suvlig‘ini shildiratib o‘tga engashdi. Temir otga yaqin kelganida, arg‘umoq cho‘chinqirab bo‘yin tovladi.

— Chanqog‘ingizni bosing, go‘zal qiz!..

Qiz qaldirg‘och qanotiday qayrilma qoshlarini kerib, yigitga zimdan boqdi, o‘zini sipo tutib, kosaga ohista qo‘l uzatdi. Momiqday oppoq bilagidagi kumush bilaguzuklar jiringlab ketdi. Temirning yuragi jiz etdi. Qizning tuxum oqiday g‘uborsiz yuzidan ko‘z uzolmadi. U kosani olayotganida qizning bir barmog‘i uchini kosaga qo‘shib ushladi. Qizning oppoq yuzlari qizarib ketdi, oldida turgan keng yag‘rinli, qora ko‘zli yigitga hayron bo‘lib tikildi. Temir qiz barmog‘ini sekin bo‘shatdi. Qiz sir boy bermay, qimizdan bir ho‘pladi-yu, kosani uzatdi.

— Ichmadingiz-a...

Go‘zal qiz xursand bo‘lganidanmi boshini xiyol egib, suzildi va muloyim jilmayib, tizginni siltadi. Qoraqashqa jo‘nab ketdi, qo‘lini ushlab beodoblik qildim-da, ko‘ngli ranjib qoldi shekilli”, deb Temir ich-ichidan pushaymon bo‘ldi, uning orqasidan qarab qoldi.

— Xayr, oq yo‘l, Yomg‘irim!

— Xayr, aytganingiz kelsin, Tangriberdi aka. Aytganingiz kelsin.

Yomg‘ir Tangriberdi bilan xo‘shlashdi, ho‘kizni haydab, Temirning yonidan o‘tib ketdi.

— Xayr, yigitlar!

— Xayr, yaxshi boring!

Ko‘ch olislab, qamish va daraxtlar panasiga o‘tib ketdi, qo‘ng‘iroqning jiring-jiringi olisdan elas-elas eshitilardi...

Tangriberdi tariqzorga qaytdi:

— Shu hafta oxirida biz ham mollarni yuqoriga haydaymiz, — dedi yonidagilarga. — Elatning kuni shu. Mundoq o‘ylab ko‘rsang, elatning birgina baxtiyor kuni ko‘ch bilan yurish ekan... Bor-yo‘g‘ini yig‘ishtiradi, yamoq tushgan bo‘lsa-da, ko‘ylaklari oq bo‘ladi, tong bilan uyg‘onadi, yaxshi niyat qilib ertalab yo‘lga tushadi. Ko‘ch ustida qorin ochligi ham, to‘qligi ham unutiladi. Ko‘ch ustida qarindoshlarining gina-kudurati esdan chiqadi. Ko‘ch ustida qirq kokil qiz bilan bo‘z o‘g‘lonning uzangi urishtirib, yonma-yon yurishi aybga sanalmaydi... Ko‘chning yo‘lini to‘sib, choyga taklif qilish, tushmasa ot yolida chanqog‘ini bostirish, hol-u ahvol so‘rash, og‘ib ketgan yukini o‘nglab qo‘yish ota-bobomizdan

qolgan odat. Hech bo‘lmaganda, irim uchun, yonlab ot yeldirib hov anavi burilishdan o‘tkazib qo‘ymadinglar-a? Atay kuzatdim, mayllaringga ham kelmadi...

Temir sevinib ketib:

— Eshim ikkovimiz kuzatib qo‘yaylik! — dedi.

— Don tashvishi bilan bo‘lib, odamgarchilikdan chiqib ketishinglarga oz qolibdi. Yonidan o‘tsak, itidan olislatib qo‘yishga yaramadi, degan isnodga qolmaylik, borib shunday qilinglar.

Temir chavkar yo‘rg‘ani mindi. Yo‘rg‘a yollarini selkillatib, o‘t-o‘lanlar orasidan yelib borardi. Eshimning qora oti yo‘rg‘adan goh o‘zib ketardi, goh ortda qolardi. Temirning ko‘zi oq bo‘taloqli to‘pni qidirardi. U shirin orzu-xayollardan mast bo‘lib, umid qanotida parvoz etardi.

— Hormang, boy aka! Otning beli tolmadimi?

— Bor bo‘linglar, yigitlar! Xudoga shukur, otning beli baquvvat.

— Temirbek, sekinroq yur-chi...

Temir do‘stiga bir qaradi-yu, tizginni tortdi...

Yigitlar qizil beshik o‘ngarib olgan kelinchakli to‘pga yaqinlashdi. Beshik ushlagan ayol xayol surib kelayotgani uchunmi, sezmadi. Yigitlar shatirlatib o‘tayotganda, kelin mingan qora yolli sariq ot hurkib ketdi. Kelin cho‘chib, otini to‘xtatdi, ro‘molini qiya ochdi.

— Hormang. Otning beli tolmadimi?

— Xudoga shukur, bolalarim! -dedi oldinda biya minib borayotgan kampir kelini uchun.

— Kimning ko‘chi, kelinoyi? — deb kelinga yaqinlashib so‘radi Eshim. Kelin yerga qaradi. Kampir udumga yaxshi amal qiladigan odati borligi uchun keliniga qarab:

— Javob ber, bolam, odobli yigitlarga, — dedi. Kelinning bolalik nusxi ketmagan sariq yuzlari qizarib ketdi. Javob berolmadi. Uyatchan kelinni xijolat qilmaylik, deb yigitlar o‘tib ketishdi.

Temirlar jilg‘a yo‘li tor bo‘lgani uchun burilishdan tikkasiga kesib qirga chiqishdi. Qir usti tekis yer edi. Ko‘chning oldi allaqachon tekislikdan o‘tib, qavat-qavat adirlar orasiga kirib borayotgandi. Ikki cheti maysalar bilan qoplangan so‘qmoq ipday chuvalanib ketgandi. Balandlikka ko‘tarilgan sari havo salqinlashib,

oppoq bulutlar yerga yaqinlashib qolganga o‘xshardi. Dimoqqa shashir bilan erman hidi urilardi.

— Yetolmadik-a?..

Temir ot ustida qo‘lini peshonasiga qo‘yib, oldinda borayotgan ko‘chlarni ko‘zdan kechirdi.

— Ana... Oq bo‘taloq.

Oq bo‘taloq onasidan qolmay lo‘killab borardi. Qiz orqasiga qayrilib qaramadi. Sochidagi taqinchoqlari quyoshda jimirlardi... Temir nafas olmay uzoq tikildi. Qo‘ng‘iroqning yoqimli ovozlari ortda qolib, ko‘ch ortgan o‘sha to‘p qatlam-qatlam adirlar orasida g‘oyib bo‘ldi...

O‘sha go‘zal qiz shu Oyzoda edi.

Oyzoda qizil yuzli yigitni ikkinchi marta Ming Bug‘i yaylovidagi qizlar o‘yinida ko‘rgan edi.

O‘shanda ham ana shu qizil yuzli yigit umid to‘la ko‘zlarini undan uzmagandi. Qizlar o‘yinining o‘zgacha gashti bor edi. Ular qiz bilan kuyovni olqishlab qo‘shiqlar aytishardi, raqsga tushishardi. Oyzoda dugonalariga aralashib, o‘zini alahsitmoqchi bo‘ldi, ammo yigitning nigohidan qochib qutulolmadi. Bu kim? U nimaga hadeb qarayveradi? Qiz yigitdan xavfsirab qoldi. U buyoqqa ko‘chib kelishayotgan kunni esladi. O‘shanda kosa tagidan qo‘lini ushlab hazil qilgan yigit shu emasmidi? Yuragi hapriqib ketdi.

Qizil yuzli yigit o‘zini vazmin, sipo tutdi. Qiz yoshlik shavqi to‘la ko‘zlarini suzib, qo‘ng‘iroqdek ovozi bilan ancha ashula aytdi. Yigit esa bu go‘zal qizni bir mahallar ko‘ch ustida ko‘rganligini, keyin yuragi ezilib, uni qir, adirlar orasidan izlaganligini kuyladi. Men izlagan kishimni, orzu qilgan odamimni shu yerdan topdim, deb aytib yubormasaydi, degan xayolga borib, Oyzoda qizarib-bo‘zarib, yerga qarab o‘tirardi.

Qiz va yigitlar bu notanish yigitning nima demoqchi bo‘lganligini sezib qolganga o‘xshardi. Oyzodaga shunday tuyuldi. Lekin eslik yigit emasmi, ashulani shu yerda to‘xtatdi, Qiz ko‘nglidan kechgan gapni bilganday, unga zimdan qarab qo‘ydi.

— Qoyil! Yurakni eritguday qo‘shig‘ing bor ekan, og‘ayni, — dedi yigitlarning biri. To‘rda ro‘molini ochmay iymanib o‘tirgan qiz yonidagi kuyov Temirga chaqchayib:

— Do‘stim, orzu qilganing shu yerdami deyman... — deb qoldi.

— Qo‘rqmang, kuyov bola, mening izlaganim boshqa.

Davradagilar kulib yuborishdi. Kuyov qulog‘igacha qizarib, boshqalarga qo‘shilib kulgan bo‘ldi. O‘shanda Oyzoda ham yashirincha Temirga bir qarab qo‘ydi. Niyati qora odamning rangi ilonday sovuq bo‘ladi. Dili toza kishining chehrasi gul-gul yonib turadi. O‘tgan yili qazo qilgan momosi hamisha shunday der edi. Oyzoda hozir shuni esladi. O‘zini dugonasining panasiga olib, yigitni yaxshigina kuzatdi. Shu payt Temirning ko‘zi qizning ko‘zi bilan to‘qnashib qoldi. Oyzoda bu gal ko‘zini yigitning o‘tli nigohidan olib qocholmadi.

Ertasiga qizil yuzli yigit qizning yangalaridan biriga yuragini yordi. Oyzoda uyalib, nima deyishini bilmay qoldi. Uchrashuvga chiqolmadi. Ertasiga Temir Oyzodalarning o‘tovi tomondan vafodor qush hamda sadoqatli sayyod to‘g‘risidagi qo‘shiqni baland ovoz bilan aytib o‘tdi.

El yaylovdan qayta boshladi. Tug‘ida oy surati bor barg‘i urug‘i yana o‘zan bo‘ylab Qiziljar tomonga yo‘l oldi. Dehqonlar ham allaqachon don-dunlarini yig‘ishtirib bo‘lishgan edi. Odatdagidek yo‘lga qimiz ko‘tarib chiqishdi:

— Ovqatlanib ketinglar, boy akalar!

— Chanqoq bosib o‘tinglar, boy akalar!

Faqat Temir yo‘lga chiqmadi. O‘zini bosdi. Buni Eshimdan boshqa kishi bilmasdi. Bari bir Temirning ko‘zi ko‘chlarda, oq bo‘taloqni izlardi. To‘p orasidan yo oq bo‘taloq, yo kampirning oq ro‘moli ko‘ringanday bo‘ldi. Yuragi jiz etdi. Nigohini yashirdi, Mensimagan odamga qarab bo‘larmidi. Ori yo‘q yigit ekan, yana tirjayib yo‘lga chiqibdi?” deb o‘ylamasin. Temirni yer zo‘rg‘a ko‘tarib turganga o‘xshardi. U suv yoqalab, quyi tomonga ketdi.

Yuz iliqligi ko‘ngilni yoritadi. Ko‘ngil iliqligi odamlarni bir-biriga do‘st qiladi, yaqinlashtiradi. Yomg‘ir bilan Tangriberdi shu boisdan ham bir-biri bilan juda inoqlashib ketgan edi. Yomg‘ir qarindoshi Qulbotir bilan Tangriberdining qishlog‘iga yaqin yerga yukini tushira boshladi. Tangriberdi quvonib, kechqurun ikki paqir bo‘zani ko‘tarib bordi. Yomg‘ir bilan Qulbotir o‘zlariga yarasha olachiq tikib olishibdi. Aslida bu olachiqqa odam sig‘masa-da,

idish-tovoq xoliroq tursa bo‘lgani. Yomg‘ir Tangriberdi bilan so‘rashib, ko‘chlardan birini yechdi, shosha-pisha kigiz yozib, ko‘rpacha soldi.

— Keling, Tangriberdi aka, keling, — deb mehmonga izzat-hurmat ko‘rsatdi.

Salom-alikdan so‘ng, Sanam kampir suzgan bo‘zadan bir kosadan ichishdi, bir oz vaqt o‘tgach, Yomg‘ir bo‘ynini cho‘zib chaqirdi:

— Hoy, Oyzoda! Qizim, Biymirza Qayoqda yuribdi? Chaqir, jonliqni buyoqqa haydab kelsin, — dedi. Bir qo‘ltiq o‘tin terib kelayotgan Oyzoda o‘tinni yerga qo‘yib, Biymirzani chaqirgani ketdi. Yomg‘ir qiziga qarab quvonib:

— Bizning yomon qizimiz shu, — dedi mehmonlarga.

Tangriberdi bosh irg‘ab:

— Bori yaxshi. Katta bo‘lib qolibdi...

— Yana bitta sho‘ximiz bor, — deb Yomg‘ir adir yoqqa qarab qo‘ydi.

— Jonliqning orqasida yuribdimi? O‘g‘il bolada. Molning egasi.

— Ha, ish qilib omon bo‘lishsin, falonchining farzandlari deyishsa bo‘ldi bizga.

— Boriga nima yetsin. Bori yaxshi.

Biymirza yigirma choqli qo‘y-echkini haydab kelib qoldi. Terga pishib ketibdi. Begona kishilarni ko‘rib, qarab qo‘ydi.

— Ha, o‘g‘lim, muncha bo‘g‘rib ketmasang, xo‘sh, nima gap o‘zi? — dedi Yomg‘ir.

— Qo‘ylar hech so‘z bermaydi. Narigi tomonda o‘t serob ekan, — dedi Biymirza burnini tortib.

— Yasha, o‘g‘lim. Qani, mehmonlar bilan bir so‘rashib qo‘ygin-chi. — U uyaldi. — Hoy, tortinma! Qo‘lni uzatib so‘rash! Qo‘lingni ber, — dedi otasi.

Tangriberdi bolaning qo‘lini qisib erkalatdi.

— Obbo, azamat-yey! Katta yigit bo‘lib qolibdi. Kurashga tushsa ham bo‘laveradi, — deb maqtab ter bosgan peshonasidan o‘pdi. Keyin Sanam kampir o‘pdi.

— Biymirza! Qoqindiq, — dedi Yomg‘ir, — endi qo‘zilaringni semizidan birini tanlab olib kel. Tez bo‘l!

— Oq sovliqning qizil bolasini ushlaymi? O‘sha semizroq.

— Bilar ekansan-ku. Mayli.

Oyzoda o‘tinni o‘choq oldiga tashladi. Asta kelib mehmonlar bilan so‘rashgan bo‘ldi. Tangriberdi unga qarab:

— Bor bo‘l, qarog‘im... Bor bo‘l... — deb qo‘ydi.

Oyzoda gilosday qizarib, Sanam kampir bilan yonma-yon o‘tirdi. Kampir qizga havas bilan boqib, burnining uchidan chimchilab oldi va o‘sha qo‘lini o‘zi irim qilib o‘pib qo‘ydi. Oyzoda onasiga qarashdi. U qizil gulday ochilib, ayni bo‘yi yetgan payti edi. Mayda o‘rilgan sochlari taqimini o‘pardi. Yurish-turishi, odobi binoyidek, beozor, yoqimli. Sanam kampir havas bilan qizga qarab: “Bir uyni obod qiladi, omon bo‘lsin. Baxtli bo‘lsin”, deb qo‘ydi.

Yomg‘ir o‘g‘li yetaklab kelgan qo‘zini chilvir bilan bog‘lab, mehmonlarga ro‘para qildi.

— Qani, Tangriberdi aka, shu arzimas jonlikka fotiha bering.

— Hoy, Yomg‘ir, bu nima qilganing? Qo‘ysang-chi, — dedi Tangriberdi. — Qo‘zining go‘shti pishguncha allamahal bo‘ladi. Biz shu yerdamiz. Sen ko‘chib borayotgan bo‘lsang...

— Yo‘q, unday demang, Tangriberdi aka! Ot jo‘natib oldirib keladigan odamsiz. Ostonamga birinchi marta qadam bosishingiz. Jonliq so‘ymasak bo‘lmaydi. Qani, ruxsat bering.

— Ob-bo, — deb Tangriberdi noiloj fotiha berib, qo‘llari bilan soqolini siypalab qo‘ydi. Yomg‘ir qo‘zining tuyog‘ini bog‘lar ekan:

— Tangriberdi aka, sog‘-salomat ekanmiz, to‘kin dasturxon ustida suhbatlashib o‘tirganga nima yetsin. Ko‘ch ketsa, yo‘qolib qolarmidi? Biz ham borarmiz...

U qo‘zining to‘rt tuyog‘ini mahkam tang‘idi-da, pichog‘ini yengiga artib:

— Allaqancha kun bo‘ldi, allaqancha tun bo‘ldi, senda yoziq yo‘q, menda oziq yo‘q, qorin senga ham yovlik qildi, menga ham... — deb nimalarnidir pichirlab, qo‘zini bo‘g‘izladi. O‘z navbatida Tangriberdi ana shu duolarni ichida pichirlab o‘tirdi.

— Oyzoda, Qulbotir akang ko‘rinmaydi. Qayoqda? Yo char chab qoldimikin? — dedi Yomg‘ir qo‘zining qo‘l, sonlarini ajratib. — Chaqiringlar, Tangriberdi otangning suhbatini eshitsin.

— Uloqlarni sug‘organi ketuvdi, — dedi Oyzoda.

— Ha, aytganday, o‘zim jo‘natuvdim,

— Biz buyoqqa kelayotganda, Gulkishi bilan suhbatlashib turgan edi, — dedi Tangriberdi. — Balki o‘shanikida bo‘za ichib o‘tirishgandir.

Yomg‘ir qozonga ilik va go‘shtni solayotib kuldi:

— Tushunarli! Qulbotir ko‘chishimizni unutib qo‘ydi chog‘imda. Bo‘za desa bo‘zlagin, bo‘sag‘adan so‘zlagin, degan gapni Qulbotirga chiqarganmi deyman! Biymirza, qarog‘im, toyni min. Huv qishloqqa borib Qulbotir akangni top, o‘sha yerdagilarning hammasini chaqirib kel.

Mehmondorchilikka ko‘pchilik keldi. Kechasi allamahalda dasturxon yig‘ishtirildi. Tangriberdi uzr so‘radi.

— Qani endi, Yomg‘ir, bizga ruxsat ber. Kel demoq bor, ket demoq yo‘q. Qo‘zg‘alish mehmondan, qani, fotiha o‘qiylik.

— Shoshib qayga borasizlar? — dedi Yomg‘ir.

— Yo‘q, Yomg‘ir. Sen ham ko‘p ushlanib qolding. Yo‘lga tushishing kerak.

— Mayli, mayli, Tangriberdi aka. Qani, omin!

— Omin! Hamisha Xasti Xizr qo‘llasin! Kam bo‘lma!

— Rahmat! Xush kelibsizlar, mehmonlar!

— Xushvaqt bo‘linglar!

Ular ko‘ch-ko‘ronini ortishib, xayr-ma’zur qilgach, Tangriberdilar orqaga qaytdi.

U kampiri bilan uyga kelsa, Temir yo‘q. Qayoqda yuribdiykin? El bilan birga borib sho‘rva ichmadi, deb o‘ylab turishgan edi, Temir anhor tomondan chiqib keldi. O‘zini xursand ko‘rsatishga qanchalik urinmasin, bari bir yuragini nimadir o‘rtardi.

— Oying ikkalamiz Yomg‘irnikiga yo‘qlab borgandik. Qayda eding? Ketayotib seni topolmadik. Qishlog‘ing chetiga birov qo‘nsa, borib so‘rashib qo‘yish farz. Odamdan qochish nodonlik belgisi . Nimaga qochding? Nega bormading?

Temir qulog‘igacha qizarib ketdi. Otasiga qarayolmadi. Xayriyatki, shu choq Eshim chaqirib, uni og‘ir ahvoldan qutqazib qoldi. Temir chiqib ketdi.

Eshim uning eng yaqin, dilkash do‘sti edi. Mana, u yana oshnasini, kutib turibdi. Unga qaradi. Xayolida nima bor? O‘yin-tomosha bor. Temirning qovog‘i ochildi.

Temir yoniga kelgach, Eshim qo‘lini orqasiga qo‘yib:

— Qo‘limda nima bor? Top! — dedi.

— Qo‘ysang-chi, shu ham topishmoq bo‘ldi-yu. Tunov kuni ham “buni top”, deb kechgacha ovora qilib, qurtning o‘ligini ko‘rsatuvding. — Boshqa mahal bo‘lganida-ku Eshim do‘stini xo‘p o‘ynatgan bo‘lardi-ya. Afsuski, bu safar Eshimning o‘zi shoshib turgan edi. Shuning uchun sekin kaftini ochdi. Uning oriq panjalari orasida ixlos bilan taxlangan shohi dastro‘mol turardi. Eshimning ko‘zlari o‘ynab Temirga qaradi. Temir hayron bo‘lib qoldi. Kashta tikilgan ro‘molcha. Eshim ro‘molchani baland ko‘tarib, o‘ziyam hozir ko‘rib turganday havas bilan Temirning yuziga yaqin olib bordi.

— Bu nimaykin?

Ro‘molchadan gup etib mushk-anbarning hidi urilib, Temirning yuragi o‘ynab ketdi. Buni qayoqdan oldiykin? Temir ko‘zini ohista yumdi.

Oq qanotli qush haqida kuylagan yigitni Oyzoda unutmagan edi. Qaytaga har kun qo‘msab, uning hajrida yona boshladi, yigitning yuziday qizil shohiga ixlos bilan dil dardini bitdi, qoya ostida o‘sgan ajabtovur xushbo‘y hidli gul suviga ro‘molchani chaydi. Bu o‘n olti yoshdagi qizning nozik his-tuyg‘ulari, mehri naqshlangan bir parcha shohi ro‘molcha edi.

— Hu anavi o‘rtaga tushgan yangasi bor edi-ku, — dedi Eshim, — ko‘ch borayotgan tomondan o‘tayotsam, muloyim tabassum qilib, “hormang”, dedi. “Otning beli og‘rimadimi?” — desam, “Shukur”, — deb javob berdi-da: “Haligi qo‘shiqchi yigit ko‘rinmaydi? Yoki ko‘kragini zaxga berib yotibdimi?” — desa bo‘ladimi. Ertadan beri seni izlab topolmadim. Atay biror yoqqa ketib qolgan bo‘lsa kerak bu ayyor, deb o‘yladim. Bilmayman-u, ishqilib...

Temirning yuragi qattiq-qattiq ura boshladi.

— Keyin qo‘lini uzatdi. E-ha, maza bo‘ldi. Qo‘li shunchalik yumshoq ekanki, biram yumshoq...

— Keyin nima bo‘ldi? Qisqaroq qil. Keyin...

— Keyin: “Hoy tushmagur, shoshilganda qo‘limni ushlab nima qilasan? Qo‘lingni ol tezroq”, dedi. Qarasam, kaftimda shu turibdi. “Ashula aytgan do‘stingga berib qo‘y”, dedi. Hech narsa ko‘rmaganday buyoqqa chopdim. Bor gap shu.

Temir quvonganidan nima qilishini bilmay hang-u mang bo‘lib qoldi.

Shu voqeadan keyin Temir bilan Eshim barg‘ilar urug‘i tomonga yashirincha ikki marta borib, bir marta Oyzodani ko‘rib qaytishdi. Aytishlaricha, Qiziljar tomonda Oyzodaning o‘troqlashib qolgan qarindoshi bor ekan. U qorabag‘ish urug‘idan bo‘lib, ancha badavlat emish. Yomg‘ir bozorga har kelganida mol haydamay o‘sha qarindoshlarinikidan kerakli narsalarni olib ketarkan. O‘rtada anchagina qalin o‘tishib qolganga o‘xshaydi. Temir tishini-tishiga qo‘yib yurdi.

Kech kuzda Oyzoda Tangriberdining ostonasini hatladi.

Orqasidan Qulbotir boshchilik qilgan yigirma besh kishi Yomg‘ir bilan birga quvib keldi. Quldanboy urug‘i xuddi shuni kutib turgandi. Qulbotir qishloqning ust tarafiga kelib, qamchisini tirab:

— Hoy! Beknazar botir! Buyoqqa chiq! — dedi baqirib. Beknazar boshqa chaqirtirib o‘tirmay, to‘g‘ri Yomg‘irning oldiga chiqdi.

— Chaqirgan eding, mana chiqdim, quda.

— Qayoqdagi gapni aytyapsan, botir. Kim quda? Men qizimni izlab keldim. Shishinib ketibsizlar. Bo‘lmasa shunday qilarmidinglar? Shishmasa o‘sha yigit unashib qo‘yilgan qizni olib qocharmidi? Qani, javob bering, — dedi Yomg‘ir xo‘rlangan kishiday.

— Yomg‘ir aka, qani otdan tush. Gaping bo‘lsa ham, bordi-yu, chopmoqchi bo‘lsang ham otdan tush. Gaplashaylik.

Yomg‘ir quloq solmadi:

— Qayda haligi dilozor?!

— Ha, bu boshqa gap. Qani endi yur, bo‘lgan voqeani qizingdan eshit.

Oyzoda qiz-kelinlar bilan to‘la xonadonda edi. O‘sha yerdagi bola-chaqa, xotin-xalajlar ularga qarab qolishdi.

— So‘ra, Yomg‘ir. So‘rashga haqing bor. Suyagi seniki, tanasi emas. Boshi ochiq qizni zo‘rlab olib qochgan yigitga jazo — o‘lim. Bunga hech kim aralashmaydi. Ukam uni olib keldi, agar u zo‘rlab olib qochgan bo‘lsa, qo‘l-oyog‘idan bog‘lab beraman. So‘ra, agar qiz o‘zi rozi bo‘lib qochgan bo‘lsa, hech narsa deyolmaymiz. Moli ketgan mol, puli ketgan pul oladi. So‘rab ko‘r.

Oyzoda chimildiqda ekan. Yaqinroq kelishdi. Beknazar imlab, so‘ra, dedi. Odamlar o‘zlarini panaga olib, kuzata boshlashdi.

— Oyzoda! — dedi Yomg‘ir. U javob bermadi.

Yomg‘ir yana qattiqroq chaqirdi:

— Oyzoda! Shu yerdamisan, nega ovozing chiqmaydi? Men otangman. Javob ber.

— Shu yerdaman, — dedi Oyzoda qaltiragan ovozda. Hamma jim bo‘lib qoldi. Nima derkin? Yoshlik qilib tonsa-ya?

— Zo‘rlab olib keldimi? O‘g‘irlabmi?

Oyzoda xiyla vaqt indamadi. Qulbotir nimadandir gumonsirab bezovta bo‘la boshladi. Beknazar xijil bo‘ldi. Yana so‘ra deb Yomg‘irga ishora qildi.

— Oyzoda! Qo‘rqma, qarog‘im! Bu yerda men turibman. Zo‘rlab olib kelgan bo‘lsa, to‘g‘risini ayt, qo‘rqma, qizim.

Oyzodaning titragan ovozi eshitildi:

— Yo‘q...

— Aldab olib keldimi?..

— Yo‘q...

Yomg‘irning yetti nomusi yerga kirib ketdi.

Atrofdagi odamlar kelinni duo qilishdi. Hamma mamnun.

— Oyzoda! Onang sho‘rlikka nima deyin? — dedi Yomg‘ir jo‘nayotib.

— Fotihasini bersin, — dedi Oyzoda. Yomg‘irning tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi...

* * *

Toshloqni bu yerdagi aholi Temir dafn etilgan joyday aziz va muqaddas bilib, uning nomini hurmat bilan tilga olishardi. Chunki uning yoshligi shu joyda o‘tgan. Xuddi shu yerda ziyofati,

to‘yi o‘tgan, Oyzodani olib qochib og‘izga tushgan. Mana bugun Temirning oxirgi ma’rakasi ham Toshloqda o‘tyapti. Ayollar yig‘lashib, qarindosh-urug‘lari o‘tovni aylanib, marhumning ruhiga so‘nggi duoyi fotiha qilishmoqda.

Oyzodaning azasi shu bilan tugadi.

Yomg‘ir xotini bilan Temirning ma’rakasiga kelib ketgandi. Unda qizining taqdiri haqida qudasiga og‘iz ochmadi. Keyinchalik Yomg‘ir uch-to‘rt erkak va xotin-xalajlar bilan keldi. Oyzodaning uch yil davomida kiygan qora ko‘ylaklari o‘tga tashlanib, ota-onasi olib kelgan oq ko‘ylak kiygizildi va boshiga oq ro‘mol tashlandi. Bu azaning tugashi. Endi qaynota va uning qarindoshlari kelinga ruxsat bersa bo‘lgani. Agar qarindoshlaridan birortasiga nikoh qilib qo‘yishsa ham yo‘l o‘shalarniki. Yomg‘ir Tangriberdiga garchi ochiq aytmasa-da, yurish-turishi, muomalasi bilan sho‘rpeshona Oyzodaning taqdirini o‘ylayotganiga, unga achinib, kuyib-pishayotganiga yo‘li bilan sha’ma qilib yurdi. Tangriberdi bu haqda og‘iz ochishni istamasdi. Buni ko‘rib Yomg‘ir badtar hayratlandi, fig‘oni oshdi.

Jo‘nashidan bir kun oldin xotini ikkovi Tangriberdining oldidan o‘tdi.

— Quda, — deb zo‘rg‘a gap ochdi Yomg‘ir. Xotini ho‘ng-ho‘ng yig‘ladi. Tangriberdi qandaydir ko‘ngilsizlikni sezib ruhi so‘niq o‘tirardi.

— Quda... Xudo degan quda edik. Taqdir ekan. Xudo bizni ayirdi. — Yomg‘ir o‘zini bosolmadi. — O‘rgilay, quda. Sen ham uning otasisan. Axir u yosh, shunisini hisobga ol. Sho‘rlik Oyzodaga ruxsat ber.

Javob berish o‘rniga Tangriberdi yig‘lab yubordi. Yomg‘ir ham o‘zini tutolmay, uni bag‘riga bosib o‘kradi:

— Aylanay, jon quda...

Eshikdan Sanam kampir kirdi:

— Voy sho‘rim-ey, Temir endi butunlay o‘lar ekan-da, voy sho‘rim...

Tangriberdi gapni bo‘ldi:

— Yo‘q, quda. Bu so‘zni og‘zingga olma. Temirdan-ku ayrildim, lekin kelinimdan tirik ayrilmayman. E, qudam! Muncha tosh-bag‘ir bo‘lmasang? Bosh bog‘lari yo‘q deysanmi?.

— Quda... Aylanay quda, — deb Yomg‘ir boshqa gap aytolmay qiynalardi.

Buni tinglab o‘tirgan Gulkishi o‘rtaga tushdi:

— Qudalar, yig‘i-sig‘i qilmay, bo‘ladigan gapni kelishib olaylik. O‘rtada yosh bir kelinchakning taqdiri turibdi. Yetti o‘lchab, bir kesish kerak. To‘g‘ri, Yomg‘ir, sen uni olib ketolmaysan. Tangriberdi tog‘a, biror yerga unashmay turib, boshini ochmayman, deyishingiz to‘g‘ri emas...

Gulkishining gapi qudalar qulog‘iga kirmadi. O‘rtadagi rioya, andisha, izzat-hurmat yo‘qolib, achchiq-tirsiq gaplar aytila boshladi.

— Qo‘yinglar, qudalar. Yomon gapga o‘tmanglar. Yo‘q. Sen, Yomg‘ir, chakki so‘zlamading. To‘g‘ri aytding. Qizing oldida otalik burchingni ado etyapsan. Boshqalar ham xuddi shunday qilgan bo‘lardi.

Yomg‘ir muk tushib yig‘ladi.

— Sen, Tangriberdi tog‘a, kelinni olib qolmoqchi ekansan, uning taqdirini o‘yla. Bo‘lmasa, baxtiga zomin bo‘lma.

Tangriberdi Gulkishiga o‘shqirdi:

— Sen-chi! Sen o‘ylamaysanmi?

Gulkishi xijolat chekib:

— O‘ylaylik. Hammamiz o‘ylab ko‘raylik, — dedi.

Tashqarida turgan Oyzoda bu gaplarni eshitib, ko‘z yoshi qildi, Po‘lat yangasining yig‘lashini uncha ko‘rmagani uchunmi, hayron bo‘lib, uning sochlarini o‘ynab turardi. Uyda mojaro davom etardi.

— Yanga, seni olib ketishadimi? — deb norozi bo‘lib so‘radi.

— Bilmasam, –dedi Oyzoda. U ko‘z yoshini yengi bilan artib bolaning peshonasidan siladi. Boshqa nima desin? Taqdiri nima bo‘lishi hali ma’lum emas. Gulkishining gaplarini ikki quda inobatga olmadi. Oxiri ular bu ishni qishloq oqsoqollarini chaqirib hal qilishni lozim topishdi.

Ertasiga odamlar to‘plandi. Gulkishi ham keldi. Yomg‘ir bechora kichkina ko‘kimtir soqolini siypalab, iltijo bilan bu yerga yig‘ilganlarga birma-bir qarardi. U qizining taqdiri uchun hatto qishloq itiga ham yer o‘pib ta’zim qilishga tayyor edi.

— Sadag‘ang ketaylar... O‘ylab ko‘ringlar. Sadag‘ang ketaylar.

Beknazar oqsoqollarning yoniga o‘tirdi. Hozir uning boshqa qarindoshlaridan farqi yo‘q. Boshida telpak, oyog‘ida ko‘n etik, shim. O‘n ikki o‘ramasidan boshqa qo‘lida quroli yo‘q...

— Yomg‘ir ko‘pchilik oldida dardini aytdi. Qizining taqdiriga achinib, iniga ilon kirgan chumchuqday zorlanyapti.

— Ahli musulmon, hammangiz bilasiz, bolanglar qizimni olib qochib ketgan edi. O‘shanda qarindoshlarim bilan ortidan quvib keldim. Biroq, avvalo, qizim, qolaversa Beknazar botir shashtimdan qaytardi. Yolg‘on bo‘lsa Beknazar aytsin? Tizginimga yopishib: “Urug‘lar o‘rtasiga sovuqchilik solma, to‘polon chiqarmay, oq fotihangni ber”, degani uchun uning gapini qaytarolmagandim. Nachora, Temirning umri qisqa ekan. Jangda qazo qildi. Menga Beknazarning bir og‘iz so‘zi kifoya. “Ketaver, qiz bizniki”, desang, g‘ing demay yo‘lga tushaman. Yolg‘iz qizimga kuyaman. Bechora ko‘ngliga yoqmaydigan kishiga tushib, xor bo‘lmasin deyman...

Yomg‘irning bu gaplariga hech kim lom-mim demadi, Hammaning ko‘zi Tangriberdida edi. U hamon diqqinafas bo‘lib o‘tirardi.

— Xo‘sh, nima deysan, Tangriberdi? — dedi oqsoqollardan biri. — Ayt, kelinchak senga qarashli. Hamma narsa senga bog‘liq bo‘lib turibdi.

Tangriberdi avvalgi so‘zini yana qaytardi:

— Men Temirimdan ayrildim, endi kelinimdan ayrilishga tobim yo‘q. Temirim o‘lgan bo‘lsa Po‘latim bor.

O‘tirganlar bir-biriga qarashdi. Yomg‘irning ko‘zi ola-kula bo‘ldi.

— Yigit o‘n ikkida, qiz bola to‘qqiz yoshda balog‘atga yetadi. Bu yil Po‘lat o‘n ikkiga chiqadi, nikoh buyuradi. Po‘latga nikoh o‘qittiraman...

Hamma jim. Beknazarning ko‘zlari Tangriberdiga qadaldi. Tangriberdi ushkirib o‘rniga o‘tirdi.

— Bo‘lmaydi! — dedi Beknazar shartta.

O‘tirganlar bezovta bo‘lishdi.

— Bo‘lmaydi. O‘g‘ling kelinning yarim yoshida, bo‘yi ham, o‘yi ham boshqa. Sen ikki kishining uvoliga qolasan. Hoy, tog‘a, Xudoga qarab gapir.

Tangriberdining ham jahli chiqdi.

— Qaysi Xudoga qaray? Menga Xudo yo‘l berdi. Xudoning shariati yo‘l berdi.

— Bo‘lmaydi dedimmi, bo‘lmaydi!

— Beknazar! Beknazar! Hoy Beknazar, mening ishimga aralashma. Temirni ergashtirib ketib, o‘ldirding, yetar endi. E, Tangrim, qarindoshga xor qilguncha, omonatingni olsang bo‘lmaydimi?

Odamlar u yoq-bu yoqdan gapirib, Tangriberdining ko‘nglini ko‘tarishdi. Ba’zilar Beknazardan ranjigan bo‘lishdi. Yomg‘irning peshonasida ter donalari paydo bo‘ldi. Janjal nima bilan tugashiga uning aqli yetmay qoldi. Gulkishi og‘zini ochib:

— Qani, nima deysizlar? — dedi.

Beknazar o‘tirganlarga razm soldi. Bir oqsoqol tamshanib qo‘ydi. Chamamda, u Tangriberdiga qarshi, shariatga qarshi gapirishni xushlamadi shekilli.

— Mayli. Kelin kelib o‘zi aytsin. U nima desa o‘sha! — dedi Beknazar.

Ayol kishini erkaklar davrasiga chaqirish odobdanmi? Xotin kishining gapi bilan kim ish qilardi? Bu muqaddas odatga xilof! Xotinning aqli nimaga yetardi! Bo‘lmaydi! Beknazar uddalamagan ish bormi! Shularga gapini o‘tkaza olmasa bu yerda nima qilib yuribdi! U birkesar. Borini bor, yo‘g‘ini yo‘q qiladi. Shuning uchun botir-da...

Beknazarning nigohiga, g‘azabiga bardosh berolmagan odamlar birin-ketin tilga kirdi.

— Mayli kelsin...

— O‘zi ayta qolsin.

— O‘zi hal qilsin.

Gulkishining xotini Oyzodani boshlab keldi. Bu qishloqqa kelin bo‘lib tushganiga uch yildan oshgan bo‘lsa-da, hozirgacha kishilarning yo‘lini kesib o‘tmagan Oyzoda hayo bilan ohista bir chekkaga o‘tirdi.

Oqsoqollardan biri ayollar tomonga qayrilib qarashni o‘ziga ep ko‘rmay, baland ovozda gapirdi:

— Qizim, bu yerda sening taqdiring hal bo‘lyapti. Nima gapligi o‘zingga ma’lum. O‘zi ochiq aytsin, deb seni chaqirdik. Qani, nima deysan, chirog‘im?..

Ro‘molga o‘ranib olgan Oyzoda javob bermadi . Hammaning ko‘zi unda edi. Oyzoda hamon indamay o‘tirardi. Gulkishining xotini chidamay:

— Qoqindiq. Esingni yig‘ib ol. Ochig‘ini aytaver, — dedi.

Ro‘mol ichidan og‘ir xo‘rsinish eshitildi.

— Oyzoda... Aylanib ketay, Oyzoda. Tortinma. Ayta qol, qoqindiq.

— Ha, nimaga qistaysizlar? Gapirmasa ixtiyor o‘zida, — dedi Qobil. To‘planganlar orasida shivir-shivir boshlandi. Yomg‘ir baqirib yuborishdan o‘zini tiydi.

Shu mahal Oyzoda o‘rnidan qo‘zg‘aldi. U yo‘talib, so‘zlashga shaylangan zahoti odamlar jim bo‘lib qoldi.

— Men... — Oyzodaning ovozi g‘amgin chiqdi. — Men bu xonadonga sotilib emas, sevgan kishim bilan ixtiyoriy kelganman. Shu uyda o‘sib, unib, qarib, shu uyda o‘layin deb kelgandim...

Oyzoda to‘xtalib qoldi. Yig‘i tomog‘ini bo‘g‘ib, gapirishga qo‘ymayotganga o‘xshardi. Gulkishining xotini qizga dalda berdi:

— Sadag‘ang bo‘lay, gapiraver, to‘xtama, — deb shivirladi. Oyzoda entikib:

— Uning ruh, arvohini hurmat qilaman. Otasini, onasini xafa qilish menga uyat. Otam chin dili bilan menga ruxsat bersa, bersin. Bermasa, bularni bo‘zlatib ketolmayman...

Tangriberdi:

Ha, o‘rgilayin, qarog‘im! — deb baqirib yubordi.

Yomg‘irning lablari ko‘karib, zil ketdi...

— Biroq, qaynatam meni kichkina bolaga nikoh o‘qitib qo‘yaman demasin. O‘sha bola Temirning ukasi, demak, u mening ham ukam bo‘ladi-ku? Ukamday, qolaversa bolamday yaxshi ko‘rgan bir jigarimga nikoh o‘qitish fikridan qaytsin. Men ketmayin! Sochimni turmaklab, telpak kiyib, Temirning o‘rniga Temirday xizmat qilay. Kichik bola o‘sar, yigitlik davriga yetar. O‘ziga munosib qiz topilsa, Po‘latni uylantiraylik, xizmatida bo‘layin, akasining yo‘qligi bilinmasin. Balki o‘shanda otam meni kechirar.

Xaloyiq Oyzodaning gapiga hayron qoldi. Yomg‘ir ham, Tangriberdi ham nima deyishini bilmasdi. Boshqa qarindoshlariga qaraganda, Qobil Tangriberdiga ota tomonidan yaqinroq edi. U

Oyzodaning turmushga chiqishdan bosh tovlayotganini fahmlab g‘udrandi.

— Nima, balog‘atga yetgan qarindoshlarimizdan biror loyig‘i yo‘qmidi?

Oyzoda ro‘molini himarib, yuzini ochib tashladi. Odatda erkaklarning oldida, qariyalar huzurida kelinchaklar yuzini ochmasligi kerak. Ammo u chidab turolmadi. Urf-odatga qarshi ish qildi. Ha, ataylab shunday qildi. Oyzoda hozirgi aytgan so‘zidan qaytmasligini shu yo‘l bilan ko‘rsatdi.

— Pokdomon kelin edim, netayki, peshonamda bor ekan. Hech kimdan xafa emasman. Bugundan boshlab men shu qishloq ahlining kelini emas, eng yaqin qarindoshi bo‘laman. Agar otam buni ep ko‘rmasa, men otamdan xafa bo‘laman. Unda ketishga to‘g‘ri keladi... Boshimga qamchi emas, o‘lim kelsa ham tik boqaman. O‘lim baxtli kishining baxtini, sho‘rlik odamning sho‘rini quritadi. O‘lim menday sho‘rlikni tiriklik azobidan xalos etadi.

Oqsoqollar lom-mim deyolmadi.

Beknazar o‘rnidan turib shunday dedi:

— Tamom! Uning so‘zi — qonun...

III

Botir, ushbu qush tiliday oq qoroz orqali borgan duoyi salomni ulug‘ og‘amiz Abildan deb bilgaysizlar. Ko‘pdan buyon tobim yo‘q. Tangriberdi akamizni olib bir kelib ket, botir. O‘zingga aytadigan, maslahatlashadigan gapim bor”.

Ishonchli yigit Abil biyning bu maktubini Beknazar botirga topshirdi. Qirq o‘g‘il urug‘ning biyi esga olib chaqirayotgan ekan, demak, bir gap bor. Tangriberdi borishga bahona topolmayotgan edi. “Atay ulug‘ boshini kichik qilib, maslahatga chaqirib tursa, bormaslik odobdan emas. Yodingda tut, yo‘lidan og‘ib ketgan kishini urug‘ bezori deydi. Tobi yo‘q ekan. E, sadag‘ang ketay, tirigimizda oqibat qilmasak, o‘lgandan keyin yig‘lashning nima foydasi bor. Otlan! Sizlar bormasangiz, men boraman”, deb Beknazarni qiyin-qistovga oldi.

Mo‘ljallagan kuni Tangriberdi bilan Beknazar bekning uyiga kirib bordi.

Abil biy sog‘ edi. Yotgan yeridan turib, qora baxmal do‘ppisini kiydi, bemor odamday, ko‘zlarini behol qisib, mehmonlarni qabul qildi, So‘rashib bo‘lgach:

— E-e... Tani joning sog‘ paytida qarindosh u yoqda tursin, Xudo ham esingga kelmas ekan, — dedi u. — Salomatlik katta boylik ekan. Qachon boshing yostiqqa tegsa, olis bilan yaqinning farqi sezilib, do‘stning qadri bilinar ekan, Tangriberdi aka.

Tangriberdi choponining etagi bilan tizzasini yopib, tamshanib qo‘ydi:

— To‘g‘ri gap, biy. Orasi buzilib ketgan taqdirda ham qarindosh-urug‘ bir kunmas bir kun eslaydi.

— O‘z qo‘lingni o‘zing kesib tashlolmaysan, Tangriberdi aka. Hali ham bo‘lsa, siz bilan biz soqolimizni oqartirib do‘stlarni izlaymiz. Yosh bolalarga qattiq gapirganimiz, ularni yomon bo‘lma deganimiz. Oxirzamon yaqinlashib qolganmi, haytovur hozirgi yoshlar ancha-muncha gapingga quloq solmaydi.

Tangriberdi yerga qarab, qovushmagan og‘a-inilarining ishidan xafa bo‘lganday, izza tortib o‘tirardi.

Abil biy gapni davom ettirdi:

— Ilojimiz yo‘q, Tangriberdi aka, yosh bolalarga qarindoshning qadri bo‘lmasa, bo‘lmay qo‘ya qolsin. Bir oyog‘imiz go‘r labida turganda, kasal bilan olishib, toliqqan kezlarda siz-u bizga qarindosh kuch-quvvat. Axir bizlar ham bir vaqtlarda yosh edik.

Beknazar indamay, negadir unchalik yozilolmay o‘tirdi. U Abil biyning ataylab shunday yotganini eshikdan kiriboq sezgandi. Beknazar sharoitga qarab, har narsani aql tarozisi bilan o‘lchab ish qiladigan odam edi. Bunchalik kelib suhbatlashib o‘tirgach, muomalaga yarasha javob qilish kerak.

— Biy aka, eshitmabmiz, chaqirtirmasangiz kelib, hol-ahvol so‘rash bizning burchimiz edi, kechiring, — dedi.

Abil biy o‘kinganday bo‘ldi.

— O‘rtadan mehr-oqibat ko‘tarilgan-da!

— Uchi ayri bo‘lsa ham, tubi bir, — dedi Beknazar. — Biz asli bir urug‘miz. Biroq, “biyni qul desa kulgisi, qulni qul desa o‘lgisi

kelar", degan gap bor, ponsad aka. Shuning uchun bizdek fuqaroga ko'tarilgan qamchi qilichday bo'lib ko'rinadi. Bu esa yurakka dog' tushirib, g'azab uyg'otadi.

Bol qimiz to'ldirilgan guldor kumush kosa qo'ldan-qo'lga o'tib turardi.

— Gapiraver, botir, ko'ylakning kirini yuvsa ketadi, dildagi g'ubor aytsa bitadi.

— Aytmasa ham aniq-ku, ponsad aka. Gapning qisqasi, bizning biylar, yurt og'alari dilidagini so'zlamasligida, o'z yurtining g'amini yemasligida...

Abil biyning ko'zi yarq etib ochildi. Gapning ma'nosini tushundi, uning oldini olib, ayyorona kulimsiradi.

— Xon barcha elning boshi, ko'zi. Elga boshliq zarur, shariat yo'lini tutgan hukmdor zarur. Busiz xalq to'zg'oqday to'zib ketadi. O'rdaga qilgan halol xizmatimiz muqaddas taxt oldida qarzimizni uzganimiz bo'ladi. Bizga o'xshagan urug'lar ko'p, ularning har biri ishkal chiqaraversa, Oqibati nima bo'ladi?

To'g'ri, o'shanday bo'lmasin, deb juda ko'p xizmat qildik. Ot bo'lib ko'tardik, askar bo'lib dushmani bilan olishdik, go'sht bo'lib dasturxoniga tuzaldik, terimizni shilib chopon qilib kiydirdik. Ko'rgan kunimiz esa kundan-kunga battar, suvsizlik, qarovsizlikdan qurib, qaqshab borayotgan yaylovga o'xshaymiz. Bizku muqaddas taxt oldidagi fuqarolik burchimizni yaxshi bilamiz, ammo nega o'sha taxt egalari fuqaro oldidagi o'z burchini bilmaydi? Nima, fuqaro o'ljamiki, uni olg'ir itga quvlatib, tirnog'i o'tkir burgutga changallatadi?..

Abil biy boshini qimirlatib, kosadagi qimizni ichishini ham, ichmasligini ham bilmay xayol surib qoldi. Nima deb javob bersin? Hatto Tangriberdi oqsoqol ham og'iz poylayapti. Gunoh Abil biydami? Beknazardami? Tangriberdining sira aqli yetmasdi.

— So'zingda jon bor, botir inim, — dedi Abil biy. — Eldan ahvol so'ramaslik, muborak taxtning aybi emas. O'rdadagi ba'zi odamlarning beg'amligi oqibatidir.

— Xo'sh, unda o'sha qutlug' taxtning egasi kim?

Abil biy Beknazarga tik qaradi, uning o'zini ham shu savol qiynayotganligi sezilib turardi.

— Ehtimol... — dedi Abil biy. — Qarab turaylik-chi, oxiri nima bo‘larkin? Elga, yurtga e’tibor bermaganni Xudo o‘zi jazolaydi. Yana kim biladi, bu haqda o‘rdadagilar o‘ylayotgan bo‘lsa kerak. Esi yo‘q bosh erta-indin yelkadan uchib ketishi mumkin.

Beknazar bu gapga qo‘shildi:

— Ehtimol...

Beknazarga nima bo‘lgan? Nega jinini qoqtirgan baxshiday muloyim bo‘lib qolibdi? Abil biy buni ko‘rib, harakati behuda ketmaganligini aniq sezdi.

O‘rdadan elchi kelib, ish bitirolmay ketgani Abil biyning ko‘z oldidan o‘tdi. Biy o‘sha kundan boshlab sipolik bilan ish bitirish yo‘liga o‘tib oldi. U odamiga qarab ot mindirib, to‘n kiydirganligi uchun o‘sha vaqtda Beknazarning atrofiga to‘plangan yigitlar asta-sekin tarqalib keta boshlagandi. Beknazar ularni to‘xtatib o‘tirmadi. Xon yoki oq poshsho tarafidan hozirgacha safarbarlik yo‘q, ularni ushlab turishning nima keragi bor? El tinch, yurtda omonlik. Aslida Beknazarni ana shu narsa shashtidan tushirgan edi.

Abil biy ko‘z qiri bilan Beknazarga boqdi. “Ha, yolg‘iz jangchi! Qor bosgan tog‘ kiyigiday qo‘raga bosh egib kelding-ku?!” Uning ko‘ngliga shu keldi. Jahlini bosdi. Ayyor biy yana unga qararkan: “Shoshma! Sen hali menga keraksan. Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar, yomon gap bilan pichoq qinidan. Halol gap”, deb ko‘nglidan kechirdi.

Abil biy ertasiga maslahatli ishini o‘rtaga tashladi.

El oqsoqollari, tajribali beklari uning uyiga shoshilinch to‘plandi. Biyning xayolida nima gap borligini hech kim bilmasdi. U og‘rib qoldim, deb shunchaki boshqalarni laqillatayotgani yaqqol ko‘rinib turardi.

— Yaxshilar! — dedi Abil biy. — Meni ko‘pdan buyon bir qayg‘u ezadi. Bu qayg‘u shu yerda o‘tirgan katta-kichikning nomusidir.

O‘tirganlar nima gap ekan deb unga qarashdi. Biy qayg‘u bosgan odamday qovog‘ini uyub, hammani o‘ziga qaratdi.

— Rahmatli akamiz Jomonqul qanday odam edi?

Nega uni so‘rab qoldi? Ko‘plar yelka qisdi. To‘rda o‘tirgan oqsoqollardan biri:

— Bechora Jomonqul mo‘min odam edi, — dedi hech narsadan bexabar. Abil biy boshini qayg‘uli irg‘adi.

— O‘sha mo‘min akamizning dastlabki ma’rakasi o‘tdi-yu, shu bilan esdan chiqib ketdi...

O‘tirganlar biyning maqsadiga endigina tushunib yetdi. Ko‘pchilik uni qo‘llagan bo‘ldi.

— Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan kishi edi.

— Bolalari ham o‘ziga o‘xshagan mo‘min chiqdi. Ularning bu dunyoda bor-yo‘g‘i bilinmaydi. Shuning uchun el ko‘rguday osh-suv berilmay qoldi.

Abil biyning ko‘ngli o‘rniga tushdi.

— Sizlar bilan shu narsani maslahatlashish uchun chaqirgandim. Mayli, bola-chaqalari qilmasa qilmasin. Lekin Jomonqulning arvohini hamqishloqlari, el-yurt xursand qilishi kerak. Bizday qarindoshlari bor ekan, marhumning qolgan ma’rakalarini ham o‘tkazamiz. Yomon qarindoshga yaxshi osh berish gunoh emas-ku.

To‘planganlar Abil biyning so‘zidan qiyiq topisholmadi.

— To‘g‘ri, biy haq gapni aytdi, — dedi ko‘pchilik. — qarindosh yomon kunda ham, yaxshi kunda ham asqatadi.

— Osh berilsa, nomi ko‘pchilikka yoyiladi.

Abil biy:

— Jomonqul akamizga dushmanni kuydirguday, do‘stni suyuntirguday osh beraylik, u yog‘i Oloy, O‘zgan, Andijon, Marg‘ilon tomonlarga xabar qilaylik, bu yog‘i Axsi tarafdagi ahli donishlarni chaqirtiraylik. Bunga siz, yurt og‘alari, nima deysiz? — Abil biy xo‘rsinib, qo‘shimcha qildi: — Aytganday, Sari-O‘zan-Chuy, Ko‘l beti, Qo‘chqor viloyatlaridan ham mehmon chaqirsak bo‘lardi. Nima qilamiz? O‘rtamizni o‘rislar to‘sib qo‘ydi...

Dasturxon ustida o‘tirgan kishilar Abil biyning bu fikrini bir ovozdan qo‘llab-quvvatlashdi.

— Biy, — dedi Do‘mbi sal tutilib, — agar unday bo‘lsa, xonni taklif qilish kerak.

— Esda bor, esda bor, Do‘mbi, — dedi Abil biy, — nima bo‘lsayam oltin taxtga qulluq qilib turibmiz, uning oldidan o‘tmog‘imiz kerak.

Abil biyning nazari Beknazarga tushib, birdan to‘xtab qoldi. Beknazar indamadi.

Jomonqulni kim bilmaydi? U Abil biyning amakivachchasi edi. Darhaqiqat, juda kamsuqum, ochiqko‘ngil, ho‘kiz minib poda boqishdan boshqa narsa bilan ishi bo‘lmasdi. Tirik vaqtida Abil biy unga sira e’tibor bermasdi. Tirigida asqatmagan Jomonqul o‘lgandan keyin nima uchun kerak bo‘lib qoldiykin? Balki Abil biy shu bahonada o‘z shuhratini oshirib, biron nimalik bo‘lib qolmoqchidir? Unga bahona kerak. Keyingi ikki yil ichida o‘rda uchun ancha ish bitirdi. Nomi xonga yetdi. Agar bu marosim ko‘ngildagidek o‘tsa, biyning o‘rda oldida hurmati yanada oshadi, bu yaqin-o‘rtada uning so‘zini ikki qiladigan jilov talashadigan odam qolmaydi. Buning uchun elatning kazo-kazolarini xon amaldorlari bilan baqamti uchrashtirmoq kerak. Bu yog‘i o‘z-o‘zidan ayon. Rahmatlik Jomonqulning arvohi uchun beriladigan osh ana shunday nozik siyosatni amalga oshirishga xizmat qilishi lozim.

Qimiz ichib ancha sarxush bo‘lgan mehmonlar uning fikriga bir ovozdan qo‘shilishdi.

— Mayli, nima bo‘lsa ham Jomonqul tug‘ishganimiz. Bo‘pti, xizmatga tayyormiz.

— Bu boshqa gap, qo‘limizda qamchi qolguncha, xarajatini birga ko‘taramiz.

— Rahmat! Rahmat! — dedi Tangriberdi. — Arvohini shod etganga nima yetsin? O‘lim hammaning boshida bor. Bu dunyo kimga vafo qilgan? Qaniydi, bizning ortimizda ham shunday aqlli kishilar qolsa? Martabang ulug‘ bo‘lsin, chinorday sershox bo‘l, inim.

Abil biy maqsadiga yetdi. Hech kim, bu ishing chakki, demadi. U marosimning qachon, qaerda o‘tishini, kimlar mehmon kutishini aytdi, poyga va kurashga tushadigan kishilarga ko‘pkari puli ajratilib, tegishli odamlarga buyruq berildi. Kengash tugadi.

* * *

Sariboy to‘rda bukchayib, indamay o‘tirardi. Ko‘zi ko‘k ro‘mol bilan tang‘ib qo‘yilgandi. Bir vaqtlar dong‘i dovon osh-

gan ovchi qayoqda deysiz. Burgut timdalagan yerlari bitib, uning o‘rnida dog‘lar qolgandi. U chuqur nafas olib, eshikka quloq soldi. Tashqaridan o‘ynab yurgan bolalarning ovozi eshitildi. Sariboy bolalarini tovushidan tanib olmoqchi bo‘lib, yana eshik tomonga quloq osdi.

— Suyumxon, — dedi Sariboy.

— Ha, men shu yerdaman. Yoningizda o‘tiribman, dadasi, — dedi xotini.

Menga uzat, — deb Sariboy qo‘lini cho‘zdi. Suyumxon darrov o‘rnidan turib, devordan qo‘mizni olarkan:

— Dadasi, — dedi xotini bir oz xijolat tortib.

— Ha. Qani?..

— Bir oz gaplashib o‘tiraylik, dadasi.

Sariboy sal sog‘aygach, ermagi qo‘miz bo‘ldi. O‘tirgani-o‘tirgan. Oyoqlari uvushib, bo‘yni tolib ketadi. Gapirmaganidan jag‘i ham qarishadi. Yuragi qisilib, dod degisi keladi. O‘tiraverib zerikadi, ich-etini yeydi. Iloji qancha? Nima qilsin? Alam bilan xo‘rsinadi. Shunday paytda qo‘miz unga dalda beradi.

Sariboy xotinining so‘ziga javob bermay, qo‘lini uzatib turar edi. Suyumxon noiloj:

— Mana, ovchim, — dedi uni erkalab. — “Ko‘ch jonlar” kuyini chalib bering.

Sariboy xotinining ra’yini qaytarmay qo‘miz pardalarini bir qur siypaladi-da, oshiqmay uning murvatini burab, chala boshladi.

Suyumxonning ko‘zidan duv-duv yosh to‘kildi. Sariboy eshitib qolmasin, deb nafasini ichiga yutdi, yengining uchi bilan ko‘z yoshini artdi qo‘miz nola qilardi. U Sariboyning jon-dili. Yaylovga ko‘chishga bag‘ishlab to‘qilgan bu kuy odatdagidan biroz mungliroq edi.

— Hoy, dadasi, — dedi Suyumxon xandon tashlab, — “Ko‘ch jonlar” shundaymidi?

— Nima deding?

— “Ko‘ch jonlar” shundaymidi? Sal g‘amginroq chaldingizmi?

U yutinib olib:

— Shunaqa bo‘ldimi?

— Ha, mungliroq chiqdi.

Sariboy yelkasini qisib, o‘ylanib:

— Qunduz qayoqda? Ovozini eshitmayapman, — dedi.

— Qizlar bilan maydonga ketgan.

— Ha, o‘ynashyaptimi?

— Suv olib kel degandim...

Sariboy olisdan sharpa sezgan qushday boshini qiyshaytirib:

— Suyumxon, — dedi asta.

— Ha, dadasi.

— Yana yig‘layapsanmi?

— Yo‘q, dadasi...

— Yolg‘on gapirma. So‘qir odamga yolg‘on so‘zlab bo‘larkanmi? Ana, ovozing so‘nik eshitilyapti. — Sariboy qo‘lini uzatdi. — Menga yaqinroq kel-chi.

Suyumxon surildi. Sariboyning muallaq turgan qo‘li Suyumxonning manglayiga tegdi. Sariboy siypalab:

— Aytmadimmi? Yana yig‘layapsan-ku, — dedi bo‘shashib. Suyumxon Sariboyning qo‘lini betiga bosib, o‘zini tutolmay ho‘ngrab yubordi. Iliq yosh tomchilari Sariboyning chandiq kaftiga tushardi. — Suyumxon, — dedi u qo‘lini o‘z holiga qo‘yib. — Men seni esli desam... Ayb o‘zimda. Peshonamda bor ekan. Sen bunga ko‘nikishing qiyin. Nima ham qilardim, Ollohning irodasi ekan. Yig‘lama. Yig‘lasang, men qiynalaman... Menga og‘ir...

Suyumxon burnini tortdi.

— Bo‘ldi... Bo‘ldi, endi yig‘lamayman, dadasi. Turib-turib sira chidolmayapman...

— Sabr-toqat qilishimiz kerak. Mening ahvolim bu bo‘lsa, sen hadeb yig‘layversang, yolg‘iz qizimizning holi nima kechadi? Unga og‘ir bo‘ladi. Qunduzni ehtiyot qilaylik. Mening ko‘rar ko‘zim ham, so‘zlar so‘zim ham o‘sha.

Suyumxon o‘zini bosib, yoshini artgan bo‘ldi. Sariboy dalda berdi:

— Shunday qil. Belni mahkam bog‘la. — U xotinining ko‘nglini ko‘tarmoqchi bo‘ldi shekilli, qo‘mizni yana qo‘liga olib, sho‘x kuylardan birini chala boshladi. — So‘qir bo‘lsam ham o‘zimni g‘arib demayman, Suyumxon. Chunki, baxtimga sizlar borsizlar.

Sariboy ilgari qashqa to‘rig‘ini uloq va poygalarda minardi, tez-tez ovga chiqib turardi. Ba’zan poygalarda ortda qolsa, unchalik kuyinmasdi. U otini ardoqlab bir tekis minardi. Ko‘zidan ayrilgach, itini ham, burgutini ham unutdi. Otini tirikchilik uchun ukasi Modil ishlatardi.

Sariboy hozir o‘ylanib o‘tirib peshonasida tumorday qashqasi bor to‘riq otini ko‘z oldiga keltirdi-da, o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Suyumxon qo‘ltig‘idan suyadi. Tashqariga chiqqanda:

— Quyosh botyaptimi? — deb so‘radi Sariboy.

Ha.

Sariboy:

— Quyoshning tafti ketib qolibdi, — dedi shivirlab. — Hozir toqqa yonboshlab qolgandir-a? To‘riq qashqa qaerda?

Suyumxon yetaklab, to‘riq qashqa bog‘langan qoziq oldiga olib bordi. Jonivor egasini tanidimi yoki xashak so‘radimi, kishnab yubordi. Sariboy ikki qo‘li bilan otini siypalab: “Esiz to‘riq qashqa... Ahvoling qalay? Tinchmisan?..” — deb qulog‘idan ushladi va sag‘risini silab qo‘ydi:

— Oriqlab ketibdi-ku...

Sariboyning ukasi Modil ham:

— Har yilgidan ko‘proq minildi. Nachora, tirikchilik ekanda, — dedi.

— Oriq bo‘lganda nima-yu, semiz bo‘lganda nima?! — dedi Suyumxon. — Ilgarigiday poygaga chopmasalaring, ulovlik xizmatini o‘tasa bo‘ldi-da.

Saribiy miyig‘ida kulib:

— Hm, — deb xo‘rsinib, dumidan tortib qo‘ydi. — Hali baquvvat ekan. Men uni poygaga chopsam deb turibman. Nega chopmas ekanmiz? To‘riq qashqa ko‘p sovrin olgan.

Modil yamab o‘tirgan chorig‘ini yerga qo‘yib, yalangoyoq yugurib keldi.

— Qanday qilib chopadi? Qiltillab turibdi. Poyga qayoqda? Qishdan eson-omon chiqsa ham katta gap.

— Modil, — dedi Sariboy yumshab, — menga qo‘yib ber, yem bilan boqaman, kuzgacha hali ancha bor. Jomonqulning oshi-

da tavakkal qilib bir chopib ko‘ramiz. Astoydil Xudodan tilaymiz, zora...

Modil akasining bu so‘zlaridan quvonib ketdi. Sababi, u anchadan buyon Sariboyni bu kungidek xursand ko‘rmagan edi. Modil ham eski ovchining avvalgi shuhratini o‘ylab, uning ko‘nglini ko‘tarib:

— To‘g‘ri aytasiz. To‘riq qashqaning hunarini yana bir ko‘raylikmi, a, aka? — dedi. Uni xayol olib qochdi, bir poygada Sariboy suvsar telpak kiygan edi, u: “To‘riq qashqaning haqini olib, orqaroqdan kel”, deb tayinlagandi, o‘zi bir to‘p kishilar bilan otlanib ketib, ko‘pkaridan qulunli biya yetaklab kelgan edi, u shularni o‘ylab, kuzdagi ma’rakada ham zora shunday bo‘lsa, deb yutinib qo‘ydi.

— Shunday qil. Yaxshilab boq. Toblashni menga qo‘y. Buning uchun ko‘z bo‘lishi shart emas!

Modil to‘riq qashqani astoydil boqa boshladi, Uncha-muncha xizmatga Idinning chavkarlarini so‘rab turdi. Yem, suvini vaqtida berib, parvarishini joyiga qo‘ydi. Bir oyda u o‘ynoqlab qoldi.

Sariboy kelib, uni siypalar ekan:

— Ha, tuzuk. Yol bitib qolibdi. Endi sekin yetaklab tashqariga olib chiq. Yetalab sug‘or. Ikki kundan keyin kun oralatib uch marta tongda choptirib terlatamiz, ana shunday sovutamiz. So‘ngra yana bir oy boqasan. Keyin Xudo xohlasa, obdan sovutib, katta ma’rakaga toblaymiz.

Sariboy o‘sha kunlarda ko‘zini unutib, erta-yu kech to‘riq qashqaning tashvishida bo‘ldi. Modil akasining shunchalik bo‘lib qolganiga quvonib, ot boqishning hamma mashaqqatlariga chidadi.

Bir kuni tun yarmida kimdir ot choptirib o‘tdi. Sariboyning yuragi shig‘ etdi. It jon-jahdi bilan hurdi. Sariboy bezovtalanib o‘rnidan turdi. Ot dupuri olislab ketdi.

— Hoy, xotin, — dedi qichqirib Sariboy. — Olib ketdi. Attang!..

— Hay-hay, — dedi xotini paypaslab Sariboyning etagidan tortib. — Qayoqqa ketyapsiz, dadasi?

— Modil qani? Modil?!.

— Voy, o‘lmasam. Yarim tunda uni nima qilasiz? Modil uyg‘onib ketdi.

— Nima gap, aka? — dedi qo‘shni uydan Modil.

— Tur tezroq! — deb qichqirdi Sariboy eshikni paypaslab. — Tur, otni qara...

— Turgandir... Turgan bo‘lsa kerak, — dedi Modil yo‘talib, erinchoqlik bilan uydan chiqarkan. Bu payt ot dupuri xiyla olislab, ortidan chopgan it qaytib kelayotgan edi. Modil otxona bo‘sh turganligini ko‘rib, o‘zini yo‘qotib qo‘ydi.

— Ie! Ot yo‘q. Bo‘shalib ketgan bo‘lsa kerak, — deb hovlini aylandi.

Sariboy eshikka chiqib, yer mushtlab, o‘tirib qoldi.

— O... Tamom, undan ayrildik. Birov o‘g‘irlab ketdi... Sho‘rimizga sho‘rva to‘kildi. Yuragim bilgan edi.

— To‘xta-a! Hoy, kimsan, to‘xta-a! — deb Sariboy baqirib ot ketgan tomonga yugurdi.

Qarindosh-urug‘ oyoqqa turdi. Birov tushunsa, boshqasi talmovsirab:

— Nima gap, tinchlikmi? — derdi.

— To‘riq qashqani o‘g‘ri olibdi...

— Voy, sho‘rim, endi nima bo‘ladi?

Modil lapanglab to‘qayzorda chopib borardi.

— Hoy, hazilingni qo‘y! Kim bo‘lsang ham to‘xta-a!

Hech kim javob bermadi. To‘qayzor jimjit. Modilning ovozi qirdan-qirga urilib so‘nib ketdi.

Gaplashayotganlarning birini ovozidan tanib:

— Idin! — deb chaqirdi Sariboy. Idin yugurib keldi.

— To‘xtat! Modilni to‘xtat. Bo‘lar ish bo‘ldi. O‘g‘ri uni ham bir balo qilib ketmasin.

Chavkarini choptirib ketgan Idin bir mahalda Modilni topib keldi. U entikib kuyinardi:

— O‘g‘ri ko‘zimizga cho‘p tiqdi. Shunday qilib qolaveramizmi? Eh, attang, — deb goh o‘tirardi, goh turib ketardi.

Sariboy o‘zini bosib olgandi.

— Qo‘y endi, — dedi u, — yig‘laganing bilan o‘g‘ri qaytib olib kelarmidi? Yolg‘iz otning dupuri hamon qulog‘im ostida.

Atay kelib poylagan bo‘lsa kerak. To‘riq qashqa yaxshi bedov edi. O‘g‘rining aqli bo‘lsa, so‘yib yemaydi. Talasdan oshirib qozoqlarga o‘tkazib yubormasa, bir kuni daragi chiqadi. Undan ko‘ra borib biyga bo‘lgan voqeani ayt.

O‘sha tuni Modil uxlamadi. U tong bo‘zarishi bilan Idinning chavkarini yo‘rttirib Abil biyning oldiga bordi. Bo‘lgan gapni aytdi. Biy chinakam qayg‘urdi.

— Attang, ha, bo‘yning uzilgur, kim o‘g‘irladiykin-a? Sariboy bechoraning tashvishi ozmidi? Otning xaridori ko‘pligini bilar eding-ku. Unga yaqinroq yerda yotmaysanmi?

— Har kuni yonida yotardim. Ayagan ko‘zga cho‘p tushar, degandek, o‘sha kuni uyga kiruvdim...

Abil biy kuldi:

— Erkakliging qo‘zib ketgandir-da?1.

Modil nima deyishini bilmay, yerga qaradi.

— Ko‘zim ketib... Ko‘za kunda sinmas ekan...

Abil biy xo‘rsinib boshini chayqadi:

— O‘zingga ehtiyot bo‘l, qo‘shningni o‘g‘ri tutma, deb behuda aytishmagan. Bo‘lar ish bo‘libdi. Endi kimdan ham ko‘rardik? Sariboyga salom ayt, buyurgan bo‘lsa topilib qolar. So‘rab-surishtiramiz... Daragi topilsa, Ollohning bergani...

Modil xursand qaytdi.

Abil biy belgili o‘g‘rilarni surishtirdi. Daragi chiqmadi otim deb qidirtirdi. Lekin to‘riq qashqa suvga tushgan toshdek izsiz yo‘qoldi.

Qo‘mizini qo‘liga olib chumchuq chirqillashiga taqlid qilib, Sariboy kulib qo‘ydi:

— Hah, qizitaloq, — dedi boshini chayqab. — To‘riq qashqaning qadriga yetmagan bir nomard o‘g‘irlagan ekan-da. Tishingga tosh tekkur so‘yib yuborgan ekan.

— Go‘ringda to‘ng‘iz qo‘pgur kim bo‘ldi ekan-a?! — deb qo‘ydi Modil.

— Ha, bo‘lar ish bo‘ldi. — Sariboy qo‘bizini chertdi, — xonasallotga osh bo‘lsin, — deya sho‘x kuylardan birini chala boshladi...

* * *

Qiziljarning bepoyon dalasi yastanib yotardi. Kech kuz edi.

Dov-daraxtga burkangan qishloqni ortda qoldirib, bir talay otliq tog‘ tarafni ko‘zlab kelardi.

Eng oldinda, o‘rtada ma’lum masofani saqlab, tug‘bardor otda savlat to‘kib o‘tirardi. Tug‘bardor orqasidan kelayotgan rangi zahil yosh yigit yo‘rg‘asida qilt etmasdi, Uning egnida zardo‘zi qizil kimxob to‘n, oyog‘ida bulg‘ori etik, boshida yorliqsiz yashil salla. Buyoqqa birinchi marta kelayotgani uchunmi, atrofga alanglaydi. Beliga uch marta o‘ralgan fo‘taning chap tomonida Damashq qilichi, o‘ng tarafida birotar rus to‘pponchasi.

Bu Xudoyorxonning to‘ng‘ich o‘g‘li Nasriddinbek. Yonida Abdurahmon. Ustida qora kimxob chopon, boshida usti baxmal telpak. Elchilik vaqtidagiga qaraganda ancha og‘ir-bosiq.

Qirq sipohiy to‘rttadan saflangan edi. Adir etagida qator-qator tikilgan bo‘z o‘tovlar ko‘zga tashlanardi. Har bir o‘tov oldida to‘p-to‘p odamlar, egarlangan otlar turardi. Nasriddinbek chodirlarni sanayotib yanglishib ketdi.

Bularning qorasi ko‘rinishi bilan o‘tovdan bir to‘p otliq shitob bilan ot qo‘ydi. Asov otlarini yeldirib kelayotganlar ichidan ikki kishi o‘zib chiqdi.

— Shahzoda, bular tog‘alaringiz bo‘ladi. Sizga yuksak ishonch bildirib, hurmatingiz uchun uloq chopib chiqishdi, — dedi Abdurahmon. — Bu katta e’tiqod ramzi.

Nasriddinbekning chehrasi yorishdi. Indamay uloqchilarni kuzatdi. Ko‘pkari chopganlarning biri ko‘z ochib yumguncha mehmonlarni bir aylanib o‘tib, Nasriddinbekning qarshisiga kelganda, tizginni tortdi. Ot to‘xtashi bilan taqimidagi buzoqni boshidan oshirib, chipor yo‘rg‘aning tuyoqlari ostiga tashladi. Shahzodaning bedovi cho‘chib buzoqqa tikildi. Uloqchi buklangan qamchisini ko‘kragiga bosib ta’zim qildi.

— Rahmat, uka, rahmat! — deb alqadi Abdurahmon. Nasriddinbek belidagi Damashq qilichini yechib:

— Botir, ushbu yaroq mendan esdalik bo‘lsin, — dedi.

Yigit qilichni qo‘sh qo‘llab olib, baland ko‘tarib, muzdek po‘latga labini tegizdi, keyin qinidan sug‘urib osmonga irg‘itdi-da, yana sopidan ushlab oldi.

— Rahmat, taqsir! — deb otning tizginini bir siltab, chopib ketdi.

Ungacha bir to‘p otliqlar mehmonlarga peshvoz chiqishdi. Abil biy oldinda edi. Uning og‘zi qulog‘ida edi:

— Shahzoda jiyanimizga boshimiz sadqa bo‘lsin. Xush kelibsiz! — deb salom berdi. Nasriddinbek bir qarab qo‘ydi. Abdurahmon engashib nimanidir shivirladi. Shahzoda sipolik bilan jilmayib, Abil biy bilan so‘rashdi.

Shu zahoti sipohiylar ikki tomonga bo‘linib yo‘l berdi, tug‘bardor ilgariladi . Abil biy otdan tushib, yerda yotgan buzoqni ko‘tarib, Nasriddinbekning oldiga yoppa tashladi. Shahzoda buzoqni egarga bosib, zo‘rg‘a to‘xtatib qoldi, so‘ngra bedovga qamchi bosib, tug‘bardor orqasidan otni yeldirdi.

Sipohiylar:

— Nasriddinbek! Nasriddinbek! — deyishib shovqin-suron bilan ot qo‘yishdi. Abdurahmon bilan Abil biy buzoqqa qo‘shilib og‘ib ketmasaydi, degan mulohaza bilan shahzodaning yonida borishardi.

Abdurahmonning ishorasi bilan Nasriddinbek baland tepalikka “tikilgan ikki oq o‘tovga otini burdi. Odamlar qiy-chuv qilishardi. O‘tov eshigi oldida ko‘pdan beri kutayotgan uch-to‘rt qariya havas bilan unga qarab turishardi. Ular Abil biy tomonidan atay qo‘yilgan urug‘ oqsoqollari edi.

Og‘ir uloq yerga gurs etib tushdi. Ungacha uydan elachak o‘ragan Qoraqosh oyim chiqdi. Abdurahmon darrov uni tanidi:

— Ha, Qoraqosh yanga! Sovg‘a! Sovg‘a! -deb shahzodani odatga ko‘ra tanishtirdi.

Qoraqosh oyim sevinganidan ikki yuzi naqsh olmadek qizarib shoshib qoldi:

— Voy, o‘lmasam, jiyanimiz shahzoda shularmi? Jiyan haqini bermasak, ko‘pga tushib yurmaylik, — dedi Qoraqosh oyim noz-u istig‘no bilan. Uyga kirib darrov qaytib chiqdi. Qo‘lida ixlos bilan

tikilgan qunduz yoqali ichik turardi. Qoraqosh oyim ko‘zlarini yosh qizlarday o‘ynatib:

— Qani, shahzoda, otdan tushing. Jiyanning boshi osmonga yetsa ham tog‘asining eshigi oldida ot solib turmaydi, — deb hazillashdi. Abdurahmon bosh irg‘adi. Nasriddinbek otdan tushdi. Qoraqosh oyim ichikni shahzodaning yelkasiga yopdi. Qishlik ichik uning bo‘yi-bastiga monand bo‘lib, Nasriddinbekni yana ham salobatli qilib yubordi.

Do‘mbu boshchilik qilgan ahli donishlar ta’zim bilan hol-ahvol so‘rashdi. Nasriddinbek atrofdagi kishilarni birma-bir ko‘zdan kechirib chiqdi. To‘plangan keksa-yu yosh mehmonga nisbatan hurmat bajo keltirib salom berishdi.

— Assalomu alaykum, shahzoda!..

Ko‘pchilik bir yo‘la bergan salomga Nasriddinbek labini qimtib, sust alik oldi.

* * *

Jomonqulning oshi Nasriddinbek tashrif qilgan kuni boshlangandi. Undan beri bir hafta o‘tdi. Uning qachon tugashi belgisiz. Har kuni tomosha. Oshga borsang, och borgin, deydi tog‘liklar. Sababi, osh bergan odam marosim yoki ma’raka tugagunga qadar qishloq ahlini boqishi kerak. Agar shunda bir kishi bu marosimda xafa bo‘lib qolsa, barcha urug‘ la’natga qoladi. Udum shunday. Abil biy shuning uchun qattiq tayyorgarlik ko‘rgan edi. Axsi bilan Qiziljar atrofidagi qarindosh-urug‘lar qamishdan bel bog‘lab yugurib-yelib xizmat qilardi.

— O‘ynat arg‘umoqni, o‘ynat! Er yigitni onasi shunday ishlarga tuqqan! O‘ynat!

— Ha-ayt! Devqalb bo‘lsa chiqaversin!

— Hayt! Hayt-hayt! Hayt-hayt! Hayt!

Davrani keng olib turgan otliqlar shamolday uchib, suron bilan olg‘a intildi. O‘rtadagi tekis maydonda boshini qizil belbog‘ bilan tang‘igan Beknazar qora qashqa arg‘umochning jilovini sal tortib, qilichini serpib raqib qidira boshladi.

— Ho-oy! Kim bor?

— Er yigit topiladi!

— Kim chiqadi? Chiqaradigan bo'lsa tezroq chiqarmaydimi, chiqarmasa, oshboshi poyga sovg'asini atasin...

— Nega shoshilasan? To'xta. Anavilarni ko'rmayapsanmi? Shahzoda atay qirq yigitini boshlab kelgan.

— Shunday degin. Ko'rsak ko'ribmiz-da, tomoshasini. Ular go'sht yegani kelgan deysanmi?..

— Kim biladi deysan?

Biylar tepalikdan turib atrofni kuzatishardi. Abil biy goho ovoz kelgan tomonga qarab qo'yadi. Nasriddinbek o'rtada ot o'ynatib turgan yigitga havas bilan boqardi.

— Ana! Tog'a, ana! -deb qoldi uzangiga oyoq tirab shahzoda. — Bizga uloq tashlagan azamat. Ana!

Ungacha ular turgan tepalikka bir yigit ot choptirib keldi.

— Taqsirlar! Bellashuvga odam chiqmasa, botirga poygani berishsin deyishyapti.

— Kim? — dedi Abil biy bo'ynini cho'zib.

— Oqsoqollar!

— Borib ayt, shoshilmaylik. Raqib chiqmay turib poygani berib qo'ysak, el gap qiladi. Sabr qilaylik...

Abil biyning so'zini Abdurahmon qo'lladi. Biy ancha erib turgan edi. Beknazarning maydon o'rtasida ot o'ynatib, arg'umog'ini ikki oyog'ida tik turg'izishining o'zi davraga fayz kiritib turardi. Biy xushnud bo'lib Nasriddinbekka yuzlandi.

— Jiyanim... Bizning botirga to'g'ri keladigan yigit chiqmadi. Nima deysiz? — Ulug' mehmonga izzat-ikrom ko'rsatganligini bildirish maqsadida Abil biy bu tomoshani boshqarishni Nasriddinbekka topshirgan bo'ldi.

— Ruxsat beringiz!

Uning yonidagi yigitlar sarkori Toshkalla shahzodaga tiz cho'kib ta'zim qildi.

— Ruxsat bering, bek?..

Nasriddinbek hayron bo'lib:

— Sizga nima bo'ldi? — dedi.

— Ruxsat bering, bek! — Toshkallaning ovozi titrab chiqdi. Agar bek ruxsat bermasa, u yulqinib maydonga tushguday kepata-

si bor edi. Abdurahmon oftobachi mayin jilmayib qo'ydi. Bu uning roziligi edi. Nasriddinbek kaftini ochdi:

— Yigit piri Shohimardon qo'llasin, Toshmat botir... Omin!

Kuch sinash niyatida ko'zlari yonib turgan botir uch marta shahzodaga ta'zim qildi, ko'pchilikning fotihasini olgach, maydonga yo'naldi. Yigitlardan biri qorabayirni yetaklab oldinga yugurdi. Nasriddinbekning ortida turgan surnaychi musobaqaga mos kuy chaldi. Gurs-gurs do'llar urilib, davra ajabtovur bo'lib ketdi. Nasriddinbek o'rnidan turdi. Behisob tomoshabinlarning do'ppi, telpak va oq qalpoqlari havoda qalqdi.

— Yo, tavba! Bu nimasi? Intilib chiqib qoldiku, — dedi kimdir. To'planganlarning turli-tuman gaplari, so'kinishlari haddan oshdi.

— Ana!

Sipohiylar ot choptirdi.

— Hoy, nima qilib turibsizlar?

— Boshinglar tarvuzday qo'linglarga tushib qolsa, uyqinglar ochiladi shekilli.

— Mana, bu boshqa gap.

— O, xaloyiq, asta-asta! Osh tinchroq o'tsin. Maydonga hamma ham tushavermaydi.

— Ajabo! Sopi yo'g'onroq qamchi olib kelmabmiz-da, bular endi ish ko'rsatmasa koshkiydi.

— La'nati! Ha, la'nati! Og'zingga qarab gapir, — dedi Do'mbu katta telpakli odamga qamchi urib.

Haligi odamning telpagi dumalab ketdi.

— To'xtat, xonning tog'asi. Aybim nima?

— Ovozingni o'chir. Shu topda ovozingni qattiq chiqarsang gunohga qolasan. Jim o'tirsang marra seniki. Qoch nari!

Do'mbu el oralab qiy-chuvlarni bosdi.

Oq kiyimli jarchilar otlarini lo'killatib, atrofdagilarga musobaqa shartini aytishardi.

— E, xaloyiq! Azamatlar nomus uchun bel bog'lashadi. Otni chopish, tizzaga urish haq. O'lganning xuni to'lanmaydi. G'olibga siylov va mukofot. Takror aytaman, shart shu, xun to'lanmaydi, yutganga katta sovrin beriladi.

Bir tomonda Nasriddinbekning yigitlari, ikkinchi tarafda el saf tortgan edi. To‘planganlar ajablanib, bu kurashning nima bilan tugashini sabrsizlik bilan kutishardi. Odamlar yuzma-yuz turgan ikki yigitdan ko‘z uzishmasdi.

Toshkalla Qo‘qon, Marg‘ilon tomonlarda urishgani odam topolmay, har kimga o‘qtalib yurgan barzangi polvon yigit edi. Hech kim uning mushugini pisht deyolmasdi. Sababi, Toshkalla Nasriddinbekning erkasi edi. Asli ismi Toshmat. Kurashda, mushtlashishda bu o‘rtada unga hech kim bas kelolmasdi. Bir necha yildan beri u shahzodaning yigitlariga qilichbozlikni o‘rgatib kelardi. Bugun ana shu polvon oriyat qilib elatning bo‘z o‘g‘loni bilan kuch sinashishga chiqdi.

Qaysar Toshkalla dastlabki to‘qnashuvdayoq raqibining osonlikcha jon bermasligini sezdi. Bunday olishuvlarning ko‘pini ko‘rgan barzangi boshqacha usul qo‘llamoqchi bo‘ldi.

Chaq-chaq... Sharaq-shuruq... Qilichlarning damidan o‘t chaqnaydi. Arg‘umoqlar bir-biriga tashlanib, ko‘kka irg‘ishlardi. Raqiblar go‘yo azaldan o‘chi borday bir-biriga hamla qiladi.

— Ey, kajraftor falak! Nomus uchun o‘rtaga tushgan yigitlarni o‘zing asra.. Yigit piri Shohimardon, o‘zing qo‘lla!

— Hay... Qara, qara... Shu holda qilichini sharaqlatib turaversa, kech kiradi-ku.

— Hoy, og‘ayni, oldimni to‘sma! Qanday insonsan! Sendan boshqa tomosha qilmaydimi?

— Bu yoqqa tur!

— Sharaq-shuruq! Buni yog‘i chiqarmidi?

— Shartta bitta chop! Tamom, vassalom.

— Yoniga keltirolmayapti. Ko‘rmayapsanmi, payt poylayapti.

— Ular qulay paytini topsa, ayab o‘tirmaydi.

— Qilichni har kim ham taqaveradi, ammo uni faqat azamat yigit chopadi.

— Unday bo‘lsa, sen chiqaqol o‘rtaga.

— Qo‘ysang-chi, bunaqangi o‘pkasi yo‘qlarni ko‘p ko‘rganmiz.

Maydondan ko‘z olmay, tikilib turgan el birdaniga jimib qoldi.

— Eh, essiz yigit! Nobud bo‘ldi!

— Qaysinisi yiqildi?

— Yiqildi emish, kallasi sapchadek uchib ketdi-yu...

Bo‘z tuproq ustida kalla dumalab, qon yerga singib ketayotgandi. Qora arg‘umoq taysallab chetlandi. Shu payt tana shilq etib ag‘darildi va oyog‘i uzangiga ilinib qoldi. Bundan qo‘rqqan ot tanani sudrab chopib ketdi.

— Voy, sho‘rim, Beknazar!

— Nafasingni sovuq kilma. Jim bo‘l!

Zum o‘tmay g‘olib yigitning qo‘lidagi qilich ko‘kka irg‘ib, quyoshda yalt etdi. Beknazar!

— Hamma botir yigitni olqishlash uchun o‘sha yoqqa oshiqdi.

Do‘nglikdan tomosha qilib turgan kazo-kazolarning nafaslari ichlariga tushib ketdi. Xususan, Abil biy qotib qoldi. Hammayog‘ini muzday ter bosib, ko‘zlari ola-kula bo‘lib ketdi. Shunday martabali kishining ishongan yigiti-ya?.. Qilni qirq yoradigan Abil biy gangib qoldi. “E, Tangri... Bu nima gap? Shayton Beknazar! E, qon qusgur!” Nasriddinbek to‘satdan bir tarsaki yegan odamday serrayib turardi. Do‘llar chalinib, surnay ohangi yurak-bag‘rini ezardi... Sipohiylarning qo‘llari qilichga cho‘zildi. Nasriddinbek shuni kutib turganga o‘xshardi. Biyning peshonasidan ter quyilardi.

Olqishlagan el oldida Beknazar kelardi. Nasriddinbekning ko‘zlari olayib, qo‘li qaltirab, belidagi to‘pponchani ushladi, uni asta sug‘urdi. Abdurahmon uning qo‘lini tutdi.

— Bu yer Qo‘qon emas.

Chavkar yo‘rg‘a quloqlarini chimirib, irg‘ishlab olomon o‘rtasida Beknazarni olib borardi. Nasriddinbek mulzam bo‘lib turardi.

Beknazarni o‘rtaga olib kelgan to‘p o‘tovlardan birining oldiga kelib chaqirdi:

— Kim bor?

— Kim bor, sadag‘ang ketay?

Uydan doka ro‘mol o‘ragan bir kampir chiqdi. Yarim oydan beri mehmon kutib, tuni bilan uxlamagan kampirning ancha urinib qolganligi shundoq sezilib turardi. U qo‘rqib ketdimi yoki hayron bo‘ldimi, kirtaygan ko‘zlarini zo‘rg‘a ochib:

— Kelinglar, kelinglar... Yo‘linglar bo‘lsin, botirlar, — dedi.

— Lashkarboshi! Sadag‘ang ketay, moma! Lashkarboshi! Nomusga qolmadik...

Kampir hech narsaga tushunmay, bosh irg‘ab:

— Yaxshi... yaxshi... — derdi nuqul.

Ko‘pchilik Beknazarni ot ustidan ko‘tarib oldi. Kampir quchog‘ini yozib:

— Yaxshi... Yaxshi... Qoqindiq... — deb halloslab o‘tovga kirdi, bir kosa suv olib chiqib, irim qilib Beknazarning boshidan uch marta aylantirdi va nimanidir pichirlab, lov-lov yonib botayotgan quyoshga qarab sochib yubordi. Odamlar darhol oq uloqni bo‘g‘izlab, qo‘ltig‘ini yorib, o‘pkasini kampirning qo‘liga tutqazishdi:

— Onadan tabarruk, onadan ulug‘ bu dunyoda nima bor? Keling, yaxshi niyat bilan, yengil qo‘l bilan botir o‘g‘lingizga o‘pka chopib tashlang.

Kampir ikki bukchayib, Beknazar atrofida aylandi. Qo‘lidag‘i qon tomib turgan o‘pka bilan botirning boshiga, yelkasiga, qo‘liga, tizzasiga urib shunday dedi:

— Och nazardan saqla... Och nazardan saqla. Ko‘zlaganni ko‘ziga, so‘zlaganni so‘ziga kir! Ota arvohi qo‘llab, yigit piri jilovdor bo‘lsin! O‘z elingda sodiq, tog‘day madad bo‘lgin, o‘g‘lim... — O‘pka urilgan sayin qorayib borardi. Uning qorayishi irim — ya’ni yomon so‘z, yomon ko‘zning dalili edi. O‘pka qop-qora bo‘lgach, kampir: — Yomonlik qo‘l bilan qo‘sha chiqib, kun bilan qo‘sha botsin, — deb quyosh so‘nggi nurlarini sochib botayotgan tomonga irg‘itdi.

Jarchi bor ovozi bilan baqirib-chaqirdi:

— Eshitmadim demanglar, eshitganlar qolmanglar! Bir kunlik yerga poyga o‘tkaziladi. Sudralgan otga sovrin yo‘q. Hozirdan boshlab otlarning chilvirini yechib tashlanglar. Chilvirli ot poygaga qo‘shilmaydi. Bu — tomoshani boshqarayotgan Nasriddinbekning xohishi. Bir chovgun choy qaynaguncha chopqir otlar yo‘lga chiqsin. Yo‘l olis. Poyga Qizilrovotdan boshlanadi. E, xaloyiq, eshitmadim demanglar, eshitganlar qolmanglar.

Poyga muxlislari tashvishga tushib qoldi. Ba’zi birovlar otlarini chetga tortib, do‘st va qarindoshlari bilan maslahatlashib, o‘z arg‘umoqlarining baxtini Xudodan tilab, fotiha olishardi.

Modilning xayoli to‘riq qashqada edi. Zora biror yerdan daragi chiqib qolsa, deb chor atrofga qarardi. Modilning yuragi tuzday achishardi. “Ming qo‘yliga qashqir tegsa, bir qo‘ylik pichoq olib yugurar, deganday, yolg‘iz otimizni o‘g‘ri olganini qaramaysizmi?”

Bir do‘stining o‘g‘li otasining otini minib, u yoqdan-bu yoqqa yurarkan, birdan Modilni chaqirib qoldi:

— Hoy, Modil aka! Modil aka! Hoy, bu yoqqa qarang, ana to‘riq qashqangiz! Ana, ana!

Modil “to‘riq qashqa” degan so‘zni eshitdi-yu, yuragi duk-duk urib, ko‘zi atrofga alangladi. O‘g‘li g‘izillab yetib keldi:

— To‘riq qashqa!.. Bizning otimiz!..

Modilning tepa sochi tikka bo‘ldi:

— Qani? To‘riq qashqa-ya? Rostdanmi? Ey Xudoyim-ey!..

— Huv, ana. Kimdir poygaga qo‘shgani olib chiqdi. Modil bola ko‘rsatgan tomonga lapanglab yugura ketdi. Hamma o‘sha yoqqa qaradi. Modilning o‘pkasi to‘lib:

— E, Xudoyo Xudovando, bor bo‘lsang, shafqat qil — deb harsillab hech kimga qaramay yugurib borardi.

Rostdan ham chekkaroqda bir chavandoz bola kimxob yopqich yopilgan otni nari-beri yurgizib turardi. Qamish qulog‘i, yopqich popugi ochilsa, peshonasidagi tumorday qashqasi yarq etib ko‘zga tashlanardi. Dumi yaxshilab tugilgan. Rosa tobiga kelgan ot ti-pirchilab, o‘zini qushday sezardi.

Modil baqirib yubordi:

— Xuddi o‘zi! To‘riq qashqam... Ha, o‘zi! Qashqasini ko‘ring-lar! Yurishi, tumshug‘i, kiprigi o‘zginasi.

Otga yaqinlasharkan, og‘zidan bodi kirib, shodi chiqdi.

— Tush otdan, o‘g‘rining bolasi, onangni uchqo‘rg‘ondan ko‘rasan, — deb tizginga yopishdi. Chavandoz otga qamchi bosib ushlatmay ketdi.

— Ha? Kim o‘g‘ri?

— To‘xta! -dedi Modil orqasidan yugurib. — To‘xta, kim o‘g‘ri ekanligini senga ko‘rsatib qo‘yaman.

— Mana senga, — deb chavandoz bola egarning qoshini ko‘rsatdi.

Odamlar to‘plandi. Bir oqsoqol o‘rtaga tushdi:

— Ey, bola, bu yoqqa kel, — deb chaqirdi. — Kimning oti? — Chavandoz bola biroz cho‘chib:

— Do‘mbuniki, — dedi.

— Xonning tog‘asi Do‘mbumi?

Chavandoz bosh irg‘adi. Odamlar o‘rtasida gap-so‘z boshlandi.

— Yo, tavba, Sariboyning to‘riq qashqasi uning qo‘liga qayoqdan tushib qoldi?

Ungacha, bedovni poygaga qo‘shish oldidan ko‘rib qo‘yish uchun besh-olti kishi bilan Do‘mbu kelib qoldi. Otni o‘rab turgan odamlarni ko‘rib, Do‘mbu miyig‘ida kulib qo‘ydi.

— Bizning ot! E, sadag‘ang bo‘lay, ahli yurt, bu bizning to‘riq qashqa, — deb Modil hammayoqni boshiga ko‘tardi. Haligi oqsoqol:

— Ana, Do‘mbuning o‘zi. Baqirmay tur, anig‘ini bilaylik. Chindan seniki bo‘lsa... — deb yupatdi. — O‘g‘irlangan ulovni aniqlash qiyin emas...

Do‘mbu gap nima haqidaligini bilib rangi quv o‘chgandi.

— Ha, nima gap? Tinchlikmi, — dedi zaharxandalik bilan.

Modil borib otni tizginidan ushladi:

— O‘g‘ri! Biy bo‘lmay o‘l! O‘g‘ri... Otni ber! Otni!.. Do‘mbu qorayib ketdi:

— Ey... Og‘zingga qarab gapir, yalangoyoq, — dedi. — Qaydagi ot? Uni taniysanmi? Qasam urgur!

Oqsoqol o‘rtaga tushdi.

— Biy, Sariboyning to‘riq qashqa otini o‘g‘ri olgan. Buni siz, qolaversa barcha biladi. Otni egasi tanidi.

Do‘mbu:

— Beri kel, — chaqirdi chavandozni. — Otni bog‘lab qo‘y! — Keyin oqsoqolga qaradi. — Soqolingizni hurmat qildim, aks holda terisini shildirib, o‘ziga shoyi ko‘ylak kiygizardim. Ana, o‘rtaga bog‘lab qo‘ydim. Har kim o‘z molini taniydi. Basharti tanisa olsin...

Modil:

— Taniyman! Taniganim uchun aytyapman, — deb tutaqib otga yugurdi.

— Uni ushlanglar, — dedi Do‘mbu qahr bilan. Ikki yigiti Modilni otga yo‘latmay chekkaga sudrashdi.

Modil xijolat bo‘lib, Nasriddinbek turgan yerga jo‘nadi.

— Zo‘rlik! Muttahamlik bu... Boradigan yerga boraman, arz qilaman. Indamasa zo‘rlik ekan-da, a?!.

— Borsin, — dedi Do‘mbu ko‘zlarini olaytirib, — qo‘lidan nima kelardi?!

Jamoatning bir qismi Modilning yonini olishsa, ikkinchi qismi, “tag‘in yanglishib baloga qolmasaydi”, deb xavotirga tushishdi. Xolislik qilayotgan oqsoqol ham Sariboyning otini tanib, janjal nima bilan tugashini kutardi.

— Mayli, biy, borib kelsin-chi, — dedi Do‘mbuga.

Do‘mbu otning yoniga hech kimni yo‘latmay qo‘ydi. Borgan sari odam to‘planardi. Narigi tarafda otlarni ajratayotgan poygachilar ham to‘xtab qoldi.

Bir talay otliqlar ko‘rindi. Abil biy bilan bir necha kishi birga kelayotgan edi. Modil kuyib-pishib, Abil biyning uzangisidan ushlab gapirib kelardi:

— Sadag‘ang ketay, el og‘asi! To‘riq qashqaning o‘zi.

Nahotki o‘z ulovimni tanimasam? Zo‘rlik ham evi bilan-da? Bu Do‘mbu degan zot nima qilyapti axir?

— Assalomu alaykum, — salom berarkan, janjalga sababchi bo‘lgan ot qayoqdaykin, deb atrofga ko‘z yugurtirdi Abil biy.

— Biy! Meni o‘g‘ri qilishyapti. O‘zing xolis bo‘l. Xon qarindoshini bundan ortiq haqorat qilish mumkinmi? — deb atay kesatib gapirdi.

Abil biy sezib, bosiqlik bilan so‘rab-surishtirdi:

— Ot qani? — dedi-yu, nariroqda bog‘lanib turgan otni ko‘rdi. Uning qulog‘i va tuyog‘idan boshqa yeri yopqich bilan o‘ralgan edi. Biy Sariboyning to‘riq qashqa otini tanigani uchun zehn bilan qaradi.

— Ey, xon tog‘asi, o‘g‘ri bo‘lsang tutilasan. Topib olganman desang, tanib olganga berasan, — dedi Abil biy istehzo bilan. — Qoida va udum shunday.

Do‘mbu bo‘sh kelmadi.

— Tanimasa-chi? Bu tuhmat bo‘lsa-chi? — dedi ayyorlik bilan. — A? Ochiq ayt? Abil biy! Meni bunday tahqirlashlariga yo‘l qo‘ymayman, Abil biy!..

Bu namuncha hovliqmasa! Yoki rostdan ham Modil adashdimikin? Abil biy otga yana bir qarab oldi-da, u bechora Sariboyniki ekanligiga to‘la ishondi.

— Tuhmatchi jazosini oladi. Yalangoyoq bo‘lsa ham bari bir, — deb masalani ko‘ndalang qo‘ydi.

— Qo‘lingdan kelsa osmonni tashlab yubor, Abil biy! — dedi Do‘mbu va yigitlaridan biriga buyurdi. — Yopqichni olib tashla.

Yigit darhol otning egari bilan yopqichini oldi. Hamma jim bo‘lib qoldi. Odamlarning ko‘z o‘ngida qizil chavkar arg‘umoq turardi. Ikki ko‘zidan tinmay yosh oqib turgan Modil hang-mang bo‘lib qoldi. U o‘z ko‘zlariga ishonmasdi.

Do‘mbu:

— Bu yoqqa yetakla! Narigi tomonga buril. El ko‘rsin. Ot yo‘qotganlar tanib olsin! — deb kinoya qildi. — Ana, tanib ol, Abil biy!

Kelishgan qulonday qizil chavkar arg‘umoq o‘rtada nari-beri yurgizib ko‘rildi. G‘ala-g‘ovur bo‘lib ketdi. Xolislar ham, Abil biy ham lom-mim deya olmay qoldi.

Modil duduqlanib:

— To‘riq qashqa... To‘riq qashqa, — degan so‘zdan boshqa hech nima deya olmasdi.

— Ko‘zingga qarab da’vo qilmaysanmi, hoy? — deb Do‘mbu Modilni qamchi bilan boshiga ikki-uch tushirdi. — Mana sening jazong. Men birovni ayblab da’vo qilmayman.

Hafsalasi pir bo‘lgan Modil atrofga qarolmay, boshini qo‘li bilan berkitib o‘tirib qoldi.

— Buyam senga kam! He, uyati yo‘q, tuhmatchi, — dedi kimdir. Ayrimlarning ko‘nglidan: “Do‘mbuning qaerda chavkari bor edi? Uloqchi ot sotib olganligi to‘g‘risida hech qanday so‘z tarqalmagan edi-ku?” degan gumonlar kechdi.

Abil biy Do‘mbuning qora niyat bilan qilgan ishini darhol payqab, indamay asta ketdi...

Do‘mbu hamisha kishi bilmas o‘g‘rilik qilardi. Bir kuni tunda Sariboyning boquvdagi to‘riq qashqa otini qo‘lga tushirib, qil arqonni qozonda obdan sharaqlatib qaynatdirdi, so‘ng issiq arqonni otning bo‘ynidan sag‘risigacha mahkam aylantirib bog‘ladi. Ar-

qon tekkan joylar qizarib kuydi, to‘riq qashqa chinqirib kishnab, yiqildi va bir navi omon qoldi. Sovugach, arqonni olib tashlab, boshqatdan boquvga qo‘ydi. Natijada otning kuygan yerlari tulab, ko‘p o‘tmay arqon izlarining o‘rnidan oq jun o‘sib chiqdi. Qarabsizki, uch oy deganda to‘riq qashqa qizil chavkar arg‘umoqqa aylandi-qoldi. O‘shandan beri Do‘mbu hech kimga sezdirmay, ot ustidan yopqichni olmay sovitib, katta ma’rakaga olib chiqdi.

Qani to‘riq qashqa? Do‘mbuning bo‘yniga kim ayb qo‘yoladi? Abil biy bir yog‘i o‘zi bu tantanani o‘tkazayotganligi uchun turli mulohazaga borib tishini-tishiga qo‘ydi, ikkinchi tomondan, Do‘mbu xonning tog‘asi bo‘lgani sababli ginasini yuragiga tugib qo‘ydi.

Jarchi esa qizil chavkarni maqtab, qo‘shiq ayta boshladi:

Qizil chavkar arg‘umoq,
Xo‘p kelishgan yaxshi ot.
Qulundayin irgishlar,
Havas qilar odamzot.
Qamish quloq arg‘umoq,
Ikki ko‘zi shamchiroq.
Chopsang ko‘zlar yulduzni,
Uning tengi yo‘q, biroq...

Do‘mbu erib ketib, el oldida mardligini ko‘rsatmoqchi bo‘ldi.

— Mana, baxshi yigit, — deb o‘zi minib turgan otidan tushib, uning jilovini maddohga irg‘itdi-da, qamchinini sudrab ketdi. Maddohga ot maqtanish uchun kerak, xolos.

Chopqir otni, go‘zallarni, botirlikni, mardlik va adolatni azaldan xush ko‘radigan fuqaro qarsak chalib yubordi.

— Balli! Yigit bo‘lsa, senday bo‘lar! Balli! Maddoh sovg‘adan ruhlanib, Do‘mbuning orqasidan yurib, uni ko‘klarga ko‘tardi.

Asli botir Do‘mbu biy,
Nasli botir Do‘mbu biy.
To‘rt tomonni to‘rt chopgan,
Hech o‘ylanmay ko‘p chopgan.

Cho'ng bobosi qipchoqdir,
Jangar xonning bolasi.
Dushmanini dol qilgan,
Elu yurtni lol qilgan,
Bamisoli Hotam toy,
Tengi yo'qdir hoynahoy.

Do'mbu qayrilib qaramay, terisiga sig'may borardi. "Abil eshitib yorilib ketmasaydi", deb qo'ydi ichida.

O'sha uch yuzdan oshiq arg'umoq chopilgan kuni qizil chavkar poygada birinchi kelib Do'mbuning dong'ini olislarga yetkazdi.

Otini ko'zidan tanigan, yuragi o'rtangan Modil esa yorug' dunyodan zor qaqshab, poygadan kechib uyiga ketdi.

— Yurish-turishi, ko'zi, kipriklari xuddi o'zi! — dedi Modil tutaqib Sariboyga. — Yopqisi bor ekan, uni olishi bilan... Qizil chavkar...

Ko'pni ko'rgan Sariboy chuqur xo'rsinib, Do'mbuning hiylasini tushundi-da:

— Obbo, uying kuygur-ey... — deb so'kindi: — Mayli, bo'lar ish bo'ldi, ortiqcha tashvish qilma, — dedi ukasiga. — Yana biror kori hol bo'lmasin. Xudodan qo'rqmagandan qo'rq. Buni aqlli odamlar aytishgan.

IV

Xudoyorxon bir ming sakkiz yuz-u oltmish sakkizinchi yili Toshkentga general-gubernator huzuriga salomga bordi.

Abil biy amakisiga osh berib, shu bahonada o'rdadagilar bilan elat o'rtasidagi o'ziga bardam kishilar munosabatini yaxshiladi. Keyin u o'rdaga sovg'a-salom bilan kelganida xon unga zarbof chopon kiydirdi, dodxoh atab, general-gubernator huzuriga jo'nash oldida uni navkarlari safiga qo'shib oldi.

O'sha paytlarda qalqon bo'ladigan qandaydir bahona zarur edi. General-ad'yutant fon Kaufman xon va u bilan birga kelgan kishilarga izzat-ikrom ko'rsatgani oshiqdi. O'rdadagilar qonli to'qnashuvlarni, urishqoq generallarning tobora qisib kirib kelishi-

ni ikki oradagi niyati qora kishilarning g'alamisligi oqibati deb tushunib, bu ahvolni muzokaralar orqali hal etishga umid bog'layotgan edi. Fon Kaufman xonning gaplarini ixlos bilan tinglab, u bilan birga qayg'urib, bundan nari qonli to'qnashuvlarni Xudo bizga ravo ko'rmasin, dedi. Shu bilan birga Rossiya imperatori kichik bir Qo'qon xoni bilan urushish niyatida emasligini tushuntirib, qaytaga o'rdani ichki va tashqi dushmanlardan saqlashda hamisha yordam berajagini aytdi, xon tinchgina davr-davron surishi mumkin, deb ishonch bildirdi. Bordi-yu, xonga qarashli viloyatlarda o'rdaga qarshi qo'l ko'tarilguday bo'lsa, yoki shunga urinib ko'rilsa, butun Rossiya imperatori qarab turmasligini uqtirdi. Tomonlar tezda shartnoma tuzishga muyassar bo'lishdi. Shartnomaga ko'ra Qo'qon xonligining Toshkentga qadar bo'lgan yeri, suvi, eli Rossiya imperiyasi ixtiyoriga o'tkazildi. Xon hamda uning beklari Farg'ona vodiysiga ilmiy maqsadlarda kelgan qurolli kishilarning yo'lini to'smaslik, rus boylarining erkin savdo-sotiq qilishlari to'g'risida kelishib olindi. Nihoyat, qo'shni mamlakatlar bilan aloqa qilinadigan bo'lsa, u holda har ikki tomon maslahatlashib ish yuritishi kerak. General-gubernator Xudoyorxonning davlat boshqarishini, oliy darajasini har doim qadrlayajagini bildirdi.

Shu bilan Xudoyorxonning ko'ngli o'rniga tushdi. Go'yo o'z o'lkasining ichki-tashqi tashvishlaridan qutulganday, faqat o'rdani boshqarish erki o'lja bo'lib qolganday yengil qaytdi.

V

Birdan it hurib, otning tuyoq tovushlari eshitildi. Modil o'zi bilan o'zi ovora bo'lib, atrofga qaramadi.

— Ey, gunohkor banda, ko'tar boshingni.

Modil cho'chib ketdi. Boshini ko'tarsaki, ro'parasida qora otli kishi ko'zlarini chaqchaytirib turibdi. Oshiqib o'rnidan turdi:

— E, keling. Xon tog'asi, keling, — deb tert yopishgan qo'llarini yonboshiga artdi, otni jilovidan ushlamoqchi bo'ldi.

— Sening aft-angoringni ko'rgani keldik.

— Qani otdan tushinglar.

— Qani beshta ot?

Modil kalovlanib qoldi.

— O‘zingiz bilasiz, qo‘limiz qisqa... Bo‘lsa qarab turmasdik.

Qora otliq depsinib, baqirdi:

— Men qayoqdan bilay? Qachongacha kutamiz?

Modil o‘zini chetga oldi.

— Bo‘lsa-yu, bermasak boshqa gap edi...

Qora otliq so‘kinib yana intildi. Modil bu gal qochmadi:

— Yetar! Ot solmang! — deb g‘o‘ldiradi. — Kamsitish ham evi bilan-da. Xudoning ko‘rsatgan xo‘rliklari kammidi? Eplab-seplab qutulamiz...

— Eplab-seplab emish?.. Beshta otni sizlar otamning oshiga bermaysiz. Bu xonning solig‘i. Otlar xonga kerak. Sen eplab-seplab topguningcha xon qarab turadimi? A?

Pichoq borib suyakka yetgan edi. Modil tilini tiyib turolmadi.

— Qaerdan topay? Tug‘ib beraymi?

— Nima? Bu yalangoyoq nima deydi?

— Kim yalangoyoq? Xonning tog‘asini yaratgan Xudo yalangoyoqni yaratmaganmi?

— Ushlanglar uni, — dedi Do‘mbu. — Tilini buranglar.

Orqada turgan beshta yigit otdan darhol tushib, Modilga yopishdi. Lekin Modil ham qarab turmadi. Yerda yotgan so‘yilni olib ura ketdi. Lekin ular ko‘pchilik qilib Modilni bosib tepishdi.

Modilning xotini zor qaqshab, erining ustiga tashlandi. Yigitlardan biri uni olib irg‘itdi. Xotin o‘rnidan tura solib, tushayotgan qamchilardan erini himoya qilmoqchi bo‘ldi. Yigitlar er-xotinga baravar yopishishardi. Ko‘ylagi tamom yirtilib ketgan zaifa urg‘ochi qashqirday zo‘ravonlarning yuz-ko‘ziga chang solar, qo‘llarini tishlab olar edi.

Xotin kishining chinqirgan ovozi va to‘s-to‘polondan qo‘rqib, onalarining pinjiga kirib olgan bolalar yig‘isidan ovul oyoqqa turdi. Modil to hushidan ketguncha olishdi. Keyin uni yigitlar qo‘lini orqasiga bog‘lashdi.

Erkak zotidan faqat Sariboy bor edi. U tashqaridagi qiy-chuvni eshitib, o‘rnidan turmoqchi bo‘ldi. Biroq Suyumxon o‘zi yig‘lab turgan bo‘lsa ham erini aldab, eshikka chiqarmadi. Oxiri toqati toq

bo‘lgan Suyumxon devorda osilib turgan silovsin terisini yelkasiga tashlab eshikka chiqdi.

— Jonimiz sadag‘a, kechirim so‘raymiz, — deb xunibiyron yig‘lab Do‘mbuga iltijo qildi. — Yo‘qchilik ekan, xonning solig‘ini vaqtida berolmadik. Tinchlik bo‘lib tursa, besh xo‘jalikka beshta ot hech gap emas.

Qora otliq Suyumxonning gapini eshitayotgan bo‘lsa-da, ko‘zini yaltillab turgan silovsindan uzolmasdi.

— Bechora soliqdan qutulaman, deb erta-yu kech jabduq yasab, orom nimaligini bilmaydi.

U silovsinni qo‘liga olib yozar ekan, dumi yerga tegdi. Qora arg‘umoq teridan hurkib, quloqlarini chimirdi.

— Ovchining so‘nggi o‘ljasi edi. Oz bo‘lsa ham ko‘p o‘rnida ko‘rib, shuni olib keting. Bechoraga shafqat qiling, — deb Suyumxon o‘zini tutolmay ho‘ngrab yubordi.

— Sizlar jabduq yasab sotguninglarcha xon qarab turadimi?

Qora otliq Suyumxonga qarab bostirib keldi. U qamchi, tushishini kutib, yerga qarab turdi. Do‘mbu ayol kishiga qamchi urishdan hayiqdimi, jim bo‘ldi. Suyumxon boshini ko‘tardi.

— Botir! Qamchi ko‘tarmang. Xotin kishiga qamchi ko‘targanning boshidan davlati uchadi, — dedi hayiqmay.

— Astag‘furillo!

Qora otliq uzr so‘raganday, Suyumxonga boqib so‘radi:

— Burguti ko‘zini jarohatlagan ovchining xotini senmisan?

— Men.

— Hoy, zoti past! Mana shu ayolning hurmati uchun kechirdim. Eshitdingmi? Joning omonatga qoldi. Bir haftadan kechikmay soliqni to‘laysan. Eshitdingmi? Agar shunday bo‘lmasa, ovuldagilarning uvoliga qolasan.

Modil bu so‘zlarni eshitmadi. Uning qulog‘i shang‘illab, o‘zi bilan o‘zi ovora edi.

— Eshitdingmi? Kulingni ko‘kka sovuraman.

So‘ng qora otliq iziga qaytdi. Nimagadir silovsinga qaramadi. Nomus qildi shekilli. Yigitlari ham uning ortidan yo‘lga tushdi.

Xotinlar Modilning boshini ko‘tarishdi. Modilning iti egasi uchun go‘yo qasos olmoqchiday jon-jahdi bilan vovillab, qora

arg‘umoq orqasidan yugurdi. U otini shartta to‘xtatib burildi-da, birotar to‘pponchaning tepkisini bosdi. Qora qanjiq vang dedi-yu, yo‘lda sulayib qoldi.

* * *

Abil biy Modilning arz-holiga yaxshi tushundi. Sho‘rlikning yuz-ko‘zlari qamchi zarbidan shishib ketgandi. Labi yumilmaydi.

— Kim? — so‘radi Abil biy.

— Do‘mbu...

Bu nomni eshitgach, biyning ko‘zlari boshqacha tusga kirdi. Do‘mbu? Xonning tog‘asi-ya?..

— Qaysi gunohing uchun?

Modil cho‘k tushib, Abil biyning etagini o‘pib, yig‘lab yubordi.

Besh xonadondan iborat no‘yg‘ut urug‘ining ahvoli besh qo‘lday ayon. Biri ovchi, biri jabduq yasaydi, yana biri zarang kosalar ustasi. Sariboyni bo‘lsa, burgut ko‘r qildi. Buning ustiga tirikchiligining mazasi yo‘q. Xon tomonidan solingan beshta ot o‘lganning ustiga tepgan bilan barobar. Aka-ukalarning maqsadi — o‘zlari yasagan anjomlarni sotib soliqdan qutulish.

Bundan o‘zga chora bo‘lmagach, nima qilishsin? Aslida odamlardan soliq undirishni Abil biy Do‘mbuga topshirgandi.

Abil biy xo‘rlangani uchun chidamay yig‘lab o‘tirgan Modilning ahvolini yaqqol his qildi.

— Kim bor! — dedi Abil biy tashqariga qarab. Bo‘sag‘ada turgan yigit kirib, qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi

— Hech kim kirmasin... O‘zing ham bo‘sag‘adan olisroq tur, — dedi Abil biy.

— Xo‘p bo‘ladi, bek og‘a!

Biyning nigohi Modilning yirtiq yelkasiga, qon qotib qolgan ko‘ylagiga tushdi.

— Sadag‘ang bo‘lay, el og‘asi, u yangamga qamchi ko‘tardi. Bu ham yetmaganday, itimni otib ketdi.

— Quturib ketibdi. Xo‘sh, endi nima qilmoqchisan, Modil?

— Nima qilayin, el og‘asi?

— Obbo, oxirati kuygan-yey.

Modil bu dudmal gapga tushunmadi. Abil biy chap qo‘lini Modilning yelkasiga qo‘ydi. U ko‘ngli ko‘tarilganidanmi, yana yig‘ladi.

— Nima qilay, el og‘asi?

— Kekkayganga kekkaygin boshing ko‘kka yetguncha, deyishadi: O‘ch ol, Modilim! Oxiratgacha nima bor, nima yo‘q, kutib o‘tirmay, qasos olishing kerak.

— Qandoq qilib... el og‘asi, — deb javdiradi Modil. — Yaxshiligingizni unutmayman, o‘chimni olib bering. Mendan qaytmasa, Xudodan qaytar.

— O‘zing olasan.

Modil hayron bo‘lib qarab qoldi.

— Modil, ovchi akangni miltig‘i bormidi?

— Bor-bor... Akam burgut bilan ovora bo‘lib, miltig‘i unchalik uringan emas. Yangigina.

Biy miltiqni so‘rab qoldi, agar ish o‘sha bilan bitsa, yarasi yengil ekan, o‘yladi Modil. Hoziroq yugurib borib keltirib berishi mumkin.

— Hech miltiq otganmisan?

— Yo‘q, qayoqdan deysiz. Hozir olib kelayinmi, el og‘asi?

Abil biy uni tinchlantirgan bo‘lib, qo‘liga urib qo‘ydi.

— Ixlos bilan yig‘lasa, ko‘r ko‘zdan ham yosh kelur.

Otishni bilmasang, o‘rganasan. Quloq sol. O‘sha miltiqni o‘qlab yo‘lini to‘sasan.

— Kimning?

— Mendan yaxshiroq bilasan. — Abil biy Modilga tikildi. — Cho‘chima. Men seni erkak deb aytyapman. Azbaroyi rahmim kelganidan... Miltiqni o‘qlab, panada poylaysan.

Modil hang-mang bo‘lib qoldi.

— To‘satdan otasan, u otdan qulasa, o‘zingni yashir. Yonidagi yigitlari tumtaraqay qochadi. Fursatdan foydalanib, izingni yashirasan. Hech kim bilmasin. Hatto xotiningga ham aytma. Bu yog‘ini menga qo‘yib ber! Eshitdingmi? Men bor ekanman, xotirjam bo‘l.

Modil endi tushundi. U Abil biyga razm soldi. Biy uning dilidagini uqib, boshini irg‘adi.

— Men tayyorman!

— Axir birovning xotiniga qamchi o‘qtalsa, itingni otib ketsa, quturgani shu emasmi? O‘zing bir o‘ylab ko‘r. Shunday qil. O‘chni shu dunyoda olganing durust, Modilim.

— Xo‘p bo‘ladi. O‘ldiraman, — deb o‘rnidan qo‘zg‘algandi, Abil biy uni bosib qo‘ydi.

— Eng so‘nggi so‘zim, uning yo‘lini dehqonlarga yaqinroq yerdan to‘s!

Modil gapga uncha tushunmasa ham qaytaga ruhlanib minnatdorchilik bildirdi.

— Gap bitta! Dehqonlarga yaqinroq joyda ishni bitir. Sababini so‘rab o‘tirma. Basharti seni Do‘mbu o‘ldirsa, men kuyaman. Buni bilib qo‘y. Jo‘na endi.

— Xayr bo‘lmasa! — Modil oshiqib chiqib ketdi.

Modil Abil biy bizga azbaroyi joni kuyganidan shunday qilyapti, deb o‘ylab xursand bo‘ldi.

Abil biy yaqinda o‘rdaga borganida Do‘mbuni ham birga olib borgan edi. Chunki u xonning bobosi To‘xtanazarga uzoq qarindosh bo‘lsa-da, Xudoyor ularni iliq kutib, Do‘mbuni biyga soliqchi qilib berdi. Shu boisdan Do‘mbu hovliqib, kun sayin yangi bir hunar chiqarib, Abilning so‘zini goho inobatga olmay qo‘yardi. Tobora el o‘rtasida soliqchiga nisbatan norozilik kuchaydi. Har ikkisiga ham bir xil kuchga ega bo‘lgan yorliq berilgani biyning g‘ashini keltirardi. Xullas, Abil biy uning payini qirqish uchun qulay vaqt izlardi. Nazarida, o‘sha fursat keldi. Modilning kelishi esa unga ayni muddao bo‘ldi. U xamirdan qil sug‘urgandek ish bitishiga ko‘zi yetib, yengil nafas oldi.

— Kim bor? — dedi Abil biy kaftlarini bir-biriga urib.

Eshikdan xotini Qoraqosh oyim kirdi.

— Haligi sho‘ring qurg‘urga nima bo‘libdi?

— Ha, Do‘mbu ahmoq Bechora no‘yg‘ut urug‘i soliqni vaqtida to‘lamagan ekan, uni kaltaklabdi.

— Qo‘y, deb aytmaysizmi? Fuqarolaringizni bir chekkadan kaltaklatmay... — dedi Qoraqosh oyim qoshlarini chimirib.

Abil biy kulib qo‘ydi.

— Xonning tog‘asi-da...

— U xonning tog‘asi bo‘lsa, siz elning og‘asisiz. El sizga bosh egadi.

Abil biy ko‘z qirini tashlab, birdam indamay boshini qimirlatdi.

— Hechqisi yo‘q, bundaylarning jazosini Xudo beradi. Oyimcha, undan ko‘ra, eshikdagi yigitlarga chiqib ayting, no‘yg‘utlar nomidan beshta otni soliq to‘planayotgan yerga tezroq yetkazib berishsin. Keyin, o‘zingiz mening nomimdan salom aytib, no‘yg‘utlarga soliqdan qutulganligini xabar qildiring.

— Xo‘p, dodxoh. Bu savob ish.

— Shunday bo‘lsin.

* * *

— Tak! Tak! — dedi Gulkishi toyni bolalarday erkalatib, chilvirni uzunroq qo‘yib. — Tak, tak, to‘riq toyim. Obbo, tentak-ey, meni sudrab o‘ldirmoqchimisan?

Semiz to‘riq toy qulog‘ini chimirib, yo‘l chetiga qaradi. Changalzor orasidan kimningdir boshi ko‘rindi. Gulkishining yuragi shig‘ etdi.

— Kim bor?

— Men, Gul aka.

— Ha, sudralmay qol, Modilmisan?

Gulkishi uni imlab chaqirib, salom-alik qildi. Modil rangi o‘chib, bu yerda nima qilyapsan, desa qanday javob berishini bilmay turdi. Lekin oqsoqol undan gap so‘ramadi. Bugun Gulkishi juda xursand. Sababi, uzoq va og‘ir yo‘lni qisqa muddat ichida bosib o‘tgandi. U yengil tortib, yo‘l yoqasiga o‘tirdi.

— Bugun Bo‘zbuning narigi tomonidan yo‘lga chiqqan edim, — dedi quvonib u. — Xudo yorlaqab toyim bo‘sh-bayov ekan.

Modil undan qanday qilib ajrab ketishini bilmasdi. Garchand uning qulog‘iga gap kirmayotgan bo‘lsa ham Gulkishi bundan bexabar toyining yollariga qarab so‘zida davom etdi:

— Buyursa, yomon ot bo‘lmaydi. Qaragin-a, Modil, qaddi-qomatini, suyagi buzuq... Nima deysan? Ko‘mir tashigani emas,

jangga minadigan bo‘ladi, — Ularning ko‘zlari to‘qnashgach, Modil shunchaki boshini irg‘ab qo‘ydi.

— Kelgusi yilga minishga yaraydi. Yo‘q, minmayman. Yoshligidan minilsa, pachoq bo‘lib qoladi.

Modil chumchuq pir etsa, cho‘chib ketgan toyga tikilib, yuragi bezovtalandi, cholga zimdan qarab qo‘ydi. Modilning muomalasidan Gulkishining ko‘ngli to‘lmadi.

— Minishga yarasa bo‘ldi bizday bechoralarga.

Modil indamadi. Gulkishi hayron bo‘lib so‘radi:

— Hey, nega ranging bir ahvol? Bu yerda nima qilib yuribsan? Qayoqqa ketyapsan?

Bu savol Modilni gangitib qo‘ydi. U ko‘zini yumdi.

— Shundoq, Gul aka. Shu tomondan kelayotib, anavu yerda o‘tirib uxlab qolibman.

— Tunov kungi kaltakdan hali ham o‘nglanib ketmabsan-da?

Modil yerga boqib, “ha”, deb qo‘ydi. Gulkishi uni yupatguday boshqa gap topolmay, yana o‘z dardini aytdi:

— Esiz otim. Odamdan ham eslik edi, rosa mindim. Afsuski, Jomonqulning oshida zo‘riqib ketdi-da... Buyursa, bu ham undan qolishmaydi. Tekisroq yerda minib ko‘rdim, yomon emas. Yetovda qiynamadi. Omon bo‘lsak bo‘lgani. Bo‘ynini qara, naq bir quloch keladi-ya!

Modilning havasi kelib:

— Sotib oldingizmi? — dedi.

— Qayoqda. Bu o‘sha sariq otimning to‘lovi. Modil, ot charchaganda bir munkisa o‘rnidan turmas ekan. U yiqildi-yu, qaytib turmadi. Boshini quchoqlab o‘tiraverdim. Keyin orqadan bir to‘p ho‘kiz haydagan kishilar kelib qoldi. Men nima deyishimni bilmasdim. Chunki, notanish odamlar. Ular poygada qatnashmoqchi bo‘lganimni bilishdimi yoki rahmi keldimi, birovi uni bo‘g‘izladi. Yaxshigina go‘sht chiqdi. Bo‘lishib olishdi. Mening umidvor bo‘lib turganimni payqab: “Kelgusi kuzda Bo‘zbu tog‘ning kunbotar tomonidagi qishloqqa borib, Aqaboy degan odamni so‘raysan. O‘shanda shu do‘ppini berasan”, deb haligi odam do‘ppisini menga qoldirib ketdi.

— Bu nimasi?

— Men qayoqdan bilay. Hayron bo‘lib qoldim. Xuddi shayton do‘ppisini ushlatib qo‘yib, o‘zi g‘oyib bo‘lganga o‘xshardi.

— Do‘ppini nima qildingiz?

— Bir boshdan aytib kelyapman-ku. Tunov kuni kampir yamoq xaltasini titkilib o‘tirib, bir do‘ppini oldi-yu, uni yuvib katta o‘g‘ilga kiygizib qo‘ymoqchi bo‘ldi. Shunda yalt etib o‘sha voqea esimga tushdi. Bu axir bulturgi do‘ppi-ku. Tavba, yodimdan ko‘tarilgan ekan. Xuddi o‘zi-ya. Bir kuni tavakkal deb yo‘lga chiqdim. Bu haqda xotinga ham aytmadim. Borsam, uni qishloqdagilar yaxshi tanirkan. Aqaboy uloq so‘yib mehmon qildi. Nima derdim? O‘lgan otni da’vo qilish insofdan emas. Bir mahal, qani mening do‘ppim, deb so‘rab qoldi. Berdim. Keyin: “Otingni to‘rtta uloq qildim, ularni esa toyga almashtirdim. Sen xotirjam bo‘l, bizning elimiz azaldan bir-biriga do‘st, hamkor. Ora yo‘lda qoldirishmaydi”, deb chilvirni qo‘limga tutqazdi.

Modil Gulkishining gapini tinglab o‘tirib, Do‘mbuni esladi. U zanchalishning qilgan ishini o‘ylab yanada qahri qaynadi. Gulkishi esa Modildan ko‘nglini ko‘targuday biror so‘z aytar, deb umidvor bo‘ldi,

— Ranging sarg‘ayib ketibdi, — dedi Modilga engashib qararkan, sabri tugab Gulkishi. — G‘aribni shunchalik xo‘rlash insofdanmi?

Modilning yuragi ezildi. Ich-ichidan Do‘mbuga nisbatan g‘azabi oshdi. Abil biyning gaplari unga dalda berdi. Xudoning xohishisiz hatto cho‘p sinmaydi. U xo‘rsinib dedi:

— Gul aka, bir kam dunyo ekan. Boyga keng-u, kambag‘alga tor ekan.

— E, Modilim... Qo‘limizdan hech ish kelmaydi. Nima ham qilardik? Undan ko‘ra biz tomonga bor, bir-ikki chaksa don qilib beraman. Go‘sht bilan kulchatoyga to‘yib, besh-olti kun o‘zingni parvarish qilmasang, holing xarob...

Modil burnini tortib, kiprigini pirpiratib jim o‘tiraverdi.

— Hech gap emas, bir-ikki chaksa donni uzishib ketarmiz, — deb uning qo‘lidan tortdi. — Xijolat bo‘lma, Sariboy bilan yaxshigina bordi-keldi qilib turardik. Uning ahvoli nechuk?

Modil zil ketib, “yomon emas”, deganday boshini irg‘ab qo‘ydi.

— Shunday qil. Yur, bir emas, uch chaksa don topib beraman.

— Rahmat, Gul aka! Yaxshi so‘z — jon ozig‘i.

— Ey, ishonmayapsanmi? Yur, topib beraman. Beknazarga uchraymiz. Do‘mbudan o‘chingni olib beradi. Bilasanmi, u Do‘mbuning og‘ziga qaynoq temirni bosib oladi.

Modil unamadi. Uning yodiga Abil biy tushdi. Biyga bergan so‘zini bajarishi kerak.

— O‘zing bilasan, — dedi Gulkishi. — Hech bo‘lmasa bir oz tolqonlik olib kelasan.

— Uyga borib, ulov olib borarman, Gul aka. Oh, — deya u aftini burishtirib o‘rnidan turdi.

— Mayli, ulov-ku topilardi-ya. O‘zing bilasan. Xayr bo‘lmasa.

— Xayr!

Gulkishi toyini yetakladi. No‘yg‘utlarga rahmi keldi. Ha, ularga yomon bo‘ldi. Agar Beknazar bo‘lmasa, besh-o‘n uyli dehqonning holi xarob bo‘lishini ko‘z oldiga keltirdi.

Gulkishi bir oz yurib ortiga qaradi. Modil o‘rnida serrayib turardi. Buni payqab u yura boshladi. So‘ngra changalzor tomonga burilib, yerga engashdi. “Bechora suyangani tayoq olyapti shekilli”, deb o‘yladi Gulkishi. Modil ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Gulkishi uzoq tikildi. U ko‘rinmadi. “Sho‘rlik o‘lib-netib qolmasaydi...” deb Gulkishi yo‘lga tushdi.

VI

Ufq lolagun. Tegirmon guvillardi. Oyzoda yuzini tizzasiga qo‘yib, botib borayotgan quyoshga boqardi, suvning shovillashiga quloq tutardi. Novdan zarb bilan tushayotgan suv tomchilari olmos zarralariday tovlanardi.

Eshim parraklarga o‘rilib chiqqan suvning narigi qirg‘og‘iga kelib, qo‘lini yuvdi va xayolchan o‘tirgan yangasidan so‘radi:

— Yanga, nimaga o‘ylanib o‘tiribsiz, — deb kulib, suv sochib yubordi.

Oyzoda seskanib, qo‘li bilan o‘zini to‘sdi.

— Voy, o‘lmasam. Hoy bola, ko‘ylagimni ho‘l qilasan, — deya qiqirlab kuldi. — Meni xayol surmagan kunim bormidi. Bilmaganday so‘raysan-a?!.

— Yanga, kulgi sizga juda yarashadi-da.

— Shundaymi? — Oyzoda yutinib qo‘ydi. — Ayrimlar meni tund deyishadi-ku?

— Kim aytsa bekor gap. — Eshim o‘rnidan turdi. Rangi oqarinqirib ufqqa boqdi. Tegirmon guvullardi.

— Yur, bolakay. Tegirmondan xabar olaylik. Eshitgin-a, don ozaydi shekilli, tosh taraqlab qoldi.

Eshim sakrab ariqdan o‘tib, Oyzoda bilan tegirmonga kirdi. Ikkovi engashib chanoqqa qaradi, Eshim do‘lni sal bosib, donni ko‘paytirdi.

— Yanga, ko‘p qilsam, un yirik bo‘lib ketmasmikin?

Oyzoda unni olib ko‘rarkan:

— Bir oz tortib qo‘y, Yana kampir, bug‘doyni yarma qilib kelibdi, deb meni ilonday chaqib olmasin.

— Unda shunday qilsam bo‘ladimi?

Oyzoda chaqildoq ovoziga mahliyo bo‘lib, oppoq unga to‘lib borayotgan xampadan ko‘z uzmasdi. Tegirmon ichiga qorong‘i tushib, Eshimning burni, lablari eshik tirqishidan tushayotgan nurda arang ko‘rinardi. Tegirmon hamon bir maromda guvillardi.

— O‘t yoqaylikmi, yanga?

— Nima deding, bolakay?

— Ut yoqaylikmi?

— Ha, mayli.

Ular qari shotut tagida gulxan yoqib o‘tirishardi. Qorong‘ida soyalar ajabtovur shakllarni eslatib, goh uzayib, goh qisqarardi. Sukunatni baqaning vaq-vaqigina buzardi. Eshim bir cho‘pni yondirib, mash’ala qildi.

— Yanga, siz mana bu mash’ala bilan tegirmondan xabar olib chiqing. Men hozir...

Oyzoda qo‘rqa-pisa ichkariga kirdi. Go‘yo birov berkinib turganday uni vahima bosib, qayta tashqariga chiqdi. Eshim tezda bir qo‘ltiq o‘tin ko‘tarib keldi.

— Nimaga kirmayapsiz?

— Qo‘rqyapman, — dedi kulib Oyzoda.

Tosh g‘irillab, oyoq ostlari bilinar-bilinmas titrardi. Kichkina mash’ala tosh atrofini arang yoritardi. Tegirmon ham o‘z ashulasini aytib, betinim guvillardi...

— Yanga, yana sovuq yeb qolmang, bu yil sumbula ertaroq tushadi shekilli, — deb choponini yechib, uning yelkasiga tashladi. — Yopinib o‘tiring...

— Qo‘y, bu nima qilganing? O‘zing sovuq yemaysanmi? — u shunchaki noz qildi. Eski chopondan anqigan erkak kishining ter hidlari Oyzodaning ko‘nglini bir oz alag‘da qildi. Eshim unga yaqinroq keldi. Oyzoda cho‘chib ketdi.

— Bolakay... Nari o‘tir... — dedi jilmayib. — Birov ko‘rsa nima deydi?

Eshim juvonning mehri tovlanganini payqadi.

— Axir yangamsiz! — deb hazilga olib, belidan tortib qo‘ydi.

Oyzoda qarshilik ko‘rsatmadi.

— Shundayku-ya... — U erib borardi. Bir-biriga suyanib jim o‘tirib qolishdi. Olov miltirardi. Eshik shirt etganday bo‘ldi. Oyzoda irg‘ib tashqariga otildi. Hech kim yo‘q. Tun sokin.

— Kim kelmoqchiydi. — dedi Eshim. Oyzoda javob bermay, ariq yonidagi qurigan xashak ustiga o‘tirdi. Eshim chopon bilan uni o‘rab, o‘zi Oyzodaning yoniga chalqancha yotdi. Guv-guv. Shov-shuv. Tegirmon shovqini bilan suvning shovullashidan boshqa hech narsa eshitilmaydi. Eshim osmonda qalqib borayotgan oyga uzoq tikilib yotdi. Oyning suvga tushgan aksi dumaloq boshli ilonga o‘xshab to‘lqinlar osha sakraydi.

— Yanga, — dedi Eshim to‘lg‘anib, — ertak bilasizmi?

— Nima deysan, yigitcha?

— Gapirib o‘tiring.

— Nimani ham gapiray?

— Biror narsani.

— Axir sen erkak kishisan, o‘zing so‘zlab ber.

— Menmi? — Eshim xayolga botdi. — Him, men nimani aytsamikin?

— Hoy yigitcha, — dedi Oyzoda, — hozir bekinmachoq o‘ynasa bormi?

— Yorug‘-da, ko‘rinib qoladi-ku?

— Ko‘ringani yaxshi. Tezroq topib oladi. Shunisi zo‘r... Chop-qillab... yetib olib... Eh, u kezda qirq kokil qiz edik...

— Hozir ham qirq kokil qizdaysiz, yanga.

— Hazillashma.

— Menga shunday ko‘rinyapsiz.

— Eh qaynim... — Oyzoda choponga o‘ranib asta gapirdi. — O‘sha paytlar umrning bahori ekan. O‘yin-kulgi, shirin orzu... Yorug‘ dunyoda bulardan boshqa azob, ayriliq zaharxanda gap, o‘lim borligi hech yodimizga kelmagan edi.

Oyzodaning so‘zlari Eshimni o‘yga toldirdi. Ko‘z oldida qunduz telpak kiyib, jig‘a taqqan, qaddi-basti barkamol Barchin namoyon bo‘ldi. U ko‘zini ochib, yonida baxtini oltin tangaday qo‘lidan tushirib yuborgan, choponga o‘ranib o‘tirgan go‘zal qizni ko‘rdi.

— Yanga, siz bekinmachoqni yaxshi ko‘rar ekansiz. Menga esa do‘ppi berkitar o‘yini bo‘lsa.

— Balo ekansan... Yomon o‘yin emas, — dedi Oyzoda. — Agar shum yigitlar do‘ppini izlab qizlarning qo‘yniga qo‘l solishini hisobga olmasa...

— O‘yinning qizig‘i shunda-da!

Oyzoda kulib qo‘ydi. Ular allamahalgacha churq etmay o‘tirishdi. Tobora salqin tushib, maysalarga shudring ina boshladi. Tegirmon bir maromda guvillardi. Oy og‘ib, anhordagi suv qorayib qoldi.

— Yigitcha, sovuq yemadingmi? Ma, choponingni ol. Men tegirmonga kirib o‘tiraman.

— Yo‘q. Yopinib o‘tiravering, yanga.

— Yuragingda o‘ting bor-da! — deb Oyzoda xandon otib, choponning bir uchini Eshimning ko‘kragiga tashladi. Eshim yaqinroq surilib qo‘lini uning ko‘kragiga uzatdi. Oyzodaning qo‘l-oyog‘i qaltirab, qarshilik ko‘rsatolmadi. Erkak kishini sog‘inib qolgani uchunmi, bir muddat tek qo‘yib berdi. Yoshlik g‘ayrati to‘lib-toshgan Eshim mahkam quchoqlab, o‘pib-o‘pib oldi. Erkak kishining ter hidi uni mast qilgan edi...

— Yi-git-cha... O‘rgilib ketay... — Oyzoda qo‘llari tolib ketgan bo‘lsa-da, Eshimga astoydil chirmashib, bo‘ynidan to‘yib-to‘yib hidladi. Keyin aqli-hushini yig‘ishtirib, o‘zini qo‘lga oldi

va Eshimni ag‘darib turib qochdi. Eshim ham unga osilib o‘rnidan turdi.

— Qoch nari!

Eshim izza bo‘ldi. Oyzoda o‘tirib yig‘lab yubordi. Eshim xijolat bo‘lganidan hech nima deyolmay turardi. Oyzoda yerda yotgan ro‘molini olib, ko‘zini artdi.

— Yomon yigit ekansan, bolakay, — deb oy yorug‘ida kulganday bo‘ldi. Eshim kulishini ham, yig‘lashini ham bilmasdi.

— Odamni mol qatori ko‘rar ekansan, — dedi Oyzoda.

Bu gapdan u yerga kirib ketguday bo‘ldi. Tegirmon guvillab, suv shovqini tun bag‘riga singib borardi. Oy nursizlanib, ariqdagi shu’lalar o‘rnini qora parda bosa boshladi...

* * *

— Eshitdinglarmi, xonning tog‘asi Do‘mbuni otib qo‘yishibdi.

— Obbo, kim?

— Kimligini hech kim bilmaydi. Do‘mbuning ukasi Tultemir otgan odamni o‘lasi qilib kaltaklab, otga sudratib Abil biyning eshigiga olib kelibdi.

Bu gap atrofga yashin tezligida tarqaldi. Xonning tog‘asini o‘ldirgan kishini ko‘rish uchun odamlar Abil biyning qishlog‘iga kela boshladi. Biy hovlisida keldi-ketdining keti uzilmasdi. O‘rtaga bir kishi bog‘lab qo‘yilgandi. Yalang‘och bandi ko‘zini ochmay o‘qtin-o‘qtin ihrardi.

— Suv, — dedi u. Hech kim suv bermadi. Kelganlar uni tomosha qilib o‘tirishardi. Uning basharasi dabdala edi, Hozirgina otdan tushgan odamlar o‘zaro shivirlasha boshlashdi:

— Ey, bu... Beknazar botirning qarindoshi Gulkishi emasmi?

— To‘g‘ri, o‘sha. Do‘mbuda ularning qanday qasdi bor ekan?

O‘sha kuni Gulkishi toyini o‘tlatib yurgandi. Yo‘l tomondan qars etgan miltiq ovozi eshitildi. Atrofda qiy-chuv boshlandi. Biror ishkal chiqmasin, deb u toyini qamishzorga yetakladi. Kimdir “to‘xta” deganday bo‘ldi. Ko‘p o‘tmay; “Qayoqqa qochib ketyapsan, he onangni...” degan so‘kinishni eshitdi. “Og‘zingga qarab gapir”, deyishi bilan ikki-uch yigit uni kaltaklab, otga

o‘ngarib, Abil biyning uyiga olib keldi. Shu yerda u sal es-hushini yig‘di.

— Hoy, xon tog‘asiga sen qo‘l ko‘tardingmi, Gulkishi? — dedi hayron qolib Abil biy. Gulkishi biyni ko‘rib, haqiqat qaror topar degan o‘yda:

— He, onasini... o‘sha Do‘mbuni. Menga qolsa, ikki marta o‘lmaydimi? Menga nima? — deb so‘kindi. Biyning yonida turgan Tultemir sopiga qo‘rg‘oshin quyilgan qamchisi bilan Gulkishining boshiga urdi, Gulkishi jonholatda etagiga yopishdi. Qamchi yana tushdi. U hushidan ketdi.

— Seni otdi deyishyapti. Ko‘rgan odamlar bor emish. Rostini ayt. Xudo barhaq ekan, yashirma, Gulkishi, — dedi Abil biy. Gulkishi ikkinchi marta hushiga kelib, ko‘zini ochdi va jahli chiqdi.

— Biy, mening odam o‘ldirishimga ishonasanmi? — Abil biy indamadi. Gulkishi titrab-qaqshab: — A? Ayt-chi? Basharti ertaga bo‘shasam, odamlar meni seni otdi deyishsa, shunga ishonasanmi?

Tultemir yana qamchisini qo‘liga oldi. Abil biy ortiga qaytayotib:

— Bo‘ldi. Ko‘p urma. Uni yo‘qlaydigan odamlari bor, — dedy va Beknazarga odam yubordi.

Vaqt tushdan og‘ib ketsa hamki, Beknazardan darak yo‘q edi. Gulkishi og‘riqdan badanlari zirqirab yerda yotardi. Beknazar kechikkan sari Tultemir quturardi. Hatto qariyalarning so‘ziga quloq solmasdi.

— Biz ham odammiz. Ularning dodini beramiz. Odam o‘ldirishni ko‘rsatib qo‘yamiz.

Oqsoqollar har xil mulohazaga borib, indamay o‘tirishardi. Beknazar kelsa, nima bo‘lishi noma’lum edi.

— Unchalik emas, botir, — dedi Abil biy. — Gulkishining otganiga ishongim kelmayapti.

— Nahotki? Men ishonaman. Buni Beknazar uyushtirgan.

— Ko‘z bilan ko‘rmay turib, falonchi deyish aqlga sig‘maydi, Bo‘lar ish bo‘ldi. Surishtiraylik, aniqlaylik. Gulkishidan uch marta so‘radik. Agar uni otayotganda ushlaganingda boshqa gap edi...

— Yo‘q, shu otgan. Miltiq gumburlaganda biz Do‘mbu akam bilan ovora bo‘lib qoldik. Keyin Gulkishi qamishzorga qochib borayotganini ko‘rdik.

Shu payt Tultemirning yigitlaridan biri yugurib kelib xabar qildi:

— Beknazar kelyapti!..

Tultemir qamchisini buklab ijirg‘anib o‘rnidan turdi. Abil biy qo‘zg‘almadi. “Qani, botinsa Beknazarni urib ko‘rsin-chi”, deb ko‘nglidan o‘tkazdi.

Beknazar, Eshim ikkovi kirib keldi. Ular qovog‘idan qor yog‘ib, salomga ham alik olmay, Gulkishini izlashdi. Qoziqda bog‘lanib yotgan odamni ko‘rib, otdan sakrab tushishdi-da, unga yaqinlashib, boshini ko‘tarishdi.

— Gul aka, Gul aka, hoy, Gul aka, — dedi asta Beknazar.

Gulkishi kim chaqirayotganligini aniq bilmay ingradi:

— Suv bormi? — dedi Beknazar. Kimdir bir piyola suv keltirdi. Suvni og‘ziga tutdi. Labiga muzdek suv tegishi bilan yutinib, bir-ikki ho‘plab ichgan bo‘ldi. Sal o‘ziga keldi. Beknazar qolgan suvni yuziga sochdi. Gulkishi seskanib ko‘zini ochdi.

— Gul aka, — dedi Eshim engashib. Gulkishi xo‘rsinib:

— Ha! - dedi-yu, yana ingrab ko‘zini yumdi. — Aytdim-ku, Do‘mbuni nega otarkanman deb? Hoy Beknazar! Keldingmi, Beknazar? Buni qaramaysizlarmi?

— Keldim, Gul aka! Men Beknazarman!

Gulkishi javob bermay bilinar-bilinmay nafas olib yotib qoldi. Beknazar tomirini ushladi. Zo‘rg‘a urib turardi. Kaltak jonidan o‘tgan edi. Beknazar o‘zini tutolmay, o‘rnidan sakrab turdi.

Shu mahal Tultemir uning yo‘lini to‘sdi.

— Ha, qilg‘ilikni qilib qo‘yib endi... — dedi.

Ko‘zlariga qon to‘lgan Beknazar qilichini sug‘urib Tultemirga tashlandi, bir silkib chap qo‘li bilan qamchinini tortib oldi. Tultemir Abil biyning qo‘rg‘onini aylanib qocha boshladi.

— E, o‘sha otangni... Xonning tog‘asi emas, og‘asi bo‘lsa ham kallasini olaman. Do‘mbu emish! Iflos!

Xuddi shu yerda seni o‘ldirib, hamma gunohni bo‘ynimga olaman. — Tultemir qochib borayotgan edi, Beknazar qilich ser-

pib choponining ikki etagini uzib tashladi. U Abil biyning oldiga zo'rg'a qochib kirdi.

Turganlarning kapalagi uchdi. Abil biy eshikka chiqmadi. Beknazar o'zini bosib, salom berib uyga kirdi. Biy shunchaki alik oldi. Beknazar poygakka cho'kkaladi.

— Biy, — dedi u shoshilmay, — mening qo'y og'zidan cho'p olmagan qarindoshim huzuringizga kelib qolibdi. Agar aybi bo'lsa, aniqlab bo'yniga qo'ysanglar. Bo'lmasa, behuda azob berganlar bilan o'zim hisoblashsam, deb keldim.

— To'rga o'tir, botir, — dedi Abil biy. Beknazar o'rnidan qimirlamadi. Biy ham uni boshqa qistamadi.

— Botir, Do'mbuni kimdir o'ldirib ketibdi. Shunga Gulkishini gumon qilyapmiz. Tultemirning aytishiga qaraganda, qotil Gulkishi ekan. Nima qilamiz? Boshim qotdi. Ishonmayin desam, xonning tog'asidan ajradik...

Beknazar endi o'zini tiyolmadi.

— Do'mbuni o'ldirgan boshqa odam. Uni o'zingiz yaxshi bilasiz. Bordi-yu, birov menga qasd qilib shu ishga qo'l urgan bo'lsa, bunga Gulkishini aralashtirmay, meni gunohkor qilsin. Do'mbuni boshqa birov o'ldirgani aniq. Bizning esa u bilan talashib-tortishgan yerimiz yo'q edi!

Abil biy ahvolning bu darajaga borib yetishini bilmagandi. Shuning uchun qiyin ahvolda qolgan biy janjalni bosish yo'liga o'tdi.

— Tultemir, bo'lar ish bo'ldi. Ko'rib-bilib turibmiz, Do'mbuni o'ldirib ketishdi. Ammo kim otganini aniq ko'rgan guvoh bormi? Hozir dala-tuzda tentigan odamdan ko'pi yo'q.

— Beknazar, sen ham o'zingni bos. To'g'ri, Gulkishi ko'p kaltak yedi. Bu albatta jon achchig'i. O'zing yaxshi bilasan, odam alamzada bo'lsa, nimalar qilmaydi? Hechqisi yo'q. Semizroq qora qo'yni so'yib, terisiga Gulkishini o'rab qo'y. Sog'ayib ketadi.

O'tirganlar biyning gapini ma'qullashdi. Beknazar rahmat aytib, ishning bu qadar yengil ko'chganidan xursand bo'ldi.

— O'lganga qiyin ekan, — deb ming'irladi Tultemir.

— Nafasingni o'chir! — dedi Abil biy. — Do'mbu birgina sening emas, hammamizning eng yaqin qarindoshimiz edi. Iloj

qancha? Undan ko‘ra sen ma’rakasiga tayyorlan. Eson-omon marhumni joyiga qo‘yaylik, keyin qotilni izlab topamiz.

Tultemir jim bo‘ldi.

Beknazar Abil biyga minnatdorchilik bildirib, o‘rnidan turdi. U eshikka chiqqanda, ikki-uch kishi yugurib oldiga peshvoz keldi. Beknazar indamay qilich bilan arqonni kesib, Gulkishini bo‘shatdi.

— Chakmonga o‘ra, — dedi Eshimga. Gulkishini chakmonga o‘rashdi. Beknazar qora qashqa arg‘umoqqa mindi. Gulkishini unga o‘ngarib berishdi. Bemor ingrardi. Beknazar hech kim bilan xayr-xo‘shlashmay otga qamchi bosdi. Eshim yo‘l-yo‘lakay Gulkishining etaklarini o‘rab ko‘maklashib bordi. Hamma og‘zini ochib qolaverdi.

— Qarindosh bo‘lsang, shunday bo‘l! Yasha, Beknazar, — dedi shu mahal kimdir.

— Beknazar shunday qilmasa, ertaga boshqalarga gapi o‘tarmidi? Mana endi Gulkishi ham Beknazar botirning aytganidan chiqmaydi. Qarindosh-urug‘ degan bundoq bo‘libdi! — dedi yana birov.

Beknazarlar ancha olislab ketishdi...

VII

Kech kuz...

Nasriddinbek qirq sipohiysi bilan tasodifan Abil biyning qishlog‘iga kelib tushdi. Kim chaqirdi? Abil biy hayron. U tezlik bilan maydonga o‘nga yaqin o‘tov tiktirib, yigitlarini joylashtirdi. Nasriddinbekni o‘zining uyida qadrli mehmon sifatida izzat-ikrom bilan kutdi. Lekin bu gal shahzoda negadir kelgan-ketganlarga ochilib-sochilib gapirmasdi.

Salom-alikdan keyin shahzoda jiddiy so‘radi:

— Abil biy, mening jonajon tog‘am qayda? O‘tirganlarning nafaslari ichlariga tushib ketdi. Biy boshini quyi egdi.

— Xo‘sh, biy, mening tog‘am ko‘rinmaydi?..

— Shahzoda, — dedi Abil biy g‘amgin. — Sizning tog‘angiz, bizning eng yaqin qarindoshimiz, Do‘mbu rahmatlik bu dunyodan yuz o‘girib, bizni tashlab ketdilar.

O‘tirganlar bir qimirlab qo‘yishdi. Bu Do‘mbuning o‘lganiga achinishdan emas, balki Nasriddinbekka gap topib aytganligi uchun Abil biyga tan berganlaridan edi.

— Shundaymi? — Nasriddinbek o‘tirganlarga qarab qo‘ydi. U oldingi yillarga nisbatan ancha to‘lishgandi, qora mo‘ylovi uni yanada savlatliroq qilib ko‘rsatardi. Uning chap yonida sopiga gavhar qadalgan, qini uchiga kumush poynak o‘rnatilgan egri qilich bor edi. — Ayt-chi, biy, o‘z ajali bilan o‘ldimi?

Shahzodaning bu qadar so‘rab-surishtirishi Abil biyni bir oz cho‘chitdi.

— Jiyan! Do‘mbu tog‘angiz Xudoning ajali bilan qazo qildi. Karami keng Tangri ajalni birovga o‘qdan, birovga o‘tdan, boshqaga esa yostiqdan buyurar ekan. Afsuski, tog‘angiz daydi o‘qdan o‘ldi. Xudoning buyurgani shu ekan, nima ham qilardik?

O‘tirganlar ko‘ngil ko‘targan bo‘lishdi. Nasriddinbek gapirmoqchi bo‘lgan edi, keksa maslahatgo‘yi qo‘li bilan ishora qilib, uni bosib qo‘ydi. Abil biy sir boy bermay so‘zida davom etdi:

— Sevimli kishimizdan ayrilib ko‘p yig‘ladik, kuydik. Ammo o‘lganni qaytib tiriltirib bo‘lmas ekan. Ilojimiz qancha? Joyi jannatda bo‘lsin.

Xon va uning erka farzandlari xalq boshiga qanchalik jabr-u jafo solganini Abil biy yaxshi bilardi. Yaxshi bilgani uchun ham Do‘mbuning o‘limini xaspo‘shlashga majbur bo‘ldi. Ana shu yo‘l bilan taxtdagilarda boshqacha fikr tug‘dirmaslikka harakat qildi. “E, oxirati kuygan bandalar, Norbo‘ta biy qirg‘iz, qipchoqqa boshpana bo‘lsin, deb tiklagan imoratni yondirib yuborishadi, bu esipast xotinbozlar”, — biy zaharxandalik bilan xiyol jilmaydi. Nafsilamrini aytganda, Do‘mbu o‘lgandan so‘ng Abil biy o‘rdaga chuqur qayg‘u bilan xabar yo‘lladi, elni to‘plab, marhumning mol-mulkini o‘rda xazinasiga o‘tkazdi, xonning nomiga dog‘ tushirmaslik uchun barcha chorani ko‘rdi.

Biror tugunning yechilish-yechilmasligi qari maslahatchiga bog‘liq ekanligini Abil biy endi aniq his qildi. Chunki, bu ayyor odamning vazifasi qilich bilan botirlik qilish emas, balki juda ehtiyotkorlik, muloyim muomala, shariat qonun-qoidalari bilan fuqarolarning oyog‘ini tushovlab qo‘yishdan iborat edi.

— Xafa bo‘lmang, biy, — dedi maslahatchi, — jiyaningiz jonajon tog‘asiga kuygani uchun qattiqroq gapirib qo‘ydi shekilli. Yosh-da... Kechirasiz. Nima ham qilardik? O‘lgan o‘lib ketdi. Siz bilan biz tiriklar osoyishtaligini o‘ylamog‘imiz lozim.

Abil biy o‘ziga keldi.

— Bu boshqa gap.

Nasriddinbek Abil biyning uyida ko‘p turmay, yigitlarining oldiga borib: “Qotilni qaerdan bo‘lmasin topasizlar!” — deb buyruq berdi.

Qishloqda duv-duv gap tarqaldi. El Abil biyga biror korhol bo‘lmasaydi, deb turli-tuman gaplarni to‘qib-bichishardi. Uzoq-yaqindagi ovullardan boylar, oqsoqollar kelib, biydan hol-ahvol so‘rashardi. Ammo Abil biy sir boy bermay, hammaga bir xil muomalada bo‘lardi.

Nasriddinbek kunora kelib, yigitlari holidan xabar olib turardi. Mehmondorchilik o‘z yo‘li bilan borardi. Har kuni qo‘rboshi besh-olti yigiti bilan qishloq aylanib, qotilni izlashardi, agar topilmasa, ovulni xonavayron qilishlarini aytib, ot o‘ynatib qaytishardi.

Beknazar qo‘shni qishloqda yuz berayotgan ishlardan xabar topib, Eshimni Abil biyning oldiga yubordi. Biy Eshimning so‘zlarini eshitib kulimsiradi. Qariya maslahatchi qimiz elitgani uchun qo‘sh yostiqqa yonboshlaganicha mudrardi. Abil biy Eshimga dedi:

— Beknazar botirga ayt, u bor ekan, meni chumchuq ham cho‘chitolmaydi. Sizlar mening suyangan tog‘imsizlar.

Eshim yana nimadir demoqchi bo‘ldi, Abil biy buni payqadi.

— Aytaver, begona odam yo‘q.

— Nasriddinbekning barcha yo‘li to‘sildi. Kerakli joylarga pistirma qo‘ydik. Beknazar faqat sizning roziligingizni so‘rayapti.

Abil biy o‘rnidan turib ketdi. Eshimni o‘ziga yaqinroq tortib:

— Jinnilik qilmasin! To‘xtatsin, to‘xtatsin, — deb ohista shivirladi.

— Biy to‘g‘ri aytdi.

Abil biy bilan Eshim seskanib ketdi. Ayyor maslahatchining nursiz ko‘zlari kulcha bo‘lib yotgan zaharli ilon ko‘zlariday sovuq yiltirardi.

— Him, biy to‘g‘ri aytdi, — deb shoshilmay o‘rnidan qo‘zg‘aldi maslahatchi. — Yaxshi yigit, botirlarga aytib qo‘y, bo‘rining inini qo‘zg‘ab, tog‘liklar baloga giriftor bo‘lmasin. Shunday degin, yaxshi yigit.

Abil biy Eshimning orqasidan baqirdi:

— Hoy! Aytib qo‘y! Tangriberdiga ayt, tentakni tiysin. Eshitdingmi? Tiysin!..

— Eshitdim.

O‘sha kuni Abil biy oqsoqollarni shoshilinch chaqirtirib, ularni Beknazarning xatti-harakatidan ogoh qildi. Kimda-kim unga yon bossa, qattiq jazoga tortilajagini uqtirdi. Ertasiga Namangan begidan qirqta yigit Nasriddinbekka yordamga keldi. Qo‘rboshi hovliqib, ovul va qishloqlarni kov-kov qilib, yo‘l to‘sib, pistirmalar qo‘yib, el halovatini buza boshladi. Agar qotil topilmasa, shahzoda qishloqning barcha yigitlarini bandi qilishini ayttirdi. Bunday xo‘rlikka, bunday zo‘rlikka kim chidaydi?

Oqsoqollar keksa maslahatchining oldiga kelib, Nasriddinbekning maqsadi nima ekanligini surishtirishdi. Ayyor chol shu narsani zoriqib kutib turgan edi:

— Tushunaman, tushunaman, — dedi maslahatchi. — Sizlarga og‘ir. Gap shuki, men shahzoda bilan gaplashib ko‘raman. Xunini berishga to‘g‘ri keladi. Odat shunday. Nasriddinbekka, bechora tog‘alaringni qiyin-qistovga olma, deyman. Zora Xudo unga insof bersa...

Buni zo‘rlik deyishadi. Oqsoqollar sukutda edi. Sukunatni Abil biy buzdi. Chunki, six ham kuymasin, kabob ham.

— Mayli, olishi xun bo‘lsa rozimiz, — dedi u. — Zotan uyingga ilon kirib qolsa, sut sepib chiqarasan. Mayli, olsin.

Nasriddinbekning yigitlari esa tobora quturardi, ko‘ringan itni otib, uchragan molni so‘yib, ovuldagi aholining oromini buzardi. Bu ish ot berib, kimxob chopon kiydirish bilan tinchisa-ku mayli-ya!.. Nasriddinbek xun haqini og‘ziga siqqanicha so‘radi. Odamlarni bir joyga to‘plab, mingta ot, ming tanga tilla berasizlar, dedi. Aytishga oson. Buni qaydan olishadi? Kim beradi? Bermay ko‘ring-chi? Bo‘ri quvgan molday xaloyiq nima qilishini bilmay qoldi. Abil biy Beknazar atrofiga yig‘ilgan odamlarni tarqatib yubordi. Endi kim

bosh ko‘taradi? Kim elni to‘playdi? Abil biyning qishlog‘i o‘n besh kundan buyon to‘s-to‘polon edi. Qishloq boylari, oqsoqollari Nasriddinbekning maslahatchisiga qatnayverib tinkasi quridi.

— Ey musulmonlar, shahzoda mening gapimga kirmayapti. U tog‘asining merosxo‘ri. Nima qilsa, o‘zi biladi. Menga qolsa, sizlarni bezovta qilmagani ma’qul edi.

— Hoy, vazir, Xudoga qarab gapirsang-chi. Shahzoda qanaqasiga merosxo‘r bo‘lar ekan? Bu shunchaki hukmini o‘tkazish emasmi? Do‘mbu o‘zimizning og‘amiz-ku?!.

— E, Tangrim, o‘z tuqqaning uchun o‘zing xun to‘lab tursang... — dedi kimdir.

— Musulmonlar! E, musulmonlar! Shahzoda Nasriddinbek bu yoqqa jo‘nashidan avval Kalomullohi Sharifni bizdan ham mukammal biladigan pokiza ulamolardan yo‘l-yo‘riq so‘rab chiqqan...

— Shariat qo‘lingda, vazir, — dedi chollardan biri. — Bor, bilgan ishingni qilaver.

— Bilgan ishni qilish oson, ammo mushkul ahvoldan qutqazish xiyla mashaqqatli, musulmonlar. Bundan nima foyda? O‘ylab ko‘ringlar, o‘ylab ko‘ringlar.

Ot dupuri eshitildi. El tarqaldi. Yigitlarini ergashtirib Nasriddinbekning qo‘rboshisi keldi. Otini o‘ynatib so‘radi:

— Qani, tog‘amizning xuni tugadimi, yo‘qmi? Abil biy sipo javob qaytardi:

— Shahzoda xotirjam bo‘lsinlar. Bitmagan ishni bitiramiz. — Qo‘rboshi keksa maslahatchining ishorasi bilan ot ustida turib ta’zim qildi va yigitlari bilan ortga qaytdi.

— Biy, — dedi Beknazar, — bular bizni nega oyoq-osti qilishadi? Nega quturadi? Bunday xo‘rlikka qachongacha chidaymiz? Xushomad qilmoqdan boshqa ishimiz yo‘qmi?

Abil biy ikki o‘rtada tinkasi qurib suhbatga aralashdi:

— E, botir, tushunaman. Hukmdor bor joyda zo‘rlik bo‘ladi. Zo‘rlik bor joyda xushomad ham bo‘ladi. Ba’zan, ilojsiz qolgan mahalda xushomad qilishga to‘g‘ri keladi. Ayrim ishlarni uningsiz bitirish mumkin emas. Sabr qilaylik, botir. Sabr tagi sariq oltin...

— Sabr. Sabrning tagi sariq oltinmi? Biy, uzoq sabr qilishga toqat qilolarmikinmiz? Axir insonning umri qisqa, — dedi Bek-

nazar. — Mana, biz sabr qilib nima topdik? Oltin emas, nuqul tashvish tortyapmiz...

Odamlar bezovta bo‘lib, o‘rnidan tura boshladi. Bu etagingga o‘t tushganday gap, oldini olmasang, o‘zing ham kuyib ketasan. Abil biy bezovtalandi. Buni sezgan oqsoqollar otlanayotganlarning yo‘lini to‘sishdi.

— Hey, bir oz sabr qilinglar.

— Bu ish birgina sizlarning boshingizga tushgani yo‘q-ku. Shoshilmanglar.

— Bo‘linganni bo‘ri yer, otdan tushinglar.

— Xotintaloq, dunyoga bir marta kelasan. Qachongacha kutamiz?

— Qani tushinglar, iloji boricha bitirishga harakat qilaylik, bitmasa yana ko‘ramiz.

Xiyla tortishuvdan keyin, Beknazar botirning ortidan jo‘namoqchi bo‘lganlar otdan tushdi. Yana munozara boshlandi. Lekin ayyor maslahatchi pinagini buzmadi. O‘z kuchiga ishonmoqchi bo‘lganlarga e’tibor bermadi. Go‘yo Qo‘qonning chorpoyasida choy ichib o‘tirganday o‘zini xotirjam tutishi, beg‘am va parvoyi falakligi atrofdagilarni hayron qoldirdi.

Yig‘in bu safar ham bir bitimga kelolmay tarqaldi.

Abil biy o‘tovda yoqilgan katta gulxan yonida o‘tirardi. Toqati toq bo‘lgani uchun anchadan beri gapirmay, olovdan ko‘zini uzmaydi. Keksa maslahatchi yonboshlaganicha ko‘zini yumib, kipriklari orasidan kuzatardi. U elning bugungi qahrini ko‘rib, sal hushyor tortib nafasini ichiga yutdi.

— Biy, — dedi u, — el sizniki, bu qabohat sizni ancha tashvishga soldi. Ulug‘ sardor Abdurahmon siz haqingizda juda yaxshi fikrda. O‘zingizni dadil tuting. Oltin taxtga ko‘rsatib kelayotgan halol xizmatingizni o‘rdadagilar yodidan chiqarmaydi. Agar siz bo‘lmasangiz, bu beboshvoq, yugansiz xalq nimalar qilmaydi? Bu ishni bitirishda o‘rda faqat sizga ishonadi...

— Avliyo! Bug‘doyday toshni erkin ushlasang, u seniki, sal qissang kaftingga botadi. Shunga o‘xshab elni qancha iskanjaga olsang norozilik shuncha avjiga chiqadi. — Ancha jahli chiqqan Abil biy so‘zida davom etdi. — Qasamxo‘r Do‘mbuning o‘limi

boshimizga balo bo‘ldi. Shaxzodangiz xaloyiq oldida obro‘yimni tushiradigan bo‘ldi. Uning katta bobosi Hoji qachon hukmdor bo‘lgandi? Uning umri tog‘da quvg‘inda o‘tmadimi? Bularga Norbo‘ta biyning bolalaridan son tekkanmidi? A? Nasrulloxon o‘lja qilib ketgan tojni otasi Sherali atalaning boshiga biz kiygizgan emasmidik? Yoki yolg‘onmi?

— Rost, biy. Rost...

Abil biy yerni mushtladi.

— Xaloyiq oldida hurmatini qilib indamasam, o‘zidan ketyapti-ku, haligi zumrasha xotinboz! Men, Norbo‘ta qurgan uyda ahillik, qut-baraka yo‘qolmasin, deyapman. Bu tog‘dan o‘t chiqsa, men o‘chirmasam, kim o‘chiradn? A? Kim?

Suhbat ochiqchasiga o‘tgach, ayyor maslahatchi kemshik og‘zini ochib, hiring-hiring kuldi:

— Jiyanlaringiz hech kimni yolchitgani yo‘q, biy. Barchamiz davlatimiz saltanatini o‘ylab yuribmiz. Ha, Abil mirza... Hazratim, deymiz. Hazratingizni siz bilan biz ko‘tarib turibmiz. Birortamiz qiyshaysak, taxt ag‘darilib, ustidagi burni bilan yerga tushadi.

Gap qovushib, ular yaxshigina dardlashdi.

...Do‘mbu orqasidan da’vogarlar kelgandan beri Modilning oromi yo‘qoldi. Uyqusi qochib, yurgan-turganini bilmaydi. Shayton yo‘ldan ozdirib, elni tashvishga qo‘ygani uchun o‘zini-o‘zi koyiydi. Qotil men deb to‘g‘ri borsa-chi? Nima qiladi? Bir kuni oqshom chog‘i boshi oqqan yerga bormoqchi bo‘ldi-da, u Abil biyning qishlog‘i tomonga yo‘l oldi. Dunyoning barcha lazzatidan yuz o‘girib, qishloq chetidagi qirov bosgan muzdek xashak ustiga o‘tirdi.

Sutdek oydin. So‘ngsiz adirlar uyquda. Tog‘lar boshidagi oppoq qorlar oy nurida yaltirardi. Qayoqdandir ayg‘irlarning kishnagani eshitilardi. Qishloqqa kiraverishdagi qayrag‘ochda sutoq nola qilardi. Modil o‘zini qo‘ygani joy topolmasdi.

Abil biy shu pallada mehmoni bilan tashqarida edi. Ular nariberi yurib, osmonni teng ikkiga bo‘lib turgan somon yo‘liga qarab turishardi. Qishloq chetidan turli ovozlar eshitildi, itlar hurib oldinga yugurdi. Ungacha ikkita soya ko‘rindi. O‘z yigitlari ekan. Abil biy birining ovozidan tanidi.

— Kim bu? Bemahalda yurgan?

— Sariboy ovchining ukasi.

Abil biy shoshilib:

— Modilmisan? Ha, qayoqdan?

Javob berish o‘rniga u Abil biyning oyog‘iga bosh urdi.

— Sadag‘angiz ketay, biy, — u yig‘lab yubordi.

— Bu kim? — qari maslahatchi gumonsirab so‘radi.

— O‘zimizning fuqaro. Avliyo, siz xafa bo‘lmay, uyga kirib dam olavering, men bu sho‘rlikning arzini eshitayin-chi.

Ayyor maslahatchi kalima keltirib uyga kirib ketdi. Abil biy Modilni ancha nariroqqa yetaklab bordi. Boy begona odam oldida gaplashishni sira xush ko‘rmasdi. Chunki til besuyak... Modilni o‘ziga yaqinroq tortib so‘radi:

— Ha, yana nima bo‘ldi? Bitta-yarimtaga gullab qo‘ydingmi?

— Sadag‘angiz ketay, biy...

— Sadag‘a bo‘lmay yerga kir! — Abil biy Modil tavof qilish uchun ushlagan etagini siltab yubordi. — Tur, haromi. Kimga aytding?

— Yo‘-q...

— Qasam urgur...

— Sizdan boshqa kimga aytardim, kimga yorilardim? Odamlarning qarg‘ishiga qolmayin. Meni ushlab bering. Men o‘layin... Ushlab bering...

— O‘lmay, go‘ringda to‘ng‘iz qo‘pgur, sening qoningga hech kim muhtoj emas. Seni deb no‘yg‘ut urug‘i qirilib ketadi. Bola-chaqasi, mol-mulki o‘lja bo‘ladi. Shuni o‘ylab ko‘rsang bo‘lmaydimi? — Abil biy sal jahlidan tushgan bo‘lib, kulib qo‘ydi.— Xonning tog‘asiga boshma-boshga roziman degan emishsan? Bo‘pti, jim bo‘l, bo‘lar ish bo‘ldi.

— Bunday bo‘lishini bilganimda... e, Xudoyim-ey... Yuzim qaro bo‘ldi...

— Ovozingni o‘chir, — dedi Abil biy jerkib. — Yana qasos olmoqchimisan?

— Yo‘q-yo‘q, biy! Unday qilgandan ko‘ra...

Abil biy bir oz o‘ylanib, Modilga taskin bera boshladi:

— O‘zingni bos. Bunday bo‘lishini kim o‘ylabdi deysan. Sariboy akangni qadrlayman. Yaxshi odam. Aytishlaricha, uning qizi bor emishmi?

Modil yig‘lamsirab:

— Bir qizalog‘i bor...

— Yoshi nechada?

— O‘n beshga kirdi.

— Hm, balog‘atga yetib qolibdi. — Abil biy boshqa gapga o‘tishda lozim topmadi shekilli, Modilning yelkasiga qo‘lini qo‘ydi. — Jahl kelsa, aql qochadi. Sen no‘yg‘utlarning taqdirini o‘yla.

U ketdi. Modil o‘rnidan turolmay xiyla vaqtgacha o‘tirdi,

Ertasiga yig‘inga ko‘ngli yorishib kirib keldi.

— Xaloyiq! — dedi Abil biy biyron ovozda. — Qirq yil qirg‘in bo‘lsa ham kuni bitgan, ajali yetgan o‘ladi. Do‘mbuning o‘limi tufayli xonimiz qahriga uchragan ekanmiz, bu albatta Tangrining xohishi. Bunday mahalda jondan kechishga to‘g‘ri keladi. O‘limdan boshqani tez bo‘lgani yaxshi...

— O‘zing bilasan. Bitirishni o‘yla, biy! — dedi o‘tirganlar iltijo qilib.

— To‘g‘ri, six ham kuymasligi, kabob ham kuymasligi kerak. Shahzodani hurmat qilamiz, qadrlaymiz, erkalatamiz. Ammo, rost gapni aytish lozim, sariq chaqaga arzimaydigan narsani ro‘kach qilib, xun o‘rniga mingta ot, ming tilla tanga so‘rashi insofdan emas.

— Bu zo‘rlik!

Abil biy ovoz kelgan tomonga bir qarab olib, so‘zini davom ettirdi:

— O‘zinglar mundoq o‘ylab ko‘ringlar. To‘shimizni ochib, bekordan-bekorga gap sotishimiz, o‘zimizni go‘l qilib ko‘rsatishimiz yaxshi emas. Qizining siri onasiga ma’lum, deyishadi. Xaloyiqning ahvoli menga besh qo‘lday ayon. Mayli, shahzodaning og‘zidan chiqib ketibdi. Mingta ot egar-jabdug‘i bilan bo‘lsin. Ming tillasi ham o‘sha bo‘yicha qolsin.

Odamlar Abil biyni azbaroyi hurmat qilgani uchun tishlarinitishlariga qo‘yib o‘tirishdi, Ayyor maslahatchi biydan xursand

edi. Bu bitim kechqurun gulxan atrofida ikkovining o'rtasida hal qilingandi. Shu boisdan ham u har ikki tomonga xolis turib, ishni juda ehtiyotkorlik bilan bitirayotgan Abil biydan minnatdor bo'ldi. Maslahatchining olma qoqiday tirishib kettan yuzlarida o'zgarish sezilmasdi. Boshini bir yoqqa sal qiyshaytirib tasbeh o'girardi. Abil biy to'planganlardan bitimga rozilik so'ragan chog'ida, u o'zini o'nglab, ko'zini ochdi.

— Mingta ot, ming tanga tilla, — dedi rangiga qon yugurib maslahatchi, bu safar shahzodaning oldiga o'tish qari tulkining xayoliga kelmadi. U ish nihoyasiga yetganini bildi-da, tasbehni bo'yniga ilib, o'rnidan tura boshladi.

Bitim tugadi. Hamma hayron.

Zo'rlik o'zini ko'rsatdi. Chorvador aholi mingta otni to'plashda unchalik qiynalmadi. Ammo ota-bobosi umrida tilla nimaligini bilmagan tog'liklar ming tangani topishda xiyla qiynaldi. Bozorma-bozor kezib, mol-u mulkini, bo'ri, ayiq, qoplon terilari, gilam, shirdoq, egar va jabduqlarni sotishga majbur bo'ldi. Shahar xalqi elatning boshiga tushgan bu og'ir savdoni yumshatishda qo'lidan kelgan ko'magini ayamadi. Eng yaxshi narsalar tilla bahosiga chaqilib, boshma-bosh almashtirildi.

Shunday qilib, ikki hafta ichida ming tanga to'plandi. Otlarning tuyog'idan chiqqan changlar tumanday quyosh yuzini to'sdi. — Onasidan ajralgan toychoqlar zir chopib, ayg'irlar motamsaro kishnadi. Quturgan sipohiylar otlarini almashtirib, go'yo yovga qarshi shaylanganday yilqilarni haydab jo'nashdi...

— Xarob qildi, betavfiqlar!..

Kimdir yuztuban yiqildi. Xaloyiq ich-ichidan zil ketdi. Lekin hech kim o'rnidan jilmadi. Ovul va qishloqlarning aholisi qanoti qirqilgan qushga o'xshardi, ko'zlaridan nafrat uchqunlari sochardi.

Tepalikda Abil biy bilan Nasriddinbek, qari maslahatchi va qishloqning bir necha hurmatli kishilari turardi. Beknazar beshta yigiti bilan ularning qoshiga keldi.

— Mana, Nasriddinbek, teshigingni shu bilan bitirib ol, — deb ot ustida turib, og'zi bo'g'ilgan qopni shahzodaning oyog'i ostiga irg'itdi. Nasriddinbek bilan keksa maslahatchinpng nigohi qopga qadaldi.

Beknazar to‘pdan beparvo chiqib ketdi. Beknazar hali ikki yo‘l kesishgan joyda uchrasharmiz, deb qon yutib borardi.

Masala hal bo‘ldi. Odamlar o‘rnidan qo‘zg‘alib, Abil biyga taqlid qilib, yuziga fotiha tortdi.

— Allohu akbar! Salavot Salavot!

— Xun va da’vo tugadi!.. Salavot! Xun va da’vo tugadi.

Odatda salavot aytilgandan so‘ng, xun va da’vo tugadi demakdir. Shariat bo‘yicha salavotdan keyin, ya’ni xun da’vo qilgan kishining ichgan oshi makruh, xotini esa taloq deb ta’rif beriladi. Xaloyiq tarqala boshladi. Bechora fuqaro og‘ir yukdan, uyqusida bosgan alvastidan qutulganday yengil tortib tarqaldi.

...Modil g‘amgin o‘tirardi. Biror narsa deyishga holi yo‘q edi. Suyumxonning oldida qamchi turardi. U qamchidan unchalik seskanmasa ham Suyumxonning qahrli ko‘zlariga bardosh berolmasdi. U boshini ko‘tarolmadi. Xonadondagilarning birortasi Modilni yoqlamadi. Sariboy jim edi. Unga ukasi bor gapni boshdan-oyoq tushuntirgan bo‘lsa-da, nima uchundir indamasdi.

— Bermayman! — dedi Suyumxon chinqirib. U betini qo‘llari bilan to‘sib, go‘daklarday ho‘ngrab yig‘ladi.

Abil biyni qarangki, dallaning qo‘liga boshqa narsa emas, faqat yo‘g‘on qamchi tutqazibdi. Ish yengil ko‘chmaydigan bo‘lsa, o‘rtaga qamchi aralashadi. Bu yog‘i chakki. Ilon bilan do‘st bo‘lgan ekanman, deb Modil ichidan zil ketdi. Bechora no‘yg‘utlarning uvoliga qolguncha, o‘limni afzal ko‘rdi.

Abil biyning dallasi Modilni qasdi-bastiga oldi. — Bir qizni deb, qarindosh-urug‘ning orasi buzilib ketmasin. O‘ylab ko‘ringlar. Buning sababini birgina Abil biy bilan Modil biladi. Menga ishoninglar. Ishni paysalga solib bo‘lmaydi. Tezroq bitsin, deb biy o‘z qamchisini berib yubordi. Uni boshqalar tanimasligi mumkin, biroq Modil uni yaxshi biladi.

— Bermayman, — deb o‘ksidi Suyumxon.

— Yig‘lama, onasi, — dedi dalla yupatgan bo‘lib. — Abil biy qizingni poygada sovrin qilayotgani yo‘q. Uni hurmat qilib o‘rdaga gilam to‘qishga yuboradi shekilli. Buning nimasiga yig‘-laysan?

— Bermayman! Yosh! — deb yig‘ladi Suyumxon.

Xon haramiga va mansabdorlar uchun go‘zal qizlarni sovg‘a qilgan mahalda viloyatlardagi vakillar sir tutib, “o‘rtaga gilam to‘qishga borishadi”, deb bu qabihlikni xaspo‘shlashardi. Ko‘zining oq-u qorasi, yolg‘iz qizining o‘rdaga yuborilishiga qanday rozilik bersin? Axir ona emasmi? U chumchuqday chirqillab, ko‘ringanga yalinardi. Ammo hamma undan o‘zini olib qochardi. Hech kim joniga ora kirmasdi.

Qunduz suvga ketgan edi. U obkashda soydan ikki chelak suv olib keldi. Tashqarida turgan xotinlar qiz uyga yaqinlashguncha kutib turishdi. To‘g‘ri, Qunduz balog‘atga yetib qolgan edi, erkaklarga tik boqmay, o‘zini hamisha sipo tutishga harakat qilardi. U erka o‘sganligi uchun ko‘rinishdan ancha-muncha narsani nazar-pisand qilmaydiganga o‘xshardi. Qosh-ko‘zlari timqora edi. Ikki qo‘lidagi qo‘sh bilaguzuk har zamonda shiriqlab qo‘yardi. Qulog‘idagi tilla zirak paqirdagi suv yuzida yalt-yult qilib o‘ynaydi. Qunduz paqirlarni yerga qo‘yib, eshiklari oldida to‘planib turgan xotin-xalajga, bolalarga qaradi.

— E, badbaxt, — deb bir xotin yig‘lab yubordi.

O‘kinch, alam to‘la yuzlar, najot izlagan yoshli ko‘zlar Qunduz tomon boqardi, Shundoqqina eshik yonida onasi uvvos solib o‘tirardi. Bu nima? Uydagilar uning oldida gunohkorday iltijo bilan qarashardi. Atigi besh xonadondan iborat bo‘lgan no‘yg‘ut urug‘ining yetti yoshidan yetmish yoshigacha shu yerda edi.

— Onajon! Ona! — deb Qunduz yig‘lab yubordi. Gap nima haqdaligini tushunmay, u onasiga tashlandi. Xuddi ikkovini birov sudrab ketayotganday, Suyumxon qizini bag‘riga bosib, rosa yig‘ladi.

— Bermayman! Meni o‘ldirsanglar o‘ldiringlar, bermayman. Toshyuraklar. Muttahamlar. Tirik turib undan ajramayman.

Qo‘ni-qo‘shnilar uni qanday qilib yupatishlarini bilmay, qo‘shilib yig‘lashardi. Hamma serrayib turardi.

— Ilojimiz yo‘q, xotin, — dedi Sariboy siniq ovozda. — No‘yg‘ut urug‘i chopilgandan ko‘ra, bir qizni bersak beribmiz. — Sariboy shunday dedi-yu, yotib qoldi.

Dallaning bularga rahmi keldimi, biyga biror bahona qilarman, degan niyatda otlanmoqchi bo‘ldi. Xotinlar qiy-chuv qilib, Qun-

duzning qolganiga suyunishib, uning boshidan bir kosa suvni aylantirib sochishdi va Suyumxonni qutlashdi.

Dalla ketib ulgurmagandi. Quyi tomondan yasatilgan bir baytalni yetaklagan xotin kishi hamda besh yigitni ergashtirgan Abil biyning Qorachol botiri chiqib keldi.

— Aytmadimmi biyning buyrug‘i qattiq deb. Endi otlanmay iloj yo‘q. Bir qiz uchun baloga qolmanglar. Qani, tezroq bo‘linglar, vaqt qisqa, — dedi dalla.

Suyumxon qizini uyiga kiritib, eshikni tambalab oldi. Hech kimni yo‘latmay, qo‘l cho‘zganni tishlab, yulib, jon achchig‘ida fig‘on chekardi. Xotinlar uvvos tortardi. Bolalar hayron bo‘lib dam ayollarga, dam erkaklarga qarab, bitta-bittadan tarqalib ketishdi. Modil esa hovli o‘rtasida qaqqayib turardi.

— Hoy, qizni tezroq otlantiringlar! — dedi Qorachol. — Bitmay qolgan ish bormi? Nega serrayasanlar? Qizing o‘limga boryaptimi?

Hech kim indamadi. Chorpahildan kelgan Qorachol otidan tushdi, qamchisini sudrab yigitlarga baqirdi:

— Qani, tezroq qizni olib chiqinglar!

Barzangi yigitlar eshikka yopishdi. Suyumxon chinqirib ularning qo‘llariny tishlab, dod soldi:

— Bermayman! Bermayman! Ber-may-man! — deb gavdasi bilan oshxona eshigini to‘sdi. Berahm yigitlardan biri unga yaqinlashdi, yaxshi gapirgan bo‘lib, mahkam quchoqladi. Suyumxon ayyuhannos solib, yigitning qo‘lini tishladi, yuz-ko‘zlariga chang soldi. Yigit Suyumxonni itarib yubordi. Suyumxon o‘rnidan turib yana oshxona eshigini to‘sdi.

— Bermayman! Bermayman! — Suyumxonning sochlari to‘zib, ko‘ylagi yirtilib ketgandi. — Bermayman!..

Qoracholning jini qo‘zib, Suyumxonga tarsaki tortib yubordi. U yiqildi.

— O‘rgilayin ona! Onajon! — deb oshxonadan Qunduz yugurib chiqdi va onasi ustiga o‘zini otib yalindi: — Urmanglar, urmanglar! Oyimni urmanglar, o‘zim boraman.

Qunduzni tashkariga olib chiqishdi. Yo‘rg‘a baytalni ushlab turgan yo‘lboshlovchi xotin Qunduzni qo‘ltig‘idan ushlab yupatgan bo‘ldi:

— Qo‘y, qoqindiq, yig‘lama! — deb alaxsitdi. — Axir men turibman-ku. Xonning o‘rdasiga gilam to‘qishga bormaysan. Bu ish sening qo‘lingdan kelmaydi. Abil biyning ovulida to‘y bo‘lyapti, o‘shanga borib qaytib kelasan. Qani, baytalga min-chi, sadag‘ang bo‘lay... U yerga borib, gilam to‘qishni bilmayman, desang seni qo‘yib yuborishadi. Chog‘imda, seni bitta-yarimta gilam to‘qishni biladi, deb aytgan bo‘lsa kerak. Min, sadag‘ang ketay, o‘zim keltirib qo‘yaman. Qo‘rqma...

— Ha, sho‘ring qurg‘ur-ey... Peshonangda bor ekan-da... — deb bir xotin ko‘z yoshi qildi. — O‘rgilib ketay, qoqindiq...

Ichkarida Suyumxonni mahkam ushlab turishganidan uning dod-faryodi, erkak kishilarning so‘kingani, shapati ovozi eshitilardi.

— Onajonim! Ona! Noinsoflar! Urmanglar. Onamni urmanglar, deyapman. Men roziman. Onamni urmasanglar boraman... O‘rgilib ketay, oyijon!

Qunduz atrofdagilarga yolborib qaradi. O‘zini tutolmay to‘lib-toshib yig‘lardi. Iloji qancha? Osmon yiroq, yer qattiq. Xotinlar yupatgan bo‘lishib, uning ko‘z-yoshlarini artishdi, to‘zib ketgan sochlarini tuzatishdi, boshini qizil ro‘mol bilan mahkam tang‘ib, otga minishini kutishdi. Yo‘lboshlovchi xotin tizginni ushladi. Ular yo‘lga tushishdi...

Suyumxon xirillagan ovozda baqirib, eshikka chiqdi va olislab borayotgan otliqlar orqasidan gandiraklab yugurib, yiqildi. O‘rnidan turib yana dod soldi:

— Bermayman! Bermayman! — deb ikki qo‘lini ko‘tarib osmonga qaradi. — Qunduz! Qund-uz! Q-o-ch... Qashqirdan q-o-ch!.. — O‘zi ham nimadandir qo‘rqib, adir tomonga qarab yugurdi. — Q-o-ch. Qash-qir!..

Suyumxonning ustida ko‘ylagining yoqasigina qolgandi, u qayoqqadir oshiqib yugurarkan, ustida ko‘ylagi yo‘qligini sezmasdi, atrofda nima bo‘layotganini payqamasdi, faqat dahshatli ovozi tog‘-u toshlarni larzaga solardi...

Ertasiga Nasriddinbek otlandi. Abil biy Qunduzni gulday yasantirib, boshiga oq harir qashqar ro‘molini o‘rattirdi, uni shahzodaga in’om qildi.

O‘sha kuni oqshom paytida qip-yalang‘och bir ayolning adirdagi eski qabristonda, “Q-o-ch”, deb baqirib yurganini ko‘rganlar bor...

TO‘RTINCHI QISM

I

Bir ming sakkiz yuz-u yetmish uchinchi yilning bahori...

Tog‘ taraf notinch, hamon bezovta edi. O‘rdadagi quv va ayyor kishilar bo‘ri qulog‘i ovda bo‘lib, bir-birini poylardi, paytavasiga qurt tushib, bir-birining payini qirqishga harakat qilardi.

Xudoyorxon jahl bilan:

— Qiraman! O‘t qo‘yaman! — deb baqirardi, bir oz o‘ziga kelgach, lattaday bo‘shashib qolardi. O‘zidan aqlli gap chiqmagan, o‘zgaga ishonmagan Xudoyorxon najot istab atrofga alanglardi, rahnamo izlardi. “Buni qarangki, bari o‘g‘ri, bari sotqin, bari nontepki!..” deb tumshayib olardi. Nima qilish kerak? Iloj qancha? Bir vaqtlar damlariga osh pishgan maslahatgo‘ylar endi churq etmay, barcha javobgarlikni xonga yuklab, tomosha qilishyapti. Nima qilish kerak?

Kun sayin yangi xabarlar kelib turibdi. To‘raqo‘rg‘ondagi Saranchi ponsad besh yuz sarbozni ergashtirib, isyonkor elga qo‘shilib ketdi. Chortoq begi Gadoyboy dodxoh bilan Namangan begi Shamilo hash-pash deguncha tor-u mor etilib, butun Namangan viloyati isyonkorlar qo‘liga o‘tdi.

Xudoyorxon kengash o‘tkazdi. “Nima qilish kerak?” degan masala o‘rtaga tashlandi. Ishni osonroq bitirishni ko‘zlab, general-gubernatordan yordam so‘rash zarurligi aytildi, Bunga bosh vazir Qulnazar parvonachi yetakchi bo‘lgan tomon qarshi chiqdi. General fon Kaufman bilan o‘zaro yordam to‘g‘risida tuzilgan shartnoma zamirida katta majburiyat bor. Ana shunday majburiyatlar ko‘paygan sari bu o‘lkaning inqirozga yuz tutayotganligi tobora ayon ko‘rina boshladi. Xudoyorxonga bari bir edi. Shu shinam qo‘rg‘on, haram omon bo‘lsa, otasidan qolgan taxt ko‘z oldida tursa bo‘lgani. Xalqning, bu o‘lkaning qanday ko‘yga tushishi,

kimning qo‘lida bo‘lishi uni qiziqtirmasdi. U yarim podsho bilan tuzilgan shartnoma — bo‘yinga solingan bo‘yinturuqni vaqti kelganda boshdan soqit qilsa bo‘ladi deb o‘ylardi. Maqsadi shu. Ayollar tufayligina sillasi qurigan bu qotma, qorachadan kelgan kishining yuzaki mulohaza yuritishini Abdurahmon oftobachi bilardi. Hozirning o‘zidayoq Xudoyorxon yarim podshodan askar chaqirish fikriga tushib qolgandi.

— Amirim, — dedi Abdurahmon oftobachi ohista, iltifot bilan, — o‘z shaltog‘imizni o‘zimiz tozalamaymizmi?..

Xudoyorxon bo‘g‘ilib ketdi:

— O‘zimiz?! Qanday qilib?!

Abdurahmon parvoyi falak edi, Xudoyorxonning qahri kelib, unga tikilib turardi.

— O‘zimiz tozalamaymizmi deydi?! Olib qo‘ydi! Yalangoyoq Po‘lat Namanganni olib qo‘ydi!.. — deb Xudoyorxon qichqirdi, titrab nari-beri yura boshladi. Hech kim lom-mim demadi. Hamma bosh egib turardi. U entikib, titrab turgan qo‘lini uqalab, panjalarini qisirlatdi, “O‘zimiz tozalamaymizmi”, deb nimaga aytdi?.. Otasining keki haqida uning qulog‘iga birov shipshitib qo‘ymadimikin?..” deb yoshlikdan birga o‘sgan tengdoshi, sirdoshi, oftobachiga gumon bilan qaradi, biror narsa degani botinolmay, alam bilan peshonasini ushladi.

— Mayli... — dedi u tushkun ohangda. — No‘mon ponsodni chaqir.

No‘mon ponsod g‘izillab keldi. U hukmdor hazratlarining xufiyona buyruqlarini ijro etib, birovning do‘ppisini ol desa, boshini kesib yurgan, juda ishonchli askar boshliqlaridan biri edi.

— Labbay, olampanoh... — deb ikki qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, ta’zim qildi.

Xudoyorxon:

— Ponsod, qilich damini sinaydigan fursatingiz yetdi, — dedi.

No‘mon ponsod atrofga alangladi. Novchadan kelgan, qoramag‘iz basharasi ajib tusga kirib, qop-qora soqoli selkillab, ola ko‘zlariga qon to‘ldi.

— Tayyorman, hazratim! Kimga qilich qayrayin?..

— Buyuramiz! Siz, No‘mon ponsod, qancha askar kerak bo‘lsa, oling, u dunyoda Olloh oldida, bu dunyoda bizning oldimizda kechirib bo‘lmas gunohga botgan qorabag‘ish, qatay, qutlug‘ seyit, nayman, qurama urug‘larini qonga belab, ularni qaytadan tabarruk taxtimiz oldiga to‘plab kelgaysiz.

— Sizning xohishingiz Xudoning xohishi, olampanoh!

Devonbegida o‘tirganlar shoh fikrini qo‘llab-quvvatladi, No‘mon ponsadga besh yuzta saralangan sipohiy berib, uni tog‘ tarafga yo‘llashdi...

Har ikki taraf Xonobod qishlog‘ida uchrashdi.

No‘mon xiyla puxta ponsodlardan edi. U dastlab isyonkorlarning soni, sardorlari, qaysi urug‘danligi, quroli haqida, basharti ularga yordam zarur bo‘lib qolsa, qaysi tarafdan kelishi, bordi-yu, chekinsa, qaysi tomonga qochishi mumkinligini aniqlab oldi. Har ehtimolga ko‘ra o‘z ortidagi qishloqlarni qattiq kuzatib turdi. Shu bilan birga jang qilishga munosib joyni tanladi, yuz sipohiyni orqaga, yuz sipohiyni oldinga qo‘ydi, yuz sipohiyni o‘ng, yuz sipohiyni esa chap qanotga yubordi, qolganini ergashtirib, chang-to‘zon ko‘tarib oldinga yurdi.

Is’hoq ham maydon chetiga keldi. Kumush yolli chavkar arg‘umoqning tizginini bir oz tortib, qamchi tutgan qo‘lini peshonasiga soyabon qildi, o‘rda lashkarlarining holatini, orqa-oldini ko‘zdan kechirdi. Uning soqoli siyrak, mo‘ylovi qora, yuzini bilinar-bilinmas sepkil bosgan, ko‘zlari qiyiq edi, u hamisha labini qimtib yurardi. Yonida faqat ikki kishi: o‘ng qanot sardori Mo‘min, chap qanot sardori Saranchi bor edi.

— Urushda turish yo‘q...

Sardorlar besaranjom bo‘lishdi. Is’hoq chap qo‘li bilan olg‘a ishora qildi. O‘sha zahoti Saranchi ot o‘ynatib:

— Yo, yigit piri Shohimardon, o‘zing qo‘lla!.. Ur! Ur!.. — deb qilich silkitib, yigitlarini hujumga boshladi, Ko‘z ochib yumguncha to‘s-to‘polon bo‘lib otlar tuyog‘ining zarbidan yer titradi.

Isyonchilar:

— Qi-y, qu-v, — deb qichqirishib sarbozlarga tashlandi. Saranchi yigitlari qilichlashayotganda bir tomondan to‘lqinday toshib, to‘p-to‘p bo‘lib Mo‘minning besh yuz askari ot qo‘ydi.

Bu jang muhim sinov edi. Is'hoqning rangi goh oqarardi, goh qizarardi, alamzadalik bilan uzangiga oyog'ini tirab, qo'lini peshonasiga soyabon qilib, urushning borishini kuzatib turardi.

No'mon oshiqmadi. Dastlabki to'siqlarni qilich damiga ko'ndalang qildi, qolganlarini tezotar miltiq o'qiga uchirdi, isyonchilar kuchli zarba berayotgan tomonda esa qilich bilan yaqindan qattiq jang qildi. Xalq qasoskorlari esa o'chakishib yangi-yangi kuchlar bilan sarbozlarga tashlanardi. No'mon o'z sipohiylariga zarba yetkazmay, ba'zan oldga yurib, ba'zan ortga chekinib isyonchilar yo'lini kesib, bo'lib-bo'lib tig' damidan beayov o'tkazardi. Ponsod sarbozlarning safi tobora kamayib borayotgan bo'lsa-da, unga e'tibor bermadi. O'zi o'rtada turib olib:

— Yo, yigit piri Shohimardon, o'zing qo'lla! — deb nafratomuz qah-qah otib, sipohiylarini ruhlantirib turdi.

Yigit piri quroli bekami ko'stlarni, urushning yo'l-yo'rig'ini bilganlarni qo'lladi.

Kechga borib jang to'xtadi. Bu jangda Is'hoq ponsod uch yuz yigitidan ajradi. Nima qilish kerak? Davom ettirish kerakmi? Davom ettirsa-ku, No'monning sipohiylarini qirib, g'alabaga erishishi ham mumkin. Xo'sh, bundan nima foyda? Shu bilan o'rdaning askari tugaydimi?.. Qaytaga o'zining asosiy kuchidan ajraydi. Keyin bu jarohat osonlik bilan bitmaydi. Is'hoq qosh qorayganda tog' tomonga — Olabuqaga qarab chekindi.

* * *

Is'hoq Olabuqa qishlog'ida tunab, kengash o'tkazdi. Avvalgiday maqtanish, hovliqib gapirishlar qayoqda deysiz? Bunga hech kim botinmaydi. Isyonchilar o'z xayoli bilan band edi. Sardorlarning ham nafaslari ichlariga tushib ketgandi. Is'hoq sardorlarning dami kesilib qolganini bilib turardi. O'zi ham o'yga cho'mib o'tirardi, u choyni ho'plarkan:

— Qani, botirlar, — deya o'tirganlarga bir sidra ko'z yugurtirib, so'zga kirishdi, — qani, gapirishib o'tiraylik, endi bundan buyon nima qilamiz?

Savol aniq bir kishiga qarata aytilmaganligi uchun o'tirganlar zimdan bir-biriga qarab, sukut saqlardi.

O‘rtadagi jimlikni Mo‘min buzdi:

— Begim, — dedi sal kalovlanib... — biz hali-hozir kurashga yaroqsizga o‘xshaymiz...

Is’hoq bosh irg‘adi:

— Yomonligini yashirib, o‘ziga bino qo‘ygan aldanar. Yomonligini bo‘yniga olgan xatosini tuzatishga shaylanar.

Haq gapdan zil ketgan kishilar yana anchagacha churq etmay qolishdi.

— To‘g‘ri, kechagi jang bizning g‘o‘r ekanligimizni ko‘rsatdi. Bu layoqatimizga mezon bo‘ldi. Og‘ir sinovdan o‘tdik. Endi bundan tegishli xulosa chiqarib, safimizni to‘ldirib, chinakam kurashga shaylanamiz, shovvozlar! — dedi Is’hoq ishonch bilan.

Qambar sardor ijirg‘andi:

— Begim, holimiz shu bo‘lsa, bundan buyon qo‘limizdan nima kelarkin?..

Is’hoq unga yuzlandi, jahlini zo‘r-bazo‘r bosib, sipolik bilan shunday dedi:

— Mayli, Qambar, lanjligingni boshdayoq sezgandim. Zorimiz bor, zo‘rimiz yo‘q. Hoziroq yigitlaringni otlantirib, qishlog‘ingga qaytishing mumkin.

Hammaning ko‘zi Qambarda edi. Nima deydi? Sardor odatdagidek qovog‘ini uyub o‘tirardi. Is’hoqning labi qimtilib, yuzidagi sepkili ajib tusga kirdi, avzoyi o‘zgardi.

— Tur, — dedi jerkigannamo, — yaxshi kuningda, yaxshi ishingda oshna bo‘lib, yomon kuningda teskari qaragan hamtovoqning bizga keragi yo‘q.

Qambar bo‘shashib o‘rnidan turdi, qamchisini sudrab uydan chiqib ketdi. Is’hoq hammani birma-bir ko‘zdan kechirib:

— Qani, yana ketadiganlar bormi? — deb so‘radi.

O‘rtaga jimlik cho‘kdi. Birorta odamdan sado chiqmadi. Qambar bilan yonma-yon o‘tirgan, azaldan u bilan inoq bo‘lgan to‘rtta yuzboshi o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Ularning yo‘lini hech kim to‘smadi. O‘tirganlar churq etmay qolaverdi.

— Ko‘rdinglarmi, — deya so‘zida davom etdi Is’hoq, — o‘rda sarbozlari urushga qobiliyatli, quroli soz ekan. Bizning farqimiz esa ulardan ko‘pligimiz, xolos. Ammo biz qanchalik ko‘p bo‘lib,

o‘qqa peshvoz chiqmaylik, jangda toblangan emasmiz, yaxshi qurol-yarog‘imiz yo‘q. Oramizdan Qambar singari nifoq soluvchilar chiqib tursa, ahillikka raxna tushadi, kechagiday ishimiz chappasiga ketib, barimiz qirilib ketamiz...

Mo‘min:

— Boshlig‘imiz ham, ko‘rar ko‘zimiz ham o‘zingsan. Bo‘ladigan gapni ayt. Xo‘sh, nima qilamiz?

— Bizga kurashmoqdan o‘zga chora bormi? Jang-u jadalni endi boshlaymiz, — dedi o‘tirganlar. Is’hoq mamnun bo‘lib dedi:

— Eng avvalo o‘zinglarga ishoninglar. Botir jangda sinalar. Ketmoqchi bo‘lganlarning yo‘liga to‘g‘anoq bo‘lmanglar. O‘z eliga sadoqatli yigitlar qolgan taqdirdagina safimiz temirdek mustahkam bo‘ladi. Gap shunday, Chotqolga chekinib, qurol-yarog‘, o‘qdori g‘amlaymiz. Tilla topishimiz kerak. Chuy vodiysiga elchi jo‘natib, o‘rislardan yordam so‘raymiz. So‘ngra jarchi bilan el oralab, ulug‘ jangga safarbarlik e’lon qilamiz...

Xalq xizmatiga bel bog‘lagan yuzboshilar bu taklifni bir ovozdan qo‘llashdi. Bu birdan-bir to‘g‘ri yo‘l edi. Shu bilan kengash tugadi.

Is’hoqbek elga panoh bo‘lsin, deb Eshim polvonni Olabuqada qoldirib, o‘zi Chotqol tomonga ketdi.

* * *

O‘tgan asr o‘rtalarida Angliya butun dunyoga hukmronlik qilish niyatida Hindistonni bo‘ysundirib, Afg‘oniston, Eron va Turkiyani nazorat qilib turishga erishdi. Bu bilan cheklanib qolmay, Turkiston va Yettisuvga ko‘z olaytira boshladi. Bu yerlar Angliya uchun arzon xom ashyo olish va o‘z mollarini qimmat bahoda sotishga katta bozor bo‘lib qolmay, kelajakda Rossiyaga kunchiqar tomondan zarba berish uchun juda muhim platsdarm ham bo‘lar edi. Rossiya esa o‘z navbatida qanday yo‘l bilan bo‘lmasin, Turkistonga Angliyadan avvalroq kirib olib, birinchidan, arzon boylik, qimmatbaho bozorga ega bo‘lish va ikkinchidan, o‘sha tarafdan keladigan xavf-xatarning yo‘lini to‘sib, lozim bo‘lgan taqdirda inglizlarni Hindistondan surib chiqarishni o‘ylardi.

Xuddi shu kezlarda mahalliy boylarning istibdodidan ezilgan mehnatkash el ruslardan panoh izlab, bir yog'i o'z ixtiyori bilan Rossiya qo'l ostiga o'ta boshlagan edi. Umum Rossiya imperatori Aleksandr II: "Qo'qonliklarning Rossiyaga bosh egamiz degan iltimosiga — bordi-yu, ana shunday iltimos bo'lib qolsa, darhol rad javobini berishi kerak", deb bir ming sakkiz yuz-u yetmish birinchi yildayoq generallariga ko'rsatma berib qo'ygan edi. Buning uchta sababi bor edi. Birinchidan, Viktoriya diplomatlari "Rossiya Hindistonga nisbatan xavf tug'dirayotganligi" haqida janjal chiqardi, Yevropadagi Rossiyani qiziqtirgan masalalar bo'yicha boshqa mamlakatlarning elchilarini bir-biriga gijgijlab, iskanjaga ola boshladi. Umum Rossiya imperatori Angliya bilan muomalani Yevropada ham, Sharqda ham bir qolipga solish niyatida "arzlarni qabul qilishni" vaqtincha to'xtatishga majbur bo'ldi. Ikkinchidan, o'zaro munosabati chatoqlashgan mayda-chuyda xonliklar Rossiya imperiyasiga to'g'anoq bo'lish u yoqda tursin, qaytaga ularni qo'llab-qo'ltiqlab turgan bir paytda qaysi bir urug' yoki manaplarning iltimosini ijro etish zarurati qolmagan edi. Uchinchidan, Kapal qal'asi bilan Orol portidan bu yog'ida yastanib yotgan bepoyon yerlarni mustahkamlash hamda mustamlakaga doir ishlarni saranjom-sarishta qilish lozim edi.

Podsho hukumati Xudoyorxonga "hazrati oliy" degan unvon berib, uni gavhar yulduzli birinchi darajali Stanislav ordeni bilan taqdirladi. Xudoyorxonni unvon bilan orden uncha qiziqtirmasdi. Unga o'z eli o'rtasida kun sayin avj olayotgan noroziliklarni, isyonlarni rahm-shafqatsiz bosib turadigan beqiyos kuch, askar zarur edi. Bu yordam yarim podsho tomonidan berilishini sezgan Xudoyorxon isyonchilarni quvg'inga ola boshladi.

* * *

Hukmdorning iltifot va mukofotiga sazovor bo'lgan No'mon ponsodning jazavasi tutib ketdi. Isyonchilarga ketma-ket ayovsiz zarba berib, yo'l-yo'lakay qishloq-ovullarni talayverdi. Bunday xo'rliklarga bardosh berolmagan mehnatkash xalq mol-mulkini tashlab, boshi oqqan tarafga yo'l oldi. No'mon ponsod Chortoq,

Sho‘rkan, Pishqo‘rg‘on, Hazratisho, Mamay, Nanay qishloqlarini talab, tog‘ etaklaridan Olabuqaga yetib keldi.

Qimir etgan jon zoti ko‘rinmasdi. Qishloq eski qabristonga o‘xshardi. Birdaniga kirib borgani No‘monning yuragi dov bermadi. Yigirma beshta sipohiyni ayg‘oqchilikka yubordi.

Jimjit tog‘ salobat bilan yuksalib turardi. Chanach suvi egilgan sambittol novdalarini o‘ynab oqardi. Havo salqin edi. O‘rkach-o‘rkach oq bulutlar qayoqqadir shoshardi. Osmonda bir burgut ohista uchib yurardi.

Sipohiylar ehtiyotkorlik bilan kelishardi. Otlar gohida shitir etgan qandaydir tovushdan cho‘chib, suvliqlarini chaynardi. Undan nari borishga ularning yuragi dov bermadi. Etak tomoni suv, ust tarafi qoya, ikki tomoni esa qalin to‘qayzor edi.

Adashib qolgan buzoq ko‘chada o‘tlab yurardi. Uni ushlab so‘yishdi. Olovni baland qilishdi. Sipohiylarning yo‘g‘on, barvasta boshlig‘i buzoq buyragini oldirdi-da, yorib sixga tortdi, o‘zi o‘tga tovlab, obdan obi-tobiga yetkazib pishirdi. U kabobni so‘lagi oqib og‘ziga olib borarkan:

— Oh-oh, maz-za! — dedi. Shu payt miltiq ovozi varangladi. Barvasta kishi gulxan ustiga yiqildi. Varang! Yana biri chalqancha tushdi. Sipohiylar boshlarini birlashtirib, bir yerga g‘uj bo‘ldi. Biri tepalikka sinchiklab qarab quloq soldi. Hech bir sharpa yo‘q. “Yolg‘iz mergan shekilli. Endi qochib ketganga o‘xshaydi”, degan xayol ko‘ngillaridan o‘tdi. Shu on:

— Qimirlamanglar, qo‘rqoqlar! — degan ovoz eshitildi. G‘o-vur-g‘uvur bosildi. Varang! Yana bir sipohiy yuztuban tushdi.

— Jonimiz sadaqa! Jonimiz sadaqa! — deb sipohiylar baqirib yuborishdi.

Pakana archaning narigi yonidan qora telpakli kishi chiqib keldi. Eshim ekan. Ikki etagini bar urgan, oyog‘ida choriq, belida sadoq. Qo‘lida qora miltiq, piltasi tutab turibdi. U yaqinlashdi. Sipohiylarning biri:

— Hoy, yolg‘iz ekan. Uringlar! — deb intilgan edi, tol orqasidan uzilgan o‘qdan yiqildi. Qolganlari qalt-qalt titrardi.

— Jonim sadaqa! Hoy musulmon bolasi. Jonim sadaqa.

— Jon kerakmi? Qurollarni yerga tashlanglar. Tez! Tez! Bundoq turinglar...

Miltiqlar, qilichlar yerda, yotardi. Eshim qora soqol ikki kishini miltiq uchi bilan turtib chetga chiqardi. O'sha zahoti tolzordan nkki marta gumburlab o'q uzildi va haligilar yer tishladi.

Bir vaqtlar mahalliy aholining ancha-muncha yeriga egalik qilib, turkcha lahja bilan gapirib yurgan besh-o'nta forslar endilikda dushmanlarga yo'l ko'rsatuvchi bo'lib yollanishgandi. Haligilar o'sha sotqinlardan edi. Sipohiylar tinchidi-qoldi.

— Beri kel! — dedi Eshim birini chaqirib. Sipohiy dag'-dag' titrab:

— Rahming kelsin, og'ayni! Rahming kelsin, yosh xotinim bor, — dedi.

Eshim kulib yubordi.

— Qo'rqoq sort...

— Yo'-q, men sort emasman, — dedi sipohiy. — Men ko'ng'irotman. To'qson urug' o'zbekning bir urug'i. — U hozirgina o'ldirilgan ikki forsning o'ligini ko'rsatdi: — Bular sort.

— Mayli, — dedi Eshim. — Sizlarga ruxsat. Eshitdinglarmi? Endi orqaga qaramay jo'nanglar. Borib No'monga aytinglar, qo'l ko'tarmagan elga ozor yetkazmasin. Eshitdinglarmi?

Sipohiylar xursandchilikdan qichqirib yuborishdi.

— Eshitdik, rahmat, eshitdik!

— Bo'lmasa, qani tezroq yo'lga tushinglar.

Sipohiylar otlariga minib qochishar ekan, Eshim baqirdi:

— Ey-ey, — deyishi bilan qayta to'xtashdi.

— O'lja qoldirmaysizlarmi?

— Ol, botir, ol, — deyishib, otlarini qoldirib ketishdi.

Sipohiylar choponlarini yelkalariga tashlab biridan-biri o'tib, oyog'i yerga tegmay borishardi. Atrof vahimali, har tup archa xavfli tuyulardi. Burgut bularning kulgili holatini tomosha qilayotganday ko'k bag'rida ohista qanot qoqib aylanardi. Tog' tinch...

Bundan to'rt yil ilgari, tog'liklar xon tog'asi xunidan jabr tortgan kech kuzda Eshimning o'z ovulidan tuz-nasibasi uzilgandi.

O‘sha kuni ham yashil o‘zanni kesib o‘tgan anhor odatdagidek shovullab oqar va kishining allaqanday nozik his-tuyg‘ularini chertib o‘tar edi. Eshim muzdek xashak ustida chalqancha yotardi, Oyzoda uning yonida o‘tirardi. Oy uvada bulutlar ortiga yashirindi.

— Bolasan. Hech narsa bilan ishing yo‘q. Xayolingda o‘yin... Kech kirib tong otsa ham senga baribir.

Oyzodaning erkalatib aytgan muloyim gaplari, yelkasini silayotgan momiq qo‘llari uni eritib yubordi shekilli, uning kamzulini yechib, ko‘kragiga boshini qo‘ydi.

— Nima qilayin? — dedi Eshim kelinchakning to‘lishgan ko‘kragini iskab. — Nima qilayin, erkam?..

Oyzoda pirq etib kuldi.

— Obbo! Erkam emish?

Eshim boshini ko‘tarib, Oyzodaning yuziga bosdi. Xumor ko‘zlar parpirab yonardi. U shohi ro‘mol bilan chirmab bog‘langan qornini siypalatib:

— Bu nimasi, erkatoyim? Qachongacha shunday yuraman? Axir go‘dak uvol emasmi?

— Nikoh o‘qitaman, — dedi Eshim.

Oyzoda anchagacha indamay o‘tirdi, nihoyat yorildi

— Shu bilan ish bitarkanmi, o‘rgilay?!. U yog‘i nima bo‘ladi? Nikohdan keyin uch oyga yetmay bola tug‘ilsa, el nima deydi? Kimning farzandi deb surishtiradi.

— Ha, mendan boshqa bilan ham uchrashganmisan? Eshimning bolasi deyishmaydimi?

Oyzoda kulib:

— O, o‘rgilay! Oy-kunidan oldin tug‘ilgan bolani haromi deyishadi. Ikkovimiz kimga tushuntira olamiz? Kimning og‘zini yopamiz? Nikohdan oldin qo‘shilish shariatga to‘g‘ri kelmaydi. Bu odobdan emas, gunohi azim.

— O‘zim bilsam bo‘ldi. Shariat bilan ishim yo‘q. Oyzoda xayolga cho‘mdi.

— Mayli, buni o‘zimiz bilamiz, sevgimiz tufayli topganmiz. Biroq, shariatga xilof ish tutdik. U haromi. Tengdoshlari oldida ruhan ezilib yuradi.

Eshim javob topolmadi. Anchadan keyin so‘radi:

— Xo‘sh, nima qilaylik?

Oyzoda Eshimning bo‘yniga osildi.

— Ketaylik, ko‘zdan, so‘zdan olisroqqa ketaylik.

— Qayoqqa?

— Tog‘ qo‘ynidan bizga loyiq joy topilib qolar.

— Nima deyapsan?! — Oyzodaning qo‘lini bo‘ynidan olib tashladi. — O‘z elimni, kindik qonim tomgan yerimni tashlab qayoqqa boraman?

Oyzoda ayttan gapiga ming pushaymon bo‘ldi. Eshim unga qo‘rqa-pisa qaradi. Darhaqiqat, unib-o‘sgan qishlog‘ini tashlab ketishni sira xayoliga keltirmagandi. Oyzoda o‘zini bosib, Eshimga yuzlandi.

— O‘rgilib ketay. O‘z bilganingdan qolma. Bu yerni tashlab ketish senga oson emas. Sen erkak kishisan, elingga keraksan. — U yig‘idan arang o‘zini bosdi. — Men endi bu yerga sig‘mayman. Nima ham qilardim, o‘z aybim o‘zimda. Ko‘zimni chirt yumib, boshim oqqan yoqqa ketaman.

U o‘rnidan turib, “xayr”, deb shivirladi. Eshim uning qo‘lidan ushladi. Oyzoda qo‘lini tortib olmagani bilan unga o‘ng qaramadi. Eshim uni bag‘riga bosib, hidlay boshladi. Oyzoda ko‘z yoshlarini artmay uning quchog‘ida erkalanardi. Ular o‘zlarini tutib turolmay xashaklar ustiga ag‘anab ketishdi...

Anhor hamon shovullab oqardi. Tabiat sehrli tun og‘ushida edi. Uvada bulut harir parda kabi oy yuzini to‘sdi.

Eshim tahorat oldi. Oyzoda bulut ortidan suzib chiqqan oyga qarab huzur qilib yotardi.

— Ketolmayman, — dedi Eshim yerga qarab.

— Ixtiyoring o‘zingda. Seni yo‘ldan ozdirmayman, shunqorim, — deb Oyzoda o‘rnidan turdi, g‘ijimlangan ko‘ylagini tuzatib, kamzulining tugmalarini qadadi, ro‘molini tang‘ib, yo‘lga tushdi.

Eshim o‘rnidan turmay, ikki tizzasini quchoqlaganicha qoldi.

Bir mahal Oyzodaning g‘ing‘illagan ovozi eshitildi. U o‘ksib yig‘lab borayotganga o‘xshardi. Bu sado kuzning toza havosiga singib borardi.

...Oyzoda yashil o‘zan bo‘ylab o‘z yo‘lida davom etdi. U yalang oyoq, ro‘moli qo‘lida, marjon-marjon quyilgan terlarini artib borardi. Keng vodiy, atrof sokin.

Qandaydir shovqin eshitildi. Oyzodaning badani junjikib, tizzasi qaltirab to‘xtadi. U o‘zining duk-duk urayotgan yuragidan boshqa sharpani sezmadi. Entikib yerga o‘tirdi. Nogahon shundoqqina ustidan “shuv-shuv” qilib boyo‘g‘li uchib o‘tdi. Oyzoda ikki qo‘li bilan boshini berkitdi. Yaqin oradan g‘uvillagan ovoz eshitildi, Oyzoda o‘rnidan turdi. Shamol ekan. Hushtak chalib, qora burganni tortqilab o‘ynayapti. U olg‘a odim otishi bilan ortidan tovush keldi. Qaroqchi! Oyzodaning yuragi o‘ynadi.

— Oy-zo-da-a.

Bu ovoz xuddi yer qa’ridan kelayotganga o‘xshardi. Sho‘rpeshona kelinchakning yana qanaqa ko‘rgiligi bor ekan? Berkinishga biror pana joy topolmagan Oyzodaning ko‘ziga bu yorug‘ jahon qorong‘i va tor ko‘rindi. Tovush hamon yaqinlab kelmoqda edi.

— Oy-zo-da-a.

Oyzoda kalxatdan qochgan kaklikdek yuragi duk-duk urib, jonsaraklik bilan atrofga ko‘z yugurtirardi. Qichqirgan kim? Kimning ovozi?

Suvori yuqoridagi yo‘ldan otini yeldirib o‘tib ketdi. “Oy-zo-da-a!” Ovoz bu gal olisroqdan keldi. Oyzoda dik etib o‘rnidai turdi. Eshim ekan! U burganzorni oralab yugurdi.

— E-sh-i-im!

Oyzoda o‘z ovozini o‘zi taniyolmay, yig‘lab chaqirardi.

— E-shi-i-im!

— Oy-zo-o-da-a.

Bepoyon dalada aks-sado yangrardi.

Eshim otdan sakrab tushdi.

— Qaerdasan? — deb quchoq ochdi. Oyzoda entikib kelib, unga o‘zini otdi. Hech narsa gapirolmay to‘lib-to‘lib yig‘ladi.

— Ketamiz, quyoshim! Ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan tomonlarga ketamiz, — deb Eshim Oyzodaning terlagan tomoqlaridan o‘pdi.

— Baxtim, quvonchim! — dedi Oyzoda entikib. — Orqamdan keldingmi? Baxtim, davlatim!

Ular shirin orzu-xayollar bilan o‘z baxtlarini o‘zga eldan, o‘zga yerdan topish uchun kunbotish yoqqa, Toshkent tarafga qarab yo‘lga tushishdi. Ular kunni kun demay, tunni tun demay yo‘l bosishardi. Oyzoda otda, Eshim esa etagini bar urib oldinda yayov borardi. Dovonga yaqinlashganda Oyzoda bezovta bo‘la boshladi. Balki, olis yo‘lda otda urinib qolgani uchun shunday bo‘layotgandir? Ular suv bo‘yida to‘xtab dam olishdi. Oyzoda tobora og‘irlashdi. Hadeb “qornim” deb to‘lg‘anardi. Eshim nima qilishini bilmay gangib qoldi.

— Nima qilayin? — so‘radi Eshim.

— Biror el yashaydigan joyga borsakmikin? — dedi Oyzoda ko‘zlari kosasidan chiqib.

— Birov tanib qolsa-chi? — dedi Eshim. Keyin javobini ham kutmay otni yetakladi.

Ular bir oz yurgach, itning hurgani eshitildi, olisda qo‘ra ko‘rindi. Ular tosh qo‘raga yetib kelishlari bilan, eshik oldida turgan kishi: “Ket-e, battol”, deb itni haydadi. It jim bo‘ldi qoldi.

Eshim ikki qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib salom berdi:

— Assalomu alaykum!

— Vaalaykum assalom! — deb qiroat bilan alik oldi uy egasi.

Eshim istarasi issiq cho‘qqi soqol qariyaga nima deyishini bilmay hayron bo‘lib qoldi. Chol ot ustidagi betob ayolga qarab:

— Qani, uyga kiringlar, dedi Eshimga. — Tortinma, botir. Kelinni otdan tushir. — Hoy, mehmon keldi, — deya oqsoqol ichkariga qaradi.

Eshim Oyzodani otdan tushirdi. O‘tovdan o‘rta yoshlardagi ayol chiqdi. U mehmonlarga birrov qaradi-da, Oyzodani qo‘ltig‘idan suyadi.

— Bechoraning tobi qochibdi...

Uyga kirishdi. Hech kim yo‘q. Archa o‘tin chirsillab yonardi. Qozonda go‘sht qaynardi. Kampir Oyzodani to‘rga, yumshoqroq yerga o‘tqazdi. Eshim poygakka cho‘kdi. Chol indamadi. Eshimning ko‘nglidan: “Tanib qolmasaydi, xo‘sh, tanisa nima qilibdi?” degan gap o‘tdi.

Kampir bilan Oyzoda o‘zaro pichirlashib, nima bilandir ovora edi.

— Qayoqdan kelyapsan, botir? Kech kuz dovonga tirmashib qolibsan?

Eshim cholni chalg‘itib:

— Talasdan, — dedi.

— Talasdan kelganlar narigi dovondan tushadi. Sen Qiziljar tomondan kelyapsan-ku, o‘g‘lim.

Eshim izza bo‘lib, quloqlarigacha qizarib ketdi.

Kampir Oyzodani tashqariga olib chiqib, o‘zi qaytib kirdi va Eshimga qaradi. U o‘rnidan turdi.

— Xotiningizning bo‘yida bor ekan. Otda urinib qolibdi. Hechqisi yo‘q, Xudo xohlasa, yaxshi bo‘ladi.

Kampir olovda turgan kumg‘onni ko‘tarib eshikka chiqdi.

— O‘tir, o‘g‘lim, — dedi qariya, — Xudo o‘zi asrasin.

Eshim bilan Oyzoda ana shu mehribon kishilarning xonadonida ikki kun tunashdi. Chol-kampir qochoqlardan hech narsani ayashmadi. Tezda inoq bo‘lib qolishdi.

Dili pokiza odamdan sir yashirish mumkin emas. Eshim bo‘lgan voqeani to‘la-to‘kis aytib berdi.

— Ey, Oq Erkam, — dedi chol kampirini chaqirib, — bu yoshlarni Xudo o‘zi topishtirgan ekan. Kel, qarab o‘tirmay, tezroq ularni nikohlab qo‘yaylik. Beriroq o‘tiringlar.

Eshim bilan Oyzoda bir-biriga qaradi. Kampir sidqidildan quvonib, dasturxon yozdi, bitta gulli kosada suv, ozgina toza paxta olib keldi. Keyin qo‘shnilarni chaqirgani eshikka chiqayotgan edi, chol, keragi yo‘q, deb uni to‘xtatdi.

— Qizga sen, yigitga men guvoh bo‘lamiz. Bismillohir rahmonir rahim... Bismillohir rahmonir rahim, — deb oqsoqol nikoh oyatini arabcha o‘qidi, so‘ng Eshimga yuzlanib so‘radi: — Eshim Xudoyberdi o‘g‘li u dunyo-yu bu dunyo Yomg‘ir qizi Oyzodani o‘z tanmahramligingizga qabul qilasizmi?

Eshim bo‘g‘riqib, sal kuldi va bosh irg‘ab yerga qaradi:

— Ha, qabul qilaman...

Qariya yana o‘sha ohangda nikoh oyatini takrorlab:

— Oyzoda Yomg‘ir qizi, — deb Oyzodaga qaradi, — Xudoyberdi o‘g‘li Eshimni u dunyo-yu bu dunyo o‘z tan mahramligingizga qabul qilasizmi?

Oyzoda uyalib, ro'moli bilan yuzini sal yashirib o'tirgan edi. Shuning uchun ovozi uncha eshitilmay qoldi.

— Obbo, qabul qilmasa, ota-onasidan qochib, bu yerlarda sarson bo'lib yurarmidi? Qabul qildi, qabul qildi, — dedi kampir.

— Yo'q, — dedi chol boshini chayqab, — shariat bunga yo'l qo'ymaydi. Javobini eshitmog'imiz lozim.

Oqsoqol uch bora so'radi. Oyzoda uch bora "qabul qildim", deb javob berdi.

Shundan keyin oqsoqol:

— Omin, — deya qo'lini yozdi, — u dunyo-yu bu dunyo ahil yashanglar. Ichgan oshinglar, topgan bolanglar, yozgan dasturxoninglar halol bo'lsin. Bu dunyoda bandalar oldida, u dunyoda Xudo oldida biz guvoh. Ollohu akbar!

Hammasi fotiha o'qishdi. Oqsoqol ko'k gulli chinni kosani Eshimga uzatdi:

— Ke, o'g'lim, mana bu tiniq suv umringning pokligi, ich.

Eshim bir ho'plab uzatdi.

— Endi sen bir oilaning egasisan. Uni xor qilmay boqish zimmangga yuklandi, — deb chinni kosani Oyzodaga tutdi. — Ke, qizim, endi sen ham bir xonadonning bekasi bo'lding. Jufti halolingni oyoq osti qilma.

Oyzoda ko'z yoshi g'ilqillab suvdan ho'pladi. Chol kosani qo'liga oldi.

— Endi biz ham ichaylik, — dedi chol. — Oq Erkam, dastlab sen ich. Bu suv tabarruk. Chunki, ikki bandaning taqdiri shu bilan bog'landi.

Kampir bilan chol undan ho'plagach, Oq Erka kosa tagida qolgan suvni: "Etagi to'la bola bo'lsin", "O'chog'idan olov uzilmasin", deb irim qilib, o't atrofiga aylantirib sepdi. "Baxtli beka bo'lsin", deb paxtani, o'girib tashladi.

— E, o'g'lim, ishq degani yomon bo'ladi. Biz ham yosh bo'lganmiz, — dedi qariya. — Anavi enangni bir vaqtlar men qozoqdan olib qochganman. Otasi ming yilqili boy edi. Savdo bilan Sir bo'yiga borib, Oq Erkamni ko'rib qoldim. Loladay ochilgan o'n besh yoshli nozanin aql-hushimni oldi. Savdo-sotiqni tashlab, boy eshigida bir yil bekorga yilqi boqdim. U payt-

da menga ish haqi emas, oq Erkamning oyda bir kulib boqishi katta davlat edi.

— Yana eski gaplarni kavlashtiryapsizmi, chol? — dedi kampir kulib. Oqsoqol o‘zining tovonidan o‘t chaqnagan yoshligini xotirlab, so‘zida davom etdi:

— Qozoqlar bag‘ri keng, bir so‘zli edi. Shuning uchun sovchi qo‘ygani botinmadim. Berishmasdi. Oq Erkamning ishqiga, baxtimga ishondim. Maslahatni bir yerga qo‘yib, yilqilar ichidan ikki otni yashirincha sovutdik. Vaqti-soati yetganda Oq Erka yigitcha kiyinib chiqdi. “E, Xudo, o‘zing sharmanda qilma”, deb qochdik. Toshkent orqali ovulga keldik, meni o‘ldiga chiqarib, hatto yilimni ham o‘tkazishibdi. O‘z sevganing bilan bo‘lsang, barcha qiyinchiliklarni yengasan. Qornimiz ochmadi, kiyimimiz to‘zmadi. Yaratganga ming qatla shukur. Olloh bizni birgina farzanddan qisdi, xolos.

Oq Erka ko‘z yoshlarini ko‘ylagining yengi bilan artdi.

Ertasi kuni Eshim:

— Yaxshiliklaring uchun rahmat. O‘zlaringga yarasha tirikchiliklaring bor. Oshlaringga sherik, boshlaringga yuk bo‘lmaylik, — dedi qariyalarga.

— Bandaning boshi — Ollohning toshi, deydilar, bolam. Bandasi qaerda bo‘lsa ham bir burda nonini topib yeydi. Agar lozim ko‘rsang, biznikida qola qol. O‘z uying, o‘lan to‘shaging bo‘ladi. O‘zing o‘g‘il, xotining qiz bo‘lsin. Birga turaveramiz. Yo‘q, baxtimizni boshqa yerdan izlaymiz, desang, ixtiyoring, ot beraman. Tog‘ tog‘ bilan uchrashmaydi, ammo odam odam bilan uchrashadi, — dedi qariya.

Eshim sevinchini yashirolmadi:

— Rozimiz, otaxon.

Oqsoqolning chehrasi yorishib, eshikka qarab chaqirdi:

— Hoy, Oq Erkam...

Eshikdan kampir kirdi. Chol xotiniga sinovchan qarab:

— Karami keng Xudo inoyat qildi, kampir... Qaragin, sen bilan men qirq yil zoriqib kutgan farzandni bugun o‘zi yetkazdi.

— Nima gap, chol? — deb so‘radi Oq Erka tushunmay Eshimga qarar ekan.

— Oq Erkam, — dedi qariya , — tushimda chig‘anog‘imga ipi uzun, qo‘ng‘iroqli lochin kelib qo‘ngandi. Mana, tushim o‘ngidan keldi. Bu yigitni o‘g‘il qilib olamiz, kampir.

— Chol, — dedi Oq Erka yig‘lamsirab. — Siz nima desangiz shu. Qirq yildan beri farzand dog‘ida kuyamiz. Afsus... Rostini aytish kerak, elda: “Uyirini tanimagan ot, elini tanimagan er bo‘lmas”, degan gap bor. Bir kun qarindoshlaringizdan birortasi bularni “asrandi” deb yuzlariga solishsa, unda nima qilamiz, aylanay chol?

Oqsoqol nima deyishini bilmasdi. Ostonada turgan Oyzoda turli o‘y-xayolga borib, Eshimdan ko‘zini uzmay yig‘lardi. Eshim bundan ancha yil avval olamdan o‘tgan otasini esladi, yuragi allanechuk bo‘lib, cholning ko‘ksiga boshini qo‘ydi. Qariya uni bag‘riga bosdi. Qariyaning yaktagidan ter hidi anqirdi. So‘zlashga ikkovining ham madori yetmasdi.

— Ota...

Eshim boshini ko‘tardi. Oqsoqolning serajin yuzlaridan yosh dumalab moshkichiri soqolini yuvardi.

— Asradim, bolam! Asradim! — dedi hiqillab.

Oq Erka yoqasini ushladi, Xudoga shukrona aytib yig‘lab, yuragini bo‘shatdi.

— Tug‘masam ham tutindim. Emizdirmagan bo‘lsam ham emizdirgandan ortiq ko‘raman, bolam. Tutindim, tutindim, — deb iyib, ko‘ksini Eshimga tutdi...

Ovulning ana shu hurmatli Oqsoqoli Sultonmahmud Xudo yo‘liga atab osh berdi, o‘g‘il-qizli bo‘lganligini elga bildirib, Eshimni odamlarga tanishtirdi.

— E, qurama urug‘i. Ko‘rib qo‘yinglar, Xudo menga o‘g‘il berdi. Tuqqandan tutingan afzal deydilar. Sadag‘ang ketay, xaloyiq, mening farzandim, sizlarning farzandlaring. Yana uni o‘gaylatib yubormanglar, xafa qilmanglar.

Sultonmahmud boshqa gapirolmadi. Xudodan shafqat, eldan fotiha so‘radi. Cholning ko‘z yoshlari fo‘tasiga tomar edi. Yonida turgan Oq Erka ham sevinch yoshlarini tiyolmasdi.

— Qutlug‘ bo‘lsin! O‘g‘il muborak, Sultonmahmud? Kelin qutlug‘ bo‘lsin, Oq Erka, — deb ovuldoshlar muborakbod qilishdi.

Soqoli ko‘ksiga tushgan chol ikki qo‘lini yozib, osmonga qarab:

— E, jamoat! Sultonmahmud murodiga yetsin, tutingan o‘g‘il-qizining rohatini ko‘rsin, — dedi. Hamma qo‘lini ko‘tardi:

— Omin! Eshim Sultonmahmudning o‘g‘li. Eshim qurama urug‘ining o‘g‘li. Omin, begonasan, deganning ko‘ziga tuproq to‘lsin! Omin! Omin!

Oq Erka Eshimga o‘z qo‘li bilan tikkan yangi sariq cholvor, oyog‘iga bulg‘ori etik, qizil kamzul, boshiga qurama eliga xos bo‘lgan tepasi serbar, qayirmasiga ensiz qunduz terisi qadalgan telpak kiygizdi. Eshim xuddi kuyovlarday ochilib ketdi.

Mol olasi sirtida, odam olasi ichida. Bir chetda o‘tirgan ikki kishi fisq-fasod qilardi. Ular Sultonmahmudning bu ishidan kuyinib, o‘zlarini qo‘yishga joy topolmasdi.

— Bu kelgindini qaysi shamol uchirdi?

— Xudo biladi. Chol bekorga ovora bo‘lyapti.

— Ha, to‘g‘ri aytasan.

— Bu yaxshi yigit emas. Turqu-tarovatini qara. Bir kuni ketadi-qoladi.

— To‘g‘ri. Sho‘rlik Sultonmahmud bolaning tirnog‘iga zor bo‘lib o‘tdi-da. Xotini ellikka chiqqan bo‘lsa-da, qizlardan sira qolishmaydi.

— Balki...

— Xa-xa-xa... Bir ko‘rib bermaysanmi?

— Hi-hi-hi...

Shunday qilib Eshim qurama Sultonmahmudga tutingan o‘g‘il bo‘lib, Er Eshim degan nom olib, o‘sha ovulda qolib ketdi. Xonga qarshi xalq isyon ko‘targan paytda, u tek turolmay, yigitlarni yoniga olib, kelib Is’hoqqa qo‘shildi.

* * *

No‘mon ponsod Eshim yuborgan duoyi salomdan darg‘azab bo‘lib ketdi. Turklashib ketgan forslardan yana beshta yo‘lboshlovchini qo‘shib, “Jinni yuzboshi” nomini olgan yuzboshini saralangan yuzta sipohiy bilan jo‘natdi.

Jinni yuzboshi beshta yo‘lboshlovchi bilan tog‘ orasidan yurmay, adir oshib borardi. Ular ikki yerda aholisi ko‘chib ketgan ovulga duch kelishdi. Yolg‘izoyoq yo‘l bilan qoyalar ostidan o‘tayotib isyonchilar buzib ketgan tor ko‘prikka kelib to‘xtashdi. Noiloj orqaga qaytib, sayhonlikka tushishdi. Oldin kelgan sipohiylar xuddi shu yerda qo‘lga tushgandi. Tuproq va xashaklar qon. O‘liklar bir joyga dafn etilibdi. Otliqlarning badani seskandi. Undan nari ancha yurildi. Hech kim yo‘q, tog‘ jimjit edi.

— Bari Chotqolga oshib ketgan shekilli, — dedi forslarning biri, — shu joylarda qumursqaday o‘ralashib yurardi.

Bu xilvatda odam yashashiga ko‘zi yetmagan Jinni yuzboshi yana ichkari kirishdan cho‘chib, ortga qaytdi.

Ular xavfli tuyulgan hamma joylarni ko‘zdan kechirib chiqishdi. Atrof suv sepganday jimjit edi. Varang! Oldinda borayotgan sipohiy ot bo‘yniga ortilib qoldi. Sipohiylar shosha-pisha otdan tushib, panaga o‘tishdi. Varang-varang! Ro‘paradan beto‘xtov o‘q uzilardi. Jinni yuzboshining yigitlari ko‘piklanib oqayotgan suv atrofida o‘ralashib qoldi. Otlar g‘izillayotgan o‘q ovozidan kishnardi. Kimdir uzangida sudralib borardi. Gumbur-gumbur! Miltiqlarning ovozlari qoyalarga urilib, tog‘da aks sado berardi.

Bir sipohiy o‘q chiqqan tomonga qarab baqirdi:

— Hoy, musulmonlar! Jonimiz omon qolsin. Jonimiz omon qolsin!

Varang-varang! Omon qoldirish yo‘q. Sipohiylar: “Yo Ollo, yo Ollo!” deb otlarining yoliga yopisha boshladi. Quyi tomondan ham o‘q yomg‘iri atrofni larzaga soldi. Qurshovdan faqat bir-ikki egasiz ot chiqib ketdi.

O‘q tovushlari tindi. Merganlar sayhonlikda yotgan murdalarni bir chekkaga olib chiqishdi, qurol-yarog‘larni, otlarni o‘lja qilib, ikki yigit Jinni yuzboshini Er Eshimning oldiga keltirishdi.

— Yaradormi?

— Soppa-sog‘.

— Otdan o‘zingni otibsan-da, a? Jon shirin ekanmi, yuzboshi?!

Jinni yuzboshi indamadi.

— Urush qanday bo‘lishini ko‘rdingmi? Endi jo‘nab qol. No‘monga ayt, o‘zi kelsin.

Yuzboshining tili kalimaga kelmadi.

Merganlar zum o'tmay to'qayzorga kirib g'oyib bo'ldi. Porox va tutun hidi anqirdi. Tepada quzg'unlar aylana boshladi. Yana hammayoq jimjit bo'lib qoldi...

No'mon yuz sipohiyning qirilganini eshitib, o'rnidan turib ketdi.

— Chaqir! — dedi ponsod. — Chaqir bu yoqqa haligi ablahni!

Bir yigit tezda Qambar sarkorni boshlab keldi. Sarkor quti o'chib salom berdi. No'mon ponsod alik olmay unga qaradi:

— Sen qatayman deganmiding?

— Ha, qatayman, bek,

— Sen o'z urug'ingni joniga kuyasanmi?

— O'z urug'imning farog'atini ko'zlab siz bilan yuribman, bek. Isyonchilar bilan bizning ishimiz yo'q.

— Mayli, Qambar, qataylarni kechiraman. Ma'lumki, sizlarning hosildor yeringizni o'zlarini turk deb yurgan fors-sortlar bosib olmoqchi. O'zing bilasan, qilichimni serpsam, ular bir kunda juftakni rostlaydi. Eshitdingmi?

— Eshitdim! Ming yashang, ponsod.

— Menga ikki ming yigit kerak. Eshitdingmi? Shunga arziymanmi? — u adovatini yashirolmay, zahrini sarkorga sochdi: — Eshitgan bo'lsang, menga Er Eshimni tutib kelasan. Bu sening qatay urug'ingga qilgan yaxshiligim bo'ladi...

Qambar sarkorning gangib qolganini sezgan No'mon dag'-dag'a qildi:

— Ertaga vodiydagi qatay urug'lari qilichdan o'tkaziladi. Tuxumini quritib yuborish maqsadida bo'g'oz xotinlarning qorni yorib tashlanadi.

Qambar sarkor ilojsiz qoldi. No'mon ponsodning yuzi zahillashib, ko'zlari ola-kula bo'lib ketgandi

Ertasiga Qambar sarkor qatay urug'ining barcha yigitlarini otlantirib, Er Eshimga borib qo'shildi. Uch kungacha sir bermay aralashib yurdi. Keyin qulay payt topib, o'n chog'li yigiti isyonchilar boshlig'ini bandi qildi, fursatni boy bermay otga o'ngarib Olabuqaga olib keldi, oyoqyalang, boshyalang Er Eshimni No'mon ponsod huzuriga yetkazdi.

— Hoy, Er Eshim, keldingmi? — dedi No‘mon ponsod. Er Eshim indamay, labini qimtib g‘azab bilan bekka tikildi.

— Yosh ekansan, botir! Yosh ekansan, o‘ylab ko‘r!

— Nimani o‘ylay?

— O‘ylab ko‘r, — dedi ponsod. — Yoshgina joningni birgina narsa saqlab qoladi. U ham bo‘lsa: “No‘mon ponsod sizlarni kechirdi, urushni to‘xtatinglar”, deb tog‘dagi qolgan-qutgan to‘polonchilarga aytsang bas.

Er Eshim ingrab yuzini o‘girdi.

— Bu gapni imonsizlarga ayt! Qambarga ayt!

Qambar bir to‘lg‘anib qo‘ydi. No‘mon ponsod unga bir oz tikilib turib dedi:

— Mayli, o‘zidan ko‘rsin... Qoziqqa o‘tqazinglar! — deya buyurib, o‘zi teskari qarab ketdi.

* * *

O‘rda hamisha tog‘liklar bilan hisoblashib ish tutardi. Sababi, tog‘liklar bilan shaharliklar, qishloqliklar birlashib ketguday bo‘lsa, qonli janjallar ko‘tarilib, xonlar do‘ppiday almashmog‘i tayin edi. Hozir esa davr boshqa edi. Xudoyorxonning ortida yarim podsholik turibdi. Shuning uchun xonning eski o‘ch, adovati tug‘yon urib, isyonchilarni shafqatsiz jazolashga viloyatlardagi ponsodlarga, mingboshi va yuzboshilarga erk bergandi, “Qo‘zg‘olonchilarning mol-u mulkini o‘zinglar bo‘lib olinglar”, deb ruhlantirib yuborgandi.

Xalqning tinchi buzildi. Namangan, qadimiy Axsi shahri atrofida, Shahand hamda Kosonsoy shaharlarida istiqomat qiluvchi yerlik mehnatkashlar, qorabag‘ish, qatay, qatag‘an urug‘lari xon yovuzligidan cho‘chib, osuda hayot kechirish uchun to‘g‘ri kelgan tomonga tarqalib, ko‘chib ketdi. Xudoyorxon Sirdaryo sohilidagi hosildor yerlarni, yozlik va qishlik yaylovlarni forslarga, tojik, arab va yahudiylarga ijaraga berib o‘troqlashtirdi.

Ammo isyonchilar shashtidan tushmadi. Is’hoq yozgi hujumga tish-tirnog‘i bilan tayyorgarlik ko‘rdi. Ikkinchi tomondan rus chinovniklari bilan aloqa o‘rnatishga urindi. “Yordam beringlar,

do‘st bo‘laylik”, deb ko‘plab sovg‘a-salom bilan To‘qmoq uyezdiga elchi yubordi. Uyezd boshlig‘i mayor Eller elchini yaxshi kutib olib, yordam berishga va’da qildi. Maslahatlashish maqsadida u general-gubernator fon Kaufmanga xat yozdi. Fon Kaufman yordam tugul isyonchilar bilan hatto suhbatlashishni ham qat’iyan man qilib, elchilarni To‘qmoq shahridan tezroq chiqarib yuborishni buyurdi.

Elchilar horib-charchab kech kuzda Talas orqali yetib kelishdi.

Boshqa iloji qolmagan isyonchilar butun qish davomida bo‘lajak jangga qattiq hozirlik ko‘rib, o‘q-dori, qurol-yarog‘ g‘amlashdi, erta bahorda jarchilar dumlari qonga bo‘yalgan otlarda ovul va qishloqlarga chiqib ketishdi.

— Otlaninglar! Otlaninglar! — deb jarchilar e’lon qildi. — E, xaloyiq, xon aynidi. O‘z xalqini, o‘z shahrini qaroqchiday talamoqda. Ahli musulmonlar, otlaningiz! Xonni insofga keltirib bo‘lmaydi. O‘zidan ketdi. Taqdirimizni qilich bilan hal qiladigan vaqt keldi. Otlaninglar! Otlaninglar!

Yuki vazmin bo‘lsa nortuya ham bo‘kirib yuboradi. El qaytadan qo‘zg‘aldi. Isyonchilar safi turli elat, urug‘lar hisobiga oshib borardi. Elchilar otlarini yeldirib, eldan-elga, yerdan-yerga xabar yetkazishardi.

— Otlaninglar, xaloyiq! Otlaninglar!

Bir ming sakkiz yuz-u yetmish to‘rtinchi yil bahorida arg‘umoqlar tuyog‘idan o‘t chaqnagan, obdan qurollangan uch mingdan oshiq qo‘shin Namangan sari yurdi. Katta yo‘l bo‘yidagi do‘nglikka yaqin kelishganda Is’hoq otidan tushdi-da, tizginni yigitlardan biriga ushlatib, do‘ngga ko‘tarildi. Yolg‘iz qabr do‘mpayib turardi. Barq urib ochilgan lolaqizg‘aldoqlar shahidning qoni bilan bo‘yalganday. Is’hoq qibla tomonga qarab, qabr etagiga o‘tirdi.

Bu Er Eshimning qabri bo‘lib, qonxo‘r No‘mon ponsod ketgach, to‘zib ketgan el qaytib kelib, botirning murdasini qoziqdan olib, shu yerga dafn etishgan edi. Qo‘shin otdan tushib, do‘nglikka cho‘kdi. Is’hoq boshini quyi egib, xiyla vaqt jim o‘tirdi va nihoyat qiroat bilan Qur’on o‘qidi. Qiroat bilan o‘qilayotgan Qur’on qabr atrofida o‘tirganlarni sehrlab qo‘ygan-day edi.

— Omin! — deb qo‘lini yozdi Is’hoq. U shivirlab o‘z eli saodati

uchun jonini qurbon qilgan botir arvohiga bag‘ishlab fotiha o‘qidi.

Hamma qo‘l ko‘tarib omin qildi. Is’hoq boshini ko‘tarmay uzoq o‘tirdi. Hech kim undan oldin turishga botinolmadi.

Mo‘min sardor asta uning chig‘anog‘iga turtdi.

— Taqsir...

— Ha? — Is’hoq qattiq uyqudan uyg‘onganday qo‘zg‘alib, chuqur xo‘rsindi.

— Bu yer mozor bo‘lsin. Qadamjo bo‘lsin, — dedi sekin.

Jilovdor kumush yolli chavkarni Is’hoqning oldiga yetaklab keldi. Qo‘shin birin-ketin otga mindi.

Olabuqa, Oqtom, Ko‘kyor, Nanay, Mamay, Safed Bilol qishloqlarining aholisi xalq qo‘shinini izzat-ikrom bilan kutib oldi. Oddiy mehnatkashlar odil zamon, odil hukmdor uchun hech narsalarini ayamasliklarini aytishdi, isyonchilar uchun mol, qo‘ylarini so‘yishdi, chodir, o‘tovlar tikib, mehr-ohibat ko‘rsatishdi, har bir qishloq pahlavon yigitlarini qo‘shib otlantirishdi.

II

Endi nima qilmoq kerak? O‘rdada ziddiyat kuchaydi. Yo‘l ayri bo‘lsa, daydi it ham gangiydi, deganlariday, kimning so‘ziga kirishini bilmay Xudoyorxonning boshi aylanib qoldi.

O‘sha kezlarda Rossiyaning “Sankt-Peterburgskie vedomosti” gazetasi sahifalarida ana shu isyon haqida; “Avval ma’lum qilinganiday, qo‘zg‘olon hamma elni o‘ziga birlashtirdi. O‘zbek, qipchoq, qirg‘iz va hatto o‘troqlashgan fuqarolar isyonchilar tomonga o‘ta boshladi. Shubhasiz, yaqin orada Xudoyorxon boshidan ajraydi yoki xonlikni topshirib, ruslar tomonga qochishga majbur bo‘ladi”, degan mazmundagi xabarlar bosilib turdi.

Isyon kun sayin avj olib, Sirdaryo, Qoradaryo sohillariga, keyinchalik Ko‘gart, O‘zgan taraflarga yoyildi.

Devonxonada shoshilinch kengash o‘tkazildi.

— Qani oftobachi? Xo‘sh, nima qilamiz? O‘zimiz tinchitamiz, deb shu kunlarga qoldik, — dedi Xudoyorxon jahlini zo‘rg‘a bosib. — Sayoq Po‘lat kelib o‘rdani bo‘shat deguncha qo‘lni qovushtirib o‘tiramizmi?

Bu ochiqdan-ochiq kesatish edi. Xonning ayg'oqchilari unga yo'l-yo'riq ko'rsatishgani bilinib turardi. Lekin Abdurahmon oftobachi parvo qilmadi. U o'zining qadr-qimmatini bilardi. Bunday og'ir damlarda xonning undan o'zga suyanadigan odami yo'q edi. Qolaversa, Musulmonqulning o'g'li qipchoqlarni yoqlashi shubhasiz.

— Faqat o'zimiz bostiramiz, taqsir.

— Siz bostirib keling, — dedi Xudoyorxon zug'um qilib. — Siz ularning dilidagini bilasiz. Mayli, o'z qarindoshlaringizni o'zingiz tinchitib keling.

— Bosh ustiga, shohim.

Ertasiga Abdurahmon oftobachi saralangan mingta sipohiyni oldi-da, No'mon ponsodni o'ziga yordamchi qilib, Namangan viloyatiga ketdi.

U isyonchilar bosh ko'targan yerlardan panalab o'tdi, Sirdaryo bo'ylab Qiziljarga yo'l oldi. Oldindan xabar berilgani uchun ularni Abil biy yigirma besh ming askari bilan kutib oldi. Ikkovi otdan tushib, quchoqlashib ko'rishdi.

— El-yurt omonmi? O'zingiz bardammisiz, biy og'a? — deb Abdurahmon oftobachi Abil biydan hol-ahvol so'radi. Abil biy ham sidqidildan:

— Xudoga shukur, uka! — deb javob berdi.

Otlanib yonma-yon ketishdi.

— Hukmdor hazratlari qalay? Sog'-salomat davron surib yuribdilarmi? — deb so'radi Abil biy.

— Eh, biy og'a, bu bandasi tushmagur noshukurligiga borar ekan-da. Qachon boshiga biror ish tushsa, boshi aylanib qolsa, do'stlarini yordamga chaqirar ekan...

Abil biyning bu gapdan vaqti chog' bo'ldi.

Adirlardan o'tishgach, Bo'zbu tog'i ko'rindi. O'zga tog'lardan farqi shundaki, yoz oylarida unda qor turmaydi, bir parcha bulut esa ustidan qishin-yozin ketmaydi. Bu aslida Farg'ona vodiysining el aytganday ona tog'idir. Cho'qqisida shinamgina ko'li bor. Uni Tulpor ko'li deyishadi. Abil biy o'sha Tulpor ko'li qirg'og'iga qirqta bo'z o'tov tikdirib qo'ygan edi. Har bir o'tovni ikkitadan soqchi qo'riqlardi. Abil biy mehmonlarni o'sha xoli yerga joylashtirib, xizmat qildi.

Oradan uch-to‘rt kun o‘tgach, Sher dodxoh boshchilik qilgan qutlug‘-sayid, nayman, cherik, qatay, qorabag‘ish va munduz urug‘lari biylaridan iborat ellikka yaqin vakil, ikkinchi yoqdan yonida yetti sipohiysi bilan Abdurahmon oftobachi tushib keldi.

Abil biy ehtiyotkorlik bilan ish tutdi. U keyinroq oldingi gina-kuduratni unutish uchun Sher dodxohni o‘nta biyi bilan o‘z o‘toviga mehmonga chaqirdi. Dasturxonda qo‘zi go‘shtidan tortib, mayiz qo‘shib tobiga keltirilgan qimizgacha muhayyo edi. Mehmonlar ovqatga qo‘l urdi. Abil biy suhbat qo‘qqisdan teskariga aylanib ketmasin deb, gap boshladi.

— Qani, yaxshilar, bu shaytonning bo‘yni uzilganidan ishora bo‘lsin, — deb zarbof choponni Qoraqosh oyimning qo‘lidan olib Sher dodxohning ustiga yopdi. — Qadrli dodxoh, bu sovg‘ani Xudoyorxon hazrat oliylari shaxsan sizga yubordilar...

Abdurahmon oftobachi Qo‘qondan chiqishida ikkita xachirga qimmatbaho kiyim-kechaklardan yuklatgan edi. Hozir u o‘rnidan turib biylarga o‘zi kimxob chopon ulashdi.

Sher dodxoh zarbof choponni egnidan sidirib tashladi:

— Yupun qolganimiz yo‘q. Qaysi xizmatlarimiz evaziga to‘n kiydiryapsizlar?

Uni ko‘rib, boshqalar ham kimxob choponlarini surib qo‘yishdi.

— Og‘a, kechirasiz! Buni mening sovg‘am deb biling. Qo‘limni qaytarmang, — deb Abdurahmon oftobachi choponni o‘zi qaytadan yopdi. — Siz otamni ko‘rgan odamsiz.

— O, Musulmonqul! Esiz og‘amiz, — deb yubordi Sher dodxoh. — Xayriyat, otangni unutmabsan, uka. Bilasanmi, noahilligimiz tufayli undan ajradik. Uning boshiga shu xotinboz yetdi...

Sher dodxoh Abdurahmonning yuragiga tuz sepdi. Abil biy suhbatni bo‘ldi.

— E-e, dodxoh, o‘zimiz tiklagan o‘rdani buzmaylik deymiz-da. Bilmaydi deysizmi?

Sher dodxoh so‘kindi:

— He, o‘sha, tinchimagan, qutsiz mamlakatingni... Issig‘i yo‘q to‘ningni...

Abdurahmon oftobachi qizarib ketdi. Qari dodxoh yig‘laguday bo‘lsa-da, bu gal choponni olib tashlamadi.

— E, yaxshilar, — dedi Abil biy. — Nima qilsa ham o‘zimizniki. Xudoyorxon bosh egib, uzr so‘rab, Buxoro vazirlari kiymaydigan choponlarni yuborishi katta ish. Haq gap, Xudoyorxon ko‘p xatoliklarga yo‘l qo‘ydi. Biz kechirdik. Mayli. Endi bu yog‘iga nima deymiz? O‘ylab ko‘raylik.

Sher dodxoh zaharxandalik bilan kulib qo‘ydi:

— Masxaravozday shu chopon bilan bizning ko‘zimizni bog‘lamoqchi bo‘libdi-da?!

— Qadrli dodxoh, — dedi Abil biy, — gap choponda emas. — Buni yaxshi bilasiz. Kuni kecha otasini Xudoyor o‘ldirgan shu Abdurahmon bilan men xonning qanaqaligini bilmaymizmi? Uni yaxshi bilamiz. Bizni tashvishga solgan narsa elatlar o‘rtasidagi birlik, ahilliklikning yo‘qligi. Tortishib yurib ko‘p narsani barbod berdik. Chuy, Talas, Toshkent qani?

Sher dodxoh kesatib dedi:

— Tiling shirin, Abil... Xudoyorxon bizni oyoq osti qildi. Kimga ishonadi, bilmayman-u, yildan-yilga haddidan oshib ketyapti. Sen bilan menga hech narsa emas. Zakot olsa, soliq olsa, chidaymiz. Ammo beva-bechoralarga og‘ir bo‘lib ketdi. Senga qanday, bundan xabarim yo‘q, biroq menga bu zarbof choponni Xudoyor o‘z elimning terisini shilib ustimga yopganga o‘xshaydi.

Gapga chechan Abil biy javob topolmay, Do‘mbuning taqdiri ko‘z oldiga keldi.

— Qolaversa, — so‘zini davom ettirdi Sher dodxoh, — sal to‘polon bo‘lsa, o‘rdadan sarboz yuborib, yigitlarni qoziqqa o‘tqazadi, ikkiqat xotinlarning qornini yorib, norasidalarii yerga uloqtiradi. Bu nima? Bu o‘z eliga xonning ko‘rsatgan marhamatimi? — Chol qaltirab ketdi: — Qoziqqa o‘tqazadi! Topgan qilig‘ini-ya...

Abdurahmon oftobachi qariyaning so‘zlarini eshitar ekan, xalqning nafrati kun sayin oshib borayotganligini, elniig tinkasi quriganligini aniq his qildi. “Bunga kim aybdor? Albatta, tuturig‘i yo‘q, benomus Xudoyorxonniig o‘zi”.

Sher dodxoh:

— Yaqinda qishloqlarni qul qilib, chol-u kampir, yoshu yalanglarni zor qaqshatib ketgan No‘mon bugun yana hech narsa bilmaganday kelib o‘tiribdi. Xo‘sh, bunga nima deysizlar?

Abdurahmon oftobachi g‘azabi qaynab, No‘monni chaqirtirdi:

No‘mon ponsod kirib keldi.

— Assalomu alaykum! — hech kim alik olmadi. Abdurahmonga savol nazari bilan qarab, bosh egib ta’zim qildi.

— Qulog‘im sizda, lashkarboshi...

Uning bu so‘zidan Abdurahmonni uncha mensimayotganligi bilinib turardi. Xonoboddagi g‘alabadan keyin Xudoyorxon uni o‘ziga yaqin olib, ancha ixlos qo‘ygandi. Bu uni hovliqtirib yubordi. No‘monning qo‘polligini ko‘rib Abdurahmonning joni chiqdi.

— Menga ber to‘pponchani! — deb Abdurahmon qo‘lini uzatdi. No‘mon oftobachiga gumonsirab qaradi va gap nimadaligini tushunmay hayron bo‘ldi. Buyruqqa bosh egishdan boshqa iloji qolmagan ponsod rus pistolini peshonasi tirishib, chor-nochor uzatdi. Abdurahmon yana No‘monga ko‘zlarini tikib:

— Yech qilichni! — dedi. Ponsod qilich sopidan ushlab ijirg‘anib to‘xtadi. Abdurahmon pistolni unga o‘qtalib:

— Qani! — dedi jiddiy.

— Nima bo‘ldi, oftobachi? — No‘mon qilichni yechib irg‘itdi. — Tushunolmay qoldim?..

— Sen homilador kelinning qornini shu qilich bilan yorganmiding?

— Nima bo‘pti? Hukmdorning buyrug‘i shunday edi.

— Hukmdor bunday buyruq bergan emas. Bergan emas. Sen shunchaki qilich damini sinagansan. Mana, — u qilichni biylarning oldiga irg‘itdi. — Endi bu qilichning damini sening esipast boshingni kesib ko‘rib sinashsin-chi?

No‘mon ponsod goh oqarib, goh ko‘karib:

— Ko‘zingga qara, Abdurahmon! Men ham senga o‘xshagan odamman. Hukmdorning oldida javob berib yurmagin. Seniyam ajal tortib qoldi, chamamda?

Abdurahmon uning so‘ziga quloq solmadi.

— Xonni elga, elni xonga yomonotliq qilib yurganlarning biri mana shu. Undan o‘ch olish o‘zinglarga havola, — dedi biylarga qarab.

Biylar gangib qolishdi. Sher dodxoh baqrayib o‘tirardi. Abil biy yutinib, har qanday sharoitda ham o‘rdani himoya qilayotgan

Abdurahmonga tan berdi. “Obbo, tulki-yey”, deb qo‘ydi ichida undan xursand bo‘lib.

Yigitlar No‘monni eshikka sudrashdi. U tixirlik qilib:

— Xo‘p yaxshi! Taqdir bir kuni sening boshingda ham qilichning damini sinab ko‘radi, Abdurahmon! Shoshma! Ha-ha! –dedi.

Abdurahmon yuz o‘girdi:

— Beting qursin!..

No‘mon ponsodning o‘ldirilishi, yo‘l qo‘yilgan kamchilikni bo‘yniga olish, eldan uzr so‘rash bilan teng bo‘ldi. Shuningdek, bu bilan Abdurahmon qarindoshlariga har qanday vaqtda yordamga tayyor ekanligini ko‘rsatdi.

Abil biy hozirgina yuz bergan voqeani tilidan asal tomib sharhlab, buni e’tiborga olish zarurligini uqtirdi.

O‘sha kungi yig‘in shu bilan tugadi.

Ertasiga peshin namozidan so‘ng, Sher dodxoh qo‘ngan o‘tovda to‘planishdi, bir piyola choy ustida suhbat davom ettirildi. Sher dodxoh tuni bilan o‘ylanib, hamqishloqlarini bezovta qilmaslik uchun durustgina bahona topolmadi.

— Qaniydi, sen aytganday, hamma narsa tinch yo‘l bilan hal qilinsa, Abil. Hali ko‘rasan, qon to‘kishga majbur bo‘lamiz, — dedi kuyinib Sher dodxoh.

— Ko‘raylik-chi, dodxoh og‘a! Yana o‘zimiz xatoga yo‘l qo‘ymaylik, — dedi Abil.

— Mayli, biz urushni to‘xtataylik. Xudoyor qasoskorlikka chek qo‘ysin. Ijaraga berib yuborgan suvli yerlarimizni qaytarib bersin. Urushda nobud bo‘lgan bolalarimiz uchun xun to‘lasin. Besh yilga qadar soliq olmasin.

Biylar uni bir ovozdan quvvatlashdi.

— So‘zimiz shu. Bunga ko‘nmasa, o‘zi biladi. Biz esa bilib ishimizni qilamiz.

— Bilib turibman, og‘a, — dedi Abdurahmon. — Agar sizning o‘rningizda bo‘lsam, men ham shunday degan bo‘lardim. Bunga shubha yo‘q. Mayli, rozi bo‘lsanglar, birga Xudoyorxonning oldiga borib barcha gapni unga aytaylik. Agar unga o‘lka, xonlik kerak bo‘lsa, tushunadi. — U Xudoyorga bo‘lgan nafratini yashirolmadi. — Ko‘nmasa, satqayi sar, o‘zidan ko‘rsin.

“Ko‘nmasa, satqayi sar... o‘zidan ko‘rsin...”. Abil biy bu yerda Xudoyorxonning taqdiri hal qilinganligini sezdi-da, ichida: “Gap nihoyasiga yetdi”, deb qo‘ydi.

— E-e, dodxoh, — dedi u ochiqdan-ochiq. — Yosh bola emasmiz-ku, Xudoga ming qatla shukur, bundan ortiq so‘z bo‘lmaydi.

Sher dodxohning yodiga qurama Abdumo‘minbek, isyonchilar yetakchisi Is’hoq keldi. Ular nima deydi? Paymonasi to‘lgan yurt nima deydi? O‘rtada oyoq osti qilingan nomus, kek bor-ku?.

— Abdurahmon uka, shunchalik aziyat chekib kelibsan, bu o‘tovda bitiradigan yengil-yelpi ish emas. Iloji bo‘lsa, jabr-u jafo tortgan xalqning o‘zi bilan hal qilaylik.

Ayyor Abil biy qariyaning qo‘ldan chiqib borayotganini fahmlab:

— Dodxoh, elga tinchlik, to‘qchilik, hukmdorning adolati kerak. O‘rdaning o‘zi xalqning ana shu talablariga ko‘nayotgan ekan, el nima ham derdi? Osoyishta mehnat qilib, tirikchiligini yana yo‘lga qo‘yadi. Xo‘sh, shunday emasmi, yaxshilar?

— Bu-ku, to‘g‘ri. Biroq... — deb biylar chaynalib qolishdi...

Abil biy gapning xuddi shu yeriga o‘zgacha ma’no berdi:

— Ha, balli! Demak, xon tinch bo‘lsa, u Xudoyor yoki Po‘lat bo‘ladimi, elga bari bir. Hozir ikki yo‘l turibdi. Aytaylik, xalq isyon ko‘tarib, qon to‘kib, Po‘latni xonlikka ko‘tardi. El maqsadiga yetdi deylik. Yoki Xudoyor xalqning talab va istagini hisobga olib, qon to‘kmay elga erkinlik berdi, deb faraz qilaylik. Shu ikki yo‘ldan qay biri maqbul?

— Xudoyor biz orzu qilgan kengchilikni berishi gumon. Uning eshshagi loydan o‘tguncha, — dedi biylardan biri.

Abil biy shosha-pisha:

— Unda men ham qo‘zg‘olon qilaman.

O‘tirganlar Abil biyning bu gapiga ishonib indamay qolishdi.

Shu kungi suhbatga ana shu joyda nuqta qo‘yildi. Ertasiga Abdurahmon oftobachi qo‘ngan o‘tovda to‘planishdi. Har ikki tarafning ko‘ngli yorishganday bo‘ldi. Qora mayiz obdan tobiga keltirgan qimizdan ichib o‘tirib, urushni to‘xtatmagan holda, har bir urug‘dan bittadan vakil olib, Sher dodxoh o‘rdaga boradigan bo‘ldi, shu bilan kengash yakunlandi.

E, otasi o‘gay bilan ovga chiqib bo‘larmidi?! Balki yana aldab qo‘yishar?! Nima bo‘lsa-da, biylarning o‘rdadan kelgan vakillar bilai til topib ketishi kutilmagan zarba bo‘ldi. Isyon to‘lqini tezda bosildi. Sher dodxoh ortidan ergashgan urug‘larning yigitlari qo‘shindan ajralib, qishloqlariga tarqalishdi. Ahillik, birlikka raxna tushdi. Is’hoq nima ham qila olardi? Ko‘ngli cho‘kib, No‘monning taqdiri endi uning boshiga tushayotganday tuyuldi.

Qayga ketib boryapsan, hoy yigit,
Gul hayotga va taqdirga bo‘ylamay,
Lola kabi chorlagaymi umidlar,
Yo chiqdingmi go‘zal yorga so‘ylamay.
Do‘stlaring kim, ot choptirgan sen bilan,
Taniysanmi, qayga ketdi o‘ylamay?

Is’hoqning xayoliga almisoqdan qolgan ana shu misralar keldi. U ko‘z ilg‘amas tog‘lar cho‘qqisini chulg‘agan bulutlardan ko‘z uzmay, o‘zi bilan o‘zi so‘zlashib borardi.

...Qo‘qonning birinchi xoni Olimdan uch o‘g‘il qolgandi. Umarxon taxtga o‘tirgach, ukasi Shohruhni vorislik talashmasin, deb o‘zi uni gumdon qildirgan edi. Shohruhning Ibrohimbek va Murodbek degan farzandlari onasi bilan qorateginlik tog‘alarinikiga boshpana izlab ketishga majbur bo‘lishgandi. Ibrohimbekdan esa Shohoyim degan qiz bilan Po‘latbek ismli bir yashar o‘g‘il sag‘ir qolgandi, qizini samarqandlik Ahrorxo‘jaga turmushga uzatishgandi. Ahrorxo‘ja yosh Po‘latbekni o‘z tarbiyasiga olib, erta-yu kech diniy aqidalarni o‘rgatadi, zikrlarda qatnashtirib, qalandarfe’l qilib o‘stiradi.

O‘tgan yili qutlug‘-said Sher dodxoh uch kishini ergashtirib, Xudoyorxondan va Toshkentdagi general-gubernator fon Kaufmandan yashirincha Samarqandga kelgandi. Ahrorxo‘jaga bildirmay Po‘latbekni topib, omadi ketib turgan Xudoyorxonga qarshi kurashda isyonchilarga boshchilik qilishni taklif etishgandi. Bu dunyo farog‘atidan butunlay yuz o‘girgan devonasifat Po‘latbekning‘ rangi quv o‘chib, yuragi po‘killab:

— Bormayman, — dedi boshini chayqab.

Sher dodxoh nima qilib bo‘lsa ham uni ko‘ndirishga urindi.

— Jamiki Namangan viloyati, barcha qutlug‘-said, qurama qo‘llaydi... Ish o‘ngidan kelib, el shuni kutib turibdi, — dedi dodxoh.

Devonaning qulog‘iga “qutlug‘-said, nayman, qurama” degan so‘zlar qaroqchilarning ismiday yoqimsiz eshitildi. Pochchasi Ahrorxo‘ja qirg‘iz va qipchoqlarni uning ongiga bir baloyi azim deb singdirgan ekan.

— Bor-may-man!.. Odamxo‘rlar! — dedi Po‘latbek burchakka tiqilib. So‘ng ko‘zini yumib, “Yo Ollo! Yo Ollo”, deb boshini silkib, tupuklarini sochib, zikr tusha boshladi.

Sher dodxoh bosh chayqab, Olimxonning zurriyoti shu qadar bachkanalashib ketganiga ich-ichidan achindi.

O‘sha kuni tunda vakillar Samarqanddan chiqib ketishdi, bir necha kun yo‘l yurib, horib-tolib, ozib Toshkentga kelishdi va qurama Abdumo‘minbekning uyiga tushishdi.

U chidamsizlik bilan kutardi. Salom-alikdan oldin:

— Ha, ishlaringiz qalay, dodxoh? — dedi kinoya bilan.

— E, ishi qursin!., — dedi tinkasi qurigan Sher dodxoh.

Shundan keyin suhbat kechqurun dasturxon atrofida davom ettirildi. Sher dodxoh Po‘latbekni qanday topib, qay yo‘sinda gaplashib, nima javob olganligini bir boshdan hikoya qildi. Eng oxirida:

— E, Parvardigor, qudratingni-ya! Olimxonning zurriyoti, deyishga tiling bormaydi, — deb xo‘rsinib boshini chayqadi. — Qaydagi bir iprisqini ovora bo‘lib izlab boribmiz-a?

— Xudo urgan-ey, — deb Abdumo‘minbek ham hayron bo‘lib qoldi.

— Qani, choydan ichinglar, dodxoh ota.

Sher dodxoh xayolga botib ketgan ekanmi, choy quyib o‘tirgan yigitga tikildi, “Samarqandning yomon devonasi!” — degan fikr keldi. “Manavini ko‘zida o‘ti bor ekanmi?.. Qayoqdan kelib qoldi u?” Dodxoh choyni yigitning qo‘lidan oldi. “Yo, Xudoyo, tavba!” — deb yigitni sira ajratolmay choydan ho‘pladi.

— E, bu bizning xizmatkor, — dedi Abdumo‘minbek. — Xotirjam bo‘ling, dodxoh, ularga temir qizdirib bossangiz ham g‘iring demaydi.

Sher dodxoh o‘zini o‘nglab:

— Ajabo, shunchalik o‘xshash bo‘ladimi-a?

Samarqandga borib kelgan vakillardan biri:

— Og‘zim bormayotgan edi, bek, — dedi.

Abdumo‘minbek so‘zga tushunmay o‘tirganlarga bir-bir qarab chiqdi,

— Bu yigit, — dedi Sher dodxoh, — boyagi men aytgan devonaning xuddi o‘zi-ya?!

Abdumo‘minbek kuldi;

— Bu Xudoning qudrati ekan. Bandayi mo‘minlar ichida o‘xshashlari ko‘p. Sirti o‘xshasa-da, taqdiri, peshonasi butunlay boshqadir.

Novcha, vajohatli, yuzini sal sepkil bosgan yigit dodxohga tikildi.

— Xayolingga bir gap kelib turibdi, azamat, — dedi Sher dodxoh erkalatib. — Qaysi urug‘dan bo‘lasan? Kimning o‘g‘lisan?

— Bo‘ston urug‘idan, dodxoh ota. Mulla Hasanning o‘g‘liman.

— E-e, mudarris mulla Hasanning o‘g‘li ekansan-da. Oting nima?

— Is’hoq.

— Yaxshi. Omon bo‘l, o‘g‘lim...

Sher dodxoh “Yaxshidan ot, yomondan dod qoladi” degan maqolning mag‘zini chaqib, xayolga cho‘mdi.

Mulla Hasan elatning ichkilik deb ataluvchi bo‘ston urug‘idan edi. Bir ming sakkiz yuz-u qirq to‘rtinchi yili mulla Hasan o‘g‘il ko‘rib, ismini Is’hoq qo‘yadi. Yolg‘iz o‘g‘ilni tarbiyalab, savodini chiqaradi. Keyin uni Qo‘qondagi Tunqator madrasasiga o‘qishga beradi. Is’hoq erta-yu kech zax hujrada mutolaa qilishdan zerikib, bir ming sakkiz yuz-u oltmish yettinchi yili madrasani tashlab, O‘xna qishlog‘idagi qarindoshlarinikiga ketib qoladi. Bu yerda Is’hoq insoniylikni o‘rganib, dehqonchilikdan tortib, uloq chopishgacha bo‘lgan barcha ishlarni qunt bilan o‘rganadi, mehnatda va hayotda toblanadi. Is’hoq yaxshi bilan yomon, o‘g‘ri bilan to‘g‘ri, mehnatkash bilan tekinxo‘r, ziyoli bilan ziyosiz o‘rtasidagi farqni yaxshi ayiradigan aqli yetuk kishi bo‘lib o‘sadi. Keyinchalik u

qishloqning farosatli, ilmli kishilaridan biriga aylanadi. Is'hoq ko'p o'tmay shahar kezgani chiqib ketadi, falakning gardishi bilan u Toshkentga kelib, Abdumo'minbek bilan tanishib qoladi...

Ertasiga Abdumo'minbek Sher dodxoh bilan xoli qolib:

— Dodxoh, kechagi nazaringiz tushgan yigit, "Men xon bo'laymi?" — deyapti, — dedi.

— Nahotki? — deb yubordi Sher dodxoh.

Abdumo'minbek bosh irg'adi:

— Shunday dedi shovvoz! Rost gap.

Sher dodxoh tikilib:

— Ko'kragida yoli borga o'xshaydi, — dedi. — Ha, o'ylab ko'rsak bo'lar ekan...

— Bir tavakkal qilsak-chi, dodxoh?

— Bordi-yu, ertaga Samarqanddan haligi devona chiqib qolsa, sharmanda bo'lmaymizmi?

Abdumo'minbek qo'lini siltadi:

— Uch kishining boshi birikkan yerda bunday da'vo bo'lishi mumkin emas. Elda ovoza bo'lib ketgach, devonangiz boshini toshga ursa ham hech kim ishonmaydi.

Shunday qilib, Is'hoq Sher dodxoh boshchilik qilgan vakillarga qo'shilib, Po'latxon degan nom bilan bir haftadan keyin Chotqolga yetib keldi.

* * *

Bosh vazir Xolnazar parvonachi isyon ko'targan tog'liklar nomidan taniqli Sher dodxoh qirq vakil bilan kelganligini Xudoyorxonga ma'lum qildi.

Xudoyorxon o'rnidan turdi.

— Abdurahmon qani?

— O'sha yoqda qolibdi.

— Nima uchun?

— Isyon ko'targan el ba'zi bir shartlarni qo'yibdi. Shunga ko'ra sizning oldingizga kelgan vakillar o'z talabini bir yoqli qilib borguncha, oftobachi jonini garovga qo'yibdi.

Xudoyorxon masxara qilib kuldi va darcha tomonga yuz burib:

— Shart? — dedi u. — Qanday shart?

Xolnazar parvonachi bir boshdan tushuntirmoqchi bo‘luvdi, xon qo‘lini siltadi.

— Hech qanday shartni eshitmaymiz. Hech qanaqa shart qabul qilinmaydi. Eshitdingizmi, parvonachi?

Xolnazar parvonachi tilini tiydi. Xudoyor esa avjga chiqdi:

— O‘yindan chiqmoqchi bo‘lganlarga biz shart qo‘yamiz. Biz hukmdormiz. Agar nayman bilan qutlug‘-said urug‘lari g‘avg‘oni bosmasa, tez orada haligi sayoq Po‘latni bog‘lab, bu yerga olib kelmasa, eshityapsizmi, parvonachi?

Xolnazar boshini qimirlatib, ko‘zlarini pirpiratdi.

— Agar o‘sha isyonchi nayman bilan qutlug‘-said o‘z janjalini o‘zi bosmasa, Po‘lat sayoqni bo‘ynidan bog‘lab huzurimga olib kelmasa, — deb chaynalib takrorladi Xudoyorxon, — kulini ko‘kka sovuramiz. Eshitdingizmi? Qipchoqlarning kunini ularning boshiga solamiz.

Xolnazar parvonachi labini tishlab turardi. Bu safar u bosh irg‘amadi. Negaki, parvonachi ham qipchoq edi.

Xudoyorxon:

— Vakillar hozir qaerda?

— Shu yerda, hukmdor.

Xudoyorxon kaftini kaftiga tars-tars urdi. Qop-qora, oriq udaychi kirib kelib, xonga ta’zim qildi. Xudoyorxon jahl bilan u yoq-bu yoqqa borib keldi:

— Qirq! Qirq urug‘ning biylari yo‘q qilinsa, elatlari qayoqqa ham borishardi? — deb Xolnazarga yuzlandi. Parvonachining rangi quv o‘chdi.

— E, hukmdor! — deb yubordi. — O‘chib borayotgan olovni qayta alangalatgan bo‘larmikan?..

Xudoyorxon:

— Olov? O‘chib borayotgan olovga suv quygan bilan teng bo‘ladi, bildingizmi? Eshitib qo‘ying, parvonachi? O‘chadi! Butunlay!

Xolnazar parvonachi nochor g‘o‘ldiradi:

— Xo‘p bo‘ladi, shohim.

Xudoyorxon udaychiga buyurdi:

— Qirq sotqinning darhol kallasi olinsin. Birortasi qolmasin. O‘zim sanayman. Agar birorta kam chiqsa, boshingni olaman. Eshitdingmi?

Udaychi:

— Xo‘p bo‘ladi, hukmdor!

— Xudoyorxon bilan Xolnazar anchagacha bir-biriga indamay o‘tirdi. To‘g‘ri qildimmi, deb xon so‘ray olmadi. Siz haqsiz, deb parvonachi quvvatlamadi.

— Yarim podsholik bilan nega do‘st bo‘ldik? A? — deb Xudoyorxon gap boshladi. — Ko‘rsataman! Dodini beraman! Hammasining onasini Uchqo‘rg‘ondan ko‘rsataman...

“Sening ham onangni uch marta Uchqo‘rg‘ondan ko‘rsatishgan edi”, deb Xolnazar ichida o‘ylab qo‘ydi.

Udaychi o‘sha kuni kechqurun o‘rda ostidagi eski xilvatgohda qirq vakilning kallasini olib bir joyga to‘pladi, eng ustiga Sher dodxohning boshini o‘rnatib qo‘ydi.

Xudoyorxon bir to‘p a’yonlari bilan xilvatgohga tushdi. Sher dodxohning oppoq soqoli qonga bo‘yalib, ikki ko‘zi ochiq qolgandi. Xuddi o‘zi bilan uchrashgandek, Xudoyorning badani jimirlab ketdi.

— Sher-ku! — dedi u.

— O‘sha, badbaxt , — deyishdi xushomadgo‘ylardan biri.

Xudoyorxon boshqa gapirmay orqasiga qaytdi. O‘rdaning kazo-kazolari uzun etaklarini shalviratib, uning orqasidan tez-tez odimlashdi.

...Abdurahmon bir talay elat biylari bilan bemalol qimiz ichib o‘tirardi. Tashqaridan ot dupuri eshitildi va yuzboshi chopib kirdi. Abdurahmon:

— Ha, namuncha hovliqmasang, — dedi bir nimani sezganday.

— Bek, — dedi yuzboshi, — vakillarni o‘ldirishibdi.

O‘tirganlar o‘rinlarida qotib qoldi. Abdurahmonning qo‘lidagi kosa tushib, qimiz to‘kildi. Ikki ko‘zi chaqchayib, qizg‘ish tusga kirdi.

— Eh! Befarosat, xotinboz! Ishni rasvo qilibdi, — deb o‘rnidan turdi. — Otlarni hozirlanglar.

Yuzboshi yugurib chiqib ketdi.

Ko‘p o‘tmay karnay chalindi, dam olib yotgan sipohiylar oyoqqa turdi.

Elat ham, Is’hoq ham es-hushini yig‘ishtirishga ulgurmadi. Abdurahmon otlandi. Hech joyda to‘xtamay uch kunda Qo‘qonga kirib bordi.

Uch marta zambarak otildi. Bunday hurmat odatda yovni mag‘lub etgan botirlar uchun ko‘rsatilardi. Abdurahmon ot jilovini tortdi:

— Ey, — deb baqirdi. Zambarakchilar boshlig‘i tepadan engashib Abdurahmonni tanib qoldi:

— Lab-bay, hazratim!

— Hoy, esi yo‘q! Nega bekorga otasan?

— Shahanshohning buyrug‘i. Hurmatli jahongir Abdurahmon parvonachi botirni tantana bilan kutib olinglar degan.

— Jahongir! — deb u ichida o‘zini-o‘zi masxara qildi. U shuncha harakat qilib, endi epaqaga keltirgan ishni rasvo qilgan Xudoyorxonni so‘kib kelardi. Eng yomoni, elatga yolg‘onchi bo‘ldi. Buni Xudoyor atay qildi. El bilan aloqasi mustahkamlanib ketmasin, menga halol xizmat qilsin, degan niyatda ana shunday qabihlikka bordi...

Bir vaqtlar Yusuf otalik Sheralining chorig‘ini osdirib qo‘ygan devonxonada arkoni davlat to‘planib o‘tirardi. Abdurahmon tartib bo‘yicha qurolini tashqarida qoldirib kirishi lozim edi, lekin u belida to‘pponcha, yonboshida qilich va qo‘lida qamchin bilan tashrif buyurdi. Bu odobsizlikni birov erkalikka, boshqalar mensimaslikka yo‘yishdi. Abdurahmon taxtga yaqin kelib ta’zim qildi. Xudoyorxon o‘rnidan turib:

— Yo‘lbarsim, — deb quchoqlashib ko‘rishdi. Boshqalarga bu qattiq ta’sir qildi. Ayrim xushomadgo‘ylar ko‘z yoshi to‘kkan bo‘lishdi.

Iliq so‘z iydirar. Tantanali kutib olish, hurmat Abdurahmonning yuragidagi eski dog‘larni yuvib ketdi. O‘sha kuni Xudoyorxon Abdurahmon parvonachini Qo‘qon qo‘shinlariga lashkarboshi qilib tayinlab, farmoni oliyga muhr bosdi. Shu bilan Abdurahmon parvonachi o‘rdada hukmdordan keyingi darajaga erishdi

Isyonkorlar esa qaytadan birlasha olmay, kuzga borib bir yo‘la tinchidi.

General-gubernator ana shu yili sakkizinchi oktyabrda Xudoyorxonga maktub yozib: "O'lkangizdagi to's-to'polon, chamamda, bir yo'la tinchib ketdi shekilli. Bu mening uchun eng yoqimli xushxabar bo'ldi. Endi, Xudo asrasin, bunday noxush voqea yuz bermasligini chin yurakdan istayman", deb tabrikladi.

III

Qizidan ajralgani kamlik qilganday, Suyumxonning aqldan ozib, Sariboyni yolg'iz tashlab ketishi dard ustiga chipqon bo'ldi. Faqat Modilgina uning issiq-sovug'idan xabar olardi. Sariboy qo'mizini ermak qilib dardini yengillashtirardi.

Ilgari qarindosh-urug'lari qo'miz tinglagani chiqishardi. Hozir negadir oyoqlari tortilib qoldi. Bolalariga, "chiqma, kasri tegadi", deb tayinlab qo'yishganmi, ovqat-oziq olib kirgan yosh-yalanglar indamay Sariboyning qo'liga kosani berardi-da, asta chiqib ketardi. So'nggi kunlarda Sariboy odamlar bilan so'zlashgani yuragi to'kilib tursa-da, biroq hech kim yaqiniga yo'lamasdi, na o'tirish-turishida, na yotar-turarida, na uyqusida huzur-halovat bor edi. Ammo kecha qiziq tush ko'rdi...

...Sariboy xotini bilan yam-yashil to'qayzorda yurganmish. Ular sharqirab oqayotgan suvlarni kechib o'tisharmish. Chumchuqlar chirqillab, yengil qanot qoqib yelpirmish. Kimdir tog' cho'qqisida o'tirib, quvnoq kuyni qo'mizda chertarmish. qo'mizning tilini tushungan Sariboy ochilib-sochilib: "Men o'lib, jannatda yurgan ekanman... Qarang, Xudo u dunyodagi azob-uqubatlarni hisobga olib, bu dunyoda jannatdan o'rin beribdi. Ha, behisht shu ekan-da", dermish va to'ymay atrofga zavq bilan boqarmish...

Shu payt bexosdan it hurib, uni uyg'otib yubordi. Sariboy tizzasini quchoqlab yotganini payqab hafsalasi pir bo'ldi.

U boshini ko'tarib, telpagini kiydi, choponini yelkasiga tashladi. Tashqaridan bolalarning ovozi, uloqning ma'rashi eshitildi. Qorni ochgani uchunmi, tong otibdi, deb o'yladi. Idinning uyidan g'ala-g'ovur, erkaklarning gaplari qulog'iga chalindi. Qiziq, nima yangilik ro'y berdiykin? Bilgisi keladi! Afsuski... U yana qo'mizi-

ni olib sozladi, yurakni larzaga soladigan g‘amgin kuylardan birini boshladi.

Bahor kelgani uchunmi, har qalay Sariboyning qarindoshlaridan uch xo‘jalik Sozsoy yayloviga ko‘chmoqchi bo‘lishib, xayrma’zur qilgani kelishdi. Sariboy ularga: “Mayli, qarindoshlarim, qaerda bo‘lsanglar ham omon bo‘linglar. Ozmay-to‘zmay, ko‘payishib yuringlar, yodinglarga tushganda, mendan ham xabar olib turinglar”, — deb fotiha berib xayrlashdi.

Kunlar bir-birini quvib o‘tardi. Bir kuni Modil ovuldan xushxabar topib keldi:

— Tunov kuni Xudoyorxon biz yoqdan borgan qirq biyning boshini olgan ekan. Odamlar bunga chidamay isyonga shaylanayotgan emish. Buni jarchilardan eshitdim. Attang, qarindoshlarimiz ko‘chib ketmaganida men ham urushda qatnashardim.

— Hovliqma, urush sen aytganday hayitda bo‘g‘irsoq yeyish emas. Urush qirg‘in, qanchadan-qancha odamning yostig‘i quriydi, — dedi Sariboy. — Qunduzning o‘chini olamiz deb, sendan ham ajrab qolmay.

— Mayliydi, men ham bir qilich o‘ynatib, kazzoblarni dodini bersam, armonim qolmasdi.

— O‘zingning ishlaring qalay?

— O‘n sakkizta zarang piyola, o‘ttizta kosa tayyorladim.

— Bunchani nima qilasan?

— Tirikchilikka kerak bo‘lib qolar.

— Yo‘q, — deb xo‘rsindi Sariboy. — Hunarmand qanchalik shoshmay ishlasa, yasagan buyumi shu qadar jilo topib, qo‘lmaqo‘l bo‘ladi. Sen soniga emas, sifatiga e’tibor bergin.

— Unchalik yomon emas.

— Suvda yaxshi qaynatib, buyoqqa to‘ydirdingmi? Otamiz rahmatlik hech erinmagan usta edi-da...

Modil o‘zi yasagan yog‘och buyumlarni xurjunga solib, vaqti-vaqti bilan qishloqlarga chiqardi, ko‘targaniga sotib, baholi qudrat tirikchilik qilardi.

...Modil xotinini ho‘kizga mindirib, qaynonasinikiga jo‘natayotgan edi, it hurib, katta yo‘ldan bir otliq shu tomonga burildi. Yuragi bezovta bo‘lib:

— Xotin, — dedi u, — tezroq kel. Uyda birortamiz turmasak bo‘lmaydi. Bu yog‘ini o‘zing bilasan.

— Yotib olarmidim? Ikki-o‘ch kunda qaytaman. Onam kasal bo‘lganiga bir yildan oshdi. Borganim yo‘q...

Xotini ketdi. Ungacha otliq yetib keldi. Biyning yigiti ekan. Otdan tushmay salomlashdi.

— Modil, — dedi otliq yigit. — Seni biy chaqiryapti.

— Qo‘ysang-chi, xotinim onasinikiga ketdi. Uyda boshqa odam yo‘q. Akamni tashlab ketolmayman.

— Unisini bilmadim. Menga chaqirib kel, degan. Kechgacha qaytasan.

Buni eshitib turgan Sariboy ichkaridan ovoz berdi.

— Biy atay chaqirgan bo‘lsa, mendan tashvish qilmay borib kel.

Modil xurjunning ikki ko‘ziga to‘ldirib idish-tovoq soldi-da, yelkasiga tashlab yo‘lga tushdi.

Abil biy uyida ekan. Modil xurjunni ostona oldida qoldirdi va egilib biyga qo‘l uzatdi. Abil uni yaxshi kutib oldi.

— Keldingmi?.. — dedi biy so‘rashgach. Modil tiz cho‘kib o‘tirdi va zum o‘tmay o‘rnidan turib:

— Bu yil yasagan idishlarimning yaxshilaridan olib keluvdim, — dedi va xurjundagi zarang piyola, kosalarni olib Qoraqosh oyimga uzatdi.

— Eh-he, hunaring chakki emas, — dedi Qoraqosh oyim idishlarni havas bilan ko‘zdan kechirib. — Yaxshi! Juda soz!

Piyozi chakmonini yelkasiga yelvagay tashlab o‘tirgan Abil biy:

— Xotin, Modil senga sovg‘a olib kelibdi-da, — dedi.

— Yo‘q, biy! Yangamizning ostonasini quruq hatlamay, dedim.

— E, Modilim! Sen quruq yog‘ochni emas, hunaringni sovg‘a qilyapsan. Sovg‘a javobsiz qolmaydi. Bu eskidan qolgan odat.

Qoraqosh oyim kosalarning birini chayqab qimiz quyib, eriga uzatdi.

— Rizq-ro‘zimizga hamisha sherik bo‘lsin bu buyum, — deb biy qimizni simirdi. So‘ng kosani aylantirib u yoq-bu yog‘ini qaradi: — Otang, bizning og‘amiz Qulan aka mashhur ustalardan edi. Ayniqsa yong‘oqdan ishlagan buyumlari xaridorgir bo‘lardi.

Xayriyat, ota kasbini olgan ekansan, Modilim. — Qani, xotin, Modilga ham qimizdan quy.

Modil o'zini qo'ygani joy topolmay, quvonib qimizni ichdi.

— Gapirib o'tir, Modil. Hol-ahvolinglar qalay? Sariboy durustmi?

— Yotibmiz, biy og'a, Xudo boshimizga solgan kunni ko'rib.

— Shukur qil, Modilim! Yaxshiyamki, baxtiga sen borsan. Yaxshi parvarish qil. Kam bo'lmaysan.

— Hammasidan ham keyingisi bizga qimmatga tushdi. Buni o'zingiz yaxshi bilasiz, biy og'a...

— Voy, qo'ysang-chi, — deb bidirlab so'zga aralashdi Qoraqosh oyim. — Qizinglar yomon bo'lmadi. O'rdaga borib, hech kamlik ko'rmadi.

Modil yuzini o'girib, "He, o'rdangni... O't tushsin o'rdangga!" dedi ichida. Qoraqosh oyim yana gapirmoqchi bo'lib og'iz rostlovdi, Abil biy bosh chayqab to'xtatdi.

— To'g'ri, yomon bo'ldi, — dedi biy. — Biroq o'zing o'ylab ko'r, bu el boshiga tushgan ish.

Abil biy ham, Modil ham anchagacha xayol surib, o'tirdi. Modil bir yil ichida yuz bergan qo'rqinchli voqealarni eslab, yuragi orziqib ketdi. Abil biy esa "ishtonsizning hadigi cho'pdan", deganlariday Do'mbuning o'limini birovga og'zidan gullab qo'ymadimikan, degan o'y bilan o'tirardi. Nihoyat og'iz juftladi:

— Tangriberdi bilan bordi-keldi qilib turibsizlarmi? Sariboy bilan ilgaritdan aloqasi durust edi.

— Zarur bo'lganda, oshliq uchun don-dun olib turamiz.

— Tuzuk. Tangriberdidan oshlik, bizdan so'yish uchun mol olib tur. Qarindosh-urug' shunday mahalda bir-birini qo'llab turishi kerak.

— Xudo yorlaqasin, biy.

Ular boshqa gapga o'tishmadi. Abil biy Modilni go'sht bilan qimizga rosa to'ydirib, ketishida bitta biyani sovg'a qildi.

— Hol-ahvolinglarni bilayin deb chaqirtirgandim. O'zingcha kelmaysan. Mana bu biror kuningga yarab qolar, Modilim. Sariboyga salom ayt.

Modil qanday qilib rahmat aytishini bilmay, biyaning dam u yog'iga, dam bu yog'iga o'tdi. Yolidan silamoqchi bo'luvdi,

hurkib ketdi. U xuddi birov: "Minib ketolmasang tashlab ket", deydiganday shosha-pisha:

— Yetaklab keta qolay? — dedi.

Abil biy yonida turgan Qoracholga ishora qildi: — Egar-jabduqni urib, kuzatib qo'y.

Atrofida parvona bo'lib yurgan bolasini ko'rib:

— Qo'yaver, — dedi Abil biy. — Toychoq onasidan ayrilmasin. Bu Qoraqosh oyimga olib kelgan zarang kosalaring uchun.

— Hojati yo'q, biy ota, — dedi Modil.

— Quruq sipogarchilikning nima keragi bor? — Abil kulib qo'ydi.

...Modil o'sha kuni uyiga qaytmadi. Sariboy kuta-kuta, yotib qoldimi, deb paypaslanib, oshxonadan bir siqim yorma topib tamaddi qildi va qaytib kelib o'rniga yotdi. Anchagacha uxlayolmadi.

Atrof jimjit edi. Shu yaqin o'rtadagi to'qayzor qamishlarining uchi go'yo shamolga intiqday ohista qimirlaydi. Sariboyning badani uvushdi. Eshikda Modilning iti vovilladi. Sariboy boshini ko'tardi. "Modil keldi shekilli", deb yuragi taskin topdi. Yo'q, sharpa eshitilmadi. Bir mahal Oqto'sh g'ingshib, Sariboy yotgan uy ostonasini tirmaladi.

— Ey, Oqto'sh, senga nima bo'ldi? — deb qo'ydi Sariboy. It betoqatlik bilan yana g'ingshidi. Sariboyning yuragi shuv etdi. Miyasiga "qashqir" degan fikr keldi. It jonholatda vangilladi. Modilning tashqarida bog'log'lik turgan yolg'iz moli bo'kirib pishqirdi. Sariboy o'rnidan irg'ib turib, eshikka intildi.

— H-o-o-oy! — deb baqirdi, o'zicha qattiq-qattiq gapirdi. Sariboy chiqqach, it dadillanib jon-jahdi bilan hura boshladi. Sariboy tashqarida ancha o'tirdi. Hammayoq suv sepganday bo'lib qoldi. Mol xotirjam kavsh qaytara boshladi.

Kuz sovug'i suyagidan o'tgan Sariboy uyga kirdi-da, timirskilanib joyini topdi, kalima keltirdi. "Modil nega kechikdiykin?" deb o'ylab yotib uxlab qoldi.

"Tishim! Voy, tishim-ey!" deb ingrardi Sariboy. O'ttiz ikki tishidan faqat bitta kurak tishi qolibdi, u ham zirqirab og'riydi. Ko'z oldida chayqalib turgan ko'l paydo bo'ldi. Suvi sho'r. Ko'l qirg'og'idan toshib, Sariboyning boshidan oshib ketyapti. Sariboy

qochay desa qocholmaydi, darmoni yo‘q. Sariboy “tishim, tishim!” deb yana ingradi. “Kel, sug‘urib tashlayin”, deb qop-qora, ko‘zlari oppoq birov paydo bo‘ldi. “Yolg‘iz tishim, buni sug‘urib tashlasang, qanday tirikchilik qilaman?” Haligi kishi ko‘zi cho‘g‘day qizarib, Sariboyning og‘zini ochib, bir siltab tishini sug‘urib oldi. Yolg‘iz kurak tishi qonga aralashib, Sariboyning kaftiga tushdi.

Sariboy cho‘chib uyg‘ondi. Tushi ekan. “Modil haliyam kelmabdi”, deb paypaslanib tashqariga chiqdi.

Shamol esyapti. O‘rmondan zag‘izg‘onning shaq-shaqi eshitildi. Sariboyning yuragini vahima bosdi.

— Modil! — deb chaqirdi. Hech kim javob bermadi. Nimadir shitirladi. Ha, kelyapti shekilli. Xashaklar chirs-chirs qilyapti. Ana, ana keldi. Sariboy orqasiga burildi.

— Halima! — dedi bor ovozi bilan. Javob bo‘lmadi. “Aytganday, Modilning xotini kecha ketuvdi. Bugun kelmagandir. Uch-to‘rt kun turaman degandi”, deb o‘yladi.

— Beriroq kel, sadag‘ang ketay, — dedi Sariboy qo‘l-oyog‘i qaltirab. — Sen kimsan? Modil?

U anchagacha serrayib turdi. Modilning iti Sariboyning oldiga kelib, qo‘lini yaladi. Dumini likillatib, nimadandir umidvor bo‘ldi. Oyoqlariga surkandi. Sariboy o‘tirdi. “Qanday kunlarga qoldim, — o‘yladi u. — Nahotki yonimda itdan boshqa jonzot qolmasa?” U anchadan keyin o‘rnidan turib chaqirdi:

— Oqto‘sh! Oqto‘sh! Qayga ketding? Oqto‘sh! — It ham ketibdi. Uning yuragi qisildi. — Oqto‘sh! O‘z ovozini o‘zi tanimay cho‘chib ketdi, paypaslab o‘tovga kirdi. — Oqto‘sh, sen ham meni tashlab ketdingmi?!

Oqto‘sh adirda qo‘ng‘iz terib yeb yurgan edi. Sariboyning chaqirganini eshitib, dumini jilpanglatib yetib keldi. Sariboy uni qochib ketmasin, degan o‘y bilan erkalatib, boshini siladi. Keyin mungli xalq kuylaridan birini g‘ing‘illab xirgoyi qildi. Sal yengil tortdi...

Shu tarzda oradan uch kun o‘tdi. Sariboy uchun ana shu uch kun uch yilga teng bo‘ldi. Ukasini mijja qoqmay kutdi. Afsuski, undan darak yo‘q edi. Odatdagidek tashqariga chiqib Modilni, uning xotini Halimani chaqirdi. Javob bo‘lmadi. Sog‘ bo‘lsa

kelardi! Sog‘ bo‘lsa kelardi! Yolg‘iz inisidan ajralsa-ya? Diqqati oshdi. Umid uchqunlari so‘nib borayotganga o‘xshardi. O‘zgalarga qilgan yaxshilik va yomonliklarini o‘yladi. Yomonlik emish, shu yoshga kirib birovga tik qaragan emas. “Nega shunday azob-uqubatga qoldim? Aybim nima? Gunohim-chi? Yoki bir umr ovchilik qilib tog‘dagi jonivorlarni qiyratganim uchunmi? Unday bo‘lsa, e, Xudo, o‘sha jonzotlarni nega yaratding? Oxiri bu bandangni xor qilib, ora yo‘lda nechun tashlab ketding? Ey, Tangrim!”

— Oqto‘sh! Oqto‘sh! — dedi Sariboy. It sakrab erkalandi, Sariboyning qo‘lini iliq tili bilan yaladi.

— Oqto‘sh!.. Oqto‘sh! Xo‘sh, endi nima qilamiz? Modilni izlaylikmi? Yo boshimiz oqqan tomonga ketaylikmi? Hech gap emas. Senda til bo‘lmasa ham ko‘z bor. Menda til bor-u ko‘z yo‘q. Mayli, yo‘l topib, Modilni qidiramiz. Qani, yo‘l boshla. — It Sariboyning maqsadini tushunmay atrofida aylandi. Keyin Sariboy hassasining uchi bilan yerni urib, katta yo‘lga burilgan edi, Oqto‘sh fahmlab oldinga tushdi.

— Modi-il! — Sariboy it boshlagan tomonga ketaverdi. — Modi-il!

Sariboy go‘yo biror narsani ko‘rayotganday, goho orqasiga qarab-qarab qo‘yardi.

— Modi-il!..

It Sariboydan olis ketmay yo‘l boshlab borardi.

— Modi-il!

Sariboy yo‘l-yo‘lakay yig‘lab ko‘p yurdi. Qulog‘iga sharillab oqayotgan suvning tovushi eshitildi. O‘sha tomonga burildi, soy qirg‘og‘iga borib, qo‘lini yuvdi, muzdek suvdan ikki hovuch ichdi. Sariboy charchaganini endi bildi. U hassani atrofiga do‘qillatib urib ko‘rdi. Hassa nimagadir tegdi. Tosh ekan, paypaslab unga o‘tirdi...

Oqto‘sh to‘satdan vovilladi. Sariboyning yuragi shig‘ etdi. It egasini aylanib hurardi.

— Sariboy, bu yerda it nima qilib yuribdi? — degan ovoz qulog‘iga chalindi. Sariboy alanglab:

— Modil, — deb intildi, o‘rnidan turolmay yiqildi.

Bu tirikchilik ko‘yida yurgan Gulkishi edi. Tanib qoldi:

— Sariboymisan? — deb yugurib kelib qo‘ltig‘idan suyadi. — Xo‘sh-xo‘sh! Qayoqdan?

Sariboy javob berish o‘rniga to‘lib-to‘lib yig‘ladi...

...Ertasiga bir soydan Modilning o‘ligini topishdi, Modilning qoni qotib qolgandi, qorni shishib ketgandi. Hurkak biya qochib, o‘z uyuriga borib qo‘shilgan ekan. Abil biy uni ushlatib, Modilning o‘ligini yuklatib yubordi. Taxmin qilishlaricha, Modil biyani minib yo‘lga tushgan. Yo‘lda biya hurkib Modilni olib qochgan. Modil eplolmasdan yiqilgan, bir oyog‘i uzangiga ilinib qolgan-u, keyin uni biya sudrab o‘ldirgan.

Sariboyni tanigan uzoq-yaqindagilar to‘plandi. Yashil o‘zandan Tangriberdi, Temenesuvdan Abil biy, Tultemir va boshqalar kelib bel bog‘lab turdi, birov go‘r kavladi, boshqasi mol so‘ydi. Sariboyga tasalli berib marosimning barcha kam-ko‘stini o‘z zimmalariga olishdi.

Sariboy Modilning murdasiga yaqinlashdi. Oriq qo‘llari bilan uning qoni qotgan yuzlarini siladi.

— O‘zingni bos! Shukur qil, Sariboy, — deb Tangriberdi uni turg‘izib, chetga yetakladi.

Murda yuvilib, kafanga o‘raldi, so‘ng tobutga solinib, ustiga chopon yopildi. Tobutni uydan qariyalar ko‘tarib chiqishdi. Qarindosh-urug‘lar uvvos soldi. Modilning xotini Halima ham sochini yulib yig‘lardi. Beknazar tobutni ushlab:

— E, xaloyiq, — dedi. — Modilning xotini — Halima yangamizning bo‘yida uch oylik gumonasi bor ekan. E, el, eshitib qo‘yinglar.

— Yaxshi! Juda soz! Bechora Modildan zurriyot qolgani yaxshi bo‘libdi, — deyishdi.

Tobutkashlar xoliroq joyga chiqishgach, tobutni toza yerga qiblaga qaratib qo‘yishdi, tahorati borlar janozaga o‘tishdi. Janoza o‘qilib bo‘lgach, to‘rt yigit tobutni yelkasiga oldi. Shu tarzda odamlar tez-tez almashib, tobutni qo‘ldan-qo‘lga, yelkadan-yelkaga olishib ketishdi. Tangriberdi Sariboyni otga mindirib yetaklab borardi. Qabristonga kelib, tobutni yangi tuproq ustiga qo‘yishdi. Go‘rkovlar bir chekkaga o‘tishdi. Tangriberdi qabrga tushib, lahadni ko‘zdan kechirdi:

— Tuzuk! Tirigida uyi keng edi. O‘lganida go‘ri ham keng bo‘libdi.

Keyin murdani tobutdan olib, Tangriberdi bosh tomonidan ohista ushlab:

— Bismillohir rahmonir rahim... Bismillohir rahmonir rahim, — deb go‘rga engashdi. Ikki-uch kishi murdani pastga tushirib, boshini qiblaga qaratib yotqizishdi. Gulkishi choponining barini tutib, janozaga kelganlar bir hovuchdan tashlagan tuproqni go‘rga olib to‘kdi. Tangriberdi lahad og‘ziga ehtiyotkorlik bilan chim bosib berkitdi va qo‘lini qoqib tepaga chiqdi:

— Qani, tuproq tortinglar...

Odamlar qo‘llariga ketmon, kurak olib qabrga tuproq tortishdi.

— E, xaloyiq! — deb murojaat qildi Beknazar. — Modil qanday odam edi?

Abil biy shoshilib:.

— Yaxshi odam edi, — deb qo‘ydi.

Beknazar:

— E, el! Qadrdonimiz Modil qanday odam edi?

— Yaxshi odam edi. Yaxshi odam edi.

Uchinchi marta ham odamlar Beknazarning so‘ziga yoppasiga javob qaytarishdi.

Beknazar urf-odatga ko‘ra ikkinchi savolni o‘rtaga tashladi.

— E, xaloyiq! Modilda kimning oladigani bor? Qarz bo‘lib ketmasin! Aytinglar. Basharti bo‘lsa, mana biz to‘laymiz. — Beknazar bu savolni ham uch bora qaytardi.

— Yo‘q! Haqimiz, yo‘q! — degan ovozlar eshitildi.

Beknazar:

— Hoy, yaxshilar! Modilga beradiganlaring bormi? Aytinglar, yana bo‘yninglarda qiyomat qarz bo‘lib ketmasin.

— Yo‘q! Yo‘q! — deb javob qaytardi odamlar.

Abil biy:

— Tultemir! — dedi g‘amgin. Hamma Tultemirga qaradi. — Mana, qabr ustida turibmiz. Jon bor joyda o‘lim bor! Modilni hozirgina dafn etdik. Hammamizning keladigan joyimiz shu yer. Oramizda Do‘mbu ham, Modil ham yo‘q. Modilning to‘riq qashqa

otini akang Do‘mbu ustiga issiq arqon bog‘lab, chavkar qilib olgani esingda bormi? O‘shani bo‘yningga ol.

Tultemir loladek qizarib ketdi:

— Biy... Biy... Nega Do‘mbuning tirikligida o‘ziga aytmadingiz?

O‘tirganlar hayajonga tushdi.

— Boshqa gapni qo‘y, Tultemir, — dedi Abil biy. — Do‘mbu otilgan kuni o‘sha ot chilvirini sudrab Modilning eshigiga kelibdiku. Bu nimasi? Imoning bo‘lsa, bo‘yningga ol! Bo‘lmasa, o‘zing bilasan. To‘riq qashqaning qanday qilib chavkar bo‘lib qolganligini sen yaxshi bilasan, uni o‘zing tusini o‘zgartirgansan.

Tultemir xijolatdan yerga kirguday bo‘ldi-da, chetda turgan otini yetaklab keldi va egar-to‘qimini olib tashlab, chilvirini Sariboyning oldiga irg‘itdi:

— Akam go‘rida tinch yotsin... Mening qulog‘im ham tinchisin...

Hech kim bilmay qoldi. Bir bola orqadan kelib Tultemirning boshiga qamchi bilan tushirdi. Odamlar hay-haylab qoldi. Tultemirning telpagi uchib ketdi. U orqasiga qarab, qamchi o‘qtalib kelayotgan, Modilnikiday ko‘zi chaqnab turgan o‘spirinni ko‘rdi. Ungacha bir kishi:

— Hay-hay, bu yoqqa tur, — deb bolani ushlab qoldi.

Gulkishining yuragi duk-duk urib, ichida xursand bo‘lib, nima deyishini bilmay qoldi, u bundan ikki-uch yil avval bir oshnasining ana shu o‘spirin bilan hazilnamo qilgan suhbati yodiga tushdi. O‘shanda oshnasi: “Hoy, yigit, Tultemirni nima qilasan?” — “Qaysi Tultemir?” — “Otangni urgan Tultemirni-da?” Qanday javob olishini chol necha marta eshitgan bo‘lsa-da, qaytib-qaytib so‘rardi: “Unimi? Barmog‘idan qayish bilan bog‘lab, shiftga osib rosa savalayman”, Xayriyat, bolakayning esida bor ekan, Gulkishi o‘g‘li Tultemirni qamchi bilan urganidan o‘zida yo‘q quvondi.

— Qo‘y deb aytmaysizlar-a, beadab bola ekan, — dedi Tultemir izza bo‘lib.

— Odobi yo‘qmikan, Tultemir? — dedi Gulkishi. — Hali senga bular oz. Ko‘rib qo‘y, u mening bolam.

— Hoy, Gulkishi, qo‘ysang-chi, O‘tgan ishni qo‘zg‘ama.

— Nega qo‘yarkanman, — dedi Gulkishi. — Qirg‘izning keki qirq yildan keyin ham ketmaydi.

Tuproq tortilib bo‘ldi. Tangriberdi Qur’on o‘qidi. Fotiha qilindi. Eski udumga ko‘ra yetti qadam yurishib yana o‘tirishdi. Bu safar Qur’onni Sariboy o‘qidi. Hamma duo qilib o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Tarqalish oldida Sariboy ot chilvirini Beknazarga ushlatib shunday dedi:

— Endi bizga otning keragi yo‘q. Zamon chalkashib boryapti. Ko‘nglingga olma, bu arg‘umoq senga qanot bo‘lsin.

O‘sha kuni janozaga kelganlar marhumning oshini yeyishib, tarqaldi. Tangriberdi bilan Gulkishi Sariboyning oldida qolishdi. Keyin jonlik uchun mol so‘yib, Modilning yettisini o‘tkazishdi.

Shundan keyin Tangriberdi bilan Gulkishi Sariboyni o‘z qishloqlariga ko‘chirnb kelishdi. Lekin Sariboy qattiq uchinib yotib qoldi. U sira gapirmasdi. Og‘ir qayg‘u, bevaqt ayriliq qattiq ta’sir qilgan edi. Tangriberdi uning yonidan jilmadi. Rosa bir oy deganda u tuzalib, o‘rnidan turdi.

Bir kuni Sariboy qo‘mizini so‘rab qoldi. Tangriberdining o‘g‘li Po‘lat unga yangi parda o‘rnatib qo‘ygan edi, darrov olib berdi. U qo‘mizni sozladi, ko‘rgan-kechirganlarini ko‘z oldiga keltirdi, Inson umrining g‘oyat qisqaligi, dunyoning bebaho va bebaholigini o‘ylab “Sen dunyo” degan mashhur qo‘shiqni kuyga soldi:

Sen, sen dunyo, sen dunyo...
Bir betiga kun tekkan,
Bir betiga tun tekkan,
Avval qiziq, so‘ng o‘kinch,
Alg‘ov-dalg‘ov sen dunyo...
Bedanani qirg‘iyga
Yem qilgansan sen dunyo,
Qo‘sh egizning birini,
Kam qilgansan sen dunyo...

Bundan ancha yil oldin Modil ikkovi arg‘umoq minib, bir talay pul bilan bozor qilgani Andijonga borishgandi. O‘shanda bir qalandar shu qo‘shiqni aytib, bozor aylanib yurganini ko‘rgandi.

Sariboy unga bir tanga pul sadaqa qiluvdi. Qalandar tanganing oz-ko‘pligiga e’tibor bermay, xuddi badavlat odamlarday nari ketgani hamon yodida. Unda Sariboy o‘ziga to‘q edi. Endi esa bu dunyodagi zulm, adolatsizlik, shafqatsizlik, azob-uqubatni, xorlik-zorlikni o‘zi boshidan kechiryapti.

Sen, sen dunyo, sen dunyo.
Kimlar yetgan tubingga?
Yorug‘ olam degizgan,
O‘g‘iz sutin emizgan,
Onam qayda, sen dunyo?
Oltin beshik tebratgan,
Haq-nohaqni o‘rgatgan,
Otam qayda, sen dunyo?
Har kun quvnab, o‘ynatgan,
Vafo qayda, sen dunyo?

Qo‘miz tobora avjga chiqib, g‘am-anduhlardan nola chekardi:

Sen, sen dunyo, sen dunyo,
Kimga vafo qilgansan.
Shoh, gadoni bir qilib,
Nayzang bilan ilgansan.
Rangi ro‘ydan ozdirgan,
Bor bisotni to‘zdirgan.
Yolg‘iz o‘zing polvonsan...
Go‘zal hayot — nur, yolqin,
O‘ta qisqa, et talqin,
Xuddi toshday yolg‘onsan...

IV

“Ey, Xudo urgur, esipast, hech jahonda shunday ahmoqchilik ham qiladimi?! Birdaniga qirq urug‘ning qirqta biyini so‘ydiradimi? O‘z biyidan ajragan elatlar nima qilarkin, deb o‘ylamadimikin bu rasvoyi raddi ma›raka?!” Xalq bo‘ronda to‘lqinlanib, borgan

sari quturayotgan dengizga o‘xshardi. O‘rdaga borgan qirq elchining o‘ldirilishi hammani benihoya g‘azablantirdi. Endi jang qilishdan boshqa iloj yo‘qligiga odamlarning ko‘zi yetdi.

— E, Beknazar! Bir qo‘limizni burab, kundaga qo‘yib bolta bilan chopayotgan bo‘lsa-yu, ikkinchi qo‘limizni qo‘ynimizga tiqib, qarab turaveramizmi? — deb qishloq oqsoqollari Beknazarning oldidan o‘tishdi. Abil biy g‘azabi qaynagan olomonni ko‘rgach, qo‘yinglar, deb ularni qaytarishga ko‘zi yetmadi.

— Otlanamiz! — dedi Beknazar. Botirning bu so‘zi go‘yo buyruq bo‘lib olis-olislarga tarqaldi. Hash-pash deguncha mingga yaqin kishi otlandi. Beknazar ularni o‘zi boshlab Safed Bilolga yo‘l oldi.

Isyonchilar: “Birlik zarur. Bir yoqadan bosh chiqarsak, bizni yengadigan kuch bormi?” — deb dadil yo‘lga tushdi, yo‘l-yo‘lakay ko‘payib bordi. Beklar payg‘ambarning ko‘k tug‘i qolgan Safed Bilol mozorida oq tuya so‘yib, is chiqarib, kun-u tun sig‘inishardi. Is’hoq esa Chotqoldan oshib o‘tib, Olabuqadagi Er Eshim qabrini ziyorat qilgani to‘xtagan edi.

Beknazar Tuproqbelga yetganda tizginini tortdi. “Mana, oldinglarda ikki yo‘l, — dedi u. — Biri chapga, Safed Bilolga, o‘ng qo‘ldagi yo‘l Olabuqaga olib boradi. Payg‘ambarning ko‘zga ko‘rinmaydigan ko‘k tug‘i osmonda tura tursin, — deb Beknazar tizginni o‘ngga burdi. — Biz Er Eshimning arvohiga sig‘inaylik. U el uchun jon berdi”. Qo‘shin botirning ketidan yo‘lga tushdi.

Is’hoq “Mozor bo‘lsin, tabarruk qadamjo bo‘lsin”, deb aytgan so‘ziga amal qilib, Er Eshimning qabri atrofini g‘isht bilan ko‘tartirib, gumbaz shakliga keltirib qo‘ygandi. El ishi uchun safarga otlanganlar doim shu yerga kelib sig‘inib ketishi odat tusiga kirib qolgandi. Beknazar to‘g‘ri Er Eshimning qabriga bordi. Gumbaz yonida bir qariya yurardi. Indamay kelib Qur’on o‘qidi. Hamma fotiha qildi. Beknazar o‘rnidan turib, gumbazga bordi, uning yozuvlarini o‘qidi.

Haligi chol ancha qarib qolgandi. Dumaloq qilib cherttirgan oppoq soqoli, tepasi uzunchoq, qayirmasiga ingichka qunduz teri yopishtirilgan telpagi o‘ziga yarashib turardi. Uning egnida surp yaktak, ustida sidirg‘a beqasam chopon bor edi.

— Assalomu alaykum, oqsoqol, — dedi Beknazar, — qaysi eldan bo‘lasiz?

Qariya alik olgach, entika-entika javob berdi:

— Ey, er yigit!? Qurama bo‘lamiz, Er Eshim zoriqib topgan yolg‘iz o‘g‘limiz bo‘lardi.

Bu ism Beknazarning qalbini o‘rtab yubordi. Boshini qimirlatib, cholga dalda berdi:

— Er yigitning nomi o‘chmaydi. O‘g‘lingiz elga jon fido qilganligi uchun ham botir. Qayg‘urmang. O‘g‘lingiz yo‘q bo‘lsa ham o‘g‘lingiz sevgan el omon.

— Uning g‘ami meni qaritib yubordi. Kelganimga ko‘p bo‘ldi. Bu yerlarga chinor, terak, sada ekdim. Kelganlarga soya-salqin bo‘lsin deb.

— Ota!

Gumbaz ortidan besh yoshlar chamasidagi bir bola yugurib keldi. Bola kelgan tomonda qora kiyingan bir ayol turib yana o‘tirdi.

Bola qariyaning bo‘ynidan quchoqlab erkalandi. Qariya: “E, qoqindiq. Yaxshidan qolgan tuyog‘im”, deb uning qo‘lini silkitib qo‘ydi. Bola qariyaning qulog‘iga nimanidir shivirladi. Ota sekin, “hozir”, dedi.

— Nabiram, — dedi chol. — Yolg‘izimdan qolgan yolg‘izim.

— Mana, o‘rinbosari bor ekan! — deb dalda berdi Beknazar. — Sira xafa bo‘lmang. Belingiz baquvvat ekan.

— Yaxshi gaping uchun ming rahmat. Olgin, oldirmagin, botir, — deb qariya fotiha berdi, nabirasini yetaklab, gumbaz ortiga o‘tdi.

Ikki yigit Beknazarning otini yetaklab keldi. U yo‘l-yo‘lakay Er Eshimni, undan qolgan yolg‘iz farzandni, suvga tushgan oltin uzukday o‘z farzandini, ot yetaklab borayotgan Sultonmahmudni esladi...

O‘sha kuni Beknazar botir mingta yigiti bilan Is’hoqqa borib qo‘shildi.

Bir ming sakkiz yuz-u yetmish beshinchi yilning erta bahoridagi qo‘zg‘olon tog‘ tarafdan boshlanib, Norin, Qoradaryo, Ko‘gart, O‘zgan va Oloy tomonlarga yoyildi. Bu isyonda qirg‘iz, qipchoq urug‘lari faol qatnashdi. Is’hoq urushsiz Andijonni egalladi...

...Soya-salqin bog‘. Shinam hovuzchadagi baliqlar suvni shaloplatib irg‘ishlab o‘ynardi. Kattakon chinorning allaqaerida bulbul xonish qilardi. Bog‘dagi rang-barang gullar ochilib, mevalar hil-hil pishgandi.

Baxmal do‘ppi, uzun yaktak, qizil bulg‘ori kavush kiygan Abdurahmon ensiz yo‘lakda u yoqdan-bu yoqqa yurardi. Xayoli parishon edi. “Yana xalq qo‘zg‘alib, bahorgi toshqinday bosib kelyapti. Kim aybdor? Xudoyorxon. Bitgan ishni o‘zi buzdi. O‘zining sho‘ri!” Abdurahmon qo‘lini orqasiga qilib boqqa qaradi. O‘zi hafsala qilib, o‘n ikki paxsali qo‘rg‘on oldirgandi, oldi ayvon dang‘illama besh xonali uy qurdirgandi. U vaqti-vaqti bilan shu yerga kelib, dam olib ketardi. “Rahmatli otam “Temirni qizig‘ida bos, har ishni o‘z vaqtida qilgin”, deb behuda aytmagan ekan. — Uzoq yillardan beri qalbining qa’rida yotgan kek, o‘ch alanga ola boshladi. — Keldi, men zoriqib kutgan fursat endi keldi”, — deb Abdurahmon o‘ziga-o‘zi shivirladi.

Bir haftadan so‘ng Abdurahmon ishonchli kishilar bilan Andijonga yaqin Bo‘taqora qishlog‘iga kelib, oldindan kelishib qo‘yilgan qovunchi cholning qo‘rg‘oniga tushdi.

— Keling!.. Keling! — deb mulozamat qildi uy egasi.

Abdurahmon sal cho‘chib qadam bosdi. Chotqol, Bo‘zbu tomondan kelgan lashkarboshilardan Mo‘min, Beknazar, O‘zgan, Oloy qo‘shinlarining yetakchisi Abdullabek handalak yeb o‘tirishar edi. Abdurahmon dovrug‘i o‘rdani titratgan odamni taxminan tanidi. U ko‘ngil uchun bo‘lsa-da, o‘rnidan turib so‘rashmagan haligi odamdan ranjidi. Qilinadigan ish teng bo‘lgach, har ikki tomon ham teng egilmog‘i darkor!

— Assalomu alaykum, — deb sust salom berdi Abdurahmon.

Is’hoq bamaylixotir bir qarab:

— Alaykum assalom, — dedi-da, o‘rnidan turmay Abdurahmonning qo‘lini oldi, ro‘parasida yotgan toshni ko‘rsatdi. — Keling, o‘tiring. O‘z uyimiz, o‘lan to‘shagimiz emas, kechirasiz.

Abdurahmon noqulay ahvolga tushib qoldi. Hech qachon bunchalik hurmatsizlikni ko‘rmagan oftobachi g‘ijinib qo‘ydi. Biroq sir boy bermadi. Is’hoq hamma narsani sezib o‘tirardi. O‘zini go‘llikka solib handalakdan bir tilim uzatdi.

— Qani ta'mini ko'ring.

— Bismillo, — deb Abdurahmon handalakni oldi.

— Qalay? Tashvishdan tashqari yuribsizlarmi, bek? — deb so'radi Is'hoq.

— Xudoga shukur, shahzoda!

— Begim inidami, qilichi qinidami? Xudo yorlaqab, qaysi shamol ikkining biri, o'rdaning suyanchig'ini bu yerlarga uchirib kelganini bilsak bo'ladimi?

Abdurahmon handalak po'chog'ini yerga tashlab, qo'lini artdi, shoshilmay mo'ylovini siladi, Po'latxon nomi bilan yurgan shaxs chakana odam emasligiga tan berdi.

— Qaysi shamol uchirib kelgani shahzodaga ma'lum. Qilich qinida ekan, Xudo yo'limizni ochsa, birga sinab ko'rsak. Dilimni bilgan avvalo Xudo, sirimni bilgan banda guvoh, shahzoda. Shu elning xuni, shu o'lkaning kuni deb yurgan kishiman. O'z eliga, o'z yeriga vafo qilmagan mansabning boridan yo'g'i. O'rdadagi esipast hammayoqni xonavayron qildi.

Is'hoq kuldi.

— Esipastligini endi bildingizmi?

— E, shahzoda, bosh egmay iloj qancha?

Ularning suhbatiga hech kim aralashmadi.

— Mayli, siz aytganday bo'lsin. Sizni elning xuni, o'lkaning kuni deb yurgan azamat deylik, ayting-chi, unda men kimman?

Abdurahmon gangib qoldi.

Is'hoq:

— Men shahzodamanmi? Yo'q! Shu xalqni ergashtirib, "Taxtimni, baxtimni olib ber", — deb yuribmanmi? Yo'q. Men oddiy odamning o'g'liman. Siz buni juda yaxshi bilasiz. Ko'rib turibman. Mening oldimga kelib ta'zim qilish beglik boshingizni yerga urish bilan teng.

Abdurahmonning a'zoi badani qaltirab, nima deyishini bilmay qoldi.

Is'hoq:

— Menga nima kerak? Oltin taxtmi? Yo'q, — u boshini chayqadi. — Davlatmi? Yo'q! Rostini aytsam, men xalqni emas, xalq meni oldiga solib yuribdi. Demak, begim, men xalq qo'lidagi

bayroqman. Men xalq tutgan dami keskir shamshirman. Menga bosh egib kelganingiz, bu xalqqa bosh egganingiz demakdir. — Abdurahmon Is'hoqning dangal gapiga qoyil qoldi.

— Jasoratingga tan berdim, botir! — deb yubordi Abdurahmon. — Ertangi kunni Xudoga topshirib, bugun bizni o'zingga qo'shib ol, botirim!..

Oradan ko'p o'tmay, Abdurahmon o'zining saralangan askarlari bilan, Iso avliyo, Xolnazar dodxohlar Andijon yonida isyonchilarga kelib qo'shildi.

* * *

— Abdurahmon! Abdurahmon! Qilgan ishing shu bo'ldimi? - deb rangi quv o'chgan Xudoyorxon hujrada u yoqdan-bu yoqqa yurardi. — Qo'ynimda ilonning bolasini saqlagan ekanman-a? Ha, tuz ko'r qilg'ur!

Shu choq shoshib Sultonmurodbek kirib keldi. Uning tili kalimaga kelmasdi. Xudoyorxon yana bir kor-hol bo'lganligini sezdi.

— Shahzoda Nasriddin, — deb duduqlandi Sultonmurodbek.

— Nima bo'ldi, ayt? Shahzoda omonmi?

— Ketib qolibdi, — dedi zo'rg'a. Xudoyorxonning ko'zi chanog'idan chiqayozdi.

— To'rt ming askar bilan Abdurahmonning orqasidan ketibdi.

Xudoyorxon qo'l-oyog'i qaltirab o'tirib qoldi.

— Bundan ko'ra, o'ldi degan so'zni eshitsam bo'lmasmidi... — deb peshonasini ushladi.

Isyonchilar Marg'ilonga kelganida shahzoda Nasriddinbek oldidan chiqib, Abdurahmonga qo'shildi. Shahzodaning aniq bir maqsadi bo'lmagani uchun bunday paytlarda ikkilanib o'tirmay, qo'li baland tomonga og'ib ketishga o'rganib qolgan edi.

Xudoyorxon o'z yog'iga o'zi qovurilib, boshini chayqadi.

— Ilojimiz qancha, bek? Buyam bo'lsa, ko'rgilik. Qo'qon atrofidagi sipohiylarning ruhi qalay? Zambarak-chi, sarbozlar-chi?

— Xudoga shukur, bari joyida.

— Yana bir karra ko'zdan kechirib chiq. Niyati buzuqlarni ko'pchilik oldida sotqin deb darhol boshini kes. Ayab o'tirma!

— Xo‘p!

— Tezroq bor! Bir ko‘zimiz ikkinchisiga yov bo‘lib turibdi. Muhammadamin qayda? Ayt, oldimga kirsin.

Xudoyorxonning o‘pkasi to‘lib, o‘zini zo‘rg‘a bosdi. Darcha yoniga borib, to‘ng‘ich o‘g‘li — Nasriddinbekning qilgan nomardligini eslab g‘azabi toshdi. Shu onda huzurida odob bilan bosh egib turgan ikkinchi o‘g‘li Muhammadaminbekka nigohi tushdi. Yosh, xipcha, oddiy kiyimda.

— O‘rgilayin, o‘g‘lim, — deb Xudoyorxon farzandining ikki yelkasidan ushlab, — yuvindixo‘rlar tashlab ketishdi. Merosxo‘r esa hali yosh. Sizlar yigit bo‘lib qolgan edinglar. Mendan keyin O‘rmonbekni ko‘tarib, bir chinor ostida inoq yashanglar, deb yurardim. Afsuski, akang Nasriddin meni sharmandayi sharmisor qildi.

Muhammadaminbek uchun bu gap yangilik emasdi. Uning xayoli tamoman boshqa yoqda edi. Nega otasi to‘ng‘ich o‘g‘li Nasriddinbekni yoki Muhammadaminni merosxo‘rim demay, nuqul erkatoy, o‘yindan boshqa narsani bilmaydigan zumrasha O‘rmonni merosxo‘rim deydi? Muhammadaminning boshini ana shu savollar ko‘pdan beri qotirardi.

— O‘g‘lim, suyanchig‘im, — deya Xudoyorxon o‘g‘lini erkalatdi. — O‘rmonbek yosh, akang bo‘lsa, iblislik qildi. Endi merosxo‘rim, ishongan tog‘im sen. Bugundan iborat merosxo‘rimsan. O‘rislar bilan aloqani mustahkamlaylik, bir amallab isyonni bostiraylik. — Xudoyorxon o‘g‘liga sinovchan qaradi. — So‘ng o‘lkani, o‘rdani o‘zingga topshiray, mening oxiratimni o‘ylab ish qilinglar. Men Makkayi mukarramaga hajga ketaman...

Muhammadaminbek otasining so‘ziga hayron bo‘lib, baqrayib qaradi.

— Hayron bo‘lma, o‘g‘lim, jonimdan to‘ydim. Yetar endi... — ko‘zlarida yosh halqalandi.

— Ota, chamamda, fursat o‘tdi. Davlat jilovi qo‘limizdan chiqib ketdi...

Xudoyorxonning g‘azabi qaynadi:

— Nima?! Nima deding?! — tomog‘iga nimadir tiqilib, boshqa gapirolmadi. Keyin o‘zini o‘nglab dedi. — Qo‘rqma, o‘g‘lim. Qo‘rqma. Nimalarni ko‘rmadik. Fon Kaufman hazrati oliylari bor

ekan, biz osonlikcha jon bermaymiz. Bir oz sabr qilaylik. Yo Toshkentdagi, yo Xo'janddagi o'ris askarlari yordamga kelib qoladi. Sabr qilaylik...

Otasining bu taskinlari Muhammadaminbekni yupatolmadi. U parishon holda chiqib ketdi.

Darvozabon kirdi:

— Xon hazratlari, Vey podsho tashrif buyurdilar. Xudoyorxon sakrab o'rnidan turdi va quvonib ketdi. — Aytmaganmidim! Ha, ular meni tashlamaydi!. Tez chaqir... — General Veynberg tatar tilmochi bilan eshikdan kirar ekan, Xudoyorxon ikki qo'lini ko'tarib, ularga tomon yurdi. — O, oliy hazratlari...

General Veynberg bo'shashib so'rashdi. Xudoyorxon o'zini qo'lga ololmay, hasrat qila boshladi;

— Boshimizga dahshatli kunlar soya solmoqda. Oliy hazratim, siz qanday maslahat berasiz? Biz nima qilaylik? O, hurmatli zot!

Tatar tilmoch goh xonga, goh generalga qarab, gaplarni tarjima qilardi. General Veynberg indamay gapga quloq solib o'tirdi, xonning ahvolidan xabardor bo'lgach, unga yuzlandi.

— Da, ko'rib turibmiz, taqsir. O'lkangizda siyosiy ahvol chatoq. — Tilmoch tarjima qildi. Xudoyorxon generalning xotirjamligini ko'rib, fig'oni oshdi.

— Ko'rib turibsiz. Hammasini ko'ryapsiz. Qanday kunlarga qoldik? Men sizlarga ishongan edim? Sizlarga tayangan edim-ku?!.

Tilmoch tarjima qildi. General Veynberg o'ylanib qoldi. Nimagadir u yana xonga uzoq tikildi-yu, biroq indamadi. Xudoyorxon sarosima bo'lib qoldi: "Bu g'ayridin nimani o'ylayapti? Bular ham mening taxtdan qulashimni kutishyaptimi? Men ularga nima qiluvdim? Yoki o'rislarga og'ib ketganim uchun beklarim meni tashlab ketishyaptimi?!"

— Qani, ochiq ayt! Yana nima qilishim kerak?!

Tilmoch tarjima qildi. General Veynberg pinagini buzmadi. Xudoyorxon ming xil o'y-xayolga bordi.

— Bitta chorasi bor, taqsir, — dedi general Veynberg. — Bu ham bo'lsa rasmiy maktub yozib general-gubernatordan askar so'rash. Agar iltimosingiz inobatga olinsa, tamom, taxtingiz omon qoladi.

Tilmoch tarjima qildi. Xudoyorxon o‘yga toldi.

— Yanglishmasam, — dedi Xudoyorxon, — yarim podsho bilan bizning o‘rtamizda bir ming sakkiz yuz-u oltmish sakkizinchi yili tuzilgan shartnoma bor. O‘sha shartnomaga ko‘ra, basharti urush chiqib qolguday bo‘lsa, o‘zaro yordam ko‘rsatish qayd qilingan edi, — Tilmoch tarjima qildi. General Veynberg bosh irg‘adi:

— Xabarim bor. Lekin, taqsir, bu rus askarlari to‘g‘ri kelaversin, degan mazmunni anglatmaydi. U qurol-yarog‘ va boshqa narsalar bilan cheklanadi. O‘zingizga ma’lumki, agar shunday qilinsa, boshqa chet mamlakatlar “Rossiya bosib olayotir”, deb bo‘hton qilishadi. Sizga ana shunday yordam kerak ekan, u yoki bu davlatga rasman maktub bitib, muhr bosishingiz shart. Shundagina ish silliq bitadi.

Tilmoch tarjima qildi. Xudoyorxon: “Yana sirtmoq solishmoqchimi? O, Tangrim...” deb o‘yladi. General ko‘m-ko‘k ko‘zlarini undan uzmayotganligini payqab g‘o‘ldiradi:

— Nima qilsamikin? Shunday bo‘lsa, yaxshi bo‘larmikin? To‘g‘ri bo‘ladimi? .

Tilmoch tarjima qildi. General Veynberg xonning chehrasida yuz berayotgan o‘zgarishlarni diqqat bilan kuzatardi.

— Afsuski, yevropaliklar so‘zdan ko‘ra, yolg‘on bo‘lsa ham qog‘ozga ko‘proq ishonishadi.

Tilmoch tarjima qildi. Xudoyorxon boshini qimirlatdi.

— Xo‘p... Xo‘p... — deb qaftini bir-biriga urdi, eshik og‘asi ko‘rindi. — Mirzani chaqir...

Tilmoch tushuntirdi. General Veynberg gapga aralashdi:

— Taqsir, bu xatni birgina siz bilan men bilishimiz kerak. Shunday qilmasak, bo‘lmaydi. Chunki, o‘rdadan tashqaridagi ahvol o‘zimizga tayin.

Tarjimonning gapidan Xudoyorxon hamma narsaga tushundi.

— Xo‘p, xo‘p... — deb mirzani iziga qaytardi. Mirza ta’zim qilib orqasi bilan yurib chiqib ketdi.

Shundan keyin general Veynberg o‘rnidan turib qo‘lini orqasiga qildi, nari-beri yurdi, tilmochga, “yozing”, deb buyurdi. U darrov portfelidan oq qog‘oz olib yozishga tutindi: — “Turkiston general-gubernatori fon Kaufman oliy hazratlariga...” — deb do-

na-dona ayta boshladi. Xudoyorxon generalning gaplariga tushunolmay mung‘ayib o‘tirardi.

“Boshimga og‘ir kun tushib turgan bir paytda, ishonchli kishilarim mulla Iso avliyo, Abdurahmon oftobachi, Xolnazar parvonachi barcha sarbozi bilan dushmanlarim tomonga o‘tib, menga qarshi urush ochmoqchi bo‘lib turgan mahalda, men Sizga yordam ko‘rsatishingizni so‘rab murojaat qilmoqdaman. O‘z hayotimni, Qo‘qon mamlakatining taqdirini sizdek ulug‘ imperatorning qo‘liga topshiraman, shoyad isyonchilarning g‘arazli maqsadi amalga oshmasa. Sizdan rus askarlarining ko‘plab zambaraklar bilan Qo‘qon shahriga tezroq otlanishiga buyruq bersangiz deb iltimos qilaman. Oliy hazratlari, mening bu iltimosimga rozi bo‘lishingizga ishonchim komil!”

Xudoyorxon “nima deb yozdirayotgan ekan?” deb o‘ylanardi. General Veynberg tilmoch so‘nggi jumlani yozib bo‘lishi bilan:

“...Sizga cheksiz hurmat bilan Xudoyorxon Shermuhammad Ali o‘g‘li” deb tugatdi. Tilmoch nuqta qo‘ydi.

— Tarjima qilib o‘qib bering, — dedi general Veynberg tilmochga. O‘zi oppoq ro‘molchasini olib burnini qattiq qoqdi-da, asta darcha tomonga yurdi. Xudoyorxon burnini jiyirib: “Odamning oldida ham burun qoqadimi?!” — deb undan jirkandi.

Tilmoch erkin tarjima qilib berdi. Maktub tugagach, Xudoyorxon iltimos qildi:

— Haligi yerini qayta o‘qing, abziy... — Xudoyorxonning peshonasi tirishdi. — Haligi o‘z hayotimni, Qo‘qon mamlakatining taqdirini nima qilamiz, dedik? Xuddi o‘sha yerini...

Tilmoch takror o‘qidi.

— O‘z hayotimni, Qo‘qon mamlakatining taqdirini sizdek ulug‘ imperatorniig qo‘liga topshiraman..;”

— Him... Buni qanday tushunmoq mumkin? Topshiraman? Qay tarzda?

Tilmoch darrov Xudoyorxonning gumonsirashini Vaynbergga tushuntirdi. General maktubni Xudoyorxonning oldiga surib:

— Olampanoh, bu sizning eng so‘nggi imkoningiz, — dedi.

Tilmoch tarjima qildi. Xudoyorxonning oyoqlarigacha zirqirab ketdi. Har holda musulmon farzandi-ku, deb tatar abziyga qaradi.

Tilmoch ham churq etmay, beparvo turardi. Xudoyorxonning hafsalasi pir bo'lib maktub oxiriga muhr bosdi.

* * *

Qo'qon shahri notinch edi. Shaharliklar qo'liga nima ilinsa, shu bilan qurollanayotgandi. Qurol-yarog' do'konlaridan boshqa barcha do'konlar yopilgandi. Dahshatli po'rtana tobora yaqinlashayotgandi.

General Veynberg Qo'qondagi polkovnik Skobelev boshchiligidagi rus-kazak otryadi yordamida Xudoyorxonni himoya qila boshladi. Bir kuni tunda shahzoda Muhammadaminbek to'rt ming askarni boshlab chiqdi-da, isyonchilarga qo'shilib ketdi. Bu o'rdadagi kuchning yarmisi edi. Endi Xudoyorxon bilan general Veynbergga shaharda turish xavfli bo'lib qolgandi.

Ertasiga Xudoyorxon barcha oila a'zolari, arkoni davlati bilan xazinasini 80 aravaga yuklatib, Skobelev askarlari himoyasida o'rdadan chiqdi va Xo'jand darvozasi sari yo'l oldi. Ular bilan birga general Veynberg va uning bir necha chinovniklari ham bor edi. Shahar aholisi ko'chama-ko'cha yurib, qochib ketayotgan xonni masxaralab, kurakda turmaydigan so'zlar bilan haqorat qilishardi.

— Ha! Sichqonning ini ming tanga bo'libdi-da! Ha! — Xudoyorxon general Veynberg bilan bitta aravada edi. General odamlarning to's-to'poloniga uncha e'tibor bermasdi. Xudoyorxon esa terga botib kenja merosxo'ri O'rmonbekni bag'riga bosib yashirinib olgandi. Shu mahal mushtumday kesak g'uvillab kelib arava gupchasiga tegdi-da, maydalanib ketdi. Xudoyorxon o'g'lining boshini berkitdi.

— Eh, la'nati! Ha, qon qusgur! — dedi kimdir yaqin yerdan. Xudoyorxon nima qilishini bilmay boshi aylanib, ko'zi tinib, odamlarning bu qadar yuz-xotirsiz bo'lib ketganligining sababiga tushunmay yig'lagisi keldi. Ammo yosh chiqmadi. U buning boisini o'ylab o'tirmay odam zotidan qattiq ranjidi. Odam ko'pligidan yo'l haddan tashqari torayib ketgandi. Xaloyiq xonni qo'riqlab borayotgan rus-kazak askarlariga qarata qichqirardi:

— O‘tinglar! O‘tinglar! Qonimizni so‘rgan zulukni sizlar himoya qilyapsizlar? Xudo xohlasa xon u yoqda tursin, sizlarning ham jazongizni beramiz. — Odamlarning gapidan jahli chiqqan askarlar o‘qrayib; qarar ekan, bir chol o‘zini to‘xtatolmadi:

— Eh, yana qaraydi-ya?!

Bir soldat qilichini sug‘urib, qariyaga dag‘dag‘a qildi. Polkovnik Skobelev baqirdi:

— To‘xta! Nima jin tegdi?

Atrofdagilar to‘planib, janjal chiqishiga oz qoldi. Shunday qilib, xon ertasiga ne mashaqqatlar bilan rus-kazak otryadi yordamida Rossiya qo‘l ostiga o‘tgan Xo‘jand shahriga arang yetib keldi.

* * *

O‘rdada karnay chalinib, yangilikdan darak berdi. Isyonkor el g‘alaba qildi. Hamma o‘rdaga oshiqdi. Ko‘p o‘tmay oq tuyaga qizil gilam to‘shab olgan jarchilar paydo bo‘ldi:

— Kimning, kimning zamoni? Nasriddin xonning zamoni! Kimning, kimning zamoni...

Jarchilarning so‘zini eshitgan odamlar muztar bo‘lib, serrayib qolishdi. “Balki, Xudoning xohishi shudir?” “Bechora el shuning uchun qo‘zg‘algan edimi?” “Oq it, qora it, bari bir it”, deb har kim o‘zicha mulohaza qilardi.

Shu kezda qurolsizlantirilgan Is’hoq ikki oyog‘i ot ayiliga mahkam bog‘langan holda sipohiy o‘rtasida borardi. Devonxonada o‘zgacha shodiyona edi. Abdurahmon Nasriddinbekka xonlik tojini kiygizib, o‘zi Shayxulislomdan fotiha olib, mingboshilik darajasiga ega bo‘ldi.

Jarchilarning og‘zi qulog‘ida, ko‘chadan-ko‘chaga, mahalladan-mahallaga o‘tadi:

— Kimning, kimning zamoni? Baxtiyor Said Nasriddinxonning zamoni!

O‘zi nima bo‘lyapti? Uch yildan buyon belidan belbog‘ini, oyog‘idan chorig‘ini yechmay yurgan er yigitlar qani? Sarbozlar o‘rtasida ham, odamlar ichida ham norozilik davom etardi.

“Po‘latxon taxtdan o‘zi voz kechibdi. Makkayi mukarramaga ziyoratga borarmish”, degan gaplar tarqaldi. Hamma hayron edi.

Abdullabek o‘rdaga kelib otdan tushdi: boshida qunduz telpak, ustida kimxob chopon, belida qini fil suyagidan jilo berib ishlangan, shamshir, oyog‘ida qizil hoshiyali ko‘k etik, qo‘lida sopi elik tuyog‘idan yasalgan qamchi.

O‘rda eshigida turganlar Abdullabekni tanib, ta’zim bilan yo‘l berishdi. U hech kimga e’tibor bermay ichkariga qarab yurdi.

Darvozabon uning kelganini xabar qildi. Abdurahmon Abdullabekni ko‘rib, tavoze bilan kutib oldi:

— E, keling, keling, bekzoda!

— Assalomu alaykum!

— Vaalaykum assalom, — deb Abdurahmon Abdullabek bilan iliq so‘rasharkan, ayyor mingboshi: “Bu yaxshilik bilan kelgan emas”, deb ko‘nglidan o‘tkazdi.

— Xush kelibsiz? Qulog‘im sizda, bekzoda?

— Kelishimizning boisi o‘zingizga ayon. Isyonchilar bayroqdori Po‘latxon qaysi Makkaga ketdi? Shu elga qorong‘i bo‘lib qoldi?

— Daydi bo‘lsa ham ozmi-ko‘pmi Is’hoqning mehnati bor edi, biroq Xudoning xohishi ekanmi, uni qonun-qoida, shariat ko‘tarmadi. Merosxo‘r boshqa ekan...

— Shuncha mehnat qilib, qon to‘kkan elning topgan foydasi shumi?

— E-e, bekzoda! O‘zingiz ko‘ra-bila turib yana gapirasiz-a? Axir yarim podshoga aldangan Xudoyorxonning taqdiri nima bo‘ldi? Oshiqcha tashvishdan kimga foyda bor? Hadeb taxt talashib janjal chiqaravermay, taxt egasi atrofiga jipslashib, o‘lkamizning osoyishtaligini o‘ylasak bo‘lmaydimi?

— Bu to‘g‘ri gap, — dedi Abdullabek. — Ammo xalq Xudoyorxonning kuchugi uchun kurashgani yo‘q. Xalq ularsiz ham o‘lkani himoya qiladi. Ularning qadr-qimmati qolmadi-ku? Xafa bo‘lish yo‘q, lekin xalq bizga ishongan edi. Elning bayroqdori Po‘latxonni qaerga berkitdingiz? El shuni so‘rab, norozilik bildiryapti.

— Nima?! El?! Qaysi el?! — deb baqirib yubordi mingboshi. — Ha, son tegmay qoldimi? Sen, bolakay, o‘zing norozi bo‘lsang kerak? Senga amal bo‘lsa, elni nazaringga ilmas eding!

Xom sut emgan banda emasmi? Darhaqiqat, Abdullabek mingboshi bo‘lishni orzu qilardi. Ayniqsa, bolakay degan so‘z uni nihoyatda ranjitib yubordi.

— Hay! Hay! Sizning amalingiz menga yarashmaydimi? Sizdan mening qayerim kam? Siz Musulmonqulning bolasi bo‘lsangiz, men Olimbekning o‘g‘liman, — dedi Abdullabek piching aralash. — Esingizni yig‘ing, yana qon to‘kiladi-ya?!. Qo‘lingizga tizgin tegishi bilan hamma narsani unutib yuboribsiz-da, a?!

Abdurahmon mingboshi so‘z topolmay, jallodni chaqirishiga oz qoldi. Abdullabek o‘rnidan turdi:

— Xo‘p, endi biz qaytaylik. Xaloyiqning talabi shuki, Po‘latxonga zomin bo‘lmang. U taqdirda o‘rda yong‘in ostida qoladi. Sizga maslahatim shu, Po‘latxonni ozod qilganingiz ma’qul.

Abdullabek ketiga qayrilib qaramay chiqib ketdi. Mingboshi muzday ter bosib qotib qoldi.

Beklar, manaplar birlashgandan keyin isyonning yo‘nalishi o‘zgarib ketdi. Abdurahmon isyonchilar boshlig‘i Is’hoq bilan yonma-yon yurib, Qo‘qonga bostirib kirdi va qulay fursat topib Is’hoqning qo‘l-oyog‘ini bog‘latdi, jiyani Nasriddinbekni xon qilib ko‘tardi. U Po‘latxon nomi bilan yurgan daydi Is’hoqni yo‘q qilib, hokimiyatni o‘z qo‘liga olmoqchi bo‘ldi. Ammo xalq buni bilib qoldi, shov-shuv ko‘tarildi. Buning ustiga xon darajasidagi obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan Qurbonjon Dodxohning o‘g‘li ayni tush paytida o‘rdaga kelib, Abdurahmonni talvasaga solib ketdi. Nima qilish lozim? Mingboshi garang.

Uning oldida birgina yo‘l bor edi. Chekinish mumkin emas. Buning ustiga tezroq g‘azot e’lon qilib. Tug‘ni qo‘lga olish hamda Toshkentdan yarim podsholikni quvib yuborib, xalq esidan haligi daydini chiqarish mumkin.

Mahram qal’asi Xo‘jand shahridan 45 chaqirim olisda joylashgan edi. Qal’aning bir tomoni Sirdaryo bilan tutashgan, ikki tomoni yuksak qo‘sh devor bilan o‘ralgandi. O‘q-dori, oziq-ovqat, zambarak bilan to‘la ta’minlangan yigirma ming sarboz shu yerda edi.

Is’hoq bu yerga keltirilishi bilan mirshab uni minoraning eng chuqur va qorong‘i zindoniga tashladi. Bu yerda o‘limga hukm qilinganlar yotardi. O‘rdadan buyruq kelmaguncha hech kim bilan

uchratmaslik buyurildi. Uni qo‘ldan chiqarmay saqlash qal’a begi Iso avliyoga topshirilgan edi.

“Nega meni o‘ldirishmaydi?” — deb Is’hoq zindonning zax devoriga suyanib o‘ylanardi. Hech narsa ko‘zga ko‘rinmaydi. Qop-qorong‘i. Uch qadam yurib yana devorga urildi. “Go‘r degani shumikin? Meni tiriklay ko‘mishmoqchimi?” — deb o‘z-o‘zidan so‘rardi.

Tepadan oyoq tovushi eshitildi. Bu posbon. Kim bo‘lsa ham u tiriklik nishonasi. Sharpa tindi. Charchadi shekilli.

U paypaslab devorga suyandi, ko‘zini yumdi. Ko‘z oldiga Abdurahmon, Abdullabek keldi. Qopqonga tushib qolganligini o‘yladi. Isyonda bosh-qosh bo‘lgan Mo‘min, Valixon, Beknazar, Eshmat sarkorlarni esladi. “Menga Abdurahmonning udaychilari hamla qilganda, yonimda Otaqul bor edi. Unga nima bo‘ldi? O‘ldimi? Yoki menga o‘xshab zindonda yotibdimi?” — o‘yladi Is’hoq.

Is’hoq tepaga ko‘z yugurtirib, yuragi hovliqib ketdi. Chunki yuqoridan ignaning teshigiday joydan nur tushib turardi. U kaftini tutdi. Yorug‘lik moshdekkina. Nima ham qilsin? Endi uning kimga keragi bor?

Kim do‘st, kim dushmanligining farqiga borolmasdi. Qanoti qayrilgan qushday najotsiz. “Qaerdasiz qadrdonlar, yor-birodarlar, jafokash hamrohlar? Qayoqlarda qoldingiz uzangidosh do‘stlarim?” Kimga hasrat qilsin? Is’hoq noiloj ahvolda ekanligini yaqqol sezib, devorga suyanib qoldi. Uni uyqu elitdi.

Ko‘ziga yana o‘sha ipday ingichka nur ko‘rindi. Atrof sokin. Qorong‘ilik o‘z qa’riga yutguday. Atay biror sharpa eshitgisi keldimi, yo‘talib:

— Vaqt qaysi mahal bo‘ldi? — deb o‘zidan-o‘zi so‘radi.

— Men qayoqdan bilay? Sen o‘tirgan joyda men ham o‘tiribman, — deb kimdir zindonni boshiga ko‘tarib kuldi.

Yo‘qolgan nur birdan paydo bo‘ldi. U kaftini tutdi. Ipday nozik yorug‘lik tugab borayotgan umriga o‘xshadi. U kaftini nurga tutib, ikki-uch marta yuziga surdi. “Yorug‘lik... hamma narsa yorug‘likka intiladi...”.

Tepadan sharpa keldi. Is’hoq boshini ko‘tarib qaradi. Temir qopqoq ochilib, yorug‘lik tushdi. Ko‘zi tinib ketdi. Is’hoq yuzini

berkitdi. Yoniga nimadir tushdi. Non ekan. Keyin u ipga osilgan mis choynakni oldi. Atrofga zehn soldi. Burchakda soch-soqoli o'sib ketgan bir kishi qarab turardi.

— Assalomu alaykum, — dedi Is'hoq. Haligi odam o'zini chetga olib qochdi. Temir qopqoq sharaqlab yopildi. Yana hammayoq qop-qorong'i bo'lib qoldi.

— Ey! E-ey! — deb baqirdi Is'hoq. Hech kim javob bermadi. "Bugun ham gaplashmadi! Nega? Unga men nima yomonlik qilibman? Kim bo'ldiykin?"

Bir parcha non bilan suvni tamaddi qildi. Bir oz darmonga kirganday bo'ldi. Kunlar ketidan kunlar o'tardi...

Olis-olislardan gumburlagan aks sado keldi. Is'hoq qulog'ini tutdi. Yana bir necha ovoz yangradi.

— Zambarak! Zambarak otildi, — deb u o'rnidan turdi. Yana gumburladi. Uning nazarida Mo'min, Beknazar, Eshmat isyonchilar bilan birga qal'aga bostirib kelayotganga o'xshadi.

— Hoy! Hoy! — deb tepaga qarab baqirdi Is'hoq. Sharpa eshitildi. Zindonning temir qopqog'i ko'tarilib, qorong'ilik nur bilan almashdi. Yorug'likdan Is'hoqning ko'zlari qamashdi. Sersoqol posbon engashib qaradi:

— Nima? Kalima aytib qo'yaymi?

— Yo'q, kalimam og'zimda, — dedi Is'hoq.

— Baqirmay, Xudo deb yotmaysanmi?

— Hoy birodar!

Qorovul jim bo'ldi.

— Tashqarida nima gap? Zambarak otilyaptimi?

— Seni nima ishing bor? Umring tugab turibdi-ya, yana so'raysan-a. Yorug' dunyo to's-to'polon. G'azavot...

— Kim boshlabdi?

— Kim norozi bo'lsa, o'sha boshlaydi-da...

— O'rda boshlabdi. Abdurahmon el boshiga yana tashvish solmoqchi shekilli, — dedi Is'hoq g'azablanib.

Qorovul hayron bo'lib:"O'zi nima ahvolda-yu, xalqni o'ylaganini qara-ya. Aqldan ozibdi bechora", — deb o'yladi.

— Ey, botir, — dedi Is'hoq, — Iso avliyoni chaqir, tez kelsin, unga aytadigan gapim bor.

— Qo‘y, aljima, so‘zlashish mumkin emas, hadeb g‘ashimga tegaversang, qopqoqni yopib qo‘yaman, — dedi zindonbon.

Yopib qo‘yishi hech gap emas. Is’hoq jim bo‘ldi. Besh-olti qadam yurdi. Qorovul engashdi:

— Ey, sen kimsan? — deb so‘radi. Is’hoq soqol bosgan boshni ko‘rdi. — Hamma narsa ostun-ustun bo‘lyapti. Hoy, og‘ayni, meni so‘rab nima qilasan? Sening esa teringni Abdurahmon shilib oladi.

— Shilsa, shilsin. Isyon nima bo‘ldi? Isyon?

— Qaysi isyon? Lashkarboshi hazratlari ko‘targan isyonmi?

— Yo‘q, xalq qo‘zg‘oloni?

— Ha-ha... Po‘latxon boshlaganmi? Po‘latxon o‘zi Makkatilloga ziyoratga ketibdi. Qo‘shinning yarmi hozir Abdurahmonga qarshi chiqayotgan emish.

Is’hoqning hafsalasi pir bo‘ldi.

— Taqsir, sizga ularning nima daxli bor? — deb masxara qildi qorovul.

Is’hoq o‘rnidan turib:

— Men o‘sha Po‘latxonman, — dedi.

Posbon og‘zini qiyshaytirib , rosa qah-qah urib kuldi.

— Hi-hi-hi... Hazrati Abdurahmon emasmisan?!

— Nodon! — qichqirib yubordi Is’hoq. — Ishonmayapsanmi?

Posbon yana kuldi. U ishonmadi. Kulib, to Is’hoq gapirguncha qopqoqni yopdi.

— Ey! Ey, to‘xta? — dedi Is’hoq. Javob bo‘lmadi. Sharpa olisladi. Olisdan zambarak ovozi eshitildi.

Zindon go‘rga o‘xshab ketdi. Ko‘z o‘ngidan qadrdon qishlog‘i, Beknazar, ko‘m-ko‘k yaylov, nuroniy onasi o‘tdi... Shu tarzda kunlar va tunlar o‘tib borardi.

— Hey, kim bor? — degan ovoz zindonda aks sado berdi.

— Hoy, bu yoqqa chiq! — deb shoshirdi begona kishining ovozi.

Is’hoq narvonga tirmashdi. Oyoqlari qaltirab tepaga intildi. Kimdir zindon og‘zida uni qo‘ltig‘idan oldi.

Is’hoq sergaklandi. Havo beg‘ubor edi. Ko‘ziga ikkita davangirday sarboz, osmon ko‘rindi. Sarbozlar hech narsa demay, uni o‘rtaga olib, bek huzuriga jo‘nashdi.

Mosh-guruch soqolli, zangori baxmal do‘ppi kiygan, qora choponli Iso avliyoning o‘zi o‘tirardi. U mahbusga tumshayib qaradi. Mumdan tayyorlangan sham xira nur sochardi. Is’hoq to‘g‘ri Iso avliyoning ro‘parasiga borib to‘xtadi. Salom bermadi. Avliyo qoshini chimirdi.

— Keling, shahzoda, — dedi qariya muloyim. Is’hoq yuzini shartta o‘girdi. Unga “shahzoda” degan so‘z og‘ir botdi. Avliyo qora choponining yengini tuzatib:

— O‘g‘lim, — dedi asta, — o‘tir, bafurja gaplashaylik.

Oriqlab ketgan Is’hoq devorga yaqinroq borib suyanib o‘tirdi.

— Hay, mayli, o‘g‘lim, shahzoda so‘zi qulog‘ingga yoqmagan bo‘lsa, aytmay qo‘ya qolay. Gapning indallosi shuki, o‘g‘lim... Taxt uchun o‘zaro qirg‘in, olishuvning hozir foydasi yo‘q ekan. Xususan, yarim podsho kun sayin etagimizdan tortib, bo‘ynimizga solgan sirtmoqni tobora qismoqda. Bir yoqadan bosh chiqarmasak, dinimizdan, yerimizdan, boyligimizdan ajrab qolamiz shekilli...

Is’hoq hamon pinagini buzmay o‘tirardi.

Avliyo davom etdi:

— Nasriddin umidni oqlamadi. Nimani ham yashirardik? Bu esipast, dovdir otasining izidan borib, yarim podsholikni qo‘llab, mingboshini mensimayotir.

Is’hoq gapga aralashdi:

— Bu qarg‘ish tekkan o‘rdani yo‘qotmaguncha tinchlik bo‘lmaydi, degan emasmidik? Bu urug‘ingga o‘t tushgur ochko‘z bo‘lib ketdi. Faqat o‘zini o‘yladi. O‘lka bilan mutlaqo ishi yo‘q. Ular ildizi bilan quritilmaguncha o‘rdaning jamiyatga sira nafi tegmaydi.

Nima deb javob berish kerak? Iso avliyo xayol surib ketdi...

Abdurahmon o‘rdani qo‘liga olgach, barcha viloyatlardagi biylarga quyidagi mazmunda xat yozdirib jo‘natgan edi. “Ey musulmonlar! Bobolarimizning qabrlari oyoq osti qilindi. Mozorlarimiz toptaldi. Ey ahli musulmon! Dehqon, savdogar, chorvador bir-birining qoniga zabun bo‘lmoqda. Turli urug‘larning urushi murosaning ketganligidir. Bir yoqdan yarim podsholik yurtimizga xavf-u xatar solayotir. Biz begona hokimdan qutulmog‘imiz kerak. Otlaninglar! Ey musulmonlar, payg‘ambarimizning ko‘k tug‘ini baland

ko‘taraylik”. Yerni, elni qutqazish haqidagi bunday balandparvoz gaplar barchani oyoqqa turg‘azdi.

Abdurahmon zudlik bilan ishga kirishdi. Hamal oyining boshlarida chegara hisoblangan Ablik qishlog‘iga kirib borishdi. O‘n ming qo‘shin Toshkent — Xo‘jand aloqa yo‘lini egallab, rus askarlari turgan uyezdga hujum boshlashdi. Xo‘jandga qarab hujumga o‘tgan qo‘shin esa yo‘l-yo‘lakay bir qancha punktlarni qo‘lga kiritib, shaharga o‘n ikki chaqirim yerdagi Degmoy qishlog‘ini ozod qildi. Kurashga otlanganlar Sirdaryo bo‘ylab Chilmahram, Sangar, Nov, Parkent qishloqlarini bo‘shatishdi, Toshkentga qirq chaqirim qoldi. Shu kuni Xo‘jand tomondagilar Xo‘jand — O‘ratepa aloqa liniyasini ishdan chiqarib, Manap Isaevning oyna zavodini yer bilan yakson qilishdi, Xo‘jand shahrini qamal etishdi.

To‘qnashuvga bahona topolmay turgan general-gubernator fon Kaufman general Golovachyov boshchiligida tezotar miltiq, zambaraklar bilan qurollangan bir ming besh yuz kishidan iborat askar jo‘natdi. Xo‘jand shahridan polkovnik Skobelevning rus askarlari xaloskorlar yo‘lini to‘sib chiqishdi.

Fon Kaufman Toshkentda tinch turmadi. U Nasriddinxon bilan zimdan aloqa bog‘lab, uni Abdurahmonga qarshi otlantirishga erishdi.

General Golovachyov Ohangaron yaqinida Zulfiqor boshchilik qilgan olti ming qo‘shin bilan to‘qnashdi, Zulfikor yarim askaridan ajradi. Polkovnik Skobelev Xo‘jand atrofida g‘alabaga erishib, Parkent qishlog‘ini qayta qo‘lga kiritdi.

Shundan so‘ng o‘rdadan Nasriddinxon tarafdorlari og‘ir ahvoldan foydalanib, Qo‘qonga rus askarlarining kirishini lozim topishdi, shu bahonada Abdurahmondan qutulishni ko‘zlagan xon Toshkentdan yordam so‘rab, yashirincha xat yubordi. O‘lkaning chinakam egasi Nasriddinxon iltimosiga binoan Kaufman rus askarlarini chegara qishloqlari orqali Farg‘onaga tushirgandi.

Ana shunday og‘ir paytda Iso avliyo, yarim tunda Is’hoqni zindondan oldirib, juda muloyimlik bilan suhbatlashdi va uning gapiga qo‘shilgan bo‘ldi.

— Shunga o‘xshaydi, o‘g‘lim, endi nima qilamiz? Biror chorasini topish kerak. Gap shundaki, elimiz hardamxayol, ku-

chimiz ikki tarafda qoldi. G‘azotga chorlab, ularni biriktirmasak bo‘lmaydi. Ming urug‘i yerga kirsin. Mingboshi hazratni qo‘llaylik.

Iso avliyoning tabassum o‘ynab turgan yuzlari Is’hoqqa Bo‘taqoradagi qovunchi cholni eslatdi. “Bu tulki nima qilmoqchi? O‘z domiga ilintirmoqchimi?” -deb o‘yladi Is’hoq.

— O‘g‘lim, eslik yigitsan, o‘ylab ko‘r. Ona yurt uchun, el uchun, din uchun g‘azotga chiqib, mingboshi hazratning amriga ko‘ninglar. Men shunga roziman, deb Beknazarga maktub yoz, o‘g‘lim.

Shu mahal xizmatkor kumush patnisda piyola, sharob to‘la idish ko‘tarib kirdi.

— Avval chanqoqni bosaylik, — deb uni xizmatkorning qo‘lidan oldi. — O‘zimiz quyib ichamiz, — dedi. Bu, xizmatkorga “chiqaver” degan ishora edi, xizmatkor eshikka qarab yurdi. Taqvodor avliyoning so‘ziga qaraganda sharob gunohi azim, musallas ayni muddao emish. Oltin suvi yurgizilgan piyolaga musallas quyildi. Sharob ekan, hidi atrofni tutib ketdi. U gulgun qadahni bismillohir rahmonir rahim, deb qult-qult yutib, Xudoga shukr qildi.

— Qani, marhamat, — deb navbatdagi piyolani Is’hoqqa uzatdi. Is’hoq bir ko‘tarishda piyolani bo‘shatdi. Chanqog‘i qonmaganligini sezgan avliyo yana quyib berdi. Is’hoq ikki bo‘lib ichdi.

— Rahmat, Xudo xayringizni bersin, — dedi Is’hoq.

— Rahmatni Xudoga ayt, o‘g‘lim, endi bu yog‘ini bir o‘ylab ko‘rgin. Shunday qilsang, el-yurtni joniga ham, o‘z joningga ham ora kirgan bo‘lasan.

Sharobdan shirakayf bo‘lgan Is’hoq boshini ko‘tardi.

— O‘zingga o‘zing sotqinlik qil, demoqchimisiz?! — dedi kulib. — Vaziyat shuni taqozo etayotgan bo‘lsa, yo‘l meniki bo‘ladi, bek, o‘zingiz bilasiz, mening amr-u farmonimga ko‘nib, mening tug‘im ostiga to‘planasizlar!

Iso avliyoning a’zoyi badani titrab ketdi. U Is’hoqning so‘zlaridan hali u shashtidan tushmaganligini, hech balodan tap tortmasligini payqadi. Avliyoning tili kurmalib qoldi. Nihoyat, ko‘zini yerdan uzib:

— Beboshliging boshingga yetadi, bolam!.. — dedi avliyo va yelvagay choponini sudrab, hujradan chiqib ketdi.

O‘sha kuni polkovnik Skobelev qal’ani qamal qildi.

Kayfi oshgan Is’hoq zindonda uxlab yotardi. Birdan yer qattiq titradi. U ko‘zini ochdi. Vizillab uchayotgan o‘q tovushlaridan hushyor tortdi. Is’hoq quloq soldi. Miltiq, to‘p ovozlaridan yer larzaga kelardi. “Ha, o‘rislar kelibdi”, — dedi u. Is’hoq nari-beri yurdi, so‘ng zindon o‘rtasida to‘xtab bor ovozi bilan baqirdi:

— Ho-oy?! Kim bor?!

Uning ovozini tashqaridagi shovqin bosib ketdi. O‘sha onda tashqarida tomlar ag‘darilib, qamishga o‘t ketib, hammayoqni to‘zon qoplagandi. Zambarak betinim gumburlardi. Ot kishnardi. Zindon atrofidan kimdir chinqirib gapirdi.

— Baqirma, hoy onasi taloq! — deb jerkidi birov. — O‘tni o‘chir. Suv sochinglar. Kigiz bos, hoy onasi taloq!

Is’hoq tanidi. Bu Abdurahmon edi. “Ahvoling shu ekan-ku, xonasallot”, deb qo‘ydi u va teskari burilib, zindonning g‘isht devoriga suyandi. Yer silkinib, bir-ikkita g‘isht tushdi. Zindon ichiga quyuq dud, chang kira boshladi. Yaqin yerda kimdir ingradi. Is’hoq yalt etib qaradi va qo‘lini yuqoriga cho‘zdi.

— Kimsan? Hoy, og‘ayni, — deb ovoz berdi. — Yana ingragan ovoz eshitildi. Shu payt nimadir tomchiladi. Is’hoq qo‘lini tutdi. Qon ekan. U ikki qo‘lini cho‘zib yana baqirdi:

— Hoy, og‘ayni, menga qara!

Ingragan ovoz tindi. Dud va chang uning nafasini bo‘g‘di, U kaftidagi qonni ko‘rib, “Balki bu dushmanimning qonidir? Bekning qonidir?” deb qo‘lini yalagisi keldi.

Zambaraklar yana gumburlay boshladi. Hammayoqni to‘zon bosdi. Nimadir gumburlab ag‘darildi. Qal’a devori bo‘lsa kerak. “Hammasi tamom! Hammasi...” dedi Is’hoq. U zindonning zax burchida yuztuban yotardi. Otishma tindi. Zindon qopqog‘i g‘ichirlab ochildi.

— Ho-oy, kim bor?

Is’hoq boshini ko‘tardi. Chang aralash yorug‘ tushib turardi. Oldiga gup etib arqon tushdi. Tepadan ovoz keldi:

— Ho-oy, bormisan? Arqonni ushla, tezroq bo‘l.

Is'hoq arqonni beliga bog'ladi, oyog'i yerdan uzildi. U zindon og'zida turgan odamni tanimadi.

— Nima bo'ldi? — dedi Is'hoq hayron bo'lib.

— Damingni chiqarma, Xudo yorlaqagur, — deb shivirladi notanish kishi.

Ikkovi buzilgan devorlar oralab, qal'a tepasiga olib boruvchi zinapoya tagiga yetib to'xtashdi. Is'hoq atrofga qaradi. Qopqorong'i. Ancha olisda mezana ko'zga chalindi. Qal'aning chetrog'iga chiqishdi, Quyidan suvning shildiragani eshitildi.

— O'limga shoshilma, taqsir, mana buni ushla...

Is'hoq arqonni beliga bog'ladi, baland devordan osilib tushdi. Oyog'i yerga tegishi bilan, qayoqdandir kuch paydo bo'ldi. U kalima keltirib, muzdek suvda betini yuvdi va to'yib-to'yib ichdi, so'ng anhor bo'ylab yugurdi. Oldidan kimdir chiqdi. Is'hoq entikib to'xtadi.

— Sen kimsan? To'sma yo'limni! — deb qichqirdi.

— Is'hoq? E, azizim, bormisan?!

Is'hoqning yuragi qattiq ura boshladi. Beknazar!

Is'hoq lattaday bo'shashib ketdi, oyoqlari chalishdi. Beknazar lo'killab yetib kelib, uni bag'riga bosdi.

— Is'hoq, e qadrdonim, tirikmisan?

Is'hoq tili kalimaga kelmay, boshini Beknazarning keng ko'kragiga qo'ydi. Ungacha yigitlar yetib kelib, bir chekkadan so'rasha boshladi.

— Qani, tezroq! — dedi Beknazar. Yigitlar darrov bo'z arg'umoqni Is'hoqning oldiga keltirishdi. Beknazar uni suyab otga mindirdi. Is'hoq o'zini qushday yengil sezib, tunda qorayib turgan Mahram qal'asiga qayrilib qaradi.

— Beknazar aka, meni qutqazgan kim edi? — deb so'radi.

— Xotirjam bo'l, Is'hoq. O'zimizga qarashli odam. — Beknazar ikki qo'lini yozdi. — Qani! Omin, Xudo oq yo'l berib, otamiz arvohi qo'llab, qorong'ida shamchiroq bo'lsin. Ollohu akbar! — deb fotiha o'qib, arg'umoqqa qamchi bosdi. Yigitlar Beknazar bilan Is'hoq ketidan otlarini yeldirib, Farg'ona tomonga yo'l olishdi.

Ular tun-u kun yo'l yurib, tong yorishganda ulug' tog' Bo'zbuga yetib kelishdi.

BESHINCHI QISM

I

O‘n ikki ming kishisidan ajragan Abdurahmon oftobachi qarshilikka tob berolmay, besh yuzga yaqin yigiti bilan Iso avliyoni ergashtirib, qochishga majbur bo‘ldi. Fon Kaufman bo‘lsa ko‘p qo‘shin bilan Qo‘qon sari kelmoqda edi. Nasriddinxon darvozalarini mahkam berkitib, Abdurahmonning qaytib kelishiga yo‘l qo‘ymadi. Qaytaga darvozadan piyoda chiqib, fon Kaufmanni kutib oldi.

Nasriddinxon bilan uchrashgan fon Kaufman shahzodaga zo‘r ishonch bildirib, muzokara olib borishga rozilik berdi. Qisqa vaqt ichida har ikki tomon shartnomaga imzo chekdi. Shartnomaga ko‘ra o‘lkaning shimol tomoni — Norin daryosining o‘ng qirg‘og‘i, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan Namangan shahri Rossiya imperiyasining qaramog‘iga o‘tdi. Bu viloyatning xalqi zimmasiga oltin bahosida olti yuz ming so‘m miqdorida kontributsiya solindi. Xon degan nomni saqlab qolish uchun Nasriddinxon hamma narsaga bajonidil rozi bo‘ldi.

Fon Kaufman yonida tilmoch bilan kutib o‘tirardi. Ad’yutant bir dildiragan devonani olib kirdi. Kaufman qiziqsinib qaradi.

— Shumi?

— Hazrati oliylari shu kishi!

Fon Kaufman jilmaydi.

— Keling, — dedi devonaga. Tilmoch tarjima qildi. Devona cho‘chinqirab: “E, Olloh... Kofir yuzini ko‘rsatguncha jonimni ol!” deb kalima keltirdi. Fon Kaufman tilmochga qaradi.

— Hazrati oliylari, u o‘lim oldidan Xudoga sig‘inib, duo o‘qidi, — dedi.

Fon Kaufman: “Hm...” deb xo‘rsinib qo‘ydi. Tilmoch jimlikni buzdi.

— Sho‘rlik bu dunyo lazzatidan voz kechganga o‘xshaydi, aqldan ozgan shekilli...

Fon Kaufman ma’qulladi:

— Ha, ko‘rinib turibdi. Nu, ismingiz nima?

Tilmoch tarjima qildi.

— Menimi? Xudoga shukr, ismim Po‘lat. Alhamdulillo, musulmonman, Xudoning bir bandasiman. Muhammad payg‘ambarning ummatiman, — dedi bo‘lib-bo‘lib.

Tilmoch orqali devonaning gapiga tushungan fon Kaufman kulib yubordi.

— Basharti, sizdan boshqa birov so‘rab qolsa, xuddi shunday javob berasizmi?

Tilmoch tarjima qildi.

— So‘rasin, mayli, so‘rayversin...

Tilmoch tarjima qildi. Kaufman o‘rnidan turib, devonani ad’yutantga topshirgach, yuvintirib, shahzoda kiyimini kiydirishni buyurdi.

Ertasiga safar oldidan uning huzuriga devonani yana olib kelishdi. U o‘sha holatda edi: egnida eski bo‘z chopon, boshida kir salla. Kaufmanning achchig‘i keldi. Chunki, uni el oldida kimligini aytish va sharmisor qilish uchun ataylab Samarqandga odam yuborib oldirib kelgan edi...

— Obbo, shahzodamiz shumi?

— Oliy hazratlari, u kiyinishdan, ovqat ichishdan bosh tortdi.

Fon Kaufman o‘z askarlari bilan Marg‘ilonga keldi. Bozor kuni edi. Jarchilar bozor aylanib, xaloyiqni to‘plab, shahzoda Po‘latni ko‘rib olinglar, deb jar soldi. Odamlar:“Nahotki shu shahzoda bo‘lsa? Yo‘g‘-ye, bu bir qalandar-ku!”, “Bechora quvg‘inda yurgan bo‘lsa, nima qilsin?!” deb o‘zaro tortishishardi. Tilmoch odamlarning gapini tarjima qildi. Fon Kaufman:

— Qadrli oqsoqollar! Uning kimligini o‘zidan so‘rab ko‘ringlar, — dedi,

Tilmoch xaloyiqqa qarab tarjima qildi. Salla o‘ragan bir chol o‘rtaga chiqdi.

— Assalomu alaykum, — deya devonaga salom berdi. Devona o‘z odatiga ko‘ra dik etib turib, tavoze bilan alik oldi.

— E, ahli musulmon! Meni kofir bandi qilib oldi. Uni qo‘lidan meni bo‘shatib olinglar!

— O‘zing kimsan? — so‘radi haligi qariya.

— Ismim Po‘lat, taqsir. Xudoning quli, Muhammad payg‘ambarning ummatiman.

— Qaysi Po‘lat?

— Ibrohimbekning o‘g‘liman, taqsir.

— Qaysi Ibrohimbek?

Devona burnini tortib, pishillab javob berdi:

— Endi, taqsir... Ibrohimbek, Xudo rahmat qilgur, bizning otamiz edi. Ming avlodi, jahongir Olimxonning o‘g‘li bo‘lgan, taqsir...

Xaloyiq o‘rtasida shovqin ko‘tarildi. “Yolg‘on aytadi”, “Qizitaloq devona”, “Unga birov o‘rgatib qo‘ygan”, deb odamlar har tomondan luqma tashlardi. Tilmoch fon Kaufmanga tarjima qilib berdi. Fon Kaufman kimgadir ishora qildi. U bilan yurgan o‘rda vakillaridan biri qo‘ynidan Qur’onni olib cholga uzatdi. Qariya uni o‘pib, peshonasiga surtgach, keyin:

— E, notavon banda, sen: “Men Olimxonniig o‘g‘li Po‘latbekman”, deb Xudoni yod qilib, bu dunyo-yu u dunyoni esingga olib, Kalomulloyi Sharifni ushla-chi?! — deb rangi bo‘zarib kitobni devonaga uzatdi. — O‘ylab javob ber, tabarruk kitob urib ketmasin!

Devona sira o‘ylab o‘tirmay, Qur’onni olib, o‘z odatiga ko‘ra tavof qildi.

— Yolg‘on gapirsam, Kalomullohi Sharif ursin!.. Tong-la mahsharda payg‘ambar jamolidan benasib bo‘layin... Ibrohimbekning o‘z o‘g‘liman, — deb ko‘zlarida yosh aylandi. — Ey musulmon farzandlari, meni bo‘shatib olinglar. Kofirlar bandi qildi. Namozim qazo bo‘ldi. Ey musulmonlar...

To‘plangan xalq jim bo‘lib qoldi. Odamlar orasidan: “Ajabo, o‘zi ekan”, “Xudo yo‘liga tushib ketgan ekan-da, boyoqish?!”, “Buni kimga ziyoni bor?!” degan gaplar eshitila boshladi. Tilmoch darrov tarjima qildi. Fon Kaufman yana nimanidir buyurib, ishora qildi. Tilmoch yonida turgan Sultonmurodni turtdi.

— Ihe... — deb Sultonmurodbek o‘rnidan turdi. — Ey yaxshilar, ko‘rib turganingiz Xudo rahmati shahzoda Ibrohimbekning o‘g‘li shahzoda Po‘latbek bo‘ladi. Barchangizga ma’lumki, Is’hoq ismli daydi bir zot Po‘latxon nomi bilan yashirinib, xonga, o‘rdaga qarshi xalqni gijgijlab, besabab qon to‘kmoqda. Bundan buyon yomon fikrda yurganlar noto‘g‘ri yo‘ldan qaytib, xondan uzr so‘rasin. Xon hazratlari ularni kechiradi. Xudo xohlasa, tez kun-

lar ichida yarim podshohimizning yordami bilan soxta shahzoda Is'hoq qo'lga tushirilib, jahannamga jo'natiladi.

Hech kim churq etmasdi. Ayrimlar davradan chiqib keta boshladi. Ba'zilar o'rtada turgan Po'latga ajablanib qarardi.

Fon Kaufmanning ishorasi bilan yon tarafda turgan bir kishi o'rnidan qo'zg'aldi. Qamchisini buklab, odamlarga mensimay qaradi. El bezovtalandi. "Hoy, bu Otaqul botirboshi-ku?" "E, e, Is'hoqni sotgan shu-ku?" deb to'planganlar ochiq-oydin gapirardi. Fon Kaufman odamlardan ko'zini uzmasdi.

— Ey xaloyiq! — dedi Otaqul. — Hayron bo'lmanglar, meni ko'pchilik taniydi. Men Otaqul botirboshiman. Men ikki yil davomida soxta shahzoda orqasidan yurib, o'z elimizga qilich ko'tardim. Shariatga, o'rdaga qarshi chiqdim. Nihoyat ko'zim ochildi. Bunday aldamchidan tezroq qo'linglarni yuvinglar. Qancha tez bo'lsa, shuncha yaxpsh!

Fon Kaufman Otaqul botirboshining gapini ma'qullab boshini qimirlatib o'tirdi. Otaqul gapirib bo'lgach, fon Kaufman tilmochga nimadir dedi. O'z navbatida tilmoch Sultonmurodga hazrati oliylarining gapini tushuntirdi. Sultonmurod o'rnidan turib, devona Po'latni qo'lidan yetaklab, davrani aylantirdi,

— Mana, ko'rib olinglar! Chinakam shahzoda mana bu bo'ladi. Tanib qo'yinglar.

Davra asta-sekin siyraklashib, odamlar keta boshladi.

— E, xaloyiq! Mana, shahzoda Po'latbek... — deb Sultonmurodning ovozi xirillab chiqardi. Otaqul botirboshi tarqalayotgan kishilarning yo'lini to'sib baqirdi:

— Ey ayyor chol, qayoqqa? Hoy deyapman, qo'radan qochgan qo'yga o'xshaysan-a?

Uning harakati zoe ketayotgandi. Odamlar o'z bilganlaridan qolmay tarqalardi, Devonani yetaklagan Sultonmurod kuyib-pishib fon Kaufmanning oldiga keldi. Hazrati oliyning qovog'i osildi. Sultonmurod o'z xo'jasidan tayoq yegan itday bo'shashdi. Otaqul botirboshi hamon yo'l to'sish bilan band edi.

— Hay-hay! Qulog'ing bormi? — derdi u. Do'ppi kiygan novcha odam muloyimlik bilan:

— Ha, eshitdik, yaxshi yigit, — dedi.

— Eshitsang, qayga ketyapsan?!

— Shu yerga, hozir kelaman...

Otaqul botirboshi so‘kindi.

— Kelasan-a? Kelasan, ahmoq!

Tilmoch go‘yo tanga hisoblaganday bu so‘zlarni tez-tez fon Kaufmanga tarjima etdi.

Fon Kaufman otga mindi, oti o‘ynoqlardi, u jahl bilan:

— Hoy! — deb qichqirdi. Hamma jim bo‘ldi.

— Hoy, o‘zbeklar! — deb yarim podsho qo‘lini paxsa qildi. — So‘nggi marta eslatib qo‘ymoqchiman. Buzg‘unchilarga ishonmanglar. Kimki isyonchilarga qo‘shilsa, mol-mulkidan, bog‘-rog‘idan ayriladi. Sizlar ko‘chmanchilarning gapiga ishonmanglar.

Tilmoch general-gubernatorning so‘zlarini tatarcha lahjada qiynalib yurib aytdi. Hech kim indamadi.

— Eshitdinglarmi? — deb qichqirdi fon Kaufman. Tilmoch tarjima qildi. El churq etmadi.

O‘sha kuni fon Kaufman Otaqul botirboshini Marg‘ilon shahriga bek qilib tayinladi, “Jami qishloq va ovullarning mahalliy aholisidan kimki isyonga qo‘shilsa, uy-joyi musodara qilinishi, o‘zi qattiq jazoga tortilishi” to‘g‘risida farmon berildi, bu farmon jarchilar orqali ko‘chama-ko‘cha, qishloqma-qishloq ma’lum qilindi.

Tog‘ daryosi to‘lib-toshib oqqan mahalda har qanday to‘siq g‘ovni buzib, o‘z oqimini, yuz yillab oqqan o‘zanini o‘zgartirib yuboradi.

Xalq tog‘ daryosiday to‘lqinlanib, poydevorining puturi ketib, nurab qolgan o‘rdaga, subutsiz xonga qarshi otlana boshladi. Ular yarim podshoning dahshatidan cho‘chimadi.

Fon Kaufman mudofaa ministriga: “Nasriddinxon kurash uchun askar ham, mablag‘ ham to‘play olmadi. Uning Andijon, Shahrixon va Baliqchiga tayinlagan beklari iste’fo berishga majbur bo‘ldi. Qurol-yarog‘ xalq qo‘zg‘olonchilari qo‘liga o‘tdi. Qo‘zg‘olonchilar boshlig‘i o‘sha eski Mulla Is’hoq Hasan o‘g‘lidir”, deb shoshilinch xabar yo‘lladi.

Is’hoqning nomi yana birlik, ozodlik bayrog‘iga aylandi. Xalqning ko‘pchilik qismi, katta-katta shaharlar Nasriddinxonning

hukmiga bo‘yin egishdan bosh tortdi. Xon bir hovuch kishilari bilan Qo‘qonda shunchaki yashab turardi.

Fon Kaufman Mudofaa ministriga qaytadan hisobot yo‘lladi va: “Ishni o‘z qo‘limizga olib, o‘lkada tartib o‘rnatmasak bo‘lmaydi. O‘zbek, qipchoq, qora qirg‘iz urug‘lari qo‘zg‘olon ko‘tarayotgan yerlarni tozalab, mahalliy aholini ularga qarshi qo‘yish kerak, o‘z qurolli kuchimizdan foydalanib, har qanday urinishlarga zarba berishimiz zarur”, deb to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashish uchun ruxsat so‘radi.

Xalq Bo‘taqora qishlog‘ida Is’hoqni eski udumga ko‘ra oq kigizga o‘tqazib xon qilib ko‘tardi.

II

Is’hoq bo‘z arg‘umog‘ining tizginini sal tortib, Andijon qopqasini xayolchan ko‘zdan kechirdi: oyog‘ida ko‘k bulg‘ori etik, belida ko‘k fo‘ta, yonboshida rus to‘pponchasi, boshida ohori to‘kilmagan qalpoq. Bir yog‘ida Beknazar, bir yog‘ida Abdullabek. Orqasida son-sanoqsiz qo‘shin.

Is’hoq niqtashi bilan ostidagi arg‘umog‘i irg‘ishladi.U darvozaga yaqin kelganda otdan sakrab tushdi, yonidagi sarkorlari, beklari bir-biriga qarashdi.

Is’hoq otini yetaklab oldinga yurdi. Uni ko‘rib sarkorlar, beklar ham otdan tushishib, shosha-pisha uning ketidan jo‘nashdi, odamlar qo‘llarini ko‘ksilariga qo‘yib, ta’zim qildi.

Is’hoq hech kim bilan ishi bo‘lmay, “Bismillohir rahmonir rahim...” deb pichirlab kalima keltirdi, darvozadan o‘tgan hamon, yerga cho‘kkaladi, tuproqni o‘pib, tavof qildi va keti ko‘rinmagan xaloyiq bilan salomlashdi:

— Assalomu alaykum, qadimiy shahrim, qadimiy yurtim.

Xaloyiq guldurab alik olgach:

— Xush kelibsiz, el og‘asi! — deb kutib oldi. Is’hoq qarilar bilan quchoqlashib so‘rashdi.

— Ey Tangrim, yaratgan ham, olgan ham o‘zingsan. Bechora xalq boshiga endi kulfat toshi yog‘masin, o‘z panohingda saqla, — deb kimdir yig‘lab yubordi.

Qopqa ustida turgan karnaychi ikki lunjini shishirib, karnay chala boshladi. Oldinda jarchi ot yeldirib borarkan:

— Po'latxon! Po'latxon! — deb jar solardi.

Tantana munosabati bilan uch marta zambarak otildi. Odamlar ko'chaga sig'masdi.

— Po'latxon! Po'latxon!

Katta darvozadan boshlab, bek saroyigacha bo'yra solingandi. Ko'k tug' oldinda hilpirardi. Bo'z arg'umoq bo'yra ustidan o'ynoqlab borardi. Is'hoq sal engashib, tizginni xiyol tortib, atrofni ko'zdan kechirardi. Beknazar botir bilan Abdullabek bir oz orqaroqda kelardi.

— Jahongir! Jahongir!

Urf-odatga ko'ra oqsoqollar iliq mulozamat qilishdi:

— Marhabo, ota o'g'li! Omon bo'l!

U el-yurtga nima beradi? Qo'lidan qanday yaxshilik keladi? U boshiga ko'tarayotgan xalq ishonchini qanday oqlamoqchi? "Ha, ularni ming urug'ning azobidan, zulmidan qutqaraman". Bir talay yigit Is'hoqning ortidan chopdi. Ulardan abjirrog'i:

— Taqsir, — deb bo'z arg'umoq uzangisiga yopishdi. Is'hoq yigitga qo'l cho'zdi. Yigit hansirab, qop-qora, qalin qoshlarini kerib, ko'zlari o'ynab:

— Bizni ham qo'shinga oling, taqsir, — dedi Is'hoqning qo'lini qo'yib yubormay,

— Isming nima, azamat?

— Eshmat, taqsir...

— Yuz yigit to'plasang, yuzboshisan, besh yuz yigit to'plasang, ponsodsan. Eshitdingmi, Eshmat botir?

— Eshitdim, taqsir, — deb g'o'labirdan kelgan yigit hansirab chetga chiqdi. Xaloyiqning qiy-chuvi, karnay-surnaylarning vat-vati yer-ko'kni larzaga keltirayotgan sadolari uning qulog'iga kirmasdi.

Is'hoq shahar begining qo'shxonasiga kelib tushdi.

* * *

Mahram qal'asida qattiq zarbaga uchragan Abdurahmon o'z navkarlari bilan Qo'qonga keldi, biroq Nasriddinxon uni o'rdaga kiritmadi. Abdurahmon noiloj taqdirga tan berib, Is'hoq bilan

qaytadan yarashish niyatida o‘rtaga odam qo‘ydi. Lekin Is’hoq ham bu masalani uzil-kesil hal qilolmadi, chunki har ikkala tomonning maqsadi boshqa-boshqa edi. Nihoyat o‘rtaga tushgan odamlarning harakati bilan Is’hoq muzokara olib borishga ko‘ndi va Abdullabek bilan Abdumo‘minbekni olib Bo‘taqora qishlog‘ida qovunchi cholning o‘sha eski hovlisida Abdurahmon bilan uchrashmoqchi bo‘ldi.

Is’hoqning eng yaqin kishilari to‘plangandi. Uning o‘ng tarafida Abdullabek, chap tarafida Beknazar, orqaroqda taniqli mirzasi qurama Abdumo‘minbek o‘tirardi. Devorning yiqilgan yerlariga shox-shabba, qamish to‘sib qo‘yilgandi. Qo‘rg‘on o‘rtasidagi o‘sha qari o‘rik g‘o‘lasi ustida Is’hoq ko‘cha tomonga qarab o‘tirardi.

Abdullabek: “O, oftobachi, sho‘rlik Musulmonqulning o‘g‘li! Qo‘y terisiga o‘ranib kelib, qo‘radagi qo‘chqorning qornini yorib qochgan bu qashqirni qo‘ra egasi nima qilarkin?!” deb ko‘nglidan o‘tkazdi. Abdumo‘minbek esa soqolini silab, Is’hoqqa qarab qo‘yarkan ichida: “Adashganning aybi yo‘q, qaytib to‘pin topguncha...” deb qo‘ydi. Beknazarning yuzi tundlashib, “ushla” degan buyruqnigina kutardi.

Hech kim Is’hoqning dilidagi gapni bilmasdi. U juda ko‘p kishilardan maslahat eshitsa ham, birorta odamga yuragidagini yormadi.

Eski qo‘rg‘onning eshigi “g‘iyt” etib ochildi. Mushtdekkina bo‘lib qolgan Normuhammad dodxoh, uning ortidan basavlat, qovog‘i soliq Abdurahmon ko‘rindi. Hech kim churq etmadi. Suvga tushgan mushukday shumshayib Iso avliyo ham kirib keldi.

Hassa tayangan qari dodxoh salom berdi:

— Assalomu alaykum, yurt xaloskori!

Abdurahmon ham qari dodxoh yonida turib, ta’zim bilan so‘rashdi. Is’hoq cholning soqolini hurmat qilib, qaltirog‘ini arang bosdi.

— Vaalaykum assalom, — deb alik oldi u va qo‘sh qo‘llab ko‘rishdi. Bunday rahm-shafqatni kutmagan qari dodxohning ko‘zida, yosh halqalandi.

— Rahmat, o‘g‘lim! Kam bo‘lma, — deb qalt-qalt etib zo‘rg‘a gapirdi.

Is'hoq cholni qo'ltig'idan olib, o'rik g'o'lasiga o'tqazib, mulozamat qildi.

Uchrashuv navbati Abdurahmonga kelganda, Is'hoqning avzoyi buzildi. Abdumo'minbek ko'zlari chaqchayib: "Mardlik qilib qo'y so'yib, itlik qilib son o'rniga so'ngak qo'ymasaydi..." deb ko'nglidan kechirdi.

— Keldingizmi? — dedi Is'hoq piching aralash.

— Taqdirning yozmishi shu ekan, — dedi Abdurahmon xotirjam.

Davlat qo'nsa gar chivinning boshiga,
Semurg' berar ta'zim-la salom qoshida!

Nima ham qilardik, kelib turibmiz.Is'hoq Abdurahmonga obdan tikilib, bosh irg'ab shunday dedi:

Yapasqi ukki maqtanib,
Jarlikdan sichqon oldim der...
Yomon do'sting maqtanib,
Yaxshini yo'ldan chaldim der...

Abdurahmon oftobachi hech qachon bunday so'zni eshitmagani uchun xo'mrayib qaradi. Is'hoqning sepkil bosgan yuzi oqarib, ko'zlari chaqnadi.

— Men kim edim? To'g'ri aytdingiz, men kim edim? Elning o'zi davlat qo'ndirgan chivini, xaloyiq qo'lidagi nayza uchi emasmidim?! — dedi ovozini balandlatib. — Men bilan taxt talashdingiz, o'zingizni yaqin tutib qo'ynimga kirdingiz, ilon bo'lib bo'ynimga o'raldingiz. Yo'l bo'lib yostanib, qopqon bo'lib oyog'imdan chaldingiz. O'ylab ko'ring, siz meni emas, elni oqsatdingiz. Olovday lovillab, daryoday toshib turgan qo'shinlar qani? Qopqali shaharlar qani?

Abdurahmon churq etmasdi. NIma ham derdi?

Normuhammad dodhoq o'rtaga tushdi:

— E-e, o'g'lim, — dedi chol. — Musulmonqulning bu g'o'r farzandi o'sha xatosini tuzatish uchun bu yerga keldi. El-yurtni birlashtiraylik, xatolarimizni tuzataylik, deb shu yerga

to‘plandik. E, yor-birodarlar! Biz onadan mana shu turish-turmushda tug‘ilgan emasmiz. Sochimiz bir kunda oqarmagan. Biz ham yurt boshida turganmiz.

Qirni qirday kezganmiz
Dushmanim tushib qolsin deb —
Qirga chuqur qazganmiz.
O‘zimiz qazgan chuqurga —
Tushib, o‘lib qola yozganmiz.

Eshitgansizlar, xabaringlar bor, biz olishgan mahalda barcha qipchoq urug‘i tugab ketishiga oz qolgan, e yaxshilar, — u entikib, xir-xir yo‘talib, O‘rik g‘o‘lasi ustida o‘tirarkan, davom etdi:

Ot boshiga ish tushsa,
Suvliq bilan suv ichar.
Er boshiga ish tushsa,
Etik bilan, suv kechar.
El boshiga ish tushsa,
Qish kuni uydan kechar.

El boshiga ish tushib turgan shu kunlarda eski gaplarni qo‘zg‘ash xalq g‘amidan ham zarurmi? Uning o‘rniga to‘shni to‘shga bosib yarashinglar.

Gap egasini topdi. Is’hoq shashtidan tushdi. Abdurahmonning qovog‘i ochildi, ikkovi quchoqlashib, yarashdi.

— Bek, — dedi Is’hoq, — mayli, o‘tgan ishlarni kechiraman, ammo sizdan xafa bo‘lishga haqimiz bor edi. Sababini o‘zingiz yaxshi bilasiz. Bundan buyon shart boshqacha, huquq boshqacha bo‘ladi.

Abdurahmon gapning mazmuniga tushundi.

— Ha, albatta, olampanoh, — dedi noiloj ikki bukilib. — Birgina Xudoning o‘zi sevib baxt bergan, el-yurti sevib taxt bergan odamga har banda joni bilan xizmat qilib, uni qoni bilan oqlashiga imonimiz komil, — deb tavof qildi.

Ish yaxshilik bilan bitgani uchun hamma quvondi. Qovunchi chol ularni chorpoyaga chaqirib, shirin ko‘kchadan so‘ydi.

O‘sha kuni tunda Is’hoqning tushiga ajdaho kirdi.

* * *

Is’hoh cho‘chib uyg‘ondi, o‘rnidan turdi va xona ichida u yoq-bu yoqqa yurib, bundan buyon qilinadigan ishlarni chamalab ko‘rdi. “Mana, el-yurt senga ishonib xon ko‘tardi, qo‘lingga tizginni tutqazdi. Endi sen hukmdorsan. Xalq g‘ami zimmangga tushdi. Xo‘sh, nima qilasan?” U nima qilishini o‘yladi. Tong asta yorishib kelardi. Ko‘p o‘tmay muazzinning ertalabki namozga chaqirgan ovozi eshitildi.

Ertalabki namozdan so‘ng, Is’hoq o‘ziga yaqin navkarlarini, navkar boshliqlarini chaqirib kengash o‘tkazdi. Is’hoq uyqusizlikdan toliqqan ko‘zlarini yumib, o‘rtaga birgina savol tashladi:

— Bizning asosiy dushmanimiz kim?

O‘tirganlar bir-biriga qarab qoldi.

Abdumo‘minbek qo‘zg‘aldi:

— Taqsir, shu kunga qadar yuz bergan voqealar shuni ko‘rsatdiki, bizning asosiy dushmanimiz g‘ayridin yarim podsho ekan. Ularni bir yoqlik qilmay turib, xalqning orzu-istagini amalga oshirolmaymiz. Hozir qo‘lingizda barcha kuch, imkoniyat bor ekan, musulmonlarning erki uchun yarim podshoga qarshi payg‘ambarimizning ko‘k tug‘ini baland ko‘tarsangiz yaxshi bo‘lardi.

Navbat Beknazarga keldi:

— El boshiga kim kulfat solyapti o‘zi? Shaharlarni o‘z nomi uchun almashayotgan kim? Yarim podshoning askarini ichkariga kiritgan kim? Yo‘q, biz dastlab o‘rdani tugatishimiz kerak?

Is’hoq har ikkovining gapini diqqat bilan tingladi, o‘tirganlarga zimdan boqib, har bir gapni aql tarozisida o‘lchab ko‘rdi.

To‘g‘ri, uning oldida ikkita yo‘l bor edi. Birinchisi, o‘rdani olgach, yarim podsholik bilan munosabatni yaxshilab, vaqtincha ularning aytganiga ko‘nib, va’dalar berib, hokimiyatni qo‘lda saqlab qolish. Xudoyorxon shunday qildi, xo‘sh, nima topdi? Nasriddin ham otasining izidan bordi, xo‘sh, nimaga ega bo‘ldi?

Ikkinchisi Abdurahmon tutgan yo'l. Yarim podsholikni Toshkentdan quvaman, degan Abdurahmon nima bo'ldi? Is'hoq uchinchi yo'lni — o'zining yo'lini izladi.

— Ahli donishlar, — dedi Is'hoq, — Qo'qonga yurish qilamiz. Shu bugundan iborat o'ris bilan urushmaymiz. Chunki, ular bizga qarshi urushni to'xtatmog'i uchun o'rdani olib, ming urug'ni hukmdor sifatida huquqidan mahrum etish kerak, shartnomasini bekor qilib, yarim podsholikka elchi yuborish zarur. Ertadan iborat shunday qilishimiz kerak.

Abdumo'min tarafdorlari, "Ixtiyor o'zingizda", deb rozilik berishdi. Beknazar botir bir to'lg'anib qo'ydi. Is'hoq avvalgidek gapini davom ettirdi:

— Bir kuni ikki yo'lovchi kelayotib, biri ikkinchisidan: "Hoy, narigi qirga qanday chiqamiz?" deb so'rabdi. Sherigi unga: "Avval oldimizdagi qirdan oshaylik-chi, unisini keyin ko'ramiz!" degan ekan. Mening javobim ham shu. Dastlab o'rdani olaylik, ishimiz o'risga tushgach, u yog'ini ko'rarmiz, — deb kengashga yakun yasadi.

Is'hoq o'z qo'li bilan fon Kaufmanga xat yozib, uni topshirish uchun elchi tayinladi.

Is'hoq qo'l ostidagi qo'shinning hisob-kitobini qildi. Ikki yildan buyon sinovdan o'tgan navkarlar soni yigirma ming ekan. Abdurahmon yetakchilik qilgani esa o'n ming. Andijon, O'zgan, O'sh, Marg'ilon atrofidan qo'zg'olonga qo'shilganlar — hammasi bo'lib yetmish mingdan oshiq ekan.

Hujum oldidan harbiy kengash bo'ldi.

O'sha paytlarda Qo'qonning o'zidan chiqadigan nastaliq degan sariq qog'oz guldor taxta ustiga yozildi. Is'hoq picha o'ylanib, keyin pat qalamda qog'ozning bir burchiga uchta doira chizib, tevaragini pardozlab, o'rtasiga bittadan chiziq tushirdi. Atrofida to'planganlarning ko'ziga qog'ozdagi shakl har xil narsani eslatdi.

Is'hoq qog'ozning boshqa burchagiga katta doira chizib, ichini bo'yab qoraytirdi.

— Ko'rdinglarmi? — deb so'radi u.

— Ha, taqsir... ko'rdik... — deyishdi yon-veridagilar. Birgina Abdumo'minbek: "Yo Xudo, o'zing saqla. Qog'ozga surat chizish

gunoh-ku! Kalomulloyi Sharifdan xabari bor musulmon butparastlarning ishini qilsa qalay bo‘larkin?” deb tashvishlanardi.

— Mana bu burgut! — dedi Is’hoq qalam uchi bilan ko‘rsatib. Abdumo‘minbek “Yo tavba” deb yoqasini ushladi. Is’hoq buni payqab, ko‘z qiri bilan qarab qo‘ydi va davom etdi:

— O‘xshaydimi? Burgut! Bular esa, — u uchta doirani ko‘rsatdi, — burgutning oshiyoni, yuksak qoyalar. Anavi, — qog‘oz chetidagi katta doirani ko‘rsatdi. — Bu katta in. Uni qarg‘alar makon qilishgan. Manovi polapon burgut yetilib, karg‘alarni quvib chiqarish uchun parvoz qildi.

Hamma kuldi. Hukmdor hazillashayotgan bo‘lsa kerak, deb o‘ylashgandi. Biroq Is’hoq pinagini buzmadi. Shu zahoti kulgi tindi.

— Shu burgut bizning qo‘zg‘olon bo‘ladi, — dedi Is’hoq. — Yuksakdagi oshiyonlari — Namangan, O‘zgan, O‘sh, Andijon. Ulkan oshiyon esa o‘lkaning o‘rdasi — Qo‘qon.

— Omon bo‘ling, taqsir!

— Bu nima, desak bu yog‘ida gap bor ekan-da...

Is’hoq bamaylixotir gapirdi:

— Birinchidan, burgutning o‘z oshiyoni mahkam bo‘lsin. Namanganga besh ming. O‘zganga uch ming, O‘shga besh ming qo‘shin ajratilsin, — u Shomirza dodxoh bilan Yormat dodxohga qaradi. — Sizlar, muhtaram zotlar, biringiz elning begi, ikkinchingiz lashkarboshi. Saralangan navkarlardan besh ming, isyonchilardan o‘n besh ming odam olib, hammamiz uchun tabarruk bo‘lgan Andijon shahrini himoya qilasizlar.

Dodxohlar ta’zim qildi. Is’hoq:

— Burgutning o‘ng qanoti saralangan besh ming navkar, Vali, siz boshliqsiz. Chap qanoti besh ming, Beknazar botir, siz yetakchi.

Sarkorlar ta’zim qilishdi. Is’hoq:

— Qush qanoti bilan uchib, quyrug‘i bilan qo‘nadi. Yordamchilar quvvat bo‘ladi, Abdumo‘minbek og‘a, siz o‘z yigitlaringiz bilan rahbarlikni olib borasiz. Siz Abdurahmonbek og‘a, shu qo‘shin bilan birga borasiz.

Beklar rozi bo‘lishdi:

— Amri podsho vojib.

Is’hoq:

— Burgutning tumshug‘i — besh ming saralangan sipohiy, besh ming qo‘zg‘olonchi, bular sizning ixtiyoringizda bo‘ladi, Abdullabek.

Abdullabek mamnuniyat bilan bu taklifni qabul qildi.

— Endi burgutning changali qoldi, — dedi Is’hoq. — Bunga saralangan ming sipohiy, bir yuz ellik zambarak. Yer tor demang, Abdullabek, sizdan bir oz orqada, changalda biz boramiz. Qani, bunga rozimisizlar?

— Juda yaxshi, — deyishdi kengash ishtirokchilari.

Is’hoq yana davom etdi:

— O‘ng qanot daryo bo‘ylab, Baliqchi orqali Marg‘ilonning etak tomonidan o‘tib, to‘g‘ri Qo‘qonga yo‘l oladi. Chap qanot Quvasoy orqali Marg‘ilon ustidan o‘tadi-da, Qo‘qonga yaqinlashadi. Qo‘qonga yetganda har ikki qo‘shin birlashib, shaharni ikki tomondan qamal qiladi. Tumshuq esa to‘g‘ri Marg‘ilonga harakat qiladi. Ikki qanot ko‘magida Marg‘ilonni olib, to‘g‘ri Qo‘qonga yurish qiladi. Xo‘sh, quyruq nima qiladi? Quyruq esa ortda turib vaziyatni kuzatadi, zarur yerga yordamlashadi, dushmanning bo‘lingan qismiga zarba beradi.

— E, juda yaxshi! Har tomonlama puxta o‘ylangan ekan! -deb maqtashdi. Is’hoq:

— Qanotlar, tumshuq, quyruq va changal o‘rtasida aloqa mustahkam bo‘lsin. Buyruqni chopar orqali berib turaman. Buyruqning bajarilishi qat’iy!

Boyadan beri ko‘zlari chaqchayib o‘tirgan Abdurahmon: “Ajabo, buncha aqlni qayoqdan oldiykin?!” deb Is’hoqqa tan berdi.

— Endi, do‘stlarim, tepamizda uchib yurgan qarg‘alarni yo‘q qilishdan tashqari, uni o‘z himoyasiga oladigan boshqa qoraqush ham bor. Biz iloji boricha o‘shandan ehtiyot bo‘lishimiz kerak.

— Yarim podsho! — dedi kimdir.

Is’hoq davom etdi:

— Buning uchun juda ustalik bilan kurashish, qarg‘alarni ulardan ajratgan holda ish yuritish kerak, — Shu payt eshikdan Is’hoqning chopari yugurib kirib keldi. U fon Kaufmanga yuborilgan elchini birga olib kelgan edi.

— Hukmdor! — dedi chopar entikib. — Yarim podsho elchini ushlab qoldi.

Sarkorlar, beklar Is'hoqqa qarashdi. U avvalgiday sir boy bermay gapiraverdi:

— Hechqisi yo'q. Biz bundan tegishli xulosa chiqarib, farosat bilan hujumni boshlamog'imiz kerak. Ulkan oshiyonni qarg'alardan tortib olsak, qoraqush biz bilan aloqani yo'lga qo'yishga majbur bo'ladi. Biz shuni unutmasligimiz lozim.

Hech kim Is'hoqning gapini ikki qilmadi. Faqat Abdumo'minbek ichidan zil ketdi, xolos. Olloyorga tahsinlar aytishdi. Hujumga o'tish kuni belgilanib, kengash o'z ishini tugatdi.

* * *

Keng Farg'ona vodiysi xuddi gilam to'shalganday tovlanardi. Har joy-har joyga tikilgan oppoq o'tovlar xuddi do'ppiga o'xshab ko'rinardi. Yam-yashil daraxtlar orasida katta-kichik qishloqlarning imoratlari ko'zga chalinardi...

Arpa allaqachon o'rilgandi. Bug'doyi o'rilib, chetiga g'aram qilingan ang'izlar oqarib turardi. Hali o'rilmagan bug'doyzorlar oltinday tovlanib, shabadada ohista mavj urardi. Sholipoyalarda sholi o'rimga kelib qolgandi. U yer-bu yerda paxta ochila boshlagandi. Bedalar g'arq gullagandi. Qaerdandir bedananing "Bitbiliq, bitbilig'i" eshitilardi. Polizdagi sershiraligidan yorilgan qovunlarga qovog'arilarning biri qo'nib, biri uchardi. Yo'l bo'ylarida anjir, anor, oppoq shaftolilar, qurib ostiga to'kilgan o'riklar... terib oladigan kishi yo'q.

Fayziobod qishlog'ining huvillagan ko'chasida yolg'iz bir it daydib yurardi. U buzilgan devor ustida turgan mushukka bir sapchidi-yu, yana yo'liga qarab ketdi. Bir yoqdan o'rda sarbozlari, bir yoqdan qo'zg'olonchilar kelgani uchun qishloq aholisi qayoqqadir g'oyib bo'lgandi. Saraton oftobi go'yo tandirday olov purkardi.

O'rda sarbozlarini Sultonmurodbek boshlab kelayotgandi. Yonida Abdulaziz yasovulboshi. Tuyalar og'ir zambaraklarni kuchanib sudrardi. Tug' hilpirab, sipohiylar qo'lidagi qurol-yarog'lar quyosh nurida yaltirardi. Kimsasiz qishloq bilan ularning ishi yo'q. Abdulaziz yasovulboshi Sultonmurodga yaqinlashib:

— Bek, qo‘shin tushlik qilib olsa bo‘larmidi? — dedi.

— Mayli, — deb bek ot boshini soya-salqinga burdi

Tushlikka ruxsat olgan qo‘shin bir zumda qovun poliziga yoyilib, egasiz yotgan qovun, tarvuzlardan uzib, qamishzor orasiga kirib ketdi.

Oldiga dasturxon yozilib, Sultonmurodbek bilan Abdulaziz to‘rlama qovunni so‘ygan ham ediki, kimdir chopib kelib, otdan irg‘ib tushdi va ta’zim qildi.

Sultonmurod og‘ziga olib borgan bir tilim qovunni tishlamay, savol nigohi bilan haligi sarbozga qaradi. Abdulaziz o‘qraydi:

— Nima gap? Tiling tanglayingga yopishib qolganmi?!

— Taqsir, yov kelmoqda...

Sultonmurodbekning qo‘lidan qovun tushdi. Abdulaziz yasovulboshi o‘rnidan irg‘ib:

— Ur! — deb baqirib, kiyina boshladi.

Do‘l chalindi, har tomonga yoyilib ketgan qo‘shin ari uyaday to‘zib, biri otga yugurardi, biri miltig‘ini izlardi, boshqa biri shosha-pisha kiyinardi. Sultonmurodbek sarosimalik bilan atrofga alanglardi. Abdulaziz yasovulboshi to‘pchilar yuzboshisini chaqirib, to‘plarni qaerlarga o‘rnatish to‘g‘risida ko‘rsatma berdi:

— Bordi-yu, buyruqni buzib, avval o‘t ochsangiz, o‘zingiz asfalasofilinga jo‘naysiz.

— Xo‘p, yasovulboshi, — deb ta’zim qildi yuzboshi.

— Xo‘p bo‘lsa, jo‘nang endi.

Sultonmurodbek hamon bezovtalanib, ikki ko‘zini yov kelayotgan tomondan uzmasdi. Negadir qo‘zg‘olonchilardan darak yo‘q edi. Abdulaziz yasovulboshi nozik qilib chertilgan qora soqolini siypalab, Sultonmurodbekka qaradi.

— Bek, qochgan ham, quvgan ham Xudo der ekan. Endi ilojimiz qancha, Xudoga sig‘inib, jangga kiramiz. Siz yana qanday maslahat berasiz?

— Nima ham derdim? Sizning bilganingiz — mening bilganim. Sizning buyrug‘ingiz — mening buyrug‘im.

Shu mahal qiyqiriq eshitildi. Ular shoshib oldinga qarashdi. Ikki otliq bir-birini quvlab, yov kelishi mumkin bo‘lgan tomonga ketdi. Hozir qiyqirganlar o‘sha sipohiylar ekan. Abdulaziz ya-

sovulboshi qo‘lini peshonasiga qo‘yib, ikki otliq ko‘zdan yo‘qolib ketguncha qarab turdi-da;

— Him! Yaqinlashib qolibdi, — dedi.

Har ikkovi atrofga olazarak bo‘lib, anchagacha indamay qoldi. Bir ozdan keyin quloqqa ot dupuri chalindi. Qo‘shin o‘sha tomonga yuzlandi. Quyuq to‘zon ko‘tarilib kelardi. Sultonmurodbek pichirlab kalima keltirdi: “E, Xudo, o‘z panohingda saqlagin...”.

Hayal o‘tmay, qarshi tomon qo‘shin bilan tirband bo‘ldi. Nina tushguday joy yo‘qqa o‘xshardi. Do‘ng ustiga ko‘k tug‘ o‘rnatildi. Tug‘ oldida oti depsinib turgan odam Sultonmurodning nazarida yo‘lbars minib turganday tuyuldi. Beknazar fo‘tasini ushlab, o‘rtadagi masofani chamaladi, oldinda saf tortib turgan o‘rda sarbozlariga razm solib: “Yaxshi joy tanlabdi”, deb ko‘nglidan o‘tkazdi. Beknazar botir yonida turgan ikki ayg‘oqchidan so‘radi:

— O‘rda sarbozlarining soni qancha taxminan?

— Besh mingdan oshiqroq.

— Unday bo‘lsa, bu turganlar besh ming chiqmaydi. Chog‘imda, boshqasi qamishzorga yashiringan. Zambaragi qayoqda bo‘ldiykin?

U o‘ylanib turib, o‘ng tomoniga qaradi. O‘ng tomonga boradigan yigit chopib keldi:

— Labbay, botir og‘a...

— Urushda turish yo‘q. Hozir biz ularning g‘ashiga tega boshlaymiz. Vali sarkorga ayt, olisdan aylanib o‘tib, dushman yo‘lini to‘ssin.

— Xo‘p, botir og‘a! — yigit otini choptirib ketdi.

Beknazar to‘p qaerdan otilsa, o‘sha yerga o‘q uzinglar, deb yuzta merganga maxsus topshiriq berdi.

Abdulaziz yasovulboshi ham o‘z navbatida yuzboshilarga zarur buyruqlarni berib: “ Qo‘zg‘olonchilarning soni qanchaykin? Qanday quroli borikin? Ko‘pida yog‘och nayza, cho‘qmor bo‘lsa kerak”, deb ko‘nglidan kechirdi. U yarim podsho tomonidan berilgan yuzta tezotar miltiqdan umidi katta edi.

Quyosh tikka kelganda qo‘zg‘olonchilar hujumni birinchi bo‘lib boshlashdi. Mingdan oshiq saralangan botir o‘n qavat bo‘lib, do‘l sadolari ostida bostirib kelardi.

Sultonmurodbek: “Yaratgan egam, o‘zing asra”, deb tipirchilab qoldi. Abdulaziz yasovulboshi uning aftini ko‘rib, jerkib tashladi:

— Bek, sizning tabarruk boshingiz uchun u dunyoda ham, bu dunyoda ham so‘roq bergim yo‘q. Siz pistirmaga o‘tib, u yerdagi sarbozlarga qosh-ko‘z bo‘lib turing. Men xabar qilishim bilan udaychilardan boshqasini olib yordamga o‘tasiz.

— Bo‘pti, — deb Sultonmurodbek otini burdi.

— Bek! Galavachi poshshoga odam jo‘nating! — deb baqirdi yasovulboshi. Sababi, ular bilan orqama-orqa general Golovachyov bilan general Trotskiy o‘z askarlari bilan kelayotgan edi. Sultonmurodbek yasovulboshining gapiga tushunib yetmay: “Bo‘pti”, “Xo‘p”, deb otini choptirib ketdi.

Isyonchilar to‘s-to‘polonsiz olg‘a bostirib kelayotgandi. Eng oldinda chavkar arg‘umoq qamish quloqlarini chimirib, yo‘rtib kelardi. Abdulaziz yasovulboshi taqdirga tan berib, boshini ko‘k salla bilan tang‘idi, egniga dubulg‘a kiydi. Ikki tomonida o‘rdaning saralangan sipohiylari jangga shay turardi.

— Karnay chalinsin! — dedi yasovulboshi.

Karnay, do‘llar ovozi hammayoqni tutib ketdi.

— Yo, Olloh! — dedi Abdulaziz yasovulboshi. Chavkar arg‘umoq ikki oldingi oyog‘ini ko‘tardi. — Yo, ota arvohi! — dedi Beknazar.

Tomonlar hujumga o‘tdi. “Ur!” “Chop!” “O‘ldir!” degan ovozlar betinim yangraydi. Qilichlar oftobda yalt-yult qiladi. Kimdir otdan og‘adi, birovning burni yo‘q, boshqasining oyog‘i uzangida. “Yo, Olloh!” “Ota arvohi qo‘llasin”, deb ikki tomon yigitlari bir-biriga hamla qilardi, qichqirardi.

Bir mahal zambaraklar gumburlab, atrofni to‘zon bosdi. Beknazar botirning buyrug‘iga binoan yuzta mergan to‘pchilarni nishonga oldi, “Gum!” “Gum!” “Tars!” “Tars!” “Ur!” “Sol!” degan ovozlar quloqlarni qomatga keltirardi. “Aylantirib ur! Aylantirib...” — dedi Beknazar. Yasovulboshi maqsadni tushunib, to‘pchilarga yordamga yana yuzta odam jo‘natdi. Lekin vaqt o‘tgan edi. Beknazarning yigitlari to‘plar o‘rnatilgan do‘ngni ikki tomondan iskanjaga olib yer bilan yakson qilgandi.

Tars! Tars! To‘satdan otilgan o‘q har gal beshtadan botirni otdan ag‘dararди. “Tars! Tars!” Beknazar pistirmadan kuzatdi. “Tushunarli,

o‘ris miltig‘i”, deb o‘yladi Beknazar. Darhol uddaburonlik bilan vaziyatni o‘zgartirdi. Qalin qamishzor ortidan hujumni kuchaytirish kerak.

— Mo‘min! Mo‘min!

— Labbay, botir og‘a!

— Qamishzorga ot sol, o‘ris miltiq!

Mo‘min sarkor otiga qamchi bosdi. Ortidan besh yuz askar chang-to‘zon ko‘tarib, otlarini yeldirib ketdi. Mo‘min sarkor qamishzorni to‘rt tarafdan o‘rab oldi. Ko‘z ochib-yumguncha masala hal bo‘ldi. Quyunday bostirib kelayotgan otliqlarni ko‘rgan merganlar jonini hovuchlab tumtaraqay bo‘ldi. Mo‘min bir sarbozni quva ketdi. Sarboz qayrilib mo‘ljalga ola boshladi. Mo‘min yonboshlab, o‘zini ot panasiga oldi. Tars! Tars! Sarkor o‘zini o‘ngladi-da, quvib borib sarbozni qo‘ltig‘idan ko‘tardi va taqimiga bosdi.

Abdulaziz yasovulboshining hafsalasi pir bo‘lib, pistirmadagi Sultonmurodga chopar yubordi, o‘zi esa jangni iloji boricha davom ettirdi. Sultonmurodbek olisdan qirg‘inni kuzatib turganida orqadan Vali sarkor isyonchilar bilan bosib kelib qoldi, Sultonmurodbek qochishdan boshqa chora topolmadi. Yasovulboshi hamon, Sultonmurodbekni kutib, qolgan sarbozlari bilan qarshilik ko‘rsatardi. U olovli halqa ichida qoldi. Pistirma kelishi kerak bo‘lgan tomonda har xil narsa bilan qurollangan qo‘zg‘olonchilar paydo bo‘lgach, o‘rda sarbozlari talvasaga tushib jonlarini qutqarib qolish payidan bo‘lishdi. Garchi Abdulaziz yasovulboshi: “Yo Olloh! Bo‘shashmanglar, ayamanglar!” deb dalda berayotgan bo‘lsa-da, biroq sarbozlarning ahvoli chatoq edi.

Urush kechga qadar davom etdi. Nihoyat isyonchilar ustun kelishdi. Abdulaziz yasovulboshining kallasi tanasidan judo qilindi, omon qolgan sarbozlar o‘zlarini isyonchilar ixtiyoriga topshirdi...

Ertasiga chopar Is’hoqning yo‘lini kesib chiqib, g‘alabani xabar qildi. U quvonib choparni o‘pdi. Chopar egar qoshiga bog‘lab olgan qopchiqni Is’hoqning oldiga tashladi.

— Bu nima? — dedi u cho‘chib.

Chopar qopni yechib, boshni ko‘rsatdi.

— Taqsir! Botirlar sizga sovg‘a qilishdi!

Abdullabek engashib:

— E, durust sovg‘a ekan! Abdulaziz yasovulboshining kallasi, — dedi. — Tamom! Bu o‘rdaning oxirgi tajribali lashkarboshisi edi. Tamom! Endi hech kim yo‘limizga g‘ov bo‘lolmaydi...

* * *

Ikki generalning mag‘lubiyatidan Nasriddinxon oyog‘i kuygan tovuqday tipirchilab qoldi: “Endi nima bo‘ladi? Bu daydi shu qadar quturib ketganmi?” U bu og‘ir ahvoldan qutulish chorasini izlardi, biroq dardiga davo topolmay, alamini chilim, musallasdan olar edi.

Bir kuni oqshomda eshik og‘asi:

— Hukmdor... Hazrati Sultonmurodbek... — deb xabar qildi.

Nasriddinxon ko‘zlari qizarib, burqitib chilim tortayotgan edi, mayli, kirsin, deb ishora qildi. Ko‘zlari qa’riga tortgan, ozib-to‘zib, faqat surati qolgan Sultonmurodbek hukmdor huzuriga kirib keldi. Nasriddinxon uning aft-angorini ko‘rib bir cho‘chib tushdi, unga rahmi keldi.

— Ha? Ajal quvdimi?

Bu so‘z bekning qulog‘iga haqoratday eshitilsa ham o‘lganining kunidan bosh egib, ta’zim qildi.

— Hukmdor... — dedi bek o‘zini oqlashga urinib. — Xudoning o‘zi guvoh, daydining qaroqchilari bilan birga azroil yurganga o‘xshaydi. Xudo ularning yuzini teskari qilsin, xuddi quturgan qashqir. Yo alhazar! Him... Keyin...

Nasriddinxon yeb yuborguday tikildi. “Hovliqma, non tepki!” dedi ichida. Axir uni Abdulaziz yasovulboshi bilan birga Galavachi podshoga yordam berish uchun yuborgan emasmidi? O‘sha daydini tutib kel, demabmidi? Mana ishongan odami... Sultonmurodbek kipriklarini arang pirpiratib o‘tiribdi. Xonni ichkilik elitdimi yoki boshqa xayolga bordimi, kaftini bir-biriga urdi. Eshik og‘asi ko‘rindi. Nasriddin unga qaramay:

— Dutor, — dedi asta. Eshik og‘asi orqasi bilan yurib chiqib ketdi.

— Har qanday ish Xudoning irodasi bilan bo‘ladi, — dedi bek. — Imkoni bo‘lsa, yarim podsho bilan aloqani yo‘lga qo‘yishimiz kerak, hukmdor.

Xon indamadi. Sultonmurodbek davom etdi:

— Yosh bo‘lsangiz ham boshsiz. Tezroq biror chorasini topsangiz...

Ungacha eshikdan o‘rta bo‘yli, sipo kiyingan, qorachadan kelgan yigit dutorini qo‘ltiqlab kirib keldi-da:

— Assalomu alaykum, hukmdor! — dedi.

Sarxush bo‘lib o‘tirgan xon salomga javoban bosh irg‘ab qo‘ydi. Dutorchi tiz cho‘kdi.

— Qani, chaling!.. — dedi Nasriddin.

Dutorchi yigit pardalarni birin-ketin sozladi, hukmdorning ko‘nglini ko‘tarish uchun unga yoqadigan kuylardan birini chaldi. Sultonmurodbek: “Rosa uchragan ekanmiz-ku, hukmdorga. Sichqonning ini ming tanga bo‘lib tursa-yu, buning ko‘ngliga dutor siqqanini-ya!..” dedi ichida. Afsuski, hech narsa deyolmasdi, dutor ovozi tobora o‘ziga maftun etardi. Uning sadolari hukmdorning yurak torlarini chertib, zamon tashvishlaridan xorij qilayotgan bo‘lsa, Sultonmurodning qulog‘iga otlarning dupuri bo‘lib eshitilayotgan edi.

Kuy nihoyasiga yetmay turib, xon kaftini bir-biriga urdi. Dutorchi yigit hayron bo‘lib xonga qaradi. Eshik og‘asi ko‘rindi.

— To‘n kiydiring, — dedi Nasriddinxon. Dutorchi o‘rnidan turib ta’zim qildi. Eshik og‘asi dutorchiga kimxob to‘n kiydirdi.

— Rahmat, hukmdor... Martabangiz bundan ham ziyoda bo‘lsin, — deb dutorchi eshik og‘asi bilan birga chiqib ketdi.

— Tantanavor kuy! Xo‘sh, nima uchun?!. Qaysi g‘alabamiz uchun?!. — xon ko‘zlarida yosh aylanib chuqur xo‘rsindi. — Nimamizga tantanali kuy eshitdik-a?

Ichida so‘kinib o‘tirgan Sultonmurod xonga achindi. “Ha, xonga ham qiyin!”

— Meni hukmdor deysizlar-u, vaqti kelganda hammang ishni menga tashlab qo‘yganing qiziq? — dedi Nasriddinxon. — Hammasi barbod bo‘ldi. Hukmdorlik o‘rislarga, elimiz bir daydining qo‘liga o‘tdi. Ilojimiz qancha? Sizlar, shahzodalar, beklar, taqsirlar, nima qilib yuribsiz?.. Otameros mulk qani? Xalq qani? Xalq toj kiygan kishiga kerak, xolosmi? Ne sababdan Xudoyorxon bosh bo‘lib, bir daydini jilovlay olmadik?

Xon yana dutorchini chaqirtirdi. Eshik og‘asi hozir kelib ketdi-ku, deganday ostonada turib qoldi.

— Dutor! — dedi jahl bilan Nasriddinxon. Eshik og‘asi otilib tashqariga chiqdi. Hukmdor tomog‘iga tiqilib kelayotgan yig‘isini zo‘rg‘a bosdi. — Mana, siz asilzoda askarboshi Sultonmurodbek! Tayini yo‘q daydi Is’hoqdan qo‘rqib, dumingizni qisib o‘rdaga qochdingiz. Men nima qilay? A? Yana: “Yarim podsho bilan maslahat qilish zarur”, deysiz!..

Sultonmurodbekning a’zoyi badanidan ter chiqib ketdi. Eshik og‘asi dutorchini qayta olib keldi. Xonning chehrasi ochilib, sharobdan ho‘pladi.

— Kel, birodar, bu vafosiz dunyo haqida, armon to‘g‘risida chal.

Dutorchi pardalarni sozlay boshladi. Sultonmurodbek o‘rnidan turdi.

— Men borayin. Menga qanday buyruqlaringiz bor, oliy hazratlari? — deb so‘radi bek. Xon e’tibor bermadi. Lashkarboshi ohista yurdi. Xon hatto unga qaramadi ham.

Tongga qadar dutor ovozi tinmadi. Par yostiqqa yonboshlagan xon pinakka ketgan edi. Tashqaridan qiy-chuv eshitildi. Kimdir qattiq so‘kindi. Dutorchi xonni uyg‘otmoqchi bo‘ldi-yu, ammo yuragi dov bermadi. Shu payt eshik qarsillab ochilib, eshik og‘asi kirib keldi.

— Taqsir!..

Dutorchi o‘zini chetga tortdi. Nasriddinxon birotar rus pistolini qo‘liga olib, irg‘ib turdi:

— Ha?

Ko‘zlari qizarib ketgan xon hech narsaga tushunmadi. Eshik og‘asi hovliqib gapirdi:

— Taqsir.., Taqsir...

Xon halloslab darcha oldiga bordi. O‘rdani olomon o‘rab olibdi. Birov eshakda, boshqasi otda. Xalq betinim baqirardi;

— Bu yoqqa chiq! Bo‘rining bolasi, chiq, la’nati!

Nasriddinxon barcha gapga tushundi. Iloji qancha? Qo‘rquvdan dag‘-dag‘ titrardi. Udaychilar eshiklarni mahkam tambalab, odamlarga qarshilik ko‘rsatardi. Nima qilsin? Ko‘ziga yosh keldi. Eshik og‘asi buyruq kutib, ta’zim qildi.

— O‘ris elchixonasiga odam yuboring.

— Hech kimni o‘rdadan chiqarishmayapti. O‘ris elchisi ham xonasida qamalib qoldi.

— Ularning askari bor edi-ku?!

— Nimagadir otishmayapti, taqsir!

Nasriddinxon ko‘ksidan o‘q yeganday ingradi, ko‘zini yumdi, xo‘rligi keldi.

— O‘rdadagilarni to‘plang. Xazinani yuklating. Xo‘jand darvozasiga qarab yuramiz. Tekinxo‘rlardan birini tashqariga chiqaring. Xalqqa aytsin! Xon o‘z jonini sizlardan so‘radi, hozir ketadi, desin...

Eshik og‘asi eshikka ravona bo‘ldi. Xon yana uni chaqirdi.

— Qirg‘iz oyim bu yoqqa kirsin...

— Xo‘p, taqsir...

Xonning rangi murdanikiday oqarib ketdi. Qo‘li titrab, tishlari g‘ijirlardi.. Eshikdan baland bo‘yli, yuzlari qizil yoshgina ayol kirib keldi: egnida oq harir ko‘ylak, ustidan kimxob kamzul kiygan, boshida jig‘a, sochini ikki o‘rim qilib orqasiga tashlagan, qo‘lida emizikli bola.

— Hormang, shohim, — dedi ayol.

— Qirg‘iz oyim...

— Qulog‘im sizda, shohim...

— Sovg‘aga kelgan edingiz. O‘z aql-hushingiz bilan o‘rdaning erkasi, nikohli xotinim bo‘ldingiz. Tashqarida nima ish bo‘layotganligini bilmasangiz kerak. Urug‘laringiz bo‘lmish — qipchoqlar, qirg‘izlar taxt-u baxtimdan ayirdilar. Birgina meni emas... Sizdan iltimos, bolani extiyot qiling, u xon avlodi...

— So‘zingiz ikki bo‘lmasin, shohim. Tarbiya qilaman, shohim. Meni taloq qiling, o‘z kunimni ko‘ray. Erkin bo‘lay.

— Mayli, Qirg‘iz oyim. Men roziman. Sizdan so‘nggi iltimosim shuki...

— Rahmat, shohim. Ota-bobolari xon bo‘lib nima topdi? Kimga foydasi tegdi? Mayli, otasi boshqa, zoti boshqa deyman, ismini boshqa qo‘yaman. El ichida bir kunini ko‘rar...

Xonning ko‘zi olayib, labi titradi, tili kalimaga kelmadi.

Ayol bolani ikki qo‘llab xonga tutdi:

— Shohim, agar boshqa o‘ylaganingiz bo‘lsa, o‘zingiz bilasiz.

Boshqa uchta xotinidan tug‘ilgan bolalarini saqlay olsa ham katta gap. Noiloj qolgan Nasriddinxon bolaning peshonasini siladi:

— Xayr!.. Nasib bo‘lsa ko‘risharmiz.

Ayol egilib ta’zim qildi, bolani bag‘riga bosib, orqasi bilan yurib chiqib ketdi.

Bu xonning to‘rtinchi xotini, Sariboyning qizi Qunduz edi.

— Eshik og‘asi! Eshik og‘asi! — deb baqirdi xon. Javob bo‘lmadi. Qo‘rg‘on ichida miltiqlar otila boshladi. Baqiriq-chaqiriq kuchaydi. Darchadan o‘q-dori hidi kirdi. Xon kalima keltirib, bir qo‘lida qilich, bir qo‘lida pistol ushlab o‘zini chetga oldi.

— Taqsir! Quturgan el orqaga surildi. Qon to‘kilmoqda, — deb kirib keldi qorovulboshi.

— Qiringlar! Birortasi qolmasin! — dedi Nasriddin.

— Xon hazratlari, kuch bo‘lsa qaniydi?! — deb tutaqdi qorovulboshi.

Xon shartta burildi. Darchadan daydi o‘q kelib devordagi gilamga tegdi. “Qars!” “Qars!” Qorovulboshi tashqariga yugurdi. Eshik og‘asi xon huzuriga yugurdi.

— Xazina yuklandimi?

— Yuklatishmayapti, taqsir!..

Yana qorovulboshi shoshib kirdi.

— Taqsir, el shahar darvozasini ochib, Po‘latxon... Nasriddin jahl bilan pistolni unga o‘qtaldi.

— Og‘zingni yum, shumg‘iya! Qanaqa xon? Daydi demaysanmi? O‘g‘ri demaysanmi?

— Sekin, taqsir! Kuch, omad kimda bo‘lsa, o‘sha xon, — dedi qorovulboshi.

— Hm! — deb ingradi xon, uning boshi aylanib, gandiraklab ketdi: — Xazina qani? Xazina?

Eshik og‘asi yig‘lamsirab, xonning qo‘ltig‘idan oldi-da:

— O, Yaratgan egam! Xazina jonga ora kirarmidi?! — dedi.

Qorovulboshi eshik og‘asi bilan xonni yetaklab xonadan olib chiqishdi.

O‘sha to‘qqizinchi oktyabr kuni Nasriddinxon bir hovuch odamlari bilan o‘rdadan chiqdi, xaloyiq qiyqirib, yo‘l-yo‘lakay

ortidan kesak, tosh otib, urib Qo‘qondan haydab yubordi. U bor-yo‘g‘idan ajrab, Xo‘jand shahridagi otasining huzuriga bordi.

Olomon ikkinchi darvozadan isyonchilar yo‘liga bo‘yra to‘shab:

— Jahongir! Jahongir! — deb karnay-surnaylar bilan Is’hoqni kutib oldi.

III

Is’hoq sal nafasini rostlab, es-hushini yiqqach, o‘rda kishilarini to‘pladi. Qurama Abdumo‘minbek noib, qidirsha Sulaymon xazina boshlig‘i, Umarbek dodxoh parvonachi, o‘z urug‘i mulla Musa maslahatchi, Qutlug‘said Mo‘min eshik og‘asi, eng ishonchli odami Abdulla Qo‘qon shahriga bek, qipchoq Vali bilan Beknazar botir qo‘shinning ikki qanotiga lashkarboshi, Eshmat esa sarbozlarning qorovulboshisi qilib tayinlandi.

Qo‘qondagi ichki ziddiyatlardan foydalangan Qorategin viloyati ajrab chiqib, alohida bo‘lib olgandi. Uning begi Rayimsho akasi Muzaffarshodan hokimiyatni tortib olib, o‘zini quvg‘in qildi. Muzaffarsho Qo‘qonga qochib keldi, o‘rdadagilar o‘rtada turib, uning balog‘atga yetgan go‘zal qizini Is’hoqqa nikoh qilishdi. Shunday qilib, qochoq Muzaffarsho o‘rdaning e’tiborli kishilaridan biriga aylandi.

Yangi hukmdor “Is’hoq xon” deb o‘ziga muhr o‘ydirdi. Is’hoq birinchi kundan boshlab eski o‘rdaning bek va shahzodalarini ayovsiz jazoladi.

Oradan bir necha kun o‘tdi. Ana shunday kunlarning birida:

— Hukmdor, shahzoda og‘angiz ushlandi, — deyishdi.

— Qaysi biri?

— Sultonmurodbek bahodir! Yuzi shuvut-da, Sohibzodaning oshxonasida berkinib yotgan ekan, o‘sha mahallaning odamlari sudrab chiqishibdi. Hukmdor, xafa bo‘lmaysizmi, nima bo‘lsa ham yaqin qarindoshingiz?..

— Iye, og‘am ekan?! Xafa bo‘lmayman! Qaerda?

Sultonmurodbekni Is’hoqning oldiga keltirishdi. U bir ahvolda edi. Qalt-qalt titrab, beto‘xtov kalima keltirib, ostonadan arang hatladi.

— Keling, og‘a, — deb qarshi oldi betida bir oz sepkili bor kishi. — To‘rga o‘ting. So‘rashdilar. Mulozamat qilgan kishining o‘ng yonidan joy olgan bek ichida: “Shu bo‘lsa kerak!..” deb qo‘ydi. Ikki kishi unga tikildi. “Tavba, xuddi maymun tomosha qilganday menga qarashadi-ya”, izza bo‘ldi bek.

— Qalay, sog‘-salomat yuribsizmi?

Bek qiynalib, “shukr”, deb qo‘ydi. Ular hamon ko‘z uzmasdi. Bek buni sezib, yerga qaradi.

— Bemalol o‘tiring. O‘z uyingiz, o‘lan to‘shagingiz. Yoki... Olimxonning avlodidan ekanligimga haliyam shubha qilyapsizmi?

Sultonmurodbek qora terga botib, burnini tortib, “yo‘q”, dedi. Yonida o‘tirgan sipo yigit qo‘shimcha qildi.

— Samarqandlik devona yigit qani?

Bu so‘z mo‘ljalga tekkan edi. Savol yana qaytarildi.

— O‘zingiz shahzodaning qo‘lidan yetaklab, odamlarga ko‘rsatgan edingiz-ku?

Sultonmurodbek mulzam bo‘lganidan burnini tortmay qo‘ydi. Boshi gangib, tili aylanmay qoldi.

— Mayli, kishi zaharni bilmasdan ichib qo‘yadi, og‘a. Qani ayting-chi, qaysi birimiz Olimxonniing avlodimiz? — dedi badqovog‘i. — Siz bilasiz, ochiq ayting, mana bu Abdullabek, “sen emassan”, deb menga ishonmayapti.

Ular bir-biriga ma’noli qarab qo‘yishdi. Sultonmurodbek yuzi sepkil kishining etagini o‘pdi.

— Menda nima gunoh?! Buyrug‘ini bajarganman! Aytganini aytganman! Siz ekansiz Olimxonning haqiqiy avlodi. Siz ekansiz elning egasi. Jonimiz sadqa!.. Xizmatingizda bo‘laman. O‘tingizdan kirib kulingizdan chiqaman.

— Tepapoq chiqing, — deb Is’hoq uni to‘rga taklif qildi. — Sizning joningizga kim ham qasd qilardi?! Yuqoriroq o‘tiring.

Dasturxon yozildi.

Bek endi o‘ziga kelib, rangiga qon yugurdi.

— Xudoyor elga qanchalik zulm o‘tkazganini mendan ko‘ra siz ko‘proq bilasiz. U nima qildi? Xalq o‘rtasiga, urug‘lar orasiga nifoq soldi. Nihoyat oq podshoga sotildi.

Sultonmurodbek xushomadgo‘ylik bilan ma’qulladi.

— Xalq uchun to‘rt yil kurashdik. Mana, o‘rda necha marta qo‘ldan-qo‘lga o‘tdi, Endi nima qilamiz? Bizni ko‘tar-ko‘tar qilgan elni qay tarzda rozi qilamiz? Ularga qanday qilib farog‘atli turmush yaratamiz? Siz bilan biz shuni o‘ylashimiz zarur...

Bu gapni eshitib o‘tirgan bek: “Ajabo, rostdanam bahodir Olimxonning avlodidanmi? Shayton kishilar “u emas”, deb atay ig‘vo tarqatishgan ekan-da...” deb ko‘nglidan kechirdi. Sultonmurodbekning ko‘z oldiga fon Kaufman, Otaqul botirboshi keldi. O‘tgan ishlarni o‘ylab o‘tirib, oftobachi yigit uzatgan choyni qo‘liga to‘kib yubordi. Yana xayoli chuvalandi. Is’hoqning “maslahati” yodidan ko‘tarildi. Abdullabek miyig‘ida kuldi. Is’hoqning afti bo‘zardi. Bek yuzidagi marjon-marjon terlarini yengi bilan artdi.

— Dam olasizmi, og‘a? — dedi Is’hoq. — Axir bu dunyoning tashvishi qaritgan bo‘lsa kerak?..

Sultonmurodbek nima deb javob berishini bilmay qoldi. Mo‘min o‘rnidan turib, unga kimxob chopon yopdi.

— Sovuq yeb qolmang, bek og‘a... — dedi Is’hoq sovuq tikilib. Bek buni sezmay, minnatdorchilik bildirdi.

— Rahmat...

Is’hoq boshini chayqab: “Tavba, o‘z huzur-halovatidan boshqa narsani bilmaydi! Hukmdor bo‘lish o‘z farog‘atini o‘ylashdan iborat, deb tushunadi bular”, deb o‘yladi ichida.

Sultonmurodbek quvonib o‘rnidan turdi, qayta-qayta ta’zim qilib, xayrlashib chiqib ketdi. Is’hoq labini qimtib, boshini chayqab:

— Kuzatib qo‘yinglar, — dedi.

Bu o‘limga berilgan buyruq edi. “Quyosh yuzini ko‘rgan sovuq yemaydi, xon ko‘zini ko‘rgan harom o‘lmaydi”, deyishardi shekilli? Abdullabek zimdan qarab qo‘ydi. Is’hoq:

— Chirigan yog‘och na ustun bo‘ladi, na o‘tinga yaraydi.

Sultonmurodbekka ertangi tongni ko‘rish nasib etmadi.

* * *

Otaqul botirboshi qo‘lga tushdi. U ostonadan hatlarkan, o‘rdada eski tanishlarim bo‘lsa kerak, o‘shalar jonimga ora kirar, deb o‘yladi. Is’hoq yolg‘iz ekan. Kutib o‘tirganga o‘xshaydi.

— Assalomu alaykum, — dedi Otaqul zo‘rg‘a tili kurmalib.

— Ha, Marg‘ilonning begi! Kel, kel... — dedi Is’hoq zaharxandalik bilan. Is’hoq o‘tir deb ishora qildi. U lom-mim demay cho‘kdi. Uni olib kirgan Beknazar orqada qarab turardi. Is’hoq suvga tushgan mushukday o‘tirgan Otaqulga sinchiklab qaradi.

— Meni Abdurahmonning udaychilari ushlaganda sen yonimda edingmi, Otaqul?

U indamadi. Is’hoq yana so‘radi:

— Nariroqda edingmi? Orqangdan ko‘rganday bo‘ldim.

Otaqul shalvirab bosh irg‘adi. Is’hoqning qoni qaynab, o‘rnidan turib ketdi.

— Ayg‘oqchi! Senga Abdurahmon qancha haq berdi? Sotqin! — Is’hoq nari-beri yurardi. — Xoin, tuzim ko‘r qilgur. Sen sotqin bo‘lmay nimasan?

Otaqul a’zoyi badani titrab, aybini buyniga oldi:

— Shayton ozdiribdi... Xudo urib...

Is’hoq badtar alanga oldi.

— Sen amalparast, osongina mansab izlagansan-da, a? Boyish payiga tushgansan-da, a?

Otaqul churq etmadi. Is’hoq bo‘g‘ilib, joyiga o‘tirdi. Saldan keyin o‘zini bosib:

— Qani, endi o‘z jazongni o‘zing ayt, — dedi. U nima ham derdi? — Ha, gapir?!

Otaqul asta boshini ko‘tardi-da, yana yerga qarab dedi:

— O‘lim...

Is’hoq hayron bo‘ldi. Beknazar indamadi. Otaqul buyruqni kutardi.

— Eh, attang, ko‘p yo‘lni birga bosgandik, ko‘p suvni birga kechgandik. Tengqur edik. Seni o‘limga yuborish osonmi? Ammo sen sotqinsan! Senga o‘lim!

O‘limdan qutulib qolishga ko‘zi yetmagan Otaqul endi beparvo o‘tirardi.

— Kechirmaymiz. O‘zing yuzingga chaplagan qorani o‘zing yuvasan, Otaqul, eshitdingmi? Halol xizmating bilan.

— Is’hoq! Ochiq ayt, qanday xizmatim bilan yuvaman? — dedi Otaqul.

— Ochiq aytayinmi?

— Ayt, ochig'ini ayt.

— Yarim podsho seni Marg'ilonga bek qilib tayinlagani to'g'rimi?

— To'g'ri.

— Mayli, o'z o'rningda qol, — dedi Is'hoq sinovchan, — o'sha oshnagarchilikni davom ettirib, munosabatni yaxshilaysan...

Otaqul yutinib qo'ydi.

— Bilib qo'y. Yarim podsho bilan bizning o'rtamizdagi aloqani tiklaysan. Shundagina o'z dog'ingni yuvibgina qolmay, o'z xalqingga beqiyos xizmat qilgan bo'lasan. Eshitdingmi?

— Eshitdim, taqsir!

— Qo'ldan chiqib ketdim, deb tag'in...

— Unda qonim bilan, qonim bilan... — deb yubordi Otaqul.

— Har taraflama o'ylab ko'r. Yolg'iz o'zing borib, o'z nomingdan gapirasan. Biz o'ris bilan urushmaymiz, buni bilasan. Maqsadimiz o'rdani olish edi, oldik. Endi yarim podsho biz bilan gaplashaversin. Sening vazifang, shu xalqimizning niyati pok ekanligini tushuntirish.

— Mayli, borganim bo'lsin. Mayli, Is'hoq, mushkul ishga yuboryapsan...

Ikki sarboz mahbus unter-ofitserni o'rtaga olib kelardi. Odamlar tomosha qilardi. Birov: "O'risning betini ko'rmayin", deb teskari qapaca, boshqasi: "Tavba, o'ris ham odamga o'xsharkan", deb asta cho'zilib mo'ralaydi.

Uni qizil kimxob to'n kiyib, boshiga to'q, ko'k salla o'ragan oq soqolli kishi oldiga olib kelishdi. "Po'latxon shu bo'lsa kerak", deb o'yladi unter-ofitser. Haligi kishi ermak uchun choy ichib o'tirardi. Gilamning etak qismiga sap-sariq, burni uzun o'ris o'tirdi.

— Isming nima? — tarjima qildi tilmoch. "La'nati kreshin... — dedi ichida unter-ofitser, — foydasi bo'lsa, shaytonga ham xizmat qilasan!.." Tilmoch savolni qaytardi. Unter-ofitser:

— Danil, — dedi. O'tirganlar o'zaro shivirlashdi.

Yo'lda arava sinib, Danil uni tuzataman, deb orqada qolgan edi. Birdan bostirib kelishdi. U o'q uzdi. Birov yiqildi... Faqat "yarim podsho", "yarim podsho" degan gaplarini tushundi, xolos.

Keyin uni bog‘lashib, o‘z aravasida Marg‘ilonga olib kelishdi. “O‘q uzmasam bo‘larkan”, deb o‘yladi Danil. Tilmoch so‘zga kirishdi:

— Bu kishi Po‘latxonning noibi bo‘ladi. Xondan keyingi ikkinchi o‘rinda mana shu Abdumo‘minbek turadi.

Danil: “Xonning o‘zi emas ekan-da”, — deb ko‘ngli to‘lmadi. Tilmoch uqtirdi:

— Azizim, Danil, ulug‘ noib seni musulmon diniga kirsin deyapti.

Danil unga qaradi. Tilmoch boshini qimirlatdi.

— Musulmon diniga kirsang, joning omon qoladi. Buning ustiga, uy, ot beradi. Go‘zal qizlardan biriga nikohlab, o‘z o‘g‘liday ko‘radi.

Danil bosh chayqadi. Basavlat noibning yuzidagi tabassum o‘rnini g‘azab egalladi. Ko‘zini Danilga qadadi.

— Esingni yig‘, Danil, — dedi tilmoch, — behuda o‘lib ketma! O‘ylab javob ber, Danil.

— Nimani o‘ylayman? Onam qaysi dinga cho‘qintirgan bo‘lsa, o‘sha dinimga sodiq qolaman.

— O‘z diningda o‘lib ketgandan, musulmon bo‘lib omon qolganing yaxshimasmi? Uy, ot, go‘zal qiz.

Danil tilmochni jerkib tashladi.

— Ularni senga berdim. Menga kerak emas.

Tilmoch boshqa gapirmadi. U noibga shartga ko‘nmaganligini aytdi. Abdumo‘minbek g‘azab bilan baqirdi

Sarboz chopib keldi. Nimadir dedi. Sarboz yugurib chiqib ketdi.

— Bekor qilding, Danil, — dedi tilmoch, — dinning nima keragi bor, joningning huzurini ko‘zlamaysanmi?

— Sen joningni ehtiyot qil. Osmonga ustun bo‘lasan.

Noibning buyrug‘iga binoan Danilni ikki sarboz haydab borib devor ostiga qo‘yishdi. O‘nboshining topshirig‘i bilan yigirma chog‘li sarboz piltali miltig‘ini tutashtirdi. Xiyladan so‘ng, Abdumo‘min yonida ikkita nufuzli kishi bilan keldi. U sheriklariga biror narsa dedi shekilli, ular Danilga chaqchayib qarashdi. Noib tilmochga shivirladi.

— Danil, — dedi tilmoch, — gapga ko‘n.

Danil unamadi. Turganlar xijil bo‘ldi.

— So‘nggi marta so‘rashyapti, Danil, hozir otilasan.

Danil boshini ko‘tarib baqirdi:

— Eshit, ablahlar! Meni onam qaysi dinga cho‘qintirgan bo‘lsa, o‘shanga sodiq qolaman! Eshitdinglarmi, la’natilar!

Abdumo‘min otishga buyruq berdi. O‘nboshining ishorasi bilan yigirma kishi bir yo‘la o‘q uzdi. Xammayoqni tutun qopladi. Danil shilq etib yiqildi. Basavlat odam yuzini burib tez yurib ketdi. Bu voqea Is’hoqqa darrov yetdi.

Shoshilinch majlis chaqirildi. Devonxonaga to‘plangan beklar, sarkorlar gap nima haqdaligini bilmasdilar. Eshikdan Is’hoq kirgan hamon barcha o‘rnidan turib ta’zim qildi. Beknazar botir qurolli udaychilarni eshik oldida safga qo‘yib, o‘zi ham u yerdan jilmadi. Nima gap? Majlisga to‘planganlar allanechuk bo‘lib turishardi.

— Assalomu alaykum, yaxshilar, — dedi Is’hoq. Uning ovozidan xayoli parishonligi bilindi.

Hamma alik oldi. Taxtning o‘ng tomonida Abdumo‘minbek, chap tomonida Umarbek turardi. Is’hoq taxtga o‘tirmay hozir bo‘lganlarga bir sidra qarab chiqdi. U qahrini bosolmay, chimirilib turgan Abdumo‘minbekka yuzlandi.

— Bek!..

— Labbay hukmdor, — dedi Abdumo‘minbek.

— Bugun narigi dunyo uchun qanday savob ishlar qildingiz?

Bek savolga tushunmay, kichik, sariq ko‘zlarini javdiratdi-da, dedi:

— Xudoning bandasimiz, besh vaqt namoz, xayr-cadaqa deganlariday...

— Bir kofirni musulmon qilish qanchalar savob ekanligini mendan ko‘ra yaxshi bilasiz. Afsuski, qizitaloq Danil bunga ko‘nmay o‘limni afzal bilibdi. Attang, do‘zax o‘tida kuygan yetti pushtingizni behishtga olib chiqishingizga bir bahya qolgan ekanu, bek?!

Odamlar gap nimadaligini darrov tushunishdi. Abdumo‘minbekning savob izlagani Is’hoqqa yoqmabdi. Bek izza bo‘lib, atrofga alangladi.

— Endi hukmdor, barimiz musulmon farzandimiz... — dedi Abdumo‘minbek shariatga tayanib.

— Siz musulmon farzandi emassiz! Siz shaytonsiz!!! — deb qichqirdi Is’hoq. Bu gap Abdumo‘minbekning u yoq-bu yog‘idan o‘tib ketdi. Is’hoq taxtga o‘tirdi. Qo‘lini shop qilib, qayta o‘rnidan turib ketdi.

— Siz, o‘lkamiz odamlariga hech bir yarashmaydigan ish qildingiz. Eshitdingizmi, siz shaytonning ishini qildingiz. Biz tomon oqayotgan dengiz yo‘lini to‘sdingiz, dushmanlarimizga bahona topib berdingiz! Shayton! Sotqin!

Turganlar churq etishmadi. Abdumo‘minbek terlab ketdi.

— Bu sizning shayton ekanligingizning isboti emasmi?

Bek o‘zini oqlamoqchi bo‘lib, og‘iz juftlagan edi, Is’hoq kesdi

— Endi bahonaning hojati yo‘q. O‘zingizni oqlamang!

Bek o‘zini orqaga tortdi. Abdumo‘minbekning sallasi uchib ketdi. U eshik tomon yo‘l oldi. Is’hoq uning yoqasidan bo‘g‘ib oladiganday intildi.

— Shayton! Sotqin! Ayg‘oqchi!

Sallasi uchib, chuvalanib ketgan Abdumo‘minbek Beknazarning oldiga borib qoldi. Beknazar uni yelkasidan bosib, Is’hoqqa ro‘para qildi. Bek qaltirab tiz cho‘kib, Is’hoqning etigidan o‘pmoqchi bo‘ldi. Is’hoq oyog‘ini tortdi.

— Iflos! — u labini tishlab, qonga to‘lgan ko‘zlarini chetga burdi: — Ha, tuzingizni ichgandim, joningiz o‘zingizga siylov, — deb eshikka qarab ishora qildi. — Chiqib keting!

Abdumo‘minbek chiqib ketdi.

Hech kim churq etmadi. Is’hoq sal jahlidan tushdi, yerda yotgan sallani bosib, to‘rga qarab yurdi...

* * *

Toshkent shahri...

Turkiston general-gubernatori mahkamasining kutish zalida ikki kishi o‘tirardi, keng foyening o‘ng qanot devori ostiga qo‘yilgan katta, qizil bulg‘ori divanda o‘tirgan bu ikki kishining biri o‘rta yoshlardagi cho‘qqi soqol, sallali kishi bo‘lib, sallasining

o‘ng tomonida xonning yorlig‘i bor edi. Ikkinchi kishining egnida qora kimxob chakmon bo‘lib, ostidan kiygan qizg‘ish nimchasi ko‘kragida birinchi darajali Stanislav ordeni yaraqlardi... U yoqasini atay ochib o‘tirganga o‘xshardi.

Generalning eshigi ochilib, qo‘ng‘ir sochli shtabs-kapitan ko‘rindi. Shtabs-kapitanning ko‘m-ko‘k ko‘zi tiniq edi. Divanda o‘tirganlar, qay birimizni qabul qilarkin, degan andisha bilan ikkovi baravar o‘rnidan turdi.

— Taqsirlar, — dedi shtabs-kapitan, — oliy hazratlari bugun bo‘sh bo‘larkan.

Haligilar bir nima demoqchi bo‘lishuvdi, shtabs-kapitan so‘zni ilib ketdi:

— Aytdim-aytdim, birinchi darajali Stanislav ordenining kavaleri, Qo‘qonning sobiq xoni Xudoyor va u bilan birga xon Nasriddin kutayotir, dedim, — shtabs-kapitan o‘z xonasiga kirib ketdi.

Shu payt eshikdan Otaqul botirboshi kirdi. U foyening bezagiga qiziqdi, yuqorida turgan Aleksandr II ning suratini ko‘rdi-da, “E, oq podsho shu ekan-da”, deb og‘zi ochilib qoldi. Keyin aylanib o‘tib, divanda o‘tirganlarga uncha e’tibor bermay, shunchaki salomlashdi. Xudoyor boshini ko‘tarib, alik olganida botirboshi cho‘chib, tisarildi. Xudoyor tutaqib dedi:

— Ha, botir yigit. Ilon ko‘rdingmi?

Otaqulning ko‘zi Nasriddinga ham tushdi. O‘zini o‘nglab oldi:

— Iya, chaqadigan ilon desam, tili sug‘urilgan sassiq ilonlar ekan-ku!..

Nasriddin o‘zini tutolmay, o‘rnidan sakrab turdi.

— Jim, o‘rningga o‘tir. Kimga dag‘dag‘a qilyapsan? Shtabs-kapitan xonasidan chiqdi. G‘ijillashib turganlarni ko‘rib, yaqin keldi va Otaqul botirboshining boshidan-oyog‘iga razm soldi,

— Siz kimsiz?

Otaqul shoshib qoldi.

— Men... hurmatli to‘ra... Botirboshi Otaqulman...

— Ha, Marg‘ilonning begiman, deng... O‘zgarib ketibsiz.

Otaqul boshqa hech narsa demadi. Shtabs-kapitan uni to‘xtatmay xonasiga boshladi.

— Yuring, oliy hazratlari sizni kutyapti.

Otaqul botirboshi orqasiga burilib, uch kundan beri navbat kutib o'tirgan ikki xonga — Xudoyorxon bilan Nasriddinga "ko'rib qo'y" deganday pisanda bilan qarab qo'ydi.

General-gubernator fon Kaufman istarasi issiq odam edi. U katta stol ortida yumshoq kresloda o'tirib, qog'ozlarni ko'zdan kechirardi. Devorda podsho Aleksandr II ning ulkan portreti. Otaqul bunday katta suratni birinchi bor ko'rishi edi. Fon Kaufmanning yaltiroq boshi, xayol surib o'tirishi uni o'ylatib qo'ydi.

Ad'yutant:

— Marg'ilon begi, Otaqul botirboshi, — dedi.

Gubernator siyqa boshini ko'tarib, kirib kelgan kishiga razm soldi, so'ng qalamini stolga tashladi-da, sal chehrasi ochildi.

— Assalomu alaykum, ulug' to'ra... yarim podsho hazrati oliylari... — dedi Otaqul ovozi titrab.

Gubernator alik olish o'rniga:

— Yaqinroq keling, — dedi.

Turkiston general-gubernatori botirboshini iliq qabul qildi. Uning esidan Xudoyor ham, Nasriddin ham chiqdi.

— Ishlar qalay? Yaxshimi? Yaxshi bo'lsin. Soxta xon qanday? Sizga qattiq tegmadimi? Tegib ko'rsin-chi! Yaqinda u g'arazgo'y yo'q qilinadi. Sizday botirlarning yordami kerak.

Tilmoch tarjima qildi.

— Hazrat oliylari... — deb tutilib gapirardi Otaqul.

Fon Kaufman buni fahmlab, "mayli, bemalol gapirsin", deb tilmochga qaradi. Otaqul bor gapni aytdi:

— Yomon fikrga borib yurmanglar. Agar rozi bo'lsangiz, Is'hoq siz bilan uchrashmoqchi. O'ris bilan ota-bola bo'laylik, deyapti. Menda boshqa gap yo'q. Rosti shuki, u Xudoyorxonga, uning avlodiga o'chakishib shunday qildi. Is'hoq elga yaxshi xon bo'ladi, shuning uchun xalq unga ergashyapti. Xudoyorxondan ancha yaxshi....

Tilmoch tarjima qildi. Fon Kaufman o'yladi: "U o'g'ri, o'g'riligicha qoladi! Is'hoq og'zidan tushmay qolibdi, demak, bir gap bor. Xudoyorxondan yaxshi xon bo'larmish. Ha, biz sizlarning yaxshi xonga ega bo'lsin deb kelibmizmi?!"

— Marg'ilonning begi, sizni soxta xon iskanjaga olyaptimi? Qo'rqmang. Uning sanoqli kuni qoldi. Bizga uning keragi yo'q.

Zarur bo‘lib qolsa, xon urug‘idan birortasini toparmiz. Bizga yalang‘oyoqlarning keragi yo‘q.

Tilmoch tarjima qildi. Otaqulning og‘zi ochilib, savol nazari bilan qapab qoldi.

— Siz botir odamsiz, — deb maqtadi gubernator. — Sizning xizmatlaringizni yaxshi bilamiz. Shu zaylda halol ishlasangiz, oq podshoning nazaridan chetda qolmasligingizga ishonchim komil. U taqdirda siz shahar begi emas, Qo‘qonning nufuzli, qadrli odamlaridan biri bo‘lib qolishingizga shak-shubham yo‘q.

Tilmoch tarjima etdi. Otaqul yutinib qo‘ydi. Ko‘ngliga har xil gap keldi. O‘h, shunday bo‘lsa qaniydi-ya?! Is’hoqning o‘zi ham shon-shuhrat deb yurgan bo‘lsa kerak?! O‘lgandan so‘ng jannatning nima hojati bor? Gubernator Otaqulning fikrini sezib qoldimi, haytovur och qushga barra go‘shtni uzatib, talpintirganday yana so‘zladi:

— Xudo buyursa, kelgusi yilning boshida oliy hazratlari — oq podshoning tug‘ilgan kuni nishonlanadi. Ana shu tantanaga Rossiyadan, tobe mamlakatlardan, chet ellardan mehmonlar chaqirilib, katta to‘y o‘tkaziladi. Bu daydining to‘s-to‘polonidan tezroq qutulsak, o‘sha kuni oq podshoning o‘zi bilan uchrashtiraman.

Tilmoch tarjima qildi. Otaqulning ko‘zlari hasaddan yondi.

— Bu betayinlar o‘zini xon qilib ko‘tarib oldi. Uni qanday qilsa bosiladi? Taxt egasi — xonning gapi bolasiga o‘tmaydi, bolasiniki otasiga. It-mushuk bo‘lsa. Nima qilish kerak? Bunday choqda men sizga o‘xshagan kishilarga ishonaman. Qadim sharq donolarining maqolga aylanib ketgan shunday gapi bor: “Jamiki o‘lkaga, yalpi elga birday foyda keltiradigan voqea qaysi?” — deb so‘rashganida, “eng yomon, eng notinch xonning ko‘zini o‘yish”, degan ekan. Juda o‘rinli gap.

Tilmoch tarjima qildi Otaqul bu gaplarga tamoman mahliyo bo‘lib qoldi. Fon Kaufman nari-beri yurarkan, Otaquldan ko‘z uzmay tamaki chekdi, o‘rniga o‘tirib, botirboshiga qaradi.

— Sizga og‘ir bir vazifa topshiraman. Bu sizning qo‘lingizdan keladi. Sababi, xonning yaqin kishilaridan biri bo‘lib qolibsiz. Faqat oldida hech kim bo‘lmay qolgan taqdirdagina ishlatasiz. — U tortmadan bir pistolni olib, stol ustiga tashladi. — Albatta, bu ikkinchi darajali ish. Umuman, ishni unga qarshi kishilarni

to‘plashdan boshlamoq darkor. Bu haqda bizni xabardor qilib turasiz. Iloji bo‘lmay qolsa, mana bu narsaga ishoning, — deb barmog‘i bilan pistolni ko‘rsatdi.

Tilmoch tarjima qildi. Buni oldindan payqab o‘tirgan Otaqul o‘rnidan turib ketdi.

General-gubernator pistolni olib unga uzatdi. Otaqul tortindi. Fon Kaufman bo‘zardi. Otaqul yerga qarab turarkan, qo‘l uzatdi.

— Toshkent bo‘sag‘asida Olimqul otaliq qanday otilganini bilasizmi? — deb so‘radi general-gubernator.

— Ha.

— Juda soz.

Otaqul fon Kaufmanning oldidan suvga tushgan nonday bo‘shashib chiqdi. Hech qayoqqa qaramay, katta eshik sari yurdi. Xudoyor o‘g‘li bilan hamon zoriqib kutib o‘tirardi. U Otaqulning ketidan yurib, sekin askiya qildi:

— Ha, bachchalarga o‘xshab parishon chiqding?!

— Bachcha bo‘lib boshidan o‘tkazgan biladi, — dedi Otaqul Nasriddinga qarab. Xudoyor qizarib ketdi.

O‘sha kuni Otaqul hech yerda to‘xtamay Toshkentdan jo‘nab ketdi. U rus askarlarining kuzatuv bekatiga keldi. Fon Kaufmanning o‘zi qo‘l qo‘yib, tasdiqlagan hujjatni ko‘rib, unter-ofitser uni hurmat bilan o‘tqazdi.

U Qo‘qon sipohiylari qo‘riqlayotgan yerga keldi. Qorovulboshi Is’hoqning muhri bosilgan qog‘ozni ko‘rib, ta’zim bilan kuzatib qo‘ydi.

Uning yuragiga qil ham sig‘masdi. U yo‘lda uchraganlarga salom bermay, salom berganlarga alik ham olmay, ezilib borardi.

“Yarim podsho mendan nima talab qilmoqda? Meni dili pok odam qatori, bek qatori ko‘rsa, jang maydonida botirlarcha jon ber desa, boshqa gap edi. Yo‘q. U odam o‘ldir deyapti. Xilvat qilib ot deyapti. Mening bahom shumi?..” Otaqul ikki tomonlama ezilardi. Ishonch va qotillik. Qaysi tomoniga egilsin? Mana, Is’hoqning to‘pi deylik. Yaqinlari chiqib ketishdi. Orasi yaqin. Otaqul pistolni oldi. Ammo qo‘li qaltirab otolmadi. Shu kezda Is’hoq yalt etib unga boqdi... “Yo‘q, yo‘q, mening nomimni aytgani hatto bolam ham uyaladi. Bari bir qo‘lga tushaman...”.

“Nima deb boraman? Yarim podshoni ko‘ndirmoqchi edim. Is’hoq nima deydi? Ishonch va qotillik. Qaysi biri ma’qul? Mening bahom shu qadar arzonmi? Sotqinning bolasi. Yarim podshodan qanday qutulaman? Bir boshga bir o‘lim...”.

Yerlar sap-sariq, daraxtlar yalang‘och edi. Tog‘lar sokin. Izg‘irin suyakdan o‘tadi. Otaqulning orqasidan kelayotgan yigit botirboshining nima uchun xafaligini bilolmay garang edi.

Qars! Yigitlar cho‘chib ketdi. Otaqul botirboshi otidan og‘ib borardi. Nima bo‘ldi? O‘q qayoqdan chiqdi? Ikki tomonni qarashdi. Qurollarini o‘nglashdi. Tinchlik. Yigitlar chopib ketdi. Biri tizginni bosib, otni ushladi. Qolganlari botirboshini suyashdi. O‘q chakkasiga tekkan. Birotar rus pistolining og‘zi tutab yonida yotardi.

* * *

Is’hoq xayol surib par yostiqqa yonboshladi. Yonida eti borib ustuxoniga yopishgan echki soqolli, oq salla o‘ragan bir chol xijil bo‘lib o‘tirardi.

— Bu nima degan gap?! Bir kofirni o‘ldirding, deb eng yaqin do‘stingni shunday malomatlarga qo‘yasanmi?

Is’hoq asta qo‘zg‘aldi.

— Biz bu yoqda yarim podsho bilan munosabatni yaxshilashga harakat qilib turganda, bu notavon ishni rasvo qildi. Ahmoq bo‘lmasa shunday qilarmidi?

Cholning eshitgisi kelmay, o‘z gapini ma’qulladi:

— Nima bo‘lsa-da, bu ishing boshqalarga ham ma’qul bo‘lmadi. G‘ayridinni to‘g‘ri yo‘lga solish uchun uringan ekan. Unga balli. Lekin bekni chakki qilding, deyish gunoh. Do‘st achitib aytadi, dushman kuldirib. Men sening do‘stinggina emas, otangman...

— Xudo nechta? — deb so‘radi Is’hoq.

Qariya: “Ey, bu aqldan ozganmi? Astag‘furillo! Xudo ikkita degan musulmon emas. Agar buni musulmon aytsa, shu zahoti dindan chiqadi. Bu nima deb aljirayapti?” — deb o‘tirib qoldi.

Is’hoq:

— Xudo bitta. Iso kim? Payg‘ambar. Muhammad kim? Payg‘ambar. O‘ris Iso payg‘ambarning ummati, biz Muhammad payg‘ambarning ummatimiz. To‘g‘ri aytdimmi?

Chol, yana dindan chiqib ketmayin, degan o‘yga borib, indamadi. Is’hoq davom etdi:

— Bir Xudoning, ikki payg‘ambarning yo‘lini bir-biriga qarshi qo‘yish, bir-biridan yuz o‘girish, qon to‘kdirishi to‘g‘ri emas. Kimki shunday qilayotgan bo‘lsa, u aniq kofir. Iso payg‘ambarning yo‘lini tutadimi, Muhammad payg‘ambarning yo‘lini tutadimi, niyati xolis, yuragi pok bo‘lsa , hisob.

Qariya qo‘rqib ketdi.

— Tavba qil! Tavba qil... — chol ters qarab kalima keltira boshladi. Is’hoq oqsoqolning ahvolini ko‘rib rahmi keldi.

— Ota, — dedi muloyimlik bilan, — bundan buyon o‘rtaga tushib mening ishimga aralashmang, oldimga kelmang. Haligi so‘z shu yerda qolsin.

Chol hech narsa demay etagini qoqib chiqib ketdi. Is’hoqning g‘azabi qaynab, o‘zini zo‘r-bazo‘r bosdi.

Ana shu qariya Is’hoqning o‘z otasi mulla Hasan edi. O‘g‘li o‘rdani qo‘lga kiritgach, beklar cholni olib kelishgandi. Uzoq yillik ayriliqdan keyin otasi bilan uchrashish Is’hoqni quvontirdi. Biroq oqsoqol o‘g‘lining xonligiga ishonibmi, to‘g‘ri kelgan ishga aralashadigan bo‘lib qolgandi. Bu qora niyatli kishilarga qo‘l kelib, oqsoqolni ishga solishardi. Kechqurungi voqea esa Is’hoqni battar xafa qildi. “Nima qilay? Bu Xudo urgan o‘z otam...” deb o‘ksindi.

IV

— Yana bir qalandar ruxsat so‘rayapti?

— Qanday qalandar?

— Bilmadim, bir chol.

— Mayli, kirsin. Kim ekan...

Mo‘min qalandarni olib kirdi. Usti boshi yupun, rangi bir ahvol, biroq boqishlari dadil. Is’hoq o‘rnidan turdi.

— E-e, hazrati hofizmi? — deb quchoq ochdi. — Bormisiz? Qayoqlardan so‘raylik?

Quchoqlashib so‘rashdi. Is’hoq qalandarning qo‘lini tavof qildi.

— Keling! To‘rga o‘ting, hazratim. — U hayron bo‘lib turgan Mo‘minga ishora qildi: — Mo‘min aka, o‘rdamizga fayz kirdi, chaqiring, hazratga kelib qo‘l berishsin...

Mo‘min buyruqni bajarish uchun chiqib ketdi.

— E, o‘g‘lim, o‘rdaga bosh bo‘lganingni eshitib, toj-taxtingni, boshingga qo‘ngan baxtingni muborakbod etgani atay keldim, — deb qalandar qaepga o‘tirishini bilmay turuvdi, Is’hoq qo‘ltig‘idan olib to‘rga o‘tqazdi.

...Bu kishi bilan Is’hoq ko‘p yillar muqaddam uchrashgandi.

— Qayoqqa boraman deding, yigit?

— Toshkentga, taqsir.

— Salt tuya bor, minib ol, musulmon farzandi ekansan. Aytganday, kira haqi qanday bo‘ladi, yaxshi yigit?

— Manzilga yetguncha xizmatingizni qilaman.

— Hay, mayli, Marg‘ilonga borgach, bu yuklarni tushirib, boshqasini yuklaymiz. Keyin Andijonga, undan Namanganga qo‘nib, so‘ng Toshkentga yo‘l olamiz. Yuklarni tushirish, ortishda qarashasan, mayli, yuraver...

Is’hoq mehmon bilan hol-ahvol so‘rashib o‘tirarkan, ko‘z oldida o‘sha olis safar gavdalandi.

Karvon kech uchgan turnalarday chuvalib, Sirdaryo bo‘yidan ro‘paradan esgan izg‘iringa yuz tutib shimolga borardi. Karvonboshi oldinda ko‘k xachirning uzun quloqlaridan ko‘z uzmay, uzangini niqtardi.

— O-ooy... xotinim qoldi-i-i-i Qashqarda-a-yo-yo... — deb qariya osmonga qarab qo‘ydi.

— Ashulasi shunaqa, — deb kulib qo‘ydi keyinda kelayotgan malay Is’hoqqa qarab. So‘kishdan boshqani bilmagan karvonboshidan o‘zga qo‘shiq kutish mumkin emasdi. U har doim shu bir satr qo‘shiqni aytib, uzoq Qashqarda qolib ketgan xotinini goho eslab qo‘yardi.

— Qani, tezroq, — deb chol ko‘k xachirni to‘xtatib, orqada qolganlarni shoshirdi. — Tez! Yoyilmay, tez-tez yuringlar.

Malaylar “chuh-chuh”lab ulovlarni qistashdi. Guyo ilon inga kirib borayotganday, karvon ortini, orti esa oldini ko‘rmaydi. Mu-

yulishdan muyulishga qayrilib soyga kirib bordi. Kech kirib qoldi. Soyni darrov qorong‘ilik bosdi. Karvonboshining qistaganicha bor ekan. Chunki bu yer qaroqchilar makoni ekan. Joyning nomlari ham “Egri suv”, “O‘g‘risoy”.

Karvon “O‘g‘risoy”dan chiqayotganda yon tarafdan shovqin keldi. Is’hoqning qulog‘iga otning dupuri eshitildi. Keyin nimadir ihrab-sihradi, g‘ingshidi. Karvon to‘xtadi. Ikkita soya olisha-yotganga o‘xshadi. Biri “ingrab” yiqildi. Yonidagi soya serrayib turardi. “Qashqir ekan”, dedi Is’hoq. Qashqir sal narida tilini osiltirib turardi. Ko‘zi yonardi, Is’hoq tuyani cho‘ktirdi, arqonni qalandarga ushlatib, tilsiz yovni qo‘rqitmoqchi bo‘ldi. Qashqir g‘am yemay irillab qo‘ydi. Yerda yotgan sharpa “voy” deb ingradi. Is’hoq qichqirdi:

— Ey! Odam ekan!

Is’hoq engashib qaradi, jabrlangan kishining ichagi chuvalanib ketgandi, o‘zi hadeb ingrardi.

— Hoy, kimsan? — dedi Is’hoq.

U qornini changallab:

— E-e, tirikchilik-tirikchilik, — derdi ingrab. — O‘roqchilik qilib ishdan qaytib...

Is’hoq bilan malay uning boshini ko‘tarishdi. Qashqir hamon tumshug‘ini yalab turardi.

— Peshona terim bilan o‘n chorak bug‘doy to‘p-to‘plovdim. O‘ra kavlab xirmon bo-shi-ga...

Qalandarning rahmi kelib dedi:

— Obbo, sho‘rlik-e...

— Bu balo senga qayoqdan yo‘liqdi? — dedi Is’hoq.

— Anchadan beri, vo-oy, ergashib yuribdi. Qo‘limda kaltak bilan o‘roq bor edi. Kaltakni mo‘ljallab irg‘itsam tegmadi. Vo-oy, vo-o-oy. Keyin u kaltakni tishlab, hu olisga eltib tashladi, yana izimga tushdi. Unga daf qilmoqchi bo‘luvdim, o‘rog‘im qo‘limdan chiqib ketdi. Voy... Voo-oy... Keyin, keyin shu ahvol...

— Sabr qil, o‘zingni tut. Olib ketamiz, — dedi Is’hoq.

Shu payt karvonboshi baqirib qoldi:

— Ho-o-oy! Nima bo‘ldi? Tezroq, tezroq...

— Qani endi ketaylik, — dedi malay.

Yirtqich hamon ko‘zlari yonib, tumshug‘ini yalab o‘tirardi.

— Tuyani cho‘ktir, — dedi Is’hoq malayga.

— Yo‘q, men bari bir o‘laman, — dedi haligi kishi. Yana karvonboshi baqirdi.

— Mayli, ketaveringlar. Yo‘lda bir kulba bor, kirib, besh yetimchani peshonasini silab o‘tinglar.

— Hoy, biz seni tashlab ketolmaymiz.

— Xayr, men bari bir o‘laman, — dedi ajal sirtmog‘i bo‘ynidan qisayotgan odam. — Ketaveringlar. Agar malol kelmasa, boshimni choponim bilan o‘rab qo‘yinglar. Yirtqichning tishi begunoh yuzimga tegmasin. Vo-oy...

Is’hoq, qalandar va malay uchovi jon berayotgan odamning oxirgi iltimosini bajarish uchun yerda yirtilib yotgan chopon bilan uning boshini mahkam o‘rashdi. Ular ulovga minishlari bilan qashqir irillab dehqonga tashlandi, uni ko‘tarib yerga urdi, bir voy degan ovoz eshitildi-yu jim bo‘lib qoldi, qashqir tishlab, tortib uzib yeya boshladi...

Mol achchig‘i, jon achchig‘i. Mollarini manzilga eson-omon yetkazib olishdan boshqa narsani o‘ylamagan karvonboshi tutaqib ketgandi, u Is’hoq kelishi bilan bo‘ralatib uni so‘kib ketdi:

— Ey, onasi taloq! Nega to‘xtading? Otangni qarindoshimi? Onasi taloq!

— Musulmon farzandi ekan, — dedi Is’hoq. — Qashqir qornini yorib ketibdi.

— O‘lgan boshqa! Uni menga nima daxli bor? Muncha rahmdil bo‘lmasang. Meni qaroqchilar talab ketsinmi? — Is’hoqning orqasiga mingashib olgan qalandarni ko‘rgan karvonboshining g‘azabi yana avjiga chiqdi. — Endi orqangdagi so‘laqmonga balo bormidi? Indamasam boshimga chiqib olasan shekilli?

— Xo‘jayin, qari kishi ekan...

— Tush! Ikkoving ham tush! Boshimga balo bo‘lding, — deb buyurdi karvonboshi. Qalandar bilan Is’hoq tuyadan tushdi. Karvonboshining qo‘polligi Is’hoqning nafsoniyatiga tegdi.

— Ey, to‘xta, — deb xachirning tizginiga yopishdi, — men xizmatingni qilib kelyapman. Va’da Toshkentgacha emasmidi?

Ko‘k xachir tizginiga yetkazmadi. Karvonboshi qamchi o‘qtalib:

— Xizmat emish? Eh, esi yo‘q daydi. Qashqirga qo‘shimcha yem qilib tashlab ketmaganim uchun xursand bo‘l.

Is’hoq kuyinib ketdi.

— Kel, o‘ldirib qo‘yaqol! — deb orqasidan yugurdi.

Qayoqda, ko‘k xachir yugurib tuyalardan o‘tib ketdi.

— Qo‘y, xafa bo‘lma, — dedi qalandar Is’hoqni yupatgan bo‘lib, — mol-dunyo ortidan yurgan savdogar ekan. Xudoga sol. Xudo xolis...

— Sizni deb... — Is’hoq tutilib qoldi. — Ilojimiz qancha? Xudoga soldim. Qo‘limdan kelsa boplab, hisob-kitob qilardim.

— Bu ko‘r bandani kechir, o‘g‘lim, — dedi qalandar. — Hech qachon yomon niyat qilma. Halol va pokdomonlikka nima yetsin? Kimki kechirsa, dili ravshan tortadi. Birovga yordam berish o‘rniga, faqat o‘z ayshini, o‘z nafsini ko‘zlaganlar haqida donolar quyidagi baytni to‘qishgan:

O, ko‘r banda, ko‘r banda.
Uyga toldim kurganda,
Sag‘ir bola yer topar,
Tul xotin-chi, er topar.
Chivinday jon chirqirab,
Axir qaydan joy topar?!

Etagi yo‘q, yengi yo‘q,
Enli ko‘ylak kiyarsan.
Eshigi yo‘q, to‘ri yo‘q
Xoli uyga kirarsan...
O, ko‘r banda, ko‘r banda.
Ne qilarsan o‘shanda?!

Ikki yo‘lovchi yo‘lda davom etishdi. Qalandar chol suhbat jilovini qo‘liga oldi:

— Bu Xudoning buyrug‘i, mana bu tog‘ ortida qurama urug‘i yashaydi. Borib, tuz totib ketarmiz. — Is’hoq rozi bo‘ldi. “Shoshib

qayga borardim? Toshkentda sog‘inib kutayotgan biror kishim bo‘lmasa”, — o‘yladi u.

Ular qorong‘ida bir-birini yetaklab, turtinib-surtinib ko‘p yo‘l yurishdi. Is’hoq charchadi. Qariya unga dalda berdi:

— Shunaqa, o‘g‘lim, boshga tushsa ko‘z kuradi. Yaxshilikni ham, yomonlikni ham bilib, ish yurit. To‘satdan kelgan omadga uncha quvonma. Nogahon yomonlikka duch kelsang, esankirama. Bu dunyo shunday. Goh tuya minasan, goh yayov yurasan...

Ertasiga ular bir qishloqdan o‘tishdi. Itlar tinmay hurardi. Chetdagi bir uydan qizil ko‘ylak kiygan ayol chiqib, “Iya, devonalar ekan”, deb o‘zicha gapirib, picha tomosha qilgan bo‘ldi va “Ket-ket”, deb itlarni haydab yubordi. Eshikka yaqinlashganda qalandar o‘z odatiga ko‘ra yoqimli ovozda xonish qildi:

Bu dunyoda ne bo‘lmas?
Piri bo‘lmas el bo‘lmas,
Fe’li yaxshi kam bo‘lmas,
Qalampir aslo tuz bo‘lmas.
Xotin g‘ingshib qiz bo‘lmas.
Jar qulasa suv bo‘lmas,
G‘arib o‘lsa basharti,
Unchalik g‘ulu bo‘lmas...
Davlat ketsa qo‘lingdan,
Kelmog‘i qiyin qaytib,
O‘tar-ketar umring ham,
Somondayin sarg‘ayib.
Tolning shoxi sinsa gar,
Chinor bo‘lmas u qaytib.
O‘tgan umr — uchgan qush,
Qolasan attang aytib?!.

Yosh ayol qo‘shiqdan ta’sirlanganidan ko‘zida yosh halqalanib, uyga kirdi-da, non olib chiqdi. Is’hoq nonni to‘rvaga soldi.

— Kam bo‘lma, qizim, kam bo‘lma... — deb qalandar duo qildi.

Sal nariroqdagi katta qo‘rg‘on eshigida basavlat bir kishi ikki qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib turardi.

— E, hazratim... Keling, keling, — deb kutib oldi. Is'hoq xursand bo'ldi. Uy egasi mehmonlarning hurmatini joyiga qo'ydi. "Bular eski tanish shekilli, yaxshi dam olib, qorinni ham to'ydirib oladigan bo'ldik", — deb ko'nglidan o'tkazdi Is'hoq.

— Sen kim eding, qadrdonim? — deb so'radi qalandar uy egasidan.

— Mening otim Qulbaroq, hazratim, — dedi u. — Sizni bundan uch yil avval Namangan bozorida ko'rganman. Meni tanimaysiz. O'shanda oltinga teng so'zingizni eshitganman. Mana, biz yoqqa kelib qolibsiz, uyimizning to'ri sizniki.

— Iltifotingiz uchun rahmat, — dedi qalandar. Eshikdan ikki o'spirin kirib keldi-da, salom berib poygakda turib qoldi.

— Qani, otang bilan so'rashinglar-chi.

Ular bir oz tortinib, qariyaga qo'l cho'zishdi.

— Ha, yaxshi, baraka topinglar, umrlaring uzun bo'lsin, — dedi qalandar.

— Shunga fotiha bering, ota, — deb bir bola qalandarga yuzlandi.

Qo'zini so'yishga ruxsat berildi. Uy egasi o'g'lidan xursand bo'lib:

— Tezroq bo'linglar, mehmonlar kutib qolmasin, — dedi.

O'sha kuni tongga qadar muruvvatli xonadondan chiroq o'chmadi. Yaqin oradagi yosh-u qarilar, qiz-u juvonlar to'plandi. Qalandar charchoqni ham unutib, ajoyib-g'aroyib sarguzashtlarni hikoya qildi, o'rni kelganda qiroat bilan quyidagi misralarni o'qidi:

Keng ko'nglimiz chaqmoqlarning o'tidan,
Ko'z yoshga-chi sho'rxok ko'ldan qo'shilgan.
Chopib yurmoq timsol erur shamoldan,
Yuraklarga qizil yo'lbars qamalgan,
So'ragaylar inson o'zi nedan deb,
Yaralganmiz nomi ulug' "odam" deb,
Oz erur ichar suvi, ko'rar kuni,
Tirikchilik deydilar axir buni.

— Eh-he, odam degani shu-da, — deb o'tirganlar qalandarga tahsinlar aytishdi.

Qariya suhbatga alohida fayz kiritib, “Yusuf va Zulayho”, “Layli va Majnun” dostonlaridan aytdi, o‘xshashi yo‘q er Manas haqida hikoya qildi. Qo‘ni-qo‘shnilar ertalab tarqaldi. Mehmonlar picha mizg‘ib olishgach, yo‘l tadorigini ko‘rishdi.

— Rahmat, sizlar kelib xonadonimga qut-baraka kirganday bo‘ldi, — deb uy egasi ikkoviga bittadan chopon kiydirdi.

— Ey, qadrdonim, bizga choponing emas, xolis niyating kerak, — dedi qalandar.

Ular uy egasi bilan xayrlashib, tashqariga chiqishdi. Eshikda ikki o‘spirin ikki otning tizginidan ushlab turardi.

— Endi hazratim, — dedi uy egasi, — oz bo‘lsa ko‘p o‘rnida ko‘rib, minib ketinglar.

Ikkala ot minishga taxt, qamchisi egar qoshida, Is’hoq: “Oh, azobdan qutuladigan bo‘ldim”, deb quvondi. Qalandar uy egasini va ikki o‘spirinni duo qilib olqadi.

Ular yo‘lga tushdi. Qo‘shni qishloqqa kiraverishdagi kulbadan bir xotin yugurib chiqdi. Qariya undan hol-ahvol so‘radi. Xotin bor gapni aytdi:

— Ha, aylanay, bu bir bechora kambag‘alning oilasi. Jo‘jabirday jon. Eri bug‘doy o‘rgani ketuvdi. Ikki kundan buyon daragi yo‘q... Xotini to‘lg‘oq tutib, qiynalyapti...

Is’hoqning yuragi shuv etdi. Ko‘z oldiga ko‘k yolli qashqir va u bilan jon talvasasida olishgan dehqon keldi.

— Mana, — dedi qalandar. — Mening hassamni ushlatib, qo‘ltig‘idan suyab, bir oz yurg‘izing, bechoraga yordam bering.

Xotin qalandarning hassasini olib, uyga kirib ketdi. Ko‘p o‘tmay “Ing‘a!” “Ing‘a-a!” degan ovoz eshitildi. Qalandar pichirlab “Ollohu akbar, ollohu akbar”, — deb duo o‘qidi. Anchadan keyin haligi xotin yugurib chiqdi:

— Suyunchi, holva...

— Umri bilan bo‘lsin, — dedi qalandar va kissasidan bir miri kumush tanga chiqarib uzatdi.

Ular uyga kirishdi.

— Qani endi go‘dakka ot qo‘yib beringlar, — dedi doya xotin. — Yoki ko‘pning ichida omon yursin deb Adash qo‘yaylikmi?

Qalandar ko‘nmadi.

— Bolaga yaxshi niyat bilan ism qo‘yish kerak. Xayolga kelgan narsani, ko‘zga ko‘ringan buyumni ism qilib aytish yaxshi emas. Menimcha, qizim, yangi mehmonning oti Baxtbibi bo‘lsin.

— Og‘zingizga moy, ota, aytganingiz kelsin, — dedi ko‘z yorgan ayol.

Qalandar chaqaloqning betini sal ochib, mehr bilan:

— Baxtbibi, ho, Baxtbibi, Baxtbibi, — deya rasm-rusmga ko‘ra uch marta qulog‘iga azon chaqirdi.

Uyda ulardan boshqa besh bola ko‘zlari javdirab o‘tirardi. Kattasi o‘n ikki yoshlarga borib qolgan o‘g‘il edi. Qolganlari biri-biridan shirin, munchoq kabi qizaloqlar. Is’hoq nigohini o‘g‘il boladan uzmay:

— Isming nima, yigit? — deb so‘radi.

— Boyto‘g‘on... — dedi bola burnini tortib.

Is’hoq bosh irg‘adi. Xayoliga, “yo‘lda yetimlar uchrasa, boshini silab qo‘yinglar”, degan gap keldi. Doya xotin dasturxon yozdi. Mehmonlar tamaddi qilishdi. Fotiha o‘qilgach, qalandar bolani peshonasidan o‘pib, qo‘liga qamchi tutqazdi.

— Ol, azamat yigit. Endi eshikdagi ot seniki bo‘ldi. U Baxtbibining suyunchisi, minib yur.

— Bobosi hazillashyapti, — dedi ko‘z yorgan ayol. Bolaning qo‘lidan qamchin tushib ketdi. Chol xafa bo‘ldi.

— Hazil emas, olaver. Bolani uyaltirmanglar. Mendan sovg‘a, eslab yurar. Noumid shayton.

Xotinlar, “Xizr deganlari shu emasmikin”, deb hayron bo‘lib qolishdi. Qalandar yo‘lga tushdi. Is’hoq otining tizginini ushlagancha unga ajablanib qarab turgan bolani chaqirdi:

— Ey, Boyto‘g‘on, — dedi Is’hoq. Bola chopib keldi.

— Mana bu otni ham ol. Otang eson-omon kelsa, “Bir qiyomatlik do‘stingiz sizga tashlab ketdi”, deb aytarsan.

Is’hoq otning tizginini bolaga tutqazib, qalandarning orqasidan jadal ketdi. U yo‘ldoshiga yetganida qalandar shunday dedi:

— Olishning berishi bor, deb shunga aytishadi.

Is’hoq qalandarning to‘rvasini ko‘tarib, undan turli hikoyatlarni jon-dili bilan eshitib borardi. Yo‘ldoshing yaxshi bo‘lsa, olis yo‘l ham bilinmaydi. U shunday qalandar bilan hamroh bo‘lga-

nidan mamnun edi. U choldan tasbehning yoqut donalariday qadr-qimmatga ega bo'lgan ruboiylarni, baytlar, maqol va matallarni eshitib, yo'l-yo'lakay yodlab borardi. Is'hoq umrida birinchi marta jahonga mashhur Shayx Sa'diy, Xo'ja Hofiz, Mir Alisher, Ahmad Yassaviy kabi shoirlar nomini eshitib, ularning durdonalaridan ana shu qalandar tufayli bahramand bo'ldi.

Ikki yo'lovchi qaerda bo'lmasin, uchragan odamlar eski qadrdonlarday "Hazrati qalandar hofiz", deb hurmat bilan qarshi olishardi. Is'hoq ust-boshi to'zib, choriqlari yirtilib, kech kuzda Toshkentga yetib keldi. Ammo u yo'lda ozib-to'zgan bo'lsa-da, aqli to'lishdi, o'zini bosib oldi, hayotning past-balandini o'rgandi, tushundi.

Hozir o'sha qalandarning daydi bir hamrohini yo'qlab kelishi Is'hoqning aqliga sig'masdi. Bunda bir oz oldin otasi Hasanning poyintar-soyintar gaplaridan keyin bu qariyaning tashrifi nur ustiga a'lo nur bo'lib, taxt egasining ko'nglini tog'day ko'tardi.

Yangi o'rdaning kazo-kazolari to'plandi. Dasturxon ham Is'hoqning ko'ngliday to'kin-sochin bo'ldi. Suhbat odatdan tashqari qizidi. Qariya qalandar ajoyib-g'aroyib voqealardan, qiziq hikoyatlardan so'zlab berdi,

— Bir vaqtlar Hindistonda vatandoshimiz, mashhur shoir Muhammad Zahiriddin Boburning nabirasi Akbar shoh o'tgan. Bu yerda tili boshqa, dini boshqa, mazhabi boshqa juda ko'p el yashagan. Shunda sultonga mamlakatni bir yo'sinda boshqarishga to'g'ri keladi. Akbarshoh donishmandlik bilan ish tutib, har bir dindan bittadan ulamo chaqirib, Xudoning yagona ekanligi, Muso, Iso, Muhammad kabi payg'ambarlar bir-biriga dushman emasligini tushuntirib, bandalarning burchi, axloqi, odobi to'g'risida atroflicha gapiradi. U turli millatdan uylangan bo'lsa-da, ojizalarini o'z erkiga qo'ygan, musulmon bo'l, deb majbur qilmagan. Ana shunday yo'l bilan qadimiy Hindistonni biriktirgan, xalqlari tinch-totuv yashagan.

O'tirganlar hayratdan yoqa ushlashdi.

— O-o!..

— Zap aqlli ekan-da!

— Aqli bo'lmasa Hindistonga sulton bo'larmidi?!

Xususan Is'hoq juda quvondi. U o'rislar bilan aloqani yaxshilashga intilishi behuda emasligidan ruhlandi.

— Bu shaytonning vasvasasi, — dedi kimdir baland ovozda.

Is'hoq qaradi. Otasi Hasan edi. Barchaning fikri bo'lindi. Ba'zilar zimdan xonga qaradi. Is'hoq xijolat bo'lganidan qizarib, "Tilingizni tiying", deb otasiga dakki bermoqchi ham bo'ldi, lekin qalandar uni bosib qo'ydi:

— Mayli, ziyoni yo'q, — deb o'tirganlarni tinchlantirdi. Mulla Hasan titrab-qaqshab yana gapirdi:

— Shariatga xilof so'zni aytdi. Qadim zamonlarda o'tgan g'ayridinlarning kechmishini hikoya qildi. E, musulmonlar, butxona bilan tabarruk masjid yonma-yon bo'lmaydi. Musulmon farzandi g'ayridin xotin bilan bir o'rinda yotmaydi. Bu shariatga sig'maydi.

Qalandar pinagini buzmay, bamaylixotir bir masal aytdi:

— Aytishlaricha, bir zamonlar o'ra tubida yotgan bir qurbaqa bilan burgut do'st tutingan ekan. Burgut bir kuni ko'kda parvoz qilib bo'lgach, o'ra qirg'og'iga qo'nibdi. Qurbaqa pastda turib so'rabdi: "Ey oshna, qayoqlarda qolib ketding?" — "Bulutlar osha keng olamni kezib, quyoshga yaqinlashdim, oyni bir aylanib o'tdim", — deb javob qaytaribdi burgut. Qurbaqa uni bir sinab ko'ray-chi, deb savol beribdi: "Quyosh nechta? Oy-chi? Yulduzlar-chi?" Burgut javob beribdi: "Quyosh bitta, oy ham bitta. Yulduzlar esa juda ko'p ekan, sanay olmadim". O'shanda qurbaqa uni mazax qilib rosa kulibdi: "Yolg'onchi", "Aldamchi", "Va-ha-ha...". Burgut esa: "Yotgan yering o'ra tubi bo'lgach, senga bitta yulduzdan boshqa nima ko'rinardi?" — debdi-yu, uchib ketibdi...

Dasturxon atrofidagilar gur etib kulishdi.

Mulla Hasan yoqasini ushlab, kalima keltirdi, etagini qoqib, davradan chiqib ketdi.

Shirin suhbat buzilmadi. Qalandar Is'hoqqa bag'ishlab qasida o'qidi:

Quloq solgin, yurt egasi, hukmdor,
Bevafodir bu davron, ushbu baxting.
Ko'rgan kuning — betinim oqqan daryo,
Daryo uzra ko'pikdir toj-u taxting...

Yangi o‘rdaning ahli donishlari qimir etmay o‘tirishardi. Ilgari bu xil ishlarni ko‘rmagan Beknazarning og‘zi ochilib qoldi. Is’hoq xayolga cho‘mib o‘tirardi.

Bechoraga rizqi ro‘z ber, jo‘mard bo‘l,
Shafqat nurin taratgin kunday yorqin.
Dunyo boqiy, ellar yashar, er yashar,
Xalq og‘zida bir umr noming qolsin.
Yurt egasi, esli yigit o‘shanda,
Noming qolur azro‘-azal, o‘lmassan.
Ko‘k toqida yulduzdayin yarqirab,
Sen abadiy nur baxsh etib, so‘nmassan.

— Balli! Balli! — deb jamoat tasanno aytdi. Is’hoq qalandarning mardonaligiga tan berib, etagini tavof qildi.

— Hazrat, — dedi Is’hoq suhbat oxirida, — saroyimizda bizga bosh-qosh bo‘lib, o‘git va pandingizdan darig‘ tutmasangiz. Iltimos, o‘rdada qoling.

— Hukmdorning so‘rovi buyruqdir. Mayli turayin, biroq boshingga yuk, oshingga sherik bo‘laman. Boshqa foydam tegmaydi. Mana, nimayiki bilsam, aytdim. Ilojim yo‘q...

U bir so‘zli odam edi. Qalandarni na Xorazmshoh va na Buxoro amiri saroyda olib qololgandi. Qariyaning ilhom manbayi, quvonchi, tashvishi fuqaro el bilan birga edi. Is’hoq boshqa gapirgani botinmadi. Chol mol-dunyodan, ot-ulovdan, shohona kiyim-kechakdan ko‘ra faqirlikni, rostgo‘ylikni, bag‘rikenglikni hamisha ustun qo‘yajagini yana bir marta isbotlab, ertalab xayrma’zur qildi.

Is’hoq:

— Bizni unutmang, hazratim, — deya oldi xolos.

* * *

O‘sha kuni Marg‘ilonda bozor kuni edi, qalandar rastalarni aylanib, Is’hoqning ismi zarb etilgan oltin tangalarni cho‘ntagidan olib beva-bechoralarga ulashardi.

Bu dunyoda ne g‘arib?
Yaydoq dala, bo‘z g‘arib.
Aytilmagan so‘z g‘arib,
O‘z tengdoshi qolmasa,
Yigit qolgay tez qarib.
Yangasi sirdosh bo‘lmagan
Qiz g‘aribdir, qiz g‘arib.

— Balli! Yashang, ota!

Qalandar bozordan chiqdi-da, darvoza yonida o‘tirgan gadoga Is’hoq sovg‘a qilgan do‘ppini kiydirib, choyxonaga kirdi va tamaddi qilib olgach, yo‘lga tushdi.

Bu dunyoda kim armonli?
To‘rtov tugal bo‘lmagan.
Nafsiz yotgan ko‘lda armon,
Oqqush kelib qo‘nmagan.
Shoh donishmand bo‘lmasa,
Xalq ovora, elda armon...

Qalandar oqshom chog‘i olisga safarga chiqqan qashqarlik karvonboshiga so‘nggi oltin tangasini hadya qildi-da, eshagiga minib, o‘z yo‘lida davom etdi...

V

O‘lkaning ichki siyosati bilan hech kimning ishi bo‘lmay qoldi. Negaki, bir yoqdan Xudoyor qurama askari bilan tez-tez hujum qilib, yaqin oradagi qishloqlarga xavf-xatar solib turardi. Bir yoqdan yarim podsho Namangan bilan Xo‘jandni qaytadan bosib oldi. Is’hoq shoshib qoldi. U qishloqlarga, shaharlarga elchilar yubordi, elchilar shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib, xalq bilan gaplashdi, yarim podsho bilan munosabatni yaxshilashni uqtirdi. Afsuski, fon Kaufman Is’hoqni xon sifatida tan olmadi. Qaytaga uni “daydi”, “o‘g‘ri” deb kamsitib, xurujni kuchaytirdi.

Fon Kaufman sobiq xonlarning huquqini ko‘tarib, Is’hoqqa qarshi to‘g‘ridan-to‘g‘ri rus askarlaridan foydalanishga qaror qildi. U yosh, qaysar general-mayor M. D. Skobelevni yetakchi qilib front ochdi. General Skobelev dastlab Vali bilan Baliqchi qishlog‘ining yonida to‘qnashdi va uning o‘n mingdan oshiq qo‘shinini tor-mor etib, Baliqchini egalladi. Ayniqsa Vali sarkorning taslim bo‘lishi Is’hoqni tahlikaga soldi.

Is’hoq Marg‘ilonga qaytdi. O‘ziga ishongan kishilarni bir kunda to‘plab kengashdi. G‘azovat haqida, ruslar nima uchun Xudoyor bilan Nasriddinni hamon qo‘llab-qo‘ltiqlayotgani, ularning mehribonligi yanglish ekani borasida so‘z yuritib, endi nima qilamiz, deb o‘z yaqinlariga murojaat qildi.

Maslahatgo‘y mulla Musa, parvonachi Umirbek dodxoh, udaychi Sulaymon, do‘sti Abdullabek, Beknazar botirlar hukmdorga qanday javob berishlarini bilmay qolishdi.

— To‘g‘ri, — dedi Beknazar, — Sari-O‘zan-Chuy tomondan kelgan do‘stlarimiz o‘rislarning shafqatli ekanligi to‘g‘risida aytishgan edi. Kim biladi, bu Toshkentdagi yarim podsho o‘ris emasmikin? Aytishlaricha, toshmehrroq millatdan emish.

— Qiziq, nega u bizni o‘z erkimizga qo‘ymaydi?

Nima haqi bor? Nega aralashadi? –dedi Abdullabekning g‘azabi qaynab. Ko‘pni ko‘rgan Umirbek dodxoh xo‘rsindi.

— Nima haqi bor deymiz. Chunki, kuchli! Azaldan kuchli odamning aytgani-aytgan bo‘ladi.

Kuchlini kuch to‘xtatadi.

To‘planganlar “Nima qilamiz?” degan savolga javob topisholmadi. Is’hoq so‘zladi:

— Biz haddan oshdikmi, noto‘g‘ri yo‘ldan yurdikmi? — deb so‘radi-yu, o‘zi javob qaytardi: — Yo‘q, biz iloji boricha o‘ris bilan aloqani mustahkamlashga, ular bilan urushmaslikka harakat qildik. Yoki yolg‘onmi?

— To‘g‘ri, mehnatimiz behuda ketdi, — dedi Abdullabek.

— Nima qilaylik? — dedi Is’hoq, — yarim podsho harakatimizni ko‘ra-bila turib, ko‘nmadi. Bizga nima qoldi? Bizga o‘z yerimiz, o‘z elimiz uchun o‘t kechib, suv kechib jang qilishimiz

qoldi. Boshqa qulayroq yo‘l bo‘lsa aytinglar, toki biz o‘sha yo‘lda azob chekmaylik...

— Boshqa yo‘l yo‘q, Is’hoq! — dedi barcha. — Qochib qaerga boramiz? Yana yalinib-yolborib nima topamiz?

Is’hoq kengashga yakun yasab:

— Bahodirlar, — deb buyruq qildi. — Qaysi birimizning otamiz taxtda tug‘ilib, taxtda o‘lgan? Bizga taxtdan ko‘ra kindik qonimiz to‘kilgan ona-yerimiz qimmat. Zotan shunday ekan, ahli donish og‘alar, beklar va sarkorlar, asl maqsadimizni oddiy xalqqa borib aytinglar.

— Bosh ustiga, shohim!

— Xo‘p bo‘ladi, hukmdor!

Is’hoq navkarlarining bu so‘zlaridan na quvondi, na qayg‘urdi. U o‘z xalqining ozodligi uchun kurashayotgan qo‘zg‘olonchilar boshida turganligidan ruhan bardam, baquvvat edi.

* * *

Arzim bor deb bir qora soqol kishi Is’hoqning oldiga kirdi. U so‘rashib cho‘kkaladi. Is’hoq qiziqsinib so‘radi:

— Hech kim yo‘q, aytaver. Andijondan qachon chiqding? Ishlar qalay?

Mehmon tamshanib oldi.

— O‘layotgan bo‘lsa-da, bizning xalq “yaxshiman” deydi.

Is’hoqning ko‘zlari chaqchaydi:

— Ish yomonmi? Ochig‘ini, rostini ayt...

— Sen ishongan beklaringni bergan tuzing uradigan bo‘ldi. Sening shon-shavkatingga shak keltirib, “qayoqdagi bir daydi, sayoq”, deb, o‘z yonlariga shubhali kishilarni to‘plashmoqda.

Is’hoqning quti o‘chdi

— Chamamda, Iskobil poshsho bilan yashirin aloqa o‘rnatmoqchi...

Is’hoqning har bir shahar va viloyatga qo‘ygan ishonchli ayg‘oqchilari bo‘lib, ular faqat hukmdoriing o‘ziga hisobot berib turishardi. Bunday quyma quloqlar Abdullabekni, Beknazar botir,

hatto xamirdan qil sug‘urganday ish bitiradigan Abdumo‘minbekning orqasida ham bor edi.

— To‘xta, to‘xta... — g‘azabdan Is’hoqning ovozi titradi. — Bu yog‘ini menga qo‘yib ber. Mingan oting durustmi? Yomon bo‘lsa, yaxshisiga almashtirib, Andijonga tez jo‘na.

Is’hoq shundan keyin qo‘li qaltirab: “Ushbu xatni ko‘rsatgan kishining barcha talabi zudlik bilan amalga oshirilsin!” deb arang yozdi-da, pastiga muhrini bosdi va qora soqolli kishiga berdi. Qora soqolli kishi yorliqni qo‘yniga solib iziga qaytdi.

Shu kuni kechqurun Is’hoq arkoni davlatni chaqirib, majlis qildi.

— Ha, Shomirza! Ha, Yormat! — deb Is’hoq ishongan do‘stlaridan xafa bo‘lib, fig‘oni falakka chiqardi. — Ularning terisini shilaman. Sotqinlar! Chaqimchilar!

O‘rda ahli hang-u mang. Nima gap?

— Mana! — dedi Is’hoq turmaklangan qog‘ozni o‘rtaga irg‘itib, o‘zi darcha oldiga ketdi.

Xat-savodli kishilardan biri qog‘ozni yozib, tutilib o‘qiy boshladi: “Hurmatli bek, bu issiq duoyi salomni birodarlaringiz Yormat va Shomirza dodxohlardan deb bilgaysiz. Hazratim, sizning qush tiliday nomangiz bizga yetib keldi. Ko‘p xursand bo‘ldik. Yolg‘iz Olloh quvvat bersin. Sizning uyingiz bizning uyimiz, sizning yo‘lingiz bizning yo‘limiz. Tezroq xabardor qiling, Iskobil poshsho yaqinlashib qoldi, ne maslahat bergaysiz?..” O‘tirganlar bir-biriga qarab qoldi. Is’hoq hamon darchaga qarab turardi.

— Ie, bu nima degan gap? — dedi birov. O‘tirganlar bosh chayqashib, shivirlashib qolishdi. Is’hoq yaqin keldi-da:

— Eshitdinglarmi, kuni kecha bir odam menga, “beklaring bu Is’hoq daydi, sayoq deyapti”, deb aytgandi. Men ko‘p o‘yladim. Ammo bu gapga ishonmovdim.

Bugun esa beklarning xati qo‘lga tushdi. Bu Abdurahmonning nomiga yozilgan maktub. Muhrini qaranglar.

Qog‘oz qo‘ldan-qo‘lga o‘tdi. “Xuddi o‘zi! Yormat” deb qo‘yibdi. G‘azabdan Beknazarning ko‘zi qonga to‘ldi, tili tutilib qoldi.

Is’hoq Bo‘ston urug‘idan bo‘lmish Amal degan eshik og‘asini elbegi etib, Beknazar botirni askar boshlig‘i qilib o‘sha kuni saralangan to‘rt ming qo‘shin bilan Andijonga jo‘natdi.

— Botir, sog‘ bo‘l. Andijon bizning beshigimiz, — dedi Is’hoq xayrlashayotib. — Qo‘ldan chiqib ketmasin. U yog‘ini o‘zing bilasan.

...Is’hoq tunda endi yotmoqchi bo‘lib turuvdi, tashqaridagi uydan shivir-shivir tovush eshitildi. Is’hoq birotar pistolni qo‘liga oldi. Tanish ovoz eshitilib, Mo‘min kirdi.

— Taqsir, otangiz...

Is’hoq ruxsat berdi. Eshikdan mulla Hasan ko‘rindi. Is’hoq qovog‘ini soldi. Otasi ham xafa edi.

— Keling, shu bemahalda nima qilib yuribsiz?

Mulla Hasan jahl bilan tez-tez gapirdi:

— Barcha dono kishilarni qirib, yalangoyoqlar bilan qolmoqchimisan?! Qora xalqning qo‘lidan nima keladi? Na puli, na moli bor?

— Xuddi o‘sha siz tarafini olayotganlar sotqinlik qilib davlatimizga raxna solmoqda.

— Bas qil! Bas qil, bolam! Shomirza dodxoh yaxshi odam. Yormat dodxoh din uchun jon kuydiryapti, Eshitdim, kimdir yomonlab kelibdi. Jallodlaringni yo‘ldan qaytar. O‘zingga yomon bo‘ladi.

— Qaydan bilasiz menga yomon bo‘lishini? Kim aytdi? Yo‘q, so‘zimdan qaytmayman. Ikkovi ham sotqin. Tuzim ko‘r qilsin. Ularga birgina jazo...

Mulla Hasanning avzoyi o‘zgardi, zardasi qaynab g‘o‘ldiradi:

— Payg‘ambarimizning ko‘k tug‘ini ko‘tarib, kofirlarga qarshi turadi, deb sendan quvongan edim. Abdurahmon oftobachi bilan Abdimo‘minbek obro‘sini to‘kkaningdan keyin sendan ixlosim qaytgan edi. Endi eldan ham, dindan ham chiqqaningga aniq ishondim.

— Yetar! — deb baqirdi Is’hoq. U o‘z otasidan bunday gapni kutmagandi. Ikkovi bir-biriga qaramay jim bo‘lib qoldi. Ota boladan, bola otadan behad norozi edi.

Is’hoq kaftini kaftiga urdi. Shu zahoti eshik og‘asi kirib ta’zim qildi.

— To‘xtang, ota, yuzboshi kelsin, nima qilay, mening maqsadimga tushunmadingiz. Kech bo‘lib qoldi, sizni kuzatib qo‘yishsin.

Mulla Hasan eski odatiga ko‘ra indamay, Is’hoqni ranjitib chiqib ketdi. Shundan keyin ota-bola yuz ko‘rishmadi...

Beknazar to‘rt ming sipohiy bilan Andijonga yaqin bir qishloqqa qo‘nib, oqilona ish tutdi, ikkala dodxohga: “Hurmatli Shomirza dodxoh ota, qadrli Yormat dodxoh og‘a, ushbu xushxabarni sizlarga xizmat qilguvchi Beknazar ukangizdan deb bilgaysizlar. Taqsir Olloyor Bahodir Is’hoqxon meni, men bilan to‘rt ming qo‘shinni sizlarning qaramog‘inglarga yubordilar. Shahardagi askarlarni tashqariga olib chiqib, birgalikda tomosha va ko‘ngil-xushlik qilishni tabarruk yorliqqa binoan lozim deb topdik”, deb maktub yozdirdi. Maktubga muhrni bosib, chopar orqali Andijonga jo‘natdi. Aysh-ishrat ustida o‘tirgan har ikki dodxohga bu taklif yoqdi. “To‘rt ming askar chakana emas”, degan ma’noda ular ko‘z urishtirib olishdi. Andijonning chetida ikki qo‘shin uchrashdi.

Beknazar Shomirza bilan Yormatni bandi qilib, “chaqimchi”, “sotqin ekan”ligini e’lon qildirdi, xalq boshqacha gumonga bormasligi uchun maxfiy yozishmani ko‘rsatib, hukmdorning farmonini o‘qittirdi. Qo‘shin ularni bir ovozdan o‘limga hukm etdi.

Is’hoqqa xabar yetkizgan qora soqol kishi o‘rtaga otilib chiqib, ikki sotqinni obdan kaltakladi, so‘ngra yigitlarga tepkilatdi.

Beknazar botir ikki qo‘shinni birlashtirib Andijonga kirdi.

Bir ming sakkiz yuz-u yetmish oltinchi yilning ikkinchi yanvarida general Skobelev Andijonni qamal qildi.

Shaharning bir tomonidan general Trotskiy, bir yog‘idan general Kuropatkin, bir yog‘idan baron Vitgenshteyn, baron Miller-Zakomelskiyni yoniga olib, general Skobelev o‘zi hujum boshladi. Kunchiqar tomondagi do‘nglik tarafdan general Golovachyovning o‘n olti zambarakdan iborat artilleriyasi ikki qanot qilib tizildi.

Yettinchi yanvar kuni erta bilan Andijonga dastlabki o‘q otildi. Barcha artilleriya kechgacha tinmadi.

Shahar dud-olov, chang-to‘zon ichida qoldi. Sarbozlar xitoycha zambaraklari bilan yerni to‘qmoqlaganday “Gurs!” “Gurs!” qildirib javob berishardi. O‘q mo‘ljalga borib yetmasdi. General Skobelev shaharni oyoqqa turg‘azganidan quvonib, durbin bilan Oqchaqmoq do‘ngligidan kuzatib turardi.

Kutilmaganda orqadan otliq isyonchilar hujum qilib qolishdi. Har ehtimolga qarshi bir tomonga polkovnik Mashin boshliq uch raketa, uch zambarakchilar birlashmasi ajratilgan edi. Tinimsiz o'q yomg'irlari otliqlarni tumtaraqay qildi.

Is'hoq o'zi bosh bo'lib, orqada joylashgan qo'shinni kuzatib, pistirma bilan tanishib, ko'prikdan o'tayotganda zambarak gumburladi. Ko'prik ham, otliq Is'hoq ham uchib suvga tushdi. Qo'sh ariqning suvi fontanday otildi. Anchadan keyin oq ot va Is'hoqning chakmoni ko'zga ilashdi.

Uni sudrab chiqishdi. Joni bor edi. O'qchib suv qusdi. Betinim zambarak otilib yer-u ko'kni larzaga solardi.

— Ot, otni tort, — der edi Is'hoq.

U o'rnidan turolmadi. Bir oyog'i singandi. Og'riq kuchidan ko'zidan o't chaqnadi. Navkarlar unga dalda berishib, etikni qo'njidan tilishdi, bir balolar qo'yib singan oyoqni bog'lashdi. Is'hoq yana turmoqchi bo'ldi:

— Otni olib kelinglar...

Boshqa ot keltirib, mingizishdi. Peshonasidan ter quyilardi. "Ko'za kunda emas, kunida sinadi deganlari shu ekan-da", dedi ichida. Ingramaslikka harakat qildi. U Oqchaqmoq do'ngligiga qarab alam bilan dedi:

— Attang, shu yerdan yopirilib tushgan bo'lardik. Hammang! Hammang! Do'ngga!

Saralangan otliqlar uch marta do'nglikka hujum qilib, uch marta tutday to'kildi. Xalq qasoskorlarining shashtini zambaraklardan otilgan o'qlargina qaytarardi. Is'hoqning oyog'i shishib ketdi. Ot yurgan sari zirqirab og'rirdi.

U kechqurun Asakaga keldi. O'sha tunda Oqchaqmoqdagi artilleriya tongga qadar tinmadi.

Ertasiga ertalab shaharga hujum boshlanib, general Skobelevning askarlari Andijon qopqasidan shaharga kirdi. Ko'cha-ko'ylarda, mahallalarda kurash keskin tus oldi. Nihoyat dushman Abdurahmon turgan darvozani yorib o'tdi. Abdurahmonning qo'shini bardosh berolmadi, u to'rt yuz sipohiysi bilan kutilmagan yerdan chiqib ketdi. Shahar aholisi, sarbozlar, sipohiylar qo'llariga nima to'g'ri kelsa olib, dushmanga qadam-baqadam qarshilik ko'rsatishdi.

Qosh qorayganda Beknazar jangni to‘xtatishga majbur bo‘ldi. U yigirma ming askaridan ajrab, qon va tutunga belangan Andijonni tashlab, Asakaga chekindi.

General Skobelev Andijon shahrini egalladi. Shaharga yuz ming tilla miqdorida kontributsiya soldi. Bundan tashqari askarlari uchun shahar aholisidan ko‘plab narsa yig‘dirib oldi.

Umumrossiya imperatori Aleksandr II o‘z askarlari Andijonni qo‘lga olganini eshitib, fon Kaufmanning ixtiyoriga yengilganlar hisobidan sakson sakkiz ming olti yuz-u o‘n bir so‘m ajratdi va: “Xudo berib, ekspeditsiyaning ishi bundan buyon bu qadar ko‘p qon to‘kmasdan hal qilinsa edi”, deb tabrikladi.

VI

Ko‘p o‘tmay, Andijondan sakkiz chaqirim olisdagi Indi qishlog‘ida Abdurahmon general Skobelev bilan uchrashib, ixtiyoriy ravishda taslim bo‘ldi.

Juda og‘ir mahalda Abdurahmonning taslim bo‘lishi Is’hoqni ezib yubordi. Yolg‘iz o‘zi ketsa mayliydi, uning orqasidan ergashib yigirma bek, ular ortidan esa son-sanoqsiz el ketdi. Qasoskor xalqning hafsalasi pir bo‘ldi.

Is’hoq endi nima qilishini bilmay qoldi. O‘zidan boshqa kimga tayanadi? Ko‘p savdolarni boshidan kechirgan xalqning yuragi zada bo‘lib qoldi. U qadimiy bir masalani esladi. “Kunlardan birida o‘rmonda bolta degan yov paydo bo‘libdi. Bolta ko‘ziga nima ko‘rinsa, bir chetdan chopar, yorar ekan. Ahvol tobora keskin tus olibdi. Qiyma-qiyma bo‘layotgan dov-daraxtlar qocha boshlabdi. Ittifoqo, ming yil turgan archa bundan xabar topib, daraxtlardan so‘rabdi: “O‘sha boltaning sopi nimadan ekan?” “Yog‘ochdan”, debdi qarag‘ay. “Ana, ko‘rdinglarmi, o‘zimizdan chiqqan yov ichida bo‘lmasa, sirimizni bilmagan yolg‘iz bolta nima ham qilardi?” deb javob qaytaribdi ko‘pni ko‘rgan archa!.. Darhaqiqat, sotqin o‘z ichimizdan chiqmasa, dushman hech narsa qilolmasdi”. Is’hoq xalq masalini fikran ana shunday sharhladi.

Is’hoq shoshilinch Marg‘ilonga otlandi. Shahar ahli izzat-ikrom bilan kutib oldi. Biroq Is’hoqning ko‘ngliga qil sig‘masdi, chiroq yoqsa ichi yorishmasdi.

Ko‘p o‘tmay general Skobelev Marg‘ilonga yurish qildi. Is’hoq shahardan ko‘ra ona yurtning keng maydonida dalada jang qilishni lozim topdi. U qirqdan oshiq xitoycha zambaraklarni sudratib, besh ming askari bilan Marg‘ilondan tashqariga chiqdi, Xo‘jamag‘iz mozorida to‘xtab kengash o‘tkazdi. Kengashda har xil fikr aytildi.

Abdullabek:

— Taqsir, barchamizga ayonki, shahar deb, o‘rda deb kurashadigan bo‘lsak, so‘nggi qo‘shinlardan ham ajraymiz. Menimcha, O‘sh tomonga chiqib, tog‘ oralab ketishimiz kerak. Xo‘sh, bu qanday natija beradi? Ozib-to‘zgan qo‘shinlarimiz dam oladi. Bir oz o‘zimizni tutib olgach, safimizni to‘ldirib, yangidan g‘azot boshlamaymizmi?

Is’hoqning qaynotasi Muzaffarsho:

— Inshoollo, bekning gapida jon bor. Biroq, O‘sh buva taraf, nariyog‘i Oloy, O‘zgan, Ko‘gart tog‘lari yaqin; o‘z elimiz, o‘z yurtimiz. Menimcha, Qorategin muzofoti durust. Negaki, bir vaqtlar u yer Qo‘qon xonligiga qarardi. Betavfiq ukam Raim bema’ni ish qildi. Bu hech narsa emas. Besh ming bahodir bilan Qoratеginni olib, qishni chiqaramiz va ol qulim desa, bekzoda aytganiday, yigirma besh ming qo‘shin bilan Farg‘onaga bostirib kirardik. Shunday qilganimiz ma’qul emasmikin?

Madamin inoq:

— Mayli, O‘sh buvadan nari tog‘ orqali ketaylik. Lekin, kechirasiz, Qo‘qonni tashlab Qorateginga ketish insofdan emas. O‘rda Qo‘qonda ekan, o‘sha yerdan turib dushmanga zarba bermoq lozimdir. Xuddi o‘sha joydan qonxo‘r Nasriddinga, yarim podshoga qarshi kurashamiz.

Is’hoq bu maslahatlardan qay biri ma’qulligini mulohaza qilardi. “Ulardan qay biri sotqin? Qaysisi? Abdullabekmi? Yo‘q, Qurbonjon dodxohning o‘g‘lidan gumon qilsam, unda nima degan odam bo‘laman?” Nigohi Muzaffarshoga tushdi: “U men bilan tirik”. Mo‘min sarkor bilan Beknazarga qaradi: “Yo‘q! Yo‘q! Ikkovi ikki ko‘zim”. Madamin inoqni o‘yladi: “Nega hovliqib gapirdi? Bir jihatdan qaraganda u haq. Sababi, xalq taqdiri qil ustida turganda o‘rdani tashlab qochish insofdanmi?” Is’hoq shaytonga hay

berdi. Lekin bari bir "Qaysisi sotqin ekan?" degan fikr miyasiga o'rnashib qoldi.

Is'hoq kengash oxirida shunday dedi:

— Inoq, to'g'ri aytdingiz, xalq taqdiriga beparvo qarab, tashlab ketish yaxshi emas. 0, karami keng, Tangri! Netaylik, boshqa chora yo'q, o'chakishsak, bekzoda aytganday, qo'shindan judo bo'lamiz.

Madamin inoq lavlagiday qizarib ketdi. Kimdir suhbatni bo'ldi:

— Qirq yil qirg'in bo'lsa, kuni bitgan, ajali yetgan o'ladi deyishadi. Bari Xudodan...

— Mayli, unda Qorateginga ketaylik, yaxshilar, — dedi Is'hoq.

Muzaffarsho hozirgina Qorategin qo'liga tekkanday ich-ichidan quvonib o'tirardi. Hech kim indamadi. Is'hoqning xayolidan "qaysinisi ekan-a?" degan o'y yana o'tdi.

Is'hoq Abdullabekni bosh qilib, o'ziga qarashli qo'shin bilan O'sh tomonga yo'l olishni buyurdi. Maqsad G'o'ljaga borib, butun qish davomida dam olib, hozirlik ko'rishdan iborat edi. Madamin inoq yetakchilik qilgan qo'qonliklar bo'ynidan bog'langanday, chor-nochor ko'nib, Is'hoq bilan birga jo'namoqchi bo'ldi.

— Xudo yor bo'lsin, Is'hoq! Bizdan tashvish qilma, bahorda xabarlashamiz, — deb Abdullabek Is'hoq bilan quchoqlashib xayrlashdi.

Is'hoq ikki mingga yaqin qo'shin bilan, uch yuz nortuyaga lash-lush, zambaraklarni yuklatib, Qorateginga yo'l oldi.

Is'hoqni yo'l-yo'lakay g'am bosdi. "Qorateginga jo'nab to'g'ri qildimmi? To'g'ri bo'lishi kerak. Qorateginliklarning bag'ri butun, urush ko'rgani yo'q. Unda nega O'shga Abdullabek bilan birga ketmadim? Yo'q! Abdullabekning o'zi yetadi. Qo'qonga borib o'rdaga o'tirib olsa-chi? Mutlaqo mumkin emas! Sababi, Xudoyor bilan Nasriddin shahar atrofida och qashqirday izg'ib yuribdi. Buning ustiga Iskobil podshoning zambaragiga o'rda devori bardosh beroladimi? — Is'hoqning yuragi shuv etdi, otning tizginini tortdi. — To'xta, Madamin nimani taklif qiluvdi?"

U yo'ldan chetga chiqib, Madaminni kutdi. Saralangan sarkorlar otdan tusha boshladi. Is'hoq indamadi. Boshqalar nima gap deb qiziqmadi. Madamin inoq xotirjam kelardi. Nihoyat u otdan tushdi.

— Hoy, sen! Tezroq bu yoqqa kel! — deb baqirdi. Madamin inoq to‘xtab qoldi. Nima deyishini bilmay tili kurmaladi. Is’hoq ishora qildi:

— Ol, Eshmat!

Uchinchi maslahatni u sotqinlik deb hisobladi. Madaminni yigirma yigiti bilan Is’hoqning oldiga olib kelib, yechintirishdi va ishtonchang qorga yotqizishdi.

— Inoq, — dedi Is’hoq otning yoliga yonboshlab, — Qo‘qonga olib bor deb kim maslahat beruvdi senga? Joningdan umiding bo‘lsa, to‘g‘risini ayt.

Madamin inoq sovuqdan titrab-qaqshasa-da, o‘limni afzal bilib, indamadi. Eshmat qorga bulab savaladi. Madamin inoq ingradi-yu, biroq churq etib og‘iz ochmadi.

— Bu nima?! — Is’hoq tintuv vaqtida kimningdir cho‘ntagidan topilgan, Abdurahmonning muhri bosilgan qog‘ozni ko‘rsatdi. — O‘qi! Kimning muhri?

Madamin inoq qon tupurib, yuzini teskari burdi. U o‘limni bo‘yniga olgandi.

— Mana, aytgan edim-ku! — dedi Is’hoq qoniqib.

Tezda yigirma kishining boshi tanasidan judo qilindi. Oppoq qor qizil rangga bo‘yaldi.

Qo‘shin bamaylixotir yo‘lga tushdi. Qor bo‘ralab yog‘a boshladi. U “Eshagiga yarasha tushovi” maqolining mag‘zini chaqib, qisqa davr ichida ro‘y bergan kajraftor falakning ishlarini eslab mung‘ayib borardi. Yo‘lda ularni Uchqo‘rg‘on eli kutib oldi. Is’hoq oldindan tayyorlab qo‘yilgan bekning issiq uyiga tushdi. U hali-hozir rasmana tuzalib ketmagan oyog‘ini avaylab, qo‘ltiqtayoq yordamida ostonadan o‘tib, egnidagi qorlarni qoqib, uyga kirdi. Bekning uyida boshqa odam yo‘q edi. Xonadon egasi yugurib-yelib xizmat qildi. Keyinroq sarkorlar kelishib, sandal atrofidan joy olishdi. Issiq choy ortidan ovqat keldi. Hamma tamaddi qildi. Yo‘l charchog‘i va issiq uy mehmonlarni lohas etdimi, ko‘pchilikning uyqusi kela boshladi. Ammo, dam olish to‘g‘risida Is’hoqqa aytishga botinolmadi.

— Taqsir endi dam olsin, — deb Mo‘min o‘tirganlarni og‘ir vaziyatdan qutqazdi.

— Mayli, mayli, — deyishdi sarkorlar bir ovozdan.

— Nazoratni kuchaytiringlar! Qo'shin dam olsin, sahar jo'naymiz, — dedi Is'hoq.

— Xo'p, taqsir.

— Xo'p, hukmdor.

— Xo'p bo'ladi.

Navkarlar, sarkorlar xayrlashib chiqib ketishdi.

— Beknazar aka, — dedi Is'hoq bir mahal, — endi kimga ishonamiz? Bir ko'zimiz ikkinchisiga yov bo'lib, qanday kunlarga qoldik?

— Xotirjam bo'l, Is'hoq! Xotirjam bo'l, — dedi Beknazar botir. — Men hozir yigitlardan bir xabar olib kelaman.

Beknazar qo'shinning to'rt tomoniga qorovul qo'yib, nazoratga qo'shimcha kishilarni chiqarib, qaytishida sarkorlar to'plangan uyga kirdi. Barra qo'zi so'yilib endi qozonga solingan ekan. Sarkorlar gur etib o'rnidan turib:

— Keling, botir og'a, — deyishdi.

Beknazar to'rdan joy oldi. O'tirganlarga bir-bir qaradi. Said Mavlonbek yo'q. "Aytganday, qishloq chetidagi kuzatuv bekatiga o'z iltimosi bilan qorovulboshi bo'lib ketgan edi. Kechikibroq kelarmikin?" deb o'zini tinchlantirdi.

Tunda. Mavlonbek sergak soqchilik qildi. Beknazar uch marta aylanib, uni o'z o'rnidan topdi.

— Sog' bo'l, Said, — dedi Beknazar so'nggi marta.

— Xotirjam bo'ling, botir, — deb javob qaytardi Said Mavlonbek.

Nimagadir Mavlonbek chetdagi kuzatuv bekatlarini qaytadan ko'zdan kechira boshladi. Tong yorishib borardi. Bir otliqning qorasi ko'rindi. Said Mavlonbek unga yaqinlasharkan:

— Kimsan? — dedi. Haligi otliq to'xtab:

— Said Mavlonbekman... — deb javob qaytardi.

Said Mavlonbek o'z nomini eshitib, uning oldiga borib nimanidir pichirlab gapirdi va tez orqaga qaytdi.

Said Mavlonbek shoshilib kuzatuv bekatlarini tekshirdi, uxlab yotgan qorovullarni atay uyg'otmadi. Uyg'oqlarini "picha isinib ol, men qarab turaman. Xudoga shukur, hammayoq tinch", deb birma-bir jo'natib yubordi. Beknazarning uyqusi kelmay yana bir

karra atrofni kuzatib kelardi. Nimadir shitir etdi. Oti pishqirib, qulog'ini chimirdi. Yuragi seskandi. Otlarning dupuri eshitilib, itlar huriy boshladi. Miltiqlar ishga tushdi.

— Yo, Ollo!..

Hamma narsa ko'z ochib yumguncha yuz berdi. Qo'shin oyoqqa turdi. Beknazar ot yoliga engashib, Is'hoq uxlayotgan uyga qarab chopdi. Is'hoq birinchi o'q tovushidan uyg'onib, boshiga qo'yib yotgan pistolni olib o'rnidan qo'zg'aldi.

— Hoy! Turinglar! Turinglar! — deb qichqirib, singan oyog'i ham esiga kelmay, pistoldan o'q uzib tashqariga intildi. Oyog'i mayishib devorga suyandi. Eshik to's-to'polon edi. Ikki tomondan teng otishardi.

— Panaga! Panaga qoch! — baqirardi Beknazar. — Chekin! Tog' tarafga! Toqqa!..

Beknazar otini yeldirib keldi-da, Is'hoqni yerdan azot ko'tarib otga mindirdi. Chavkar arg'umoq qamchi bosmasdanoq olg'a intildi. Otlar chang-to'zon ko'tarib quyunday borardi.

Sirasnni aytganda, Is'hoq Qorateginga yo'l olganida ishi o'ngidan kelardi. U Qorateginni qo'lga kiritardi, o'ziga kelib, nafasini rostlardi, odam to'plardi, qurollanardi, bahorda tog' seliday yopirilib hujum qilardi... Endi-chi? Iloji qancha? Abdurahmon qo'qonlik Madamin inoq, marg'ilonlik Said Mavlonbek orqali Is'hoqning yurish-turishi haqida ma'lumot olib turardi. Bu gal ham Abdurahmon Skobelevga shoshilinch xabar yetkazgan edi, u darrov Miller-Zakomelskiy boshchiligida otliq kazak polkini yubordi, Nasriddin bilan Abdurahmonning askarlarini boshlovchi yordamchi kuch sifatida qo'shib jo'natdi. Polkovnik baron Miller-Zakomelskiy Andijondan chiqqach, hech yerda to'xtamay, tun-u kun yo'l bosib, tong yorishganda Is'hoq qo'shinini o'rab olib hujum qildi. Oqibatda Is'hoq qo'shini, bir yuz-u yigirma tuyaga ortilgan zambaragi va yuki dushmanga o'lja bo'ldi.

Is'hoqning yigitlari choshgoh Isfayram darasida to'planishdi. Bor-yo'g'i o'ttizga yaqin yigit qolibdi. Is'hoq o'kinch, alamdan o'zini qo'ygani joy topolmasdi.

— Ablah, Said Mavlonbekning ishi, — dedi Beknazar. — Kuzatuv bekatlariga o'z odamlarini qo'yib, bizni g'aflatda qoldirdi, bu zang'ar.

Is'hoq chuqur nafas oldi:

— E, botir og'am, nimasini aytasiz? Men endi kim nima desa ishonaman. Sizni sotqin desalar ham ishonaman... Chunki donishmandlar behuda:

Qoramug'[1] ning doni bo'lguncha,
Oq bug'doyning somoni bo'l!
Yomon elning yaxshisi bo'lguncha,
Yaxshi elning yomoni bo'l!..

deyishmagan. Bu bayt biz haqimizda to'qilganga o'xshaydi, Beknazar botir.

Ko'p to'xtab turish mumkin emasdi. Orqadan quvib kelayotganlar yetib kelishi mumkin edi. Ular Isfayram suvini yoqalab ketishdi, hech yerda to'xtashmadi. Qish hamon qahridan tushmasdi. Muzaffarshoning yo'l azobini ko'rmagan erka qizi otda yurolmay qiynalardi. Boshda u tuya ustiga o'rnatilgan ayvonli ko'shkda kelayotgandi. Endi unga bunday sharoit qayda? Burni ko'karib, sovuqdan dildirab:

— Is'hoq aka... — deb ho'ng-ho'ng yig'lardi — Meni o'ldirib keting, jon aka-a...

Muzaffarsho bo'g'ilib, qiziga tojikchalab nimadir dedi. Urishdi shekilli, qiz battar yig'ladi.

Is'hoq indamadi. "Bu tantiq, o'yin-kulgidan boshqa ishga yaramaydi", deb ichida xafa bo'lib borardi.

Chauvay g'origa kelib to'xtashdi. Endi otdan tushayotganida Is'hoq orqaga qarab, birovni zambilda ko'tarib kelishayotganini ko'rdi-da: "Birov nobud bo'libdi?" degan qayg'uli fikr xayolidan o'tdi.

— Malikam... — dedi Beknazar. Is'hoq boshini chayqab:

— Obbo sortning qizi-yey, — deb qo'ydi. Uni Beknazar otdan ko'tarib oldi.

O'sha kuni otning birini so'yib, ovqat qilishdi. Ertasiga ertalab yo'lga tushishdi, chillada dovon oshib, Darautqo'rg'onga kelishdi, ular bu yerda nafas rostlab, askar to'plashdi, so'ng uch yuzdan oshiq kishi ot jilovini Qorateginga burishdi.

[1] **Qoramug'** — javdar doni

Akasi Muzaffarshoning kuyovi Is'hoq bilan birga kelayotganini eshitgan Raimsho ularning yaxshilik bilan kelmayotganiga aqli yetib, saralangan mingta sipohiysi bilan pistirmada kutdi. Ozib-to'zib borgan qochoqlarni Raimsho qilich bilan kutib oldi. Olisdan qilich o'ynatib, o'q yog'dirib chiqqan kishilarni ko'rgan Is'hoq Qorategindan boshpana topilishiga ko'zi yetmay, orqaga qaytishga buyruq berdi.

Is'hoq yana Darautqo'rg'onga qaytib keldi. Qasoskorlarning sillasi tamoman qurigandi. Sheryurak, tolmas bilak yigitlarning ha degani holi qolmagandi. Hech birining xayoliga endi nima qilamiz, degan fikr kelmasdi.

Bir kuni Darautqo'rg'onga uzuq-yuluq xabar keldi. Abdullabek yarim podsho askarlarini G'o'ljaga kiritmayotganmish. Farg'ona atrofida qolgan-qutgan askarlar xalq bilan birgalikda ozmi-ko'pmi to'qnashib turgan emish. Is'hoqning umidi yana alanga oldi. Qoni qaynab, o'rnidan turdi.

— Qani, bunga nima deysizlar? El kurashni davom ettirayotganmish-ku?!

— Boramiz! — deyishdi bir ovozdan. — Qachongacha qochib yuramiz?

— Siz, Beknazar aka, — dedi Is'hoq, — So'fiqo'rg'on orqali G'uljaga boring. Dodxoh oyim onamizga uchrab, bor gapni yashirmay ayting, dodxoh ahvolimizga yarasha yo'l ko'rsatar. Biz bu tomondan Farg'ona bilan aloqa bog'lashga harakat qilamiz. Keyinroq o'zingiz xabar qiling.

Beknazar indamay rozi bo'ldi. Xayrlashuv chog'ida Is'hoq o'rnidan qo'zg'alarkan, Mo'min uni suyab turg'izdi. U Beknazarga qarab:

— Qani, — deb quchoq yozdi.

— Xayr, qadrdon inim, tayanchim...

— Xayr, ona yurtning burguti, — dedi Is'hoq uni bag'ridan chiqarmay. — Biz o'zimizni-o'zimiz aldamasligimiz kerak. Eson-omon uchrashsak, quvonchimiz cheksiz, uchrashmay qolsak, imonimiz salomat bo'lsin. Men sizdan u dunyo-yu bu dunyo roziman. Yo bilib, yo bilmay, goho bevafo davlat soyasida hovliqib qattiq-quruq gapirgan bo'lsam kechiring...

— E, qadrli inim, — dedi Beknazar, — kechirguday nimam bor? Senday pahlavon yigig bilan birga kechgan umrimga aslo o'kinmayman. Boshimda dubulg'a, qo'limda qilich, men ham bilib-bilmay buyrug'ingni ikki qilgan bo'lsam, sen ham kechir...

Is'hoq boshqa so'z aytolmay qo'ltiqtayoqqa suyanib qoldi. Beknazar ruhan so'nik, qo'sh qanoti qayrilgan Is'hoqqa ko'zi tusharkan, o'zini sira tutolmadi. Tez burilib, otga mindi. Orqasidan chiqqan Mo'minga qaramay:

— Ehtiyot qilinglar, ehtiyot... — deb ko'z yoshini ko'rsatmaslik uchun arg'umoqni yo'rttirib ketdi.

VII

Isyonchilar ildizini bir yo'la qirqib tashlash maqsadida general Skobelevning buyrug'iga binoan "Zimnaya ekspeditsiya" deb nomlangan komanda qoshida jazolovchilar otryadi tuzildi. Bu son jihatdan otryad emas, balki o'sha zamon qurollari bilan to'liq ta'minlangan butun bir qism edi. Unga bir oz yigiti bilan Nasriddin ham ko'makchi bo'lib kirdi.

Qor ikki kun bo'ralab yog'ib, endigina tingan edi. Go'zal Farg'ona vodiysi oq harir ko'ylak kiygan kelinchakka o'xshardi. Havo muzdek. Otryad oppoq qorda qora ilonday chuvalanib kelardi. Ularni Nayman qishlog'ining aholisi qo'llarini ko'ksiga qo'yib kutib oldi. Xolis niyat belgisi sifatida hamma oq belbog' bog'lab olibdi.

General Skobelev Nasriddin bilan yonma-yon turib to'plangan xaloyiqni ko'zdan kechirdi. Alamzada Nasriddin zoriqib "qir" degan buyruqnigina kutardi. Soqoli ko'ksiga tushgan oqsoqol qorga tiz cho'karkan, ta'zim qilib:

— Rahm qilinglar, odamzotning farzandlari, — dedi. Tilmoch tarjima qildi. General mazax qilib kuldi. Chol o'sha holatda javob kutardi.

— A-ga! — dedi Skobelev. — Nima? Urushib bo'ldinglarmi?

— Kesatyapti, — deb tilmoch tarjima qildi.

— Quruq yerdan o‘t chiqmaydi. Nima qilaylik, hayot taqozosi ekan. Mana, tiz bukib, kechirim so‘rayapmiz. Qishloqda chol-u kampir va yosh bolalardan boshqa odam qolmagan. Egilgan boshni qilich kesmaydi, — dedi oqsoqol.

— Nima? — deb baqirdi Nasriddin. U Skobelevning tek turganini ko‘rib, shashtidan tushdi. Tilmoch cholning gapini generalga asta tushuntirdi.

— Buzuqilarni kechirish yo‘q, qirib tashlanglar, — deb buyurdi general Skobelev.

Bir yoqdan soldatlar, bir yoqdan Nasriddinning yigitlari xaloyiqni o‘rtaga oldi. Odamlar o‘zini har tomonga ura boshladi. Shunda haligi oqsoqol hamqishloqlarini insofga chaqirdi.

— Foydasi yo‘q. Jon talashmanglar!

Barcha jim bo‘ldi.

Nasriddin birinchi bo‘lib qilichini sug‘urdi. Hash-pash deguncha qor qonga bo‘yaldi... Navbat soqoli ko‘ksiga tushgan oqsoqolga keldi.

— Unga tegma! -dedi general Skobelev. — Men uni bu yerda tirik qoldiraman. Eng yaxshi jazo shu...

Qishloq to‘rt tomondan qurshalib, xotinlarning nolishi, go‘daklarning yig‘isi hammayoqni tutdi. Zo‘ravonlar qo‘llariga nima ilashsa olishdi. Qosh qorayganda uylar huvillab qoldi, itlar uli tortib, g‘ingshib izg‘ishga tushdi.

Eng oxirida general Skobelev qishloqqa birorta tirik jon qolmasligini, uylarga, molxonalarga o‘t qo‘yishni buyurdi. Qishloqda na it qoldi, na yong‘indan qochib daraxtga tirmashgan mushuk qoldi.

Jazolovchilar otryadi o‘ljani yuklab, molni haydab yo‘lga tushdi. Qishloqdan burqsigan kuyundi va qon hidi-yu bir chekkada oppoq soqolidan qon aralash yosh sizayotgan yolg‘iz chol qoldi.

Nayman qishlog‘ida yuz bergan voqeadan boshqa qishloqlardagilar xabar topgani uchunmi, odamlar qishning qirovli kunlariga qaramay uy-joyi, mol-holini tashlab, boshlarini olib qor bosgan tog‘larga qochib ketgandi. Jazo otryadi huvillab qolgan qishloqlarga kirib borardi.

Otryad Mossi qishlog‘iga kirib keldi.

Bir uydan uch bola chiqib otryadni ko‘rdi-da, tirqirab adir tomonga qochdi. Xonadonda birgina ayol bor ekan. Yo bemor, yo u boshqalar bilan ketishga ulgurmagan. U o‘zicha hadeb:

— Ketdi! Ketdi! — deb bolalar ortidan chopdi. Jazolovchilardan biri ot qo‘ydi. Ayol yalinib jilovga osildi. Nasriddinning bir yigiti haligi xotinni qilich bilan chopdi. Ayol yuztuban yiqildi. Ot unga qoqilib o‘tdi.

— Ot! Ot! — dedi Nasriddin.

Jazolovchi bolalar ketidan quvib borardi. Ikki o‘smir yetkazmay do‘ngdan o‘tib ketdi. Ularning orqasidan uvvos solib borayotgan yosh bola qorga botib qolar va yana chiqib oldinga intilar edi. Oxiri tinkasi qurib, bola qorga yiqildi. Otliq yerga tushib:

— Tur! Musulmonning urug‘i, — deb mushukning bolasiday yelkasidan ko‘tardi. Bola suvga cho‘kib borayotganday:

— Oyim! Oyim! — deb entikardi.

Jazolovchi qah-qah urib kulayotganida bola uning qo‘lini tishlab oldi.

— Ux!.. — so‘kindi.

— Ey! Krivonosov! Ey... — deb orqasidan kimdir qichqirib chopib kelardi. Krivonosov chaqirgan kishi sharqshunos ekanligini ko‘rib, o‘zini tiydi. Qonxo‘r Nasriddin: “Yor! Boshini tarvuzday yorib tashla”, deb po‘pisa qilardi. Sharqshunos yetib kelib:

— Ey, bu nima ahmoqchilik? Krivonosov? Yosh bolalarni quvib...

Nima bo‘lsa-da, sharqshunos o‘qimishli, hurmatli odam bo‘lgani uchun jazolovchi bolani qo‘yib yubordi.

— Hurmatli... Axir yo‘q qilishimiz kerak-ku?!

— Qayt! — dedi sharqshunos qat’iy buyruq berib. — Yo‘q qilish kerak emish! Botirligini qarang?!

— Ha, mayli, — deb Krivonosov, go‘yo silovsini qo‘ldan chiqqanday bolaga bir qarab qo‘yib otiga mindi.

Nasriddin sharqshunos bilan g‘ijillashib qolgan Krivonosovni ko‘rib: “Bu chulchutlarga nima bo‘ldi?” — deb ularning orqasidan ergashdi.

Mossi qishlog‘i ham ortda qoldi.

Otryad tog‘ etagidagi besh xonadondan iborat bo‘z o‘tovli, toshqo‘ra va bostirmali qishlovga keldi. Xonadonlar yo eshitma-

gan, yo qocholmay qolgan, yo boshqa biron sabab bilanmi, har qalay qishlovdagilar shu yerda edi. Bir yigitning belida osilib turgan pichoqni ko'rgan unter-ofitser:

— Nu-u! Bu yoqqa! Sudrab kelinglar! — dedi.

Darrov yigitning qo'lini orqasiga bog'lashdi. Birpasda qishloqni dod-voy bosdi. Yigitning ota-onasi uvvos solib yig'lashdi.

General Skobelev qashqir terisidan ichik kiygan bo'lsa-da, ot ustida sovuq yedi. Tarjimonning iltimosiga ko'ra bir uyga kirib, nafas rostlamoqchi bo'ldi. General namat to'shalgan, o'rtadagi uch oyoqli temir chambarak ostida tezak tutab turgan o'tovga kirdi U atrofga ko'z yugurtirdi, olov yonida burni oqqan bir bola o'tirardi. General boladan jirkanib teskari qaradi. Tilmochning gapi bilan kimdir kirib, bolani sudrab eshikka olib chiqdi. O'tin tashlanib, olov balandlatildi. Skobelev egarga o'tirib, qo'lini o'tga toblardi.

Eshikdan unter-ofitser, ketidan og'zi qulog'ida Nasriddin kirib keldi. Unter-ofitser:

— Hazrati oliylari, yarog'i bor qora qirg'iz qo'lga tushdi... — dedi. General ularga qaramay:

— Jazosini beringlar, — dedi.

Sharqshunos qurolga qiziqib, uni qinidan sug'urib qaradi. Oddiy pichoq.

— Mixail Dmitrievich, — dedi sharqshunos, — bu tirikchilik uchun ishlatiladigan jo'n pichoq. Uni yarog' deyish kulgili-ku.

General o'z so'zini qaytib olishdan or qildimi, har qalay:

— Baribir kesadigan narsa-ku, — deb qo'ydi. Sharqshunos Nasriddinga yeb yuborgudek tikilib jerkib berdi:

— Uyalmaysanmi? Xuddi zambarak topganday hovliqasan-a?

Nasriddin uyalish u yoqda tursin, qaytaga:

— Yo'q, hazratlari, bunda odam o'ldirsa bo'ladi, — dedi. Sharqshunos, "Satqayi odam ket-ye", deganday undan jirkandi. Unter-ofitser bilan Nasriddin yigitni jazolash uchun chiqib ketdi. Sharqshunos chiday olmay isinib o'tirgan generalga so'z qotdi:

— Mixail Dmitrievich, qurolsiz odamlarni qirish, yosh bolalarni quvib yurib otish tarbiyali, sivilizatsiya ko'rgan odamning ishi emas-ku?

— Rahmdil odamsiz, Ivan Vasilevich, bu menga tushunarli, — dedi general loqaydlik bilan. — Mehr-oqibat yaxshi fazilat. Biroq, urush — urush-da.

— Barcha sivilizatsiyalashgan xalq oldida sharmisor bo'lamiz. Yosh bolani silovsinday quvib otish nima degan gap? Yo'q, kazak Krivonosov javobgarlikka tortilsin. Shunday qilmasak, Mixail Dmitrievich...

— Nima demoqchisiz o'zi, Ivan Vasilevich, Rossiyaga bosh egishni xohlamagan bir yovvoyi osiyolikning jazosini bergani uchunmi? Kazak krest taqishga arziydi, Ivan Vasilevich. Siz shunga rozimisiz?

— Rozi emasman. Mahalliy xalq nima deydi? Bizni erta-yu kech kuzatib turgan Yevropa nima deydi?

Generalning ko'k munchoqday yaltirab turgan ko'zlaridan uchqun chaqnadi.

— Kimning nima deyishi.. bilan bizning ishimiz yo'q, Ivan Vasilevich. Rossiya tatar-mo'g'ullarning istilosidan ozmuncha jabr chekdimi? Endilikda o'sha majruh Rossiya buyuk mamlakatlardan biriga aylandi. Siz bilimdon odamsiz. Hozir Yevropada Rossiya bilan tenglashadigan faqat qartaygan Viktoriya imperiyasigina qoldi. Demak, Rossiya imperiyasining kelajagi porloq. Siz bilan biz, muhtaram Ivan Vasilevich, Turkistonni egallagandan keyin Afg'onistonni Angliyadan oldinroq zabt etib, Pomirga chiqib olsak, buyuk mamlakatimizning ta'sir kuchi butun dunyoda bir necha yuz yil davom etadi, Rossiya oldida ikkovimizning burchimiz ana shunday yuksak! — General Skobelev rohatlanib kuldi. — Siz bo'lsa, arzimagan ishlar bilan ovorasiz.

Sharqshunosning qovog'i ochilmadi.

— Turkiston Osiyodagi sivilizatsiyalashgan xalqlarning beshigi. Hozir bo'lsa diniy va tarixiy shart-sharoitlarning salbiy ta'siri ostida bu o'lkada odamlarning dunyoqarashi bir oz orqada qoldi. Chingizxondan keyin hech kim ichkariga ot bostirib kirmadi. Temirlangdan so'ng biror kishi tashqariga ot surib chiqmadi. Oqibatda mamlakat o'z qobig'iga o'ralib qoldi. Endilikda ana shu xalq boshqa xalq bilan yaxshi muomalada bo'lishi zarur. Boshqacha sivilizatsiya, boshqacha tartib, hayotga boshqacha muomala,

boshqacha kurash bu xalq ko‘zini ochadi. Qo‘shilgan boshqa xalqning yaxshi urf-odatlarini o‘zlashtiradi, unga ham nafi tegadi. Shundagina el va yurt yangilanadi, turmush o‘zgaradi. Ana shu orqali Rossiya siz aytganday, haligi kelajagini shu xalq bilan birgalikda mustahkamlaydi. Mana, Mixail Dmitrievich, men bilgan Rossiyaning tarixiy missiyasi...

Generalning mo‘ylovi tikrayib, jim bo‘lib qoldi. Sharqshunos davom etdi:

— Rost, qon to‘kmay urush bo‘lmaydi. Ammo begunoh ayollar va yosh bolalarni qirish aqlga sig‘maydi, bu vahshiylikdir. Biz Yevropa sivilizatsiyasining vakili sifatida, aqli raso rus sifatida yaxshi muomala bilan ish bitirishimiz kerak. Albatta Krivonosov singari yirtqichlik bilan emas.

General Skobelev duduqlanib, qo‘l siltadi:

— Bu gaplaringizni, qadrli olim, Sankt-Peterburg qahvaxonalaridagi aynigan davralarda so‘zlang. O‘sha yerda og‘zi ko‘pirguncha talashib-tortishadiganlar, yoqlovchilar topiladi. Yoki Rossiyaning tashqi dushmanlariga...

— Men ketaman! — dedi sharqshunos. — Vahshiylikka sherik bo‘lgim kelmaydi. Biz bir-birimizni tushunmas ekanmiz.

— Xohlagan ishni qilish, ko‘ngil tusagan joyga ketish ikkovimizga yarashmaydi. Biz Umumrossiya imperatorining oldingi frontdagi askari ekanligimizni unutmang!.. Ha, aytganday, siz, shtabs-kapitan, bugungi jang qahramoni kazak Krivonosovga barcha otryad oldida mening rahmatnomamni aytib imperator nomidan krest taqib qo‘yasiz. Eshitdingizmi?..

Bu, yuragi pok, chinakam demokrat olimga jazo edi.

Tashqarida soldatlar, Nasriddinning yigitlari xaligi yigitni shampol, qamchi bilan savalashardi. Oppoq sochlari to‘zigan kampir yigit atrofida chirillab, dod solib parvona bo‘lardi.

— Aylanayin qulunim, ko‘zimning oq-qorasi...

— Oyijon! Oyi, menga qaramang. Oyimni olib ketinglar, — dedi yigit nihoyat ingrab. Oppoq soqoliga duv-duv yosh quyilayotgan chol “qo‘y” deganday kampirga ishora qildi. Yigit hushidan ketdi. Soldatlar uni sudrab borib, tol butog‘iga osishdi. Yigit so‘nggi marta chiranib jon berdi. Unter-ofitser kulib, osilgan yigitning

ishtonini qilich bilan sidirib oyog‘iga tushirib qo‘ydi... Soldatlar, sarbozlar qotib-qotib kulishdi. Qashqirlar o‘rtasiga kirib qolgan qo‘ziday titrab turgan qishloq aholisi yuzlarini berkitib olishdi.

— Ko‘rib qo‘yinglar! Bizga, ulug‘ oq podshoga kim qo‘l ko‘tarsa, shunday bo‘ladi. Ko‘rib qo‘yinglar... — deb qichqirardi Nasriddin.

Soldatlar to‘planganlarni do‘q-po‘pisa bilan tarqatdi.

General Skobelev bir oz isinib, picha aroq ichib, ovqatlangach, tashqariga chiqdi. Hovli o‘rtasida yuz berayotgan voqeani ko‘rib, boshqa yoqqa shartta burilib ketdi. Nazarida sharqshunosning ko‘zlari unga tikilib turardi. U boshqa qabihlikka o‘tmadi. Sharqshunosning gapi ta’sir qildimi yoki o‘zining odamshavandaligini ko‘rsatib qo‘ymoqchi bo‘ldimi, u har qalay qishlovni o‘z holiga qo‘yib, jo‘nab ketdi.

Yo‘l-yo‘lakay uni sharqshunos olim bilan bo‘lgan tortishuv xayolga toldirdi. Kazak Krivonosov sha’niga aytilgan gap uning o‘ziga tegdi. Kechqurun esa dam olish vaqtida poytaxtdagi sirdosh do‘sti, “Sankt-Peterburgskie vedomosti” gazetasining redaktori Marvingga maktub yozdi: “...Do‘stim Marving! Bu yoqdagi ishlar shunaqa. Biroq buni sen gazetangda chiqarmagin, men jahon ligasi ko‘ziga yovvoyi yirtqich bo‘lib qolmayin. Mening prinsipim shu — Osiyodagi to‘polonni bostirish, bu yerdagi xalqning qirilishiga bog‘liq. Zarba qanchalik kuchli bo‘lsa, dushman shunchalik tez bosiladi”. General o‘zini-o‘zi oqlamoqchi bo‘lib, fikrini aniq, oshkora yozgandi.

VIII

Chauvayga qaytib kelishganiga bir hafta bo‘ldi. Kelgan kuni-yoq Mo‘min vodiy tomonga tushib ketgan edi. Suvga cho‘kib ketganday daragi yo‘q.

Is’hoq g‘or to‘rida, ostiga qamish to‘shab, issiq choponini yopinib, xandonpista ildizidan tushgan cho‘qqa toblanib o‘tirardi. Yigitlari otib kelgan o‘ljalarini olovda kabob qilishardi. Mo‘min nega bedarak ketdi? Beknazar-chi? Ularga nima bo‘ldi? Is’hoq ko‘zini ochmay, mudrayotganday ana shularni o‘ylardi.

Mirzaqul yuzboshi kirdi. Gulxan atrofida o‘tirgan yigitlar o‘rinlaridan turishdi.

— Hech xabar bormi? — dedi Is’hoq boshini ko‘tarib. Mirzaqulning kayfiyatidan zerikkanligi aniq ko‘rinib turardi.

— Yo‘q... — deb sovqotgan qo‘lini ishqalab olovga tutdi.

— Meni Qorovultepaga olib boringlar...

— Shunday sovuqda, — dedi Mirzaqul, — Qorovultepada nima bor?

Is’hoq indamay yerga tayanib, o‘rnidan turmoqchi bo‘ldi. Yigitlar suyashdi. Uni zambilda ko‘tarib, asta olib borishdi.

Qorovultepa nomiga yarasha ekan. Hammayoq kaftdek ko‘zga tashlanardi. Bu yer ancha baland bo‘lib, bu yog‘i Farg‘ona vodiysi, nariyog‘i O‘sh vodiysi aniq ko‘rinib turardi.

Old tomonda qorga burkangan Chotqol tizma tog‘lari qad ko‘tarib, etagida Toshkent yastanib yotardi, bosh tarafi Susamir, undan nari o‘ngda To‘g‘izto‘ra, O‘zgan, Oloyquv, Oloy tog‘lari tutashib ketgandi. Chapda esa Ulug‘tog‘ ulanib, Qirg‘iz ota, Oltinbeshikka tutashgandi, bir uchi Sariqtog‘lariga taqalgandi, bir uchi Xo‘jkandni qurshab tugagan edi. Har ikki tizma tog‘larning tugagan joyi go‘zal Farg‘onaning tosh darvozasiga o‘xshab ketadi...

Osmon beg‘ubor. Havo sovuq. Yigitlar sovuq kuchidan nariberi yurishardi. Nihoyat ulardan biri:

— Taqsir, sovuq o‘tib qolmasin, — deb o‘zlarining ham chiday olmayotganliklarini aytdi. Is’hoq indamadi. Yigit kuf-kuflab, yer tepinib, javob kutib turdi.

— Botir, sizlar g‘orga boraveringlar. Men bir oz o‘tiray-chi...

— Mayib oyog‘ingizga zarar yetmasmikin?

— E, achinadigan oyoq qoldimi? O‘zinglarni ehtiyot qilinglar, birpasdan keyin olib ketarsizlar...

Yigitlar g‘orga tushib ketishdi. Is’hoq shavq bilan vodiyga tikildi. Go‘zal Farg‘ona. Sirdaryo bilan Qoradaryo bu tengi yo‘q vodiyning qon tomirlari. Tuprog‘i oltin, suvi kumush bu diyorning qaeriga nima eksang ko‘karadi. So‘lim bog‘lari jannatga bergusiz, ming xil meva yetishadi. Ota bag‘riday keng, onaday mehribon, saxiy o‘lka.

Ulug‘tog‘ bag‘ridan burgut aylanib chiqdi. Is’hoq qiziqib qaradi, yo‘lbarsga chang solgan qush tosh ustida o‘tirgan yolg‘iz odamni ko‘rdimi, haytovur bir-ikki aylanib Is’hoqning yonidagi qoyaga qo‘ndi, o‘qtin-o‘qtin tikilib, talpinib, tumshug‘ini shaqillatdi. Qahramonlikning ramzi bo‘lmish burgutning tumshug‘ini shaqillatishi unga: “Kel, pahlavon, men bilan olislarga, qabihlik, ifloslikdardan xoli bo‘lgan yerlarga uch”, deganday bo‘ldi. Yana “shaq” etkazib qanot rostlashi esa xayrlashgandek tuyuldi. Is’hoqning chehrasida paydo bo‘lgan tabassum o‘rnini g‘amginlik egallab, qirov bosgan kipriklarini qoqmay xayolga toldi...

...To‘rt yigit qaytib keldi, Is’hoq ulardan:

— Hech xabar bormi? — deb so‘radi.

— Keldi, taqsir.

— Boraylik...

Yigitlar Is’hoqni zambilga solib olib kelishdi. Ularning rangidan ahvol yaxshi emasligi ko‘rinib turardi. Odamlar g‘or oldida uymalashgandi. Otlar egarlanib, qamchilar egar qoshiga osilgandi. Narigi yoqda kimdir so‘kindi. Is’hoq ovozidan Mo‘min ekanligini tanidi. Uni ko‘rib turganlar o‘z o‘rnida qotib qoldi.

Bir burchakdan Mirzaqul yuzboshi qo‘lida birotar pistol bilan, ikkinchi burchakda esa dudama qilich ushlab Mo‘min sarkor turardi. G‘azabdan har ikkisining ham chakka tomirlari bo‘rtib ko‘karib ketgandi, ko‘zlari qinidan chiqay derdi. Is’hoq ularning bir-biriga xezlanib turganini ko‘rib hayron bo‘ldi.

Mo‘min;

— Sotqin! Ot! Nega qarab turibsan? — dedi. Uning sarg‘ish ko‘zlari sakrashga shaylangan yo‘lbarsnikiday yonardi. Mirzaqul ham pistol tepkisini bosishga tayyor edi. Ular Is’hoqni ko‘rishsa ham pinaklarini buzishmadi. Yigitlar ularning o‘rtasini yorib o‘tib, zambilni to‘rga qo‘yishdi.

— Sizlarga nima bo‘ldi? — dedi Is’hoq ma’yuslik bilan.

— Bu itni ko‘rmaysanmi? — dedi Mo‘min, — o‘ziga yoqmagan yigitlarni bog‘latib tashlabdi. Eshikdan kirishim bilan bu sotqin menga daf qilyapti. Seni bosh qilarmish-u, barimizni bog‘latib, otga ortib borib Iskobil poshshodan mukofot olarmish...

Is'hoq nima deyishini bilmay qoldi. Yigitlarning qovog'i soliq edi. Mirzaqulning yuzi shuvut, niyati qora bo'lgani uchun qarashga botinmasdi.

— Qachon kelding, Mo'min?

— Kelganim qursin!.. — dedi Mo'min. — Nimasini aytay, ahvol tang. Vabo tekkanday qadam bossang, o'likka qoqilasan, hamma yerga o't qo'yilgan. Iskobil poshsho bilan Nasriddin bizni izlashayotganmish. Sho'rlik xalqni qiyratib, bor-yo'g'ini talab, tinkasini quritayotganmish.

Is'hoq sovuq yeganday titrab ketdi.

— Shundaymi? Izlagani biz bo'lsak, bizning tirik yurganimiz el boshiga jafo ekan-da?..

To'g'riligini hamma bo'yniga olganday, hech kim churq etmadi.

— Qonga bo'yalgan ko'ylagimizni xalq ko'rmaguncha umidini uzmaydi, dushman o'chi tugamaydi, ko'ngli joyiga tushmaydi, — dedi Is'hoq. — Tashla qilichingni, Mo'min botir! O'zing mening qo'limni bog'la.

O, er yigit, hech o'ylanmay otdan tush,
O'z elingga ortiqcha bo'lgan choqda
Yoningdagi qilichni ham yechib ber,
Sotib olgin, o'limni sotayotsa!..

Yodingda bormi, Mo'minjon, qalandar bizga shunday degan edi?!.

Mo'min ham, Mirzaqul ham, boshqalar ham o'ylanib qoldi.

— Men qo'lga tushmayman! — dedi Mo'min. — Menga ruxsat bering, Is'hoq aka! O'zimni o'rdaning itlariga talatib qo'ymayman. Boshim oqqan tomonga ketaman, Is'hoq aka.

— Bor, Mo'minjon, boraver, — dedi Is'hoq ovozi titrab, xirillab. — Men sening qoningga zomin bo'lmayin, og'aynim. Mayli, boraver, qiyomatda ko'risharmiz...

Mo'min xayrlasha olmay, Is'hoqa bir qarab qo'ydi-da, qilichini yalang'och ushlaganicha g'ordan chiqib ketdi. Hech kim indamadi. Mirzaqul ham uning yo'lini to'smadi. Is'hoq burguti to'satdan qo'lidan uchib ketgan ovchiday so'rrayib qolaverdi.

...Marg‘ilon.

Qorlar ketib, yerdan bug‘ ko‘tarilib, havo isib qolgan edi. O‘sha bir ming sakkiz yuz-u yetmish oltinchi yilning 1-martida Marg‘ilon o‘rdasining keng maydoniga haddan tashqari ko‘p odam to‘plangandi. O‘rtada dor, chor tarafda zambaraklar tutatilib, otishga hozirlanayotgandi. Baron Miller-Zakomelskiyning batalyoni, sarbozlar o‘rdani ichdan ham, sirtdan ham zich o‘rab olgandi.

— Ana! Ana! — dedi daraxtga chiqib olgan bir kishi.

— Yarim podsho-ku, — deb yubordi sherigi. Odamlar o‘rtasida shivir-shivir boshlandi, hamma o‘rda tomonga tikilardi.

O‘rda tomondan bir to‘p odam ko‘rindi. Yarim podsho desa arziydi. Umumrossiya hukmdori tomonidan cheksiz huquq berilgan, “Kaufman I” deb nom qozongan shaxs. Yonida general Skobelev, baron Miller-Zakomelskiy va boshqalar. Orqaroqda Xudoyor, Nasriddin, Abdurahmon, Said Mavlonbeklar kelardi, eng oxiri iskovuch itday ergashib kelayotgan Mirzaqul ko‘rindi. Fon Kaufman boshchiligida kazo-kazolar maxsus yasalgan o‘rindan joy olishdi, Yarim podsho xaloyiqqa qarab gapirdi:

— Ko‘p yillardan buyon sizlarning oromingizni buzib, tirikchilikdan qoldirgan yurt buzuqi, o‘g‘ri Is’hoq qo‘lga tushdi.

Tatar tilmoch tarjima qildi. Xudoyor sir bermay, Nasriddin o‘zini tutolmay o‘tirardi.

Tirband bo‘lib ketgan xaloyiq ichida soch-soqoli o‘sib ketgan, o‘y-xayoldan ko‘zlari qizargan bir devona aylanib yurardi. U Mo‘min edi. Hech kim unga e’tibor bermadi. Mo‘minning muddaosi o‘zi uchun qadrli bo‘lgan odamni so‘nggi marta ko‘rib qolish...

Do‘mbiralar chalindi. Xalq zindon yoqdan kelayotgan to‘rt otliqqa yuzlandi. Otliqlarning ikkitasi kazak, ikkitasi sipohiy. Do‘mbira va do‘l betinim chalinib, odamlarning qalbini uvushtirardi. Ana, turqi tarovati tanib bo‘lmas darajada o‘zgarib ketgan Is’hoq oqsoqlanib kelmoqda. Oyog‘ini siltab bosgan sari kishanlar shaldiraydi. “Po‘sht!”, “Po‘sht!” deb sipohiylar yo‘l ochib kelayotir. Is’hoq sira g‘am yemay, o‘limga tik qarab, qafasga tushgan burgutday goh-goh atrofga loqayd boqib qo‘yadi.

Dor ostiga yetgach, otliqlar Is'hoqni soldatlarga topshirib qaytishdi. Jazoni amalga oshirish vazifasi polkovnik baron Miller-Zakomelskiyga topshirilgandi. Baronning buyrug'iga binoan dor ostida soldatlar Is'hoqning qo'l-oyog'ini yechishdi. Xudoyor undan yuzini o'girdi, Abdurahmonning negadir ruhi so'nik. Faqat Nasriddingina kulib, tez-tez fon Kaufmanga qarab, so'ngra og'iz juftladi:

— Hoy, o'g'ri Is'hoq, tagi past daydi! Endi holing qalay?! Endi borar joying tayin!

Is'hoq oqsoqlanib borarkan, qayrilib:

— Ha, yuvindixo'r! Hurib turgan senmisan. Sen bu dunyoga ustun bo'lmoqchimisan? Itday sudralib... orqamdan borasan... — dedi.

Xaloyiq kulib yubordi.

— Tez! — dedi polkovnik Miller-Zakomelskiy. Soldat miltiq qo'ndog'i bilan Is'hoqni turtdi. Is'hoq burilib:

— Qayoqqa shoshasan?! Ulgurasan! — deb dor zinasiga oyoq qo'ydi. Garchand mayib oyog'i azoblayotgan bo'lsa-da, sir boy bermadi.

Mo'min yosh hilqillab turgan ko'zlarini Is'hoqdan uzmasdi, yig'i bo'g'ziga tiqilardi, tug'ishganidan ortiq bo'lib qolgan Is'hoqqa yuragi tuzday achishib, entikib turardi. U g'oyibona xayrlashayotgan edi.

Fon Kaufman Is'hoqni "Turkiston xalqining dushmani", "yurt buzuqi", "o'g'rilarning boshlig'i" sifatida ayblab, uni dorga osib o'ldirish haqidagi hukmni o'qidi.

Is'hoq odamlarga boqarkan, xayolidan shunday fikr yarq etib o'tdi: "Quvonganlar bo'lishi mumkin. Nahotki yig'layotganlar ham bo'lsa?!.." U moviy osmonga, tog'larga bosh qo'ygan to'da-to'da bulutlarga qararkan, ichida: "Xayr, ona yurtim... Xayr, elim... Yomonligimni kechir, yaxshiligimni aytib yurarsan", dedi.

Do'mbira tinimsiz taraqlardi. Is'hoq shivirlab kalima keltirib, ko'zini yumdi. Muzdek sirtmoq qora ilonday to'lg'anib bo'yniga o'raldi. Sarboz uning oyog'i ostidagi kursini tepib yubordi. Is'hoq shilq etib osilib qoldi. Hamma jim. Do'mbira avjida. U so'nggi marta chiranib, jon taslim qildi. Do'mbira ovozi asta tindi.

— O-o!.. Botirdan qolib nima yaxshilik ko‘rardim!.. Nima topardim... — degan ovoz jimlikni buzdi. Bu nima? Bu kim? Xaloyiq hayron. Mo‘min ekan!

— O-o, botirdan ayrilib nima topardim? — deb fig‘on chekib kelardi Mo‘min.

Tepada o‘tirgan fon Kaufman, Xudoyor, Abdurahmon hangmang bo‘lib qoldi. Mo‘min baqirib, Is’hoqning oyog‘idan quchoqladi. Odamlar junbishga keldi. Biroq miltiq ovozlari elni bosdi. Faqat Mo‘minning nolishi eshitilardi.

— Ushla! Tut qaroqchini! — deb baqirdi Nasriddin. Ikki sarboz, ikki kazak Mo‘minni tutib, qo‘lini qayirdi. U qarshilik ko‘rsatmay entikib gapirdi:

— Osinglar! Qo‘sha osinglar! Botirdan keyin qolib yashagandan ko‘ra o‘lganim afzal.

Polkovnik baron Miller-Zemelskiy to‘planganlarga qarab :

— Adolatli jazo amalga oshsin! — dedi gerdayib. Tilmoch tarjima qildi. Xaloyiq og‘ir so‘lish oldi...

OLTINCHI QISM

I

Abdullabek tikkasiga quvib kelayotgan Vitgenshteynni yo‘lda adashtirib, o‘ttiz yigiti bilan Sariko‘l tog‘lari osha Afg‘onistonga o‘tib ketdi. Atrof biyday dala edi. Yulg‘unzor shamolda uvillardi.

Jarlik va qurib qolgan soy qirg‘og‘idagi ajriqlar sarg‘ayib ketgandi, chigirtkalar o‘shalarii ham qo‘ymay bir chekkadan yeb borayotgandi.

Abdullabek begona yurtdagi bu holni ko‘rib, jannatday Farg‘onaning non-tuzini, shirasi tilni yoradigan qovunlarini, shirin-shakar mevalarni eslab o‘kindi. Uning hasrat-nadomat kosasi to‘lib-toshdi.

O‘zan bo‘yidagi yaydoq yerga ikkita chodir tikishib, nafas rostlashdi. Abdullabek bir necha kundan beri otdan tushmay toliqqan bo‘lsa-da, ko‘zi negadir ilinmadi. Uyqusi qochib, piyozi chakmonini yelvagay solib, eshikka chiqib xiyla aylanib yurdi.

Posbonlikda turgan yigitlar mizg‘iy boshlabdi. Hammayoq jimjit. Tong yorishib kelmoqda. U chodirga qaytib kirdi-da, yonboshlab yotib ko‘zi ilindi. Tashqaridan gangur-gungur ovoz keldi. Abdullabek uyg‘onib ketdi. Quyoshning zarrin nuri chodir burchidan tik tushib turardi.

— Yo‘l bo‘lsin? — dedi kimdir turkchalab.

— Qo‘qon tomondan, — dedi Abdullabekning yigiti Oqpolvon. — Afg‘on poshshosiga kelyapmiz.

Notanish kishilar o‘zaro fors tilida so‘zlashib qoldi. “Ajabo, amirnikiga mehmonga kelyapmiz deydi-ku? Begona odamlar ekan. Yolg‘on. Shu qaroqchilarga amirning ko‘zi uchib turibdiyakanmi? Shunchaki bahona. Ertaga biror tashvish orttirib ketmasaydi?” — dedi ikkinchisi. Fors tilini yaxshi tushungan Abdullabek: “Yo, Xudo, endi bu ko‘rgilik, bu ta’nalar bormidi?” — deb ma’yus jilmaydi.

Yoshi o‘tinqirab qolgan odam bo‘lsa kerak, shunday dedi:

— Mayli, musulmonlar, bu yer qo‘rik, buguncha hordiq olib, ertaga Xudo buyurgan yerga ketarsizlar, — dedi. Oqpolvonning ovozi eshitilmadi, boshini irg‘adi shekilli, chuh degan ovoz eshitildi, bir ozdan keyin ikki otning dupuri tobora olislab borardi. Oqpolvon chodirga kirdi.

— Hudaychini chaqirgin, — dedi Abdullabek.

Sal o‘tmay, Oqpolvon bilan birga bulg‘ori kavush kiygan, boshyalang, kimxob choponini yelvagay tashlagan Sulaymon udaychi kirib keldi.

Sulaymon hudaychi Uchko‘rg‘ondagi to‘s-to‘polonda jazolovchi otryadga chap berib, Sariko‘l tog‘laridan oshib qochib kelayotganida yo‘lda tasodifan Abdullabeklarga uchrab qolgandi. U qopqonga tushib, oyog‘i yulinib chiqqan qashqirday alamzada edi.

— Keling, udaychi, — dedi Abdullabek. Hudaychi kichkina sariq ko‘zlarini yiltiratib “keldim” deganday boshini qimirlatib poygakka o‘tirdi.

— Bu yoqqa o‘ting, — dedi Abdullabek. Sulaymon o‘zini eshitmaganga olib, peshonasini tirishtirdi.

— Sulaymon og‘a, taqdirimiz shu ekan, begona yurtga kelib qoldik.

— Ha, nima qilay? — dedi udaychi tomdan tarasha tushganday.

— Siz xazinachi edingiz. Haligi, oting o‘chkur, yaltiroqdan ancha-muncha bormi, Sulaymon og‘a?

— Xo‘sh, nima qilasan?

— O‘zingiz bilasiz. Afg‘on amirining oldiga quruq bormaylik. Ikkimiz ham bir vaqtlar katta elning nufuzli odamlari edik. Begona odamlar oldida, o‘zingiz bilasiz...

— Senda endi qanaqa amal-u savlat qoldi? Hech narsa yo‘q, bo‘lsa ham bermayman.

— Bo‘lsa nega bermaysiz? O‘rda barchamizga teng emasmidi? Ertangi taqdirimiz ham o‘xshash-ku? O‘ylab ko‘ring. Men uni bir o‘zim uchun so‘rayapmanmi?

— Sen meni surishtiraverma! Sen meni so‘roqqa olma! Onasi baytal...

Abdullabek o‘z quloqlariga ishonmadi. Hudaychi esa to‘xtamay og‘ziga kelgan gapni aytardi:

— Sen menga bunchalik qarama, onasi baytal. Sening onangga o‘xshaganlar sotib, azamat kishilar dorga osildi. Yana ertangi kunning g‘amini yermish. Hayf senga, senga o‘xshag‘anlarni yo‘q qilib boshqatdan ish boshlasak bo‘lar ekan! Men o‘ylab ko‘rdim...

Abdullabek ko‘karib ketdi:

— Esingni yig‘, hudaychi!..

Hudaychi etagini qoqib turib:

— Tamom! Endi sening hukming menga o‘tmaydi! — dedi. — Taqdirimni o‘ylarmish-a?!..

— To‘xta! — dedi Abdullabek. Sulaymon hudaychi qayrilib belidagi birotar rus pistolini olib mo‘ljallayotganida Oqpolvon qo‘liga bir urdi. Qars! O‘q Abdullabekning boshidan oshib ipak chodirni teshib o‘tdi. Yigitlar bir zumda hudaychining qo‘lini qayirishdi.

— Qo‘yib yuboringlar, — dedi Abdullabek. — Uni qaytishda xuddi shu yerdan Qo‘qonga ko‘pkari qilib tushaman.

— Ko‘ramiz o‘shanda! — deya Sulaymon hudaychi so‘kinib chiqib ketdi.

Abdullabek ota merosidan bebahra qolgani uchun o‘zini sira kechirolmasdi. Shuning uchun G‘o‘ljada askar to‘plab, bo‘lg‘usi jangga qattiq tayyorgarlik ko‘rdi. Bahorda general Skobelev yurishini “Alayskiy poxod” deb atab, ko‘plab askar bilan qisib keldi. Abdullabek Jong‘iriq degan yakka, tor jilg‘ani to‘sdi. Afsuski shu yerda ham sotqinlik yuz berdi, Imonqul degan bir kimsa G‘o‘ljaga o‘tuvchi yashirin yo‘lni ko‘rsatib, dushman askarlarini ular ustidan olib tushdi. Iloji boricha kurashib, qo‘shindan ajrab, taqdir taqozosi bilan Abdullabek Sariko‘l tog‘lari osha shu yerga kelib qoldi.

...Afg‘on amiri Kobul shahrining chetidagi koshonali saroyida Abdullabekni qochqin shahzoda sifatida hurmat bilan kutib oldi. O‘z navbatida Abdullabek ham afg‘on xalqiga, uning hurmatli amiriga minnatdorchilik bildirib, ta’zim bajo keltirdi. Amir o‘rnidan turib Abdullabek bilan so‘rashib, ko‘nglini ko‘targan bo‘ldi va maxsus qabulxonaga mehmonni yetakladi. Vazirlar, navkarlar, udaychilar amirning qochqinga qilgan mehr-u shafqatini ko‘rib hayron bo‘lishdi.

Sharq mamlakatlari o‘rdalarining odatiga amal qilgan amir turk tilida nazm bilan savol berdi:

Qaysi bog‘ning gulisan?
Qaysi bekning o‘g‘lisan?
Yo‘l yuribsan kecha-kunduz,
Shohona to‘n, telpak qunduz,
O‘zbeksanmi, sortsanmi?
Elni sevgan mardsanmi?
Qayoqlardan kelursan?
Ne deb javob berursan?..

O‘shanda Abdullabek quyidagi javobni aytdi:

Sirdaryoning nahridan,
Mashhur Qo‘qon shahridan,
Mingani duldul bo‘lib,
Tillari bulbul bo‘lib,
Bekning o‘g‘li, Bek Abdulla,

Qo'lda qilich, boshda salla,
Shohim, ayon o'zingizga,
Panoh izlab keldik Sizga...

— Hazrat oliylari, — dedi Abdullabek o'tirmay, — bahodir afg'on xalqining sizdek donishmand sohibiga arzimagan sovg'a qilib, o'z arg'umog'imni olib keldim.

— O-o, — deb yuborishdi turganlar.

Amir kichik sarg'ish ko'zlarini suzib:

— Rahmat o'g'lim... Rahmat, — deb sal boshini egib, qayta taxtiga o'tirdi. — Him, o'tir, o'g'lim. Muhtaram dodxoh oyim salomat yuribdimi?

— Shukr, taqsir...

— El-u yurt tinchmi? — Amir nima derkin, deb unga qaradi. Sababi Farg'ona vodiysida yuz bergan voqealar unga besh panjaday ma'lum edi. Abdullabek buni tushunib:

— Tinchlik bo'lsa, shunday tentirab yurarmidik, hazrati oliylari?!

— Him, xabarimiz bor.

Dam o'tmay hind qullar ohista yurib dasturxon yozishdi, barkashlarda noz-ne'matlar, ko'zachalarda sharoblar keltirishdi. Bir guruh mashshoqlar supachadan o'rin olib, soz chalishdi. Kuy ohangiga moslab beshta go'zal qiz tovusdek xirom etdi.

Amir mehmonlar xursand bo'lsin deb sharobdan quydirib, vazirlar bilan hazil-mutoyiba qilib o'tirdi. Abdullabekni na mulozamat, na raqqosa qizlarning qosh uchirishi va na sharob ovutdi.

Ziyofat oxirida Abdullabek asl maqsadga ko'chib, qatag'on turk urug'larini so'rab-surishtirdi. Bu Afg'onistondagi qatag'on turk urug'laridan iborat askar tuzish, ya'ni yordam so'rashning bir turi hisoblanardi. Amir gapga darhol tushundi, Vazir va navkarlar lab tishlab qolishdi, Amir bir ishora bilan mashshoq va raqqosalarni chiqarib yubordi.

— Qiyin... Sizlarga qiyin bo'ldi, o'g'lim, — deb o'rnidan turib darcha sari yurdi. Qadimiy Kobul shahrining bir qismi ko'ziga tashlandi. U qaytib, Abdullabekning oldiga keldi. Abdullabek hurmat qilib o'rnidan qo'zg'aldi.

— O‘g‘lim, — dedi amir muloyimlik bilan, — juda toliqibsan, sal dam olib, Makkai Madinaga borib, Ka’bani ziyorat qilib kelmaysanmi? Bu bevafo dunyoning tashvishi qayga ham qochardi? Qaytib kelganingdan so‘ng gaplashmaymizmi, o‘g‘lim?

Ayyor navkarlar amirning shunday deyishini oldindan sezib o‘tirishardi. Sababi, boshidan baxt qushi uchib ketgan xonlar, amirlar tarkidunyo qilib, Makkaga hajga ketishi odat tusiga kirib qolgan edi. Abdullabek ham buni tushunib, rangi bo‘zday oqarib, naqshinkor qo‘sh ravoqdan ko‘z uzolmay qoldi.

Amirning bundan o‘zga chorasi yo‘q edi. Chunki, Angliya Hindistonni bosib olib, shimolga qarab hujumni kuchaytirgandi, Afg‘onistonning chegaraga yaqin shaharlarining beklarini o‘ziga og‘dirib, amirga qarshi qayrab turgandi. O‘sha kunlarda Rossiya geografiya jamiyatining bir ekspeditsiyasi Afg‘oniston yerlarining kartasini chizib yurishardi. Amir mamlakatni Angliyadan muhofaza qilish uchun rus sharqshunoslarini o‘lka ichiga erkin qo‘yib yuborib, Rossiya bilan qandaydir bir shartnoma tuzib, unga tayanmoqchi bo‘lib yurgan edi.

— O‘g‘lim, menimcha shu yo‘l qulayroq, — dedi amir sir boy bermay. Navkarlar uni qo‘llashdi:

— O-o! Bundan yaxshi maslahat bormi? Yo‘ling ochiladi, botir yigit!..

— Taqsir... Yaxshi maslahat... taqsir, — deyishdan nariga o‘tolmadi Abdullabek.

Qabul marosimi tugadi. Amir ketish oldidan arg‘umoqni Abdullabekning oldiga keltirtirib:

— O‘zing zo‘rg‘a yuribsan-u, otingni men olib qolsam, ko‘kda uchgan shunqorning qanotini qiygan bo‘laman. O‘zingga siylov. Mening senga mingizganim shu bo‘lsin... — dedi.

Abdullabek na sevindi va na xafa bo‘ldi. Sipo xayrlashib jo‘nab ketdi.

Uning so‘nggi umidi ham chilparchin bo‘ldi, daryo qirg‘og‘idagi chodirga kelib, yetti kun yotdi. Sakkizinchi kuni o‘rnidan turib, o‘z yoniga ishonchli do‘stlaridan ikkitasini oldi, beklik kiyimini musofir choponi bilan almashtirib, Arabistonga jo‘nadi.

Oqpolvon va qarindoshi Botirbek bosh bo‘lgan yigitlari uch kungacha birga borib kuzatishdi. Uch kunga qadar Abdullabek biror og‘iz so‘zlamadi. Nihoyat, yo‘l ayrilishidagi sersoya bir tup tol ostida to‘xtashdi, semizroq otdan birini so‘yib, tamaddi qilishdi, Abdullabek tuz totmadi. Bir mahal u ko‘zini ochib:

— Ey Oqpolvon, qaydasan? — deb qoldi.

Oqpolvon engashib qarasaki, bek kuzgi yaproqday sarg‘ayib, ikki ko‘zi kosasiga sig‘may rangi so‘nib borardi.

— O‘z Vatanimdan ajrab, o‘zganing Makkasidan nima topardim?! — dedi Abdullabek. Yigitlari:

— Qaytaylikmi? — deb sevinib ketishdi. U titrab-qaqshab, bosh chayqadi;

— Sizlar qaytinglar...

Yigitlar jim bo‘lib qolishdi. Oqpolvon mehribonlik bilan:

— Siz-chi, bek? Qaytsak, hammamiz qaytaylik...

— Men o‘laman, — deb Abdullabek shivirladi.

— O‘limning beti qursin. Uni og‘izga olmang, — dedi kimdir.

Abdullabek ikki mushtumini boshiga tirab: — Yo‘q... — dedi. — Yo‘q, mening o‘lganim afzal. Qaytib borolmayman....

Yigitlar Oqpolvonga qarashdi. Botirbek yig‘lab yubordi:

— O, akajon, nimalar deyapsiz?!

Abdullabek hech nima bo‘lmaganday boshini ko‘tarib:

— Botirjon, — dedi erkalatib, — ajablanadigan joyi yo‘q. Bu taqdirning hukmi, peshonamga yozilgani.

Boshqalar hech nimaga aqllari yetmay, boshlari qotib qoldi.

Yo tobi qochdimikin? Oqpolvon chora izlab nari-beri yurardi. Nihoyat u yaqin oradagi qishloqqa borib, boshi bilan beliga oq mato o‘rab olgan bir hind tabibini topib keldi.

Oqpolvon otdan tushdi, tabibni bek oldiga boshlab keldi, yig‘ila boshlagan yigitlarni qo‘lini siltab tarqatib yubordi, so‘ng Abdullabekka engashib:

— Bek... — dedi.

Abdullabek boshini ko‘tardi. Yonida begona odamni ko‘rib o‘zini rostladi. Hindu ikki kaftini juftlashtirib:

— Salom, bekzoda, — deb egilib ta’zim qildi, timqora ko‘zlari munchoqday yaltirardi.

— Ko‘rsin-chi, — dedi Oqpolvon, — tabib ekan.., Abdullabek kuldi:

— Ha-ha-ha! Tabib degin. Mayli, kasalimni bilsin-chi, — deb qo‘lini uzatdi. — Tomir ko‘rasanmi? Yoki rom ochasanmi?

Hindu Abdullabekning panjasidan ushlab, tomir ko‘rmay jilmayib, uning ko‘ziga tikildi, keyin qo‘lining ustini silab turib:

— Bekning kiprigi qotib qolibdi. O‘y-xayol kasaliga mubtalo bo‘libdi, — dedi oppoq tishlarini ko‘rsatib.

Abdullabek ko‘zlarini katta ochib, boshini chayqadi. Tabib yana bir karra tikilib:

— Voy, tavba! O‘y-xayol odamni o‘ldirishini bek bilmaydi shekilli, — dedi.

Abdullabek bir qah-qah urib kuldi-da, chuqur xo‘rsindi, chap qo‘lidagi gavhar ko‘zli uzukni tabibga uzatdi:

— Bilar ekansan, tabib! Rozi bo‘l.

Tabib uzukni olib sinchiklab qaradi, chinakam gavhar ekanligiga ishongach, og‘zi qulog‘iga yetib:

— Rahmat! Rahmat! — deb o‘rnidan turdi. Bir oz yurgach, orqasiga qayrilib: — Bek xayol surishni tashlasin. Ko‘nglini ko‘taradigan narsa bo‘lmasa ham, o‘zini boshqa narsa bilan ovutsin, — deya jadal yurib ketdi.

— Ko‘ngil qanday ko‘tarilsin? Iloji yo‘q-ku? — dedi Abdullabek mo‘ltirab. — Jon qaerda chiqsa, tana o‘sha yerda qoladi. Bir iltimosim shuki, qarindoshlarim, qon kechishgan do‘stlarim...

Oqpolvon taxta bo‘lib qoldi. Yigitlarning nafaslari ichlariga tushib ketdi.

Abdullabek:

— Jon uzilgach, ko‘kragimni xanjar bilan yorib, yuragimni olinglar... Tanamni shu o‘rtaga ko‘mib, yuragimni oq kigizga o‘rab, otning tizginini buringlar. Nasib etsa, ota-bobolarimizning umri kechgan yerga borsanglar... gul bilan qoplangan do‘nglikka dafn etinglar. Yuragim xorijda emas, kindik qonim to‘kilgan o‘z Makkayi Madinamda yotsin...

Botirbek ho‘ngrab yig‘ladi. Abdullabek uni yupatmadi.

To‘rtinchi kuni tongga yaqin Abdullabek boshini ikki mushtumi orasiga olganicha to‘nkarilib yotib qazo qildi. Oqpolvon

tobora tafti ketib borayotgan jasadni qiblaga qaratib avaylab chalqancha yotqizdi, qo‘lini to‘g‘rilab, ustiga chakmonini qiya tashladi, o‘zini tutolmay:

— O, esiz bek... O-o, jigarim... — deb o‘kirib yubordi. — O, azamatdan ayrildik-a...

Yigitlar unga qo‘shilib uvvos solishdi. Botirbek o‘ksib-o‘ksib yig‘lardi. Oqpolvon entikib:

— To‘xtanglar... — dedi ovozi titrab, ko‘z yoshlarini artib o‘zini qo‘lga oldi. — Begona yurtda baqirib o‘tirmaylik...

Ertasiga Oqpolvon bosh bo‘lgan yigitlar Kushkani mo‘ljallab, “o‘z vatanim, o‘z elim qaydasan”, deb yo‘lga chiqishdi. Arg‘umoqning tuyog‘ini tulatgan olis yo‘l. Yigitlar tobora ozayib borardi. Negaki, birovining oti horib qolsa, ikkinchisi yo‘l azobiga bardosh berolmay qolib ketardi. Cho‘lda qaroqchilar ikki marta hujum qildi, o‘nta yigit qurbon bo‘ldi. Nihoyat, Jayhunning boshi Urganchga Oqpolvon, Botirbek va yana bir yigit eson-omon yetib keldi, Bir oy deganda Farg‘ona vodiysiga yetishdi. Tog‘ tarafga otni burishib, xilvat yerga, bir to‘p ko‘m-ko‘k archa tagiga Abdullabekning yuragini dafn etishdi. Otini marhumning arvohiga atab so‘yib, kallasini qaynatishdi, go‘shtini sidirib tashlab, quruq suyakni, archaning ayrisiga qistirib qo‘yishdi. Shundan keyingina ozib-to‘zib ketgan yigitlar o‘zlarini yengil his qilib, o‘z manzillari sari yo‘l olishdi...

— Otlaninglar! Otlaninglar! Boshimizni birlashtirgan o‘rda buzildi. Otlaninglar!

II

Endi Abil biy kutilmaganda qishloqma-qishloq jarchi jo‘natib otlarning dumini qonga bo‘yatib, xalqni oyoqqa turg‘izdi:

— Yetti yoshdan yetmish yoshga qadar kishilar otlanib, qizlar sochlarini turmaklab yigitlar bilan birga ko‘liga qurol olsin. Ho-o-o! Xaloyiq, otlaninglar-r! Abil biy shu tarzda o‘rdadan kelayotgan xabarga qo‘shib-chatib, ovul va qishloqlarning aholisini yo otlantirmay, yoki tinch qo‘ymay tez-tez bezovta qilishi hammaning joniga tegdi. Xalq boylik desa o‘zini tomdan tashlaydigan Abil biy to‘g‘risida turli mulohazaga borardi. Balki Biy haqdir? Yoki shu yo‘l bilan biror naf olmoqchidir?

Is'hoqning qatl etilishi Beknazarga qattiq ta'sir qildi. Uning barcha ishonch hamda umidi puchga chiqdi. O'zi yolg'iz nima qilishi mumkin? Qarindosh-urug' deb nima obro' topdi? Jang-u jadal elning turmushini o'ngladimi? Yo'q! Beknazar taqdirga tan berib, arg'umoq bilan qilichdan voz kechdi; besh vaqt namozini o'qib, Tangriberdi bilan Gulkishi singari astoydil tirikchilik g'amiga tushdi.

— E-e, xalq taqdiri qil taroziga tushdi, bosh aylanib, ko'z tinadigan dovonga keldi. Endi bunga kim chora topadi? — deb qoldi Tangriberdi. Beknazar botib borayotgan quyoshga, lolarang ufqqa o'ychan boqib, qadimgi bir hikoyatni so'zlab berdi:

— Ilgari zamonda Ajo degan qahrli urug' boshlig'i bo'lgan ekan. U: "Quyosh chiqqan yerdan toki botgan yergacha yurish qilamiz. Yo'lda boshga balo bo'ladi, oltmishdan oshgan qari qolmasin", deb buyruq beribdi. Buyruq to'la bajarilibdi. O'shanda bir o'g'il otasining yaktagiga uloqning qonini surkab Ajoga ko'rsatib qutulibdi. Safar tadorigi tugagach, karnay-surnay bilan yo'lga chiqishibdi. U vaqtdagi yurishda oila a'zolari qatnashar ekan. Boyagi otasini o'limdan asrab qolgan yigit cholni sandiqqa solib, tuyaga xazina ortganday ko'pchilik qatorida jo'nabdi.

Qo'shin yo'l yursa ham mo'l yurib, bir kuni katta cho'lga duch kelib, suvsizlikdan qirila boshlabdi Ajo suv topinglar, deb buyruq beribdi. Odamlar u yerni kavlab, bu yerni kavlab, bir qatra ham suv topolmabdi. Shunda kimdir: "Eh, attang, oramizda biror qari kishi bo'lganida bizga suv topish yo'lini aytardi", debdi. Bolaning yodiga otasi tushib, tunda sandiqni ochib, bo'lgan voqeani unga aytib beribdi. Otasi: "Obbo la'nati-yey, sigir bormi? Sigir bo'lsa uni nari-beri quvlab, rosa chanqat. Keyin bir pas o'z holiga qo'yib, qarab tur. Chanqagan sigir suv izlab ketadi. Sigir qaerga borib, boshini egib, yerni titsa, o'g'lim, o'sha yerni kavla, suv chiqadi..." debdi. Jangchi otasining aytganini qilib, odamlarini o'limdan saqlab qolibdi.

Qo'shin suvsizlikdan qutulib, uzoq yo'l yuribdi. Kunlarning birida ular ikki daryo qo'shilgan joyda dam olishibdi. Jangchilardan biri cho'milgani borib, daryo tutashgan joyda, suv ostida gavhar ko'rib qolibdi. Bu xabar ochko'z Ajoning qulog'iga yetib-

di. U askarlarini gavhar olib chiqish uchun tushiribdi. Lekin birovini suv oqizdirib ketsa, birovi gavharni topolmay, arang qaytib chiqibdi. Ajo ko'rinib turgan gavharni topolmaysanmi, deb qaytib chiqqanlarning boshini oldiraveribdi. Yana haligi jangchi tunda sandiqni ochib bo'lgan voqeani otasiga aytibdi. "Obbo la'nati-yey, — debdi otasi, — o'sha suv bo'yida birorta daraxt bo'lishi kerak. Sen, o'g'lim, daraxtning boshiga qara, gavhar suv ostida emas, o'sha daraxtning ustida bo'lishi kerak ... Ertasiga jangchi suv bo'yiga borsa, katta chinor bor ekan. Suvga qarasa, gavhar yaraqlarmish. Tepaga boqsa, chinor shoxida qushning eski ini bor emish. Darhol chinorga chiqib undan gavharni olibdi. O'sha gavharning aksi suvga tushib turgan ekan. Yigit gavharni topshirib, Ajoning qahridan ko'plab kishilarni omon saqlab qolibdi.

Ajo ertasiga jangchini chaqirtirib so'rabdi: "Ikki martagacha ham mushkulni sen oson qilding. Shuncha aqlni qaydan olgansan?" debdi. O'shanda yigit: "Bir qoshiq qonimdan kechsangiz aytaman", deb javob beribdi. Ajo rozi bo'libdi. Jangchi: "Aqlni sandiqqa yashirganman" degan ekan, navkarlari borib ochib ko'rishsa, sandiqda oppoq soqolli nuroniy bir chol o'tirganmish. Ajoning oldiga yetaklab kelishibdi. Ajo ota-bolaning qonidan kechibdi va cholga: "Ikki aqlli gap aytding, endi uchinchi aqlli gapni ham aytasan", debdi. Qariya: "Ulug' Ajo, quloq sol, o'zingda aql bo'lmasa yoki yoningda birorta esli-hushli, ko'pni ko'rgan odam yurmasa, yo'lga chiqma, ishing o'ngidan kelmay, odamlaring qirilib, oxirida o'zingga qiyin bo'ladi", degan ekan. Ajo ko'p o'ylanib, oqsoqolga bosh egib, "qari bilganini pari bilmas", deb qo'shinni boshlab, o'z yurtiga qaytgan ekan...

— Ha, bu qadimda o'tgan qariyalar-da, — deb qo'ydi Gulkishi. — Hozirgi keksalarga yo'l bo'lsin!..

Yashil o'zan yoqdan yolg'iz otliq ko'rindi. U tez kelayotgan edi. "Bu Abilniig jarchisi", deb o'ylashdi. U Beknazarlar tomonga yurdi. To'g'ri keldi-yu, otidan ham tushmay:

— Beknazar aka, — dedi chopar, — Temenesuvda odamlar to'planyapti, sizni kelsin deyishdi.

— Qanaqa yig'in? To'pning boshlig'i kim? — deb so'radi Tangriberdi.

— Boshlig‘i Abil biy. Biroq masala yechilmayapti. Shuning uchun xaloyiq sizni kutyapti.

Beknazar gangib qoldi. Borib nima deydi? Xo‘sh, nima qilsin? Chopar otiga qamchi bosib ketdi. Beknazar jazolovchilar otryadidan tortib, toki Abil biy elni ovora, sarson qilayotgan kungacha bo‘lib o‘tgan ishlarni ko‘z o‘ngidan o‘tkazib, yuragi bezillab o‘rnidan turdi:

— Yo‘q, yaxshi kunda botir bo‘lib, yomon kunda yotib olish insofdan emas?! Borayin...

Temenesuvda xaloyiq tirband. It egasini tanimaydi. Birov otda, birov ho‘kizda, boshqasi eshakda kelib, joy olmoqda. Dehqon don ekkan dalasini, chorvador molini, ovchi esa qopqon bilan burgitini tashlab, shu yerga oshiqmoqda. Gulkishini boshlab Beknazar ham to‘pga yaqinlashdi. Uni olisdan ko‘rib turgan Abil biy otini yo‘rttirib keldi-da, so‘ramay-netmay Beknazar mingan ot jilovidan ushlab yetaklab ketdi:

— Mana! Mana! O‘zi keldi. Beknazar botir!

Beknazar yo ergashishini, yo tizginni tortib olishini bilmay hayron bo‘lib qoldi. Odamlar: “Hoy! Botir keldi!” deb shov-shuv ko‘tarib yura boshladi.

Beknazarning ko‘zi birdan zambil ko‘tarib kelayotgan to‘rt kishiga tushdi. “Zambildagi kim ekan?” deb uzoq tikildi. Chor atrofdan “Beknazar! Beknazar!” degan ovozlar yangrab turardi. Beknazar tizginni Abil biyning qo‘lidan chiqarib, otini burib zambil oldiga bordi. Qarasaki, Almambet! Soch-soqoli qorday oppoq chol odamlarga nursiz ko‘zlarini tikib, qartaygan arslonday o‘tiribdi. Beknazar otdan tushib, zambil yoniga bordi:

— Assalomu alaykum, — deya salom berdi. Zambilni ko‘targan Almambetning nabiralari edi. Uni tanishib, yigitlar zambilni yerga qo‘yishdi. Beknazar uni qo‘lidan ushladi.

— Kim bo‘lasan?

— Beknazar akam, — dedi nabiralaridan biri cholning qulog‘iga qattiq ovoz bilan. Almambet:

— Ha, tuzuk!.. Beknazarmisan? Ismingni eshitib yuraman, ukam. Kam bo‘lma, — deb duo qildi. Zambil yerdan uzilib, elni oralab ketdi.

Temenesuvning o‘rtasidagi do‘ppiday do‘nglikdan ahli donish va maslahatgo‘ylar o‘rin oldi. Abil biy ko‘pchilikni oralab kelib o‘rtaga o‘tirdi. Jamoat jam. Ba’zilar: “Biyning holi tang shekilli, hatto bir oyog‘i to‘rda, bir oyog‘i go‘rda turgan Almambetni ham oldirib kelibdi”, deyishardi. Holbuki Abil biy nomini olgandan keyin, Almambet unga yo‘l berib, o‘zi Kurpuldaksoyda tinch hayot o‘tkazardi. Bugun orqavoratdan bu yig‘ilishni eshitib atay zambilda nabiralari bilan kelgan edi. Abil biy esa qaytaga unga qarab qo‘ygani ham yo‘q.

— O, qadrli yurtdoshlarim, — deya so‘z boshladi Abil biy. Hamma jim bo‘ldi. — Yurtimiz boshiga og‘ir qayg‘u tushdi. Bola otasiz yashamaganidek, biz o‘rdasiz tirikchilik qilishimiz qiyin. O‘sha biz suyangan tog‘imiz, ishongan bog‘imiz — o‘rda xavf-xatar ostida qoldi. — U diqqinafas bo‘lib o‘tirgan Beknazarga qarab qo‘ydi. — To‘g‘ri, xonimiz nomardlik qilib, xalqni ko‘p tashvishga qo‘ydi. Lekin nima bo‘lsa-da, buni unutib, taqdirimiz qil ustida turgan shu kunlarda siz, qorako‘z, shirinso‘z hamqishloq, ovuldosh aka-ukalar, yordam berishingiz lozim.

— Yordamga kuch qayoqda? — dedi kimdir.

— Kuch deysanmi? Kuch men bilan sen. Qolaversa, mana shu o‘tirgan xaloyiq. Barchamiz bir yoqadan bosh chiqarsak bo‘lgani.

Kimdir pisanda qildi:

— Xudo urib, ming urug‘ning sasigan etagini yana o‘pamizmi? O‘rda deb yurib...

— Ko‘ramiz, — deya ilib ketdi Abil biy, — ming urug‘ emish. Ming urug‘ yerga kirsin! O‘rda qayta tiklansa, o‘zimiz bilamiz.

— Biy, — dedi Beknazar, — chirigan o‘rdani qayta tiklamoqchimisiz? Ovora bo‘lmang, Xudo yarlaqagur... Gapingiz o‘sha eski gap. “Birlik”, “lik” deb xalqni suvdan olib, o‘tga solib, ko‘p ovora qildik. O‘rdangiz odamlarga nima berdi? Aslida, xalq ko‘ylagini qoniga bo‘yab, necha marta qo‘liga tutqazdi...

Abil biy baqirib yubordi:

— Hoy, sen aytgan gap to‘g‘ri deylik. Ammo bir tomondan jazo otryadi qisib kelyapti. Nima qil deysan? Tomog‘imizni qo‘yday pichoqqa tutib beraylikmi?!

Ana shu pallada ikkovi ham haq edi. Shuning uchun Abil biyni ham, Beknazarni ham to‘planganlar yoqlab turishdi. Biy javob kutdi. Beknazar nima deyishini bilmadi.

— Mana shunaqa, qorako‘z yurtdoshlarim, sizlarga birgina to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatyapman, xolos. El og‘asi bo‘lgan yaxshilar, eshitmadim demanglar, chorvador, dehqon, savdogar — barimiz birikib, qo‘limizga Qur’on ushlab, qasamyod bilan bir tug‘ ostiga to‘planamiz. Bu maslahat allaqachon pishib yetgan. Biz birinchi bo‘lib otlanamiz. Eshitdinglarmi? Tez kunda Namangandagi o‘ris askarlari bilan to‘qnashamiz.

O‘tirganlar boshini sarak-sarak qilishib, “Qanday kunlarga qoldik? O‘risning zambaragiga qamchi bas kelarmidi? Balo bosdi-ku?” deb tashvishga tushib qoldi. Boshqa iloj yo‘qligi odamlarning shashtini qaytardi. Hech kim qarshi so‘z aytolmadi. Abil biyning buyrug‘i o‘z kuchida qoladiganga o‘xshardi.

— Kurashamiz, qirilamiz, Xudo yor bizga! O‘z o‘rdamizni, o‘z obro‘yimizni ko‘taramiz! Omin...

Almambet eshitmay qolgan gaplarini nabirasidan uqib o‘tirardi. U gapirmoqchi bo‘lib nafasini rostladi. Almambetni ko‘rib Abil biy to‘xtadi.

Yuz yoshni urib qo‘ygan qariya nor tuyaday bo‘ynini cho‘zib, yutinib:

— Ha, eshitdim ahvolinglarni. Attang, boshimizga yomon kunlar tushib qolibdi-ku? Ey Beknazar, qayerdasan?

Beknazar: “Men nimaga kerak bo‘lib qoldim ekan?” deb Almambet tomonga bo‘ylab qo‘ydi.

— Almambet aka, Beknazar shu yerda o‘tiribdi... — dedi kimdir.

— Him, mening ismim Almambet. Quzg‘unning yoshini yashadim... — dedi entikib. — Beknazar, menga quloq sol.

— Qulog‘im sizda, otaxon!

Hamma ularning suhbatiga diqqat bilan quloq soldi.

— Bu qiziq ekan-ku? Shuncha yoshga kirib, dunyoda to‘qson urug‘ o‘zbekdan boshqa el borligini bilmagan ekanman. Sen u yoq-bu yoqda ko‘p bo‘lgansan, boyagi bostirib kelayotgan o‘ris deganni o‘z ko‘zing bilan ko‘rganmisan, bolam?

Beknazar nima deyishini bilmay qoldi. “Oqsoqol buni so‘rab nima qilarkin?” degan xayolga keldi. Qariya ko‘z qirini hamon Beknazardan uzmasdi. U javob berdi:

— Ko‘rganman...

— Qanaqa bo‘ladi? — qiziqdi chol.

Abil biy qarab: “Ey, Xudo, bandangni namuncha aljitmasang?! — deb miyig‘ida kuldi. Beknazar javob berdi:

— Dumaloq bosh, oyog‘i ayri.

— Ha-ha, gaplashadimi?

— Gaplashadi. O‘zlarining tilida.

— Qovog‘ini soladimi?

— Soladi...

— Kuladimi?

— Kuladi, otaxon. O‘z ko‘zim bilan ko‘rdim.

Xaloyiq bu g‘aroyib savol-javobni eshitib, qotib-qotib kulardi. Ko‘pchilik cholning gapini eshitmay oldinga intildi.

Almambet:

— Beknazar, aljigan bobongni so‘ziga erinmay javob aytgin. O‘ris ovqat yerkanmi?

Beknazar jilmayib:

— Nega yemaskan! — dedi.

Almambet terlab ketdi. Nabirasi ro‘molcha bilan uning peshonasini artdi.

— Ana xolos, — deb astoydil hayron bo‘ldi Almambet, — bu o‘rising dumaloq bosh bo‘lsa, gapirsa, u ham bizga o‘xshagan odam ekan-da?! Qovog‘ini solsa — qahrli, kulsa — rahmdil. Tirikchilik qilsa — aldarkan, aldanarkan. Bundan chiqdiki, o‘zimizday bir bandayi mo‘min ekan?! — O‘tirganlar o‘rtasida gurros kulgi ko‘tarildi. Eshitmay qolganlar yon-veridan so‘rab-bilib zavqlanishardi. Bir asr umr ko‘rgan oqsoqolning so‘zidan ma’no o‘qishni istagan xaloyiq yana jim bo‘ldi.

— O, sho‘ring qurg‘ur qorako‘z xalqim, — dedi Almambet, — qirilishning nima yaxshiligi bor?! O‘rda deysizlar, o‘rda kimning peshonasini siladi?! O‘rislar bizday odam ekan, odamzodni yaxshi gap otdan tushiradi. “Yaxshi so‘z bilan ilon inidan, yomon so‘z

bilan pichoq qinidan chiqadi", deb behuda aytishmagan. Do'stlik choponini kiyib, o'sha o'rislarni hurmat bilan yo'lda kutib olinsa nima bo'ladi?..

Odamlar qariyaning gapini diqqat bilan tinglab, biroq hech kim hech nima demadi. Bu biror kishining tushiga ham kirmagan fikr edi.

— Odamzod, — dedi Almambet so'zini davom ettirib, — bir-biri bilan sirlashgandan keyin do'stlashadi, Rizq oqar, aql yuqar, deganlar. Qadrdonlarim, qo'linglardan kelsa, o'ris bilan topishib ketganga nima yetsin? Hali ko'rasizlar, taqdirimiz birlashib, yor-u birodar bo'lib ketamiz.

Hurmatli kishilardan biri:

— E, Xudo! Mana bu "o'zi o'ziga biy" zap gapni aytdi-da, — deb qoldi.

Abil biyning jon-poni chiqib ketdi:

— Elning biyi men! Hoy, o'zi-o'ziga biy, senga nima yetishmayapti? — deb o'rnidan turib ketdi.

O'tirganlar endi uning so'zini inobatga olmay qo'ydi.

— Bu boshqa gap. Buni aqlli maslahat deydilar.

— Nega kutib olmas ekanmiz? O'ris ham bizga o'xshagan el ekan!

— E, o'sha o'rdang boshingdan qolsin, qizitaloq! O'rdadan nima huzur-halovat ko'rdik! O'risga qo'shilamiz. Do'st bo'lamiz!..

Abil biy:

— Shoshma! Hoy, quturgan xalq! — deb qichqirdi. — Hoy, quturgan xalq!

Hech kim eshitgisi kelmadi.

Biy loy bo'lib o'tirib qoldi. Yon-veriga qaradi. Uni qo'llaydigan odam yo'q. Hozirgina unga quloq solib turgan odamlar birdan choponini teskari kiyib olsa-ya? Attang, qilich olib bir chetdan qirib yuborgisi keldi-yu, qahri qattiq, zabardast Beknazarni ko'rib ichidan zil ketdi, a'zoyi badanini ter bosdi.

Almambet:

— Beknazar!

— Labbay, qulog'im sizda.

— Sendan boshqa ishonchli odam yo'q. Qaddingni ko'tar, o'risni sen kutib olasan!

Beknazar o‘rnidan turib kelib, qariyaning qo‘lidan o‘pib, ko‘ziga surtdi:

— Otaxon! Boshqa birov saylansin... Men bunaqa ishlarga qo‘l siltagan edim.

— Shunday qil, bolam, — dedi chol botirning gapini eshitmay qoldimi yoki eshitgan bo‘lsa ham adi-badi qilishni ep ko‘rmadimi, so‘zida dazom etdi, — o‘ris o‘q otsa, birinchi bo‘lib yiqil, gapga yursa, yo‘lini top. Xullas, xalqning og‘ir kunida malham bo‘l. Senga o‘zga yo‘l yo‘q, chunki seni bekorga botir deyishmaydi!

Nima qilsin? Beknazar hayron bo‘lib qoldi. U xonavayron bo‘lgan, tinkasi qurib, ramaqda joni qolgan o‘z xalqining taqdirini o‘ylab yerga tikilib turardi.

— Bo‘shashma, botir!

— E, bu ishga sen yaramasang kim yaraydi?!

— Ha, shunaqa bo‘lsin, Beknazar aka...

Xaloyiq bir ovozdan ma’qulladi. Davradan olisroqda otliq yigitlar “Beknazar!”, “Beknazar!” deb qichqirishayotgandi. Bular Abil biy to‘playotgan qo‘shinning bir qismi edi. Beknazarning avvalgi g‘ayrati jo‘shib, olqishlar unga kuch-quvvat qo‘shib, o‘rnidan qo‘zg‘aldi;

— O, qorako‘z yurtdoshlarim! — dedi Beknazar. — Mayli, bor desanglar borib, o‘rislarni kutib olay... Endi mening iltimosim shuki, to‘plangan yigitlar o‘z qishloqlariga tarqalib, dehqon ham, chorvador ham o‘z ishini, o‘z tirikchiligini qilsin...

— Bo‘ldi!.. Aytganing aytgan, Beknazar botir! — dedi gurullab xaloyiq.

Shunday qilib, yuz yoshli Almambetning gapi ko‘pchilikka manzur bo‘ldi.

Almambetni nabiralari zambilga o‘tqazishib, yelkaga olishdi. Og‘zi qulog‘iga yetgan Gulkishi chavkar arg‘umoqni Beknazarning oldiga yetaklab keldi. Temenesuvga to‘plangan odamlar bahorning toshqin suviday shoshib, xursand bo‘lib uy-uylariga tarqala boshladi.

Abil biy o‘tirgan joyidan turolmadi, birov uni yur demadi. U tepalikda quzg‘unday shumshayib qoldi...

III

Is'hoq dorga osilgandan keyin Xudoyor bilan Nasriddin har qaysisi o'zicha: "Yarim podsho endi meni xon qiladi", deb o'ylardi; bir-biridan qizg'anardi, xonlikka ko'tarishda kerak bo'ladigan oq kigizni tuyaga ortib, yarim podsho atrofida girdikapalak bo'lib yurardi. "Va'daga binoan Qo'qonning donishmandi men bo'lishim kerak", — deb Abdurahmon bir yoqdan umidvor edi. Yarim podsho buni ko'ra-bila turib, ularga uncha ro'yxush bermay qo'ydi. Nega deganda bu chirigan o'rda yo'q qilinmaguncha xalq qo'zg'oloni bosilmasligi aniq edi. Xonlarga hamisha yon bosilsa, Rossiyaning mahalliy xalq oldida obro'-e'tibori ketib qolardi. Tadbirkor fon Kaufmanning bunga ko'zi yetgandi.

Ko'p o'tmay yon-veridagi aholiga so'zi o'tadigan Qurmonjon dodxoh oyim O'shga kelib, general Skobelev bilan uchrashdi. O'lkadagi boshqa shaharlarning ham kaliti topshirildi, degan ma'noda (qirg'izlarning yoshi ulug' ayollari rasm-rusumga ko'ra, sochlariga kumushdan, misdan taqinchoqlar yasatib, bir necha kalit ham osib yurishadi) bir shoda kalitni rus generali oldiga tashladi, urush to'xtaganligining belgisi sifatida belidagi oltin sopli xanjarni yechib berdi. Shu yo'l bilan tadbirli ayol onalik xizmatini o'tab, o'rdaning tugatilishiga rozilik bildirdi, yurtning Rossiya ixtiyoriga o'tishini qo'llab-quvvatladi, xalqning bundan buyon tinch-totuv yashashiga kafil bo'ldi.

Shundan so'ng fon Kaufman Qurmonjon dodhoning "Oloy malikasi" degan quruq shuhratini o'chirmay, uning yoniga polkovnik degan nomni qo'shib qo'ydi, Nasriddinni dvoryanlikka o'tkazdi, Abdurahmonga ham polkovnik unvoni berib, ularni bir yoqli qilgan bo'ldi.

O'shanda ham "onadan xon bo'lib, bek bo'lib tug'ilganman", deb yurgan kishilar tinib-tinchimadi. Tushunmagan Nasriddin "dvoryan" deganga rozi bo'lmadi, qo'lida birorta soldati yo'q Abdurahmon polkovnik mundirini kiyib yurishni ep ko'rmadi, ularga Xudoyor rahnamo bo'ldi, zimdan o'rdani qayta tiklash harakatiga tushib qolishdi.

Ammo ularning viloyatlardagi Abil biyga o'xshagan ishonchli kishilari hech joyda ish chiqara olmadi. Xalq o'zi tanlab, urush

yo‘lidan tinch hayot yo‘liga o‘tdi. Sir fosh bo‘lgach, Xudoyor “janob oliylari”, Nasriddin “dvoryan”, Abdurahmon esa “polkovnik” “unvoni”dan chetlatilib, Orenburg guberniyasiga surgun qilindi. Orzusi xalq orzusiga sira to‘g‘ri kelmagan, ommaning qo‘llab-quvvatlashidan tamoman ajrab qolgan eski o‘rda qulab, uning qonli qilichi sindi...

IV

— Rahmat, botir, nima bo‘lsa ham tuqqanim ekansan, chaqirsam so‘zimni yerda qoldirmay kelib, tuz totib o‘tiribsan, — dedi Abil biy alamzadalik bilan... — Shu kunga qadar qattiq gapirgan bo‘lsam, barini o‘rda nomidan aytib, o‘rdaning qamchisi bilan savalaganman. Bundan faqat menga elning gina-kudurati ortdi. Amri podsho vojib, qo‘limdan nima kelardi? Aytgani aytgan, degani degan. Iltimosim shu, xalq senga ishonib qoldi, omad seniki. Mening boshimdan baxt, qo‘limdan kuch ketdi, kechirishni lozim topsang, meni kechir...

Do‘ngda yakkamoxov bo‘lib qolishi Abil biyga o‘tib ketgan ekanmi, o‘zini ancha oldirib qo‘yibdi. Qoratosh oyim go‘yo hech narsa bo‘lmaganday mehmon kutib, “Keling, botir yigit... qimizdan ichib o‘tiring...” deb noz-u karashmalar bilan qimiz uzatardi.

Mehmon ikki kishi edi.

Beknazar yo‘l bo‘yiga o‘tovlar tikdirib, yosh-qarilarni to‘plab, rus otryadini kutib olishga tayyorgarlik ko‘rayotganidan xabar topgan Abil biy o‘zidan, merosidan cho‘chib, yarashsa yarashar, yarashmasa el ko‘ziga botirning ko‘nglini olib qo‘yay degan niyatda xotini qoraqosh oyimni Beknazarni mehmonga chaqirib kelish uchun yubordi. Botir ham, “ko‘pni ko‘rgan odam, biror maslahati bo‘lsa kerak”, degan mulohaza bilan Gulkishini olib bu yerga keldi.

— Men endi sening yo‘lingga to‘g‘anoq bo‘lmayman, Beknazar. Endi elni o‘zing boshqar. Har kim o‘z yo‘li bilan yurgani yaxshi. Keyingi avlod yo menikini, yo senikini to‘g‘ri der...

— Abil aka, biy bo‘lish maqsadim yo‘q. Gap bunda emas-ku? O‘ris katta xalq ekan, otgan o‘qi olisga yetarkan. Murosayi mado-

ra kerak! Ishonchli kishilardan eshitdik, Edilning quyi qismidagi sahroyi qozoqni, Sari-O‘zgan-Chuy atrofidagi qirg‘izni ular yutib yuborgani yo‘q-ku? Qaytaga ahil-inoq yashayapti. Ularni qaysi birimiz kutib olmaylik, bari bir.

Shu payt Qoraqosh oyim boshqalarga sezdirmay eriga zimdan qarab qo‘ydi. Abil biyning xayoli charx urardi. “Bu bola balo ekan-ku, bunchalik aql-u farosatni qayoqdan oldi?” deb tan berib, “mayli, ikkovimiz kutib olaylik”, yoki, “mayli, men kutib olaqolay, yoshim ulug‘”, deb yuborishiga oz qoldi. Yo‘q, bunday qilishi to‘g‘ri emas. “Bu ko‘nsa ham xalq ko‘nmaydi” deb yuragi ezilib ketdi.

— Qo‘y, Beknazar, — dedi qari tulki, — xaloyiq yo‘lni senga berdimi, o‘zing kutib ol, botir! Mening oldimdan o‘tib qo‘yganing uchun boshim osmonga yetdi...

Beknazar esa qilayotgan ishlari, tayyorgarligi haqida so‘zladi. Abil biy o‘z xayoli bilan band edi. Niyati qora Abil biy o‘rgimchakday fisq-u fujur to‘rini to‘qib, ko‘ngli nimanidir tusardi. “Bu ko‘nsa ham xalq ko‘nmaydi. Beknazar hayot ekan, hech kim meni nazar-pisand qilmaydi”, deb adovati kuchayardi,

Toyning go‘shti, boldayin qimiz dasturxonning guli bo‘ldi. Qoraqosh oyim mehmonlarni behad yaxshi kutdi.

Gulkishi ich-ichidan xursand bo‘lib:

— Endi Abil aka, bu yog‘ini ko‘rarmiz, — deb og‘zini to‘ldirib gapirib, Abilga taqlid qilib rohatlanib o‘tirardi. Qoraqosh oyim ovqat hazm bo‘lsin uchun ko‘k choydan bosib-bosib quyardi.

— Biy, bizga ruxsat bering, — dedi Beknazar ziyofat uchun Qoraqosh oyimga rahmat aytib. Uy bekasi ham mehmonlarga minnatdorchilik bildirib:

— O‘tgan-ketgan ishlarni ko‘nglingga olmay, kelib og‘angni uyidan tuz totganing uchun rahmat, qaynim! Buni ko‘rib do‘st suyundi, dushman kuyindi. Xursand bo‘ldik, — deb o‘rnidan turdi va sepi ustida turgan oq piyozi kamzulni Beknazarning yelkasiga yopdi.

— Qutlug‘ uydan quruq chiqmaydi, — dedi Abiy biy.

Kamzul ixlos bilan tikilgan edi. Oq bo‘taloq junidan to‘qib tikilgan, avra-astari bejirim, choklari ipak kamzul Gulkishining ko‘zini o‘ynatib yubordi.

— Og‘angning to‘plagan dunyosidan emas, buni o‘zim erinmay tikkanman, yomon bo‘lsa ham eslab kiyib yurarsan, qaynim, — dedi Qoraqosh oyim.

Odat shu. Beknazar yo‘q deyolmadi. Ko‘pdan ko‘p rahmat aytdi. Gulkishi kamzulning yengidan ushlab:

— O-o-o! “Yomon bo‘lsa ham”, deysiz-a?! Qo‘lingiz dard ko‘rmasin, yanga! — deb qo‘ydi.

Negadir Abil biyning rangi o‘chdi, o‘yga toldi, yigitlar mehmonlarning otlarini tayyorlasin, deb Qoraqosh oyimga tayinlagan bo‘ldi. U ketishi bilan darrov o‘rnidan turib:

— Endi, mehmonlar, — deb qo‘shni xonadan bejirim sanochni olib chiqdi, — yodimdan ko‘tarilibdi. Yomon odatim bor, men qimizni alohida achittirib ichaman, ba’zan sal me’yoridan o‘tibroq ketadi-yu, biroq ichsam chanqog‘imni bosadi.

U sanochni shilqillatib bir-ikki chayqab, zarang kosaga to‘ldirib quydi-da, Beknazarga uzatdi. U quloq qoqmay oldi. Abil qimizdan Gulkishiga ham quydi.

— Ichinglar, mehmonlar...

Beknazar qimizdan bir simirdi-yu, nimagadir tamshandi, o‘sha zahoti boshini ko‘tarib, Abilga o‘qraydi. Abilning ko‘zi olayib, rangi quv o‘chdi. Gulkishi kosani endi labiga olib boruvdi, Beknazar uning qo‘lini siltab yubordi, qimiz to‘kilib ketdi, Gulgkishi nima qilishini bilmay qoldi. “Otlar tayyor”, deb eshikdan kirgan yigit ichkaridagi ahvolni ko‘rib, Abil biyga javdirab qaradi.

Beknazar qo‘lidagi kosa bilan Abilning basharasiga bir urib, indamay eshikka yo‘naldi. Gulkishi orqasidan chopib chiqdi. Boshidan qimiz oqib tushayotgan Abil qimir etmasdi. Yigiti mehmonlar ortidan chiqmoqchi bo‘luvdi:

— Chiqma, — deb jerkib berdi Abil. Tashqaridan shoshib Qoraqosh oyim kirdi.

— Nima bo‘ldi?

Abil churq etmadi.

Beknazar otga mindi-yu, choptirib ketdi. Gulkishi nima bo‘lganini tushunmay, aybni Beknazarga qo‘yib izma-iz borardi. Ayri dovonga yetganda soya-salqin, sersuv yashil o‘zan ko‘zga

tashlandi. Beknazar tizg'inni tortdi. U ot ustida qaddini tiklolmay qalqidi. Gulkishi yetib borib uni suyab qoldi. Beknazarning rangi ko'karib, ko'zi shilpiqlanib ketibdi. Bu azob belgisi edi.

— Hoy, sadag'ang bo'lay, nima gap o'zi? — deb Gulkishining kapalagi uchdi. Beknazar boshini chayqadi. Harorati baland. Qariyaning ko'nglini vahima bosdi.

— Afsus! E, afsus, Abil boshingga yetibdi, bolam. Beknazar ikki marta o'xchib, ot yoliga qon qusdi. Gulkishining jon-poni chiqib ketdi. Belidagi belbog'ini yechib, botirning ko'kragini, og'zini artdi. Beknazar yana o'xchidi. Badani uvishdi. Bir vaqtlar tol xodani siqib, suvini chiqargan polvon endi ikki buklanib egar qoshiga yopishib olgandi.

— Gul aka, — dedi u arang.

— Ha, sadag'ang bo'lay, Gul akang sendan o'rgilsin.

— Gul aka, iltimosim shu... Eng oxirgi iltimosim...

— Xo'sh, sadag'ang bo'lay, Gul akang sendan o'rgilsin.

— Bo'lar ish bo'ldi, ko'rib turibsiz, Gul aka. Yosh bola emassiz, zahar ichdim... Iltimosim shuki, buni hech kimga aytmang, Gul aka... Chayqalib yurib to'kildik, chopishib yurib tugadik! Mendan oldin ham, mendan keyin ham odam o'ladi. Yuragimda birgina armonim qoldi. Xalqning so'nggi topshirig'i edi, o'rislarni kutolmay ketadigan bo'ldim... O'zinglar chiqib kutib olinglar...

Gulkishi nima deyishini bilmay ho'ngrab yig'lardi. Beknazar to'lg'anib, ko'zlari suzilib, ot ustida jon berdi...

"Nima bo'ldiykin? Bo'lar ish bo'ldi. O'lsa o'kirik, o'lmay qolsa qiyqiriq. Ikkisidan biri..." deb Abil tong otguncha ko'z yummadi. Tashqaridan shitir etgan tovush kelsa yoki it hursa, olazarak bo'lib eshikka qarardi. Hech kim bilan gaplashmasdi! Qoraqosh oyim garang edi. Abil borgan sari qosh-qovog'idan qor yog'ib, quritilgan baliqday tirishib o'tirardi. Xotini gapni nimadan boshlashini bilmay, uning yoniga o'tirdi:

— Dodxoh, tabib chaqirtiraymi? — dedi.

Abil yo ha demadi, yo yo'q demadi. Uning miyasida bitta gap aylanardi; "O'lsa o'kirik, o'lmay qolsa qiyqiriq".

Tashqarida kimdir ot choptirib kelib to'xtadi. Abil kimxob choponini yelvagay tashlab o'rnidan turdi.

Qoraqosh oyim eshikka chiqdi. Yo‘lga qo‘yilgan qorovul ekan. Rangi ro‘yi o‘chgan. Abil undan “O‘lsa o‘kirik”ni, “o‘lmay qolsa qiyqiriq”ni kutdi.

— Biy, botir qazo qilibdi, — dedi qorovul hovliqib. Qoraqosh oyim dodlab yubordi. Abil goh oqarib, goh qizarib, yupqa lablari titrab qorovulga qaradi:

— Nima deb o‘libdi? A, biror uzr-ma’zurini aytibdimi?

— Bilmadim, biy, Ko‘lmozorga go‘r kavlagani kelgan odamlarni ko‘rdim... Biy o‘ziga keldi. Peshonasidan ter chiqdi. U eshittirib “Xudo rahmat qilsin”... dedi-da, kaftlarini yuziga surdi. “E? Go‘r qazigani kelishgan bo‘lsa, menga atay xabar yuborishmagan ekan-da?.. Mendan gumonsirashmaganmikin?” deb talvasaga tushdi.

— Esiz botir! Shunday pok, yo‘lbarsday pahlavon, yuz yoshga chiqqan chollarday donishmand edi, — dedi Abil qorovulning ko‘zi oldida, xotinining ro‘parasida turib, quvonganidanmi yoki achinganidanmi yig‘ladi. — Xudo rahmat qilsin! Jon bor joyda o‘lim bor. Hammamiz bir kuni o‘sha yerga boramiz.

Qoraqosh oyim sidqidildan ko‘z yoshi to‘kdi.

V

Polkovnik Mashin Namangan shahridan chiqib Safed-Bilol qishlog‘i orqali kelayotgandi. Quturgan uch yuz kazak-rus otryadi Safed-Biloldan o‘ngga burilib, Bo‘zbu tog‘ining osti bilan Norin daryosi bo‘ynga chiqdi.

Tog‘ oralab, durbin bilan goho atrofni kuzatib ehtiyotkorlik bilan kelishardi. Otryad ba’zan ekin ekilmay qolib ketgan maydonlar, qarovsiz qolgan qishlovlarga duch kelardi. “Qora qirg‘izlar ko‘chmanchi xalq, — deb tilmoch tushuntira boshladi polkovnik Mashinga, — ko‘rmaysizmi, ular shunday joylarga ekin ekish, bog‘ qilish o‘rniga yaylovma-yaylov ko‘chib, mol boqish bilan ovora bo‘ladi. Kuzda ko‘chib kelishadi. Bu yerlarga o‘shanda bo‘z o‘tovlar sig‘maydi”. Mashin indamay, jilg‘alarga gumonsirab qarardi. “Balki qochib ketishgandir. Pistirmada yotgan bo‘lsa-chi?” deb otini yeldirardi.

Ikki suv qo‘shilgan yerga kelishdi. Polkovnik Mashin to‘riq qashqaning jilovini tortib to‘xtadi. Suvning biri ko‘m-ko‘k, ikkinchisi oppoq edi. Qirg‘og‘ida sambittol novdalari qizlarning sochiday osilib turardi. Teraklarning yaprog‘i mayin shivirlardi. Asal hidi anqirdi. Yovvoyi o‘riklar pishgan edi. Hech kim yo‘q. Havoda bo‘z to‘rg‘ay chuldiraydi. “Behisht”, — dedi o‘zicha Mashin. Yuzboshi uning shirin xayolini bo‘ldi.

— Hazrat! Mahalliy kishilar...

Polkovnik qovog‘ini soldi va qalin yong‘oqzordan biroz oldinga chiqib turgan o‘n chog‘li odamni ko‘rib:

— Tayyorlaninglar, — dedi.

Bir zumda otryad safga tizilib, yong‘oqzorni o‘rab olish uchun hozirlandi. Mashin tilmoch bilan birga bordi. Atrof jimjit. Urushguday holat sezilmadi.

Qo‘rqa-pisa turgan o‘n kishining ichidan sallali, kimxob chopon kiygan bir kishi otliqlarga peshvoz chiqdi. Orqasidan qolganlar ergashdi. Bellariga oq belbog‘ bog‘lagan yosh yigitlar. Qo‘llari ko‘ksida. Kimxob choponli kishi cho‘k tushib, ta’zim qildi.

— Assalomu alaykum, Odam Atoning iqbolli farzandlari!

Tilmoch tarjima qildi. Polkovnik mo‘ylovini burab, ko‘zlari kulib bosh irg‘adi. Kepatasi o‘rdaning qo‘lga tushgan donishmandlariga o‘xshagan odam mayin ovozda ko‘p gaplarni aytdi.

— Nimaga qarab turibmiz? Bular bilan adi-badi aytib o‘tirguncha o‘rikni shoxiga ilib ketmaymizmi, — dedi yuzboshi betoqat bo‘lib.

— Ulguramiz, — dedi Mashin.

Tilmoch tarjima qildi:

— Shu atrofdagi qora qirg‘izlarning bir biyi, ruslarga tarafdorman, niyati xolis odamman, deydi. Qadrli mehmonlarning kelishini eshitib, sovg‘a-salom bilan kutib turibmiz, tuz totib ketinglar, deyapti. Ismi Ibn Qarash Abil biy ekan...

— E, shundaymi? — dedi polkovnik.

Abilning ko‘zi tilmochga tushdi. Tilmochning ko‘zi unga tanishday tuyuldi. O‘zini rostladi. Bular bilan munosabatimni yaxshiroq yo‘lga qo‘yarmikin, deb o‘yladi. Uni o‘zidan boshqa kishilarning taqdiri mutlaqo qiziqtirmasdi.

— Kelinglar... To‘rga o‘tinglar, — deb biy engashib kelib, Mashinning uzangisini tavof qildi. — Kelinglar.

Polkovnik, “bu nimasi”, deb tilmochga qaradi. Tilmoch “bo‘ysinganlik belgisi...” dedi.

— Ulug‘lar, Odam Atoning iqbolli farzandlari, Xo‘jayi Xizr jilovdor bo‘lgan bandalar, mening elimda hazrati oqposhshoning hurmati uchun yarim poshshoning muhtaram to‘rasiga hech qanday yomon niyatimiz yo‘q. Kelinglar, izzatli mehmonimiz bo‘linglar...

Tilmoch tarjima qildi. Polkovnik otini niqtab:

— Hechqisi yo‘q, gaplashamiz, mehmon bo‘lamiz... Bu qiziq, — dedi.

Abil oldinda borardi. Yo‘lda turgan yigitlariga; “Bo‘linglar, dasturxonni yozinglar”, deb tayinladi. Yong‘oqzor ostiga yetgach, Abil bosh egib ta’zim qildi.

— Kelinglar, aziz mehmonlar. Yo‘l azobi yomon, toliqib chanqagansizlar. Mana maydon, mana soya-salqin joy, — deb girdikapalak bo‘ldi.

Tilmoch tarjima qildi. Mashin otdan tushdi. Abil ad’yutantdan oldin borib otni ushladi.

— Tushungan odam ekan, — dedi polkovnik. Buni mug‘ambir Abil darrov sezdi: “Ha, bu ham banda ekan. Izzat-hurmat Xudoning qaysi bandasiga yoqmaydi?” deb yuziga tabassum yugurdi.

Yigitlarning qo‘li qo‘liga tegmay dasturxonlarni yozib, go‘shtlarni laganlarga solib, salqinda turgan qimiz to‘la sanochlarni olib kelishdi. Soldatlar salqinlab, suvda cho‘milishardi.

Polkovnik Mashin xavf-xatarga asos yo‘qligini ko‘rib, biroz aylanib, suvda yuvinib keldi. To‘kin dasturxon uning chehrasini ochib yubordi.

— Qani mehmonlar... Qani dasturxonga, — deb Abil poy-patak bo‘ldi.

Polkovnik negadir o‘tirmay Abilga gumonsirab qaradi. Abil buni bilib dasturxondagi go‘shtdan qimizdan oldin o‘zi tatidi. Buni ko‘rib turgan askarlar qah-qah urib kulishdi. Polkovnik Mashin Abilning yelkasiga qoqdi:

— Ismim kim dedingiz?

Abilning ko‘zi o‘ynab tilmochga qaradi.

— E, o‘zimizdan ekansiz-ku?! Taxliting o‘ris, tiling qozoq-chalish, no‘g‘ayga o‘xshaysan, qarindoshim?

— O‘z ismingni ayt! — dedi tilmoch qovog‘ini solib, — mening kim ikanimda surap nima qilasan? O‘zing juvap bir!

Abil boshda hovliqib gapirib, sovuq muomaladan keyin xijolat bo‘lib polkovnikka qaradi.

— Mening ismim Abil... Abil biy — dedi.

Dasturxonga o‘tirishdi. Mashin to‘rga, yuzboshi tilmoch o‘rtasida o‘tirdi. Ularga Abilning o‘zi xizmat qildi.

Tush og‘ib ketguncha o‘tirishdi. Har xil gap-so‘z bo‘ldi. Ikki tomon ancha til topib qolishdi. Polkovnik qopchig‘idagi idishdan aroq oldirib yuztadan quydirdi.

— Nu, qadrli biy, — dedi Mashin aroqni uzatib, — endi siz biz bilan ichasiz. Tilmoch kulib tarjima qildi. Abil tiniq suyuqlikni ko‘rib, tilmochga qaradi. Tilmoch:

— Sizlar aroq deysizlar, — dedi. Abil ichida kalima keltirib, “E, Xudo, endi nima qildim?” deb gangib qoldi.

— Ulug‘ to‘ram, — dedi zo‘rg‘a kalovlanib, — bizning Xudo aroq ichishga ruxsat bermaydi. Gunoh bo‘ladi. Kechirasiz...

Tilmoch tarjima qildi. Mashin mo‘ylovining bir yog‘ini uchirib, moviy ko‘zlarini tikib:

— Bizning Xudo ham sizlar bilan birga o‘tirishga ruxsat bergan emas. Mana biz, o‘tiribmiz-ku?! — dedi. Tilmoch tarjima qildi. Abilning tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib: “E, Xudo, o‘zing kechirgin! Poshshoing kofir bo‘lsa ham amrini tut, cho‘loqning esa oxirini kut, deb ulamolar bekorga aytmaganlar”, — deya piyolani qo‘liga oldi-da, bir tamshanib, qult etib ichib yubordi. O‘tirganlar zavqlanib kulishdi.

— Bu boshqa gap! — dedi polkovnik va o‘zi aroqni hech seskanmay maza qilib ichdi.

Ayniqsa, askarlar qimizni huzur qilib ichishardi. “Vo! Yaxshi kumis!” deb qo‘yishardi. Abil chindan ham hayron qoldi.

— E, musulmon no‘g‘ay, — dedi Abil, — bular ham qimizni bilarkanda-a?

— Alasha[1] itin oshamiylar. Sutun-da ishmiylar. Kunup alishti prosto! Butkul kazak dalasinan utup kelishti. Kunup alishti, prosto, — deb tushuntirdi ko‘zlari aroqdan qizarib ketgan tilmoch. — Barina kunar, barina kundurar. Shunisi bilan qiyin bular...

Nariroqda soldatlar qirg‘iz yigitlar bilan o‘zlaricha til topib gurunglashardi. Polkovnik sal kayfi oshdimi, amalini, rusligini unutib, anaqa-munaqa gapga quloq solmay, o‘zinikini ma’qullatishga tushdi.

Shu payt narigi betdagi adirdan Qulmozor yoqqa odamlar chuvalanib o‘ta boshladi. Mashin o‘sha tarafga yuzlandi. Tilmoch ham qo‘lini soyabon qilib qaradi.

— E, — dedi Abil rangi bo‘zarib, — bu odamlar qabristonga o‘lik ko‘mgani ketishayotir. Ulug‘ to‘ramizning iqboli bo‘lsa kerak, bir yovuz dushmaninglar bor ekan, kecha qon qusib qazo qilibdi. O‘shani ko‘mgani ketishyapti. Xavotir bo‘lmanglar, endi bu xalq sizlarning ixtiyoringizda...

Tilmoch tushuntirgach, polkovnik ko‘ngli o‘rniga tushib, durbin bilan tomosha qildi.

Eng oldinda to‘rtta polvon yigit tobut ko‘tarib borishyapti. Marhumning oti tuyog‘iga qadar yopqich bilan o‘ralgan, egari qoshiga qinsiz qilich osib qo‘yilgandi. Marosimga kelganlar tobutni qo‘lma-qo‘l qilib qabristonga yaqinlashayotgandilar.

Odamlar qabrga yetib kelgach, go‘rkovlar tobutni yigitlarning yelkasidan olishib yerga qo‘yishdi...

Polkovnik Mashin yana qaradi-da, o‘rnidan turdi.

— Nu, rahmat, biy.

Mehmonning ketmoqchi bo‘lganligini tilmochsiz tushungan biy:

— Ey... Qorachol, — deb orqasiga o‘girildi.

Qorachol ham xuddi kutib turganday kumush laganda pishgan g‘ozni ko‘tarib keldi. Mashin g‘ozdan ko‘ra davangir Qoracholga qiziqib qarab qo‘ydi.

— Shuni yeb otlaninglar. Bular parranda go‘shtini xush ko‘rishini o‘zingiz bilasiz, abziy. Biz g‘oz boqmaymiz. Shuning uchun buni atay shahardan oldirib keldik, — dedi Abil. Tilmoch tarjima qildi. Polkovnik Mashin:

[1] Ot (red izohi).

— E, bu nimasi, do‘stlarim?! — dedi, u, buni qayerimizga yeymiz, deganday afti burishdi,

Abil:

— Yo‘q... Oling, to‘ram, oling, — deb polkovnikning ta’bi tortmaganiga qaramay qistadi. — Og‘ayni, sen ayt, hech bo‘lmasa sonini ayirib, tatib ko‘rsyn.

Tilmoch tushuntirdi.

Polkovnik mezbonning shinavandaligidan xursand bo‘lib, kumush laganni oldiga tortdi, g‘ozning qorni kanop bilan tikib qo‘yilganini ko‘rdi-yu, jirkanib boshini chayqadi, noiloj g‘ozning bir oyog‘idan tortgan edi, hil-hil pishgan go‘sht titilib, g‘oz qornidan moyga aralashgan oltin tangalar dumalab tusha boshladi. Polkovnik hang-mang bo‘lib Abilga qaradi. Ularning ko‘zi to‘qnashdi. Abil boshini asta qimirlatdi. Tilmoch o‘zini ko‘rmaganga oldi. Polkovnik yo qo‘lini artishini, yo ichiga oltin to‘ldirilgan g‘ozni nari surib qo‘yishini bilmay turardi.

— Yakshi kirgiz, — dedi u rahmat aytgan bo‘lib. Abil biy ta’zim bilan:

— Oziqli ot horimas... — deb g‘ozni kumush lagani bilan darhol dasturxonga o‘rab polkovnikning charm qopchig‘iga soldi, to‘riq qashqaning egari qoshiga o‘zi bog‘lab qo‘ydi.

Polkovnik Mashin Abilga qarab:

— Yakshi kirgiz, — dedi bilgan gapini qaytarib.

Ular otlanishdi. Polkovnik Abil bilan xushchaqchaqlik bilan qo‘l olishib xayrlashdi. Abil uning qo‘lini qo‘yib yubormasdan:

— Og‘aynim abziy, — dedi tilmochga, — o‘zing to‘raga tushuntirib aytgin, menga biror narsa deb guvohnoma yozib bersin, o‘zing bilasan, bizning xalq o‘jarroq, har xil gap chiqishi mumkin, men ularga dalil ko‘rsatguday bo‘lay. Qolaversa, sizlardan keyin boshqa to‘ralar ham kelib qolishi mumkin. Ular qay tarzda kelib, qay tarzda ketishini bilib bo‘lmaydi. O‘sha guvohnomasi menga asqatib qolsa ajabmas...

Tilmoch ilonni yog‘ini yalagan biyga qoyil qolib, iltimosini tarjima qildi. Polkovnik Mashin cho‘ntagidan qog‘oz olib, ot ustida yoza boshladi: “Biz tog‘ oralab kelayotib, qora qirg‘izlar bilan uchrashdik, Biyi Ibn Qarash Abil bizni yaxshi kutib olib,

chinakam do‘stona muomalada bo‘ldi. Shuning uchun bu elning, uning biyini rus hukumatiga yomon fikrda emasligiga guvoh bo‘lish bilan birga, bizdan keyin keladigan ekspeditsiya a’zolarining bularga yaxshi munosabatda bo‘lishi zarurligini eslatamiz!” deb imzo chekib Abilga uzatdi. Abil egilib, xatni qo‘shqo‘llab oldi.

Otryad yo‘lida davom etdi. Abil esa rus ma’murlari kelgunga qadar bu xatdan xuddi podshodan olgan yorliq singari foydalandi, qora xalqni boshqarib turishga huquq bergan o‘sha “tabarruk” qog‘ozni anchagacha ko‘ziga surtib, tavof qilib yurdi...

TUG‘ILGAN YER

Hikoya

Javzo. Qoq tush mahali. Yolg‘iz o‘zim Oqsuv tarafdan kelayotibman. Atrofga boqib, ko‘z quvnaydi. Gir aylana o‘rkach-o‘rkach adirlar. Ming xil giyohlarning anvoyi gullari, o‘t-o‘lan shunaqa qalin o‘sganki, orasiga sichqon ham sig‘maydi. Har joyda bir ulkan yong‘oq, oqtol, qayin ko‘zga tashlanadi, huv olisda o‘tkir uchi pahlavonlarning nayzasiday bo‘lib qarag‘ay, archa daraxtlari ko‘kka sanchilib turadi. Mevali daraxtlar-ku, to‘lib yotibdi. Yo‘l ilang-bilang, birda pastlikka qarab enkaysa, birda o‘rlab ketadi. Otim ham xiyla horidi, orqa oyoqlarini sudrab siltaganida bir xilda shitir-shitir ovoz chiqarib, meni alahsitadi. Onda-sonda dumini silkitadi, bosh irg‘aydi, pishqiradi. Bo‘yni terlab ketdi, qarchig‘ayiga qarasam, eti quruq bo‘lsa-da, quyushqon oldi oq ko‘piklanib qolibdi.

Tevarakka ko‘z yugurtiraman, bulbul sayraydi, nolasiga quloq tutaman. Qanotlari tinimsiz pirillagan kapalaklar, tinimsiz g‘ing‘illagan asalarilar gullar uzra charx urishadi, qaysi birlari havoga ko‘tarilib, zuv etgancha, juda shoshilinch ishi borday ko‘zdan g‘oyib bo‘lib ketadi. Men ham zerikkanimdan dimog‘imda g‘ing‘illab xonish qilgan bo‘laman, engashib, otning yolini silayman, har xil o‘ylarga botaman.

Yura-yura, Burchuka yaylovining kunga terskay soyi o‘zaniga tushib oldim. Sharqirab oqqan tiniq suvi, suv bo‘yida o‘sib, osmonga quchoq ochgan tollar, qayrag‘ochlar, yong‘og‘-u qayinlar oralab o‘tib boraman. Ularning tagi ham bo‘liq o‘sgan o‘t-o‘lan bilan to‘la. Biroq yalpiz hidi barchasidan boshqacha anqiydi. Yovvoyi uzum qoplab turgan bir chuqur hovuzi bor ekan, yaxshilab cho‘milib, hordiq chiqarishni o‘ylab turgan edim hamki, chap tomonda itning hurgani eshitilib qoldi. Sal yurib qarasam, bir bo‘z o‘tov tikilgan ekan, yonida tol novdasini egib yasalgan bir kapa ham bor. O‘tov tevaragida bir to‘da uloq irg‘ishlab yuribdi.

Ikki qulochcha cho‘zilgan dorga kir yoyilgan. O‘tov bilan kapa o‘rtasidagi chog‘roq xontaxta ustiga qurut yoyib terilgan.

O‘sha tomonga qarab yurgan edim, meni ko‘ra solib, “E tavba, bu odamni o‘tkazib bo‘pman!” deganday bir qora baroq it hurib kela boshladi. O‘ziyam eshakday kelar ekan, vajohatidan, meni otpotim bilan ag‘darib tashlaguday. Men kuldim-da, o‘tovni ko‘zlab yura berdim. Biron kosa ayron ichib, birpas dam olib yo‘lga chiqsam ham bo‘ladi.

O‘tov tomondan bir ayolning sharpasi keldi. “Kim bo‘lsa ekan bu?” deganday serrayib birpas qarab turgach, mening yurib kelayotganimni ko‘rib, ichkaridagi kimgadir xabar bermoqchi bo‘lib, o‘tovga kirib ketdi. Men yo‘talib-chuchkurgan kishi bo‘lib, ovoz chiqarib otimga qamchi shiltab, tepinib, kapaga yaqinlashib qoldim. It unga sari avjiga chiqib, otni tumshug‘idan tishlab olguday bo‘lib sapchir, bo‘g‘iq hurar edi.

— Ket, qurib ketkur! — deya bo‘z o‘tov ichidan bir ovoz chiqdi, birpasdan keyin rangi zaxilgina bir qora xotin bo‘sag‘ada ko‘rindi.

— Hormanglar! — dedim men.

— Bor bo‘l!.. Kimning bolasisan?

— Men edim... — dedim xijolat bo‘lib, biroq kampirdan ko‘zimni uzmadim. Ayol tashqariga chiqdi.

— Hoy, ket! Hu, tovushing o‘chsin! — deb, itiga po‘pisa qilib, uni nariga quvib yubordi. So‘ng ichiga botgan ko‘zlarini yana menga tikdi:

— Kimning bolasiman deding?

Men tanidim. Bizning ovulda Ma’murboy degan bir kishi bo‘lar edi. O‘sha odamning kampiri.

— Seydi ena, meni tanimayapsizmi? — dedim kulgan bo‘lib. — Men Tilaganman-ku?

Kampir uyoq-buyoqqa alangladi, shunda men uning burishgan yuzlari, chuqur botgan ko‘zlariga qandaydir bir iliqlik inganini payqadim.

— Voy tavba, qarilik-da, — deb koyindi-da, otning jilovidan tutdi: — Senmiding, bolam?

Men otdan tushib, Seydi ena bilan so‘rashib tursam, ichkaridan tarashaday oriq bir kampir chiqib keldi. Menga tikilib qarab, sa-

lomimga lablarini qimirlatgan bo‘lib alik olib, bosh irg‘adi. Yoshi xiylaga borib qolgan bo‘lsa-da, hali tetik. Beliga qo‘zi terisidan bo‘lgan po‘stakni tang‘ib olgan. Bu kampir — Seydi xolaning onasi. Shu orada bo‘z uyning ortida o‘ynab yurgan o‘n-o‘n bir yoshlar chamali bir bola irg‘ishlab yetib keldi.

— I-i! — dedi u menga ko‘zi tushgan zahoti va qulochini keng ochib kelib meni quchoqlab oldi. — I-i, Tilagan akam!..

Men uni qo‘ltig‘idan ko‘targan bo‘lib yuzidan o‘pib erkalatdim:

— Sottibek!.. Katta yigit bo‘lib yuribsanmi? — deb, peshonasini siladim.

— Uni qaranglar, jigari-da! — dedi tarashaday oriq kampir bosh chayqab. — Otasi tirilib kelganday suyunadi-ya!

Seydi kampir nevarasining quvonganini ko‘rib, nimagadir to‘msarib tikilib qoldi, chuqur botgan ko‘zlarida yosh yiltiraganday bo‘ldi. Ikkita po‘stakni sudrab kelib, tutning soyasiga joy to‘shadi.

— O‘tir, aylanayin, — dedi meni siylab.

Qarasam, kapaning ichi ham, bo‘z uyning ichi ham bo‘sh emas, ichkaridan xuddi bir qo‘ra uloq o‘t kirtillatayotganday shitirlagan ovoz chiqyapti. Ipak qurti ekan. Tut bargini kemirayotgan qurtlar to‘lishib-to‘lishib qopti, ba’zilari barg ham yemay, boshini osmonga ko‘targanicha chayqaltiradi — pilla o‘rashga kelib qolganday. Qandaydir bir og‘ir hid o‘rnashib qolganday.

Sottiqul bir tizzamga tiralib o‘tirdi-da, munchoqday ko‘zlarini menga tikib, hali uni, hali buni so‘rab bijirlashga tushdi:

— Tilagan aka, qayerdan kelyapsiz?

— Qoraqo‘ngaydan. Men o‘sha yerda muallimlik qilaman.

— Ha-a, — dedi Sottiqul ajablanib. — Endi qayoqqa borasiz?

— O‘zimizning ovulga, Sottibek. Oqyo‘lga boraman. Undan keyin, rayonda ham ishlarim bor.

Sottiqul yerdan bir chiviqni olib, ikki qo‘llab tutganicha, bir uchini tishlab, yerga qarab termulib qoldi. O‘ychan o‘tirardi. Shu mahal Seydi ona katta kosa to‘la qatiq olib keldi. Pishiqchilikning avvali, deb yassi bir laganga oppoq marvarid tutlardan solib dasturxonga qo‘ydi. Men muzdekkina qatiqni ho‘plab-ho‘plab simirib, Sottiqulga uzatdim:

— Ma, Sottibek, qatiq ich!

Bola qatiqqa qarab ham qo'ymadi. Yamalgan, oftobda ko'p kiyilganidan rangi uniqib ketgan, tut shirasi yuqqan ko'ylagi etagini tutamlab:

— Menam boraman!.. — deb bidirladi.

— Qayoqqa borasan, sen? — deya buvisi uni jerkidi. — Gapni uqmay, nimalar deb dovdiraydi bu?

— Oqyo'lga... — dedi Sottiqul. Keksa buvisi uning dilidagilarni uqib:

— E, qo'y! — dedi ovozini ko'tarib. — Yo'lovchiga ergashib keta beradigan yurumsak bo'lma! Sen ketib qolsang, bu yerda onang nima qiladi. Undan ko'ra, bidirlamay, amaking bergan qatiqni olib ich!

Sottiqul bo'ynini bir tomonga qiyshaytirib, qult etib yutindi;

— Ichmayman...

— Amaking ich, deb uzatdi-ku, ol, o'g'lim, ichib qo'y!..

Sottiqul xohlamasa ham, allanechuk botirsinib, qatiqni xo'rillatib ichib qo'ydi.

— Ana, barakalla, o'g'lim...

Bo'shagan kosaning chetlarini barmog'i bilan sidirib, yalab qo'ydi-da, Seydi ena:

— Onang yaxshi yuribdimi? — deb so'rab qo'ydi mendan. — Hm... tutdan olib o'tir.

— Onam Oqyo'lda. Yaxshi. Uch oydan beri o'zim ham borolganim yo'q.

— E, ha-a, boya Qorako'ngday yoqdan kelyapman deding-a!..

Ayili bo'shatilib, quyushqoni chiqarilib katta yong'oqning soyasida bog'liq turgan otim xiyla teri qotdi. Biz uyoq-buyoqdan gaplashib, ancha o'tirdik. Seydi ena Oqyo'l ovulidan chiqib bu yoqlarga kelib qolganiga uch yillar bo'lib qoldi. Buning sababi, Ma'murboy ota o'lganidan keyin mana shu Oqsuvdagi qarindoshi To'qonalini qora tortib kelib qolgandi. Hozir mana shu tutzor yoqasidagi uyda qurt boqib o'tirishgan mahali.

Men otlanmoqchi bo'ldim. Sottiqul etagimga yopishib oldi: — Men ham ketaman!..

— Voy, qayoqqa ketasan sen! — deb qichqirdi oriq buvisi. — Uying shu yerda bo‘lsa... Borib, yurtingdagi tosh o‘choqni qo‘rib o‘tirasanmi?

— Qo‘y, jonim bolam!.. — dedi onasi ham.

Men bolaning peshonasini silab, alaxsitishga urindim:

— Sottiqul, kap-katta yigit bo‘lib qolibsan. Oqyo‘lga keyinroq o‘zing borarsan. Onang bormagin desa-yu, sen keta bersang, xafa bo‘ladi! — dedim. Biroq Sottiqulning ko‘nadigan avzoyi yo‘q, ho‘ngrab yubordi:

— Borgim kelyapti-i-i... Ii-y...

— E qo‘y, qo‘y degan gapni qulog‘ingga ol! — deya buvisi unga o‘dag‘aylab, qo‘lini ushladi. — Hoy, esi yo‘q!..

Men otni yechdim, Sottiqul esa menga mahkam yopishib oldi. Onasi negadir tovush chiqarmay qarab turardi.

Buvisi hech ko‘nmay, bolani u yoqqa tortadi, Sottiqul esa yulqinib, bo‘sh qo‘lining mushtumi bilan ko‘zining yoshini ishqalab, jon-jahdi bilan menga intiladi. Nima qilishni bilmay, o‘rtada qoldim. “Qo‘y, menga ilashma, men seni olib ketmayman!” deb, bir amallab undan qutulsammi, yoki “jiyan el bo‘lmaydi, kamzul to‘n bo‘lmaydi, siz bolaning shashtini qaytarmang!” deb keksa ayolning hafsalasini pir qilsammi?..

Bir qarorga kela olmadim. Shunday qilib, qo‘ldan chiqishga urinib tipirchilayotgan Sottiqul bir mahal buvisining qo‘lini tishlab oldi.

— Voy-voy, hah, qurib ketkur!.. — Kampir qo‘lini qo‘yib yuborib, bolaning boshiga tarsaki urdi. — Tish ham shunaqa o‘tkir bo‘ladimi?!

Onasi kelib etagidan tutay deganda Sottiqul shilt etib qo‘ldan chiqdi-da, ho‘ngrab yig‘lagan ko‘yi pildirab yugurib to‘ppa-to‘g‘ri men ketadigan yo‘l ustiga chiqib bordi.

— Men boraman... bora-a-man!.. — Nariroqqa yana qochib borib, “endi yurmaysizmi” deganday, meni ko‘zlab to‘xtab turdi. Ih-hi... ih-hi-i...

— Hoy bola, buyoqqa kel! Hah shumtaka, til uqmas-a! — deya buvisi tishlangan qo‘liga bir qarab qo‘yib, Sottiqul tomon qadam bosdi. — Bo‘lmaydi shekilli, bu qurib ketkur... Yalangoyoq, yalangbosh ahvolda...

Seydi ena ham o‘sha tomonga yurdi:

— Beri kel, bolam, buyoqqa kel, — deb ovoz berdi u. — Ertaga ikkovimiz boramiz!..

Otga shartta minib yo‘lga chiqishga ko‘nglim bo‘lmadi. Yo bu o‘jar bolani qoldirish kerak, yo bo‘lmasa, onasini ko‘ndirib, uni olib ketish kerak edi. Indamay jo‘navorsam, bola oldimga tushib yugurgilab keta berishi tayin. Bir amallab bolani onasining qo‘liga tutqazib, bo‘ynimdagi bu yukdan qutulmoqchi bo‘ldim:

— Sottibek, kel, ukajon! Otga mingash, bu yoqqa kel! — deb aldadim. Ammo Sottiqul o‘chakishib, yana nariroqqa yurdi. Nima qilsak ekan?

— Uch yildan beri bir qayrilib ko‘rib ketmaydi-ya... — deb g‘udrandi kampir. — Boyaqish bola, Oqyo‘l desa o‘pkasi ko‘rinadi. Oqyo‘lliklardan birov-yarim duch kelib qolsa, o‘zida yo‘q quvonib ketadi. Otasi tirilib kelganday bo‘ladi-qoladi.

— Voy, sadag‘ang bo‘layin, bolam-a! — deb Seydi ena piqillab yig‘lab yubordi. — Ota qo‘shnilari, qarindosh-urug‘larini sog‘inib... Mayli endi, borsang bor. Kel, kiyimlaringni kiy!..

— Ho-o, aldab ushlab olasizlar!..

— Aldamayman, sadag‘ang bo‘layin, aldamayman. Borsang borib kelarsan, amakingning otiga mingash!..

— Yayov ketaveraman!.. — dedi Sottiqul o‘jarlik bilan. Kamzulimni berib yubor!

— Rostan ham jo‘nataverasizlarmi? — deb so‘radim men. — Qaytaga, shunday qilganingiz ma’qul. Sog‘inchini bosib keladi-da.

— Nimayam qilardik? To‘palonini ko‘rib turibsan-ku...

Men Sottiqulga qarab qo‘l silkitdim:

— Sottibek, kel endi. Tezroq kiyin, ketamiz!

Biroq Sottiqul olayib qarab qo‘ydi-da, yaqinlashish tugul, yana nariroqqa ketdi:

– Bor-may-man!..

Chorasi qolmagan Seydi ena uning kamzulini, qalpog‘ini, ko‘pdan beri kiyilmaganligidan g‘ijimlanib qolgan charmdan qilingan poshnali etigini menga tutqazdi. O‘zi ham bir so‘zini ikkinchisiga ulab bidirlab gapiradigan ayol edi, bu yorug‘ dunyoda topgan nuridiydasini menga omonat tayinladi:

— Aylanay, inim, — dedi menga. — Oborib qo‘y... Qarindosh-urug‘larining diydoriga to‘ysin, sog‘inchi bosilsin. Sadag‘ang bo‘layin, bolaning yaqinlaridan biriga o‘zing tayinlab aytib qo‘y, bolaning qorni och qolmasin, issiq o‘tib ketmasin!.. Keyin... sadag‘ang bo‘layin, Tilaganboy, o‘zing bu yoqqa qaytar mahaling mingashtirib olib kelib tashlab ket!.. Sottijon, jon bolam, bo‘ptimi, amaking bilan qaytib kel!.. Sottijo-on!..

* * *

Erinchoq to‘riq otim birpas dam olgani uchun xiyla tetiklanib, o‘z-o‘zidan yo‘rg‘alab, chaqqon yura boshladi. Onda-sonda ship etib qamchi urib qo‘yganimni demasa, men ham uning yurishini jadallatmay, o‘z holiga qo‘ydim. Otquloq yulib, sag‘risi ustiga yoydim-da, ko‘rpachamning bir uchini uning ustiga to‘shab, Sottiqulni mingashtirib oldim. U belbog‘imni qo‘shqo‘llab ushlab kelyapti. Indamaydi. Ana Qorasuvning liqillab turgan ko‘prigiga ham yetdik. “Mudrab qolmadimikin bola...” deb o‘ylayman. Axir, otim qo‘qqisdan cho‘chib sakrasa, yoki toshga qoqilsa, bola tap etib yerga yiqilishi mumkin-da. Shuning uchun, ortimga burilib qarab:

— Sottibek, uxlab qolganing yo‘qmi? — deb so‘radim.

— Yo‘q... — dedi u. — Uxlaganim yo‘q, Tilagan aka!..

Lopillab turgan ko‘prikdan o‘tib o‘ngga burildik-da soy yoqalab ketdik. Qorasuv pishqirib oqib yotibdi. Daryoning janubiy tomoni qalin to‘qay, shimol yog‘i esa shig‘a toshloq. Salqin, negaki, hammayoq daraxtlar ko‘lankasi, qolaversa, suvning shabadasi bor.

Daryo qayrilgan joyda kichkina hamrohim bilan otdan tushdik. Kun peshinga yaqinlashib, ola ko‘lanka kamayib qolgan. Ot ayilini bo‘shatib, suvlug‘ini chiqarib, qulf urib o‘sgan o‘tga qo‘ydik. Chilvirini har ehtimolga qarshi Sottiqul ushlab olgan.

Bu joy tog‘ deb aytilmagani bilan, xiyla baland dovon. Boshqa yerlarga qaraganda sirti yoyiqroq. Tepasiga chiqsangiz, Uchqurt, Molqoldi, Oqyo‘l ovullari yaqqol ko‘rinib turadi.

— Vo-oy... Oqyo‘l... Qarang, Tilagan aka, Oqyo‘l!.. — Sottiqul quvonib, men u joylarni endi ko‘rib turganimdek, qo‘li bilan uzoqlarni ko‘rsatib bidirlay boshladi — Ho‘ ana, vo-oy, bizning

uy!.. Mingboy og‘amning uyi... Nurqullarning uyi... Iya, hali ham bor ekan-ku!.. Tilagan aka, biz-chi... Nurqul ikkovimiz hu anov yerda o‘ynab yurar edik, dumbul pishirib yerdik!..

— Nurqul... hozir ham yurgandir, — deb qo‘ydim men. — Ammo makka chopiqqa endi kirdi-ku. Dumbul yo‘q.

— Bilaman, — dedi Sottiqul. — Biz Nurqul ikkovimiz yozda soyga qarmoq solardik. Vu-uy, o‘shanda-chi, Tilagan aka, rosa katta, kattako-on baliq tutganmiz. Keyin tush mahali o‘zimiz ham baliqday suzib o‘ynaganmiz, vo-oy, o‘shanda juda mazza bo‘lgan edi-da!..

Qator qilib ekilgan mevali daraxtlar, bo‘yida oq tol bilan mirzateraklar qulf urib o‘sgan, qirg‘og‘ida qamishlar dirillab turgan ariq, oralari o‘qariq bilan chegaralangan chorbog‘lar, undan nariga ilang-bilang bo‘lib ketgan yo‘llar, tomiga qamish bosilgan oppoq uylar yuragida sog‘inchi toshgan bolaning ko‘zlariga o‘z onasining bag‘riday mehribon tuyilar edi.

Sottiqulning yuzi bulut o‘tib, quyosh chiqqan dala kabi yorishib ketdi, yuzlari yashnab, pirpiragan ko‘zlarida quvonch balqir edi. Bo‘ynini cho‘zib, Oqyo‘l ovulidagi har bir daraxt-u toshga to‘ymay tikilar, agar taqdir bo‘lib, unga qanot bitsa tug‘ilgan ovuli ustida yuz marta, ming marta charx urib uchguday, o‘shanda ham sog‘inchi bosilmaguday edi!..

Dilim allanechuk bo‘lib, sekin so‘rab qo‘ydim:

— Ha, Sottibek, ovulingni sog‘indingmi?

Bola hali ham Oqyo‘l tarafdan ko‘zini uzmay, bosh irg‘adi:

— Ha-a...

— Sottibek, boyagi uyinglarda qiyinchilikmidi, oziq-ovqat ozmidi?

— Yo‘-o‘q, yaxshiydi. Keyin-chi, onamni Oqyo‘limizga ketaylik, desam unamaydi. Kuzroqda, deydi... yuraveradi... Men rosa yig‘lardim. O‘shanda-chi... Tilagan aka... o‘shanda men mana bunday deb qo‘shiq aytardim. Aytib beraymi?

— Qani, ayt-chi, Sottibek!..

Adirda o‘sgan tikanman,
Arg‘umoq minarmikanman,
Arg‘umoqni egarlab, o-o,
Ovulimga ketarmikanman?

Tepada o‘sgan tikanman,
To‘riq minarmikanman.
To‘riq otni egarlab, o-o,
Tuqqan yerimga yetarmikanman.

Yuragim titrab ketdi. Bolani dast ko‘tarib, peshonasidan o‘pib-o‘pib yubordim!.. Bu norasida bolaning yuragida shuncha g‘am-g‘ussa! Birga o‘ynab o‘sgan o‘rtoqlarini, qarindosh-urug‘, yaqinlarini sog‘inib-o‘rtanib eslaydi, kindik qoni tomgan, birinchi marta oyoq chiqarib yurgan ota uyini uchib-qo‘nib qo‘msaydi... Hozircha bijirlabgina turgan bu go‘dak, vaqti kelib, bir ovuli emas, jami el-yurti uchun jonini fido qiladigan, ajalga ham qo‘rqmay tik boqadigan bir azamat o‘g‘lon bo‘lib voyaga yetsa — ne ajab!

Birpasdan keyin charchagan to‘rig‘imizni niqtay-niqtay, odamlarigina emas, har bir dov-daraxt, oqqan suvlar bo‘yidagi katta-kichik toshlari-yu qamishlar boshini dirillatib esayotgan shabadasidan tortib, kechki mahal tomlar ustida yoqimli bo‘lib taraladigan tutunlariga qadar dardimizga davo bo‘lgan o‘zimizning Oqyo‘l ovulimizga kirib bordik.

MUNDARIJA

To‘lagan Qosimbekov ijodi haqida *(Zuhriddin Isomiddinov)* 3

Singan qilich *(tarixiy roman). Tursunboy Adashboyev tarjimasi* ... 8

Birinchi qism 8

Ikkinchi qism 41

Uchinchi qism 129

To‘rtinchi qism 217

Beshinchi qism 286

Oltinchi qism 362

Tug‘ilgan yer *(hikoya). Zuhriddin Isomiddinov tarjimasi* 391

T 96 To‘lagan Qosimbekov [Matn]: nasr/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Zuhriddin Isomiddinov. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 400 b.
ISBN 978-9943-8571-3-1

UO‘K 821.512.154-3
KBK 84(5Qir)

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

TO‘LAGAN QOSIMBEKOV

86-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Odil Ikromov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Sharofat Xurramova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 25,0. Nashriyot-hisob tabog‘i 23,59
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 151-1/22 Buyurtma raqami № 22-369

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining “O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.